MA'NAVIYAT VA DAVLAT TILINI
RIVOJLANTIRISH MASALALARI DEPARTAMENTI

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

respublika ikkinchi ilmiy-amaliy anjumani materiallari

MA'NAVIYAT VA DAVLAT TILINI
RIVOJLANTIRISH MASALALARI DEPARTAMENTI

"DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR"

mavzusidagi respublika ikkinchi ilmiy-amaliy anjumani materiallari

Toshkent – 2022

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar. // Respublika ikkinchi ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent, 2022. – 248 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi respublika ikkinchi ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari, tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar tadqiqotchilar, magistrlar va talabalarga mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, professor

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent
A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi
O.Jamoldinova, pedagogika fanlari doktori, professor
B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor
M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor
F.Bobojonov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent
M.Saparniyozova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent
M.Hakimova, filologiya fanlari doktori
M.Umirzoqova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent
N.Ahmedova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent
H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
S.Ahmedov, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Mazkur to‘plam Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi bilan hamkorlikda nashr qilindi.

SO‘ZBOSHI

Turkiy tillarning katta oilasiga mansub bo‘lgan o‘zbek tilining tarixi xalqimizning ko‘p asrlik kechmishi, uning orzu-intilishlari, dard-u armonlari, zafarlari va g‘alabalari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Tarixga nazar tashlasak, ona tilimiz yuksak e’tiborga erishgan, aksincha, tanazzul yoqasiga tushib qolgan davrlar bo‘lgan. Tilimizning eng gullagan davri sifatida ikkinchi Renessans davri – XV asrga to‘g‘ri keladi. Albatta, bunda ulug‘ bobokalonimiz Alisher Navoiyning xizmatlari beqiyos. Hazrat Navoiyni yodga olganimizda, albatta buyuk davlat arbobi Husayn Boyqaroning xizmatlarini ham e’tirof etish lozim. Zero, arab va fors tillari rasmiy, hukmron til bo‘lib, Navoiy ta’biri bilan aytganda, “turkiy til”ga e’tibor berilmas, u kamsitilar edi. Ana shunday bir davrda Husayn Boyqaro maxsus farmon bilan o‘zbek tilini davlat tili darajasiga ko‘taradiki, bu juda katta siyosiy, madaniy va ijtimoiy ahamiyatga molik edi.

Jadid bobolarimizdan Abdurauf Fitrat: “Navoiy davrida bir yuksaklikka chiqqan ona tilimiz Qo‘qon xoni Umarxon davrida bir yondi-yu, yana o‘chdi”, – deya alam bilan yozganida naqadar haq edi.

Tilga ta’rif berilganda, “millat ruhi”, “millat pasporti” kabi tashbehlar qo‘llaniladi. Bu o‘xshatishlarda jon bor, albatta, chunki til bor ekan, o‘sha millat yashaydi, til yo‘qolsa, millat ham tanazzulga yuz tutadi. Bunga tarixdan ko‘p misollar keltirish mumkin. Shu sababli har bir davlat o‘z tilini himoya qilishga, uni rivojlantirishga, nufuzini tinimsiz oshirib borishga, xorijda targ‘ib qilishga harakat qiladi. Mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy elchixonalar qoshidagi til va madaniyat markazlari shunday vazifalarni amalga oshirmoqda.

Yangi O‘zbekiston, yangi Renessans poydevori barpo etilayotgan hozirgi davrda ona tilimizning davlat tili sifatidagi martabasi kundan kun ortib bormoqda. O‘zbek tili tom ma’noda o‘z nufuzi va mavqeyiga ega bo‘lmoqda. So‘nggi uch yil ichida 20 ga yaqin normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi ham tilimizga bo‘lgan e’tiborning yorqin namunasi deb aytish mumkin. Davlat tiliga bo‘lgan doimiy e’tibor va g‘amxo‘rlik mamlakatimizda bundan buyon ham izchil davom ettiriladi. Chunki, necha asrlar osha ajdodlarimizdan bezavol o‘tib kelayotgan ona tilimizning ravnaqi va istiqboli haqida qayg‘urish bu millatning o‘zligini anglashi, uning ma’naviy kamolotini yuksaltirish uchun kurash demakdir. Davlat tilining obro‘-e’tibori – butun xalq, butun jamiyatning obro‘-e’tiboridir.

Ma’naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamenti tomonidan shu qisqa vaqt ichida jiddiy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, hozirgi kunga qadar respublika bo‘yicha o‘rnatilgan tashqi yozuvlarni (peshlavha, reklama, e’lon va axborot matnlari) imlo xatolarsiz, davlat tili qoida va talablariga muvofiq yozilishini ta’minlash bo‘yicha o‘tkazilgan monitoring natijasida 28 710 ta tashqi yozuvlarning 18 154 tasi xorijiy tilda, 10 556 tasi xato bilan yozilganligi aniqlandi. Hokimlarning ma’naviyat va davlat tili masalalari bo‘yicha maslahatchilar tomonidan olib borilgan tushuntirish va targ‘ibot ishlari natijasida 21 145 ta (73,7 foizi) xususan, xorijiy tilda yozilgan 13 222 ta, xato bilan yozilgan 7 923 ta tashqi yozuvlarni o‘zgartirishga erishildi.

Shu bilan bir qatorda, O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi tomonidan o‘zbek tilini rivojlantirish loyihalariga grantlar ajratildi. O‘zbek tilini o‘qitish bo‘yicha kitoblar, qo‘llanmalar, lug‘atlar chiqarishni moliyaviy qo‘llab-quvvatlagan holda 20 turdagi kitoblar chop etildi.

Shuningdek, 21-oktabr – O‘zbek tili bayrami kuni munosabati bilan tayyorlangan o‘zbek tilini ulug‘lovchi targ‘ibot bannerlari belgilangan tartibda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarning markaziy ko‘chalardagi pannolar uchun mablag‘lar ajratildi.

O‘zbek tilining xalqaro mavqeyini mustahkamlash maqsadida davlat tilidagi materiallarni xorijda istiqomat qiluvchi vatandoshlarga va xorijiy mamlakatlardagi o‘zbek tilini o‘rgatish markazlariga yetkazishga ko‘maklashish yo‘nalishi uchun 56 ta diplomatik vakolatxona, 49 ta konsullik muassasalariga 267 ta 5 jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” to‘plami tarqatildi. “O‘zbek tili. Xorijliklar uchun” darsligi Qohira universitetiga, Latviyaning Vantaa shahridagi “Kytöpuiston koulu” va “Lehtikuusen koulu” o‘rta maktablariga, Finlandiyadagi o‘zbek vatandoshlari farzandlariga, Volgabo‘yi federal okrugidagi o‘zbek diasporal tashkilotlariga hamda Rossiya IIV xorijiy fuqarolarni vaqtinchalik saqlash Markazlariga berildi.

“Qadring baland bo‘lsin, ona tilim” Respublika tanlovi hamda oliy ta’lim muassasalarida shoir va yozuvchilar hayoti hamda ijodini chuqur o‘rganishni samarali tashkil etish maqsadida joriy etilgan “Ilhom” mukofoti Respublika tanlovi, shuningdek, o‘zbek tilini rivojlantirishga qaratilgan eng yaxshi ilmiy-amaliy loyiha tanlovlarini o‘tkazishda hamda aholining yozma va og‘zaki savodxonligini oshirish, o‘zbek adabiy tili me’yorlari, o‘zbek tilining tuzilishi bo‘yicha amaliy bilimlari, ko‘nikma va mahoratini tizimli asosda oshirib borishda jamg‘arma mablag‘lari ajratilib kelinmoqda.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti davlat tilini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish bo‘yicha tayanch oliy o‘quv yurti sifatida samarali faoliyat olib bormoqda. Xususan, “Amaliy filologiya”, “Kompyuter lingvistikasi” kabi yangi yo‘nalishlar ochilib, o‘zbek tilini sohalarda qo‘llanilishi, kompyuter tiliga aylantirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Universitet huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazida 6 ta o‘quv kurslari yo‘nalishlari bo‘yicha dars mashg‘ulotlari yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, markaz va uning hududiy bo‘linmalarida davlat organlari va tashkilotlarining 10066 nafar, keng aholi qatlamining 281 nafar, o‘zga millat vakillarining 235 nafar, xorijlik fuqarolarning 66 nafar tinglovchilari ushbu kurslarni muvaffaqiyatli yakunladi. Fuqaroligi bo‘lmagan shaxslardan davlat tilini bilish darajasini aniqlash bo‘yicha imtihonlar tashkil qilinib, imtihondan muvaffaqiyatli o‘tgan 817 nafar shaxsga davlat namunasidagi sertifikat berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish obyektlariga nom berishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 16-martdagi 144-son qaroriga asosan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tili asoslarini o‘qitish va malaka oshirish Markazi va uning hududiy bo‘linmalarida “Nomlash xizmati” tashkil qilindi. Murojaat qilgan tadbirkorlik subyektlariga firma, korxona, umumiy

ovqatlanish, savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlariga hamda mahsulotlariga davlat tilida nom yaratib berilmoqda.

Davlat tili qoida va me’yorlariga muvofiq keladigan, milliy qadriyatlarga mos hamda obyektlarga qo‘yish tavsiya etiladigan nomlar zaxirasini onlayn rejimda shakllantirish hamda uni doimiy yangilab borish maqsadida 80 000 dan ortiq nomlar zaxirasi yaratildi. Markazning 13 ta filialida ham o‘zi joylashgan hududning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda nomlar zaxirasi yaratilgan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida tadbirkorlik subyektlari, tilshunoslik va marketologiya sohalari, iqtisodiyot tarmoqlari uchun “Xizmat ko‘rsatish obyektlari milliy nomlari interaktiv elektron platformasi” axborot tizimi ishlab chiqilgan. Axborot tizimining qisqartirilgan nomi “Milliy nomlar interaktiv elektron platformasi” deb belgilangan.

Markaz tomonidan jamiyatda savodxonlik darajasini oshirish, vazirlik, idoralar, mahalliy hokimiyatlar va keng xalq ommasi o‘rtasida ommaviy diktantlarni tashkil etish maqsadida “TilBilig.uz” elektron platformasi yaratildi.

Shu bilan birga, o‘zbek tilini zamon talablari asosida rivojlantirish, uning davlat tili sifatidagi o‘rni va nufuzini yanada mustahkamlash borasida oldimizda juda katta va mas’uliyatli vazifalar turibdi.

Ta’limning barcha bosqichlarida davlat tili o‘qitilishi hamda o‘zbek tili va adabiyotini yanada rivojlantirish borasidagi ilmiy, ilmiy-amaliy izlanishlar ko‘lamini kengaytirishimiz zarur.

Davlat tilining xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzini oshirish maqsadida xorijiy hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirishimiz zarur.

Hozirgi kunda mamlakatimizda yashayotgan turli millat vakillaridan va xorijiy davlatlardan o‘zbek tilini o‘rganishga katta qiziqish va istak bildirilayotganini e’tiborga olib, maxsus darslik, lug‘at va qo‘llanmalar, video va audiomateriallar, zamonaviy o‘qitish uslublarini keng joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi globallashuv jarayonida chetdan so‘z qabul qilish ko‘lami va sur’ati ortib bormoqda. Shuni e’tiborga olgan holda Atamalar komissiyasi faoliyatini yanada jonlantirish choralarini ko‘rishimiz lozim.

O‘zbek tiliga oid barcha ilmiy, nazariy va amaliy ma’lumotlarni o‘zida jamlagan o‘zbek tili milliy korpusini yaratish ishlarini tezlatirishimiz kerak.

O‘zbek tilini Internet jahon axborot tarmog‘ida ommalashtirish, unda munosib o‘rin egallashini ta’minlash, dasturiy mahsulotlarning o‘zbekcha ilovalarini yaratish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni yanada jonlantirishimiz darkor.

Ma’rifatparvar bobomiz Alixonto‘ra Sog‘uniy quyidagi gaplari inkor qilib bo‘lmas haqiqatdir: “Arabcha, forsiychalarni yozish-so‘zlashgina emas, balki, bu ikki tilda kitob yozish, she’r aytish qobiliyati menda bo‘lsa ham, o‘z turkiy ona tilimni boshqa tillardan ortiqroq ko‘rdim. Chunki, qaysi bir millatning ona tili o‘z hojatini o‘tayolmay, boshqa yot tillar oldida mag‘lubiyatga uchrab tiz bukar ekan, unday millat ko‘p uzoqlamay, insoniy tuyg‘ularidan ajragan holda hayot daftari ustiga inqiroz qalami chekilishi shubhasizdir. Unday millatlar yolg‘izgina Vatanlaridan emas, balki butun borlig‘i bilan tarix yuzidan yo‘qolishga majbur bo‘ladi”.

Ona tilimizni avaylab-asrash, unga hurmatda bo‘lish har bir vatandoshimizning fuqarolik burchi bo‘lishi kerak.

Hurmatli yurtboshimizning quyidagi so‘zlari har bir rahbarning kundalik shioriga aylanishi kerak: “Muxtasar aytganda, har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e’tiborni mustaqillikka bo‘lgan e’tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozim.

Bu olijanob harakatni barchamiz o‘zimizdan, o‘z oilamiz va jamoamizdan boshlashimiz, ona tilimizga, urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimiz kerak”.

An’anaviy ravishda tashkil qilib kelinayotgan **“Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar”** mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani va ilmiy maqolalar to‘plamidan yuqorida keltirilgan tilimiz taraqqiyoti, nufuzi, mavqeyini rivojlantirishga qaratilgan masalalar tahlili, muammolar va uning amaliy yechimlariga qaratilgan ma’ruzalar, ilmiy maqolalar o‘rin olganligi bilan ahamiyatga molikdir.

S.Shukurov, Vazirlar Mahkamasining Ma’naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamenti mudiri

1-SHO‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGINING NAZARIY MASALALARI

OILAVIY NUTQIY ETIKET TADQIQINING DOLZARB MASALALARI

Muminov Sidiqjon,
filologiya fanlari doktori, professor,
Farg‘ona davlat universiteti
siddiqjon.mominov@bk.ru

Annotatsiya. Maqolada oilaviy nutqiy etiket mavzusining dolzarbligi, bu mavzuda amalga oshirilgan ishlar, farzandlar va ota-onalar o‘rtasidagi eng muhim nutqiy etiketlar va tilshunoslar oldida turgan galdagi muhim masalalar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: oila, jamiyat, nutqiy etiket, ota-ona, farzand, yutuqlar, vazifalar.

OILA ([a. bola-chaqa, xonadon, urug‘, avlod] 1.Er-xotin, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tug‘ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui; xonadon [9, 97] – er-xotin ittifoqiga, qarindoshlik aloqalariga, umumiy xo‘jalik yuritadigan er va xotin, ota-ona va bolalar, aka-uka va opa-singillar, bobo-buvilar va boshqa qarindoshlar o‘rtasidagi munosabatlarga asoslangan kichik ijtimoiy guruh, jamiyatning asosi, davlat qudratining manbai [3, 451.]

Oila “jamiyatning asosi, davlat qudratining manbai” ekanligi “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi”ning XIV bob 63- moddasida aniq ko‘rsatib qo‘yilgan: “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega” [8, 12.]

Aynan shuning uchun ham mustaqilik davrida oila institutini jamiyatning boshqa muhim ijtimoiy tuzilmalari, yurtimizdagi ma’naviy o‘zgarishlar bilan uyg‘un holda rivojlantirish, uning nufuzini oshirish masalasiga davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishi sifatida doimiy e’tibor berib kelinmoqda.

Ma’lumki, 1996-yildan yurtimizda har qaysi yilga aniq bir nom berib, shu asosda maxsus davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish yaxshi an’anaga aylanib qoldi. 1998-yilni “Oila yili” deb e’lon qilinganligining o‘ziyoq mamlakatimizda davlatning eng muhim tayanchiga ne chog‘li katta e’tibor berilayotganligini ko‘rsatadi.

Xo‘sh, oila shu qadar muqaddas, shu qadar e’tiborga molik ekan, uni mustahkamlash, yanada takomillashtirish uchun nimalar qilishimiz kerak? degan tabiiy savol tug‘iladi, albatta.

Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” nomli asarida yangi O‘zbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish-istak emas, subyektiv hodisa ham emas, balki tub tarixi asoslarga ega bo‘lgan, mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy vaziyatning o‘zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy orzu-intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to‘la javob beradigan obyektiv zarurat ekanligini ta’kidlaydi.

Mazkur asarda yaqin yillarda mamlakatimizda yangi ma’naviy makonni va xalqimizning yangi tafakkurini shakllantirish bo‘yicha ishlar samarasini yuksak darajaga ko‘tarish uchun aniq vazifalarni belgilab berilar ekan, “oilaviy qadriyatlarga bepisand va

yoshlar tarbiyasiga mas’uliyatsiz qarash kabi illatlarga barham berishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish” [2, 271] ga alohida e’tibor qaratiladi.

O‘zbek xalqi azaldan o‘zining bolajonliligi, oilaparvarligi bilan ajralib turadi. “Albatta, farzandga mehr qo‘yish, ularning qornini to‘q, ustini but qilish o‘z yo‘li bilan, lekin bolalarimizni yoshlik chog‘idan boshlab milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak ma’naviyat asosida voyaga yetkazish biz uchun doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Bu masalaga e’tibor bermaslik nafaqat ayrim ota-onalar, balki butun jamiyat uchun juda qimmatga tushishini ham ko‘pgina hayotiy misollarda ko‘rish mumkin...” [1, 56-57.]

Shuning uchun ham mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” nomli asarida bu dolzarb masalaga qayta-qayta murojaat qilib, quyidagilarni alohida ta’kidlagan: “Oilaviy tarbiya masalasida xatoga yo‘l qo‘ymaslik uchun avvalo har qaysi xonadondagi ma’naviy iqlimni o‘zaro hurmat, axloq-odob, insoniy munosabatlar asosiga qurish ayni muddao bo‘lur edi. Bu haqda gapirganda, men mumtoz yozuvchimiz Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” asari qahramonlarining o‘zaro muomala va muloqotlari, ularning hatto kichik farozandlarini ham “siz”lab gapirishi misolida ota-bobolarimizning oila ma’naviyatiga qanchalik katta berganiga ishonch hosil qilaman...” [1, 55.]

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘lmoqdaki, “inson qalbi va ongidagi eng sof, pokiza tuyg‘ular, ilk hayotiy tajriba va tasavvurlar, eng avvalo, oila bag‘rida shakllanadi. Oila – haqiqiy ma’naviyat o‘chog‘i, mafkuraviy tarbiya omili va muhiti [3, 455.]

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek, “...aynan oila muhitida paydo bo‘ladigan ota-onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash har qaysi insonga xos bo‘lgan odamiylik fazilatlari va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma’naviy olamini tashkil etadi...

Odamzod uchun bir umr zarur bo‘ladigan tabiiy ko‘nikma va xususiyatlar, masalan, har qaysi bolaning o‘ziga xos va o‘ziga mos qobiliyati, atrofidagi odamlar bilan muomalasi, tengdoshlari orasida o‘zini qanday his qilishi, yetakchilik xislatlariga ega bo‘lishi yoki ega bo‘lmasligi, kerak bo‘lsa, dunyoqarashi – bularning barchasi avvalo uning tug‘ma tabiati, shu bilan birga, oilada oladigan tarbiyasiga uzviy bog‘liq ekanini hayot tajribasi ko‘p misollarda tasdiqlab beradi...” [1, 52-53.]

O‘zbek milliy mentalitetiga ko‘ra, oilaviy nutqiy etiket deyilganda, eng avvalo, farzandlarning ota-onalariga bo‘lgan hurmat-e’tibori, ularga qiladigan muomalalari nazarda tutiladi. Chunki quyidagidek qadimiy xalq maqol va matallari, qo‘shiqlari orqali ota-onaga hurmat masalasi farzandlarimiz qon-qoniga singdirib yuborilgan: *“Ota rozi – xudo rozi”, “Ota o‘g‘il bo‘lsang, ota nomin baland tut”, “Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi” (O‘zbek xalq maqollaridan), “Ey o‘g‘il, haddingda tur,Otang seni sotganda ham... ” (Qo‘shiqdan).*

Xalq og‘zaki ijodi durdonalaridan quvvat olib yozilgan Sharq mumtoz pedagogikasining ajoyib namunalaridan biri bo‘lgan Kaykovusning “Qobusnoma” asarida bu mavzuda shunday fikrlar keltirilgan:

“EY FARZAND, bilg‘ilki, aql yuzasidan farzandga ota-onani izzat va hurmat qilish vojibdur, nedinkim uning asli OTA va ONAdir... shul vajdin ota-onangni sag‘al ham ranjitmag‘il...”[5, 30.]

Oilaviy etiketda ota-bola munosabatining o‘ziga xos xususiyatlari haqida qanchadan-qancha fikrlar aytilgan shunga yarasha qog‘ozlar qoralangan. Ayniqsa, dunyoda “Sharq donishmandligi” nomi bilan mashhur bo‘lgan hazinaga asos solgan ajdodlarimizning bu borada qoldirgan meroslari behisobdir. Ammo har qanday g‘oya, har qanday hikmatli fikr ham tez-tez takrorlanib, eslab turilgan taqdirdagina avloddan avlodga yetib boradi va xalqqa xizmat qiladi. Ayniqsa, buyuk o‘zgarishlar yuz berayotgan, Yangi O‘zbekistonni bunyod etish sari dadil qadamlar tashlanayotgan bugungi kunda ajdodlar qoldirgan o‘gitlarga quloq tutish, ularga tayangan holda ish yuritish g‘oyatda muhimdir: “Moziyga qaytib ish ko‘rish xayrlik, deydilar” (Abdulla Qodiriy) axir!

Kitoblarda zikr qilinishicha, ota-onaning farzandda saksonta haqqi bor. Ulardan qirqtasi tiriklik vaqtida va qolgan qirqtasi ular olamdan o‘tgandan keyin farzandlar tomonidan ado etiladigan haqlardir. Tiriklik chog‘idagi qirqta haqning o‘ntasi tilga, o‘ntasi tanga, o‘ntasi dilga va yana o‘ntasi molga taalluqlidir.

Tilga taalluqli bo‘lgan o‘ntasi shundan iboratki, avvalo, ularga muloyim muomala qil va doimo tavozeda bo‘l. Ikkinchi, ularga baland ovoz bilan gapirma. Uchinchi, ularga ko‘p gapirma va qo‘pollik qilma. To‘rtinchidan, ularning otini aytib chaqirma. Beshinchi, ular gapirayotganlarida so‘zlarini bo‘lma. Oltinchi, ularning aytganlarini rad qilma. Yettinchi, ular falon ishni qil desalar, yo‘q deb javob qilma. Sakkizinchidan, ular qichqirib gapirsalar ham, sen qichqirma. To‘qqizinchi, ularning gaplariga oh, uf deb xitob qilma. O‘ninchi, ularning gaplarida xato bo‘lsa, sen to‘g‘ri bo‘lsang ham e’tiroz qilma.

Tanga taalluqli bo‘lgan o‘nta haqning eng muhim jihatlari shundan iboratki, ota-onaga doimo hurmat ko‘zi bilan qaraladi, qilma deb buyurilgan ishlar qilinmaydi, ular roziligisiz, hech ishga qo‘l urilmaydi. Ular o‘tiradigan joyga aslo o‘tirmagaysan. Ularning oldida ochiq chehra bilan o‘tirgaysan. Qovog‘ingni solma, ho‘mrayib qarama... [7, 136.]

Mashhur hofiz – O‘zbekiston va Turkmaniston xalq artisti Komiljon Otaniyozovning bolaligida bo‘lib o‘tgan quyidagi voqeani uni go‘daklik chog‘laridan yaxshi bilgan kishilar ehtirom bilan eslaydilar: “Komiljon besh-olti yashar bola payti. Bir kuni otasining hurmatli mehmonlari kelishdi. “Komiljon, o‘g‘lim, tomga chiqib, mehmonlarning otlariga o‘t sol!”, deb buyuradi otalari. Choy ichiladi, fursat o‘tadi, lekin Komiljondan darak bo‘lmaydi. Hech kelavermagach, otalari o‘g‘lini chaqirib izlasalar, besh yashar bola uyining bir burchagida tiqilib, yig‘lab o‘tirgan emish. Sababini so‘rasa, aytibdiki... “Ota, menga mushkul yumush buyurdingiz. Uyda hurmatli kishilar o‘tirsa-yu, men tomga – ularning boshlariga chiqib, otlariga o‘t tashlasam. Bu odobsizlik emasmi?..” [7, 137.]

Mashhur hofizni kamolga yetkazgan Xorazmda hozir ham esini tanigan yigitlar oila kattasi – otasining oldida, ya’ni u o‘tirgan xonada, davrada chordona qurmaydilar. Otasi o‘tirgan xonada chordona qurgan farzand o‘z padaribuzrukvorining yo‘qligini istayotgan va oila kattasi deb o‘zini his qilayotgan bo‘ladi. Shuningdek, bu vohada bobosi hayot bo‘lgan bolalarga o‘z otasiga “aka” deb murojaat qilishni o‘rgatadilar. Agar bolalar “ota” deb chaqirsalar, bu yosh otaning o‘z otasiga, ya’ni bolalarining bobosiga xurmatsizligi deb baholanadi (“Turkiston” gazetasi, 1992, 5-fevral).

Ota va o‘g‘il munosabati xususida so‘z ketar ekan, haqiqiy o‘zbekona munosabatlarni o‘zida mujassam etgan mashhur “O‘tgan kunlar” romanidagi Yusufbek hoji va Otabeklar munosabati beixtiyor yodimizga tushadi va har qanday holatda ham ota hurmatini o‘rniga qo‘ya olgan Otabek muomalasiga yana bir karra qoyil qolamiz: “O‘zbek oyim kelib kirgandan so‘ng, Yusufbek hoji bir necha vaqt o‘ylab qoldi... Anchagina so‘zsiz o‘tirgandan so‘ng hoji muloyimona so‘z ochdi:

– O‘g‘lim, hali sen eshitdingmi, yo‘qmi, haytovur biz sening ustingdan bir ish qilib qo‘ydik...

Otabek ma’lumki, ularning “qilib qo‘ygan yoki qilmoqchi bo‘lgan” ishlarini albatta bilar edi. Shunday bo‘lsa ham bilmaganga solindi:

– Aqlli kishilarning o‘g‘illari ustidan qilgan ishlari, albatta, noma’qul bo‘lmas, – dedi.

Hoji, o‘g‘lining bu javobidan yerga qaradi va nima deb davom qilishini bilmay qoldi...” [11, 135.]

Ajdodlarimiz udumiga ko‘ra otaga nisbatan “sen” so‘zi qo‘llanilmaydi. Otasini “sen”lagan farzand esa do‘zaxi hisoblanadi. Abdulla Oripovning “Jannatga yo‘l” dramatik dostonida fikrimizga hamohang quyidagi parchani o‘qiymiz:

O‘zga odam:
Qaysi kuni yig‘lab ketdi bir mo‘ysafid chol,
Tarozibon ne desa shu, ishonamiz-da!
Yetti marta haj savobi bo‘lmabdi qabul.
Yigit:
Nechuk endi?
O‘zga odam:
U dunyoda yuz berib qay hol,
Otasini sansiragan ekan bir bor ul...

“Onam otamning o‘zi u yoqda tursin, buyumlarini ham “sizlab” gapirardilar, – deya eslaydi sevimli yozuvchimiz O‘tkir Hoshimov. – “Adangni ketmonlarini yuvib qo‘y”, “Adangni soatlariga tegma”, ...Dadamning sharpasi uzoqdan sezilsa, oyim “ana, adanglar kelyaptilar” der, bizlar har qanday sho‘xlikni yig‘ishtirib, sipo tortib qolardik...” Agar shu narsa “feodalizm” deb atalsa, bunaqa “feodalizm” ning boshidan suv o‘girib ichish kerak!” [7, 138.]

Musulmon xalqlarida katta yoshdagi kishilarga, ayniqsa, otalarga nasihat qilish odobdan sanalmaydi. Ammo “Aql yoshda emas – boshda” deganlaridek, inson bir umr – beshikdan to qabrgacha o‘rganib yashaydi. Zero, “Avval biz bolalarimizga o‘rgatamiz. So‘ngra o‘zimiz ulardan o‘rganamiz. Kimki buni xohlamas ekan, o‘z davridan orqada qoladi” (Ya. Raynis). Shuning uchun bo‘lsa kerak, amriqolik psixolog Robert Stromning “Qanday qilib buva bo‘lish mumkin?” deb atalgan haftalik kursi tezda ommalashib ketdi. Soatiga o‘n dollar to‘lansa, bas, nevaralar bilan qanday muomala qilish to‘g‘risida ko‘p narsalarni bilib olish mumkin.

Ha, inson, u hatto o‘z bolang bo‘lgan taqdirda ham, g‘aroyib bir sinoatki, uning qalbiga har doim ham to‘g‘ri yo‘l topib bo‘lavermaydi. Buning uchun bolalarni dunyoga keltirishdan tashqari, ularni bir umr sevish va tinimsiz muloqotda bo‘lishga to‘g‘ri keladi.

Xo‘sh, shunday ekan, ota va bola muloqoti qachondan boshlanadi? Ota o‘z bolasini qachondan boshlab tarbiya qilishga kirishadi?

Bu savol dono xalqimizning bola tarbiyasi haqidagi mashhur rivoyatni yodimizga soladi. Unda aytilishicha, yosh er-xotin to‘ng‘ich farzandlarini ko‘tarib dong‘i olamga ketgan ulug‘ hakim Ibn Sino huzuriga borishibdi.

– Bolamizni qanday tarbiyalash haqida maslahat bersangiz. Toki kamolga yetganda xalqqa foyda keltiradigan, e’tiborli kishi bo‘lsin, – debdi er.

– Qachon tug‘ildi? – so‘rabdi ulug‘ hakim.

– Uch oylik bo‘ldi, – javob beribdi xotini.

– Eh, azizlar, kechikibsizlar, debdi Ibn Sino, – uch oy oldin tug‘ilgan ekan. Bola tug‘ilishidan to‘qqiz oy oldin uning tarbiyasi haqida qayg‘urish kerak edi. “Xotinni boshdan, bolani yoshdan” deyishgan axir... [7, 141.]

Ha, xalqimizda farzandga mehr-muhabbat, uni qadrlash onada nishona ko‘ringan chog‘danoq talab etilgan. Chunonchi, homila paydo bo‘lgach, muayyan muddatdan boshlab erkakning ayolga qo‘pol muomala qilmasligi, achchiq so‘z aytmasligi, aksincha, shirin orzular, yaxshi niyatlar, zavqli qo‘shiqlar, maroqli latifalar aytib, ayol ko‘nglini ko‘tarishi shart bo‘lgan. Bola tug‘ilgach esa qulog‘iga azon aytish bilan uning murg‘ak qalbiga ilk bor Yaratganning nomi va musulmon ohanglari muhrlanishi udum bo‘lgan.

Biz o‘z dilbandi uchun jonini berishga ham tayyor turadigan bobolar avlodi ekanligimizni hech qachon yodimizdan chiqarmasligimiz kerak. Buning yorqin dalili sifatida ulug‘ bobomiz Bobur Mirzo hayotida ro‘y bergan bir hayotiy voqeani esga olishimizning o‘zi kifoya. ...Hali 47 yoshga ham to‘lmagan, shuhrati dunyoga ketgan, xalq orasida “G‘oziy” ya’ni, “Yengilmas” degan yuksak unvonga loyiq bo‘lgan shoh Bobur o‘g‘li Humoyunga tabiblarning qarashlari foyda bermayotganligiga aqli yetganidan keyin o‘g‘li uchun o‘z jonini qurbon qilishga ahd qiladi. Bu haqda Boburning qizi Gulbadanbegim shunday yozadi: “Saroyning necha ulamoyi karomlari podsho hazratlarini bu qaroridan qaytishga undadilar. Lekin otam ko‘nmadilar... Ko‘ngillari ul hazratni oliy qurbonlikka undar edi. Yig‘lab, ko‘z yoshi to‘kayotgan saroy xodimlari orasidan o‘tib, Muhammad Humoyun yotgan xonaga kirdilar. Akam to‘shakda og‘ir isitmada kuyib, xoldan toyib yotardilar. Otam uning boshiga borib, qo‘llarini duoga ochdilar. So‘ng vazmin qadam tashlab, uning atrofida uch karra aylandilar. Takror-takror dedilarkim: “Yo, Ollohi karim, uning dardini menga bergin! Unga kelgan balo menga ursin!..” So‘ng hazratning yig‘i aralash shu so‘zlari eshitildi: “Bergan sadaqam qabul bo‘ldi!.. Niyatimga yetdim!.. Murodimga yetdim!.. Ollohi karim tilagimni qabul ayladi!..” Falakning ishini qarangki, shu tariqa Humoyun sog‘aya, Bobur Mirzo esa betoblana boshlaydi va ikki oy o‘tgach, vafot etadi... [7, 146.]

Ha, otalarning bolalar oldidagi burchlari, ularga qiladigan muomalasi ham bolalarning otalari oldidagi burch va qarzlaridan uncha katta farq qilmaydi. Zero, bugungi bolalar – ertangi otalardir. Abdulla Oripov bashorat qilganidek, hayot deb atalmish “shiddatla tortilgan kamon” ularni ham bir umr bolalik olamiga bog‘lab qo‘ygan emas:

Otalar boladan ranjisa ozroq,
Gohida shundayin so‘zni deydilar:
– Bolam, keksalarni qadrla ko‘proq,

Bog‘lab qo‘ygan emas bizni, deydilar.
Keksa dilingizga tushmasin titroq,
Otalar, chayqalib turibdi olam.
Siz ham bolalarni qadrlang ko‘proq –
Bog‘lab qo‘ygan emas, bolalarni ham... [6, 88.]

Biz yuqorida oilaviy nutqiy etiket tadqiqining dolzarbligi va o‘zbek oilaviy nutqiy etiketining faqat ikki qirrasi: farzandlarning ota-onalarga, ota-onalarning esa o‘z farzandlariga qiladigan muomalalari xususidagi ayrim fikrlarni qisqacha tahlil etdik, xolos. Bu mavzuni oilaviy nutqiy etiket olamiga, jumladan, o‘zbek oilalari nutqiy etiketining boshqa xalqlar nutqiy etiketi bilan qiyosiy tadqiq etish maydoniga dadil kirib kelayotgan yosh tilshunoslar [12] tomonidan davom ettirilishini davrning o‘zi talab qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.
2. Мирзиёев Ш, Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: O‘zbekiston, 2022.
3. Маънавият.Асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2010.
4. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ижтимоий одоблар. – Тошкент: HILOL-NASHR, 2013.
5. Кайковус. Қобуснома. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986.
6. Орипов А. Сурат ва сийрат. – Тошкент, 1981.
7. Сиддиқ Мўмин. Тиллашиш ва диллашиш. – Фарғона: Фарғона, 2022.
8. Ўзбекистон Республикаси конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти. Учинчи жилд, 2007.
10. Ўзбек халқ мақоллари. I том. – Тошкент: Фан, 1987.
11. Qodiriy A. O ‘tkan kunlar. – Toshkent: Donish chirog‘i, 2019.
12. Мисол учун қаранг: Кахаров Қ. Оилада ота нутқининг ўзига хос хусусиятлари // Тил ва таржима муаммолари. – Наманган, 2021; Ўзек немис оилаларида никоҳнинг тутган ўрни // Филология таълими масалалари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. – Фарғона, 2021.

OLFAKTOR PARADIGMA VA GNOSEOLOGIK STRUKTURA

Xakimov Muhammadxon,
filologiya fanlari doktori, professor,
Farg‘ona davlat universiteti
mukhammadxonkhakimov@mail.ru
Burxanova Mashxuraxon,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada kommunikatsiya jarayoni turli ifoda vositalarining murakkab tuzilmasidan iborat ekanligi, nutqning rang-barangligi muloqotning turli vositalar va har xil ifoda shakllari bilan namoyon bo‘lishida ko‘zga tashlanishi, kishilar o‘rtasidagi muloqotning ma’lum bir qismi insonning hid biluv sezgisi orqali ham amalga oshirilishi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: kommunikatsiya, ifoda vositalari, reprezentatsiya, hid biluv sezgisi, olfaktor kommunikatsiya, nutq vaziyati, verballashish, olfaktor vositalar, gnoseologiya, olfaktor paradigma.

Ma’lumki, kommunikatsiya jarayoni turli ifoda vositalarining murakkab strukturasidan iborat bo‘lib, bir necha komponentlardan tashkil topadi. So‘zlashuvchilar, nutq vaziyati, kontekst, turli psixologik holat hamda borliqda yuz berayotgan voqea-hodisalar tasviri bilan bog‘liq vaziyatlarning reprezentatsiyalanishi va verballashish jarayonlari kommunikativ strukturaning asosini tashkil qiladi. Borliq voqealarining tomonidan idrok qilinishi, ularning poetik tafakkur prizmasidan o‘tkazilishi tasavvurning dastlabki bosqichidir. Inson tafakkuri turli signallar yordamida axborotni qabul qiladi, tasavvur yordamida jamlangan fikrlar esa kommunikatsiyaning rang-barang vositalari bilan ifodalanadi. Ongdagi mental birlikning funksional-uslubiy hamda poetik tasvirida lisoniy va nolisoniy vositalarning o‘rni muhimdir.

Kommunikativ nuqtayi nazardan turlicha xarakterga ega bo‘lgan inson sezgi organlari hamda ularning doimiy faoliyati natijasida yuzaga keladigan his-tuyg‘ular nutqiy aloqa-aralashuvning komponent va vositalari sifatida e’tirof etiladi. Ayonki, nutqiy muloqot faqat verbal vositalar hisobigagina amalga oshirilmay, uning mazmuniy strukturasi noverbal vositalar orqali ham to‘ldirib boriladi. Nutqning rang-barangligi muloqotning turli vositalar va har xil ifoda shakllari bilan namoyon bo‘lishida ko‘zga tashlanadi. Muloqot jarayoni, ma’lumki, ko‘pqirrali hodisa ekanligi bilan ajralib turadi. Kommunikativ tilshunoslik doirasidagi masalalar ifoda shaklining xususiyatlari asosida tadqiq etiladi. Kishilar o‘rtasidagi kommunikativ munosabatlar bilan bog‘liq masalalar dastlab kommunikatsiya nazariyasi, psixolingvistika, sotsiolingvistika, kognitiv lingvistika, tilshunoslik, ritorika, stilistika hamda paralingvistika kabi yo‘nalishlar doirasida hal qilinadi.

“Har qanday fan asosida kishilarning olamni bevosita kuzatishi yotadi. Inson o‘zini qurshab turgan olam uzvlarini sezgi organlari yordamida his qiladi, boshqalariga solishtiradi, farqli va o‘xshash belgilarini aniqlaydi, so‘ngra muayyan xulosaga keladi.

Demak, har bir fan insonlarning olamni kuzatish, bilish jarayoni natijasida paydo bo‘ladi” [1:32].

Odatda, inson sezgi organlari va ularning faoliyati tabiiy fanlar, xususan, odam anatomiyasi va fiziologiyasi sohasining asosiy tadqiqot obyekti sifatida o‘rganiladi. Shunday sezgi organlaridan biri hid biluv sezgisidir. Inson bu sezgi organi yordamida ham atrofidagilar bilan o‘zaro muloqotga kirishadi, “so‘zlashadi”, “tillashadi”, o‘zaro “fikrlashadi”. Kishilar o‘rtasidagi muloqotning ma’lum bir qismi insonning hid biluv sezgisi orqali amalga oshiriladi. Hid biluv sezgisi faoliyatida ham boshqa eshitish va ko‘rish sezgilari kabi ma’lumotlarni markaziy nerv sistemasiga uzatish funksiyalarini bajarish hamda ma’lumotlarni ongda assotsiatsiya qilish, ayni paytda, bu vositalar orqali ma’no ifodalash, ma’lum voqealarga ishora qilish, kommunikantlarga xos xususiyatlarni ko‘rsatish holatlari ham kuzatiladi. Muloqotning bunday ifoda shakli noverbal vositalar tizimiga mansub bo‘lib, ular tilshunoslikda olfaktor lingvistika deb nomlanadi. Ilmiy adabiyotlarda bu tizim elementlari orqali ifodalangan axborotning nisbati ikki foiz [2:13] deb belgilansa-da, badiiy adabiyot qahramonlarining sifat va fe’l-atvorlari bu fenomen orqali mukammal darajada ifodalanadi. Hid biluv sezgisi faoliyati hamda bajaradigan funksiyalariga lingvistik nuqtai nazardan izoh berishdan avval mazkur organning inson organizmidagi o‘rni, anatomik strukturasi yuzasidan maxsus ilmiy adabiyotlarda berilgan ta’riflarga to‘xtalamiz: “...Hid biluv nervi: I juft, hid biluv nervi (nervus olfaktorius) burun bo‘shlig‘i hidlov sohasining shilliq pardasida joylashgan hidlov hujayralarining markaziy o‘siqlaridan iborat. Ular 15-20 ta ingichka hid biluv ipchalarini (fila olfaktoria) hosil qilib, g‘alvirsimon suyakning g‘alvirsimon plastinkasidagi g‘alvirsimon teshikchalardan o‘tib, hidlov piyozchasida (bulbus olfaktorius) tugaydi” [3:571]. Anatomik til bilan tavsiflangan hid biluv nervining organizmdagi o‘rni olfaktorika tizimiga oid tushunchalar sirasiga kiradi. Borliqdagi inson va boshqa barcha narsalarga taalluqli xushbo‘y va noxush hidlar burun bo‘shlig‘i hidlov sohasining 15-20 ta ingichka hid biluv ipchalari orqali markaziy nerv sistemasiga yuboriladi. Olfaktor vositalar yordamida uzatilgan axborotlar ongning tasavvur bosqichida assotsiatsiyalanadi. Shuning uchun hid bilish sezgisi ham boshqa sezgi organlari singari axborot tashuvchi kanallardan biri sanaladi.

Tursunboy o‘rnidan turib kerishdi. U kerishganda to‘nining oldi ochilib, yalang‘och ko‘kraklari ko‘rinib ketdi.

– *Yaktaging ham kir bo‘lib ketibdi.*

Birdan ***achimsiq ter hidi*** *kelib ona dimog‘iga urildi. U burnini jiyirib yuzini teskari o‘girdi.*

– *Ko‘ylak olib kelmapsan-da.*

– *Qandoq olib kelaman. Dadang bilib qolsa nima bo‘ladi? (368-b)*

Yuqorida berilgan parchada Tursunboyning hammadan berkinib, to‘qayda bo‘rilardek hayot kechirayotganligi, undan kelayotgan achimsiq ter hididan farzandini oq yuvib, oq taragan onasi ham burnini jiyirayotganligi ko‘rsatilgan. Muallif *achimsiq ter hidi* orqali qahramonning qochoqligi haqida kitobxonga axborot yetkazmoqda. Bu sezgi organi funksiyalari vositasida ham kishilar o‘rtasidagi muloqot jarayoni amalga oshiriladi. Hidlarning kelib chiqishi va ularning tasnifi bilan bog‘liq masalalar odamlarning kundalik turmush tarzi bilan aloqadordir.

Quyida hid sezgisining ikkinchi tavsifi keltiriladi: “Hid sezuv a’zosi (organum olfaktorium) burun bo‘shlig‘ining yuqori qismida yuqori burun chig‘anog‘i va burun to‘sig‘ining o‘rta qismi shilliq qavatining hid sezuv qismida (pars olfactoria tunicae mucosae nasi) joylashgan alohida sezuvchi hujayralardan iborat. Bu sohaning yuzasi 480 mm kvadrat bo‘lib, hidlov hujayralarining soni 160 millionga yaqin, ular hidlov va qo‘llab turuvchi hujayralarga bo‘linadi. Hidlov hujayralari ko‘p sonli kiprikchalar bilan qoplangan bo‘lib, ular havo bilan uchrashadigan yuzasini ko‘paytirib turadi va umumiy yuzasi 5-7 mm kvadratga yetadi. Bu hujayralarning markaziy o‘siqlari 15-20 hid biluv ipchalarini hosil qiladi. Hid biluv nervi g‘alvirsimon suyakning g‘alvirsimon plastinkasidan o‘tib kalla ichiga kiradi va hidlov so‘g‘onida tugaydi. Hidlov so‘g‘onida joylashgan II neyron o‘siqlari hidlov yo‘lini hosil qilib, hidlov uchburchagi va oldingi ilma-teshik moddada tugaydi. Bu yerda uchinchi neyron hid sezuv markaziga (greus parahyppocampalis va uncus) boradi. Odamda hid sezuv a’zosi homila hayotining 4-haftasida juft hid sezish chuqurchasini qoplagan ektodermadan juft kengaytma shaklida paydo bo‘ladi. Boshning taraqqiyoti bilan birga, hid sezish chuqurchasi chuqurlashib burun bo‘shlig‘ini hosil qilishda ishtirok etadi. Hid sezuv a’zosi kurtagi burun bo‘shlig‘i shilliq pardasiga o‘sib kiradi”[3:621]. Ko‘rinadiki, hid tashish funksiyasini bajaruvchi 1-, 2-, 3-neyronlardan iborat tizim yaxlit holda hid bilan bog‘liq axborotlarni uzatishga xizmat qiladi. Kishi organizmining bir qismi sifatida hid sezgisi narsa-buyumga xos bo‘lgan hidlarni biologik jarayonlar asosida qabul qiladi. Tarkibida “...hid komponenti bo‘lgan har qanday mahsulot hid sezgi a’zosidagi hid nervini qo‘zg‘atadi. Buyumga xos hid molekulasining tarqalishi, yoyilishi asosida retseptorlar bilan kontakt hosil bo‘ladi yoki aksincha, retseptorlarning qo‘zg‘alishi to‘lqinning tarqalishini ifodalaydi” [3:621]. Shu mexanizm asosida hid bilish sezgisi gnoseologik funksiya bajaradi. Odamlar nutqiy muloqotida bu sezgining alohida o‘rni mavjud bo‘lib, so‘zlashuvchilar bu sezgi yordamida ham ko‘p ma’lumotlarga ega bo‘ladilar. Kishilar bunday olfaktor vositalar yordamida o‘zaro muloqotga kirishadilar. Badiiy matnda o‘z qahramon va personajlari xarakterini ochishda olfaktor kategoriyalardan unumli foydalanadi. Olfaksiya “hid bilish qobiliyati tushunchasiga yaqin ma’noda qo‘llangan bo‘lib, bu termin ostida hidlar qabul qilish sezgilari sifatida o‘rganiladi, keng ma’noda esa olamni qamrab oluvchi turlicha fenomenlar yig‘indisi sifatida tushuniladi. Shunday qilib, olfaksiya – hidlarning turlicha tarovati va ularni qabul qilish, his qilish, idrok qilish bilan bog‘liq borliq fenomeni hisoblanadi”[4:4]. Bu fenomen asosida asar g‘oyasini ochib beradi. Kommunikantlar esa bu fenomen yordamida bir-birlarini tez anglaydilar. Hid fenomeni semiologik birlik bo‘lgani uchun ham xususiylik va umumiylik belgilariga ega. Shuning uchun ham olfaktor tizim elementlari kategorial xususiyat kasb etadi.

Nutqiy muloqot jarayonida kommunikantlar tomonidan o‘zaro fikr almashiniladi, bir-biriga axborot uzatiladi. Ularni qabul qilish, ongda tasavvur qilish va unga turli vositalar orqali o‘z munosabatini ifodalash natijasida muloqotning to‘laqonli bo‘lishiga erishiladi. Ana shu jarayonda so‘zlashuvchilar o‘rtasidagi verbal muloqot mukammallashadi. Bunda hid bilish sezgisining ham o‘rni bor. Qomusiy olim Abu Nasr Forobiy ham bilish jarayoni haqida fikr yuritar ekan, “....inson o‘zini qurshab turgan olamni va o‘zini-o‘zi bilish orqali eng yetuk mavjudotga aylanadi. Bilish insonning mohiyatidir. Bilishdan maqsad haqiqatga erishmoqdir... har qanday bilish, dastavval,

o‘zini qurshab turgan olamdagi narsa va hodisalarni kuzatishdan boshlanadi. Chunki tafakkur faoliyati bilan hosil qilingan mohiyat o‘zining tabiiy asosidan oldin bo‘lishi mumkin emas... Biz faqat o‘zimizni qurshab turgan olamdagi narsalarni sezgi a’zolarimiz orqali bilib olamiz. Forobiy ushlash, qo‘l tekkizish yo‘li bilan olingan bilimga quvvai lomisa, ko‘rish orqali olingan bilimga quvvai nigohiy atamalarini qo‘llaydi. Shu bilan birga, eshitish sezgisi orqali, nutq vositasida ham bilimga ega bo‘lish mumkinligini ta’kidlaydi. Bunday bilim quvvai notiqa sanaladi” [1:228-229]. Forobiyning tilshunoslik to‘g‘risidagi qarashlari inson sezgi a’zolari orqali olamni kuzatish asosida hosil qilingan bilim va ko‘nikmalarning o‘rni muhimligini ko‘rsatadi. Qomusiy olimlar tomonidan e’tirof etilgan bilish bilan bog‘liq bu tizimga hid hamda ta’m sezgisini ham qo‘shish, bu sistemani olfaktor va boshqa vositalar bilan to‘ldirish tilning noverbal strukturasi tizimining mukammallashuviga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. III jildlik. I jild. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – B. 32.

2. Ahmedov A., Rasulov X. Odam anatomiyasi: bolalar anatomiyasi asoslari bilan. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2013. – B. 571.

3. Мамцева В.В. Репрезентация ольфакторности в романтическом дискурсе: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2018. –С.13.

4. Трофимова Н.А., Осипова В.В. Ольфакторность как предмет исследования.

5. Зыховская.Н.Л. Ольфакторий русской прозы XX века: Автореф. дисс. ... док.филол.наук. – Екатеринбург, 2016. – С. 4.

MA’RIFATPARVAR HOJI MUINNING TILGA MUNOSABATI

Axmedova Shoira,
filologiya fanlari doktori, professor,
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada dramaturg, publitsist, tarjimon, jadidchilik harkatining faollaridan biri Hoji Muinning o‘zbek tilini rivojlantirish, mavqeini ko‘tarish yo‘lida yozilgan maqolalari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, ma’rifatparvar, dramaturg, maqola, publitsistika, til birligi, Vatan ozodligi.

XX asrning boshlarida Vatan ozodligi, millatimizning taraqqiyoti, ma’naviyati uchun kurashgan ma’rifatparvar ziyolilardan biri Hoji Muindir. U o‘zining butun umrini, faoliyatini xalqining ma’rifatli bo‘lishi uchun kurashga bag‘ishladi. She’rlar yozdi, dramatik asarlar yaratdi, hajviyalar, publitsistik maqolalar yozdi, tarjimonlik bilan shu’ullandi.Shu bilan birga o‘zbek tilining targ‘ibotchilaridan biri sifatida ham qator maqolalar yaratdi.

Bu davrning barcha ma’rifatparvarlari o‘zbek tili, uning ravnaqi masalasiga katta e’tibor qaratdilar, jadidlar otasi I.G‘aspiralining “Til birligi masalasi bizim hayotimizda hayot-mamot masalasidir va biz bu masalada bir qadam ham orqaga chekinmaymiz. Biz

uchun orqaga chekinmoqqa yo‘l yo‘q. Yashasin millat!...” deb yozgan ogohlikka chaqiruvchi so‘zlari barcha jadidlarni bee’tibor qoldirmagan. Behbudiy, Fitrat, A.Zohiriy, A.Sa’diy kabi ijodkorlar qatorida Hoji Muin ham o‘zbek tili masalasiga katta e’tibor bilan qaraganini “Istiqlol qahramonlari” ruknida chop etilgan “Tanlangan asarlar”idan o‘rin olgan, tilimiz ravnaqiga bag‘ishlangan bir necha maqolalari yaqqol ko‘rsatadi.

Hoji Muinning “Til masalasi” deb nomlangan maqolasi “Mehnatkashlar tovushi” gazetasining 1918-yil, 16-iyul sonida chop etilgan va u quyidagi so‘zlar bilan boshlanadi: “Hozirda bizlar uchun eng muhim masalalardan biri, shubhasiz, til masalasidir. Biz Turkiston turklari ona tilimiz bo‘lg‘on turkiy til bilan birga yasharg‘a va turkiy tilimizni o‘z hayotimiz va o‘z huquqimiz bilan barobar muhofaza etarga tevishmiz”[1, 80].

Ma’rifatparvar olim “eski hukumat zamoninda” rasmiy idoralar u yoqda tursin, o‘z maktablarimizda ona tilimizda o‘qish imkoni bo‘lmaganligi, bunga ruslashtirish siyosati sababchi bo‘lganligini afsus bilan qayd etadi. Hoji Muin turkiy tilimiz va adabiyotimizning takomili uchun kurashish, turkiy tilning Turkistonda rasmiy hukumat tili darajasiga chiqishi lozim deb hisoblaydi. Ba’zi odamlarning musulmon tilining huquqini rus tili bilan barobarlashtirishga qaratilgan chiqishlarini qoralaydi, barchani, ayniqsa, “ish boshinda turg‘on ulug‘larimizg‘a, yoshlarimizg‘a va matbuotimizg‘a” zudlik bilan bu masalani hal qilish zarurligini uqtiradi, shu bilan birga musulmon idoralaridagi rasmiy qog‘ozlarning rus tilida yuborilayotganligini tilimiz haqidagi jinoyat deb hisoblaydi. Hoji Muinning bu maqolasi bugungi kunlarimizda tilimizning nufuzini oshirishga qaratilgan say’ harakatlarimizga mos kelayotganligining o‘zi ma’rifatparvar olimning kelajakni ko‘ra olganligini namoyon etadi.

Bir oy o‘tmasdan shu gazetaning 13-avgustdagi sonida uning “Til masalasi” deb nomlangan ikkinchi maqolasi chop etiladi. Maqola Hoji Muinning Turkiston jumhuriyatida turkiy tilni rasmiy davlat tili deb e’lon qilishga qaror berilganini e’tirof etish bilan boshlanadi. “Ulug‘ Turkiston” rafiqimizning yozg‘oniga ko‘ra...”Turkiston musulmonlari uchun davlat lisoni turkiy tili bo‘lur” deb qat’iy qaror chiqarilg‘on...”. Bu xabar musulmonlarni shodlantirgani bilan bir qancha muammolarni keltirib chiqarganiga diqqat qaratadi. Muammolardan biri sifatida Hoji Muin mirzo va tarjimonlarning turkiy tilni bilmasliklarini ko‘rsatadi: ”Hozirgi mirzolarimiz bo‘lsalar, o‘zlari turk o‘g‘li turk bo‘lib turkiy tilning qoidalarini va yoki imloni bilmaydilarkim, bularning yozg‘on va yozaturg‘on narsalari umum va ko‘cha tilindan ozgina tafovutlidir” [1, 88]. Shu o‘rinda Hoji Muin bugungi kunda ham katta muammolardan biri hisoblangan muammoga diqqat qaratadi ya’ni kotiblarning turkiy tilga ruscha so‘zlarni qo‘shib yozishlarini tanqid qiladi. Ziyoli va tarjimonlar esa rus tiliniyam, turkiy tilniyam yaxshi bilmaganlari sababli tarjimalari yaxshi chiqmasligini ham to‘g‘ri ko‘rsatadi. Olim mirzo va tarjimonlar muntazam maktablarda o‘qimagani uchun ularni ham ayblolmasligini, bunday maktablarning o‘zi Turkistonda ochilmaganligini aytar ekan, bu sohadagi kamchiliklarni sanab (turkiy tilning sarf va nahvig‘a oid biror qo‘llanma yo‘qligi, tilimizning hanuz ishlanmgan bir holga kelmaganligi, til bilaturg‘on mirzo va tarjimonlarning topilmasligi), uning oldini olish yo‘llarini ham ko‘rsatib beradi: “Turkiston o‘lkasidagi har bir shaharda hukumat hisobindin til kurslari ochilsun”. Bu kurslarning ikki sho‘badan iborat bo‘lib, birida mirzolar, mirzolikka havaskorlar, ikkinchisida tarjimonlar, tarjimonlikka havaskorlar o‘qitilishi zururligini ta’kidlaydi. Shu bilan birga “turkcha va ruscha tillari va

tarjima etmak usullari”ni o‘rgatishga chaqiradiki, bu ham Hoji Muinning kelajakni ko‘ra biladigan zukko olim ekanligidan dalolat beradi.

Oradan uch yil o‘tib yozilgan “So‘z, qaror va ish” maqolasi bir oz tanqidiy ruhda ekanligi ko‘rinadi. Maorif, iqtisod, ziroat ishlaridagi kamchiliklarni ro‘y-rost tanqid qilar ekan, olim til masalasiga ham to‘xtaladi: “Turkistonda aksar aholi musulmon bo‘ldig‘i e’tiborg‘a olinib, mundan uch yil burun turkcha til rasmiy davlat tili deb e’lon etilsa-da, buni amalga kirgizmak uchun hanuz jiddiy tadbir ko‘rolmadik. Balki bu “eski hammom – eski tos” mazmunicha ko‘p mahkama va idoralarda hanuz rus tili hukm farmoyishdadir”. *(Bu so‘zlar 10 yil oldingi tilimizga munosabatni ko‘rsatganday nazarimda).* Hoji Muin tarjimonlar, mirzolarni tayyorlash ishlari ham qolib ketgani, qaror va buyruqlardan ham yaxshiroq natija chiqmaganligidan afsuslanadi.

Hoji Muin keyingi faoliyatida ham tili miz ravnaqi masalalariga e’tibor qaratib keldi. Uning”Vaqtsiz mubohasa (Til birlashtirish to‘g‘risida) maqolasi o‘sha paytda ancha vaqt davom etgan til birlashtirish haqidagi bahs masalasiga bag‘ishlangan. ”Zarafshon” gazetasida bu bahsni boshlagan ba’zi “o‘rtoq”larning faoliyatiga baho berar ekan, hozirda undan ham muhim bo‘lgan “maorif va xalqni oqartirish” masalasiga diqqat qaratish kerak deb hisoblaydi. “Modomiki, bir xalq ichida maorif tarqatish xalqning o‘z ona tili bilan bo‘ladur, biz ham xalqimizni oqartish uchun o‘zbek tiliga ahamiyat bersak lozimdur. Ya’ni o‘zbekcha tilni o‘zbeklar anglarliq bir holg‘a qo‘yishimiz kerakdir. Bu ish esa tabiiy til birlashtirishga xilof bir hol bo‘lib qoladir”[1, 103]. Ko‘rinadiki, Hoji Muin umumturklar uchun mushtarak adabiy bir til masalasiga qarshi, shu bilan birga uni “vaqtsiz, foydasiz” ish deb hisoblaydi. Fikrini aniq misollar bilan isbotlashga harakat qiladi. Masalan, til birlashtirishga kirishgan I.G‘aspirali, Turkistonda esa Behbudiyning faoliyati haqida fikr yuritib, ularning harakati muvaffaqiyatsiz chiqqanini ko‘rsatib beradi. Bu masalaga o‘zining qarshi emasligini ham bildiradi. “Menga qolsa, til birlashtirishdan ko‘ra hozirda o‘z tilimiz bo‘lg‘on o‘zbekchani xalqimizga qulayroq tushuntira olurliq darajada soddalashtirish lozimdir. O‘zbekcha sarf-nahv va nazariyoti adabiyalar tuzish, tugal lug‘at kitoblari yozib, bostirish zarurdir”. Zaki Validiyning til haqidagi “Turk-totor tillarining yozilishi” deb nomlangan maqolasidan misollar keltirib, o‘zining mulohazalari to‘g‘riligini asoslaydi.

O‘z davrining qalbi uyg‘oq muallimi, publitsisti, tarjimon, dramaturg Hoji Muin garchi tilshunos bo‘lmasa-da, maorif, tilning yuksakligi uchun kurashgan jadidlardan biri sifatida adabiyotimiz, tilimiz tarixida qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ҳожи Муин. Тил масаласи. Танланган асарлар.Тошкент: Маънавият, 2005. – Б. 80.

Tuya LMGi asosida shakllangan maqollarning lingvokulturologik tadqiqi
(“Tuya manzil ko‘zlar, eshak oyog‘ini ostini” maqoli asosida)

Jo‘rayeva Bibish,
filologiya fanlari doktori, professor
Jumayeva Marjona,
Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi,
Tel**:** + 998904132553
E-mail: jumayeva7@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada “Tuya manzil ko‘zlar, eshak oyog‘ini ostini” maqoli tahlilga tortilgan. *Tuya* hamda *eshak* zoonimiga xos xususiyatlar, fiziologiyasi bilan bog‘liq jihatlarning mazkur maqol shakllanishidagi o‘rni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: zoonim, lingvokulturologiya, president birlik, o‘rganish obyekti, madaniyat elementlari, paremiologiya, lingvokulturema.

O‘zbek xalqining o‘q ildizi bobomiz M.Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asariga borib taqaladigan folklor merosi g‘oyatda boy va xilma-xildir. Bu merosning salmoqli qismini tashkil etadigan maqollar o‘zining tematik rang-barangligi, ularda ifodalangan fikrning qisqa, tushunarli va ixcham ekanligi bilan ajralib turadi.

Xalq tafakkuri durdonasi hisoblanmish maqollar nafaqat xalq hayoti, qarashini ifodalashi bilan qadrli, balki kundalik turmushimizda nutqimizni boyituvchi vositalardan biri hamdir.

“Tuya” zoonimi qatnashgan “Tuya manzil ko‘rar, eshak oyog‘ini ostini” maqolida millatimizga xos uzoqni ko‘ra olish, hushyorlik hamda sabr-qanoat fazilatlari *tuya* hamda *eshak* zoonimlarni keltirish orqali hosil qilingan. Ularning fiziologiyasidagi o‘ziga xosliklar inson tabiatiga ishora qilingan holda maqol sifatida shakllangan.

Tuya manzil ko‘rar, eshak oyog‘in ostini

O‘zbekiston Yevrosiyo materigining ichki qismida joylashganligi tufayli kontinental iqlimga ega. Havo iqlimi aksariyat mo‘tadil bo‘lsa-da, ammo cho‘l hududlarida harorat ancha past va quruq hisoblanadi. Ana shunday issiq haroratda burnidagi ikki qator o‘sgan tuklar yordamida nafasidan namlikni ajrata oladigan va shu orqali tanasidagi haroratni mo‘tadillashtira oladigan jonivor – tuya hisoblanadi [3].

Cho‘l hayvonlari turkumiga kiruvchi mazkur jonivor o‘rkachidagi yog‘larni 30-35 kun davomida ozuqa sifatida ishlata olishi va o‘z vaznining yarmiga teng bo‘lgan yukni bemalol ko‘tara olishi bilan “Sahro kemasi” deya nomlanadi. “Buyuk Ipak Yo‘li” ning chorrahasida joylashgan diyorimizda savdo-sotiq ishlari faqat quruqlik orqali amalga oshirilgan. Dengizlar va tog‘lar bo‘lmaganligi uchun ham quruqlikdagi eng maqbul ulov – tuya jonivori tanlangan. Eshak ham ulov vositasi sifatida funksiyasi bilan tuyaga yaqin jonivor, ammo eshak faqat yaqin masofa uchun xizmat qila olgan. Uzoq masofa uchun bu jonivor also tanlanmagan. Bunga eshakning biologik jihatdan suvsizlik va ozuqasizlikka chidamsizigi va uzoq masofani bosib o‘ta olamasligi sabab bo‘lgan. Tuyalar ajoyib ko‘rish qobiliyatiga ega: ular bir kilometrdan yurgan odamni, 3-5 kilometrdan harakatlanayotgan mashinani ko‘rishadi. Ular namlikni mukammal

hidlaydi va 40-60 kilometr uzoqlikdagi yaylov yoki chuchuk suvning hidini sezadi, shuningdek, osmonda momaqaldiroq bulutlarini his qiladi va yomg‘ir yog‘adigan joyga etib borish umidida o‘z yo‘nalishi bo‘ylab ketadi. [6] Eshak esa uzoqni ko‘ra olmaydi. Mazkur maqolning lingvokulturema sifatida shakllanishida tuyaning eshakka nisbatan uzoqni ko‘ra olishi, tuya jonivorining eshakka nisbatan chidamliligi, uzoq vaqt suvsizlik va ozuqasizlikda yashay olishi, ulov vositasi sifatida eshakka nisbatan uzoq masofaga bora olishi asos bo‘lgan.

Mazkur maqol xalqimizning madaniy fondida ana shu ikki zoonimning xususiyatlaridan va o‘tmishdagi aloqa-aralashuvdagi ahamiyatidan kelib chiqib keng qo‘llaniladi va tuya zoonimining o‘zbek tilshunosligida *ulov vositasi* sifatida lingvokulturema darajasiga ko‘tarilishiga sabab bo‘lgan.

Yuqoridagi maqolning bir necha variantlari ham mavjud. “Tuyaga minsang, uzoqqa ko‘z tashlab yur”, “Tuyaga mingach, uzoqni o‘yla”, “Eshak minib, tagini ko‘rma, tuya minib, olis manzilni ko‘zla” [5].

Zoonim komponentli maqollarning izohli batafsil toritilgan Z.Xolmonova hamda D.Toshevaning “Zoonim komponentli paremalarning izohli lug‘ati”da yuqoridagi maqolga quyidagicha izoh berilgan. Bu bilan majozan: “Aql-idroki baland, mulohazali, ko‘p o‘qigan, ko‘pni ko‘rgan odam biror ishni qilarda, biror gapni gapirarda uzoqni ko‘zlab,orqa-o‘ngini o‘ylab, aql-farosati bilan ish tutadi, so‘z qotadi. Aqli kalta, farosati yo‘q odam esa ish qilishda ham, gap gapirishda ham atroflicha mulohaza qilib o‘tirmay, oqibati nima bo‘lishini o‘ylamay kaltabinlik bilan ish ko‘radi”, demoqchi bo‘ladilar” [6, 225].

Misr madaniyatidada ham ushbu maqolga o‘xshash parema mavjud. *Better a poor horse than no horse at all. Yarim tuyadan yarim eshak yaxshiroq.* Ularda tuyaga nisbatan eshak jonivorining afzalligi ta’kidlanmoqda, bu esa bevosita ikki xalq, madaniyat va mintallitetning turlicha ekanligini ko‘rsatadi. Misr maqolida tuyaning kattaligi, bahaybatligiga nisbatan eshakning kichik jussasi afzal ekanligi ta’kidlanmoqda. Yarimta tuyaning vaznidan, yukidan ko‘ra yarimta eshakning og‘irligi yaxshiroq, deyilmoqda. Bu ikki maqolning ikki xalq adabiyotida turlicha variantda mavjudligi ularning har ikkalasida madaniy jarayonning ayricha kechganligi va madaniy fondning alohida-alohida ekanligi bilan izohlanadi.

Lingvokulturologiya – millatning madaniy fondida mavjud bo‘lgan president birliklarni, shu jumladan, maqollarni ham lingvomadaniy aspektda tahlil qiladigan hamda xalq donishmandligi ramzi bo‘lgan maqollarda izohlangan asosiy semani – lingvokulturemalarni o‘rganuvchi sohadir. Lingvomadaniyatshunoslikda millatga xos madaniyat elementlarining etimologiyasiyasi hamda shakllanish vositalari o‘rganiladi va tadqiq qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo‘rayeva B. O‘zbek xalq maqollarining qisqacha sinonimik lug‘ati. –T.: Fan, 2016. –B. 96.

2. Жўраева Б. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари. - Т.: Академнашр, 2019. – Б. 221.

3. Schmidt Nielson B., Schmidt Nielson K. The camel, facts and fabes // YUNESKO Courier. – 1995 – N 8-9. – C. 29.

4. Воробьев В.В. Лингвокультурология: теория и методы. – М.: Издательство РУДН, 1997. – С. 332.

5. O‘zbek xalq maqollari. T.: Gafur Gulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. – B. 127.

6. Xolmonova Z, Tosheva D. Zoonim komponentli paremalarning izohli lug‘ati. – T.: Turon zamin ziyo, 2016. - B. 359.

7. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. – Т.: Ўзбек совет энциклопедияси, 1990. – С. 524.

8. Https://www.thegurdian.com/science/2003 march/2006/science research. Camels act on a hump | Science | The Guardian.

TAQLID SO‘ZLARDA OLAMNING LISONIY MANZARASINING AKS ETISHI

Saparniyazova Muyassar,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
saparniazovamuassar@gmail.com
Süveyda Şahin,
Pamukkale universiteti zamonaviy
turkiy tillar kafedrasi doktoranti
suveydasahin48@gmail.com

Annotatsiya. Taqlidiy so‘zlarni o‘rganish milliy mentalitet bilan bog‘liq nihoyatda original holatlarni kuzatish imkonini beradi. Odam dunyoni tili bilan ko‘radi, tili bilan eshitadi va tili bilan idrok qiladi. Hozirgi o‘zbek tilida taqlidiy so‘zlarning lingvistik, lingvokulturologik, paralingvistik hamda kognitiv xususiyatlarini kompleks tarzda tadqiq etish bu borada tomoman yangi natijalarni o‘rtaga chiqarishi mumkin.

Ushbu maqolada taqlid so‘zlarning har bir millat tomonidan o‘ziga xos tarzda imitatsiya qilinishi, olamni idrok etish mexanizmi bilan chambarchas bog‘liq ekanligi xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: taqlid so‘zlar, milliy mentalitet, olam manzarasi, olamning lisoniy manzarasi.

Tovushga taqlid masalasi bizning eramizdan ilgariyoq tilshunos olimlarning diqqatini o‘ziga jalb etgan: biz tovushga taqlid haqidagi ilk fikrlarni o‘sha davrlarda aytilganligini ko‘ramiz. Ma’lumki, tabiatdagi jonli va jonsiz predmetlar turli xil tovushlar chiqaradi. Kishilar o‘z turmush tajribalarida ba’zan ana shunday tovushlarga taqlid qiladilar. Tovushni qabul qiluvchi organimiz quloq tabiatdagi tovushlarni asosan to‘g‘ri aks ettiradi. Ammo biz talaffuz qilgan tovush o‘sha tovushlarga ancha yaqinlashib boradi va u shartli ravishda taqlid deb olinadi. Yozma nutqda esa taqlidni berish yana ham qiyinroq, chunki “har qanday eng yaxshi alifbo, hatto, lingvistlar tomonidan yaratilgan transkripsiyalar ham kishi nutqini”, ayniqsa, undagi taqlid so‘zlarni to‘liq aks ettira olmaydi.[1]

Taqlidiy so‘zlarni o‘rganish milliy mentalitet bilan bog‘liq nihoyatda original holatlarni kuzatish imkonini beradi. Ma’lumki, tabiatdagi jonli va jonsiz predmetlar turli xil tovush chiqaradi. Kishilar o‘z turmush tajribalarida ba’zan ana shunday tovushlarga taqlid qiladilar. Masalan, xo‘rozning qichqirishi o‘zbek tilida *qu-qu-qu* tarzida bir xil bo‘g‘inni bir necha bor takrorlash orqali ifodalansa, rus tilida *ku-ka-re-ku* tarzida, tilimiz bilan bir oilani tashkil etuvchi turk tilida esa *u-u-ru-u* tarzida akslanadi. Suvning shildirashi, shamolning guvillashi, eshikning taqillashi, qushlarning sayrashi, soatning chiqillashi, chirildoqning chiyillashi, daraxtning qimirlashi, mashinaning xarakatlanishi, yomg‘irning yog‘ishi va boshqalar har bir millat tomonidan o‘ziga xos tarzda imitatsiya qilinadi. Usha tovushni qanday eshitishsa tilda shunday aks ettirishga urinishadi. Ana shu jarayon tildagi imkonlarni aniq namoyon etadi.

Tilimizda ifodalash mumkin bo‘lmagan biron bir tovushning o‘zi yo‘q. Hozirgi o‘zbek tilida taqlidiy so‘zlarning lingvistik, lingvokulturologik, paralingvistik hamda kognitiv xususiyatlarini kompleks tarzda tadqiq etish bu borada tomoman yangi natijalarni o‘rtaga chiqarishi mumkin. Obyektiv tashqi olam, tabiat, masalan, jonli va jonsiz narsalar, tosh, suv, shamol, temir kabilar turli holatda turli xil tovush chiqaradi. Bu esa sezgi organimizga ta’sir qilib, bizda sezgi uyg‘otadi. Kishi tashqi olamdan olgan sezgisini, taassurotini o‘z tilining fonetik va leksik imkoniyatidan foydalangan holda ma’lum tovush komplekslari orqali ifodalaydi. Tilda boshqa hamma gruppadagi so‘zlarga nisbatan ham tovushga taqlid so‘zlar bilan ular anglatadigan ma’no o‘rtasidagi aloqa bir-biriga yaqinroqdir. Bunday so‘zlarni jahondagi hamma tillarda ham uchratish mumkin. Ammo har bir tildagi taqlidiy so‘z o‘sha tilning fonetik xususiyati, u tilda gapiruvchi xalqning geografik muhiti va shu kabi turli xil faktorlarga bog‘liq ravishda o‘ziga xos xususiyatga aga bo‘ladi, O‘zbek tilidagi *vot-vut, vog‘-vog‘, piq-iik, puq-po‘q, chaq-chaq, duk-duk, g‘ir-g‘ir, g‘uv-g‘uv, g‘at-g‘at, vat-vat, taq-taq, g‘arch-g‘urch, chars-churs, miyov-miyov, chug‘ur-chug‘ur, jarang-jurung, qah-qah, ship-ship, shirt-shirt, dang-dang, gumbur-gumbur, ho‘ng-ho‘ng, shilt-shilt, g‘ijir-g‘ijir, shop-shop, g‘irt-g‘irt, visir-visir* tipidagi tovushga taqlid so‘zlar ma’lum bir narsa yoki hodisa haqidagi tushunchani, o‘sha narsa yoki jonivor chiqargan tovushning o‘zigina emas, ma’lum xalq idroki tarziga xos olamning lisoniy manzarasini ham aks ettiradi.

Olamning lisoniy manzarasi insonni olamga (tabiatga, hayvonlarga, o‘z-o‘ziga) bo‘lgan munosabatini shakllantiradi. Har qanday tabiiy til dunyoni bilishning muayyan usulini aks ettiradi. Unda ifodalangan ma’nolar muayyan qarashlarning yagona tizimida, o‘ziga xos jamoaviy falsafada mujassamlashadi va u barcha til egalari uchun majburiylik kasb etadi. Mazkur tilda so‘zlashuvchilar dunyosi shakllanadi, ya’ni olamning lisoniy manzarasi leksika, frazeologiya va grammatikada muhrlangan olam haqidagi bilimlar majmuasidir.[2]

Olamning manzarasi (lisoniy ham) tushunchasi insonning olam haqidagi tasavvurlarini o‘rganish asosida yaratiladi. Olam – o‘zaro munosabatdagi inson va muhit bo‘lsa, olam manzarasi inson va muhit haqidagi ma’lumotni qayta ishlash natijasidir. Agar olamning obrazi bo‘linmaydigan yaxlit butunlikni namoyon qilsa, olamning manzarasi dunyo haqidagi turli darajadagi bilimlar majmuini va uning obyektlariga bo‘lgan munosabatni namoyon qiladi. Olamning obrazini to‘g‘ridan to‘g‘ri reflekslar vositasida anglab bo‘lmaydi, uni faqat o‘ziga xos obrazlarni “o‘z boshidan kechirish”

orqaligina tushunish mumkin. Olam manzarasini “odatdagi” bilish orqali anglab bo‘lmasa-da, uni verbal va obrazli aks ettirish, ifodalash mumkin.[3]

Odam dunyoni tili bilan ko‘radi, tili bilan eshitadi va tili bilan idrok qiladi. Misol uchun yer yuzidagi itlar bir xil tovush chiqaradi, lekin uni o‘zbek “vov-vov” deb eshitadi, ingliz boshqacha, rus millati vakiliga boshqacha eshitiladi. Butun dunyo tillari orasida har bir tovushning eshitilish tarzi bir-biridan farq qiladi. Bu degani inson dunyoni tili bilan ko‘radi va tili bilan eshitadi. Inson biron narsani nomlasa, bu nomni o‘zbek yoki rus o‘z tili bilan ataydi, ular nomlash motiviga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Masalan, “sinchalak” so‘zi, chittak qushining yana bir nomlanishi. Rus tilida u “sinitsa” deyiladi. Yana bir misol, “ariq jildirayapti” deymiz. Buni ingliz boshqacha ataydi. Eshitish tilga ko‘ra bo‘lgani uchun taqlidiy so‘zlar hamma tilda bir xil emas.

Barchasining asosiy mazmun-mohiyati tabiatdagi mavjud tovushlarga taqlid qilish natijasida yuzaga keladi. Tabiatda mavjud tovushlarni qanday eshitsak, shunday taqlidiy so‘z yuzaga keladi. Tilni mana shu tarzda tasnif qiladigan bo‘lsak, til bu faqatgina aloqa vositasi emas, ko‘rish, eshitish, hattoki anglash vositasi ekanligini bilib olamiz.[4]

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, turk, uyg‘ur va boshqa qardosh tillardagi taqlidiy so‘zlarning qiyosiy tahlili to‘g‘risida maxsus tadqiqot ishlari olib borilmagan. O‘zaro bir oilaga mansub bo‘lgan turkiy tillardagi mazkur so‘zlarning qiyosiy tadqiqi shu tilda so‘zlashuvchi xalqlarning “idrok intizomi” (N.Mahmudov), olamni anglash tarzi haqida muhim ma’lumotlar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. -Т.: Фан, 1966. -Б.19.
2. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019. – B. 78.
3. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019. – B. 76.
4. Mahmudov N. “O‘zbek tili – xalq ruhining ko‘zgusi. https://ziyouz.uz/suhbatlar/nizomiddin-mahmudov-ozbek-tili-xalq-ruhining-kozgusi/
5. Hamza Zülfikar. Türkçede Ses Yansımalı Kelimeler. -Ankara: Türk Dil Kurumu, 2018.

SO‘ROQ GAPLAR DIALOGIZATSIYA VOSITASI SIFATIDA

Rahmatov Mardon,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Maqolada muallif kommunikatsiya jarayonining og‘zaki nutqqa xos xususiyatlaridan chiqib, uning yozma nutqqa, jumladan, she’riy asarlarda yuzaga kelishi haqida fikr yuritadi.

Kalit so‘zlar: so‘roq gap, dialogizatsiya, kommunikatsiya, so‘zlovchi, tinglovchi, kommunikantlar, dialogiya.

Ma’lumki, kommunikatsiya jarayonining o‘ziga xos sharti mavjud: unda kamida ikki shaxs ishtirok etishi, ulardan biri so‘zlashi ikkinchisi esa tinglovchi sifatida ishtirok etilishi lozim – ulardan biri so‘raydi, ikkinchisi esa javob beradi. Og‘zaki nutqqa xos bu xususiyat ko‘p hollarda yozma nutqqa, jumladan, she’riy asarlarga ham ko‘chiriladi va

uning badiiyligi, obrazliligini ta’minlashga, lirik qahramon nutqini jonli va ishonchli jonli chiqishiga olib keladi. Ammo she’riy nutqqa kiritilgan so‘roq gaplar, og‘zaki muloqot jarayonidagi kabi real shaxslar, suhbatdoshlar (kommunikantlar) ishtirok qilmaydi. Hatto unda she’riy asar muallifi ham ishtirok qilmaydi. Lirik asarda kommunikantlarning ishtirokini faqat g‘azalda qo‘llangan kommunikatsiya vositalari orqaligina anglash va bu jarayonni his qilish mumkin. Bu, o‘z-o‘zidan, lirik asardagi suhbatdoshlarning (nutqiy subyekt va adresat) o‘rtasidagi munosabatlarning o‘ziga xosligi va ularning favqulotda murakkab xarakterga ega bo‘lishi bilan bog‘lash mumkin. Boshqacha izohlaydigan bo‘lsak, badiiy uslubda muallif o‘zi bilan o‘quvchi (kitobxon) o‘rtasida tenglikka asoslangan munosabatni o‘rnatishi muhimdir. Bu munosabat, o‘z navbatida, nutq subyekti va adresat hamkorligi natijasida yuzaga keladigan muloqot jarayoni bo‘lib, birinchi navbatda *dialogizatsiya*ni nazarda tutadi.

So‘roq olmoshlari va so‘roq yuklamalari so‘roq gaplarni hosil qiladi va kommunikatsiyani yuzaga chiqaruvchi vosita sanaladi. Dialogizatsiyani nazarda tutuvchi kommunikatsiyaning bu turida she’riy nutq to‘g‘ridan to‘g‘ri adresatga yo‘naltiriladi va undan javob reaksiyasi kutiladi. Buning uchun esa muloqot aktida har doim “ikkinchi tomon”, ya’ni adresatga muallif nutqining prinsiplari va dialogizatsiya usullari tushunarli bo‘lishi va uni adresat his qila olishi lozim.

Savollarning kommunikativ vazifa bajarishi uning mantiqiy kategoriya ekanligi bilan bog‘liq. Og‘zaki nutqda so‘zlovchi noma’lum bo‘lgan voqea-hodisa haqida ma’lumot olishni maqsad qilsa, so‘roq so‘zlaridan foydalanadi va shu savolgagina javob oladi. Poetik asarlarda esa “so‘roq mazmunli jumlalar” so‘roq mazmuni bilan cheklanmaydi, balki ular ayni vaqtda o‘z ichiga turli mazmundagi axborotlarni, hatto so‘rashdan maqsad qilinmagan, kutilmagan informativ qiymatga ega bo‘lgan ma’lumotlarni ham o‘z ichiga qamrab oladi. Ularning informativlik darajasi dastlabkisidan ko‘ra ahamiyatliroq va yuqori bo‘ladi [7].

Eski o‘zbek tilida, jumladan, Alisher Navoiyning poetik asarlarida ham so‘roq mazmunli gaplarni hosil qilishda so‘roq so‘zlari (olmoshlari) va so‘roq yuklamalari faol qo‘llangan. Lirik asarlarda, g‘azallarda ham, so‘roq mazmunli jumlalar: sof so‘roq gaplarda ham, ritorik so‘roq gaplarda ham nutq subyekti nutqning og‘zaki shaklidagiday nutqiy holatni yuzaga chiqara olmaydi, nutqning og‘zaki shakliga imitatsiya qilinadi, xolos.

Alisher Navoiy lirikasida sof so‘roq ma’nosi ko‘proq lirik dialoglarda kuzatiladi. Lirik qahramon va uning suhbatdoshi orasidagi dialoglarda og‘zaki dialogik nutqning asl tabiati, jozibasi, jaranggi sezilib turadi. Lekin, lirik asarda nutq subyektining kechinmalari ifodalangani uchun u monologik nutqning tarkibiy elementi sifatida yuzaga chiqadi [8].

Dedim: kamina itingmen, kulub manga aytur:

Navoiy, ne balo xudnamo emishtuksen? (482)

Go‘yoki, shoir avvaldan suhbatdoshining e’tirozlarini, suhbatdoshining o‘ziga bo‘lgan munosabatlarini avvaldan sezgandek, ularning berishi mumkin bo‘lgan savollarini taxmin qilib o‘zi shunday savollarni tuzadi, lekin savollarni ochiq qoldiradi yoki ularning javobini jumlaning o‘ziga joylaydi. Nutq subyektining bu harakati – savol-javobi shoirning monologik nutqni dialogik nutqqa aylantiradi, uning ichki struktura

elementlari (ichki) adresatni, tinglovchilarni va hatto kitobxonlarni, ayrim hollarda esa lirik qahramon Navoiyni ham o‘z suhbatdoshiga aylantiradi, ularning diqqatni faollashtiradi va shu yo‘l bilan she’riy ekspressiyani vujudga keltiradi.

Mumtoz she’riy strukturada lirik qahramon va uning suhbatdoshi orasidagi dialoglarni qo‘llash an’anaviy poetik usul sanalgan va unga she’riy san’at sifatida qarashgan. Savol-javob san’ati, odatda, bir bayt doirasida vazn talabi bilan baytning turli qismlaridan qo‘llangan. Bu san’at g‘azallar matnida juda faol qo‘llangan, u she’rga jonlilik, xayotiylik baxsh etishi bilan barcha mumtoz shoirlarning e’tiborini tortgan [8].

Dedim: ko‘nglumga har yondin xadanging nedurur yora?

Muhabbat o‘tig‘a, dedi, o‘tundurkim, qalaydurmen.(G‘S 452)

Shuningdek, mumtoz poetik asarlarda dialogizatsiyani yuzaga chiqaruvchi vosita sifatida so‘roq so‘zlari (so‘roq gaplar) suhbatdosh tomonidan yangrashi ham mumkin:

Qatl qilg‘aysen meni bir kun vale aytur ko‘ngul:

Ey Navoiy, kech bu so‘zdin, sen kim, ul iqbol kim? (433)

Ma’lum bo‘ladiki, lirik qahramon lirik tasvirlar orqali o‘zining lirik holatini yanada yorqinroq ifodalash uchun o‘ziga “qalban yaqin bo‘lgan” murojaat obyekti – ko‘ngilni keltiradi va shu tariqa og‘zaki dialogik nutqqa xos usulni she’riy dialogizatsiyaga singdiradi. Ko‘rinib turganidek, bunda she’riy dialogizatsiyani ta’minlash uchun maxsus grammatik vositalardan – so‘roq so‘zlaridan foydalangan. Bu poetik dialogik nutq shakli replika-jumla xarakterida bo‘lib, aksariyat hollarda, yuqoridagi dialogik nutq shaklidan javobsizligi bilan farq qiladi. Ammo unda poetik axborot cheklanmagan bo‘ladi. Bunday jumlalar mazmuniga uning javobi ham singdirilgan bo‘ladi.

Lirika uchun urg‘ulangan (aksentlangan) dialogiya, faol munozara badiiy lirika vaqtining hamisha hozirligi, uning vaqt va zamonda cheklanmaganligi, lirik “men”ning kommunikatsiya markaziga chiqarilganligi savol-javob shakllari qatnashgan jumlalarda yanada yaqqolroq va kuchliroq namoyon bo‘ladi, savol xuddi hozir berilayotganday jaranglayveradi:

Necha bo‘lg‘ay manga hajr ichra tazallum, yo rab?

Ayla bu zulm aro holimg‘a tarahhum, yo rab. (G‘S 47)

Mumtoz adabiyotda matnga savol va uning javobini kiritish badiiy san’at darajasiga ko‘tarilgan. Sintaktik-semantik jihatdan mustaqil sanalgan bayt misralarida ikki shaxsning o‘zaro savol-javobini qo‘llash mumkin bo‘lgan va bu savol-javob tarzida nomlangan.

Alisher Navoiy g‘azallarida kuchli ritorikani hosil qilish uchun forsiy grammatik shakllardan ham foydalangan. Shulardan biri *oyo* yuklamasidir. *Oyo* yuklamasining ma’nosi hozirgi o‘zbek tilidagi *nahotki* yuklamasining ma’nosiga mos holda talqin qilish mumkin. Shunga ko‘ra mazkur yuklamali misralar ma’nosi ma’shuqaning ma’lum xatti-harakatidan ta’sirlanish ma’nosi anglashiladi:

Necha javrin tortayin ul sarvi hurizodning,

Yo‘qmudur poyoni oyo zulm ila bedodning? (355)

Agar ikkinchi misra *nahotki zulm bilan bedodlikning poyoni yo‘q bo‘lsa*! tarzida tushunilsa, adresatdan *albatta, bor* yoki *albatta, yo‘q* tarzidagi ichki nido-javob yangraydi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, og‘zaki dialogik nutqda qo‘llanadigan sof so‘roq gaplar o‘z ma’nosida nasriy asarlarda ham ma’lum darajada takrorlanadi. Ammo she’riy asarlarda so‘roq olmoshlari va so‘roq yuklamalari yordamida hosil qilingan so‘roq (gap)lar faqat shakl tomondangina so‘roq gaplar sanaladi. Shunisi ayonki, lirik asarlarda so‘zlovchi/lirik qahramonning niyati o‘ziga noma’lum bo‘lgan voqea-hodisa haqida so‘rash emas, balki o‘ziga ma’lum voqea-hodisa hakida poetik axborot berish nazarda tutiladi, shu ma’noda, uning informativ qiymati yuqori darajaga ko‘tariladi [7]. Odatda, so‘zlashuvda, nasriy nutqda so‘roq gaplar axborot (yangi ma’luot) uzatishga xizmat qilmaydi, unda faqat adresatni faollashtirish, undan ma’lumot olishga qaratiladi [9]. Shuning uchun bunday gaplarda asosan ritorika mavjud bo‘ladi va ular ritorik so‘roq gaplar sifatida tasnif qilinadi. Demak, shoirning maqsadi biror narsa, voqea-hodisa haqida bilim/axborotga ega bo‘lish emas, balki ritorik so‘roqlar orqali yangi axborotni uzatish, o‘zining lirik kechinmalari bilan ulashishdir:

Ko‘ngulki, ishqida dersen balo ne bo‘lg‘usidur?

Nekim, bo‘lur, sanga bo‘lg‘ay, manga ne bo‘lg‘usidur?! (G‘S 142)

Ritorik so‘roqlarning o‘ziga xosligi shundaki, u maxsus javobni talab qilmaydi, biror bir voqea-hodisa yoki lirik tasvirni hissiy tasdiqlash yoki uni rad etish uchun xizmat qiladi. Suhbatdosh/adresatga ritorik savol berish orqali ularda ijobiy tasdiq yoki salbiy tasdiq effektini hosil qilish nazarda tutiladi. Shuning uchun ham u dialogizatsiyaning samarali usuli sanaladi. Shoirning bu tasvir usuli badiiy tasvir uchun ham nihoyatda muhim sanaladi va tasvir obyekti haqida “bilishi, lekin o‘zini bilmaslikka olish”i uchun qo‘l keladi. Bu poetik tasvir badiiy san’at turi sifatida klassik shoirlar tomonidan keng qo‘llaniladi:

Vahki, mendin ayru yuz jon, yo‘qsa jononmu ekin?

Manga onsiz ming o‘lum yo dardi hijronmu ekin? (G‘S 456)

May birla yuzung tim-tim ahmarmu ekin oyo,

Yo shu’la aro bir-bir ahgarmu ekin oyo? (G‘S 36)

Mumtoz she’riyatimizdagi *tajohuli orif* san’ati ritorik so‘roqlarning ayrim ko‘rinishlariga o‘xshash. Lirik qahramon – biluvchining bilmagan kishi bo‘lib ko‘rinishi, o‘zini bilmaslikka solishi – mumtoz adabiyotdagi she’riy san’at sanaladi. Bunda shoirning asl muddaosi biror narsaning asl holatini bilmagandek, uni boshqa biror narsaga o‘xshatish, yo madh etish, yo mubolag‘a, yo hazil qilish bo‘ladi. Tajohuli orif qo‘llangan bayt ritorik so‘roq gap tarzida shakllanadi, ya’ni shoir, aslida, biror narsani so‘rash, noaniq narsa yoki belgiga aniklik kiritishni emas, ritorik so‘roq orqali yorning go‘zalligi, oshiqning holati yoki boshqa shu kabi biror vaziyatni o‘xshatish, qiyoslash orqali e’tirof etishni maqsad qiladi: [7]

Yuzni gullardin bezabmu bizni qurbon aylading,

Yo yuzungga tegdi qonlar bizni qurbon aylagach? (G‘S 98)

-mu so‘roq yuklamasi bilan hosil qilingan so‘roq gaplar ham mazmunan ritorik xarakterga ega bo‘lib, adresatdan yashirin yoki fikran *–ha* yoki javob so‘zlarini talab qiladi.

Quyidagi bayt mazmuni *–yo‘q* yoki *–ha* javobini talab qiladi: *gulobning ichida* yoki *–yo‘q gulobning ichida emas*; *–ha usruk ko‘z ...soldi yoki –yo‘q usruk ko‘z ... solmadi*

kabi. Bu kabi so‘roq gaplar o‘zining dastlabki og‘zaki dialogik nutq shaklini ma’lum darajada saqlab qoladi va kuchli ekspressiyaning yuzaga kelishini ta’minlaydi.

Terlagan la’li gulob ichramudur gul bargi

Yo‘qsa usruk ko‘zmu soldi araq ichra nabot? (G‘S 83)

Quyidagi baytda ham adresat yuklamani qabul qilgan so‘z ma’nosidan kelib chiqib, *–ha* yoki *–yo‘q* javobini berishi mumkin bo‘ladi.

Yuzni gullardin bezabmu bizni qurbon aylading,

Yo yuzungga tegdi qonlar bizni qurbon aylagach? (G‘S 98)

Qatl qilg‘aysen meni bir kun vale aytur ko‘ngul:

Ey Navoiy, kech bu so‘zdin, sen kim, ul iqbol kim? G‘S 433)

Yuqoridagi so‘roq gaplar klassik adabiyotda *ritorik so‘roqlar* sifatida tasniflanadi va badiiy san’at turi sifatida shuhrat qozongan. Ritorik so‘roqlar xuddi ritorik murojaatlar kabi nutqning bezagi, emotsionallikni kuchaytirish, fikrni ta’kidlab ifodalash singari maqsadlarga xizmat qilgan. Ritorik so‘roq gaplarning mazmunidan yashirin tasdiq yoki inkor javoblar sezilib turadi. Quyidagi baytdagi lirik qahramonning so‘roqlari mazmunidan bo‘lishsizlik ma’nosi “*hech qaysiningdek*” anglashiladi: [7]

Qaysi bir ko‘kning yuzingdek mehri olam tobi bor?!

Qaysi gulshanning shamolingdek guli serobi bor?! 190

I.I.Kovtunova rus she’riyatidagi lirik qahramonning lirik so‘roqlarga adresatning munosabati masalasini o‘rganib ularni quyidagi uch belgisiga ko‘ra farqlanishini aytadi:

1) savol yo‘llangan adresat – lirik matnda savollar har qanday ichki adresatga (so‘zlovchining o‘zi, o‘zga shaxs va predmetlar) va tashqi adresantga yo‘llanishi mumkin (adresat-o‘quvchi, adresat-insoniyat, noaniq yana allaqanday adresantlar);

2) savolning javobini biladigan adresat – bu kabi adresantlar javob talab qilinmaydi. Ular mohiyatan javobsiz so‘roqlardir (lirik savollarning javobsizligini bilib yozuvchining o‘zi javob berishi ham mumkin);

3) og‘zaki dialogdagi kabi tez javob reaksiyasini amalga oshira oladigan adresat – bu rolni faqat shoirning o‘zi ijro qilishi mumkin, chunki savol-javob faqat misrada, she’r qismlarida keltiriladi [7]. Ayni shu tasniflar o‘zbek lirik she’riyati uchun ham xosligini ta’kidlash o‘rinli.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedova N. O‘zbek tilida murojaat birliklariningsemantik-konnotativ tadqiqi. Filol.fanlari nomzodi diss. – Toshkent, 2008. – B.154.

2. Ashirboev S. Alisher Navoiyning nasriy asarlaridagi sodda gaplarning tarkibiy va ma’no xususiyatlari.: Filol.fanlari doktori dis. –T., 1990. – B. 291.

3. Bazarov O.O. O‘zbek tilida gapning kommunikativ (aktual) tuzilishi. Filol. fanlari nomzodi dis. avtoref. – Farg‘ona, 2004. – B. 23.

4. Bozorova N. Alisher Navoiy g‘azallarida ko‘ngil obrazi: Filol. fanlari nomzodi diss. – Toshkent, 2002.

5. Boymirzaeva S.U. Oybek prozasining lingvostilistik tadqiqi: Filol. fanlari nomzodi diss. ... avtoref. – Toshkent, 2004.

6. Jo‘raeva N.G. O‘zbek mumtoz she’riyatida bayt va uning poetikasi. Filol.fanlari nomzodi diss. –T., 2004. – B. 10-13.

7. Kovtunova I. Poeticheskiy sintaksis. –M.: Nauka. 1986.

8. Quronov D. va b. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr. 2010.
9. Nurmonov A. va b. O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi. –Toshkent: Fan, 1992.
10. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. –Toshkent: Fan, 1986. – B. 310.
11. Husayniy Ataulloh. Badoyi’-us sanoyi’. –Toshkent: Fan, 1981. – B. 185.

“QO‘CHQOR” VA “QO‘ZI” ZOONIMLARI ASOSIDA SHAKLLANGAN MAQOLLARNING SEMANTIK TAHLILI

Bibish Jo‘rayeva,
filologiya fanlari doktori, professor,
bibishjrayeva@mail.ru
Maftuna Sharipova,
Buxoro davlat universiteti,
o‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi
behruz.lux.stal.93@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada “qo‘chqor” va “qo‘zi” leksemalari ishtirok etgan xalq maqollarining semantikasi yoritilgan bo‘lib, ushbu turdagi maqollar ko‘chma ma’no ifodalash imkoniyatiga ko‘ra ma’noviy guruhlarga bo‘lingan. Har bir guruh tarkibiga mansub maqollar badiiy asarlardan olingan parchalar orqali izohlangan.

Kalit so‘zlar: maqol, lug‘aviy ma’noviy guruh, ko‘chma ma’no, semantika, nomlash, qo‘chqor, qo‘zi.

Milliy-madaniy xususiyatlarni o‘rganish va saqlash masalalari tobora dolzarb bo‘lib borayotgan hozirgi davrda xalq og‘zaki ijodi namunalarini tadqiq etish muhim masala sifatida maydonga chiqadi. Xalq og‘zaki ijodining sermahsul turi maqol bo‘lib, u yaxlit ma’noga ega bo‘lgan va deaktuallashtirilgan birliklardan iborat bo‘lgan gap shaklidagi turg‘un ifodadir (predikativ tuzilma). Maqol xalq va uning tili bilan birga tug‘iladi, xalq bilan yashaydi; uning zamirida xalq kechinmalari, dunyoviy tajribasi, falsafasi ifodalangan bo‘ladi. Sharq xalqlari maqolni “til jilosi” («цветом языка»), “ochilmagan marvaridlar” («ненанизанными жемчужинами»), yunon-rimliklar («господствующими мнениями») “ustun fiklar”, italiyaliklar “xalq maktabi” («училищем народа») ispanlar “ruhni davolovchi” («врачевством души»), nemislar – “ko‘cha donoligi” («уличной мудростью») [4,23] kabi nomlar bilan ifodalaydilar. Maqol – o‘ziga xos, milliy, madaniy, an’anaviy, maishiy qatlamlardan tashkil topgan umuminsoniy tuyg‘ularni, psixofizik holatlarni ifodalashga xizmat qiladi. O‘zbek xalq maqollarida zoomorfemalarning qo‘llanishi faol bo‘lib, ushbu maqolada “qo‘chqor” va “qo‘zi” leksemalarining metaforizatsiyasi haqida fikr yuritiladi.

I. “Qo‘chqor” zoonimi asosida shakllangan o‘zbek xalq maqollarini ko‘chma ma’no ifodalash imkoniyatlariga ko‘ra quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Ustunlik

1. Bir qo‘chqorning shoxi singuncha,
Yuzta qo‘yning boshi ketadi.

Qo‘chqor – qo‘yga nisbatan ancha kuchli va ustun. Podadagi bir qancha qo‘ylar turli sabablarga ko‘ra nobud bo‘lsa-da, qo‘chqor kuchliligi tufayli uncha-muncha xatar oldida taslim bo‘lmaydi. Variantlari: “Bir qo‘chqorning boshi ketguncha, ming sovliqning boshi ketadi”; “Bir qo‘chqorning boshi ketguncha, necha to‘qlining boshini yeydi”[6,42].

Sinonimlari: “Bitta qovun pishguncha, yuzta sapcha uzilib ketadi”; “Bir xum singuncha, necha xumcha sinadi[6,42].

“Bir qo‘chqorning boshi ketguncha, minglab qo‘yning boshi kesilar emish, deb ayt domlangga! – dedi [9,160].

2. Kuch-qudrat

1. Ikki qo‘chqorning boshi bir qozonda qaynamas.

Odatda, sovliqning boshidan qo‘chqorning boshi kattaroq bo‘ladi. Ro‘zg‘orda ishlatiladigan qozonda bir yo‘la ikki sovliqning boshi qaynashi mumkin-u, ammo ikki qo‘chqorning kallasini bir qozonga sig‘dirib ham, bir yo‘la qaynatib ham bo‘lmaydi [7,155]. Sinonim va variantlari: “Bir ungurga ikki ayiq sig‘maydi”, (ungur — gumbaz shaklidagi shipli va og‘zi keng, uncha chuqur bo‘lmagan g‘or, tor yo‘lakdan so‘ng g‘orning kengaygan qismi; erigan suvlar oqib chiqib ketadigan muz tili uchidagi chuqur [8,116]). “Ikki kambag‘al bir kapaga sig‘adi, ikki boy bir dahaga sig‘maydi” (kapa – chayla – ibtidoiy jamoa davridan qolgan boshpana bo‘lib daraxt shoxi, qamish, jo‘xori poyasi, mato, pichandan quriladigan mavsumiy (yozlik) turar joy, o‘tov [8,127]; daha – (fors – o‘nlik) – 1) o‘rta asrlarda Markaziy Osiyo va Eronda o‘n kishidan iborat bo‘linma; eshonlarning xonaqohlarida bo‘lib o‘tadigan o‘n kunlik toat-ibodat [8,128]. *Majozan ikkita bir xil mansabli yoki mavqeli kishi kelishmasligi, har doim bir-birini yengishga urinishi tasvirlangan.*

– K o m i l. (Nigorani yetaklab chetga olib chiqadi). Jon singlim, ikki-uch kun kampirning aytganlarini qilib turing. Keyin bu yog‘ini bir balo qilarmiz. Bunaqada bo‘lmaydi. Ikki qo‘chqorning boshi bir qozonda qaynamas, deb bekor aytmagan ekanlar. Bir hafta, bir hafta. Nima desalar shuni qiling[1,38].

2. Ikki qo‘chqor urishar,

Echkining buti ayrilar.

Ma’lumki, qo‘y-echkilar maxsus qo‘yxona (qo‘ton)larda saqlanadi. Ko‘pincha, qo‘chqorlar urishgan vaqtda, ular orasida qolgan echki jarohat oladi. Qo‘chqor qudratli, echkiga qaraganda kuchli va ustun, shu tufayli ikki qo‘chqor urishganda echki chorasiz va ojiz qoladi. Maqolning ko‘chma ma’nosi: ikki rahbar kelishmay qolsa yoki janjallashsa, o‘rtada begunoh, oddiy kishilar, ishchilar zahmat chekadi.

3. Yetakchilik

1. *Podani qo‘chqor yetaklar.*

Qo‘chqor kuchli va qo‘rqmas bo‘lganligi sababli podani belgilangan manzilga yetaklab borish vazifasini bajaradi. Majozda har qanday ishni oilada xonadon ustuni, erkagi boshlab berishi, shundagina ishda baraka, xonadonda fayz bo‘lishi nazarda tutilgan.



1. Ustunlik
2. Kuch-qudrat
3. Yetakchilik

II. “Qo‘zi” zoonimi asosida shakllangan maqollarni ko‘chma ma’no ifodalash imkoniyatlariga ko‘ra quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Befarosatlik
2. Beg‘amlik
3. Himoyasizlik
4. Uddaburonlik
5. Pastlik
6. O‘ynoqilik



1. Befarosatlik

1. Oqsoq qo‘zi tushdan keyin ma’raydi.

Odatda, ertalab qo‘zilar yaylovga haydab chiqariladi, so‘ng tushda yana olib kelib ona qo‘ylarga emiziladi. Shunday vaqtda oqsoq qo‘zi (noshudligidan, oyog‘ini biror joyga tiqib, oqsoq bo‘lib qolganligidan) onasini emadigan yeriga vaqtida yetib kelolmaydi, u yetib kelgunga qadar cho‘ponlar onasini boshqa qo‘ylarga qo‘shib, yaylovga haydab ketadilar. Natijada qorni ochgan, onasini qo‘msagan oqsoq qo‘zi tushdan keyin ma’raydi. Bu – maqolning to‘g‘ri ma’nosi. Majozda noshud, qo‘lidan bir ish kelmaydigan, buning ustiga erinchoq odamni oqsoq qo‘ziga tashbeh etadilar. Bunday odam bir ishning uddasidan chiqolmay, qiynalganidan dod-faryod chekadi. Ma’nodosh va variantlari: “Oqsoq qo‘y – ovul qoshida yo quduq boshida”, “Oqsoq qo‘y yotib semirar”, “Oqsoqdan hazar, Ko‘rdan ofat”, “Oqsoqning oxiriga boq” [7,339].

2. Beg‘amlik

1. Pichan tizzagacha, qo‘y junigacha, suv qayiqqacha,
Ammo kulrang qo‘zichoq maza qilib yotadi.

Pichan – hayvonlarga ozuqa bo‘ladigan o‘t, o‘rib quritilgan o‘t, xashak. Pichan, ya’ni o‘t tizzaga yetgach o‘riladi, umri tugaydi. Qo‘y ham juni olungunga qadar boqiladi, so‘ng so‘yiladi. Kulrang qo‘zichoq esa hech narsadan xabarsiz, voyaga yetgunga qadar tashvishsiz bo‘ladi. Ushbu maqol hayotda xursand, xafa, o‘lim yoqasida turgan kishilar bilan bir qatorda, beg‘am, boshqalar dardi bilan ishi yo‘q kishilar ham mavjud ekanligiga ishora tarzida qo‘llangan.

3. Himoyasizlik

1. Kambag‘alning yolg‘iz qo‘zisiga qashqir tegar.

Ma’nodoshi: “Ming qo‘ylining qo‘yi qoldi, bir qo‘ylining qo‘yi ketdi”. Kambag‘alligi sababli ko‘plab qiyinchiliklarga chidagan xalq peshanasi sho‘rligidan nolib, ushbu maqolni qo‘llagan, shu tariqa boshiga tushgan kulfatlardan shikoyat qilgan. Ko‘chma ma’noda esa ba’zan insonlarga g‘am-anduhning ketma-ket kelishi, ularning musibatga duchor bo‘lishi ta’kidlangan.

4. Uddaburonlik

1. Ema bilgan qo‘zilar ikki onani emar,
Ema bilmas qo‘zilar o‘z onasini emmas.

Uddaburon, chaqqon qo‘zilar o‘zining onasidan tashqari, boshqa ona qo‘yni ham emadi. Bu esa uning tezda ulg‘ayishiga sabab bo‘ladi. O‘z onasini emishni ham uddalay olmagan qo‘zichoqlar esa go‘lligi sababli bir chekkada qolib ketadi. Natijada u boshqa

qo‘zilardan ko‘ra sekin o‘sadi, kasalliklarga tez chalinadi va hatto nobud bo‘lishi ham mumkin. Majozda esa aqlli, tadbirli insonlar bir necha ishni uddalay olishi, hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi; biror ishni eplay olmagan kishilar esa ko‘p qiyinchiliklarga duchor bo‘lishi, o‘ziga zarar yetkazishi ta’kidlangan. Ushbu maqol hushyorlikka chorlov tarzida aytilgan hikmat sanaladi.

– Va yana aytibdurlarki, “Ema bilgan qo‘zilar ikki onani emar,ema bilmas qo‘zilar o‘z onasini emolmas”, kamina o‘z nafsini ham xushnud qilurman va sulton amrini… Sen xo‘jangga tanbih bergudek bo‘ldingmu?[2,39]

5. Qo‘rqoqlik

1. Yo‘lbars yo‘lbarsdir,

Hech qachon qo‘zichoq bo‘lmasdir.

Qo‘zichoq ulug‘vorlik jihatdan yo‘lbarsga tenglasholmaydi. U yo‘lbarsning oldida ojiz hayvonga aylanadi. Qo‘zi yosh, himoyasiz, yo‘lbars esa quch-quvvatga to‘lgan, yirtqich hayvon bo‘lgani sababli ular bir-biriga zid qo‘yiladi. Majozda ham qo‘rqoq odamlar hech qachon jasur insonlarga tenglasholmasligi ifodalangan.

– Shu onda Asadbek yanglish fikr yuritayotgandi. Bu fikri o‘zi yaxshi ko‘rib aytib yuradigan “yo‘lbars-yo‘lbarsdir, hech qachon qo‘zichoq bo‘lmas”, degan gapiga zid edi [3,297].

6. O‘ynoqilik

1. O‘ynoqi qo‘zi oyna sindirar.

Ko‘l va oyna obrazlaridagi o‘xshashlik: tiniqlik, aksini ko‘rsatish, nurni jilovlantiruvchanlik. Bu borada folklorshunos K.Imomovning fikri shunday: oyna va suvning odam rasmini aks ettirish xususiyati har ikkisini bir narsa deb bilishdan, unga ishonch bildirish, e’tiqoddan kelib chiqqan. Shuning uchun ham oyna tilsimi faqat suv va daryoga aylanadi. Aytish joizki, oyna magiyasining paydo bo‘lishi uning genetik asosini belgilaydi, shakllanishi va muqaddasligiga ishonch, e’tiqoddan, qolaversa, estetik munosabatdan boshlangan [5,130]. Majozda haddan tashqari o‘ynoqi boladan qo‘rqish kerakligi ifodalangan. O‘ynoqi bolalar yoki kattalar eng qadrli narsani yo‘qotishi mumkinligi ta’kidlangan. Ko‘zgu, oyna kabilarning asosi suvga borib taqalgani sabali o‘zbek xalqi orasida ko‘zgu, oyna – tozalik, shaffoflik ramzi sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Анвар Саид. Ораликдаги одамлар. Вали Бобомуробов. Бир юз ўн бир кун. Қиссалар. –Тошкент, 1989.

2. Gulxaniy. Zarbulmasal. –Toshkent: O‘zbek davlat badiiy adabiyoti, 1958. –B.39.

3. Malik T. Shaytanat. 4-kitob. –Toshkent: Nashriyot-matbaa konsernining bosh tahririyati, 1997. – B. 297.

4. Майтиева, Р. А. Структурно-семантическая характеристика пословиц и поговорок даргинского языка в сопоставлении с английским. кандидат филологических наук. 2011, Махачкала.

5. Шарипова Л. Шеърият ва фольклор (XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек шеърияти мисолида). – Тошкент: “Наврўз” нашриёти, 2019. – Б. 130.

6. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар маҳзани (ўзбек мақолларининг изоҳли луғати). – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2001. – Б. 42.

7. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. – Тошкент, 1990. – Б. 155.

8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки жилдлик. 1-жилд. А-Р. – Москва: Рус тили. 1981. – Б. 116.

9. Қодирий А. Ўткан кунлар. Янги аср авлоди. – Тошкент, 2014. – Б. 160.

TIBBIY DISKURSDA OHANG VA SUKUT

Yuldasheva Dilorom,
pedagogika fanlari nomzodi, professor,
Buxoro davlat universiteti,
e-mail: diloromxon.68@mail.ru

Annotatsiya. Milliy til va milliy tafakkur mushtarakligidan kelib chiqqan holda har bir lisoniy hodisaning kognitiv, ekspressiv, akkumulyativ jihatlarini tekshirish mazkur yo‘nalishning asosiy vazifasiga aylangan. Zero, o‘zbek muhitida ham tilni o‘z sohibi bilan birga ijtimoiy muhit, madaniyat, milliylik kabi omillar mushtarakligida tahlil etishni davr taqozo etmoqda. Mazkur maqolada tilning lingvopragmatikani amalga oshirish vositasi sifatida tibbiy evfemik ma’nolarni yuzaga chiqarishga xizmat qiluvchi verbal (metafora, evfemizatsiya va b.) va noverbal (ohang, sukut) birliklari tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: nutqiy muloqot, tibbiy evfemik ma’no, metafora, evfemizatsiya, noverbal vositalar: ohang, sukut

Shifo ahlining bemorga xayrixohligi, iliq muomalasi, insoniy munosabati, avvalo, shifoga muhtoj kishining ruhiy dunyosida muvozanat o‘rnatadiki, bu bemorning o‘z dardiga to‘g‘ri munosabatini shakllantiradi. Abu Ali ibn Sino ta’biri bilan aytganda, shifokor – bemorning do‘sti, ustozi va yordamchisidir. Mas’uliyatli bu vazifani bajarish uchun shifokorda kasbiy bilim va tajribadan tashqari, insoniy fazilatlar – rahm-shafqat, vijdon, iymon-e’tiqod, bir so‘z bilan aytganda yuksak darajada madaniyat va ma’naviyat shakllangan bo‘lishi zarur.

Ko‘pincha, bemorning nozik tana a’zolarida illat, dard paydo bo‘lishi bemor va shifokor muloqotini og‘irlashtiradi. Ana shunday paytlarda tibbiy efemizmlar mazkur jarayon uchun yordamga keladi. Buni ba’zi misollarda ko‘ramiz.

Havo o‘tkazmaydigan har qanday tagliklar esa yorg‘oqning qizib ketishiga olib kelib, o‘g‘il bolalar jinsiy rivojiga salbiy ta’sir etishi bois xatarli hisoblanadi. (“Shifo-info”, 2016. №13. –B.34.)

Ro‘y bergan avariya qizning ko‘payish a’zosiga qattiq ta’sir ko‘rsatgan. Biz uni zudlik bilan jarrohlik stoliga yotqizishimiz kerak.

Sochiqlardan foydalanishda ham e’tiborli bo‘lish foydadan xoli bo‘lmaydi. Nozik sohalar uchun sochiqlar ham toza, yumshoq va, eng asosiysi, shaxsiy bo‘lmog‘i zarur. (“Shifo-info”, 2016.№20. –B.34.)

Bemorda peshob tutilishi kuzatilgani bois unga sistostoma o‘rnatiladi. Shu usulda adenomaning peshob chiqarish kanalini bevosita ezib turuvchi qismi olib tashlanadi. (“Shifo-info”, 2016. №20. –B. 47.)

Bo‘qoq kasalligini vaqtida davolamasangiz, agar siz tug‘ruq yoshida bo‘lsangiz, homilador bo‘lishingiz muammoga aylanadi, chunki yod tanqisligi ayolning nasl qoldiruvchi xususiyatiga ham ta’sir ko‘rsatadi. (“Doktor press”, 2016. №26. –B. 7.)

Keltirilgan misollardagi *yorg‘oq, ko‘payish a’zosi, nozik sohalar, peshob chiqarish kanali, nasl qoldiruvchi xususiyat* kabi tibbiy metaforik evfemizmlarni nutq jarayonida qo‘llash bemor uchun ham, shifokor uchun ham noqulaylik tug‘dirmaydi. Misollardan ko‘rinadiki, milliy dunyoqarash tilning metaforik tayanchlari bilan uyg‘un, ikkilamchi nominasiya mexanizmi va mahsuli bo‘lgan ko‘chimlarda evfemizmlar yetakchi o‘rin egallaydi.

Shu o‘rinda metaforik evfemizmlar xususida biroz to‘xtalamiz.

Metaforik evfemizmlar milliy-mental munosabatning borliqni aks ettirishida namoyon bo‘ladi, u madaniy qadriyatlarning tilda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi, metaforada aniqlik va ta’sirchanlik, jozibadorlik bilan birga mavhum munosabat ham kuzatiladi. Shunisi muhimki, metaforik evfemizm nutqiy shaxsning qanday lingvomadaniy muhitga daxldorligi, tafakkur tarzi va til bilimiga bog‘liq holda sodir bo‘ladi. Metaforali evfemistik ifodalar asosiy axborot mazmuni va uning ustida qavatlangan konnotativ ma’no hamda munosabatdan tashkil topadi. Axborot evfemistik konnotativ ma’no bilan murakkablashadi, konnotativ ma’nolar sirasida metaforik obrazga asos bo‘lgan salbiy yoki ijobiy munosabatdan biri etakchilik qiladi. Konnotativ ma’noning kuchayishi denotativ va funksional ma’noning kuchsizlanishiga ko‘ra vujudga keladi.

Shifokor, aslida yaxshigina notiq, psixolog, pedagog bo‘lishi kerak. To‘g‘ri, aslida shifokor ham oddiy inson. U ham ota, ona, kimningdir turmush o‘rtog‘i yoki yaqini. U turmush ikir-chikirlari, xizmat vazifasi davridagi qiyinchilik, kasalga tashxis qo‘yish bilan aloqador murakkabliklar boshdan kechiradi, ertalabdan kechgacha ishlashdan jismonan toliqadi, ba’zan stress holatiga uchraydi. Demak, bunday vaziyatlarda shifokor, avvalo, murakkab psixiologik holatdan o‘zini o‘zi olib chiqishi kerak. Bu esa vrachning kuchli irodasi, ma’naviy madaniyatining rivojlanganlik darajasi bilan uzviy bog‘liq.

Garchi tibbiy diskurs ham boshqa preskriptiv va direktiv hujjatlar diskurslariga qo‘yiladigan talablarga bo‘ysunsa ham, uning barcha ko‘rinishlariga har doim ham rioya qilinavermaydi. Diskursning mezonlari hamisha ham mutlaq va qotib qolgan holatda emasligiga ushbu dalillar asos bo‘la oladi:

Bemorning orqa chiqaruv yorig‘idan chiqqan gemrroidal tugunlar mustaqil o‘z joyiga tushmaydi va uni faqat bosim ostida o‘z joyiga tushirish mumkin. (http://tmatm.uz/)

Gapiradigan kasallik (gemorroy) to‘g‘ri ichak pastki qismlari va orqa chiqaruv teshigi atrofidagi vena qon tomirlarining kengayib, shishish kasalligi hisoblanadi. (https://daryo.uz)

Demak, tibbiy diskursda nutqiy muloqot madaniyati birliklarini muayyan sharoitda bemorning ahvoli, jinsi, ruhiyatiga qarab shifokorning o‘zi yaratadi. Tom ma’noda, tibbiy evfemizm – shifokor va bemor muloqoti jarayonida aytilishi uyat, qo‘pol yoki

muloqot a’zolarini noqulay holatga soladigan (so‘z, ibora, so‘z birikmasi, gap ba’zan matn kabi) birliklar hamda kasallikning maxfiyligini saqlash uchun tibbiyot terminlari o‘rnida qo‘llaniladigan, shuningdek, bemor ruhiyatiga shikast etkazmaslik maqsadida, odatda, shifokor tomonidan ishlatiladigan nutqiy hosilalar. Ya’ni shifokorning metaforik tafakkurda o‘z kasbi bilan bog‘liq yangi obraz yaratishi. Metaforik tibbiy evfemizmlar – nutqiy san’at, yaratilma, zaruriy topilma. Zero, so‘zlovchi ichki sezimining kuchi, idrokining teranligi metaforada, bu kuch va teranlik darajasi esa ularning metaforik topilmalarida yuzaga chiqadi. Metaforaning qimmati noodatiyligi va hamisha yangilanib turishidadir. Tibbiy metaforik evfemizmlar bemorning holati haqidagi yalang‘och haqiqatni yangi – muloyim, silliq shakl qoliplariga solish demakdir.

Umuman, tibbiy metaforik evfemizmlar shifokordan tafakkurning yuqori darajasiga ko‘tarilishni, voqelikni ifodalashda reallik hamda noreallikni muvofiqlashtirishni, aniqrog‘i, ulardagi muvofiqliklarni anglashni talab etuvchi tafakkur usulidir.

Inson qalbiga, botiniy dunyosiga qanchalik chuqur kirib borilsa, shunchalik yangidan-yangi qirralar kashf etilaveradi. Demak, tibbiyot xodimlari eng avvalo, inson qalbiga chuqur kirib borishi, unga yo‘l topishi kerak. Shifokorlar zimmasida aholining sihat-salomatligi va hayotini saqlashdek g‘amxo‘rlik mas’uliyati bor ekan, ular o‘z kasblariga halol, yuksak mas’uliyat hisi bilan yondashishi, ma’naviy burchlari va deontologik madaniyatiga sodiq bo‘lishlari muhim.

Vaholanki, davo jarayonida so‘z qudratli qurol, tengsiz malham, yarim shifo demakdir. Odamzodga so‘z ta’siri har qanday malhamdan yuqoriroq turishi sir emas. So‘z ruhni davolaydi. Buqrot hakim aytganidek: “Inson ruhini davolamay turib, tanga shifo berib bo‘lmaydi”.

Ammo diskursda tibbiy evfemizmlarni qo‘llashning o‘zigina kifoya emas. Shifokorning so‘zlash ohangi, hatto saqlagan sukuti ham o‘rinli, nutqiy sharoitga mos bo‘lishi zarur. Agar shifokorning so‘zlash ohangida beparvolik, qo‘pollik, bepisandlik yoki nosamimiylik sezilsa, har qanday evfemik birlik ham ta’sir kuchini yo‘qotadi.

Nutqning asosiy noverbal komponentlaridan biri ohangdir. Murakkab va ayni paytda, mazmunan, shaklan va mavzu doirasi jihatidan nihoyatda rang-barang, betakror nutqiy muloqotda verbal vositalar bilan birga noverbal vositalar ham muhim o‘rin tutadi. Ba’zan nutq jarayonining shakli faqat noverbal bo‘lishi ham mumkin. Albatta, bu nutqiy sharoit, ijtimoiy muhit, kommunikantlarning til sezgirligi kabi qator faktorlarga bog‘liq.

Masalan, *Kechasi allamahalda Qodirali otaning umr yo‘ldoshi Hafiza ayaning ahvoli og‘irlashib qoldi. Chaqirilgan "tez yordam"chilar ancha kechikib kelishdi. Qodirali ota oq xalatli vrach bilan xamshiraga yo‘l boshlar ekan, yo‘l-yo‘lakay xotinining holatini tushuntirishga urindi…*

–Vahima qilmang, ota, qon bosimi keksalarning ko‘pida bor, – dedi beparvo ohangda vrach…(http://shifokorvahayot.uz/)

Parchadan ma’lum bo‘ladiki, so‘zlovchi (shifokor)ning gap ohangidagi *beparvolik ohangi* tinglovchi (bemorning yaqini)gayoq salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shifokorning o‘z kasbiga mas’uliyatsizligi uning so‘z ohangidan bilinib turibdi.

Misol.

–Kecha nima ovqat yegandingiz?

Asablarim taranglashib ketdi. Yana shu savolmi? Ertalabdan buyon barcha ko‘rgan shifokor shu savolni berdi. Ammo natija bo‘lgani yo‘q. Onamdan oldin javobga shoshdim.

–Ilgari kuni anorli salat bilan osh yeganlar. Kecha manti qilgandim.

–Tushunarli,–dedi shifokor mening jahlimga qarshi o‘laroq samimiyat bilan. – Onaxonni qabziyat qiynayapti. Manavi doridan ikki dona olib chiqing. Tuzalib ketadilar.

… Ko‘p o‘tmay onajonimning ko‘zlari porlab, oyoqqa turdilar.

Shifokor:

– Yaxshisi, – dedi shifokor menga iltimos ohangida xuddi o‘z onasi haqida qayg‘urayotgandek, – onaxonga tez-tez suyuq ovqatlar tayyorlab bering. Salomat bo‘linglar! (http://fsh.uz/)

Shifokorning bosiqligi, o‘z kasbining bilimdoni ekanligi, asosiysi, muomala-munosabati bemorga ham, uning yaqinlariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatganligini parchadan anglab olish qiyin emas.

Agar diskursda so‘zlovchining maqsadi nutqda ifodalanayotgan biror fikrni asosiy nutq voqeligiga aylantirmoqchi (gap qo‘zg‘amoqchi, e’tibor qarattirmoqchi, ba’zan shu orqali biror axborotga ega bo‘lmoqchi) bo‘lganda rag‘batlantiruvchi ohangdan foydalanadi. Misol,

–Eh, yengilgina dardga ham odam cho‘zilib yotaveradimi? – dedi xona kirib kelgan shifokor ko‘tarinki ohangda xuddi eski qadrdonlardek.

Karim so‘lg‘in jilmaydi. Endi dardini boricha aytmasa bo‘lmasligini angladi.

Nutqning asosiy noverbal komponentlaridan yana biri *sukut*dir. Har qanday faoliyat o‘zining amaliy qimmati bilan ahamiyatli. Nutq muloqot faoliyati bo‘lganligi uchun uning samarasi ham nutqning ta’sirchanligi, ma’lum bir maqsadga erishganligi bilan belgilanadi. So‘zlovchi va tinglovchi (kommunikant)larning bir-biriga ta’siri, ma’lum maqsadni yuzaga chiqarish darajasi muloqot jarayonining amaliy samarasi hisoblanadi. Zero, nutqiy muloqot oddiy nutq(lisoniy imkoniyatlarning muayyan moddiy shaklda voqelanishi)dan farqlanuvchi, o‘zining murakkabligi, verbal va noverbal, shuningdek, milliy, etik, estetik, etnografik, psixologik, ijtimoiy kabi tarkibiy qismlarning o‘zaro uyg‘unlashuvidan iborat bo‘lgan situativ pragmatik butunlikdir.

Sukut birligiga o‘ta murakkab, o‘ziga xos oniylik (situativlik), muayyan kommunikantlar, zamon va makon, shart-sharoit, maqsad/sabab va oqibat bilan uzviy bog‘langan o‘ta qisqa bir zamonda sodir bo‘ladigan pragmatik sistema bo‘lgan nutqiy muloqotning asosiy tarkiblaridan biri sifatida qaralishi zarur [3;4;5].

Shifokor va bemor o‘rtasidagi diskursda sukut – muhim noverbal kommunikativ vosita turi. Tibbiyotning otasi Gippokrat shunday yozgan edi: *«..hakim, tashxis qo‘yish va davolashning katta ko‘lamiga, bemorning nafaqat joriy kasalligini, balki, undan avvalgi yuz bergan betobliklarini va ulardan qolga asoratlarni ham hisobga olishi zarur. Hakim bemor ham boshqa barcha odamlardek oddiy odam ekanligini, uni anglash uchun boshqalarni ham anglash lozimligini unutmaslik kerak. Uning uchun haattoki bemorning sukuti ham ko‘rsatma bo‘lib xizmat qilishi kerak*».

Tom ma’noda, sukut ham tibbiy evfemik ma’nolarni yuzaga chiqaruvchi, tibbiy evfemizmlarning ta’sir kuchini oshiruvchi noverbal pragmalingvistik hodisa sifatida baholanishi o‘rinli. Demak,



Demak, har qanday tilning boyligi o‘sha til birliklarining qo‘llanilish imkoniyatlari darajasi bilan o‘lchanar ekan, bemalol ayta olamizki, o‘zbek tilning ijtimoiy-ruhiy ta’sir doirasi nihoyatda keng va rang-barangdir. Insonning jismi joni, ruhiyati, ma’naviyati, ma’rifati bilan bog‘liq holda faoliyat yuritadigan istalgan yo‘nalish vakillari, jumladan, tibbiyot xodimlari o‘z sohalari nuqtayi nazaridan olamning milliy lisoniy tasvirlarini sintezlashga va ularni o‘z faoliyatlariga mos holatda olib kirishga erisha olmoqlari muhim.

Zero, olamning milliy lisoniy tasvirlarini sintezlash insoniyat ongida uning olam bilan barcha aloqalari asosida shakllanadi va rivojlanadi. Bu borada tilning verbal (sinonimiya, graduonimiya, antonimizasiya, perifraza, metafora, metonimiya, sinekdoxa, kinoya, frazeologizm, evfemizasiya va b.) va noverbal (ohang, sukut) birliklari lingvopragmatikani amalga oshirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Qurbonova M., Abuzalova M., Yuldasheva D. Hozirgi o‘zbek tili. Darslik. – Buxoro: Durdona, 2021. – B.555.

2. Problems of national language education at school. Volume 4 Issue 3 BSU 2020 (3) Published by 2030 Uzbekistan Research Online, 2020.
https://uzjournals.edu.uz/buxdu/vol4/iss3/15/

3.Дилором Юлдашева. Нутқий мулоқотда сукутнинг ўрни. Образование и инновационные исследования. Том 1 № 1 (2020).
http://interscience.uz/index.php/home

4.Юлдашева Д. Н. Сукут нутқий мулоқотнинг таркибий қисми сифатида//Сўз санъати халқаро журнали. – 2020. – Т. 3. – №. 3. www.tadqiqot.uz

5.Yuldasheva Dilorom Nigmatovna. Silence-is a nonverbal unit of speech communication. Impact Factor (SJIF 20 20= 6.156) “American Journal of Research”, 2020, 11-12 issue of the Journal. – Pag.87-95.
https://journalofresearch.us/wp-content/uploads/2020/12/2020_11_12-AJR_11.pdf

“OLTUN YORUG‘” LEKSIKASINING LINGVOESTETIK XUSUSIYATLARI

Kilichov Nazarbay,
filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent,
Qoraqalpoq davlat universiteti,
nkilichovr@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada X asrning boshlarida xitoy tilidan qadimgi turkiychaga tarjima qilingan “Oltun yorug‘” yozma yodgorligining turkiy tillarni davrlashtirishga asoslardan biri bo‘lishi kerakligi va turkiy tillarni davrlashtirishning nazariy masalalariga oid qarashlar o‘rtaga tashlangan. Ayni paytda “Oltun yorug‘” leksik qatlamida muhim o‘rin tutgan va asarning lingvoestetik xususiyatlarini o‘zida mujassamlantirgan sinonimlar va ularning turlariga oid tadqiqot asosiy o‘rin egallagan. «Oltun yorug‘«dagi stilistik sinonimlarning ekspressiv-stilistik vazifasi, bu turdagi sinonimlarning asarda qo‘llanishidagi o‘ziga xosliklar va buning sabablari, og‘zaki nutqqa mansub leksik qatlamning ko‘p hollarda dialektal leksika hisobiga boyishi kabi masalalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: dialektlar, qadimgi turkiy til, semantik-stilistik xususiyat, sinonimik qatorlar, mutlaq sinonimlar, dublet sinonimlar, ideografik sinonimlar, stilistik sinonimlar, lingvoestetik xususiyat.

“Oltun yorug‘” sinonimlarga eng boy asardir. “Oltun yorug‘”ning til xususiyatlarini o‘rganish jarayonida shu narsa ayon bo‘ladiki, asardagi turli dialektlarga mansub leksik qatlam “Devonu lug‘atit-turk”dagi dialektal so‘zlarni eslatadi, ya’ni “Devonu lug‘atit-turk”dagi dialektal so‘zlarning rang-barangligi “Oltun yorug‘”da ham bor. Zotan, “Oltun yorug‘” ham “Devonu lug‘atit-turk” va “Qutadg‘u bilig” singari Qoraxoniylar sulolasi hukmronligining ilk davrlarida yaratilgan asar. Bunga ikki dalilimiz bor. Birinchisi shuki, “Oltun yorug‘”da dialektal so‘zlar ko‘p qo‘llanib, mazkur asarning stilistik jihatdan o‘ziga xosligi ta’minlangan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, Qoraxoniylar sulolasi barpo bo‘lgan ilk davrda diniy-madaniy muhitning o‘zgachaligi bo‘ldi: hali Qoraxoniylar sulolasining qo‘l ostidagi ko‘p o‘lkalarda turli dinlar, xususan, buddaviylik, moniylik kabi dinlar faol harakatda edi. “Oltun yorug‘”ning alohida diniy-madaniy muhitda yaratilgani va bu dinning “Oltun yorug‘” asari tarjimasining yuzaga kelishdagi roli haqida alohida qarashlar bor [1:5-6]. Shuningdek, mazkur asarda “Oltun yorug‘”ni, turkiy tillarni davrlashtirish nazariyasiga ko‘ra, qadimgi turk davri (V-VIII asrlar)ga mansub ekani haqida so‘z yuritiladi [1:17]. Aslida Qoraxoniylar davri yozma yodgorliklari ham qadimgi turkiy tilga mansub, shu bois turkologiyada davrlashtirish tamoyillarida ham ma’lum o‘zgarishlar qilish, ilmga kirib kelgan yangi manbalarni turkiy tillarni davrlashtirishga xizmat qildirish kerakligi ayon bo‘ladi. Zotan, turkiy tillarni davrlashtirishda aniq tamoyillarning yo‘qligi qadimgi turkiy tilni chegaralashda va davrlashtirishda ana shunday har xilliklarni keltirib chiqarmoqda. Qoraxoniylar davridagi qadimgi turkiy adabiy til aynan leksik qatlamda o‘zini namoyon qiladi. Qadimgi turkiy-run yozma yodgorliklari, moniylik oqimidagi yozma yodgorliklar va buddaviylik

oqimidagi yozma yodgorliklardagi leksik qatlamning umumiyliklari shundan dalolat beradi. Faqat bu yodgorliklardagi leksemalarning semantik-stilistik xususiyatlarida farqlar mavjud. Biz “Oltun yorug‘”dagi leksik qatlamning semantik-stilistik xususiyatlari haqida so‘z yuritar ekanmiz, bu asarning stilistik xususiyatlari qadimgi hindlarning nasriy va she’riy asarlarga bo‘lgan munosabatlarini eslatadi, sanskrit tilining imkoniyatlari o‘z davrida keng ommaning estetik ehtiyojlarini qondiradigan vosita bo‘lgan edi. Zotan, “Oltun yorug‘”ning asliyati ham sanskrit tilida bitilgan yodgorliklarga mansubdir.

Shuningdek, sinonimik qatorlar ham “Oltun yorug‘” matnini she’rga yaqinlashtirib, ritmik bo‘laklar hosil qilishda katta imkoniyat paydo qilgan: quwraghïngïzlarnïng çoghïn yalïnïn küçin küsünin ashïlghalï üstälgäli kösäsärlär (VI.6a) – ilohiy jamoatingiz cho‘g‘ini, yolqinini, kuch-qudratini oshirgani, yuksaltirgani orzu qilsinlar.

“Oltun yorug‘” matnida sinonimik leksikani ma’nosiga va qo‘llanishidagi o‘ziga xosliklarga ko‘ra to‘rtta asosiy turga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. *Mutlaq sinonimlar*. Bu turdagi sinonimlar eng oddiy turi bo‘lib, ma’nolari bir-biriga juda yaqin. Bu turdagi sinonimlarda stilistik bo‘yoqlar bo‘lmaydi. Shu bois bu turdagi sinonimlar dublet sinonimlar deb ham ataladi. Masalan, *ol iliklär qanlar ürük özäti bu nom ärdinig äshit sünlär tïnglarsunlar* (VI. 6a/6-7) – o‘sha podshohlar, xonlar doimo bu no‘m xazinasini eshitsinlar,tinglasinlar. Keltirilgan misoldagi *iliklär qanlar* va *äshitsünlär tïnglarsunlar* asar matnida xuddi turg‘un birikmalar singari ko‘chib yuradi. “Drevnetyurkskiy slovar”(DS)da bu singari mutlaq sinonimlar juft so‘zlar sifatida berilgan. Matndagi vazifasi va ma’nosiga ko‘ra, bu turdagi leksemalar ham mutlaq sinonimlarga mansubdir: tolu tükäl (VI. 6a)- to‘liq, mukammal; tapïgh udugh (VI. 6b) - sajda qilib, izzat-hurmat ko‘rsatgan; Ülgülänçsiz tänglänçsiz (VI. 7a/ 10) –Cheksiz-chegarasiz; ikkidan ortiq leksema ham mutlaq sinonimik qatorni hosil qilishi mumkin. “DS”da bu turdagi leksemalar juft so‘zlar tarzida berilganini, bizningcha, shunday izohlash kerakki, juft so‘zlarning qismlari bir tushunchani ifodalaydi deb qaralgan. Shu sababdan ular juft so‘zlar tarzida berilgan: *ulugh buyan ädgü qïlïnçïgh* (VI. 7a/10) – g‘oyat savob, ezgu ishni..; *asïghtusï qïlur ärsär* (IV. 3b/9) – foyda-manfaat keltiradigan bo‘lsa; *qïlïnçlarïn çïnïnça bilmäk uqmaq y(ä)mä qayu ärür tip tisär* (IV. 49b/22-23) – qilgan ishlarini chinakamiga bilib, uqib olish yana qaysidir, deb so‘rasalar.

Prof. N.Rahmonov bu juft so‘zlar haqida fikr bildirib, bularni mutlaq sinonimlar deb qarash lozimligini aytgan edi. U “O‘zbek tili tarixi” darsligida qadimgi turkiy tilning leksik qatlamidagi sinonimlarga to‘xtalib, bu hodisaning qadimgi turkiy yodgorliklardagi hosil bo‘lish usullari va ko‘rinishlarini tahlil qiladi [2:83]. Mutlaqlik bu turdagi sinonimlarning asosiy belgisidir, chunki bu sinonimlar biri o‘rnida ikkinchisi qo‘llanganda ham ma’nodagi stilistik farqlar va ma’no ottenkalari ko‘zga sezilmaydi. Bu turdagi sinonimlarga dialektal sinonimlarni ham kiritish mumkin. Zotan, dialektal leksika qadimgi turkiy adabiy tilning asosini tashkil etgani bois ham «Oltun yorug‘«da davom etgan.

2. *Ideografik* (yoki semantik) *sinonimlar* – ma’nosiga ko‘ra yaqin (o‘xshash emas) sinonimlar shu turga mansub. Bu turdagi sinonimlar ko‘pincha tushunchaga oid sinonimlar deb ham ataladi [3:9]. «Oltun yorug‘«ga so‘g‘d tilidan kurgan *azun* va tibet tilidan kiritilgan *yirtinçü* leksemalari bu turdagi sinonimlarga misol bo‘la oladi. Qaysi

vaziyatda *azun* va qaysi vaziyatda *yirtinçü* so‘zlari qo‘llanishi ham alohida ahamiyatga ega.

Kuzatishlar ko‘rsatadiki, *azun* insoniyat va tangri olamiga, ya’ni shaxsiyatlar olamiga nisbatan qo‘llangan. Masalan: *Kishi azunïnta toghduqta yoq çïghay irinç y(a)rlïgh bushïçï qoltuçï bolmïshlarïn, t(ä)ngri azuïnïnta toghduqta çoghsuz yalïn sïz tirinsiz quwraqsïz bolmïshlarïn* (IV. 50a\7-9) - insoniyat olamida tug‘ilganda kambag‘al, qashshoq, baxtsiz, bechora bo‘lganlarini, Tangri olamida tug‘ilganda, cho‘g‘siz, alangasiz, yolg‘iz bo‘lganlarini... *(t(ä)nri) azunta tapïqçï(sï bolghay)m(ä)n* (I.6b\5) – (Tangri) dunyosida (uning) xizmatkori (bo‘lg‘ay)man; *yïlqï azuntaqï ança ança tïnl(ï)ghlar* (I.7b\ 21-22) - hayvonot olamidagi har bir jonzot; *Kuu tau atlïgh kishi ölürgüçi yïlqï azuntaqï ança ança tïnl(ï)ghlar yïlqï azunïntïn özüp kishi azunïnta* (I.7b\21-23)- Ku tau ismli odam o‘ldirgan hayvonot olamidagi har bir jonzot hayvonot olamidan qutulib, insonlar olamida.

Ammo *yirtinçü* mavhum predmet va obyektlar olamiga nisbatan qo‘llangan: *Bu yirtinçü yir suwqa qoturu atqanmaq yapshïnmaq alp ämgäk titir* (II. 38a\ 13-15) – Bu olamga, er-suvga butunlay bog‘lanmoq jabru jafo, azob-uqubatdir.*(uzun) ödün yirtinçütä tur(ghuru tägingäli) sayu ughay sizlär tip (yarlïqadï)* (X. 32b\ 21-22) – uzoq vaqtgacha olamda saqlab qolishga muyassar bo‘lasizlar”, dedi.

“Oltun yorug‘”ning o‘zbekchaga tabdilida *yirtinçü* so‘zining ma’nosi muqim saqlanmagan o‘rinlar ham bor. Quyidagi misolda bu so‘z o‘zbekchaga “zamin” deb tabdil qilingan: *(ü)rük ozatï yükünäyin yirtinçününg yigingä* (X. 29a/13) – Har doim zaminning yaxshisiga ta’zim qilaman. Aslida bu satrda ham *yirtinçü “*olam”ma’nosini ifoda etadi; *ölüm adalarïntïn (ozdaçï) tarqartaçï ulugh umugh(ï) (ïnagh)ï bolayïn* (II.42a\10-12)- o‘lim kulfatidan (qutqaruvchi, kulfatlarni) bartaraf qiluvchi buyuk umidi, (ishonchi) bo‘layin.

Bu satrlarda nashrga tayyorlovchilar *tarqartaçï*ga sinonim sifatida *ozdaçï*ni tiklaganlar, *umugh*ga sinonim sifatida *ïnagh*ni tiklaganlar va bu o‘rinlidir.

Mana shu sahifadagi ideografik sinonimlarga e’tibor beraylik. Deyarli har bir qatorda sinonim bor: *barçaning ämgäklärin kitärtäçi, öngättürtäçi bolayin* (II.42a \1-2) – Hammaning azoblarini bartaraf qiladigan, yaxshilaydigan bo‘layin.; *Y(à)ruq yashuq ärkliglärkä qaçïghlarqa öngkä künçkä tolu tükäl* qïlayïn. (II.42a\2-4) – (Ularni) yorug‘, nur sochuvchi kuch-qudratga, nurga sezgi a’zolariga to‘la, mukammal qilayin; Qayu näçä ulugh iliglärkä qanlarqa yazmïsh ölümçilär (II.42a\5-6) – Har qancha katta hukmdorlarga, xonlarga (nisbatan) gunoh qilib; yazmïsh ölümçilär ärsär, qop (äm)gäklär üzä saqïlïp busush (qadghu) tururlar ärsär (II.42a\6-8) azoblari tufayli siqilib, g‘am-qayg‘u (ichida) yuradigan bo‘lsalar; ölüm adalarïntïn (ozdaçï) tarqartaçï ulugh umugh(ï) (ïnagh)ï bolayïn (II.42a\10-12) - o‘lim kulfatidan (qutqaruvchi, kulfatlarni) bartaraf qiluvchi buyuk umidi, (ishonchi) bo‘layin; Qayu bärkä qaghol üzä bärkäkip b(ä)ktä çïghta bäklälmish ärsärlär (II.42a\11-13) – Har qanday qamchi, gavron bilan savalab, qamoqda, zindonda qamalgan bo‘lsalar; tüü türlüg ämgäklär qïyïtlar tükäl tägip ätözläri langurmïshlar ärsär (II.42a\14-16) – har turli azoblar, mashaqqatlar kelib, tanalari zaiflashadigan bo‘lsa; ülgüsüz qolusuz busush qadghularqa ägirtip ärtingü ämgänürlär ärsär köngülläri uyalïp sïqïlïp batmïsh (II.42a\17-19) – o‘lchovsiz, son-sanoqsiz g‘am-qayg‘ularga ko‘milgan bo‘lsalar, ko‘ngullari buzilib, siqilib, vayron bo‘lar.

Sinonimlar qo‘llangan butun boshli bunday sahifalarni yana davom ettirish mumkin. Sinonimik hodisaning bu turi ko‘proq 1-shaxs tomonidan hikoya qilingan parchalarda ko‘p uchraydi. Qolaversa, so‘zlovchi stilistik tomondan neytral so‘zlarga albatta e’tibor beradi va sinonimik qatorni ana shu neytral so‘zlar atrofida uyushtiradi. Shu bois “Oltun yorug‘”dagi ideografik sinonimlarda stilistik sinonimlarning xususiyatlari ham bor deb qarash mumkin

Ideografik sinonimlar, mutlaq sinonimlardan farqli ravishda, kontekstdagi ma’no nozikliklari va kontekstna qo‘llanish xususiyatlari bilan ajralib turadi: *burxan nom bursang quwraq* (IV. 50b/5) – burxon, no‘m, budda monaxlar jamoati; *üç ming ulugh ming yirtinçününg qanghï* (III. 19a\20-21) uch ming, son-sanoqsiz olamning xoni; *üç ming ulugh ming yirtinçülärtä* (III. 18b\1-2) – uch ming, son-sanoqsiz olamlarda...

Yuqoridagi misollarda “dunyo, olam” ma’nosidagi *yirtinçü* va *azun* so‘zlari ideografik sinonimlar hisoblansa, keyingi misolda *burxan, nom, bursang* ideografik sinonimlardir. Oxirgi misoldagi har uchala leksema garchi stilistik farqlarga ega bo‘lmasa ham, tushuncha jihatidan o‘zaro bir-biriga bog‘liq. Jumladan, *burxan* budda xon, ya’ni “buddaviylar rahnamosi yoki voizi”, *nom* (*no‘m*: bu o‘rinda - buddaviylikning diniy kitobi), *bursang* – “budda monaxlari jamoati”. Har uchala leksemani buddaviylikning mazmuni va mohiyati birlashtirib, ular ifodalagan tushunchalar bir-birisiz tushunilishi mumkin emas. Bu turdagi sinonimlar kamdan-kam uchraydi. Yoki “zamon, vaqt” tushunchalarini ifodalovchi *oghur* va *öd* so‘zlari ham ideografik sinonimlarga misol bo‘la oladi: *ol oghurta* (I. 9a\ 4) – o‘sha vaqtda; *ol öddä yalanguqlarnïng* (I.4b) – u zamonda insonlarning *Inçip bizing yïlqï azunïntaqï ozghuluq qutrulghuluq ödümüz, künümüz taqï tükämäzkän* (I.3b\22) – Shunday qilib, hayvonot olamidan ayrilib, qutuladigan vaqtimiz, kunimiz ham tugamasdan; *(kalp) ödlärtin bärü* (X. 33a\9) - (kalp) zamonlardan beri; *Ol ödün sawlukadatu yirtinçü yir suw iyäsi Maxabraxmï* (X. 35b\6-7) – O‘sha vaqtda Savlukadati (nomli) olam erining egasi Maxabraxmi.

3. Stilistik sinonimlar. Bu turdagi sinonimlar emotsional ma’no ifodalaydi. Bunday sinonimlar o‘xshash ma’nolar ifodalash bilan birga, ekspressiv-stilistik vazifa ham bajaradi. Masalan, *bu tïnl(ï)h ortun täng köngüllüg ol…bu t[ïnl(ï)gh sïgh] tümkä köngüllüg* (300a/11-12) – bu jonzot o‘rtacha bir xil qalb… bu jonzot bir oz idroksiz, qalbni; *[äshgäk qa]tïr tonguz bolmïshlarïn, qaçan kisi azunïnta toghduqta tömkä biligsiz mürki bolmïshlarïn (*IV. 50b\ 1-3*)*- (eshak, xachir), to‘ng‘iz bo‘lganlarini, qachon insoniyat olamida tug‘ilganda ahmoq, idroksiz, nodon bo‘lganlarini… Birinchi misoldagi *tang*va *tümkä* so‘zlari, ikkinchi misoldagi *tömkä, biligsiz, mürki* so‘zlari stilistik sinonimlardir.

“Oltun yorug‘”da stilistik sinonimlarning bir nechtasi bir paytda qo‘llanishi mumkin. Asar matnidagi o‘gitlarni tinglovchiga to‘liq etkazish, Beruniy aytgani singari, kitobxon zavqlanib o‘qishi asosiy maqsad bo‘lgani stilistik sinonimlardan foydalanishga sabab bo‘lgan. Chunki keltirilgan misoldagi sinonimik qator *tömkä biligsiz mürki* (ahmoq, idroksiz, nodon) ham stilistik vazifa bajaradi, ya’ni ritm hosil qiladi; hamda ma’noni alohida ta’kidlashga xizmat qiladi: *ängilkibodïs(a)twlaryïghïnmaqïnta ärtingü aghïrayïghqïlïnçïghqïlmïsh ärsär,* (III.11b\10-11)-eng birinchisi,bo‘disatvlar to‘pida (kimdir) haddan tashqari og‘ir (yomon) qilmish qiladigan bo‘lsa; *ikinti, tayshïng*

nomlarta tilsalmïsh çulwusözlämish ärsär (III.11b\12-13) – ikkinchidan, maxayana no‘mlaridan shubhalanib, bo‘hton qilib, g‘iybat so‘zlaydigan bo‘lsa.

Stilistik sinonimlarning ayrim turlari borki, xuddi epik klishelar singari o‘zgarishsiz ko‘chib yuraveradi. Quyidagi stilistik sinonimlar bu fikrimizga dalildir: *(y(a)ruq, yaltrïghlïgh*), *qopta kötürülmish nom iliki atlïgh nom ärdinig tözü tükäl* bititgükä (I.7b\ 16-18) – yorug‘, yaltiroq, hamma (narsa)dan ustun no‘m podshohi nomli no‘m xazinani to‘liq, tugal ko‘chirtirishga; Bu misoldagi *y(a)ruq* neytral ma’no ifodalaydi*, yaltrïghlïgh* esa ekspressiv ma’noda qo‘llangan.

Ayrim sinonimlar borki, ular uyushiq bo‘lak tarzida qo‘llanadi va “Oltun yorug‘”ning parchalarida ko‘tarinkilik hosil qiladi. *Alqu nïzwanïlarïgh utup yigätip, qop ämgäkig tarqarayïn kitäräyin* (II. 41a/ 18-20) –Jamiki hissiyotlarni mag‘lub qilib, ko‘p azoblarni tarqatayin, yo‘q qilayin; *tängri burxanïgh turqaru unutmaqsïzïn öyäyin saqïnayïn* (II. 41b\3-4) – tangri burxonni doimo unutmaslikni o‘ylab, fikr qilayin; *Täringtä täring ïduq tayshïng nom yarlïqïn äshütäyin tïnglayïn*. (II. 41b*)* -Eng teran muqaddas tayshin no‘m yorlig‘ini eshitay, tinglay*; Qayu näçä öngätinçsiz uzun igin basïtmïsh tïnlïghlar ärsär küçsirämish yawrumïsh torumïsh umughsuz ïnaghsïz irinçlärig (*II. 41b\20-23) – xastalik bilan og‘rigan jonzotlar bo‘lsa, zaif, umidsiz, ishonchsiz, baxtsizlikni, hammaning azoblarini bartaraf qiladigan...

Fe’l turkumidan hosil bo‘lgan mazkur sinonimlarning hammasi ham og‘zaki nutqqa mansub fe’llardan tashkil topgan. Qolaversa mazkur sinonimlar hozirgi o‘zbek tilida faol qo‘llanishini ham aytib o‘tishimiz kerak (*saqïnayïn* fe’li mustasno). Zotan, og‘zaki nutqqa mansub leksik qatlam ko‘p hollarda dialektal leksika hisobiga boyiydi. Ammo mazkur sinonimik qatorni hosil qilgan fe’llarning qaysinisi biron dialektdan kiritilganini aytish mushkul. N.Rahmonov va Q.Sodiqovning “O‘zbek tili tarixi” darsligida Mahmud Koshg‘ariyning “Devon”idan ilova tarzida berilgan dilektal so‘zlar orasida mazkur fe’l-sinonimlar uchramaydi. Shu bois biz ham mazkur sinonimik qatordagi fe’llarning qaysi biri qaysi dialektga mansubligi to‘g‘risida xulosa chiqarish fikridan uzoqmiz. Ammo kelgusida “Oltun yorug‘”dagi dialektal leksika maxsus o‘rganilishi kerak.

N.Rahmonov yuqoridagi darsligida qadimgi turkiy tildagi sinonimlar haqida to‘xtalib, shunday fikrga keladi: “Qadimgi turkiy tildagi sinonimlarning asosiy xususiyatlaridan biri sinonimik qator holida qo‘llanishidir. Ayniqsa, “Oltun yorug‘”da sinonimlarga xos bu xususiyat aniq ko‘zga tashlanadi. Agar so‘z turkumlari bo‘yicha sinonimik qator holida qo‘llanishiga e’tibor berilsa, fe’llarning va fe’l shakllarining sinonimik qatori eng ko‘p uchrashi kuzatiladi” [2:83]. Ammo kuzatishlardan ma’lum bo‘ladiki, boshqa so‘z turkumlarining jumladan, sifatlarning sinonimik qator hosil qilishi ham “Oltun yorug‘”da uchraydi.

Bu muntagh yangligh tanglançïgh mungadïnçïgh öngi öngi adruq adruq ulugh asïgh tusularïgh körüp (VI. 9b\9-11) – Bu singari (odamning) ajoyibu g‘aroyib, turli-tuman, har xil katta foyda-manfaatlarini ko‘rib.

Filologiya fanlari doktori Z.Xolmonova “Boburnoma” leksikasini o‘rganish jarayonida sinonimlarga alohida e’tibor beradi va ularning asarda qo‘llanish maqsadlarini ochadi. U shunday yozadi: “Mazmunni batafsil, teran ifodalashda ma’no nozikliklari bilan farqlanuvchi leksik paradigmadan foydalanilgan. Bobur...voqelikni tasvirlash davomida narsa-hodisaning mohiyatini yoritishga intilgan” [4:131]. Mana shundan keyin

Z.Xolmonova sinonimlarning komponentlari haqida to‘xtalib, ularning ifoda darajalari haqida so‘z yuritadi [4:132]. “Oltun yorug‘”dagi sinonimlar ham tub mohiyati bilan voqea-hodisalarning, tasavvur-tushunchalarning maqsadini ochishga xizmat qildirilgan. Fe’l so‘z turkumlarining sinonimik qatorlari ham ritmni hosil qilishga xizmat etadi: *bu nom ärdinig äshitsünlär tïnglarsunlar*.(VI. 6a/6-7) – bu no‘m xazinasini eshitsinlar, tinglasinlar. Quyidagi fe’l sinonimlarning uyushib kelishi asarda yanada ko‘tarinkilik hosil qilishga xizmat qiladi: *qayu iliklär qanlar bu nom ärdinig süzüg köngülin ashïtsarlar, tïnglasarlar, ayasar aghïrlasar, tapïnsar udunsar, yänä bu nom ärdinig boshghuntaçï tutdaçï tört türlüg tirin quwraghïgh y(ä)mä* (VI. 5b\ 19- 24) – qaysi bir podshohlar, xonlar bu no‘m xazinasini pok ko‘ngil bilan tinglasinlar, eshitsinlar, (unga) izzat-hurmat ko‘rsatsinlar, e’tiqod qilsinlar, sajda qilsinlar, yana bu no‘m xazinasini qabul qiladigan, (unga) rioya qiladigan to‘rt turli jamoatga hamdu sano aytsinlar. Bu parchada ikki guruhdagi sinonimlar bor, birinchi guruhga *ashïtsarlar, tïnglasarlar* kabi harakat ma’nosini bildiruvchi fe’llar, ikkinchi guruhga *ayasar aghïrlasar, tapïnsar udunsar* kabi holat ma’nosini bildiruvchi fe’llar xosdir. Bu sinonimik qator hosil qilgan fe’llarning matndagi maqsadi bir tomondan, parchalarda ritmni hosil qilish bo‘lsa, ikkinchi tomondan bu asarni yaratuvchilarning fikr, o‘ylarini, talab, xohishlarini va niyatlarini ommaga etkazishdan iborat bo‘lgan.

“Oltun yorug‘”da takrorlar ham stilistik va semantik vazifa bajaradi: ular maqsadni kuchaytirish, ma’noni tugal etkazish uchun xizmat qiladi. *Bu muntagh yanglïgh tanglançïgh mungadïnçïgh öngi öngi adruq adruq ulugh asïgh tusularïgh körüp* (VI. 9b\ 9-11) – bu singari (odamning) ajoyibu g‘aroyib, turli-tuman, har xil katta foyda-manfaatlarini ko‘rib.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Раҳмон Н. Комиллик манзилига йўл// Олтун ёруғ. 1-китоб,Сўз боши, изоҳлар ва қадимги туркийдан ўзбекчага табдил муаллифи Н.Раҳмон. Т.: Фан, 2009. -Б. 5-6.

2. Раҳмонов Н., Содиқов Қ. Ўзбек тили тарихи. Филология (Ўзбек филологияси) факултетлари талабалари учун дарслик. Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти. –Тошкент, 2009. -Б.83.

3. Очирова Н. Ч. Лексико-стилистические особенности языка художественных произведений К. Эренджeнова. АКД, Элиста, 2011. -С.9.

4. Холманова З. “Бобурнома” лексикаси. Т.: Фан, 2007. -Б. 131.

O‘ZBEK TILIDA TEOMORFIK METAFORALAR VA ULARNING BADIIY MATNDAGI O‘RNI

Ibragimov Xayrulla,
filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.,
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
xayrulla.ibragimov@inbox.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilida ma’no ko‘chish yo‘llarining eng sermaxsuli – metafora va uning turlaridan biri bo‘lgan Teomorfik metaforalar (iloxiy nomlar) xaqida va ulardan shoir To‘ra Sulaymon o‘z asarlarida qay darajada mohirlik bilan foydalana olganligi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Metafora, Antropomorfik metafora, Zoomorfik metafora, Fitomorfik metafora, Kosmomorfik metafora, Abiomorfik metafora, Teomorfik metafora, Farishta, Shayton, Jin.

O‘zbek tilining tasvir imkoniyatlari shu darajada rang-barangki, so‘z serqirraligi oynadek namoyon bo‘ladi. Tilimizdagi mavjud so‘zlar ma’nolarining o‘sishi ma’no ko‘chishi, kengayishi va torayishi tarzida ro‘y beradi. Borliqdagi narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat nomlari ma’lum bir asosga ko‘ra boshqa narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat nomi sifatida ham qo‘llaniladi. Bunday vaqtda bitta nom bir necha narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatning nomi sifatida xizmat qiladi.

So‘zlarda ma’no ko‘chishi nima asosida ko‘chishiga ko‘ra metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, kinoya kabi turlarga bo‘linadi.

Narsa-buyum, voqea va hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro o‘xshashlikka asoslangan ma’no ko‘chishiga metafora deyiladi. Metafora ko‘chma ma’no hosil qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biri bo‘lib, mumtoz adabiyotshunosligimizda “istiora”deb yuritilgan. Metaforaning ikki turini farqlash lozim: lingvistik metafora va xususiy-muallif metaforalari. Lingvistik metaforalar til taraqqiyoti bilan bog‘liq hodisa hisoblanadi [1:151].Metaforaning asosiy xususiyatlari quyidagilar: 1) turli denotatlarni semantik taqqoslashga imkon yaratib beradigan belgilar; 2) majoziy obrazning mavjudligi [2:98].Tilda va badiiy nutqda qo‘llanilishiga ko‘ra metaforani ikki turga bo‘lish mumkin: 1) til metaforasi; 2) badiiy metafora. Til metaforasi badiiy metaforadan o‘xshashlikning formasiga ko‘ra farqlanadi [3:151].

O‘zbek tilida metaforalarning o‘rganilish tarixi XX asrning so‘nggi o‘n yilliklarida M.M.Mirtojiev, R.Qo‘ng‘irov, M.Yo‘ldoshev, N.M.Mahmudov, D.S.Xudayberganova, G.K.Qobuljonovalarning amalga oshirgan jiddiy tadqiqiy rivoj misolida o‘z ifodasini topdi.

O‘zbek tilshunosligining yangi bosqichida metaforaga oid bir qator ilmiy tadqiqotlar yuzaga keldi. Jumladan, G.Qobuljonova, A.Xo‘jamqulov, D.Xudayberganova, Sh.Maxmaraimova, D.Rustamova, A.Yuldashev, G.Nasrullaeva ishlarini alohida ta’kidlash lozim.

Metaforalarni tasniflar ekan, tadqiqotchi A.Xo‘jamqulov uning quyidagi turlarini farqlaydi:

1.Antropomorfik metafora. Bu inson va unga tegishli (xos) bo‘lgan (tana a’zosi, kiyimi) predmetlar nomi asosida hosil qilingan metafora bo‘lib, *oyoq, qo‘l, og‘iz, til, tish, quloq, yeng, yoqa* kabi leksemalar ma’nosining metaforik usulda ko‘chishi.

2.Zoomorfik metafora. Bu hayvonlar va ularning tana a’zolari nomini ifodalagan leksemalar ma’nosining metaforik usulda ko‘chishi bo‘lib, bu turga *bo‘ri, tulki, ayiq, ilon, it, shox, dum, qanot* kabi leksemalarning metaforik ma’no hosil qilishi kiradi.

3.Fitomorfik metafora. Bu daraxt, o‘simliklar va ularning qismlari nomini anglatgan leksemalar ma’nosining ko‘chishi natijasida hosil bo‘lgan metafora bo‘lib, *g‘uncha, gul, chinor, chaqirtikanak, danak* kabi leksemalarning metaforik ma’noda qo‘llanishi bunga misol bo‘ladi.

4.Kosmomorfik metafora. Osmon jismlari nomi asosida hosil qilingan metafora. Bunday metafora *oy, quyosh, qamar, yulduz, osmon, nur, shu’la* kabloi leksemalar ma’nosini metaforik usul bilan ko‘chirish natijasida hosil bo‘ladi.

5.Abiomorfik metafora. Metaforaning bu turiga yuqorida sanab o‘tilgan turlariga kirmaydigan, tabiatdagi jonsiz narsalarni ifodalovchi leksemalar ma’nosining metaforik ko‘chishidan hosil bo‘lgan metaforalar (*temir, tosh, kishan*) kiradi” [4:85].

Shu tasnifga teomorfik metafora guruhini kiritish maqsadga muvofiq. Antropotsentrik metafora teomorfik metafora tizimida ham ko‘plab uchraydi. *Farishta, shayton, jin* kabi so‘zlarning insonga nisbatan qo‘llanilishi fikrimizning dalilidir.

Shoir To‘ra Sulaymon poetik nutq uchun muhim bo‘lgan badiiy vosita–metaforalardan unumli foydalanib, she’rning estetik ta’sirini kuchaytirgan.

Dastlab tong chog‘ida ko‘rgandim seni,
So‘ng ***Tangri*** *tog‘ida ko‘rgandim seni.*
Qizlar yonog‘ida ko‘rgandim seni,
Qayta ketmas bo‘lib keldingmi, bahor! (“Keldingmi, bahor!”)

Tong – tal’at belgisi. Tun esaTanglik,
Oy – oqshom ***tangrisi****, quyosh – Mangulik*(“Sozim”).
Shoir tog‘, ishq va oyga Tangri nomini ko‘chirib, metafora hosil qilgan.

Kelsa ko‘ngil rishtasi,
Rishtasi, farishtasi,
Uyning sarishtasi
Tori uzilgan torday (“Qorayaloq”).

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da malak so‘ziga diniy tushuncha sifatida farishta ta’rifi berilgan bo‘lib, u islomda va ba’zi dinlarda xudoning amrini bajaruvchi g‘ayritabiiy mavjudot (farishtalar son-sanoqsiz bo‘lib, har biri ma’lum vazifani bajaradi) [5:348]. Ko‘chma ma’noda go‘zal ayol, nozanin ma’nosida qo‘llanishi ko‘rsatilgan.She’rda ham malak sifati go‘zal va begunoh nozaninga ko‘chirilgan.

Davradagi pari yo
Kelinchakmi, yor-yor, kelinchakmi? (“Yor-yor”)

Pari — go‘zal ayol; yaxshilik qiluvchi pyh. Sharq xalklari folklor-larida keng tarqalgan, juda go‘zal qiz qiyofasidagi, nurdan yaratilgan, kishilarni ins-jinslardan saqlaydigan afsonaviy obraz; go‘zallik ramzi [5:237]. Shoir kelinchakni go‘zallikda pariga qiyoslab, poetik obraz yaratgan.

Qumri, sa’va oshiyon aylar bir gulafshon bu.
Bir kokili Sir bo‘lsa, u biriZarafshon bu.
Ilohiy sanamlardan bir zuryod, bir nishon bu.
Kerak bo‘lsa magarjon, jon biryon, jahon bir yon (“Gul bir yon, chaman bir yon”).

Sanam – but, sanam, manot**.**Toshdan, yog‘ochdan yoki metalldan inson qiyo-fasida (ko‘pincha go‘zal ayol obrazida) yasalgan va ziynatlangan but [6:469]. Shoir ilohiy sanam deb, dilbar ayolga ishora qilgan.

Yerda-Ko‘kda tengi topilmas
Koinotning ma’budasiman.
Sevmoqlikning, sevilmoqlikning
Ibtidosi, intihosiman (“Cho‘lpon”).

Ma’buda — iloxa, mahbuba. Ayol obrazida tasavvur qilingan xudo [7:658]. Shoir shunga ishora qilib, “koinotning ma’budasi” metaforik ifodasini qo‘llagan.

Ilohiy sanam, ma’buda, malak teomorfik metaforalarida olamni anglashning diniy-germenevtik usulidan tashqari, tasviriy tavsifiy funksiyasi, kognitiv aspekti ham mavjud.

Niyating mudom xolis, qalbing bequroq bo‘lsin,
Qilgan ishing xayrli, minganing Buroq bo‘lsin.
So‘nggi yotar joying ham yomondin yiroq bo‘lsin,
Hargiz ta’na, tazyiqli himoyatga suyanma (“Suyanma”).

Ma’lumki, Buroq Me’roj kechasi Muhammad payg‘ambarning Quddusga borishi va u yerdan osmonga ko‘tarilishi uchun xudo tomonidan yuborilgan qanotli ot.

Sen qayta yaralish, yoshlik timsoli,
Hayot baxsh etguvchi Masih misoli,
Sensiz odamzotning ne kechar holi?
Qayta ketmas bo‘lib keldingmi, bahor? (“Qayta ketmas bo‘lib keldingmi bahor?”)

Masih so‘zi davolovchi, hayot baxsh etuvchi ma’nosida Iso payg‘ambarning laqabi bo‘lgan.

Baxt qushi topmish qo‘nalg‘a shonli Turkiston aylanib –
O‘z holiga kelmish Turon zamondin-zamon aylanib.
Hazrati Xizr yuribdi hur O‘zbekiston aylanib,
Tug‘rosiga qo‘nmish Humo mustahkam Qo‘rg‘on aylanib (“Aylanib”)

Shunday omon-omonda,
To‘kinchilik zamonda,
Fashist degan yalmog‘iz
Urushdan ochdi og‘iz (“Qorasoch”).

Yalmog‘iz **x**alq og‘zaki poetik ijodida keng tarqalgan, o‘ta xunuk qari kampir sifatida tasvirlanadigan, duch kelgan hamma narsani yeb-yutib yuboradigan afsonaviy

maxluq, jodugar.Ko‘chma ma’noda hamma narsani yeb-yutadigan, quritadigan, yuho [8:112]. Yalmog‘iz sifati fashistga berilgan bo‘lib, teomorfik metafora hosil bo‘lgan.

Elnimas Arkni qo‘riqlar tunqator qo‘rg‘on aylanib,
O‘rda atrofi xatarli, yuribdi shayton aylanib(“Aylanib I”).

Shayton – iblis; jin, ajina. Diniy nuqtai nazardan odamlarni din yo‘lidan ozdiruvchi, ularni gunohga, jinoyatga, razolatga boshlovchi yovuz ruh yoki yovuz ruhlarning boshlig‘i; iblis. *Ko‘chma ma’noda ayyor, quv, aldamchi odamga nisbatan qo‘llanib, metaforik ma’no kasb etadi. Shoir yuribdi shayton aylanib* deganda ham shunday odamlarga ishora qilgan.

Shayton sho‘x, o‘ynoqi ma’nosida ham insonga nisbatan qo‘llanadi. Shayton obrazi bilan bog‘liq metaforalar xalq orasida ko‘p uchrab, ular yozma adabiyotdan, jumladan, she’riyatdan ham o‘rin olgan. Noumid — shayton iborasi ham inson doim umid, yaxshi niyat bilan yashashini, umidsizlan-maslikni qayd etuvchi, shunga da’vat etadi.

Metaforik ma’no leksema bosh sememasi tarkibidagi denotativ (atash) va konnotativ (ifoda) semalari nisbatining o‘zgarishi asosida sodir bo‘ladi. Hosila ma’no esa semema darajasida (lisoniy) bo‘lishi ham, semema darajasida bo‘lmasligi (nutqiy bo‘lishi) ham mumkin.

To‘ra Sulaymon she’rlarida qo‘llangan teomorf metaforalarni manba sohasi jihatidan quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Bajaradigan funksiyasiga ko‘ra o‘xshashlik.
2. Tashqi ko‘rinishiga ko‘ra o‘xshashlik.
3. Turli xususiyatiga ko‘ra o‘xshashlik.

Metafora—obrazli, ifodali, ta’sirchan vosita. U badiiy nutqning ta’sirchanligini, obrazliligini kuchaytiruvchi usul hisoblanadi.

Badiiy asarda, ayniqsa, she’riyatda ifodalilik, obrazlilik asosiy elementlardan hisoblanadi. Shunga ko‘ra, poetik metaforalarda obrazlilik ko‘lami kuchli bo‘lib, poetik metaforalar poetik fikr ifodalovchi manbalardan biridir.

Poetik metafora idrok etish qiyin va odat tusiga kirmagan obrazli ifodalar asosida, odatda, yashirin o‘xshatish sifatida vujudga kelib, poetik asarda fikrni aniq, voqea-hodisalarni qisqa jumlalarda ifodalashga yordam beradi.

Teomorf metafora «ichki olamni ifodalovchi leksika» degan maqomga to‘liq muvofiq keluvchi lingvokognitiv mexanizm sifatida, individ xotirasining mumtoz bilimlar fondiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat etadi va bu orqali diskurning emotsional-ekspressiv ko‘lamini milliy kolorit bilan to‘yintiradi.

Badiiy ijodda teomorfik metaforalar orqali ifodalamoqchi bo‘lgan fikr obrazlilik kasb etishi bilan birga, she’rning qiymatini oshirib, o‘quvchining tushunishini yengillashtiradi.

Inson tirik mavjudot sifatida salbiy yoki ijobiy xususiyatga ega bo‘lishi yoki unga munosabatdagi kishi uni shunday qabul qilishi mumkin. Shuning uchun teomorflar ijobiy yoki salbiy bo‘yoqli metaforik ma’noda qo‘llanilishi mumkin. Bunda ayrim leksemalar ijobiy, ayrimlari salbiy, ayrimlari har ikki ma’noda qo‘llanilishi ham mumkin.

To‘ra Sulaymon she’rlarida Tangri, pari, sanam, farishta, Masih, Hazrati Xizr, Buroq, ma’buda kabi teomorflar shaxsning ijobiy xususiyatlarini ifodalash uchun qo‘llangan. Bu leksemalar semasida “ijobiylik” mavjud bo‘lib, shoir shundan ustalik bilan foydalanib, xususiy metaforalar hosil qilgan.

Shayton, alvasti, yalmog‘iz obrazlarida “salbiylik” mavjud, shuning uchun shoir she’rlaridagi teomorflar odamning salbiy sifatlarini ko‘rsatgan.

Teomorfik metafora o‘zining serqirraligi va murakkab tabiati bilan xarakterlanadi. Unda, avvalo, lisoniy va nolisoniy omillar qorishgan holda namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda tasnifni lisoniy va nolisoniy omillarga ajratish asosida amalga oshirish zarur. Bunga ko‘ra, metaforik ma’nolar insonning tashqi ko‘rinishiga, insonning holati va uning tana a’zolari harakatiga, insonning jismoniy holatiga, insonning hayot bosqichlariga, *inson kiyimlari va ularning qismlari asosan yuzaga kelishi mumkin.* Bunday metaforaning lisoniy tasnifida ilk bo‘linish ularning lisoniy va nutqiy ko‘rinishlari bilan bog‘liq. Nutqiy antropotsentrik metaforalar vaqt o‘tishi bilan lisoniylashib borishi mumkin [9:56]. Shoir she’rlarida qo‘llangan o‘ziga xos teomorfik metaforalar vaqt o‘tishi bilan lisoniylashib boradi va bu orqali til boyligi, ifoda usuli boyiydi.

Metaforalar har bir xalqning mentalligini, milliy ongini, badiiy tasvir vositasini, folklori, diniy-dunyoviy tafakkur tarzini o‘zida yaqqol namoyon qilar ekan, demak, bu hodisa xalq madaniyati bilan uzviy aloqada va rivojlanishda.

Shoirning badiiy mahorati, qalamining sehri ma’no ko‘chish yo‘llarining eng sermahsuli – metaforalarni qo‘llashida namoyon bo‘lar ekan, ular orqali ijodkor ruhiyati, kayfiyati, dunyoqarashi barq urib turadi. Teomorfik metaforalarni o‘rinli va maqsadli qo‘llash muallifdan diniy va dunyoviy ilm, badiiy tafakkur hamda grammatik tushunchalarni anglash ko‘nikmasini talab etadi. Shoir To‘ra Sulaymon mana shu jihatlarni mukammal egallagan ijodkor sifatida bo‘y ko‘rsata olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent, 2007. – B. 151.

3. Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. – Toshkent, 1990. – B. 151.

4.Xo‘jamqulov A. O‘zbek tilida metaforaning tasniflanishiga doir. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20-yilligiga bag‘ishlab chiqarilgan ilmiy maqolalar to‘plami. Lingvist. 2-kitob. – T.: Akademnashr, 2011. – B. 85–88.

5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 4-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B. 348.

6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 3-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B. 469.

7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B. 658.

8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B. 112.

9. Nasrullaeva G. Antropotsentrik metaforaning lisoniy, kognitiv va lingvomadaniy aspekti: filol.fan-ri bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) diss... – Farg‘ona, 2019. – B. 56.

T.QAYÍPBERGENOVTÍŃ «QARAQALPAQ DÁSTANÍ» TRILOGIYASÍNDAǴÍ UNAMSÍZ SEZIMDI BILDIRETUǴIN FEYIL FRAZEOLOGIZMLER

Tańirbergenov Jenisbay,
filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori, dotsent
Qoraqalpoq davlat universiteti,
Qoraqalpoq tilshunosligi kafedrasi

Annotatsiya. Bu maqolada yozuvchi T.Qaypbergenovning “Qoraqalpoq dostoni” trilogiyasidagi salbiy his-tuyg‘uni ifodalaydigan fél frazeologizmlari o‘rganilgan. Ulardagi insonning ruhiy holati, ichki kechinmalari, uning tashqi hodisalardan ta’sirlanishi natijasida paydo bo‘ladigan ma’nolari aniqlangan.

Kalit so‘zlar: frazeologizm, fe’l frazeologizm, semantika, psixik holat, emotsiya, leksema.

Til biliminde frazeologizmlerdiń semantiksına arnalǵan izertlewlerde olardı mánilik toparlarǵa bóliwdiń, klassifikaciyalawdıń printsipleri, hár qıylı usılları arnawlı túrde úyrenilgen.

D.L.Shmelov «Leksikanı semantikalıq analizlew máseleleri» miynetinde tek leksikologiyanı emes, frazeologiya máselelerin de semasiologiyalıq jaqtan analiz qıladı [1]. Rus ilimpazı I.P.Petrova anglichan tilindegi somatikalıq feyil frazeologizmlerdi leksika-semantikalıq jaqtan toǵız toparǵa bólip úyrengen: qozǵalıs, fizikalıq háreket, transfer, sezimlik qabıllaw, koncessiya, sóylew, oylaw xızmeti, sheshim qabıllaw hám bahalaw [2]. Qazaq tilindegi frazeologizmlerdiń semantikası A.K.Mırzashova, M.Jambılqızınıń miynetlerinde úyrenilgen [3]. Qaraqalpaq tilinde frazeologizmlerdiń semantikası máselesi S.T.Nawrızbaeva, G.Aynazarova, J.Tańirbergenovlardıń miynetlerinde úyrenilgen [4].

Biz maqalamızda Ózbekstan hám Qaraqalpaqstan xalıq jazıwshısı T.Qayıpbergenovtıń “Qaraqalpaq dástanı” trilogiyasındaǵı unamsız sezimlerdi bildiretuǵın feyil frazeologizmler haqqında sóz etemiz.

Jazıwshınıń “Qaraqalpaq dástanı” trilogiyası óz ishine “Maman biy ápsanası”, “Baxıtsızlar”, “Túsiniksizler sıyaqlı úsh kitaptı aladı. Bul romanlarda jazıwshı qaraqalpaq xalqınıń XVII hám XIX ásirlerdegi eki ásirlik tariyxıy ómirin kórkemlik penen sáwlelendiredi. Romannıń tili ápiwayı, tásirli, obrazlı bolıp, onda frazeologizmlerdiń kórkemlik xızmetleri belgili orın iyeleydi. Olardıń arasında insannıń psixikalıq sezimlerin hám emociyasın bildiretuǵın frazeologizmler shıǵarma tilinde onıń kórkemligin, obrazlılıǵın támiyinlewde áhmiyetli xızmet atqaradı.

Frazeologizmlerdi óz ornında qollanıw kórkem sóz ustalarınıń sheberligi, xalıqtıń til baylıǵın qansha meńgergenligi menen baylanıslı boladı. Jazıwshınıń tańlawına qaray frazeologizmler onıń jeke stil jaratıwdaǵı sóz qollanıwınıń bir usılı bolıp keledi. Frazeologizmler kórkem shıǵarma tilin janlandırıw menen birge shıǵarma tiline milliy kolorit beredi.

“Insan óziniń ol yaki bul psixikalıq, emocionallıq halatların júzege shıǵarıw barısında qanday da bir waqıyadan quwanadı, ǵázeplenedi, táshwishlenedi, azaplanadı,

ókinedi, hawlıǵadı, qáweterlenedi yamasa qorqıwǵa túsedi, jekkóredi, ǵarǵaydı, sógedi, húrmetsizlik qıladı, uyaladı, ashıwǵa minedi, itibarsızlıq etedi hám t.b. Usı jaǵdaylardı kórsetiw maqsetinde tilde hár túrli frazeologizmler payda bolǵan" [5]. Bunday frazeologizmlerde emocionallıq-ekspressivlik boyaw kúshli bolıp keledi. Olardıń quramında adamnıń ruwxıy jaǵdayların kórsetiwde *kewil, kóz, qabaq, bas, awız, bet, zeyin, júrek, ókpe, bawır, qan, jan, qabırǵa, ashıw, qáhár* sıyaqlı leksemalar qollanılǵan. "Frazeologizmlerdiń emocionallıǵı olardıń hár qıylı sezimlerdi, adamnıń zat, waqıya hám qubılıslarǵa subyektiv qatnasın birdiriwine baylanıslı. Frazeologizmlerdiń emocionallıǵı tiykarınan eki faktorǵa baylanıslı boladı: birinshisi – obrazlılıq, ekinshisi – bir waqıttıń ózinde eki mánininiń reallasıwı" [6]. Bunday kórkem frazeologizmler adamnıń hár qıylı is-háreketlerin, olardıń názik sezimlerin, kewlindegi ózgerislerdi anıq hám ayqın etip kórsetedi. Jazıwshı T.Qayıpbergenov "Qaraqalpaq dástanı" trilogiyasında qaharmanlarınıń psixologiyalıq halatların, oyın, ruwxıy dúnyasın ayqın hám názik súwretlew ushın frazeologizmlerdi múmkin bolǵanınsha sáykesin tańlap alıp jumsawǵa háreket etedi. Frazeologizmlerdiń bul mánilik túrleri insannıń is-háreketke bolǵan hár qıylı unamsız sezimlik qatnasların bildiriwde keń qollanılǵan.

Jazıwshı shıǵarmalarında frazeologizmlerdiń bul mánilik túrleri, tiykarınan, qaharmanlardıń psixikalıq halatı, sırtqı qubılıslardan tásirleniwi nátiyjesinde payda bolǵan ishki sezimlerin bildirip keledi. Olar mánilik jaqtan ashıwlanıw, ǵázepleniw, qáhárleniw, jaqtırmaw, jek kóriw, qorqıw, qáweterleniw, qıynalıw, qayǵırıw, kúyiniw, ókpelew, renjiw, qapalanıw, ókiniw, pushayman bolıw, uyalıw, qısınıw, hayran bolıw, tınıshsızlanıw, albıraw sıyaqlı unamsız sezimlerin kórkem etip kórsetiwde qollanılǵan.

1. Ashıwlanıwdı, ǵázepleniwdi, qáhárleniwdi bildiretuǵın frazeologizmler. Bunday frazeologizmler, tiykarınan, insannıń ruwxıy jaǵdayı, onıń qanday da bir waqıyalarǵa yamasa ózine bolǵan unamsız sezimleri menen baylanıslı qollanılǵan. Mısalı: "Há, seniy! – dep Aydos jáne tislendi, *mushın túydi* ("Baxıtsızlar" romanı, 280-bet). Biraq, sońǵılardıń kemsitkenin bay esitse, ókinedi degen oy menen Dospannıń *jıǵırdanı qaynadı* ("Baxıtsızlar" romanı, 90-bet). Aydostıń *jıǵırdanı qaynadı,* átteń, ol xiywalılıǵı sebepli "ǵarǵa bolsa da qarshıǵa, shımshıq bolsa da búlbil" bolıp kelip tur ("Baxıtsızlar" romanı, 57-bet). Bunday hádiyseler óz awılında da húkim súretuǵınına endi kózi jetkenlikten be, alǵa ilgerilegen sayın Aydostıń *qabaǵı jabıldı* ("Baxıtsızlar" romanı, 210-bet). Maman biydiń *jıǵırdanı qaynasa*da, Esengeldiniń qanday buyrıq beretuǵının kútti ("Maman biy" ápsanası, 470-bet).

2. Jaqtırmawdı, jek kóriwdi bildiretuǵın frazeologizmler. Romanda frazeologizmlerdiń bul mánilik túrleri insannıń ruwxıy jaǵdayı, onıń janlı yamasa jansız predmetke bolǵan jaqtırmaw, unatpaw, qálemew, jaman kóriw sıyaqlı ishki unamsız qatnasların bildiriwde qollanılǵan. Mısalı: Onı men kóz ushımnan-aq tanıytuǵın bolıp qaldım. Bul naysaptı *jek kóre* basladım ("Baxıtsızlar", 218-bet). Tutılǵan kárwan basını Abılqayır xanǵa apar dese, jası úlken biylerdiń qınjılıp, moynın ishine tartatuǵınınan xan *júrek shaydı bolǵan* ("Maman biy ápsanası", 318-bet). Írısqul biy onı shaynap taslaǵısı kelgendey *kóz alarttı* ("Maman biy ápsanası", 201-bet). Ǵayıp xan Abılqayır xandı *jek kóredi* eken ("Maman biy ápsanası", 88-bet).

3. Mensinbewdi, menmenlik etiwdi, kemsitiwdi bildiretuǵın frazeologizmler. Bunday frazeologizmler adamnıń minezindegi ekinshi birewge bolǵan mensinbewshilik,

kókirek kóteriw, kemsitiw sıyaqlı unamsız sezimlerin bildiriwde qollanılǵan. Mısalı: Ol sonda ǵana bizdi tabadı. Házir *kóziniń eti ósip* júr (“Baxıtsızlar”, 243-bet). Usınnan Esengeldini óltirse, qońırattıń qalǵan balasınıń ayaǵına yabılar *jip taǵıp oynaydı* (“Maman biy ápsanası”, 70-bet). Náletiy Xiywa xanınıń isi erikse *ayaǵına jip taǵıp oynaytuǵını*, ash bolsa el talatuǵını, basına múshkil is tússe, jawına qalqan qılatuǵını gódek Aydos (“Baxıtsızlar”, 112-bet). Óz xalqıńdı súye bilmeytuǵın qanday namıssızsań? Aqmaqlıq penen óz elińdi *ayaq astı qıldıń* ǵoy! (“Baxıtsızlar”, 141-bet). Ne dediń? Bul gápiń Ámin inaxqa jetispesten burın shıq úyden! – *Kózińdi et basqan*, Esengeldi biy! (“Maman biy ápsanası”, 412-bet). Quday bizdi de bilimsiz etip jaratpaǵan, – dep xiywalı maqtınıshlı *kókirek kerdi* (“Baxıtsızlar”, 59-bet).

4. Qorqıwdı, qáweterleniwdi, tınıshsızlanıwdı bildiretuǵın frazeologizmler. Adamnıń ishki dúnyasına tán sezimlerdiń biri – qorqınısh. Bul sezim insannıń ruwxıy halatı menen baylanıslı bolıp, onıń hár qıylı tásirlerdiń nátiyjesinde júz bergen kewilsiz jaǵdayın kórsetedi. Jazıwshı shıǵarmasında insannıń qorqıwın, qáweterleniwin, tınıshsızlanıwın bildiretuǵın frazeologizmler júdá kóp. Olardıń quramında adamnıń usı psixikalıq halatların kórsetiwde *júrek, kóz, bóteke, bet, jan, iyman, húrrey* sıyaqlı leksemalar tirek sóz xızmetinde qollanılıp kelgen. Mısalı: Xannıń *janı kózine kórinip*, jandalbasalıqtaǵı ilajsız wádesi ekenine hesh kim baha bermedi (“Maman biy ápsanası”, 316-bet). Óz buyrıǵı boyınsha pitken axidnamaǵa pikir aytpay, nemquraydı otırǵan Ǵayıp xannıń *kózleri álle-pálle bolıp* ketti (“Maman biy ápsanası”, 131-bet). Qızdıń dóńgelek *kózleri tas tóbesine shıǵıp*, qorqıp wázirge qalsha qarap turıp aldı (“Maman biy ápsanası”, 256-bet). – Ne bir rehimsizleri bar edi. Eslesem, *tóbe shashım tik turadı*, tislerimdi ǵashırlataman (“Maman biy ápsanası”, 349-bet). Hayal ózin qansha sabırlı tutqan menen Mamannıń *júregi suw etip*, bir jamanlıq bolǵanın sezdi («Maman biy ápsanası», 370-bet).

Berilgen mısallardaǵı frazeologizmler qaharmanlardıń ómiri, tirishiligindegi hár qıylı sırtqı tásirler nátiyjesinde payda bolǵan qorqıw, qáweterleniw, tınıshsızlanıw sezimlerin ayrıqsha obrazlı etip jetkeriw menen birge, olardıń minezindegi qırlardı hám sırlardı ashıp, názik táreplerin kórsetip kelgen.

5. Qıynalıwdı, qayǵırıwdı, kúyiniwdi bildiretuǵın frazeologizmler. Romanda bunday mánidegi feyil frazeologizmler insannıń sırtqı hám ishki qubılıslardan tásirleniwi nátiyjesindegi ruwxıy azap shegiwi, qıynalıwı, óziniń yamasa ózgelerdiń is-háreketlerinen narazı bolıwına baylanıslı psixikalıq halatların bildiriwde qollanılǵan. Mısalı: Qansha qıyınshılıq bolsa da, bazda adam ólse de, Kuzma Borodinniń awır gúrsingeni bolmasa, *kózge jas alǵanın* Maman kórmegen edi (“Maman biy ápsanası”, 12-bet). Onıń *kóz jas tókkenin* sırttan qarap ańǵarıw qıyın edi (“Maman biy ápsanası”, 20-bet). Amanlıqtıń atın ózi qoyıp, ondaylarǵa *janı ashıytuǵın* bolǵan menen Mamannıń tap sonı tańlaǵanına Murat shayıqtıń *ishi-bawırı qamıldı* (“Maman biy ápsanası”, 41-bet). Onıń *shır-pır bolǵanı* biylerdiń hámmesin abırjıtqan ústine abırjıttı (“Maman biy ápsanası”, 70-bet).

6. Ókpelewdi, renjiwdi, qapa bolıwdı arazlasıwdı, urısıwdı bildiretuǵın frazeologizmler. Romanda frazeologizmlerdiń bul mánilik túrleri adamnıń ruwxıy dúnyası menen baylanıslı bolıp, onıń ózgege bolǵan qatnaslarınıń ózgeriwi nátiyjesinde payda bolǵan psixikalıq jaǵdaydı bildiriwde qollanılǵan. Mısalı: Sonnan beri Qabıl qusın

emes, ákesin óltirgendey *giyne saqlap* júr (“Baxıtsızlar” 56-bet). *Úskini quyılıp* kewilsiz kiyatırǵan Mırjıq awılınıń aldındaǵı tóbe qumǵa shıǵıp atınıń júwenin tarttı hám aldına kóz tasladı (“Baxıtsızlar”, 172-bet). Allayar *eńsesi túsip* kiyatırǵan Mamandı alıstan-aq kórip: “Maman kiyatır, Maman!” dep joldaslarına dawrıq saldı (“Maman biy ápsanası”, 13-bet). Nelikten de shayıqtıń *kewli buzıldı*, lekin, kózinen jas shıǵarmadı (“Maman biy ápsanası”, 15-bet). Amanlıq penen Allayar Mamandı Murat shayıqtıń úyiniń kóleńkesinen taptı. Moynı iyilgen, *úskini quyılıp* otır (“Maman biy ápsanası”, 26-bet).

7. Ókiniwdi, pushayman bolıwdı bildiretuǵın frazeologizmler. Bunday mánidegi frazeologizmler adamnıń sırtqı hám ishki tásirleniwi nátiyjesinde ókiniwi, pushayman bolıwı menen baylanıslı psixikalıq sezimlerin bildiriwde qollanılǵan. Mısalı: Aydostıń ol ógizdi erki menen bergeni – baxıtınan ayırılǵanı. Ele *barmaǵın tislep* bizlerge keledi (“Baxıtsızlar”, 109-bet). Dáwletbay biy, esitken haqıyqatlıǵınıń qaltansın túbine shekem aqtarǵanına *pánt jep*, keyin básti (“Maman biy ápsanası”, 92-bet). Áliy usap óle qalǵan jaqsı degen-ám oyǵa berilgen edi, sonısı esine túsip, óz-ózinen jáne gúrsindi, *basın shayqadı* (“Baxıtsızlar”, 174-bet).

Mısallardan kórinip turǵanınday, adamdaǵı ókiniw, pushayman sezimlerin beriwde frazeologizmler jazıwshı tárepinen tańlap qollanılǵan. Olardıń hár qaysısınıń ózine tán mánilik ayırmashılıǵı bar.

8. Uyalıwdı, qısınıwdı bildiretuǵın frazeologizmler. Frazeologizmlerdiń bul mánilik túrleri insannıń ruwxıy jaǵdayı, ishki sezimleri menen baylanıslı qollanıladı, yaǵnıy, insannıń óziniń yamasa basqalardıń is-háreketinen, júris-turısınan, jámiyette ózin tutıwınan, adamlar arasında ózin qolaysız seziwi, qanday da bir nárselerden uyalıw, qısınıw sıyaqlı sezimlerin bildiriwde qollanılǵan. Mısalı: Eki kúnniń ishinde-aq etten sılınıp, *kisiniń betine qaray almay qaldı* **(**“Baxıtsızlar”, 281-bet). Aydos usılay derin dese de, ótirik aytıp salǵanı ushın *qulaǵına shekem qızardı* (“Baxıtsızlar”, 56-bet). Úy ishiniń bári qaraǵanına qısınıp pa, Jáliydiń *júzi burıshtay qızardı* (“Baxıtsızlar”, 86-bet).

9. Hayran bolıwdı, albırawdı bildiretuǵın frazeologizmler. Romanda bunday mánidegi frazeologizmler insan ushın kútilmegen waqıya-hádiyselerdiń júz beriwi nátiyjesinde, oylaw xızmeti menen baylanıslı hayran bolıw, albıraw sıyaqlı ruwxıy keshirmelerin bildiriwde qollanılǵan. Mısalı: Maman onı túsinedi dep oylamaǵan edi, *awzı ashılıp lal bolıp*, onıń dúńkilew keń mańlayınıń ortasındaǵı barmaq basınday oyıqqa qarap, shıp-shıp terge tústi («Maman biy ápsanası, 7-bet). Biyler *ań-tań bolıstı* (“Maman biy ápsanası”, 26-bet). Úlken biydi búytedi dep oylamaǵanlardıń *ań-tańı shıǵıp* qarasıp, onıń irkinishsiz tabanlap, alǵa óńmenlep baratırǵanın kórdi (“Maman biy ápsanası”, 372-bet). Dalada tısırlı shıqsa, *kirerge tesik tappay, tıshqan tesigi mıń teńge bolar* edi (“Maman biy ápsanası”, 393-bet).

Keltirilgen mısallardaǵı *awzı ashılıw, lal bolıw, ań-tań bolıw, ań-tańı shıǵıw, kirerge tesik tappaw, tıshqan tesigi mıń teńge bolıw* frazeologizmleri adamnıń kútilmegen jaǵdayda qıyın jaǵdayǵa túsip qalıwına baylanıslı hayran qalıwın, albırawın bildiriwde qollanılǵan. Bunday kewilsiz tuyǵı-sezimdi bildiretuǵın frazeologizmlerdiń hárqaysısında ózine tán ekspressivlik-emocionallıq boyaw bar. Bunday frazeologizmlerdiń bári de kórkem shıǵarmanıń tásirliligin kúsheytedi, emocionallıq boyawın asıradı. Olardıń hár birin qollanıwda jazıwshınıń jeke sóz qollanıw sheberligi kórinedi. Sóz sheberi hárbir frazeologizmdi puqtalıq penen paydalanıw arqalı shıǵarma

tiliniń tásirli hám kórkem bolıwına erisedi.

Sonıń menen birge, frazeologizmler mánilik jaqtan turmıslıq is-háreketlerdi sıpatlap ǵana qoymay, kórkem shıǵarmalarda dáwir koloritin ashıp beriwde qaharmannıń halatın, minez-qulqın kórsetiwde, milliy ózgesheliklerdi sıpatlawda belgili xızmet atqaradı. Demek, kórkem shıǵarma tilindegi frazeologizmlerdiń qollanılıw ózgesheliklerin hám mánilerin arnawlı izertlew kórkem sóz sheberleriniń xalıq tilinde tayar til quralların, til baylıqların jáne de sheberlep paydalanıw usılın ashıp beredi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Шмелов Д.Н. Проблемы семантического анализа лексики. – Москва, 1973.

2. Петрова И.П. Категоризация мира английскими соматическими фразовами глаголами. Автореф. дис… канд. филол. наук. – М., 2012. – С. 6.

3. Мырзашова А.К. Глагольные фразеологизмы мыслительной деятельности в казахском и русском языках.: Автореф. дисс…канд. филол. наук. – Алматы, 2000.

4. Жамбылқызы М. Қазақ және ағылшын тілдерідіндегі фразалық етістіктердің семантикалық және құрылымдық ерекшеліктері. Философия докторы (PhD) дәрежесін алу үшін усынылған диссертация. – Алматы, 2018 – Б. 64.

5. Наурызбаева С.Т. Фразеологические единицы в каракалпакского-русском словаре. – Ташкент, 1972. – С. 52.; Aynazarova G. Qaraqalpaq tilinde teńles eki komponentli frazeologizmlerdiń leksika-semantikalıq hám stillik ózgeshelikleri. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2015. – Б. 37-42.; Таңирбергенов Ж. Қорақалпоқ тилидаги феъл фразеологизмларнинг лингвистик таҳлили. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) дис... автореф. – Нөкис, 2020. – Б. 54.

6. Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиш масалалари. Филол. фан. док. …дисс. – Тошкент, 1999. – Б. 68.

“BOBURNOMA”DAGI IZOFIY BIRIKMALARNING ASLIYAT BILAN MUTANOSIBLIGI

Amonov Muxtorjon,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Farg‘ona davlat universiteti,
momonov2020gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Zahriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asaridagi izofiy birikmalarning asliyat bilan mutanosibligi masalasi tahlil qilingan. Izofiy birikmalar tarkibidagi o‘zlashma so‘zlar leksik-semantik tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: “Boburnoma”, izofiy birikma, asliyat, qo‘llanish darajasi cheklangan, iste’moldan chiqqan.

O‘zbek tilshunosligida tojikcha izofali birikmalar nisbatan chuqurroq o‘rganilgan [1]. Arabcha izofali birikmalar esa nisbatan kam o‘rganilgan. Tadqiqotchi M.Yusupov o‘zining “Типы изафетных конструксий в прозаических произведениях Алишера Навои” mavzusidagi nomzodlik ishi 3-bobini arabcha izofa tadqiqiga bag‘ishlagan[2].

Yusupovgacha professor F.Abdullayev, professor E.Begmatovlar bu masalaga qisman to‘xtalganlar[3]. Tilshunos D.Hakimov “O‘zbek tili leksikasida izofiy birikmalar tizimi” nomli maqolasida hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi arabcha izofalar va ularning imlosiga e’tiborni qaratadi[4].

Biz ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asaridagi izofiy birikmalarning asliyat bilan mutanosibligi masalasini tahlil qilishga harakat qildik.

Asardagi joy nomini bildiruvchi aksariyat forsiy izofiy birikmalar bugungi kungacha asliyatdagi kabi ma’noga ega va hozirda ham ma’nosi o‘zgarmagan holda har ikki tilda: fors-tojik va o‘zbek tillarida keng qo‘llaniladi: *Bog‘i Bihisht*, *Bog‘i Bo‘ldu, Bog‘i Vafo, Bog‘i Dilkusho, Bog‘i Jahonaro, Bog‘i Zog‘on, Bog‘i Zubayda, Bog‘i Kalon, Bog‘i Binafsha, Bog‘i Safo, Bog‘i Hilvat, Bog‘i Yurunchqa, Bog‘i Maydon, Bog‘i Nurafshon, Bog‘i Navruziy* kabi. Biroq, asarda qo‘llanilgan, tarkibi arabcha, arabcha+forscha so‘zlardan iborat bo‘lgan ko‘plab izofiy birikmalar asliyat bilan mutanosibligi tahlil qilinganda, quyidagi xulosaga kelindi:

Birinchidan, birikma tarkibidagi so‘zlardan biri hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanilmaydi, iste’moldan chiqib ketgan, ikkinchisi qo‘llaniladi, biroq, qo‘lanilish darajasi cheklangan: *baldai mahfuza*[5.43) forsiy izofiy birikmasi tarkibidagi har ikki so‘z arabchadir. *Shahar, mamlakat* ma’nosini anglatuvchi *balda* so‘zi hozirgi o‘zbek adabiy tilida uchramaydi, biroq, birikma tarkibida aniqlovchi vazifasida kelgan, *himoya qilingan, mustahkam* ma’nolarini anglatuvchi *mahfuza* so‘zi hozirgi o‘zbek adabiy tilida atoqli ot sifatida qo‘llaniladi, ya’ni ushbu so‘z asliyatdagi kabi sifatlovchi-aniqlovchi bo‘lib kelmaydi.

Shuningdek, *voqeai hoila* [5.282] forsiy izofiy birikmasi tarkibidagi har ikkala so‘z arabcha bo‘lib, asarda *qo‘rqinchli, dahshatli* ma’nolarini anglatib kelgan va hozirgi o‘zbek adabiy tilida butunlay iste’moldan chiqqan. Hozirgi arab tilida ushbu so‘z *qo‘rqinchli, dahshatli* ma’nolaridan tashqari *g‘oyat katta, ulkan* ma’nolarini ham anglatadi. Birikma tarkibidagi ikkinchi so‘z *voqea* hozirgi o‘zbek adabiy tilida faol qo‘llaniladi: *fakt, hodisa* ma’nolarini anglatadi. Ushbu so‘zning asliyatdagi, ya’ni arab tilidagi ma’nolari juda keng va rang barang bo‘lib, *voqea, fakt, hodisa* ma’nolaridan tashqari, *mojaro, jang, urush, bayonnoma hujjat* ma’nolarini ham anglatadi. Shuningdek, musulmonlarning muqaddas kitobi Qur’oni karimda ushbu so‘z *qayta tirilish, qiyomat kuni* ma’nolarini anglatib kelgan.

Ikkinchidan, birikma tarkibidagi so‘zlardan biri hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llaniladi, ikkinchisi qo‘llanilmaydi yoki qo‘lanilish darajasi cheklangan yoki ushbu so‘zning o‘zakdoshi qo‘llaniladi: *daf’i tavahhum*[5.181]. Mazkur birikmadagi *daf’* so‘zi asarda ye*ngmoq, qaytarmoq, daf qilmoq* ma’nolarida qo‘llanilgan, hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham ushbu ma’nolarni anglatadi. Arab tilida esa *daf’* so‘zi juda keng ma’noda qo‘llaniladi: *turtmoq, itarmoq, tashlanmoq, qaytarmoq, daf qilmoq, nariga surmoq, uzoqlashtirmoq, undamoq, majbur qilmoq, himoya qilmoq, to‘lamoq(naqd pul to‘lamoq), olib bormoq, yetkazmoq* ma’nolarini anglatadi. Birikmadagi ikkinchi so‘z *tavahhum* hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanilmaydi, faqat tarixiy asarlarda uchraydi, biroq, ushbu so‘zning o‘zakdoshi bo‘lgan *vahima* so‘zi faol qo‘llaniladi. Asarda *daf’i tavahhum* izofiy birikmasi *qo‘rquvni yengish* ma’nosini anglatib kelgan.

Shuningdek, asardagi *uzoq muddat* ma’nosini anglatuvchi *muddati madid* [5.31] so‘z birikmasidagi *muddat* so‘zi o‘zbek tilida faol qo‘llaniladi, biroq, *madid* so‘zining ma’nosini bilish uchun lug‘atga murojaat qilish lozim bo‘ladi:

Xo‘jand ham muddati madid edikim, Umarshayx mirzo devonig‘a taalluq edi, bu fataratga ul sarkorda futur bo‘lg‘on uchun Sulton Ahmad mirzog‘a boqib erdi.

aimmai islom [5.43] – *islom imomlari; aimmai kalom* [5.44] – *kalom imomlari.* Mazkur birikmalardagi *aimma* so‘zi hozirgi o‘zbek adabiy tilida faol iste’molda bo‘lgan *imom* so‘zining siniq ko‘plik formasidir.

Doxili mamoliki maxsura forsiy izofiy zanjirli birikmasidagi *doxil* so‘zi hozirgi o‘zbek adabiy tilida *kirmoq, bir narsaning ichiga kirgan bo‘lmoq; kirim hisobiga o‘tmoq, yozilmoq, kelmoq; daxldor, tegishli bo‘lmoq* ma’nolarini anglatadi. *mamoliki maxsura-qurshab olingan mamlakatlar* ma’nosini anglatuvchi birikmadagi *maxsura* so‘zi hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanilmaydi, ma’nosi kitobxonga tushunarli emas, arab tilida esa “Boburnoma”da ifodalab kelgan ma’no—*qurshab olingan* ma’nosini anglatadi. *Mamolik* so‘zi ham hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanilmaydi, biroq, mazkur so‘zning o‘zakdoshi *mamlakat* so‘zi hozirgi o‘zbek adabiy tilida faol iste’molda.

Uchinchidan, asarda qo‘llanilgan ayrim forsiy izofiy birikmalar tarkibidagi har ikkala so‘z hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llaniladi, biroq birikma anglatgan ma’no hozirgi o‘zbek tilida uchramaydi. Masalan, *kofiri ne’mat* [5.63] so‘z birikmasidagi *kofir* so‘zi hozirgi o‘zbek tilida arab tilidagi kabi *xudosiz* ma’nosini anglatadi, *ne’mat* so‘zi esa *tabiat in’om etgan yegulik narsalar, noz-ne’matlar* ma’nosini anglatadi. Arab tilida كافر بالنعمة *kafir binni’mati* birikmasi noshukur ma’nosini anglatadi va asardagi *kofiri ne’mat* forsiy izofiy birikmasi anglatgan ma’noga to‘liq mos keladi:

Ushbu yil, Xisravshoh Balx ustig‘a cherik borur xayoli bila Boysung‘ur mirzoni tilab, Qunduzg‘a kelturub, Balx ustiga otlandi. Uyoqcha yetgan chog‘da Xisravshoh badbaxt kofiri ne’mat saltanat dag‘dag‘asi bilakim, saltanat andog‘ nokas, behunarlarg‘a ne nav’ yetgay[5.63].

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida *kofiri ne’mat* so‘z birikmasi iste’moldan chiqib ketgan va *noshukur* ma’nosida qo‘llanilmaydi.

To‘rtinchidan, birikma tarkibidagi so‘zlardan biri hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanilmaydi, iste’moldan chiqib ketgan, ikkinchisi faol qo‘llaniladi, “Boburnoma”dagi *hiddati tab’ (***حدت طبع***)* izofiy birikmasi *sezgir, ziyrak, ta’bi nozik, qiziqqon* ma’nolarini anglatib kelgan. *Ta’b* so‘zi o‘zbek tilining izohli lug‘atida *kishining xarakterida, uning kishilarga, narsalarga munosabatida namoyon bo‘ladigan ichki tabiati, mijozi; xohish, xush, rag‘bat, ixtiyor* ma’nolarini anglatadi deb ko‘rsatilib o‘tilgan. Ushbu so‘z hozirgi o‘zbek adabiy tilida asliyatdagiga to‘la mos keladi. Biroq, birikma tarkibidagi *hiddat* so‘zi iste’moldan chiqib ketgan va hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanilmaydi:

Va Shayx Zayn sadrkim, Zayniddin Xavofiyni nabirasi erdi, hiddati tab’i bor erdi, nazm va inshodin saliqalig‘ va Humoyun podshoh zamonida umarolig‘ ham topib erdi[5.357]

Asardagi *hakimi hoziq* forsiy izofiy birikmasi *eng tajribali, mahoratli, mohir tabib* ma’nosida qo‘llanilgan.

Hakim so‘zining o‘zbek tilidagi birinchi ma’nosi tabib bo‘lsa, ikkinchi ma’nosi donishmand, faylasuf va arab tilidagi ma’nolariga to‘la mos keladi. Faqat arab tilida tabib

ma’nosi, donishmand, faylasuf ma’nolaridan keyingi o‘rinda turadi. *Tajribali, mahoratli, mohir* ma’nolarini anglatuvchi *hoziq* so‘zi esa hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanilmaydi, biroq, ushbu so‘zni tarixiy asarlarda juda ko‘p uchrashi, eski o‘zbek tilida faol iste’molda bo‘lganligidan dalolat beradi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida ham ushbu so‘zning ma’nolari izohlab berilgan va bir nechta tarixiy asarlardan misollar keltirilgan. Arabcha-o‘zbekcha lug‘atlarda *hoziq* so‘zi birinchidan, *mohir, chaqqon, bilimdon, yuqori malakali* ma’nolarini anglatishi, ikkinchidan, *nordon, tuzli, achchiq* ma’nolarini anglatishi ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, o‘zbek tiliga birinchi ma’nosi o‘zlashgan va asliyatdagiga to‘la mos keladi.

Dehliga kelturub, Dehlidin kemag‘a solib keltirsunlarkim, hakimi hoziqlar ko‘rub, dardig‘a davo qilsunlar.[5.355]

Asarda qo‘llanilgan arabiy izofiy birikmalar va ularning tarkibidagi so‘zlarni asliyat bilan mutanosibligini tahlil qilganimizda deyarli yuqoridagi holat kuzatildi.

Birinchidan, “Boburnoma”dagi Alisher Navoiy asarlari va boshqa shoirlarning asarlari nomini bildiruvchi aksariyat arabiy izofiy birikmalar bugungi kungacha asliyatdagi kabi ma’noga ega va hozirda ham ma’nosi o‘zgarmagan holda har ikki tilda: arab va o‘zbek tillarida keng qo‘llaniladi: *“Badoyius-sanoyi”*, *“Badoyiul-vasat”*, “*Mantiqut-tayr”, “Maxzanul-asror”, “Mizonul-avzon”, “Navodirush-shabob”, “Lisonut-tayr”, “Favoidul-kibar”* kabi.

Ikkinchidan, asardagi arabiy izofiy birikma tarkibidagi so‘zlardan biri hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llaniladi, ikkinchisi qo‘llanilmaydi yoki qo‘lanilish darajasi cheklangan yoki ushbu so‘zning o‘zakdoshi yoki birlik formasi qo‘llaniladi: *doimul-avqot* [5.357] – *hamma vaqt, doimo.* Ushbu birikmadagi *avqot* so‘zi arab tilidan o‘zlashgan va hozirgi o‘zbek adabiy tilida faol iste’molda bo‘lgan *vaqt* so‘zining ko‘plik shakli bo‘lib, hozirgi o‘zbek adabiy tilida *avqot* butunlay iste’moldan chiqib ketgan va tarixiy asarlardagina uchraydi. Hozirgi arab adabiy tilida ushbu so‘z faol iste’moldadir.

Shuningdek, asardagi *xalifalik uyi, poytaxt* ma’nolarini anglatuvchi *dorulxilofa* [5.352] arabcha izofiy birikmasi nafaqat hozirgi o‘zbek adabiy tilida, balki arab tilida ham iste’moldan chiqib ketgan, vaholanki, hozirgi arab adabiy tilida tarkibida *dor* so‘zi ishtirok etgan ko‘plab izofiy birikmalar qo‘llaniladi: دار الآثار *dorul asor-muzey,* دارالبريد *dorul barid- pochta,* دارالتمثيل *dorut tamsil - teatr* kabi. Birikma tarkibidagi *xalifalik* mazmunini angalatuvchi *xilofa* so‘zi hozirgi o‘zbek adabiy tilida umuman qo‘llanilmaydi, o‘zbek tilining izohli lug‘atida ham ushbu so‘z mavjud emas. Biroq, hozirgi kunda faoliyat olib borayotgan turli xil ekstremistik guruhlar nutqida mazkur so‘z *xilofa, xilofat, xalifalik* variantlari bilan keng qo‘llaniladi. Birikma tarkibidagi دار *dor* so‘zi hozirgi o‘zbek tilida *“dorulbaqo”, “dorulfano”, “dorulfunun”* kabi arabiy izofiy birikmalar tarkibida uchraydi.

Uchinchidan, asarda qo‘llanilgan ayrim arabiy izofiy birikmalar tarkibidagi har ikkala so‘z hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llaniladi, biroq birikma anglatgan ma’no hozirgi o‘zbek tilida uchramaydi. Masalan, asarda tarkibida *uy, saroy* ma’nosini anglatuvchi دار *dor* so‘zi mavjud bo‘lgan bir qator izofiy birikmalar uchraydiki, birikma tarkibidagi har ikkala so‘z hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llaniladi: *dorulharb(250-bet)-kofirlar yurti, mamlakati; dorul-islom*[5.250]-*islom mamlakati; azimush-sha’n* [5.287] – *buyuk; karimut-tarafayn*[5.146]- *ikki tomonlama ulug‘, ikki tomonlama ulug‘langan;*

muddatul-umr [5.174] – *umr bo‘yi* kabi birikmalar tarkibidagi so‘zlar hozirgi o‘zbek adabiy tilida mustaqil ravishda qo‘llaniladi, biroq, birikma holida uchramaydi.

To‘rtinchidan, arabiy izofiy birikma tarkibidagi so‘zlardan biri hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanilmaydi, iste’moldan chiqib ketgan, ikkinchisi semantik o‘zgarishga uchragan, ma’nosi toraygan holatda qo‘llaniladi: Bobur asarda yeyiladigan, go‘shti yesa bo‘ladigan ma’nosini angalatuvchi *ma’kulul-lahm* [5.256] arabcha izofiy birikmasini qo‘llagan. Yeyishli, yesa bo‘ladigan ma’nolarini anglatuvchi *ma’kul* so‘zi hozirgi o‘zbek tilida qo‘llanilmaydi, hozirgi arab tilida faol iste’moldagi so‘z, *go‘sht* ma’nosini anglatib kelgan so‘z hozirgi arab tilida ham *go‘sht* ma’nosini anglatadi, biroq, hozirgi o‘zbek adabiy tilida ma’nosi torayib suyaksiz ma’nosini anglatadi: *lahm go‘sht* kabi. Muallif *lo‘cha* nomli qushga ta’rif berib deydi: *Boshidin quyrug‘ug‘acha besh-olti muxtalif rangi bor, kabutarning bo‘ynidek barroqdur. Uluqlug‘i kabki dariycha bo‘lg‘ay, g‘olibo Hinduston kabki dariysidur...Ul ajab nima rivoyat qildilar: qish bo‘lg‘och, tog‘ domanalariga tushar, agar uchursalarkim, uzum bog‘idin o‘tsa, yana aslo ucholmas, tutarlar. Ma’kulul-lahmdur, bisyor laziz eti bordur*.[5.256]

Shuningdek, asardagi *mamlakatning tayanchi, boshlig‘i* ma’nolarini anglatib kelgan *umdatulmulk* [5.329] arabiy izofiy birikmasi hozirgi arab tilida erkin izofiy birikma sifatida ham, frazeologik birlik sifatida ham qo‘llaniladi, o‘zbek tilida esa iste’moldan chiqib ketgan. Birikma tarkibidagi *umda* so‘zi hozirgi o‘zbek adabiy tilida iste’moldan butunlay chiqib ketgan, izohli lug‘atlarda ham ma’nosi ko‘rsatilmagan, birikma tarkibidagi *mulk* so‘zining esa ma’nosi toraygan va hozirgi o‘zbek tilida *mol-mulk* ma’nosida qo‘llaniladi. Eski o‘zbek tilida ushbu so‘z mamlakat ma’nosida keng qo‘llanilgan.

Xulosa qilib aytganda, “Boburnoma”dagi ko‘plab izofiy birikmalar yoki ularning komponentlaridan biri asliyat bilan to‘la mos kelmaydi. Boshqa tarixiy asarlarda ham mazkur holatni kuzatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев. Ф. Сўзлар ўзаро қандай боғланади. Т.: Фан, 1974.
2. Абдуллаев. Ф, Эшондадаев. Д. Ўзбек тилида тожикча изофали бирикмалар // Ўзбек тили ва адабиёти. Т.: 1973, 1-сон, - Б. 40-45.
3. Юсупов. М. Типы изафетных конструкций в прозаических произведениях Алишера Наваи. АКД. Т.:1984.
4. Бегматов. Э. Ономастик сўз ясаш масалаларига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. Т.: 1965, 3-сон, - Б. 53-55.
5. Абдуллаев. Ф. Киши отларини қисқартириш усуллари // Ўзбек тили ва адабиёти. Т.: 1960, 3-сон, - Б. 34-39.
6. Жўраев. Б. Ж., Бегматов. Э.А. Атоқли отларни ўрганишга доир баъзи мулоҳазалар// Ўзбек тили ва адабиёти. Т.: 1966, 2-сон.
7. Ҳакимов. Д. Ўзбек тили лексикасида изофий бирикмалар тизими. Ўзбек тили ва адабиёти. Т.: 2004, 4-сон, - Б. 63-67.

MILLIY KIYIM-KECHAK NOMLARINING FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA QO‘LLANILISHI

Jumayeva Zubayda,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy madaniyat ayrim millatga, etnosga taalluqli ijtimoiy-tarixiy voqelik hisoblanishi va ular o‘rtasidagi farqlar nisbiyligi, hamda dialektik bog‘liqlik, hamkorlik ular mavjudligining rivojlanib borishi sharti hisoblanishi haqida yoritilgan. Har bir xalqning o‘ziga xos kiyim-kechak nomlari va realiyalari ham milliy frazeologizmlarni hosil qilishda asos vazifasini o‘tashi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: an’ana, milliy kiyimlar, xalq madaniyati, hudud, elatlarga xos voqelik, turmush tarzi taraqqiyoti, kiyim-kechak bilan chambarchas bog‘liq turmush tarzi, insoniy fazilat.

Ma’lumki, insoniyat turmush tarzi taraqqiyoti kiyim-kechak bilan chambarchas bog‘liq holda yuzaga kelgan. Aynan kiyim insonni hayvondan ajratuvchi muhim tashqi alomatlardan biri hisoblanadi. An’anaviy milliy kiyimlarning shakllanishiga nazar tashlar ekanmiz, asrlar mobaynida uning qator muhim funksiyalari tarkib topganini ko‘rishimiz mumkin. Xalq madaniyati ma’lum bir millatga yoki ma’lum bir hududda yashovchi barcha elatlarga xos voqelikdir.

O‘zbek xalqi kiyinish madaniyati nuqtai nazaridan ham dunyodagi halqlarning oldingi saflarida turadi. Bir necha ming yillar ilgari ota-bobolarimiz egniga yaktak, oyoqqa kovush-mahsi, etik, boshga shabpo‘sh, do‘ppi, telpak, ustga chopon, to‘n kiyib, belga belbog‘, qars bog‘lashgan. Shuning uchun ham xalqimizda erkak kishilikni ramziy ifodalash ma’nosida *“belingda belbog‘ing bormi”* degan ibora qolgan.

Milliy madaniyat ayrim millatga, etnosga taalluqli ijtimoiy-tarixiy voqelik hisoblanadi. Ular o‘rtasidagi farqlar nisbiydir. Dialektik bog‘liqlik va hamkorlik ular mavjudligining rivojlanib borishi sharti hisoblanadi. Har bir xalqning o‘ziga xos kiyim-kechak nomlari va realiyalari ham milliy frazeologizmlarni hosil qilishda asos vazifasini o‘taydi. Masalan, “*to‘nini teskari kiyib olmoq”*– o‘chakishgan holda qaysarlik qilmoq, “*do‘ppini osmonga otmoq*” – juda xursand bo‘lmoq, “*do‘ppi tor keldi”*– iloj-imkonsiz og‘ir ahvolga tushmoq, “*bir-ikki yaktakni ortiqroq yirtgan*” – yoshi kattaroq, turmush tajribasi ko‘proq, “*chorig‘ini sudramoq”* –zo‘rg‘a-zo‘rg‘a, amal-taqal qilib yashamoq, “*paytavasiga qurt tushdi”*–xotirjamligi buzilib, bir yerda tinch tura olmaslik [1].

Sharqda unashtirilgan qiz yangi turmush qurgan joyga maxsus milliy oyoq kiyimida, mahsida kirib borgan. *Mahsi* so‘zi arabcha “bo‘yamoq”, “surtmoq”, “yog‘lamoq” ma’nosidagi *masaha* fe’li asosida paydo bo‘lgan. Oyoq kiyimining bunday nomlanishi unga mas’h tortish mumkin bo‘lganidandir. Mas’h tortish sharoiti va tartibi shar’iy asoslanadi [4]. *Mas’h* so‘ziga nisbat qo‘shimchasi bo‘lgan -*i* ni qo‘shish natijasida hosil bo‘lgan. Ushbu so‘z arab tilining o‘zida yo‘q. Shuningdek, ushbu so‘zning fors tiliga oid lug‘atlarda va “Navoiy asarlari lug‘ati”da uchramasligi uning bir qadar keyingi davrlarda arabiy asosga o‘zbek tili so‘z yasalish tizimidan mustahkam o‘rin olgan, aslida arab tilidan o‘zlashgan “yoyi nisbat”ni qo‘shish bilan yasalganini ko‘rsatadi. Demak, *mahsi*

so‘zining yasalish asosi arab tiliga taalluqli bo‘lsa ham, so‘z yasash tizimi nuqtai nazaridan o‘z qatlamga mansub [4]. Xorazmda unashtirilgan qiz yangi turmush qurgan joyga maxsus milliy oyoq kiyimida, ya’ni mahsida kirib borgan. Shuning uchun “*mahsi kiymoq*” turmushga chiqmoq tushunchasiga teng qo‘llanilgan.

O‘zbek milliy kiyimlarining muhim qismlaridan biri *do‘ppidir*. O‘zbekona milliy do‘ppilarga nazar tashlar ekanmiz, ulardan yurtimizning turli mintaqalariga xos mahalliy do‘ppilar: Marg‘ilon, Andijon, O‘sh, Shahrisabz, Toshkent, Buxoro, Boysun, Chust do‘ppilari mashhur bo‘lib, bularning “iroqi chorgul”, “tagdo‘zi”, “zardo‘zi”, “baxmal”, “ paxta gulli nusxa”, ”toj nusxa” deb nomlanuvchi turlari ko‘p uchraydi. An’anaviy kiyimlar ba’zan kishilar yoshidagi farqni va ularning oilaviy ahvolini belgilashda ham xizmat qilib, ularning nasl-nasabidan nishona berib turuvchi xususiyatga ega bo‘lgan. Biz bunday an’anaviy milliy kiyim-kechaklarning kishilarning moddiy madaniyati, nafosat olami va ilohiy qudrat haqidagi tasavvurlari bilan uzviy ravishda bog‘lanib, birlashib ketganini ko‘ramiz.

“Do‘ppi” kundalik hayotda ham, mehnat jarayonida, marosimlarda ham, asosan, erkaklar tomonidan kiyiladi. Chaqaloq tug‘ilganda unga atab o‘tkaziladigan *beshik to‘yi* (bolani beshikka solish munosabati bilan o‘tkaziladigan tantanali marosim)da [O‘TIL.I.402] xonadonboshi tomonidan chaqaloqqa do‘ppi hadya qilinadi va bu kelajakda bir oilaga bosh bo‘lsin, degan ma’noni ifodalaydi. Bezatilgan beshikning bir tomoniga o‘g‘il bolalarning, ikkinchi tomoniga qiz bolalarning do‘ppisi kiydirib qo‘yiladi. Bu odat xonadonga o‘g‘il va qiz farzandlar tilanishini ifoda etadi. To‘y marosimlarida to‘y egasining boshida albatta do‘ppi bo‘ladi. Bu uning xonadonida xursandchilik bo‘layotgani va xonadonning sohibi ekanligini bildiradi. To‘y marosimlarida kelinning xonadonidan kuyovga yuboriladigan sovg‘a-salomlarga ham do‘ppi qo‘shib beriladi. Bu uning endi oilaboshi ekanligini bildiradi. Bundan tashqari, biror kishi vafot etgandan so‘ng o‘tkaziladigan barcha aza marosimlarida xonadon egalarining ham, ularning hol-ahvolini so‘rab keluvchilarning ham boshida do‘ppi bo‘ladi. Boshda do‘ppisiz duolar qabul bo‘lmaydi, degan aqida o‘zbeklarga xos. Shuning uchun azali xonadonga do‘ppisiz borilmaydi.

Ayollar do‘ppisi esa, ko‘pincha, biror xonadonga yangi kelin bo‘lib borgan qizlar tomonidan *kelin ko‘rdi* [O‘TIL.II.346] (o‘zbeklarda nikoh to‘yining ertasiga kuyovning qarindoshlari, tanishlari, qo‘ni-qo‘shnilari ishtirokida o‘tkaziladigan yangi kelinchakni ko‘rish marosimi), *kelin salom* (nikoh kunining ertasiga ertalab kuyovning ota-onasi va boshqa yaqinlariga salom qildirish) marosimlarida va kelinlik davrining dastlabki ikki-uch oyida kiyiladi [O‘TIL.II.346] Qolaversa, do‘ppi o‘zbek milliy bayrami – Navro‘zda, Navro‘z sayllarida qizlar tomonidan kiyiladi. O‘zbek tilidagi “do‘ppi” so‘zi bevosita umumxalq hayoti bilan bog‘lanadi va madaniyatning ajralmas qismi sifatida shu xalqning turmush tarzida yashaydi.

“Do‘ppi” leksemasi ishtirokida *do‘ppisini yerga qo‘yib uxlamoq*, *do‘ppini tagida odam bor*, *do‘ppini yarimta qilib, do‘ppisi tor kelmoq, do‘ppisi chakkada, do‘ppisi chambarak, do‘ppisini osmonga irg‘itmoq* kabi qator frazeologizmlar shakllangan.

A.Mamatov “do‘ppi” komponentli frazeologizmlarning ko‘pchiligini o‘zbek xalqining milliy urf-odatlari bilan bog‘liq holda shakllanganini ta’kidlab, ulardan ayrimlarining qay tarzda paydo bo‘lish hodisalarini tushuntirib o‘tadi: “*do‘ppisini*

osmonga otmoq” frazeologizmi – kishi quvonganidan, ijobiy voqea-hodisadan, xabardan xursand bo‘lganda beixtiyor do‘ppisini osmonga otish hollari uchraydi. Shunday xursandchilik va quvonch belgisini obrazli ifodalash ehtiyoji asosida ushbu ibora paydo bo‘lgan. “*Do‘ppining tagida odam bor*” frazeologizmi ko‘p ma’noliligi bilan ajralib turadi. Undan “birovning gapini birovga u yoki bu tarzda yetkazadigan”, “chaqma-chaqar”, “gap tashuvchi kishi” ma’nosi uqilishini payqash mumkin. Shuning uchun ham bu frazeologizm “bir gapni aslidan boshqacha talqin qilish” tarzidagi salbiy hodisani ifoda etadi. Bu kabi frazeologizmlarning milliyligi shundaki, ular milliy tushunchalar va predmetlar bilan bog‘lanadi. Jumladan, mo‘ljali pishiq bo‘lmay, bir katta ishni boshlab qo‘yib, oxirigacha yetkazish qo‘lidan kelmagan kishilarga nisbatan ”*do‘ppisi tor kelib qoldi”* iborasi ishlatiladi.

Yosh kelinlar yoki uzoq vaqt farzand ko‘rmay, tasodifan homilador bo‘lgan xotinlar yaxshi niyat bilan bo‘lg‘usi chaqaloqqa do‘ppi tikadi. Bu “*hali tug‘ilmagan bolaga do‘ppi tikadi*” iborasining to‘g‘ri ma’nosidir. Lekin ba’zi odamlar bo‘lmagan xayollar bilan biror narsaga umid bog‘laydi, o‘sha narsadan ta’ma qiladi. Bunday vaziyatda xalqimiz “*tug‘ilmagan bolaga do‘ppi tikadi”* iborasini qo‘llaydi.

O‘zbek madaniyatida *chopon* (to‘n) kiyim ustidan kiyiladigan, ichiga paxta solib qavilgan uzun milliy kiyim [O‘TIL.V.507] bo‘lib, alohida qiymatga ega. Chunki o‘zbeklarning ko‘pgina urf-odat va marosimlarida, xususan, o‘g‘il chaqaloqqa bag‘ishlab o‘tqaziladigan beshik to‘yi marosimida, ko‘pincha xonadonning katta yoshli vakillari tomonidan chaqaloqqa zarbof choponcha kiydirib qo‘yiladi. To‘y marosimlarida kelinning xonadoni tomonidan yuboriladigan sarpolarda to‘n yuboriladi. Motam marosimlarida azali xonadonning erkak a’zolari *chopon* (to‘n) kiyadilar. Bundan shu narsa aniq bo‘ladiki, o‘zbek madaniyatida *chopon* (to‘n) inson tug‘ilganidan so‘ng hayotining barcha onlarida unga hamrohlik qiladi. O‘zbeklarda *chopon* (to‘n)ning yozda issiqdan asrashi va qishda sovuqdan himoyalashdagi eng qulay ustki kiyim ekanligi ham madaniyatda bu kiyimning o‘rnini qat’iylashtiradi [7].

Chopon (to‘n) komponenti *bir to‘ni ikki bo‘lmadi* (qashshoqlikda kun kechiradi, kosasi oqarmadi), *gapga to‘n kiygizmoq* (gapni juda boplab, qoyilmaqom qilib gapirmoq), *soyaga qarab to‘n bichmoq* (asl holatni ko‘rmay-bilmay xulosa chiqarmoq, baho bermoq), *to‘nini teskari kiymoq* (o‘chakishgan holda qaysarlik qilmoq, g‘azablanmoq) kabi iboralarda o‘z aksini topgan. Iboralar tarkibidagi bu kulturema vositasida o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan belgilar ifodalangan. Bunda chopon (to‘n)ning ustki kiyim ekanligi hamda uning shakli asos qilib olingan.

Ayollar uchun tikilgan chopon ham o‘zbek madaniyatida o‘z o‘rniga ega. Odatda ayollar choponi o‘zbek milliy matolari – *atlas* (bir tomoni yaltiroq, guldor, mahalliy ipak gazlama), *adras* matolaridan tikiladi. Navro‘z bayramlarida, to‘y-marosimlarda kiyilishi bilan birga, hozirgi kunga kelib, kundalik kiyimga ham aylanib ulgurgan.

Milliylik xalq madaniyatining negizini tashkil etadi. Milliylikni o‘ziga jo etmagan xalqning madaniyati rivojlanmaydi. O‘zbek tili leksikasi doimiy ravishda boyish va rivojlanishda bo‘lib, uning tarkibida o‘zlashma so‘zlar alohida qatlamni tashkil qiladi.

Frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyati haqida fikr bildirar ekanmiz, quyidagilarga ahamiyat qaratishimiz zarur: a) tildagi har qanday birlik u yoki bu darajada milliy-madaniy o‘ziga xosliklarni namoyon etadi; b) shunday til birliklari borki, ular

milliy-madaniy kulteremalarning benihoya betakror timsolidir; v) shu ma’noda frazeologizmlar millat mentaliteti, madaniyati, turmush tarzi hamda uzoq yillik kuzatuvlarning qabariq ifodasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Усмонова Ш. Лингвокультурология. –Тошкент, 2019. –Б.97.

2.Носиров О., Юсупов М. в.б..Ан-наъим. Арабча-ўзбекча луғат. –Тошкент: А.Қодирий номидаги

3.“Халқ мероси” нашриёти, 2005. –Б.783.

4.Мухтасар. Араб тилидан Рашид Зоҳид ва Акрам Деҳқон таржимаси. –Тошкент: Чўлпон, 1993.

5.Норбоева Ш.Х. Хоразм шеваларида кийим-кечак номларининг структур-семантик тадқиқи. Филол.фан.бўйича фалс.докт.(PhD) дисс...автореферати. –Тошкент, 2017. –Б.12.

6.Норбоева Ш. Хоразм шеваларидаги соҳавий лексика.–Тошкент,2014.–Б. 47

7. Холмонова З. Лингвокультурологияга оид тушунчалар тадқиқи. . –Тошкент: Наврўз, 2018. –Б.45.

8.WWW.urbandictionary.com/define. Php?term=kilts+on+stilts

ABDULLA QAHHOR ASARLARIDA QO‘LLANILGAN IBORALARNING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Babadjanov Mansurbek,
filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD),
Qoraqalpoq davlat universiteti
Sadullayeva Shaxida,
Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdulla Qahhor asarlarida qo‘llanilgan iboralarning lingvokulturologik tahlili haqida so‘z boradi. Aytish lozimki, Abdulla Qahhor asarlarida qo‘llanilgan iboralar o‘zbek milliy mentalitetidan kelib chiqqan holda baholangan bo‘lib, ularning har biri muallif asarlarida o‘ziga xos ahamiyat kasb etgan.

Kalit so‘zlar: frazeologiya, psixolingvistika, lingvokulturologiya, neyrolingvistika, milliy madaniyat.

Barchamizga ma’lumki, bugungi kunda ilm-fan taraqqiyoti borgan sari ildamlamoqda. Fanlararo yangi sohalar paydo bo‘lib, ilm-fanning yanada rivoj topishiga sabab bo‘lmoqda. Aynan shu holat tilshunoslikka ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Tilshunoslik sohasida ham yangidan yangi fan yo‘nalishlari paydo bo‘lib, bu lingvistik faoliyatning yanada kengayishiga xizmat qilmoqda. Tilshunoslikda taraqqiy etayotgan psixoligvistika, lingvokulturologiya, neyrolingvistika, kognitiv tilshunoslik va shu kabi qator yo‘nalishlar ilm-fanning yangi yo‘nalishlari sifatida xizmat qilmoqda. Biz siz bilan ushbu maqolamizda lingvistik jihatdan ikki fan kesimida hosil bo‘lgan tilshunoslik sohasi

lingvokuturologiya va uning Abdulla Qahhor asarlaridagi frazeologizmlarda o‘z aksini topishini ko‘rib chiqamiz.

Lingvokulturologiya – madaniyat va tilshunoslik sohalari kesishuvidan hosil bo‘lgan soha hisoblanadi (“lingua” – til; “culturology” – madaniyat) [1]. Xalqlar madaniyatiga xos tuzilmalarning tilshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganilishi lingvokulturologiya fanining asosiy maqsadi hisoblanadi. Xalqlarga hayotini aks ettiruvchi milliy urf-odatlar, an’analar, qadriyatlar, xalq og‘zaki ijodining go‘zal namunalariga lingvistik yondashuv lingvokulturologiya fani oldida turgan dolzarb masalalardandir. Aytish lozimki, har bir ijodkor o‘z asarlarining badiiy qiymatini, salmog‘ini oshirish maqsadida turfa lingvokultorlogik birliklardan unumli foydalanadi. Xususan, o‘zbek adabiyotining atoqli vakili Abdulla Qahhor ham o‘z asarlarida lingvokulturologik birliklarni qo‘llash orqali ijod namunalarining badiiy ruhini yanada oshirgan. Abdulla Qahhor ijodida uchraydigan frazeologik birliklar uning asarlarining mohiyatini ochishga xizmat qilgan.

Frazeologik birlik, ya’ni ibora necha so‘z bo‘lishidan qat’i nazar ma’nosi bir so‘zga teng keluvchi birliklar hisoblanadi. Iboralar nutqiy jarayonga tayyor holda olib kiriladi. Frazeologik birliklar ko‘rinishidan so‘z birikmasi yoki gapga o‘xshab ketadi. Biroq ulardan birmuncha jihatlari bilan farq qiladi, ya’ni yuqorida qayd etilgan birliklar orasida ma’no mustaqilligi mavjud bo‘lsa, iboralar orasida ma’no yaxlit holda yuzaga keladi[4].

Abdulla Qahhorning qalami shu qadar o‘tkirki, u frazeologik birliklarni asar “bag‘ri”ga mahorat ila singdirib yuborgan. Frazeologizmlar asar tarkibiga, voqealar rivojiga shu qadar moslab tanlanganki, ular orqali asar lingvokulturologik mohiyati yanada oydinlashadi. Xususan, adibning “Bemor” hikoyasida qo‘llanilgan frazeologik birliklar tahliliga yuzlansak.

“Sotiboldining xotini og‘rib qoldi. Sotiboldi kasalni o‘qitdi – bo‘lmadi, tabibga ko‘rsatdi. Tabib qon oldi. Betobning ko‘zi tinib, *boshi aylanadigan* bo‘lib qoldi… Bunday vaqtlarda *yo‘g‘on cho‘ziladi, ingichka uziladi*”… “Bemor”asaridan olingan ushbu parchada bir nechta frazeologik birliklar qo‘llanilgan bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos ma’no-mazmunga ega. Parchada qo‘llanilgan “boshi aylanmoq” iborasi Shavkat Rahmatullayevning “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”da quyidagicha izohlanadi:

1. Behud bo‘lmoq, muvozanatini yo‘qotmoq(organizmning kasallangan holati, bunda go‘yo atrofdagi hamma narsa aylanib ketayotgandek tuyuladi.

2. Esankiramoq[4].

“Bemor” hikoyasida ushbu iboraning birinchi ma’nosi qo‘llanilgan bo‘lib, muallif ushbu frazeologik birlikdan qahramon tasvirini ochib berishda foydalangan. Bundan tashqari, parchada “yo‘g‘on cho‘ziladi, ingichka uziladi” iborasi qo‘llanilgan bo‘lib, ushbu ibora juda ham yo‘qsillik ma’nosini ifodalash uchun muallif tomonidan mahorat ila qo‘llangan. Xalq turmush tarzida kuzatilayotgan og‘ir damlar, mushkulotlar “yo‘g‘on-imgichka” lingvomadaniy birligi orqali o‘z aksini topgan. Muallif bu orqali ijtimoiy turmushdagi ahvol shu darajada ediki, nima bo‘lsa ham kamayish holatida, kamaymoqda, degan g‘oyani ilgari surmoqda. Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasida ko‘plab frazeologik birliklar qo‘llanilgan bo‘lib, ushbu birliklar davr nuqtayi nazaridan ham

lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinganda ijtimoiy hayot kundalik turmushini ifodalab berishga xizmat qiladi.

“O‘g‘ri” hikoyasi Abdulla Qahhor ijodining go‘zal namunalaridan biri hisoblanadi. Ushbu hikoyada jamiyat hayotidagi kamchiliklar, muammolar ochiq-oydin yoritilgan, bundan tashqari, asar frazeologik birliklarga ham boy hisoblanadi:

Aminning *tepa sochi tikka bo‘ldi*…

Ma’lum bo‘ldiki, uni *begim deguncha beli sinar ekan*…

“O‘g‘ri” hikoyasida qo‘llanilgan frazeologik birliklar mohiyatan asar voqeliklariga juda ham mos tushgan. Ijtimoiy hayot nuqtayi nazaridan ham, lingvokulturologik jihatdan ham mos ravishda tanlangan ushbu frazeologik birliklar adib qalami o‘tkirligidan dalolat beradi.

“O‘g‘ri” hikoyasida qo‘llanilgan “tepa sochi tikka bo‘ldi” iborasi “jahli chiqdi, jig‘ibiyron bo‘ldi” kabi ma’nolarni anglatgan bo‘lsa, asardagi “beli sinmoq” iborasi “O‘zbek tili frazeologizmlarining izohli lug‘ati” da quyidagicha izohlanadi: mashaqqat chekmoq, og‘rinmoq, qiynalmoq.

Demak, asar voqeliklariga mos tanlangan yuqorida qayd qilingan ushbu frazeologik birliklarda lingvomadaniy xususiyat ham jam bo‘lgan.

Yoki bo‘lmasa ijodkorning “Muhabbat” asari ham bu borada diqqatga sazovor:

Salimjon yo‘lda biroz *hovuridan tushganday* bo‘ldi, kelib yana *jazavasi qo‘zidi*… Ushbu “Muhabbat” asaridan olingan jumlada hovuridan tushganday bo‘lmoq iborasi jahlidan tushdi, tinchlandi ma’nosini ifodalasa, jazavasi qo‘zimoq iborasi jahli chiqmoq ma’nosini ifodalagan hamda ushbu gapda ishtirok etgan iboralar o‘zaro ziddiyatni hosil qilgan[4]

Agar Muhayyo Anvarga *ko‘ngil qo‘ysa, boshini osmonga yetkazgan* bo‘ladi. Parchada qo‘llanilgan iboralar :

Ko‘ngil qo‘ymoq – sevmoq;

Boshi osmonga yetmoq – xursand bo‘lmoq

Ushbu ikki iboraning gap tarkibida ketma-ket qo‘llanilishi asar ma’nosining yanada kuchliroq, yanada ifodaliroq chiqishiga xizmat qilgan.

Bundan tashqari, Abdulla Qahhorning mashhur romani hisoblanmish “Sinchalak” ham frazeologik birliklarga boy manba hisoblanib, asarda qo‘llanilgan iboralar lingvokulturologik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ushbu gapga e’tibor bering:

Aflotunning qizi bo‘lsangiz ham, gapni tonnalab oling-u grammlab soting. Ushbu gap tarkibida qo‘llanilgan ikki birlik mazmuniy jihatdan frazeologik birlik hisoblanadi, ya’ni “Aflotunning qizi” va “gapni tonnalab olmoq, grammlab sotmoq”. Asarda qo‘llanilgan mohiyatan yangilik bo‘yog‘iga ega ushbu birliklar o‘ziga xos ma’noga egadir.

“Aflotunning qizi” frazeologik birligining lingvokulturologik jihati shundan iboratki, ushbu gapda “Aflotun” lingvokulturologik kod vazifasini bajargan, ya’ni Aflotun shaxsi orqali frazeologik birlikning mazmuni ochib berishga harakat qilingan. Bilamizki, Aflotun, ya’ni Arastu miloddan avvalgi davrlarda yashagan kuchli ilm sohibi hisoblanadi. Ana shu jihati e’tiborga olingan holda “Aflotunning qizi” iborasi orqali “otangiz ilm jihatidan kuchli shaxs bo‘lsa ham” ma’nosi ilgari surilgan.

Ikkinchi birlikdagi, ya’ni “gapni tonnalab olmoq-u grammlab sotmoq” ifodasida ham lingvokulturologik kod mavjud bo‘lib, ushbu kod konnatativ ma’noga ega, ya’ni gap lingvokulturologik kodi ostida mazmunan qancha gapga ustamon shaxs bo‘lsangiz-da, biroq gapiradigan so‘zingiz oz bo‘lsin degan ma’no anglashiladi. Bu frazeologik birlik o‘zbek paremilogik yo‘nalishida qo‘llaniladigan maqol bilan hamohangdir, ya’ni: *“Oz so‘zla – soz so‘zla”.*

Yoki bo‘lmasa, “Sinchalak” asarida qo‘llangan ushbu iboraga e’tibor bering: “*To‘g‘ri, juda to‘g‘ri, igna bilan bitadigan ishga juvoldiz tiqib o‘tirmasag-u, sizning o‘rningizga o‘sha odamlarimizdan birini kirgizsak”,*- ushbu parchada qo‘llanilgan *“igna bilan bitadigan ishga juvoldiz tiqmoq”* iborasi qo‘llanilgan bo‘lib, *oson ishni qiyinlashtirmoq* ma’nosiga egadir. Bu, ibora ham xuddi “gapni tonnalab olmoq-u, grammlab sotmoq” frazeologik birligi kabi konnotativ ma’noga ega hisoblanadi. Zimdan “aqcha bilan bitadigan ishni ortiqcha qiyinlashtirmay o‘rtadagi shaxs yordamida hal qilsak” mazmuni ilgari surilmoqda.

“It ochiq qolgan qozonni yalaydi, - jumlasi ham Abdulla Qahhorning “Sinchalak” asarida qo‘llanilgan bo‘lib, ushbu frazeologik birlikda lingvokulturologik kod vazifasini “it” leksemasi bajargan. It leksemasi turli xalqlarda turli lingvokulturologik vazifa kasb etadi. Xususan, o‘zbek xalqida “it” leksemasida *vafo, sadoqat* sememasi anglashilsa *(It – vafo, xotin – jafo)*, chexlarda “it” leksemasi qahramonlik, jasorat timsolini anglatadi. Yaponlarda esa ushbu leksema bajargan ma’no o‘zbek xalqi nuqtiy muloqotida qo‘llaniladigan sema bilan bir xil ma’no kasb etadi. Asarda qo‘llanilgan “it ochiq qolgan qozonni yalaydi” frazeologik birligi vositasida esa asrab-avaylanmagan narsaga hamma yomon nazar ila boqadi, uni egallab olish payida bo‘ladi ma’nosi anglashiladi. Ushbu ibora o‘zbek xalq maqollaridan biri bilan sinonimik qator hosil qila oladi, ya’ni : “*Asralmagan ko‘zga cho‘p tushar*”.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Abdulla Qahhor asarlarida qo‘llanilgan frazeologik birliklar, ma’lum ma’noda, xalq hayoti bilan bevosita aloqador. Aytish lozimki, ushbu aloqadorlik asarlardagi iboralarning turli ko‘rinishlari orqali o‘z aksini topgan. Abdulla Qahhor goh iborani yakka holda, goh ketma-ket, yoki bo‘lmasa bir gapning o‘zida qarama-qarshi holatda qo‘llash orqali o‘zining yozuvchilik mahoratini yana bir bor namoyon aylagan. Asarlaridagi frazeologizmlarning bevosita lingvomadaniy jihatdan asar tarkibida aks etishi tilshunoslik va madaniy hayot foni umumlashmasi asosida yuzaga kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika. – T.: Noshir, 2019. - B. 168.
2. Vorobyev V.V. Lingvokulturologiya. – Moskva, 1997. - S. 88-89.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: Universitet, 2006. – B. 82.
4. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. –T.: O‘qituvchi, 1978. - B. 78-77

PARANTEZ BIRLIKLARNING SEMANTIK-STILISTIK, FUNKSIONAL GRAMMATIK XUSUSIYATLARI (Erkin A’zam qissalari asosida)

Babadjanov Mansurbek,
filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD),
Qoraqalpoq davlat universiteti
Fayzulloyev Farrux,
Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Erkin A’zam asarlarida parantez birliklarning semantik-stilistik qo‘llanilishi haqida gap boradi. Biz maqolamizni yozishda yozuvchi Erkin A’zamning “Pakananing oshiq ko‘ngli” va “Shoirning to‘yi” kabi qissalarini manbaa qilib oldik. Aytish joizki, Erkin A’zam asarlarida qo‘llanilgan parantez birliklar asarning mazmunini ochib berishda ma’lum darajada ahamiyat kasb etgan.

Kalit so‘zlar: Parantez biliklar, kirish so‘z, kirish birikma, kiritma, kiritma gap, funksional grammatika.

Barchamizga ma’lumki, bugungi kunda ilm-fan taraqqiyoti borgan sari ildamlamoqda. Fanlararo yangi sohalar paydo bo‘lib, ilm-fanning yanada rivoj topishiga sabab bo‘lmoqda. Aynan shu holat tilshunoslikka ham o‘z ta`sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Tilshunoslik sohasida ham yangidan-yangi fan yo‘nalishlari paydo bo‘lib, bu lingvistik faoliyatning yanada kengayishiga xizmat qilmoqda. Bu sohada ko‘plab ishlar amalga oshirilishiga qaramasdan uning ayrim jihatlariga ahamiyat berilmagan desak mubolag‘a qilmagan bo‘lar edik. Shunday jihatlardan biri – parantez birliklarni o‘rganish hisoblanadi. Biz siz bilan ushbu maqolamizda lingvistik jihatdan parantez birliklarni Erkin A’zam asarlaridagi o‘z aksini topishini ko‘rib chiqamiz.

Ingliz tilidagi “Parenthesis” so‘zi o‘zbek tilidagi gap bilan grammatik aloqaga kirishmaydigan kiritma elementlar (konstruksiyalar)ga to‘g‘ri keladi. O‘z navbatida bu kabi elementlarning uch xil shakldagi ko‘rinishi mavjud. Ya’ni bularga *so‘z, so‘z birikmasi (ibora),* yoki *gapga teng kiritma elementlar* misol bo‘ladi.[1]

Kirish so‘z va *iboralar* hamma nutq uslublarida qo‘llanib, so‘zlovchining o‘z fikriga nisbatan xilma-xil munosabatini va tabiat hodisalarini, ilmiy xulosalarni asoslash yoki manbayini ko‘rsatish kabi ma’nolarni bildiradi. Badiiy adabiyotda qahramonning biror tomonini-o‘ziga xos salbiy yo ijobiy xususiyatini yanada qabartirishda kirish so‘zlar yoki iboralar qulay vosita vazifasini bajaradi. Kirish so‘z va iboralar vazifasida ko‘proq *sifat, son, olmosh, fe’llar, modal so‘zlar* kelib, *tasdiq, inkor, tartib, izoh, qaratish, fikriy yo‘nalish, xulosalash, e’tiborni tortish, ikki fikrni bog‘lash, voqeani rivojlantirish* kabi uslubiy ma’nolarni anglatadi.[2]

Kiritmalar gapning, xususan, matnning umumiy mazmuniga aloqador bo‘lsada, gapdagi biror bo‘lak bilan hokim-tobelik aloqasiga kirmaydi. Shuning uchun ular gapdagi boshqa bo‘laklardan yozuvda *vergul, tire,* ba’zan *qavslar* bilan, talaffuzda esa *kichik to‘xtamlar* bilan ajratiladi.[3] Kiritmalar so‘zlovchining o‘zi bayon etayotgan fikriga munosabati *(ishonchi, gumoni, tasdig‘i, inkori, va b.)* fikrning birovga

nisbatlanishi *(mansubligi, aloqadorligi),* o‘z fikri tarkibiy qismlarning ahamiyatliligi darajasi *(birinchidan, ikkinchidan va b.),* fikriga va uning tarkibiy qismlariga doir bayon etadigan qo‘shimcha axboroti yoki izohi kabi rangbarang ma’nolarni ifodalaydi. Kiritmalar barcha bo‘laklar kabi sodda va murakkab bo‘ladi. Sodda kiritmalar so‘zlar va so‘z-gaplar bilan, murakkab kiritmalar esa so‘z birikmalari, kengaygan birikmalar va gaplar bilan ifodalanadi.[4]

Erkin A’zamning qalami shu qadar o‘tkirki, u parantez birliklardan unumli foydalana olgan. Parantez birliklani asar tarkibiga, voqealar rivojiga shu qadar moslab tanlanganki, ular orqali asar funksional grammatik ma’nosi yanada oydinlashadi. Xususan, adibning “Pakananing oshiq ko‘ngli” qissasida qo‘llanilgan parantez birliklar tahliliga yuzlansak.

“Hamma balo shundaki, u o‘zi haqida boshqacha fikrda edi. O‘zini barvastayu basavlat deb bilmasa-da, harqalay, xiylagina ulug‘vor hisoblardi. (Ko‘nglida, albatta.) Yurganda jussasiga yarasha pildirabgina yurmay, salmoq bilan, butini yirtgudek yirik-yirik qadam tashlar, gapirganda mavrid-bemavrid so‘lish olib, salmoq bilan, ta’sirchanlikka intilibmi yoki diqqatni tortish uchunmi, xuddi maxfiy bir sinoatni ochayotgandek pichirlab gapirardi.” [5]

“Pakananing oshiq ko‘ngli” asaridan olingan ushbu parchada bir nechta parantez birliklar qo‘llanilgan bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos ma’no-mazmunga ega. Ko‘rib turganimizdek asar boshlanishidanoq *“hamma balo shundaki”* kirish birikmasi (parantez birlik) bilan boshlangan. Ushbu birikma keltirilgan parchada kitobxonning qiziqishini yanada oshirish, uning diqqat-e’tiborini tortish maqsadida qo‘llanilgan. Parchada keying qo‘llanilgan parantez birlik – *(Ko‘nglida, albatta)* boshqa gap qismlaridan *qavs orqali ()* ajratilgan bo‘lib, yozuvchining fikrini tasdiqlash maqsadida ishlatilgan. Keying ishlatilgan paranteza esa, *(ta’sirchanlikka intilibmi yoki diqqatni tortish uchunmi)* kiritma gap shaklida qo‘llanilgan bo‘lib, yozuvchi fikrini izohlash vazifasini bajarib kelgan. Boshqa gap qismlaridan *vergul orqali* ajratilgan.

“Darhaqiqat, qiz dunkurroq, quchog‘ida mushukvachcha misol tipirchilab o‘yin ko‘rsaayotgan yigit esa ushoqqina edi. Ko‘rgan odam, talay vaqt ko‘rishmagan inoq-bosilqa opa-uka ekan, deb o‘ylashi tayin. (Aziza uncha uzun emas, lekin qiz bolaning o‘rta bo‘yi ham novcha ko‘rinadi.)” [5]

Yuqorida keltirilgan parchamizda qo‘llanilgan *“darhaqiqat”* so‘zi badiiy uslubda ko‘proq ishlatilib, fikrni tasdiqlash ma’nosida qo‘llaniladigan kirish so‘zdir. Parchamizda ham aynan youvchining bildirilayotgan hodisaga fikrini tasdiqlash ma’nosida keltirilgan. Boshqa gap bo‘laklaridan esa *vergul* orqali ajratilgan. Keyingi keltirilgan paranteza – *(Aziza uncha uzun emas, lekin qiz bolaning o‘rta bo‘yi ham novcha ko‘rinadi.)* kiritma gap sifatida qo‘llanilgan bo‘lib, gap yuritilayotgan voqeaga yozuvchining fikrini bildirish va hodisa ishtirokchisiga ta’rif berish vazifasini bajarib kelgan. Boshqa gap qismlaridan *qavs orqali ()* ajratilgan.

“Shaxsan o‘rtoq Stalinni davolagan (qiziq, nimasini davolgan ekan – qoqshol qo‘linimi, bujur betinimi, pakana bo‘yinimi yo….. bedavo miyasinimi?) tabibi kalonning amri (tarjima orqali, albatta) bilan bemor, ya’ni Pakana shu yerning o‘zida, yo‘lakda qip-yalong‘och bo‘lib yechinadi.” [5]

Yuqorida keltirilgan parchada bir gapning o‘zida ketma-ket ikki paranteza kiritma gap holida keltirilib, fikrni yanada oydinlashtirish va yozuvchining shaxsiy fikrini ifodalsh maqsadida qo‘llanilgan. Parchada keltirilgan *(qiziq, nimasini davolagan ekan – qoqshol qo‘linimi, bujur betinimi, pakana bo‘yinimi yo….. bedavo miyasinimi?)* kiritma gapi oddiy so‘zlashuv uslubiga xos bo‘lib, asarda yozuvchining shaxsiy fikrini ifodalash uchun qo‘llanilgan va boshqa gap birliklaridan *qavvs orqali ()* ajratilgan. *(tarjima orqali, albatta)* kiritma gapi esa, hodisani kitobxonga oydinlashtirish uchun qo‘llanilgan va u ham boshqa gap birliklaridan *qavvs orqali ()* ajratilgan.

Erkin A’zamning “Shoirning to‘yi” qissasida ham parantez birliklardan unumli foydalanilgan bo‘lib, asarning ma’noviy va uslubiy xususiyatlarini, funksional grammatik jihatlarini ochib berishda muhim o‘rin tutgan.

“Majlis qilib, galma-galdan chiqib so‘zlangach, haligi bo‘z bir yulqib ochiladi. Maydonni gulduros qarsak tutdi. Mato tagidan namoyon bo‘lgan manzara chindan ham olqish-u chapaklarga munosib edi. Baland taglikda qomatini kerib mag‘rur qotgan navqiron yigit o‘yiq chap ko‘kragidan sug‘urilgan (bir uchi hali tanada) allanimani alam va iztirob bilan mardonasiga boshi uzra olg‘a cho‘zib turibdi.” [6]

Yuqorida keltirilgan parchadagi *(bir uchi hali tanada)* kiritma gapi kitobxonga vaziyatga yanada ochiqlik kiritish, hodisani yaxshiroq tasavvur qilish uchun yordamlashish maqsadida qo‘llanilgan. Boshqa gap birlliklaridan esa *qavs orqali ()* ajratilgan.

“ – Xurmatli o‘rtoqlar, hozir bu ukamizning jo‘shqin so‘zlarini hayrat-u hayojon bilan tinglab o‘tirib, ko‘z oldimga marhum do‘stimning unutilmas siymosi gavdalandi”.

Ushbu parcha asar qahramoni tilidan keltirilgan bo‘lib, undagi *– Xurmatli o‘rtoqlar,* so‘z birikmasi gapda kirish so‘z va asar qahramonini atrofidagi shaxslarni o‘ziga jalb qilish vazifasini bajargan. Oddiy og‘zaki so‘zlashuv uslubida qo‘llanilgan. Boshqa gap bo‘laklaridan esa *vergul orqali* ajratilgan.

“O‘sha, Tepakal, sevimli kal! Bu yerda nima qilib yuribdi? Qayoqdan paydo bo‘ldi? Huuv yoqdan chiqib kelibdi-da. O‘shandan beri uchrashmagan edi. Yo buyam she’riyat muxlisimikan? Yo‘q, bu boshqa narsaning muxlisi! (Balki, bir zamonlar vatandoshlari kovlab ketgan go‘rning bugun nima bo‘lganini tomosha qilgani kelgandir?)” [6]

Ushbu parchada ham kiritma gap *(Balki, bir zamonlar vatandoshlari kovlab ketgan go‘rning bugun nima bo‘lganini tomosha qilgani kelgandir?)”* keltirilgan bo‘lib, u keltirilayotgan voqea-hodisaga yozuvchining shaxsiy fikrini ifodalagan. Oddiy og‘aki so‘zlashuv uslubida bo‘lib, boshqa gap birliklaridan *qavs orqali* ajratilgan.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Erkin A’zam asarlarida qo‘llanilgan parantez birliklar asarning funksional grammatik, semantik-stilistik va albatta, ma’noviy boyligini ochib berishda muhim o‘rin tutgan. Erkin A’zam parantez birliklarni goh yakka holda, goh ketma-ket, yoki bo‘lmasa bir gapning o‘zida qarama-qarshi holatda qo‘llash orqali o‘zining yozuvchilik mahoratini yana bir bor namoyon etgan. Asarlaridagi parantezlarning bevosita lingvomadaniy, stilistik, funksional jihatdan asar tarkibida aks etishi tilshunoslik va formal va stilistik tilshunoslik foni umumlashmasi asosida yuzaga kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika. Toshkent: Noshir, 2019.
2. Журнал “Интернаука” – Narziyev Navroʻz – “Paraantez birliklarning tarjimada tutgan oʻrni”. 2020.
3. “Oʻzbekistonda ilm-fan va ta’lim” jurnali - Sayyora Sodaliyeva Oqiljon qizi – “Ilmiy matnda soʻz-kiritmalarning ifodalanishi”. 2020
4. Jamoliddinova. “Badiiy nutqda parantez (kirish va kiritma) birliklarning grammatik va lingvopoetik xususiyatlari” – T., 2009.
5. Erkin A’zam – Shoirning toʻyi (qissa)
6. Erkin A’zam – Pakananing oshiq koʻngli (qissa)

HAYVONLAR BILAN BOG‘LIQ O‘XSHATISHLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI (“Alpomish” dostoni misolida)

Ashurov Dilmurod,
PhD, katta oʻqituvchisi,
Namangan davlat universiteti
oʻzbek tilshunosligi kafedrasi

Annotatsiya. Maqolada hayvonlar bilan bogʻliq oʻxshatishlar, ularning lingvomadaniy tahlili bayon qilingan. Bu borada “Alpomish” dostoniga alohida toʻxtalib oʻtadi.

Kalit soʻzlar: lingvokulturologiya, lingvomadaniyat, oʻxshatish.

Oʻxshatishlar milliy dunyoqarash, tabiat va jamiyatga munosabat, dunyoni anglashdagi milliy tafakkur, taqqoslash mahorati bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, xalq dostonlarining badiiyligini oshirishda katta ahamiyatga ega. G.Jumanazarova an’anaviy xalq dostonlari tilida eng koʻp qoʻllanadigan badiiy tasvir vositalaridan biri oʻxshatish ekanligini ta’kidlaydi. (1,7) “Alpomish” dostonida qoʻllanilgan lingvokulturologik birliklar qatorida oʻxshatishlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Dostonning lisoniy-uslubiy vositalarga, jumladan, oʻxshatishlarga boyligi baxshining kuzatuvchanligiga, soʻz qoʻllash mahoratiga, badiiy saviyasiga bogʻliq. Baxshining oʻxshatishlardan mohirona foydalanishi dostonning badiiyligini oshirib, ta’sir doirasini kengaytiradi.

Oʻxshatishlarda oʻxshatish etaloni sifatida ijtimoiy turmush bilan bogʻliq boʻlgan predmetlar, oʻsimlik, hayvon, qush, osmon jismlari nomlari sermahsul hisoblanadi. Bunday oʻxshatishlarning yuzaga kelishida asosiy madaniy kodlar alohida oʻrin tutadi. Bu esa ajdodlarimizning tabiat bilan hamohang turmush kechirganliklarini koʻrsatadi.

Dostonda hayvon nomlari bilan bogʻliq oʻxshatishlar ham sermahsul boʻlib quyida ana shunday oʻxshatishlarning lingvokulturologik xususiyatlari haqida soʻz yuritamiz.

Ilmiy adabiyotlarda hayvon va oʻsimliklar bilan bogʻliq madaniy kod biomorf kod termini bilan yuritiladi. (2,6)

Oʻxshatishlarni qoʻllashda oʻzbeklar etalon sifatida turli hayvon va jonivorlarni bildiruvchi soʻzlardan koʻproq foydalanishadi. Oʻxshatish uchun etalon sifatida tanlangan soʻzlar ham oʻzbek tilining lingvokulturologik xususiyatlarini koʻrsatuvchi til birligidir. (3,95) Insoniyat tarixi, madaniyatida jonli tabiat asosiy oʻrin tutgan. Shuning uchun ham

o‘xshatishlarga hayvon va jonzot tomlari etalon sifatida tanlangan. Masalan, *sherday, ayiqday, lochinday, burgutday* kabi. Odamlarning tasavvurida sher hayvonlar shohi, ayiq beso‘naqay, baquvvat, lochin ko‘zi o‘tkir, tutganini qo‘yib yubormaydigan, burgut esa mag‘rur qush sifatida gavdalanadi. “Bu o‘xshatishlar xalq hayoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganligi uchun umummilliy ahamiyat kasb etadi”. (1,17)

Dostonning juda ko‘p o‘rinlarida qahramonning jismoniy, ruhiy holatini tasvirlash uchun jonzotlar nomlaridan foydalanilgan. Bu xalqimiz hayotida ularning o‘rni va ahamiyati katta ekanligidan dalolat beradi. O‘xshatishlar tarkibidagi bo‘taloq, nor, qo‘zi, qo‘chqor kabi hayvon nomlarining qo‘llanilishi xalqning chorvachilik bilan, suqsur, bo‘ri, tulki, shunqor, qarchig‘ay, burgut, lochin, sher, ayiq kabi nomlarning qo‘llanishi esa ovchilik bilan shug‘ullanganini ko‘rsatadi.

It insoniyat hayotida muhim hisoblanadi. Shuning uchun insonlar bilan yonma-yon hayot kechirab keladi. Bu hayvon bilan bog‘liq bir nechta o‘xshatishalar mavjud bo‘lib “Alpomish” dostonidan misol keltirishimiz mumkin:

Majlisli kun bo‘lsa, to‘rdan joy tegmay, piyoladan choy tegmay, bo‘sag‘aning oldida kovushga joy bermay, kovush bilan aralashib, it yiqilish bo‘lib, poyga betda yotar edi. (6,46) Bu o‘rinda Yartiboyning ijtimoiy mavqei haqida tavsif ketar ekan, *“joy tegmay”, “choy tegmay”, “kovushga joy bermay”, “kovush bilan aralashib”, “it yiqilish bo‘lib”* birikmalari bir paradigma holatida *“pastlik”, “beizzatlik”* ma’nosini bildiradi. Bizningcha, it yiqilish deganda ostonadan o‘tishda itning poygakda dasturxonga tikilib yotishi va odatda odamlardan tepki yeyishi yoki ikki itning olishuvi natijasida tuproqqa belanishi nazarda tutilgan.

Baxt-davlat boshingga kelib qo‘nadi, // Dushmanlar barisi itdek o‘ladi. (4,184)

Parchada itdek o‘lmoq *“ayanchli”, “juda yomon”* ma’nosini bildiradi.

Iydam otyay maqtanib // Poyga chopay, yoy-yoy, // Yomon odam so‘z biyan // Itday qopay, yoy-yoy. (4,122)

Itdek qopmoq – yomon odamning fe’l-atvorini ham ifodalaydi.

Boybichalarga shunda to‘lg‘oq vaqti yaqin yetdi; ne kampirlar kelib, boybichani aylanib, tulkini inlatgan toziday bo‘lib, boybichalarni angnib, o‘rtaga olib turibdi. (6,42)

Ushbu parchada o‘xshatish ov jarayonini esga soladi. Doya kampirlarning xatti-harakati ovning isini olgan tozilarning o‘lja inidan hushyor, ko‘z uzmay turishiga o‘xshatilmoqda. Xuddi shu kabi holat Berdimurod baxshi variantida quyidagicha tasvirlanadi: *Sichqonni poylagan pishakday bo‘lib, ishtonlarini lipa urib, yenglarini chugib, chaqqon bo‘lib turibdi*. (Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li varianti. 131-bet)

Ko‘ppak itday jalpanglab qaydan keldi, yoy-yoy. (5,463)

Ko‘ppak itday jalpanglamoq – *“chaqirilmaganlik”, “kutilmaganlik”, “yoqimsiz”* semalariga ega.

Dostonning Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li og‘zidan yozib olingan variantida chinqirmoq harakatiga nisbatan *ayiq* o‘xshatish etaloni qo‘llanadi:

Ayiqday chinqirib kampir quladi, // To‘qqiz ko‘ppak o‘rtaga op taladi. (6,71)

Har qaysisi bir darada bir-biriga yonashmay, ayiqday chinqirib yuribdi. (6,89)

Ma’lumki, *chinqirmoq* so‘zini odatda bolaning qattiq yig‘lashiga nisbatan qo‘llaymiz. Ayiqqa nisbatan odatda *bo‘kirmoq* fe’li qo‘llanadi. *Bo‘kirmoq* esa novvosga nisbatan qo‘llanadi. Bu fe’l semantikasida o‘txo‘r hayvonga xoslik, kuch-qudrat va

g‘azab semalari mavjud. Demak, xalq og‘zaki ijodi manbalaridan etimologik tadqiqotlar uchun muhim faktlar yig‘ish mumkin: *Bizning siri-holimiz bir-birimizga ma’lum, ilgaridan ham to‘qayda ayiqday olishib yotgan odam edik.* (6,200) Bu o‘xshatish ham boshqa hayvonlarga nisbatan ayiq va insonning harakati mutanosib ekanligini bildiradi. Chunki ayiqlar olishganda sher, it, qoplon kabi tish emas, asosan, panjaning, qo‘lning kuchiga tayanadi. Ularning gavda tuzilishi va harakati polvonlarning kurashishiga o‘xshatilishi asosli va mos.

Doston variantlarida qo‘llanilgan ayrim o‘xshatishlarning individualligi ularning matn bilan bog‘liq ravishda ayricha ma’no ifodalashi bilan belgilanadi. Boshqacha aytganda, an’anaviy o‘xshatishlarda qo‘llanilgan vositalar baxshining uslubi, doston voqealari tizimiga bog‘liq ravishda o‘ziga xos bo‘lmagan etalon vazifasini bajarishi mumkin. *Sherday* o‘xshatishi odatda ijobiy fe’l-atvor, harakatga nisbatan qo‘llanadi. Biroq dostonning turli variantlarida ular salbiy bo‘yoqqa ham ega bo‘ladi: *O‘tirib edi suhbat qurib, // Qalmoq bordi sherday bo‘lib.* (6,94)

Baxshi sherning yurishidagi salobat, ulug‘vorlik, bepisandlik kabi belgilarni qalmoqlarga nisbatan ishlatadi va kinoyani ifodalaydi: *Bul yurishing yomon, qanday bo‘lasan, // Har qaysing sherday chopinib borasan, // Qaytgin endi, borib nima qilasan?!* (6,257) Parchadan *“bepisandlik bilan qarama”* mazmuni anglashilib turadi.

Xuddi shu o‘rinda qalmoqlarga nisbatan *“lochin”* o‘xshatishi ham qo‘llanadiki, bunda matndan kelib chiqib baho berish maqsadga muvofiq: *Lochinday aynalma bunda, ahmoqlar, // Bora bergin o‘z yo‘lingga badbaxtlar.* (6,95)

Odatda, lochin o‘zbek madaniyatida “*abjirlik”, “baxt”* timsoli hisoblanadi. Yuqoridagi parchada esa bu qushning maqomi *“qirg‘iy”, “kalxat”* kabi o‘laksaxo‘r qushlarga tenglashtirilmoqda: *Olg‘ir qushdayin charqillab, // Qo‘lda nayzasi so‘lqillab.* (6,120)

Dostonning boshqa variantlarida uchramasa-da, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantida novvos bilan bog‘liq o‘xshatish qo‘llanilgan: *Novvosday bo‘p seni surarim bordir.* (6,85)

Bu parchada novvos *“kuchlilik”, “baquvvatlik”* etaloni bo‘lib kelgan.

Doston matnida bir o‘rinda Barchin Alpomishni ta’riflab shunday deydi: *Oti Alpomish yorim bordir, // Chakasda shunqorim bordir, // Elda zo‘raborim bordir, // Qatordagi norim bordir. // Chilla kirganda mast bo‘lgan, // Xatapga boshini urgan, // Ne zo‘rlarning dodin bergan, // Qo‘ng‘irotda qaysarim bordir.* (6,86)

Bunda Alpomishga nisbatan shunqor, nor, qaysar o‘xshatishlari qo‘llanmoqda. Mazkur holatda ham insonning abjirligi, baquvvatligi, yengilmasligi turli etalonlar bilan ifodalanmoqda.

Xullas, o‘xshatishlar muayyan xalqning idrok tarzi va o‘ziga xos milliy xususiyatlarini aks ettiruvchi lingvokulturologik vosita sifatida katta ahamiyatga ega. “Alpomish”da qo‘llanilgan o‘xshatishlarning asosiy qismi tabiat bilan bog‘lanadi. Dostonlarda o‘xshatish etaloni sifatida barchaga ma’lum bo‘lgan hayvon nomlaridan ko‘plab uchratish mumkinligi ajdodlarimizning ular bilan hamohang turmush kechirganliklarini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жуманазарова Г. Халқ достонларидаги ўхшатишларнинг лингвопоэтик имкониятлари. – Тошкент: Фан, 2011. – Б. 7.

2. Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг қисқча изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. – Б. 6.

3. Худойберганова Д. Матннинг антопоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 95.

4. Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 100 жилдлик. 10-жилд. Алпомиш. (Бекмурод Жўрабой ўғлидан ёзиб олинган). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. – Б. 503.

5. Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 100 жилдлик. 10-жилд. Алпомиш. (Эгамберди бахши Олломурод ўғли варианти). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. – Б. 503.

6. Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 100 жилдлик. 1-жилд. Алпомиш. (Фозил Йўлдош ўғли варианти). Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – Б. 509.

BO‘YIN ISHTIROKIDAGI PARALINGVIZM VA FRAZEOLOGIZMLAR

Barotova Muhiba,
Buxoro davlat universiteti
o‘zbek filologiyasi kafedrasi I bosqich doktoranti
Muhiba.barotova.92@mail.ru
Jo‘rayeva Bibish,
filologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Maqolada somatik paralingvizmlarning bir turi – bo‘yin ishtirokidagi noverbal birliklar haqida so‘z boradi. Bo‘yin bilan hosil bo‘ladigan frazeologizmlarning o‘ziga xos xususiyatlari matnlar orqali farqlab beriladi.

Kalit so‘zlar: paralingvistika, paralingvizm, frazeologizm, bo‘yin harakati, semantik xususiyat.

Kirish. Paralingvistika – tilshunoslikning til va nutq dixotomiyasi asosida jonli muloqot tadqiq qilinadigan sohasi. Unda kishilar o‘rtasidagi muloqotda ishlatiladigan barcha tilga yondosh vositalar: xatti-harakatlar, mimikalar, ovozga xos xususiyatlar o‘rganiladi. Xususan, tana a’zolarining so‘zlashuv jarayonidagi ishtiroki, anglatadigan ma’nolari, muloqot vaziyati, so‘zlovchilarning shaxsiy xislatlarini ochib berishdagi o‘rni kabilar ham paralingvistikaning o‘rganish obyektlaridan sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

O‘zbek tilshunosligida tana a’zolari ishtirokidagi paralingvizmlar bo‘yicha bir qator izlanishlar olib borilgan. Chunonchi, M. Saidxonov qo‘l harakatlari muloqotning eng faol komponenti ekanligini, ikkinchi o‘rinda bosh harakatlari turishini ta’kidlaydi.[3,51] M.A. Kurbanov esa o‘zining nomzodlik dissertatsiyasida insonning turli ko‘rinishdagi ekspressiv va emotsional hislarini ifoda etishda bosh va undagi uzvlar (qosh, ko‘z, lab va b.)ning harakatlari birinchi o‘ringa chiqishini bildirgan. [2] B.R.Axmedov dissertatsiyasida paralingvistik vositalar genderologik va pragmatik nuqtayi nazardan o‘rganilib, qo‘l va ko‘z harakatlari bilan bog‘liq paralingvizmlarning soni boshqa somatik paralingvizmlardan ko‘pligi va qo‘llanilish doirasi kengligi bayon qilingan.[1]

Ammo bo‘yinning bu boradagi ishtiroki hozirga qadar tahlilga tortilmagan.

Shuni aytish joizki, bo‘yin ham muloqot jarayonida boshqa a’zolar bilan birgalikda ishlatiladi, faqat ichki hissiyot va yashirin maqsadni anglatishda ko‘z, bosh yoki qo‘l singari keng ifoda imkoniyatiga ega emas.

Bo‘yin – gavdaning bosh bilan tanani biriktiruvchi qismi; tepadan bosh, pastdan ko‘krak qafasi bilan chegaralangan. Bo‘yinning orqa qismi ensa, oldingi yuzasi haqiqiy bo‘yindir. [8]

Tahlil va natijalar. Tana a’zolari ishtirokidagi paralingvistik vositalar hosil bo‘lishida bo‘yin nisbatan kamunum hisoblanadi. Bo‘yin yordamida *bo‘yin egmoq, bo‘yin solmoq, bo‘yin qismoq, bo‘yniga osilmoq, bo‘yin burmoq, bo‘yin tovlamoq, bo‘yin to‘lg‘amoq, bo‘ynini cho‘zmoq* kabi birliklar aniqlandi. Ammo ularning aksariyati frazeologik birlik sifatida namoyon bo‘lib, harakatni bajarish vazifasini yo‘qotgan. Xususan, *bo‘yin burmoq* va uning variantlari hisoblangan *bo‘yin tovlamoq, bo‘yin to‘lg‘amoq* birliklari, odatda, biror ishni bajarishdan bosh tortmoq ma’nosida qo‘llanadi: “Bu podshohimizning oliy farmoni, undan *bo‘yin tovlaydiganlarga* u shafqat qilib o‘tirmaydi”. [7, 432]

Bo‘yin egmoq (solmoq), bo‘yin qismoq, bo‘yniga osilmoq, bo‘ynini cho‘zmoq birliklari esa nutq vaziyati va maqsadiga ko‘ra sof paralingvistik vosita vazifasida ham, ko‘chma ma’noda ham ishlatiladi.

1. *Bo‘yin egmoq (solmoq).*

<u>*Ta’zim qilmoq*</u>.Kumush uyalib, zo‘rg‘agina salom berdi va Yusufbek hojining yaqiniga kelib, *bo‘yin egdi*. [5,128]

<u>*Uyalmoq.*</u> Bahrom ma’yus *bo‘yin solib* turdi, Baxtiyor bilan Davlat labini artib, bir-biriga qarashdi: — Ayt! — Sen ayt.

— Nima deb aytaman? — Yeganimiz yo‘q, deb ayt... [4, 87]

Agarda *bo‘yin egmoq* ifodasining frazeologik birlik sifatidagi ko‘rinishiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, u, asosan, *aybiga iqror bo‘lmoq, tan olmoq* semalarini namoyon qilishiga guvoh bo‘lish mumkin:

Shunda ham o‘zidan past deb yurgan kishisiga bo‘yin eggisi kelmadi. [10]

2. *Bo‘yin qismoq.*

<u>*Majbur bo‘lmoq.*</u> [Otam] Bir kun erimning uzoq sayilga ketganini eshitib, uyimga yetim boladek bo‘ynini qisib kirib keldi. [10]

3. *Bo‘yniga osilmoq.*

Tasalli topmoq. Ichkari kirdim. Tarlon *bo‘yniga osilib-osilib* yig‘ladim. To‘yib-to‘yib yig‘ladim... [9]

Mazkur birlik frazeologizm sifatida “birovga xiralik qilib yopishib olmoq” semasini namoyon qilib keladi:

Buncha mening bo‘ynimga osilib olding? [8]

4. *Bo‘yin burmoq (bo‘yin tovlamoq, bo‘yin to‘lg‘amoq).*

<u>*Qayrilmoq.*</u> Bobur bo‘ynini burib qaradi. Biroq u Doniyordek tirjaymadi, “Keldingmi, xumpar?” degandek boshini qimirlatib qo‘ydi. [11]

Matndan bo‘yin burmoq ifodasi o‘zining haqiqiy ma’noda qayrilib qaramoq harakatini namoyon etishi anglashiladi. Ushbu birlik, odatda, frazeologizm sifatida xalq orasida keng tarqalganligi bilan xarakterlanadi:

- Siz, ustod, bir nima desangiz, biz bo‘yin burgan emasmiz, — dedi Me’morning chehrasi ochilib.

Bizlar bamaslahat nima desak, u bo‘yin to‘lg‘amas. [10]

Har ikkala parchada ham *bo‘yin burmoq* va uning *bo‘yin to‘lg‘amoq* varianti qarshilik bildirmoq ma’nosini ochib berish uchun xizmat qilmoqda.

5. *Bo‘ynini cho‘zmoq.*

Nazar solmoq. Manzura: «Kerakmas, ichmayman», deganday bosh chayqadi. Shu paytgacha qosh-ko‘zlariga zeb berayotgan yosh juvon *bo‘yin cho‘zib* patnisga qaradi-da:

- Pivo kimniki, finlarnikimi? — deb so‘radi. [6, 19]

Xalq orasida bo‘ynini cho‘zmoq frazeologizmi ham faol qo‘llanadi, uning “*kekirdagini cho‘zmoq”* varianti ayniqsa uslubiy bo‘yoqdor va ta’sirchan ibora sifatida keng tarqalgan. Bu orqali *maqtanmoq, gapiga kuch bermoq* ma’nolarini anglash mumkin:

Yangi yer ochish to‘g‘risida muttasil kekirdak cho‘zadigan o‘rtoqlar haqiqatdan ko‘z yummoqdalar. [10]

Xulosa va takliflar.

Tahlil qilingan matnlardan ko‘rinib turibdiki, bo‘yin ishtirokida hosil bo‘ladigan birliklar nutq jarayonida nofaol bo‘lib, muayyan maqsadlardagina qo‘llanadi. Shuningdek, bo‘yin ishtirokidagi deyarli har bir paralingvizmi omonimlik xususiyatini ham namoyon qilgan holda, nutqda ko‘chma ma’noni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, “bo‘yin egmoq”, “bo‘yin qismoq”, paralingvizmlari ko‘chma ma’noda “bo‘ysunmoq” semasini aks ettirsa, “bo‘yin burmoq”, “bo‘yin tovlamoq” orqali esa, aksincha, “norozilik bildirmoq” semasi ifodalanadi. Bunday vaziyatda aynan bir vositaning paralingvizm yoxud frazeologizm ekanligini aniqlashda bajariladigan harakat va anglashiladigan ma’no mutanosibligi mezoniga tayanmoq kerak. Ya’ni frazeologizmlar uchun harakatni muloqot jarayonida bajarishga emas, balki yashirin ma’noni verbal ifoda orqali anglatishga asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахмедов Б.Р. Паралингвистик воситаларнинг гендерологик ва прагматик тадқиқи: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Андижон, 2021. –Б. 155.

2. Курбанов М.А. Ўзбек, усмонли турк, инглиз ва рус тилларида новербал мулокотни ифодаловчи воситалар тадқиқи: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Андижон, 2021. –Б. 192.

3. Саидхонов М. Алоқа-аралашув ва имо-ишоралар. –Т.: Фан, 2008. –Б. 51.

4. Қодирий А. Меҳробдан чаён (роман). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. –Б. 149.

5. Қодирий А. Ўткан кунлар (роман). www.ziyouz.com kutubxonasi, 2008.

6. Тоҳир Малик. Шайтанат (3-китоб). – Т.: 2007. –Б. 220.

7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати (Б). – Т.: Ўз МЭ. www.ziyouz.com kutubxonasi. –Б. 129.

FEMINISTLIK ÓZINE TÁNLIKTI AŃLATÍWSHÍ LINGVISTIKALÍQ QURALLAR

Rzamuratova Zlixa,
ÓzR IA Qaraqalpaqstan bólimi
Qaraqalpaq gumanitar ilimler
ilim izertlew institutı tayanısh doktorantı

Annotatsiya. Bul maqalada gender lingvistikasınıń ózine tán ózgeshelikleri, feministik ózine tánlikti ańlatıwshı lingvistikalıq qurallar haqqında maǵlıwmatlar berilgen.

Gilt sózlar: Gender, gender lingvistika, feminizm, maskulinlik, antropotsentrizm, etnolingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika.

Ilim hám bilim tarawlarınıń arasında lingvistika óz aldına ajıralıp turadı. Lingvistika – til haqqındaǵı ilim bolıp, házirgi kúni bul tek ǵana til máseleleri menen shuǵıllanıp qoymastan, hár túrli baǵdarda rawajlanıw jolına túsken ilim-pánniń belgili tarawlarınan biri.

Biz tilden tek ǵana pikirlerimizdi ańlatıw, sóylesip, baylanıs ornatıw ushın ǵana emes, sáwbet payıtında biz ne aytajaq ekenligimizdi hám usı aytılıp atırǵan pikirge biziń kózqarasımız qanday ekenligin ańlatıw ushın da paydalanamız. Sóz etilip atırǵan pikirge hátteki, sóylewshiniń ózi qanday kózqarasta ekenligi gáptiń dúziliwi yáki intonaciyası arqalı belgili bolıp turadı.

Til bilimi birneshe mıń jıllardan berli tildiń túrli ishki ózgesheliklerin, olardıń kategoriyaların úyreniw menen sheklenip qalǵan bolsa, házirgi kúnge kelip, tildiń jámiyet, mádeniyat, qarım-qatnas penen baylanıslı túrli ózgesheliklerin antrpocentristlik paradigmada úyreniw keń en jaydı. Yaǵnıy, sociolingvistika, psixolingvistika, etnolingvistika, lingvokulturologiya sıyaqlı ilim tarawları júzege kelip úyrenile basladı. Olardıń arasında genderologiya, gender lingvistika tarawı da til bilimindegi jańa baǵdarlardan bolıp esaplanadı. Genderologiya – bilologiyalıq jınıslardı sociallıq ortalıqta úyrenetuǵın taraw, al gender hám tildiń hár túrli ózgesheliklerin úyrenetuǵın ilim tarawı – gender lingistika. [1]

Gender lingvistika tarawına tereńnen itibar qaratsaq, bul pán keshe yáki búgin payda bolıp qalmaǵan, ol xalqımızdıń salt-dástúr, úrp-ádetlerinde ázelden saqlanıp kelgen desek hesh adaspaymız. Sebebi, qaraqalpaq hayal-qızlarınıń qayın jurtındaǵı wákilleriniń atın tuwrıdan-tuwrı atamay, túrlishe at qoyıp qollanıwı da bir tárepten genderlik ózgeshelik. Yaǵnıy, olar ataytuǵın *ayqız, ha qız, erke qız, mırza aǵa, aq bala* sıyaqlı sózlerdi tek ǵana hayal-qızlardıń leksikonında ushıratamız. Mısalı, Shıraǵım, *Mırzaǵa* aman saw júrmiseń? (“Alpamıs” dástanı, 77-bet)

Biykeshińe jeńgejan,
Ruxsattı berińler (“Qırıq qız” dástanı,172-bet)

Keltirilgen mısallarda hayal adamnıń (jengeniń) eriniń inisine, qarındasına múráját etiwi sáwlelengen. Qaraqalpaq xalıq dástanlarınan alınǵan bul mısallardan belgili bolıp turǵanınday, xalqımız bul dástúrdi ázelden qollanıp keledi.

Sonday-aq, tilimizdegi hárbir sózdi “bul er adamlarǵa (maskulinlik) al, bul hayallarǵa (feministlik) tiyisli sózler yáki gápler, tek solar qollana aladı”- dep ajıratıp qaray almaymız. Tek ǵana, qaysıdur bir jınıs wákilleri qollanıwına meyillirek bolǵan hám ekinshi variantınan abzalıraq kóriwshi sózler bar bolıp esaplanadı. Sonlıqtan da, qaraqalpaq tilindegi sózler tek ǵana hayallar yáki tek ǵana er adamlar qollanıwshı sózler dep ajıratılmaǵan.

Ótken ásirdiń 60-jıllarınan baslap shet el til biliminde *feministlik lingvistika* baǵıtı keń túrde en jayıp úyrenile basladı. Feminizm – latınsha “hayal” degen sózden kelip shıqqan.[3] Usı kúnge shekem bul baǵdarda shet el til biliminde túrlishe izertlewler alıp barılǵan bolıp, olardıń biri R.Lakofftıń “Til hám hayallardıń ornı” atamasındaǵı miyneti bolıp, onıń izertlewinen soń birqatar ilimpazlar túrlishe izertlewler alıp bara baslaǵan. Atap aytqanda, er+er, hayal+hayal,er+hayallar sáwbetlesiwindegi túrli ózgesheliklerdi de arnawlı túrde úyrenip shıqqan. [2;24]

Ilimpazlardıń anıqlawına qaraǵanda, miydiń shep yarım sharı oń yarım sharǵa qaraǵanda túrli buyrıqlardı, maǵlıwmatlardı tez usınıwǵa iykemlesken bolıp, er adamlar usı shep yarım shardıń xızmetinen paydalanadı. Al, hayallar bolsa, oń yarım shardan qollana alıw imkániyatına da iye eken. Bul degeni eger shep yarım shar zaqımlanǵan jaǵdayda kóbinese er adamlar sóyley almay qalıw itimalı basım bolıp, al hayallar bunday jaǵdayda da sóyley alıw, háreketleniw imkanıyatına iye boladı. Sonlıqtan da, qız balalar jaqsı oqıw, tildi tez úyreniw jaǵınan er balalarǵa salıstırǵanda shaqqanıraq boladı.

Hayallar hám erkeklerdiń kommunikativ qatnasıqlarındaǵı sózlerdiń túrlishe ekenligi bizge málim. Bul tarawdaǵı dáslepki gúzetiwler *naqıl-maqallarda* óz kórinisin tapqan.

Jasaǵanda qatınnıń
Aqılı kelte, shashı uzın.
(“Qırq qız”dástanı, 153-bet)

Qatar jatqan qarıwlı,
Aq deneli arıw bar,
Ay deseńiz awzı bar,
Kún deseńiz kózi bar.
(“Qırq qız”dástanı, 124-bet)

Sonday-aq, hayallar sáwbet payıtında qollanatuǵın sózler er adamlardikine qaraǵanda ashshı hám sayızıraq, júdá álpayım hám evfemizmlerge bay boladı.

Qaraqalpaq tilinde hayallar sóylesiminde *janapay, almasıq, kiris aǵza, sóz gápler, tolıq emes gápler, úndew gápler* jiyi qollanıladı. Sonday-aq, “awa”, “yaq”, “múmkin” sózleri, naqıl-maqal, ushırma sózler kóp qollanıladı.

Kommunikativ baylanıs ornatıwda hayallardıń sorawlıq, úndewlik mánini ańlatıwshı gáplerine mısal keltirsek: Baybóriniń hayalınıń sózleri: *-Óyppey!* Ǵarrım *kim ne* xorlıq kórdi eken? *Kimnen* zorlıq kórdi eken? Jalǵız qızdı jılatıp *qayda* kóship júrdi eken? (“Alpamıs”dástanı, 6-bet)

-Qırshınıńnan qıyılǵır-aw, shıbıǵıńnan shırpılǵır-aw, eki birdey urǵashı, suwǵa *nege* barmaysız, otınǵa *nege* barmaysız?-deydi. (“Alpamıs” dástanı,15-b)

Záńgilesti Qarajan:
-Qırshınıńnan qıyılǵır,

Júwernemek, jer tartqır
Tilimdi *nege* almadıń? (41-bet)

Sonday-aq, olar kontekstтiń ele de anıq túsniklirek bolıwı ushın yáki óziniń emociyaların anıq ańlatıw ushın *kiris aǵza, qaratpa aǵzalardan* kóp paydalanadı.

-Háy, háy qırılǵır!
Júwernemek shayalar! (“Alpamıs” dástanı,52-bet)

Xalıq dástanlarınan alınǵan bul mısallarda qollanılǵan kiris, qaratpa aǵzalar, sorawlıq hám úndewlik mánini ańlatıwshı sózlerdiń barlıǵı hayal-qızlardıń qanshelli dárejede emociyanallıǵın hám sezimtallıǵın dálilleydi.

Sonday-aq, ilimpaz P.Fishman jubaylar (erli zayıplılar) ortasındaǵı sáwbetlesiwlerdiń eksperimental jazıwların úyrenip shıqqan, M.Xartman bolsa kekselerdiń sáwbetlesiwindegi ózgesheliklerdi izertlegen. Basqa tillerde bul másele sonshelli tereńnen izertlenilgen hátteki, jası, dárejesi, jasaw jaǵdayı, jumısı sıyaqlı ózgesheliklerine qarap ta feministlik hám maskulinlik salıstırmalı izertlewler alıp barılǵan.

Qazaq til biliminde bul máseleni izertlegen izertlewshilerdiń biri B.Hasan ulı “Genderlik faktordıń kórinisi tildiń barlıq tarawlarında izertleniwi shárt” [3;287] degen pikirdi bildirgen. Shınında da, til tarawlarınıń hárbiriniń genderlik ózgeshelikleri ayrıqsha úyreniliwdi talap etetuǵın másele.

Ulıwmalastırıp aytqanda, búgingi kúni qaraqalpaq ádebiy tilindegi genderlik ózgesheliklerdi tereńnen úyreniw, folklorlıq shıǵarmalardaǵı, házirgi ádebiy procestegi, awızeki yáki basqa da túrli baǵdardaǵı genderlik ózgesheliklerdi izertlew házirgi kúnniń aktual máselelerinen bolıp qalmaqta.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1.Шокым Г. Гендерлик лингвистика негиздери. «Экономика баспасы», Алматы, 2012.

2.Шокым Г. Тил билиминдеги гендер мәселелери Известия НАН РК №6. 2006.

3.Курбонова М. Гендеролингвистик тадқиқ янги парадигма сифатида. Ozbek til va adabiyoti, №2 son.

4. www.https:/articlekz.com

IKKI VA UNDAN ORTIQ A’ZO NOMLARI ASOSIDAGI PARALINGVIZMLAR TAHLILI

Barotova Muhiba,
Buxoro davlat universiteti
o‘zbek filologiyasi kafedrasi I bosqich doktoranti
Muhiba.barotova.92@mail.ru
Tel: 99 622 74 96

Annotatsiya. Mazkur maqolada paralingvistik vositalarning tarkibiy qismi sanalgan tana a’zolari – somatizmlar haqida fikr bildirilgan. Xususan, bir necha a’zolar ishtirokidagi paralingvizmlarning o‘rganilganlik darajasi va tasniflari haqida ma’lumot berilgan. O‘zbekona asarlar va matnlar ichidan saralangan ikki va undan ortiq a’zolar ishtirokidagi noverbal vositalarning semantik xususiyatlari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: paralingvistika, somatizmlar, jonli muloqot, nutqiy vaziyat, ikki a’zoli paralingvizmlar, uch a’zoli paralingvizmlar, ko‘p a’zoli paralingvizmlar, semantik ma’no.

Kirish. Paralingvistika zamonaviy tilshunoslikning tobora rivojlanayotgan sohasi sifatida olimlarning diqqat markazida turibdi. Mazkur sohaning tarkibiy qismlari qatorida tana a’zolariga xos harakatlar va ularning semantik xususiyatlari o‘rganilishi fanda sir emas. Faqat qaysi a’zoning keng doirada qo‘llanilishi, ma’noviy xossalari yuqoriligi masalasi turli munozaralarga sabab bo‘lmoqda.

-Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review)

Tana qismlari nomlari somatizmlar atamasi bilan yuritiladi hamda olimlar somatizmlarning tasnifiga oid bir qator nazariyalarni bildirishgan. Xususan**,** rus tilshunosi N.M. Shanskiy somatizmlarni quyidagicha tasniflagan:

1) erkak va ayol tanasining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq umumiy belgilari yoki ular qismlari va ismlari;
2) inson tanasi hayotiyligi va ular funksiyalarini ta’minlaydigan ichki a’zo belgilari;
3) inson tanasi va uning a’zolari moddasining belgilanishi. [2]

Rus tilshunosi I.Y.Gorodetskaya fransuz va rus tillaridagi frazeologik somatizmlarni o‘rgangan holda, bunday birliklarning 10 ta leksik-semantik guruhini aniqlagan: xarakter, jismoniy holat, his-tuyg‘u holati, vaziyatga munosabat, shaxsning sifat xususiyatlari, shaxsning aqliy faoliyati, portreti, xatti-harakati, ijtimoiy mavqeyi, obyektdan uzoqlik darajasi. [3]

Ahamiyatlisi, olima har ikkala tilda eng faol qo‘llanadigan somatik frazeologizmlar beshta a’zo: bosh, ko‘z, yurak, qo‘l, oyoq harakatlariga asoslanishini bildirgan. Ayniqsa, bosh ishtirokidagi birliklar boshqa a’zolarga nisbatan keng qo‘llanishini ham asoslab bergan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research metodology). Keltirilgan ilmiy qarashlar asosli bo‘lsa-da, ikki yoki undan ortiq tana a’zolarining birgalikdagi harakatidan hosil bo‘ladigan paralingvizmlarni tadqiq qilish masalasi fanda yetarlicha yoritilmagan. Shuni ta’kidlash joizki, muloqot jarayonida faqat bir a’zo ishtirokidagi paralingvizmlardan foydalanish nutqiy muloqot xususiyatlari va imkoniyatlarini to‘la ochib berolmaydi. Og‘zaki muloqotda yana shunday paralingvizmlar qo‘llanadiki, bir vaqtning o‘zida ikki va undan ortiq a’zoning birgalikdagi harakati muayyan ichki ma’noni anglatishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Olib borilgan izlanishlar natijasida bir necha a’zolar ishtirokidagi paralingvizmlar quyidagicha shartli guruhlarga ajratildi:

1. Ikki a’zoli paralingvizmlar.
2. Uch a’zoli paralingvizmlar.
3. To‘rt va undan ortiq a’zoli paralingvizmlar.

Aralash a’zoli paralingvizmlar nutqiy vaziyat hamda suhbatdoshlarning ichki maqsadini aniqroq ifodalashga, muloqot mazmunini kengroq anglatishga xizmat qiladi. Bunda a’zolarning omuxta harakati tasodifiy bo‘lmay, kommunikativ vaziyat, adresat-

adresantning o‘zaro munosabati, milliy o‘ziga xoslik va gender jihatlari inobatga olingan holda ikki yoki undan ortiq a’zo harakati ta’minlanadi.

Aralash a’zolar ishtirokida hosil bo‘ladigan paralingvistik vositalarning semantik xususiyatlari kontekst jarayonida voqelanadi. Quyida matnlarni tahlil qilish orqali bir necha a’zoli paralingvizmlarning semantik ma’nolari ochib berilgan.

Ikki a’zoli paralingvizmlar:

- *qo‘l-tizza:*

Dod solmoq. Voydod, musulmonlar! Bu qanday ko‘rgilik! — U *ikkala qo‘lini tizzasiga urib qichqirdi.* — Kimsan Abdukarimbek boyning yakka-yu yagona, erka qizi Xolposhshani nabirasi bozorga tushib hammollik qilib yurgan emish! [1, 77]

Quloq solmoq. Chordana qurib katta **qo‘llarini tizzasiga tiragan ko‘yi** daricha orqali tashqariga quloq solib turgan Namoz: “Juda sayroqi bo‘lib ketibdi-ku, bu Omon baqaloq”, deb qo‘ydi. [8, 10]

- *tirsak- tizza:*

Nozlanmoq. Sharif tush ko‘ryaptimi yo kino tamosha qilyaptimi, bilmay garang bo‘ldi. Uning gangib qolganini sezgan do‘ndiq *tirsagini tizzasiga qo‘yib* yana nozlandi. [6, 198]

- *qo‘l- qorin:*

Minnatdorchilik bildirmoq. Jamshid Haydar akasining tilini tarjimasiz ham yaxshi tushungani uchun «iltifotingiz uchun rahmat», deganday o‘ng qo‘lini qorni ustiga qo‘yib joyida qotib turaverdi. [7, 204]

- *qo‘l-yuz:*

Qancha yalinib-yolvormasin, Dilnoza bilan Mohira aybdorga aylandi. Ularni suratga olishdi. *Mohira yuzini to‘sib olishga ulgurdiyu*, Dilnoza ulgurmadi. Tushuntirish xati yozib, ikki dugona supermarketdan yuzi shuvut bo‘lib chiqib ketishdi. [9]

- *qo‘l-peshona:*

Qayg‘urmoq. — Ey podshohi olam, sultoni bokaram, bu bola avvalgi vaziringizning o‘g‘li Tohir bo‘ladi. Sizning ham qizingiz o‘lmaganda, shunday bo‘lib qolar edi, — debdi vazir. Podshoh *qattiq qayg‘uribdi va peshonasiga urib yig‘labdi.* [10]

qo‘l-og‘iz:

Uzoqdan turib gapirmoq. Otlar betoqat, bir joyda tek turolmay depsinib qo‘yishadi. Terakdek novcha otliq *qo‘lini og‘ziga karnay qilib* bir nima deyapti… [8, 321]

- *lab-til:*

Xolidiy O‘lmasning yelkasiga qo‘lini tashlab, Anvarga yaqinlashdi.

— Ie, mulla Anvarjon, bormisiz, sog‘-salomatmisiz? — u shunday deb *labini tili bilan yalaganday bo‘ldi-da*, Anvarga qo‘lini uzatdi. Anvar uning basharasiga qaramay qo‘l uzatdi. Chunki Xolidiy jilmayganida uning basharasiga qaragan odam baraka topmas edi. [6, 148]

- *lab-bosh:*

Uyalmoq. — Oyi-i, non! — dedim yalinib.

Oyim yarq etib qaradi-yu, *labini tishlab bosh chayqadi*. Bildimki, onam uyalyapti. Endi Habiba buviga tarmashdim. Bilaman, dunyoda Habiba buvidan saxiy odam yo‘q. [4,32]

- *peshona-kaft:*

Hamdard bo‘lmoq. Shorasul akaning ichida bir og‘riq uyg‘onib, tishsiz milklari bilan tilini tishlab beixtiyor ingradi.Asadbek u tomon yaqinroq surilib, *peshonasiga kaftini qo‘ydi*. Shorasul aka ko‘zlarini bir ochdi-yu, ammo nimadandir qo‘rqqanday yana yumib oldi. Mijjalaridan yosh sizib chiqdi. [7, 123]

- *soch-barmoq:*

O‘ziga bino qo‘ymoq. Xolidiy birovning himoyasiga muhtoj odam emas edi. Sochini barmoqlari bilan tarab qo‘yib, o‘tkir askiya eshitgan odamday miriqib kuldi-da, Anvarning yelkasiga shapatilab qo‘ydi:

— G’ayrat zo‘r bo‘lgan-da, g’ayrat! — dedi-da, O‘lmasni qo‘ltig’idan olib, yo‘lida davom etdi. [6, 148]

Shuningdek, tahlillar davomida bir qator ikki a’zoli paralingvizmlar ham aniqlandi:

- *ko‘rsatkich barmoq- iyak;*
- *ko‘rsatkich barmoq-lab;*
- *ko‘rsatkich barmoq-bosh;*
- *ko‘rsatkich barmoq-peshona;*
- *ko‘rsatkich barmoq-chakka.*

4. Uch a’zoli paralingvizmlar:

- *Ikki musht-tizza-bosh:*

Norozilik bildirmoq. Halidan buyon mudragandek o‘y surib o‘tirgan Arslonqul *ikki mushtini tizzasiga tirab, boshini baland ko‘tardi:* “ E, qo‘ysangiz-chi, Namozboy! Men ularni bilaman, o‘lardek yuraksiz odamlar. [8, 301]

- *oyoqlar- tizza-bosh:*

O‘y surmoq. Demak, qatl yaqin! Yo‘g‘-e, qarindoshlar bilan vidolashuvga ruxsat berdi-ku! – *oyoqlarini quchoqlagan ko‘yi tizzasiga boshini qo‘ygancha o‘y surib ketdi* yana Namoz, - ehtimol, vidolashuv yana bir-ikki kun davom etar, ehtimol, bugunoq tugatishar. [8, 257]

- *bosh-yelka-lab:*

Sultonali **boshini ikki yelkasiga irg‘atib**, labini tishlab oldi.

– Mirzoboshimizning misi chiqib qoldi-ku.

– Xo‘sh, xo‘sh?

Sultonali tunqotarning qulog‘i ostig‘a enggashti va yarim tovush ichida dedi:

– Mirzo Anvardan onhazratka nomussizona bir xiyonat sodir bo‘ldi. [5, 127]

5. To‘rt va undan ortiq a’zoli paralingvizmlar:

- *tirsak-tizza-qad-jag‘-kaft*

O‘ylab qolmoq. Ha, qo‘rqma. — U shunday deb haykalcha ro‘parasidagi qabrtosh ustiga o‘tirdi-da, oyog’ini chalishtirib oldi. *Tirsagini tizzasi ustiga qo‘yib, qaddini sal bukib, jag’ini kaftiga suyadi.* O‘yga tolgan mutafakkir misol ancha o‘tirdi. [6, 96]

Keltirilgan matnlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, bir necha a’zo ishtirokida hosil bo‘ladigan paralingvistik vositalar orasida ikki a’zoli paralingvizmlar salmog‘i va qo‘llanish doirasi kengroq. O‘zaro birgalikdagi harakatni amalga oshirishda qo‘llanadigan a’zolarning kichik o‘zgarishlari ham ma’noni butunlay o‘zgartirish xususiyatiga ega. Masalan, peshonaga kaftni urish orqali, asosan, pushaymon bo‘lish

ma’nosi ifodalansa, peshonaga ko‘rsatkich barmoqni qo‘yib harakatlantirish orqali o‘ylab qolish, bosh qotirish semalari namoyon bo‘ladi.

Uch a’zoli paralingvizmlarda esa anglashiladigan ma’noni kuchaytirish, bo‘rttirish va nutqning ta’sirchanligini oshirish xususiyati ko‘zga tashlanadi.

To‘rt va undan ortiq a’zoli paralingvizmlar sanoqli bo‘lib, murakkab vaziyat, so‘z bilan ifodalash mushkul bo‘lgan ichki holatni aks ettirishga xizmat qiladi. Bu kabi ko‘p a’zolar ishtirokidagi paralingvizmlarning vujudga kelishi jamiyat taraqqiyoti va texnologik rivojlanish jarayoni bilan bevosita bog‘liq.

-Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Xulosa shuki, aralash a’zolar ishtirokida hosil bo‘ladigan paralingvizmlar va ularga xos xususiyatlar tilshunoslikda tor doirada o‘rganilgan bo‘lib, bunday paralingvizmlarni chuqur tadqiq qilish nafaqat paralingvistika sohasining, balki sotsiolingvistika sohasining ham muhim yutuqlaridan bo‘lishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Musajon F. Bo‘sh kelma, Aliqulov. – T.: Sharq, 2005. –B. 352.

2. Gadoyeva M.I. Somatik leksikaning xususiyatlari. //Scientific progress. Volume 2, issue 6. 2021, – P. 1749-1754.

3. Городецкая и.е. Фразеологизмы-соматизмы в русском и французском языках. Автореф. дис. ... канд. филол. Наук:10.02.20 - сравнительно-историческое, сопоставительное и типологическое языкознание. Пятигорск-2007. –Б. 23.

4. Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. – T.: Sharq, 1996. –B. 210.

5. Қодирий А. Меҳробдан чаён (роман). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. –Б. 149.

6. Тоҳир Малик. Шайтанат (1-китоб). – Т.: 2007. –Б. 210.

7. Tohir Malik. Shaytanat (4-kitob). – T.: 2007. –B. 283.

8. To‘xtaboyev X. Qasoskorning oltin boshi. – T.: Yangi asr avlodi, 2010. –B. 400.

9. https://ok.ru

10. https://tafakkur.net

TIL BIRLIKLARINING LINGVOPOETIK TAHLILIGA DOIR

To‘ychiyev Abdurashid,
Davlat tilida ish yuritish asoslarini
o‘qitish va malaka oshirish markazi
Toshkent viloyati hududiy bo‘linmasi rahbari

Annotatsiya. Ushbu maqolada til birliklarining poetik matndagi, xususan, klassik she’r matnidagi ahamiyati haqida atroflicha fikr yuritilgan. Muallif Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror”, “Saddi Iskandariy” dostonlaridan manumalar keltiradi va ularni lingvopoetik aspektda tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: klassik asar, poeziya, til birligi, poetika, lingvopoetika, konstraktiv.

Til birliklari va hodisalarining inson tafakkuri in’ikosi sifatidagi reallashuvi nutq jarayonida amalga oshadi. Aloqa-aralashuvning eng muhim va asosiy vositasi sanaluvchi

so‘z nutqda qo‘llanar ekan, u til birliklarining nafaqat ijtimoiy, kommunikativ vazifalarini, balki ayni jarayonda insonning emotsional-ekspressiv munosabatlarini ham yuzaga chiqaradi. So‘z qudrati, uning betakror jozibasi, ayniqsa, uning “yuksak takomili ifodasi” badiiy adabiyotda haqiqiy o‘rnini topadi. Boshqacha aytganda, “poeziyaning bosh omili va qahramoni” sanalgan (Vinokur, Gofman) so‘z ta’sir kuchini aynan shu ifodada ko‘rsatadi.

Obrazli so‘zning qanchalik kuchga egaligi masalasiga e’tibor qaratar ekanmiz, quyidagi oddiy izohni keltirishni lozim topdik (“Daholik shu’lalari” filmi (rej. Mark Abraxam) bosh qahramoni Robert Kyorns nutqidan – Dikkens va Tekkerilar asarlarini keltirgan holda): “Yozuvchi asar yozar ekan, u yangi so‘zlar o‘ylab topmaydi, kashf qilmaydi, balki hammamizga ma’lum bo‘lgan tanish so‘zlarni qayta tuzib chiqadi. Biroq bu uning tamomila yangi, hech kimga ma’lum bo‘lmagan asar yaratishiga to‘sqinlik qilarmikan?” Aynan shu izoh ushbu qahramonga asossiz da’vo qilganlardan ustun kelishiga sabab bo‘ladi. Ana shu emasmikan so‘zning qudrati? Shu ma’noda tushunsak, adabiyotning bosh omili – inson qalbida estetik tuyg‘ular kurtaklashi yoki ularni uyg‘otish vazifasini bajarishi aynan shuning o‘zi, albatta.

Shu ma’noda til birliklarining imkoniyatlari ifodasi bo‘lmish so‘zning qudratini yuzaga chiqarish aynan ijodkorning mahoratini ko‘rsatib beradi, degan fikrni ilgari surgan bo‘lar edik.

U yoki bu ijodkorning so‘zdan foydalanish mahorati uning nutqini, aniqrog‘i, uslubini belgilaydi (“idiostil – individual uslub” nazariyasiga ko‘ra ilgari surilgan “самовитое слово – o‘ziga xos o‘zgacha so‘z” g‘oyasi – V.Grigoryev), shunga ko‘ra keng ma’noda so‘z o‘ziga xos semantik tizimning asosiy komponentidir, ya’ni “Har qanday leksik birlik – semema nutqqa xoslangan” bo‘ladi (R.Sayfullayeva, B.Mengliyev).

Buyuk so‘z san’atkori Alisher Navoiy haqida juda ko‘p aytilgan va aytib kelinmoqda. O‘z ta’biridan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, “ummon qa’ridan dur-u gavhar teruvchi” adiblar orasida unga tenglasha oladiganlar deyarli yo‘q. Biroq Alisher Navoiy adabiyot, poetika, shuningdek, til masalalariga to‘xtalar ekan, hech bir masalada, birinchidan, nopisand, nokamtar munosabat bildirmagan, ikkinchidan, u o‘zigacha bo‘lgan turkigo‘y shoirlar (Sakkokiy, Amiriy, Gadoiy, Lutfiy va boshqalar) nomlarini hurmat bilan tilga oladi. Shu o‘rinda ijodkorning til masalasida bildirilgan bir fikrini keltirishni o‘rinli bildik: *“Kamina til (turkiy) borasida bemisl zahmat va mashaqqat chekmakka bel bog‘lagan… Mavlono Lutfiydan tamomroq kishi ko‘rmadim”*. Boshqacha aytganda, forsiy shoirlar qarshisiga chiqadigan, ular bilan dadil bellasha oladigan Lutfiydan o‘zga shoir paydo bo‘lmaganidan afsuslanadi. Aynan o‘sha davrda badiiy adabiyotda fors-tojik tili yetakchilik qilayotgani, o‘zbek tilining imkoniyatlari yashirin qolayotganligini kuyinib ta’kidlaydi.

Alisher Navoiy bu haqda shunday yozadi: *“Bu alfoz va iboratda bu navda qoyiq ko‘pdurkim, bu kunga degincha hech kishi haqiqatig‘a mulohaza qilmag‘on jihatdin bu yashurin qolibdur… va filhaqiqat, agar kishi yaxshi mulohaza va taammul qilsa, chun bu lafzda vus’at (kenglik) va maydonida buncha fusxat (ochiqlik) topilur…”* Shoir turk (o‘zbek) tilini xazina, chamanzor hisoblaydi. Bu shunday xazina va chamanzorki, atrofi el oyog‘i yetishidan asralgan va qimmatbaho narsalarga boshqalarning qo‘li tegishidan

saqlagan. Ammo “maxzanning yiloni xunxor (qonxo‘r) va gulshanning tikoni behad va shumor (son-sanoqsiz)”. Shoirlar ilonlarning nayzasidan qo‘rqib, bu xazinadan bahra ololmay o‘tganlar. Go‘yo nazm to‘dasining guldasta bog‘lovchilari tikanlar sanchilishi zararidan hadiksirab, bu chamanzordan gulni qo‘lga kirita olmaganlar (A.Nurmonov).

O‘sha davrdagi tarixiy shart-sharoit shunday ediki, fors-tojik adabiyoti o‘zbek adabiyotiga nisbatan ancha qadimiy va boy tajribaga ega bo‘lganligi, poetik qoidalarga doir manbalar ham asosan fors-tojik tilida ekanligi sababli ushbu tilda ijod qilish osonroq edi. Shuning uchun ham ko‘pgina turkiy (o‘zbek) shoirlar o‘z ona tillarida emas, balki fors-tojik tilida ijod qilar edi (N.Mallayev). Bu o‘zbeklarning ma’lum guruhi fors-tojik tilidagi adabiyotlardan bahramand bo‘lganlari holda, aksarining badiiy adabiyotdan bebahra qolayotgani ham haqiqat edi. Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror”da shunday yozadi:

Forsi eli topdi chun xursandliq,
Turki dog‘i topsa barumandliq.

Alisher Navoiy o‘zbek shoirlarini o‘z ona tilida ijod qilishga, hech bo‘lmaganda har ikki tilda qalam tebratishga chaqiradi. U o‘zbek adabiy tilining rivoji uchun kurashni davrning eng muhim ishi deb biladi:

Senga oncha haq lutfi voqe’durur,
Ki to turk alfozi shoye’durur.
Bu til birla to nazm erur xalq ishi,
Yaqin qilmamish xalq senidek kishi.

(“Saddi Iskandariy”)

Alisher Navoiy o‘sha davrda fors-tojik tilida mavjud bo‘lgan barcha adabiy tur va janrlarda turkiy tilda ham ijod qilishi mumkin ekanligini isbotlash uchun ularning barchasida qalam tebratdi va go‘zal asarlar yaratdi. Shuningdek, davlat hujjatlari va yozishmalarni fors-tojik tilidan qolishmaydigan darajada o‘zbek tilida yozish mumkinligini quyidagicha bayon qiladi: *“...bu muqobalada forsiy alfozining dilnazir insholari mavjud va dilpisand makotib damlolari ma’bud. To xayolga andoq keldikim, turk alfozining dog‘i ruq’alari hamul misol bila aytilg‘ay va bu til nomlarini ham us’hul minval bila sabt etishgay”* (“Munshaot”).

Navoiyning turkiy tilda ijod qilganligi hamda boshqa zamondoshlarini ham bunga chaqirganligini buyuk allomaning fors tilida katta ijod yo‘liga chiqa olmaganligi bilan emas, balki o‘zbek tilining obro‘-e’tiborini ko‘tarishni o‘zining yuksak millatparvarligi va fuqarolik pozitsiyasi bilan bog‘lash o‘rinli bo‘ladi. Holbuki, Alisher Navoiy yoshlik yillarida fors tilida ijod qila boshlagan va ajoyib muvaffaqiyatlarga erishayotgan, o‘z ijodi bilan ko‘plab forsiygo‘y shoirlarni lol qoldirayotgan edi. Alisher Navoiy bu haqda shunday yozadi: *“Bu sozlardin hasm mundoq bo‘lmasun va muddai bu nav’ gumon qilmasinki, mening ta’bim turk alfoziga muloyim tushgan uchun ta’rifida mubolag‘a izhor qiladurmen va forsiy iboratqa munosabatim ozroq uchun inkor va nafyig‘a isror ko‘rguzurmenki, forsiy alfoz istifosin va ul iborat istiqsosin ishi mendin ko‘proq qilmaydilar, erkin va saloh (yaxshi) va fasodin (yomon) mendin yaxshiroq bilmaydur…”*

Ushbu fikrlarning ixcham xulosasi sifatida shuni ham ta’kidlash zarurki, Navoiy turkiy til mustaqilligi uchun kurashga otlanar ekan, ushbu masalani davlat ahamiyati darajasiga ko‘targan, ya’ni uning bu boradagi sa’y-harakatlari sulton Husayn Boyqaro

tomonidan *“ixitiyor va rag‘bat topgan”*. Ayrim manbalarda ko‘rsatilishicha, Husayn Boyqaro tomonidan o‘z davrida turkiy til rasmiy hujjat tili deb belgilangan farmoyish ham chiqarilgan (A.Nurmonov, E.Qilichev) va bunda, shubhasiz, Hazrat Navoiyning xizmatlari katta.

Albatta, yuqorida keltirilgan ma’lumotlar ko‘pchilik uchun ma’lum, biroq bitta haqiqat borki, bunga ko‘z yumib bo‘lmaydi. Ya’ni, Navoiyning ilmiy-ijodiy merosiga qayta-qayta murojaat qilar ekanmiz, uning yangi-yangi qirralarini kashf qilaveramiz. Xususan, allomaning lingvistika sohasidagi qator ishlari zamonaviy tilshunoslik (xususan, G‘arb) da kashfiyot sifatida ko‘rsatilgan ilmiy xulosalardan ancha oldin amalga oshirilgani hozirda ko‘pchilikka ma’lum. Xususan, kontrastiv (chog‘ishtirma) tilshunoslik sohasida bu yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Umumiy fikrlardan aniq faktik materiallarga yuzlanadigan bo‘lsak, shunday holatni kuzatish mumkin: Navoiy turkiy til leksikasi sohasida qator ishlarni amalga oshirdi. Chuqur bilimga ega olim o‘laroq turk tilining lug‘at boyligini ko‘rsatish va tahlil qilishga erishdi. Buning uchun xalq tilidan forsiy muqobili bo‘lmagan qator so‘zlarni topdi. Ana shunday so‘zlarga turk tilidan yuzta fe’lni keltirdi: *quvormoq, quruqshamoq, usharmoq, jiyjaymoq, o‘ngdaymoq, chekrimak, dumsaymoq, umunmoq, usanmoq, igirmoq, egarmoq, uxranmak, torikmoq, aldamoq, arg‘adamoq, ishanmak, iglanmak, aylanmoq, erikmak, irganmak, ovunmoq, qistamoq, qiynamoq, qo‘zg‘almoq, sovrilmoq, chayqalmoq, ishanmak* va shu kabi.

Keltirilgan ushbu fe’llar Alisher Navoiy o‘zbek tilining imkoniyatlarini ko‘rsatmoq uchun xalq tilini qanchalar sinchikovlik bilan o‘rganganligini isbotlovchi dalillardir. Yuqoridagi fe’llarning ba’zilari integral (birlashtiruvchi) sema bilan bir paradigmani hosil qilsa ham, paradigma a’zolarining har qaysisi muayyan differensial (farqlovchi) semaga ham ega ekanligini ko‘rsatadi. Masalan, *ingramoq, singramoq, o‘kurmak, inchkirmoq, yig‘lamoq* so‘zlari “yig‘lamoq” birlashtiruvchi semasi bilan bir paradigmaga mansub bo‘lsa ham, lekin ularning har qaysisi yig‘lashning xilma-xil ko‘rinishlarini ifodalaydi, bir-biridan yig‘lash darajasi bilan farqlanadi. Shoir fikrini dalilash uchun bu so‘zlar ishtirok etgan badiiy asarlardan parchalar keltiradi. Masalan:

Zohid ishqni desaki, qilg‘ay fosh,
Yig‘lamasinir-u ko‘ziga kelmas yosh.

Yig‘lamsinmoqqa “dard bilan yashirin ohista yig‘lash” belgisi bilan farq qiluvchi *infamoq* va *ingramoqni* zid qo‘yadi:

Istasam davr ahlidin ishqingni pinhon aylamak,
Kechalar goh ingramakdir odatim, goh singramak.

Siqtamoq fe’lini yig‘lamoqqa zid qo‘yar ekan, “yig‘lash” darajasining *yig‘lamoqqa* nisbatan kuchliroq ekanligini ta’kidlaydi:

Ul oyki kula-kula yig‘latti meni,
Yig‘latti meni demayki, siqtatti meni.

O‘kurmak “kuchli ovoz bilan haddan ortiq hayajonli” yig‘i ekanligi bilan boshqalaridan farq qilishini ko‘rsatadi:

Ishim tog‘ uzra har yon ashk alobini surmakdur
Firoq oshubidin har dam bulut yanglig‘ o‘kurmakdur.

Navoiy ushbu paradigmatik qatorni davom ettirib, holat fe’llarining semantik jihatdan kuchliroq va tabiiyki, farqlanib turuvchi ko‘rinishlarini beradi.

Shu o‘rinda quyidagi mulohazani bildirishni o‘rinli deb bilamiz. O‘zbek tilshunosligining keyingi yillardagi taraqqiyoti natijasida leksemalarning semantik tasnifida uyadosh so‘zlar farqlandi hamda integral-differensial belgilar asosida birlashgan leksik-semantik guruhlar hamda ularning turlari – giponim, graduonim, partonimlar ko‘rsatib berildi (H.Ne’matov, R.Rasulov, R.Safarova, B.Qilichev va boshq.). Ushbu hodisalar ilmiy jihatdan asoslanib, o‘rta hamda oliy ta’lim dastur va darsliklaridan o‘rin ham oldi. Biroq yuqorida ko‘rib o‘tganimiz Navoiy tomonidan tasniflangan darajalanuvchi fe’llar aynan bir leksik-semantik guruhni tashkil etib, graduonimik qatorni tashkil etmayaptimi? Shu ma’nodagi ma’lumotni ayrim qo‘llanmalarda ham uchratishimiz mumkin (E.Qilichev).

Til birliklarining badiiy asar nutqida qo‘llanilishi o‘ziga xos lingvopoetik hodisa bo‘lgan poetik sintaksis doirasida tekshiriladi. O‘zining xilma-xil usullari yig‘indisi – poetik (stilistik) figuralariga ega bo‘lgan poetik sintaksis turli aspektlar nuqtayi nazaridan differensial yo‘nalishlarni yuzaga keltiradi. Bular quyidagilardan iborat, desak, xato qilmagan bo‘lamiz:

1. Poetik sintaksis davr nuqtayi nazaridan farqlanadi: mumtoz poetik sintaksis va zamonaviy poetik sintaksis.

2. Badiiy adabiyot shakllari doirasida: yozma adabiyot poetik sintaksisi va folklor poetik sintaksisi.

Bulardan tashqari har bir ijodkorning o‘z uslubi, til birliklaridan foydalanish, ya’ni so‘z qo‘llashdagi mahorati yuqoridagi farqlarni asoslab, to‘ldirib keladi. Tabiiyki, turli mezon, shakl, davr va shaxs omillariga ko‘ra farqlanuvchi poetik sintaksisning ifoda vositalari – sintaktik-stilistik figuralari (atamani ushbu holatda qo‘llashimizning sababi, birinchidan, bular tildagi lingvistik-ekstralingvistik hodisalar (A.Hojiyev) dixotomiyasiga mos keladi, ikkinchidan, keyingi davrlar jahon filologiyasida poetik figuralarni xuddi shu tarzda farqlab guruhlash nazariyasi yuzaga keldi (L.Krupchanov) (*ta’kid bizniki – A.T.*) ham xilma-xil daraja va ko‘lamni tashkil etadi.

Ayni mulohazani buyuk so‘z san’atkori Navoiy asarlari tili va uslubiga nisbatan ham qo‘llash mumkin, albatta. Uning boy ijodiy merosida til birliklari turli miqdor va ko‘lamni tashkil etgani holda, o‘z zamondoshlari va tabiiyki, zamonaviy tilimiz asosida asar yaratgan adiblar ijod namunalaridan keskin farq qiladi. Bunda ayrim poetik figuralarning qo‘llanish darajasi katta farq qilmasligini ham ta’kidlab o‘tish zarur. Masalan, inversiya usuli mumtoz yoki zamonaviy she’riyat uchun bir xilda qo‘llaniladiki, buni davr nuqtayi nazaridan farqlanuvchi badiiy asarlar yagona asosga egaligi, ya’ni har ikkalasi ham bitta tilda yaratilgani bilan izohlash mumkin. Xuddi shunday fikrlarni yana bir muhim va keng qo‘llanuvchi stilistik figura – enjambeman (anjambeman) (fr. *enjambement* – aslida “sakrash”, “hatlab o‘tish” – fikriy ko‘chuv) hodisasiga nisbatan ham bildirish mumkin.

Stilistik figuralardan biri, aksariyat hollarda yonma-yon baholanuvchi asindeton (bo‘g‘lovchisizlik, “uyushtirish”) va polisindeton (ko‘pbog‘lovchilik) hodisalarining Navoiy asarlarida qo‘llanishiga e’tibor qilganimizda, ikki xil holatga duch keldik va bu, yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, normal holat, albatta.

Birinchidan, ekstralingvistik tabiatga ega ushbu stilistik figuralar zamonaviy badiiy asarlarda alohida ifoda vositasi sifatida keng ko‘lamli qo‘llanish xususiyatiga ega bo‘lgani holda mumtoz asarlar tilida boshqa badiiy san’at turlarichalik qo‘llanish darajasiga ega emas. Ikkinchidan, Alisher Navoiy asarlarida ushbu stilistik usul zamonaviy she’riy asarlardagi kabi miqyos va ko‘lamni tashkil etmaydi. Biroq, muhimi, qo‘llanilgan har qanday usul, ya’ni sintaktik-stilistik figura adibning ifoda imkoniyatlarini oshirish, o‘z poetik maqsadini aniqroq, yorqinroq tasvirlashini ta’minlaydi. Bog‘lovchisizlik yoki ko‘pbog‘lovchilikni ham nasriy (ayniqsa, saj’larda), ham she’riy nutqda uchratishimiz mumkin.

...qurt-u qush andin bahramand, dasht vuhushi aning birla xursand, mo‘rlar uyi andin obod, go‘rlar xotiri aning birla shod. Kabutarlarg‘a andin mastlik, to‘rg‘aylarg‘a andin noshod hamdastlik... ...alarg‘a ming mabohat, mingta tegarni yuzga olmog‘din yo‘q bir zarra uyot.

(“Mahbub ul-qulub”)

Soching rangi anbarmudur, mushki chinmu?!
Labing ta’mi shakarmudur, angabinmu?!

Agar asindeton qo‘llash bilan ijodkor she’riy nutqqa o‘zgacha bir shiddat, jadallik, shu asosda ko‘tarinkilik bag‘ishlasa, polisindeton qo‘llanishida o‘zgacha bir obraz lilik va joziba ifodalanadi, bunda bog‘lovchilarni u yoki bu turdagi til hodisalari bilan bog‘liq holda qo‘llash kuchli ta’kid, diqqatni bir obyektga tortish, turli til birliklarini aynan bog‘lovchi vositasida qayta-qayta qo‘llashdan inson xotirasiga muayyan mantiqiy mazmunni singdirish nazarda tutiladi.

Agarchi Ganjada oromi oning
Vale ganj uzra doim gomi oning. (“Farhod va Shirin”)
Gar jafo qil, gar vafokim, dilsitonim sen mening,
Gar meni o‘ltur, agar tirguzki, jonim sen mening.

Keltirilgan misralar aynan yuqorida ko‘rib o‘tganimiz asindeton va polisindeton poetik (stilistik) figuralarining ta’rifiga mos kelgani holda til birliklarini mahorat bilan qo‘llash qanchalik betakror misralar, baytlar yoinki asarlar yaratish mumkinligidan dalolat berib turibdi.

Yuqorida aytilgan fikrlar xulosasi sifatida ushbularni qo‘shimcha qilsak, maqsadga muvofiq bo‘lar. Birinchidan, har qanday san’at asaridan hamma o‘ziga keragini ajratib oladi, biz inson hilqatining mavjudligi va istiqbolini aynan “Padarkush”ning qoliplovchi obrazi Ziyoli tilidan aytganda, ta’limda, ilmda, fanda, adabiyotda va tabiiyki, tilde deb bildik. Ikkinchidan, aynan shu fikrni olg‘a surishimiz. badiiy asarni o‘qish bilan inson oddiy hayot tarzida odatiy turmush ikir-chikirlaridan qanchalik yuqori turishini, o‘rni bilan o‘z fikrini qanchalar aniq va dadil ifodalay olishi mumkinligi jahon adabiyoti yaratgan ijodkorlar asarlari mutolaasidayoq o‘z isbotini topgan haqiqatdir. Uchinchidan, bizning tilimiz va adabiyotimiz tarixini o‘rganishda Navoiydek buyuk so‘z san’atkorlaridan tilning ifoda imkoniyatlaridan foydalanish mahoratini yanada izchil o‘rganish va o‘z navbatida, buni o‘quvchi yoshlarga yetkaza bilishimiz o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Винокур Г.О. О языке художественной литературы. – Москва, 1991; Якобсон Р.О. Поэзия грамматики и грамматика поэзии // Семиотика. – Москва, 1983; Якобсон Р.О. Лингвистика и поэтика // Структурализм: за и против. – Москва, 1975; Ефимов А.И. Стилистика художественной речи. – Москва, 1961.
2. Григорьев В.П. Грамматика идиостиля. – Москва: Наука, 1983.
3. A.Nurmonov. O‘zbek tilshunosligi tarixi. – Toshkent, 2001.
4. R.R.Sayfullayeva, B.R.Mengliyev. Hozirigi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010.
5. H.Ne’matov, R.Rasulov. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent, 1987; R.Safarova. O‘zbek tilida giponimiya. NDA – Toshkent, 1995; B.Qilichev. O‘zbek tilida partonimiya.NDA – T.,1997.
6. E.Qilichev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (konspektiv kurs). – Buxoro, 2005.
7. A.Hojiyev. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. – Toshkent, 1985 (qayta nashri – 2001); I.Yo‘ldoshev, va boshq; Tilshunoslik asoslari. – Toshkent, TDPU, 2013.
8. Литературный энциклопедический словарь. – Москва, 1987.
9. F.Salayev. G.Qurboniyozov. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so‘zligi. – Toshkent, 2010.
10. Введение в литературоведение / под ред. Л.М.Крупчанова. – Москва, 2005.
11. T.Boboyev, Z.Boboyeva. Badiiy san’atlar. – Toshkent, 2001.
12. Б.Саримсоқов. Алишер Навоий поэтик синтаксисидаги бир усул ҳақида // “ЎТА”, 2001. №2; Шукуров Р. Синтактик параллелизмнинг услубий вазифалари // “ЎТА”, 2004. №4; А.Туйчиев. Поэтик синтаксисни ўрганиш муаммолари // “ЎТА”, 2006. 5-son; А.Туйчиев. Поэтик синтаксиснинг асосий бирликлари // “ЎТА” , 2007. 2-son.
13. Алишер Навоий. Қаро кўзим, Шеърий тўплам. – Тошкент, 1988; Танланган асарлар. 10 томлик. – Тошкент, 2012.

DOSTONLAR MATNIDAGI SODDA VA MURAKKAB METAFORALARNING LISONIY TABIATI

Xamdamova Xanifaxon,
Jizzax politexnika instituti katta o‘qituvchisi,
xanifaxamdamova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalq og‘zaki ijodi hisoblangan dostonlar matnidagi sodda va murakkab metaforalarning lisoniy tabiati, “Rustamxon” dostonini kuylash jarayonida baxshi-shoirning so‘z tanlash mahorati haqidagi ilmiy qarashlar o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, doston, metafora, sodda va murakkab metaforalar, kengaygan metaforalar, baxshi.

Barchamizga ma’lumki, xalq og‘zaki ijodi namunalari hisoblangan dostonlar matnini o‘rganish orqali baxshining doston ijrosi jarayonida so‘z tanlash mahoratini, epik qahramonlarning muayyan holati va xatti-harakat bajargan o‘rinlarini, ayrim

qahramonlarning obrazli qiyofasini, ichki va ruhiy holatini, doston tinglovchilari ko‘z o‘ngida jonlantirish va diqqat-e’tiborini sujet tafsilotlariga jalb etishda turli ko‘chimlardan foydalanganini kuzatishimiz mumkin. O‘zbek tilshunosligi tarixidagi amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarga nazar tashlansa, ko‘chma ma’no sinekdoxa, vazifadoshlikning lisoniy tabiati, shuningdek, metaforaning nutqqa obrazlilik va muayyan hissiyot berishliliga daxldor poetik xususiyatlari, uning nozik muomala va ifoda vositasi sifatidagi yuksak estetik lingvistik kategoriya sifatida metafora hodisasining doimo tadqiqotchilar nazarida turganligini kuzatamiz.

Tilshunosligimizda amalga oshirilgan ishlarda metafora so‘zlarning ko‘chma ma’noda qo‘llanilishi tufayli yuzaga kelishi, ularning sof lingvistik tabiati hamda badiiy turlari mavjudligi e’tirof etilgan. Masalan, matnning mazmuniy tarkibidagi metaforalarning ilmiy-nazariy asoslari D.Xudoyberganova tomonidan aniqlangan. Xususan, matn semantikasida mavjud bo‘lgan kognitiv metaforalarni til sathiga ko‘ra to‘rt guruhga bo‘lib o‘rgangan: a) so‘z shaklidagi metaforalar; b) so‘z birikmasi shaklidagi metaforalar; v) gap shaklidagi metaforalar; g) mikromatn shaklidagi

“Rustamxon” dostoni matnini o‘rganish jarayonida ham Fozil shoirning ijro mahorati yuksak ekanligini his etish mumkin. Dostondagi ko‘chma ma’noni hosil qilish ko‘proq metafora orqali yuzaga chiqqan. Doston matnidagi so‘z turkumlariga xoslangan metaforalarni o‘rganish jarayonida ularning ikki xil turdagi namunalariga duch keldik: sodda va murakkab metaforalar. Sodda metaforalar shaklan bir leksemadan iborat bo‘lib, biz yuqorida ko‘rib chiqqan ot, sifat, fe’l, ravish turkumiga xos so‘zlar ana shu guruhga kiradi. “Murakkab, ya’ni kengaygan metaforalar tuzilishiga ko‘ra esa bir so‘zdan ortiq bo‘lib, asosan, so‘z birikmasi, yoyiq birikma, gap shaklida” [1:108] ham uchrashi mumkin.

Kengaygan metaforalarning asosiy qismini birikmali metaforalar tashkil etadi. Xalq dostonlarining lingvopoetikasini maxsus o‘rgangan tilshunos G.Jumanazarova birikmali metaforalarni tuzilish tabiatiga ko‘ra, uch guruhga bo‘lib o‘rgangan: sifatlovchi, izofali va qaratqichli birikmalar [2:241]. Kengaytirilgan metaforalarning lisoniy xususiyatlari haqida tadqiqotchi Sulaymonov Bobur Nodir o‘g‘li ham o‘zining dissertatsion tadqiqotidaayrim kuzatishlarini ilmiy jamoatchilik e’tiboriga tavsiya etgan. “Kengaygan metaforalarning xarakterli xususiyati shundaki, deb ta’kidlaydi tilshunos B.Umurqulov, - so‘z metafora o‘zi bog‘lanib kelayotgan so‘z bilan mustahkam aloqaga kirishishi natijasida metaforik ma’no ifodalaydi. So‘z metafora o‘zi bog‘langan so‘z bilan grammatik aloqaga kirishishganida asl metaforik ma’nosi reallashadi. Kengaygan metaforalar asosan ergash bog‘lanish yo‘li bilan bog‘lanib, tobe bo‘lak metaforik ma’no ifodalaydi. Masalan, *bahor, yurar, daryo, chopadi, yel shivirlar, kurash oqadi, poezd uchadi, qushlar so‘ylar* kabi kengaygan metaforalardabirikma tobe bo‘lagining ma’nosi ko‘chgan” [3:64].

“Rustamxon” dostonini kuylash jarayonida baxshi an’anaviylikka suyangan holda kengaygan metaforalarning ajoyib namunalarini qo‘llay olgan. Buning oqibatida, doston syujetida obrazlilikni va tasviriylikni ta’minlash, qisqa, ixcham jumlalarda chuqur ma’no ifodalash borasida o‘zining so‘z tanlash mahoratini yana kengroq namoyon qila olgan. Doston matnidan namuna sifatida olingan quyidagi misollarga e’tibor beraylik: *Qay tarafda bunda kelar ajdahar? // Chirpinib turibdi mendayin shunqor (399); Ochilgan*

bahorda bog‘ning gulisan, // otang ham enangning joni dilisan (397); Birga yursak shirin jon-a, // Gul yuzim so‘ldi naylayin (384); Qattiq tunda holim tangdir, // Jon shirindir, boshim tangdir (385): Qiz tug‘sang, gul yuzli, o‘zing bilasan (385).

B.Umurqulovning uqtirganidek, kengaygan metaforalarning metaforik ma’no ifodalashida metaforalashgan so‘z bilan u birikkan so‘z orasidagi bog‘liqlik muhim rol o‘ynaydi. Chunki kengaygan metaforaning ma’no ifodalasht xususiyati metafora birikkan so‘zning xarakteriga ham bog‘liq. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkin: a) agar metaforik ma’no ifyodalayotgan so‘zga birikkan so‘z konkret ma’no ifodalasa kengaygan metaforaning ma’nosi ham kengaygan bo‘ladi: *yel shivirlar, sen shoshilding, poezd qichqirar, o‘ynaydi, shalola* kabi; b) metaforik ma’no ifodalayotgan so‘zga, birikan so‘z abstrakt ma’no ifodalasa, kengaygan metafora ham abstrakt ma’no ifodalaydi: *baxt qaynaydi, kurash oqadi* kabi[4:64]. Kengaygan metaforalar badiiy adabiyotda to‘liq she’r, bandlar, to‘liq gap shaklida[5:64] bo‘lishi mumkinligini tilshunos R.Qo‘ng‘urov ham ta’kidlagan edi. Ushbu ilmiy mulohazalarning tasdig‘ini xalq dostonlari matnida ham kuzatish mumkin. Xususan, biz o‘rgangan “Rustamxon” dostoni matnida ham ayni lisoniy holga duch keldik. Ulardan bu o‘rinda ayrim misollar keltirish bilan chegaralanamiz: *“To‘lgan o‘xshaydi paymona (384): Davlatli qul ulni gulag eshadi (380); Yig‘lasam, yo‘q bo‘ldi dardimga davo (379); Zaminga bexabar qoldi bolam, - deb (372); Olmos po‘lat belda, egnimda qalqon (363); Til ozorlar qaysi go‘rdan kelding – deb // Kampirimni aldab yo‘ldan urding, - deb (358)* kabi. Ushbu matnlardagi epik qahramonlarning fikr- mulohazalari, baxshining epik bayondagi muayyan ta’kidlari dostonning badiiyatida ta’sirchanlikni, obrazlilikni, qolaversa, doston tinglovchilarida qiziqishni yanada oshirishga xizmat qilgan. Tilshunos G.Jumanazarova ta’kidlaganidek, xalq dostonlaridagi metaforalar matnda mustaqil holatda kelganda ham, shuningdek, affikslar, leksemalar bilan kelganda ham, izofali, sifatlovchi, o‘xshatishli, frazeologik birikmalar hosil qilib kelganda ham, so‘z turkumlari asosida shakllanganida ham kuchli emotsional-ekspressivlikni ifodalaydi, lekin ma’no nozikliklari bilan bir-biridan muayyan darajada farqlanadi. Ularda ruhiy jarayon ko‘zga tashlanmaydi, ammo, epik zamon va makon tushunchasi doimiylik kasb etadi [6:241-242].

Xalq baxshisi “Rustamxon” dostonini kuylashda va undagi muayyan voqea - hodisalarning bayonini tasvirlashda, bu boradagi muayyan epik tafakkuri natijalarini doston tinglovchilariga yetkazishda butunlay yangi ma’nodagi metoforalarni qo‘llay olgan. Doston syujetidagi epik qahramonlarning muayyan xarakter-xususiyatlari, fiziologik holatini badiiy tasvirlashda, ularning ijtimoiy mavqei, tashqi qiyofasi, ruhiy holatlariga doston tinglovchilarini jalb etish uchun tasvirdagi ijobiy yoki salbiy baholashda, kinoya usulini hosil qilishda, epik qahramon nutqini baxshiyona uslubda bayon etishda mahorat bilan foydalangan.

Doston matnidagi so‘z turkumlariga xoslangan metaforalar struktura jihatdan ikki xil: sodda va murakkab metaforalar. Sodda metaforalar shaklan bir leksemadan iborat bo‘lib, biz yuqorida ko‘rib chiqqan ot, sifat, fe’l, ravish turkumiga xos so‘zlar ana shu guruhga kiradi.

Birikma va gap shaklidagi murakkab metaforalar biz o‘rgangan doston badiiyatini oshirishga, ijodkor baxshining epik qahramonlar faoliyati, ruhiyati va xatti-harakatlari

bilan bog‘liq tafsilotlarni bayon etishida, muhimi tinglovchilarning qiziqishini oshirishga, metaforik jumlalarning affektiv belgisini kuchaytirishga xizmat qilgan.

Yuqoridagi tahlillardan ma’lum bo‘ladiki, birikma va gap shaklidagi kengaygan metaforalar biz o‘rgangan doston badiiyatini oshirishga, ijodkor baxshining epik qahramonlar faoliyati, ruhiyati va xatti-harakatlari bilan bog‘liq tafsilotlarni bayon etishida, muhim tinglovchilarning qiziqishini oshirishga, metaforik jumlalarning affektiv belgisini kuchaytirishga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сулоймонов Б.Н. Темирбек Тўрабоевнинг “Теорема” романида “Т” товуши билан бошланувчи сўзларнинг метафоралашуви ва фразеолашуви. – филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Самарқанд, 2020.
2. Жуманазарова Г. Фозил Йўлдош ўғли достонлари тилининг лингвопоэтикаси. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2012. - Б.241.
3. Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси –Т.: Фан, 1990. - Б.64.
4. Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси –Т.: Фан, 1990. - Б.16.
5. Жуманазарова Г. Фозил Йўлдош ўғли достонлари тилининг лингвопоэтикаси. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2012. - Б. 241-242.

O‘ZBEK TILIDA KUCHAYTIRISH MA’NOSINING IFODALANISHI

Rahmatova Hulkar,
Jizzax davlat pedagogika instituti,
o‘zbek tili o‘qitish metodikasi
kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: rakhmatova83@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilida kuchaytiruv ma’nosining morfemalar va leksemalar murakkab tarkibli bo‘lib, unda hodisaning substansial mohiyati bo‘lgan kategorial ma’no bilan birgalikda boshqa yondosh va hamroh ma’nolar qorishgan holda mavjud ekanligini, bu umumiy ma’noning nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorlik qilishini asoslangan.

Kalit so‘zlar: Yordamchi so‘z, funksional belgi, ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama, yuklamaning o‘ziga xos xususiyati, so‘roq, ta’kid, kuchaytiruv, ayirish-chegaralash, o‘xshatish yuklama, qo‘shimcha ma’no.

Mamlakatimiz milliy istiqlolga erishilgandan so‘ng jamiyatda yuz bergan ma’naviy-mafkuraviy o‘zgarishlar fanlar, xususan, o‘zbek tilshunosligi kabi milliy fanlar oldiga muayyan talablarni qo‘ydi. Ma’lumki, tilda, chunonchi, uning grammatik qurilishida ham, millat ruhiyati aks etadi. Milliy taraqqiyot milliy til mavqei va nufuzi yuksalishida ko‘zga yaqqol tashlanadi. “O‘zbekiston taraqqiyotining bugungi yangi bosqichi – milliy yuksalish davri talablaridan kelib chiqib, ona tilimizning jamiyatdagi o‘rni va nufuzini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda” [1]. Istiqlol sharofati

o‘laroq, o‘zbek tili hodisalarini uning substansial tabiatidan kelib chiqqan holda tekshirish o‘zbek milliy ma’naviyatini o‘rganish, milliy mafkura va milliy g‘oyani targ‘ib qilishning ko‘rinishlaridan biriga aylandi. Bu esa o‘zbek tili grammatik hodisalariga ham unda milliy ruhiyat aks etgan mavjudlik sifatida yondashishni taqozo qiladi.

Yordamchi so‘zning funksional belgisi – “bog‘lash”. Shu belgi asosida ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama so‘z va gapni bir-biriga bog‘lash uchun xizmat qiladi. Ammo bu vazifa bog‘lovchi va ko‘makchi uchun o‘zgarmas, barqaror. Yuklamaning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular so‘z yoki gapga so‘roq, ta’kid, kuchaytiruv, ayirish-chegaralash, o‘xshatish kabi qo‘shimcha ma’no beradi va funksional “bog‘lash” belgisiga nisbatan beqaror, o‘zgaruvchan sanaladi, ya’ni “bog‘lash” belgisi unda bo‘lishi ham, bo‘lmasligi ham mumkin. Chunonchi, [*na-na*] yordamchisi teng bog‘lovchining bir turi sifatida inkor bog‘lovchisi sanalib kelgan. Tilshunos G‘.Abdurahmonov esa uni inkor bog‘lovchi deb atash bilan birga, yuklamalik xususiyatiga ham egaligini ko‘rsatadi. Haqiqatan ham, bu yordamchi ham bog‘lovchilik, ham yuklamalik vazifasini bajaradi. Bog‘lovchi vazifasida kelganda ayrim teng huquqli bo‘lak (komponent)larga inkor ma’nosini berib, ularni bog‘laydi: *Na so‘zlarida ma’no bor, na ishlarida hayo.* Bu yordamchi so‘z yuklama vazifasini bajarib, mazmunidan inkor anglashilgan gaplar tarkibida keladi va inkor ma’nosini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilida [*axir*], [*hatto*], [*hattoki*], [*-oq/-yoq*] kabi kuchaytiruv yuklamalari mavjud bo‘lib, [*-oq/-yoq*] affiks yuklamasi o‘zidan oldingi so‘zga qo‘shib yoziladi. Harakatning birin-ketin tezlik bilan davom etishini, boshlanish paytini, ta’kidlashni ko‘rsatadi: *Gullarni ko‘riboq ko‘ngli yorishdi.* [*Axir*], [*hatto*], [*hattoki*] yuklamasi ham fikrni kuchli ta’kidlash, avvalgi voqeani eslatishni ifodalaydi: *Axir do‘stimsan-ku!*

-yoq, -ki, -kim a iptsnsiv formalar hosil qiluvchi elemontlar, *ya’ni qip-qizil, to‘ppa-to‘g‘ri tip so‘zlardagi qip-* va *to‘ppa-* hamda *tim, g‘irt, liq, yasiqqa.* Bunday yuklamalar nutqqa tasviriylik berib, so‘z ma’nosinn kuchaytirish, shuningdek, ta’kid ma’nosi berish uchun ishlatiladi.

Kuchaytiruv va ta’kid yuklamalaridan *-ku, ham, -u (-yu), -da, -aq, -yoq, -ki (-kim)* gaklamalari asosan kuchaytirish va ta’kid ma’nolarni anglatish uchun qo‘llanadi: *"Necha mirta uchrishay dedim-ku, aak-tim bo‘lmadi* (Oybek). *Qo‘kragingiz yarq-yarq qiladi-yu, nna yayov kelyapsiz...* (Oybek). *Pastga agregatni o‘rnaipirasan-d a, har yoqqa simlarni torta berasan* (Oybek). *Baxt so‘zi qam shunchalar aziji, unga mehnat ahli inqilob tufayli erishdi*.

Ham yuklamasi o‘zi kuchaytirib yoki ta’kidlab ko‘rsatadigan so‘zlarlar ko‘pincha keyin keladi: *Uni ham o‘qitaman, o‘zim ham o‘qiyman* (Shuhrat). *Ham* yuklamasi ta’kidlanayotgan so‘zdan oldin kelishi kam uchraydi. *Ham* yuklamasi takrorlangan xolda faqat takrorlangan bo‘laklar oldidagina uchrashi mumkin. Bunday chokda takrorlangan bo‘laklar sanash intonatsiyasi bilan bog‘langan bo‘ladi: *Kutilmaganda menn esankiratib ko‘ygan xis xam og‘ir, xam shirii eda* (A. Muxtor). *Ham* yuklamasn *-yam* shaklida (unlidan so‘ng) va q updoshl tush-gan holda qo‘llanishi ham mumkin. Bunday chog‘da u o‘zi aloqador (bo‘lgan so‘zga qo‘shib yoziladi: *Bunga kiziqmayam qo‘ydim* (A.Muxtor).

-da yuklamasi shart manlidagi fe’llardan so‘ng kelib, to‘siqsizlik ma’nosini anglatishi mumknn. Bunday chog‘da u *ham* yuklamasi bilyan sipotshm bo‘ladi. Qiyos: *Ish bo‘lsa-da, bosh edi — yosh bo‘lsa qam bosh edi. Baland bo‘yli, qora soqol, yuzi*

cho‘-ziqroq, karg‘iz kovoq Nosir oxun zski bo‘lsa-d a, ozoda libosda boshida kuloh bor edi (S. Abdulla).

-U (-yu) yuklamasi aliqlik maylidagi fe’llardan so‘ng kelib, ish-harakatning bajarilishidagi tezlik ma’nosini bildiradi: *Qiz yalt etib qaradi-yu, Jamolni ko‘rib yuragi hapriqib ketdi* (Oybek). *Io‘l yurib charchagas Roziq ko‘rpaga kirdi-yu, uyquga ketdi* (S.A h m a d). *Pulat bilan Baqor qar kungidagidek, bugun ham darsdan chiqishda-yu, to‘g‘ri soy bo‘yiga kelshidi* (Sh. Rashidov).

-U (-yu)- yuklamasi uyushgan bo‘laklar orasida kelganda boglov-chi vazifasini bajaradi va u *va* bog‘lovchisiga mos keladi; *Qiz erta-yu kech... soatga qaraydi, daqiqalar sanaydi* (H G‘ u l o m). *Bu huvillagan dalada Qo‘ldosh bobo-yu sharq ufqidagi xaroratsiz qu-yosh barkashidan boshqa hech narsa ko‘rinmaydi* (H. G‘ulom).

-oq, -yoch yuklamalari bosh, o‘rin, chiqish kelishigidagi otlardan so‘ng kelib, kichaytirish bildirsa, *-(i)b* affiksli ravishdoshlar-dan va *bilan* ko‘makchisidan keyin kelib, bir ish-harakat ketidan ikkinchisining tezlik bilan sodir bo‘lishi ma’tyusini anglatadi: *Tansiq ...konsert tugamasdan o s. o‘rtog‘ining uyiga ildam jo‘na-di* (Oybek).

Shuningdek, bu yuklamalar sirasiga sifat va ravishlar oldidan mavjud so‘z qismlarini qaytarish yo‘li bilan hosil qilinadigan orttirma daraja yaratuvchi *qop(-qora), sap(-sariq), qsp(-qi-zil), ko‘m(-ko‘k), but, bus(-butun), chshgpa(‘Chin), to‘ppa(-to‘g‘ri)* ka-bi elementlar ham kiredi: *yam-yashil, sip-sillik,, dum-dumadok, yum-yumaloq, kuppa-kunduzi, soppa-sog‘, yap-yanaloq, bo‘m-bush, qupgm-kuruk,, yap-yangi, yappa-yangi, tip-tikka, gippa-tik, yep-yengil, yeppa-yen-gil, ship-nshrin, yop.pa-yosh, yap-yaxshi, yappa-yaxshi, yoppa-yozgi, qippa-kshiki.*

Ayiruv va chegaralov yuklamalari *(-gina, -kina, -kina, faqat).* Bunday yuklamalar turli so‘z turkumlari bilagt kelib, ularni chegaralab, ajratib ko‘rsatish uchun qo‘llanadi: *Ular pastakkina eshik peshtoqida osilib to‘rgan xira niroq tagida tuqnash keldi, Nazarida qoramoyea bo‘yalgan ushoqsina bu yigit nimasi bilandir shu kushlarea o‘xshardi* (U.U m a r b ye k o v).

Faqat va *-gina* kjlamalari birga kelib *(faqatgina kabi).* ayirib, chegaralab ko‘rsatish ma’nosnni yana kuchaytiradi: *u f a-q a t g i n a o‘zins o Butishga O‘ringanday (*A. M u x t o r).

Bunday kuchaytirish ma’nosi *fasat vz -gina (-kina, -qina)* yuklamalari bir gapda, gapning turli yerida kelganida ham saqlanadi: *Ha, o‘sha paytda agar hayotimning biron qimmati, jinday salmog‘i bo‘lsa, u f akat o‘sha kichik daftar tufayligina edi* (A. Muxtor). *Faqat daraxtlar, ariqlar, kdpriklargina tanish* (A. Mu xtor).

Faqat yuklamasi o‘rnida *yolg‘iz* suzi qo‘llanishi ham mumkin: *Otabek yolg‘iz mehmonxonada yotib kun kechirish bilangina qolmadi* (A. Qo d i r i y).

Aniqlov yuklamasi (xuddi, naq). Bunday yuklamalar o‘ai mansub bo‘lgan so‘zning ma’nosini aniqlab ko‘rsatish uchun qo‘llanadi.

Xuddi yuklamasi: a) aniqlab ko‘rsatish ma’nosini bildiradi: o‘g‘li *otasinine xuddi o‘za. O‘tgan kun kechasi xudda, shu yerda katta majlis qilindi* (Oybek). *Yoshlar maorif bo‘limiga xuddi mo‘ljallakgan vaqtda, soat o‘nbirda yetib keldilar* (P. T u rsun).

b) chog‘ishtirish (qiyos) ma’nosini bildiradi (bunday chog‘da u *-dek, -day* affiksi bilan yasalgan yoki *kabi, singari* ko‘makchilari bilan birga boshqarilgan otlar va olmoshlardak oldin keladi): *Tevarak-atrofda ketmon urayotgan, zambillab, qoplab*

tuproq tashiyotgak odamlar ham, xuddi Ro‘zimatday, jadallab ishlar edi (A. Q a hh o r*). Allaqanday jozibador.-.birdaraxtni silkit-di* (Oybek). *Sidiqjon xiyla yergacha, xuddi to‘satdan uyg‘oigan kabi, garang bir ahvolda bordi* (A. Qahhor). *Sidisjon qip-qizarib, xuddi favqulodda bir narsa ko‘rgan singari, ko‘zaning ichiea qaradi.* Shuningdek, *xuddi* yuklamasi kuchaytirish ma’nosinn bildiri-shi ham mumkin: *Zvenolar ishini, xuddi oynada ko‘rib to‘rganday, namoyon qildi* yuklamasi ham *xudda* yuklamasi o‘rnida keladi va u anglatgan ma’nolarni bildiradi: *...itlarning ulushi naq miyasida shang‘ilyaab turadi* (A. Muxtor).

Ba’zan esa bu yuklama “rosa”, “to‘la” ma’nolarini anglatadi: *Sentabr oylari ishkomlarda barg ko‘rinmas, shig‘il husayni, qar boshi nas bir savat bulardi* (A. M u x t o r).

Nutqda undovlar ifodalilikki kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Undovlar kishining his-tuyg‘usini ifodalashdan tashkarn, baholash munosabatini bildirish xususiyatiga ham egadir.

Hozirgi o‘zbek tilidagi undovlar anglatgan ma’nolariga ko‘ra ikki katta grunpaga bulinadi: emoschonal undovlar, imperativ undovlar.. Bulardan tashqari, bu ikki gruppaga ham kiritish mumkin bo‘lmagaya va aloqnda grupgshsh tashknl qiluvchi undovlar ham bor. Bundan tashqari bir undov turln o‘rinda turli xil his-tuyg‘u bildiripsh ham mumkii. Shuning uchun ham bir gruppaga kirgan.

Takroriy undovlar sostavida hech qanday tovush o‘zgarishn yuz bermaydi. Emotsiyani, ekspressivlikki kuchaytirish maqsadida ishlatiladi: *Oh-oh mening malikalaram* (Y. Shamsharov).

Takroriy undovlarning komponentlari ikkidan ortiq bo‘lishi ham mumkin: *E-z-e,— qoishni chimirib ta’naomuz tikildi Manzura* (Oybek).— *Hay-hay-hay! Bu nima dzgan tap?—deb shovqin bilan Madala aka kirib keldi* (A. Muxtor). *Bay-bay-bay, buncha atirga belanmasang* (S. A h m a d).

3. Juft undovlar: *ox-ho, uh-qu, o‘h-x.o‘, ay-xa, xax-xa, eh-ha, e-qa, voy-bo‘, voy-bo‘y, voy- Buy, oh-ux., voy-dod, eq-yeox.* kabi:—*Ox-xo mo‘-jiza-ku!.. Qaerdan olding taajjublandi Romesh* (R. Tagor).— *Voy-buy, bu dunyodagi isrofgarchilikki s.araig, isrofgarchilik-ni!..* («Sharq yulduzi») *Heh-ha, yaxshi dam olish ham gap ekanmi,— javob berdi Ahmadjon notanish kiishga yonboshidan so‘l cho‘zib... Siz yo‘llanma deb naq bog‘i eram kalidxni berdirgan ekansiz* (A. Mutsimov). *—E-ha! A1irtojiboyning qiziman, deng, o‘xsha-maysiz!* (Ye. Shu ku rov) *A-q a!— dedi Sayyora* (U. U ma r b ye k o v).

Bap.zatg uvdovlarning *uh-hu-u-HU, voy-e-voy-e, voy-yeoy-ey!* kabi kengaygan holda takrorlanishi yoki juftlanish holatlarini ham ko‘ramiz: *U q-ho‘-o‘, qo‘ying-z! Men uzoq ketmayman-ku!* («Sharq yul-duzi»). *Voy-voy-ey* (U. U m a r b ye k o v) .—*Voy-yey, voy-voey, shuniyam bilmasang, marg sendek tarbiyasiz tug‘ilganga!* («Chakkiga dakkn») *Vo y-ey-ye o y -e y!.. deb noumid bir uh tortdi yea qattiq achinish bilan ilova qildi:— Sho‘rginam sursin mening!* (M. Gorkiy).

Undovlar gapning boshqa bo‘laklari bilan biror grammatik vosita orqali aloqaga kirishmaydi. Fahat umumiy gap mazmuen bilan ma’lum darajada bog‘lanib, ba’zan u asosiy gapning ekvivalenti, ba’zan esa shu gapning umumiy yakuni sifatida qo‘llanadi. Undov gap sostavida kelganda shu gapdap ifodalangan umu-miy na’noga so‘zlovchining munosabatini bildiradi, unga emo-sional bo‘yoq beradi.

Gap sostavida, bundan tashqari, undovlar undalma, prepozitiv yuklama vazifasini o‘taydi.

Gapdan tashqarida esa undovlar o‘ziga xos intonatsiyaga ega bo‘lgan bir sostavli so‘z-gap tarzida shakllanadi. Undov sof holda bir savolga javob bera olmaydi va gapning biror bo‘lagn vazifasini ham bajarolmaydi. Undov butun gapga tegiptli bo‘lishi bilan, ya’ni gapda ifodalangan umumiy mazmunga nisbatan so‘z-lovchining salbiy yoki ijobiy emotsiyasini bildirishi bilan model so‘zlar va yuklamalarga o‘xshaydi.

Undovlar mustaqil gap sifatida mazmun jihatidan doin so‘roq, taajjub yoki emotsiya bildiruvchi so‘roq va undov gaplar bo‘ladi. Ammo hech qachon ular darak gap bo‘la olmaydi. Undov gaplar qo‘shma gap sostavida alohida sodda gap, ko‘chirma gapli qo‘shma gaplar sostavida ko‘chirma gap, bir sostavli sodda gap kabi ko‘ri-nishlarga ega bo‘ladi. Undov gaplar strukturasiga ko‘ra birgiia yoki bir necha undovlardan tashkil topgan bo‘lnshi mumkyan. Hatto ba’zzn birgina tovushdan tashkil topgan updovlar ham gap bo‘lib kela oladi. Undov gaplar alohida gap sifatida ham, qo‘nsha gap sostavida ham boshqa gaplar bilan mazmunan aloqador bo‘ladi. Formal jihatdan esa biror grammatik vosita orqali emas, balki intonatsion aloqada bo‘ladi: *Eh, oyisi juda toshbag‘ir xotin-da! E, xudo* (Sh. Siddiqiy) *H a, haromzoda Anvar uni yo‘ldan ozdirib, bu yerdan ham olib qochibdi... Harchand ichkarini izdab ushbu xatdan gayri asar topmadik.*

Ba’zan undov gap bir emas, bir necha har xil undoplardan tashkil topadi. Bunday vaqtda ularga bnr sostavli undov gap sifaty-da qaralaveradi. Chunki ular bir nechta bo‘lsalar ham bir xil — yo ijobiy, yo salbiy emotsiyani bildiradi, xolos: *Uf, zoy-voy, uf jonim!* (O y b e k).

Umuman olganda, kuchaytiruv ma’nosini ifodalovchi morfemalar va leksemalar grammatik ma’no tarkibi turlicha. Mustaqil so‘z turkumlarning kuchaytiruv ma’nosining ifodalanishi yondosh ma’no birikuvchi so‘zlarning ma’nosiga bog‘liq ravishda juda ko‘p bo‘lib, hamroh ma’no sifatida ularning uslubiy xususiyatlarini ko‘rsatish mumkin. Morfemalarning bir guruhida “tobelash”, boshqalarida “tenglash” kategorial ma’no hisoblanadi, yondosh ma’no birikuvchi so‘zlarning ma’nosiga bog‘liq ravishda ko‘pdir. Hamroh ma’no esa ularning uslubiy ma’nolaridir. Yuklamalarning kategorial ma’nosi “kuchaytirish” bo‘lib, yondosh ma’no sifatida “subyektiv munosabat”ni ajratish mumkin. Hamroh ma’no sifatida tobelash va tenglash sintaktik ma’nolari namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-sonli “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori // “Ma’rifat” gazetasi. – Toshkent, 2019-yil 5-oktabr. – №77.

2. Mengliev B. Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2018. – B. 298.

3. Rahmatullaev Sh. Semema – mustaqil til birligi. // O‘zbek tili va adabiyoti masalalari. – Toshkent, 1984. №5. – B. 17-20.

4. Sayfullaeva R. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘ROO‘MTV, 2010.

TOG‘AY MUROD ASARLARIDA TEONIM KOMPONENTLI METAFORALARNING KOGNITIV TADQIQI

Xolnazarov Umid,
Termiz davlat universiteti,
o‘zbek tilshunosligi kafedrasi
o‘qituvchisi, tayanch doktoranti
xolnazarovu@tersu.uz
Tel: +998915899034

Annotatsiya. Mazkur maqolada teomorfik metaforaning kognitiv aspektda tadqiq qilinishi olamni bilish, anglash, tushunish va tushuntirishning eng asosiy kategoriyasi sifatida boshqa turdagi fundamental metaforalardan o‘zida inson ruhiyatining nozik qirralarini ifoda eta olish xususiyati bilan keskin farq qilishi asoslangan.

Kalit so‘zlar: teomorfik metafora, olamning lisoniy manzarasi, madaniyat kodlari, umummadaniy fenomen, ilohiy belgilar, lingvokulturema, konseptual birliklar.

XXI asrning birinchi o‘n yilligining kashfiyoti bo‘lgan teomorfik metafora (*Theomorphic (theos* -lot. *ma’bud, iloh* va *morfe; morphic* -lot. *shakl*, *shaklli*) – ifoda ko‘lamida aniq ilohiy shakl-shamoyilni ifodalovchi obraz orqali namoyon bo‘ladigan konseptual, lingvomadaniy ahamiyatli madaniyat kodlaridan (ilmiy adabiyotlarda somatik kod, makoniy kod, temporal kod, predmetli kod, biomorf kod, ma’naviy kod [1:6], antropomorf kod, fazoviy kod, urushga doir kod, tibbiy kod, me’moriy kod, sport kodi, geometrik kod, gastronomik kod, kiyim-kechak kodi [2:79], mifologik kod, teomorf kod, rang-tus kodi [3:169] kabilar madaniyat kodlari sifatida berilgan bo‘lsa, ayrim tadqiqotchilar zoomorf kod hamda fitomorf kodni biomorf kodning turlari hisoblaydilar, biomorf kod ba’zan nabotot-landshaft kodi tarzida ham nomlanadi [4]) biri sifatida qayd etiladi. Shuningdek, *teomorf* atamasi (Islom ma’naviyati va mafkurasiga ko‘ra, birorta jonzot, biron-bir konkret shakl-shamoyil yoki chizgi, umuman, moddiyatga ishora bermasligi lozim – Maxmaraimova Sh.T.) aksar hollarda diniy kontekst doirasida tekshiriluvchi diniy metaforani tadqiq etuvchilar tomonidan tilga olinib, diniy metafora uchun asos vazifasini o‘taydi.

Xususan, bazaviy metafora hisoblangan teomorfik metaforaga tadqiqotchilarning yondashuvlari turlicha ekanligini ta’kidlash lozim. Zero, adabiyotlarda *bazaviy* atamasiga mos tarzda yana: *tub*, *fundamental, bazaviy*, *yadroviy* va b. *metaforalar* atamasi uchraydi. Ularning barchasi

tabiiy tarzda bir-biriga sinonim hisoblanadi [5]. Ularni asosiy to‘rt guruhga bo‘lish mumkin:

1. Metaforani global, umummadaniy fenomen sifatida tekshiruvchi tadqiqotlar (O.Freydenberg, E.Noyman, A.N.Panchenko, I.P.Smirnova va b.). Mazkur tadqiqotlar birinchi navbatda mifopoetik davrga murojaat qiladi va mazmun-mohiyati, ahamiyati vaqt o‘tishi bilan ham susaymaydigan, aksincha, ma’nosi barcha madaniyatlar vakillariga birday tushunarli bo‘lgan metaforalarni tekshiradi.

2. O‘zining spesifik xususiyatlari, tafakkur qilish uslubi va h.ga ega bo‘lgan mental yaxlitlik sifatidagi muayyan davr merosi tahlil etiladigan izlanishlar (I.K Golenishev-Kutuzov, O.Shpengler, Xose Ortega-i-Gasset, I. Prigojin, A.N.Luk va b.).

3. Bazaviy metaforalarning etnomadaniy o‘ziga xoslik bilan assotsialanishini tekshiruvchi yo‘nalish (D.Lakof, M.Djonson, Cherdanseva T.3., Gachev G.D. va b.).

4. Bazaviy metaforalarni voqelikni inson faoliyatining muayyan sohasi doirasida tushuntiruvchi model sifatida o‘rganuvchi tadqiqotlar (Gusev S.S., Kuliev G.G., Sele G., Gordon D. va b.) [5].

Darhaqiqat, teomorf unsurlar – oraliq (moddiyatdan tashqari, izohlanmaydigan) vaziyatlarni to‘ldiradi. Ular bir vaqtning o‘zida madaniyatning belgisi sanaladi [6]. Bu belgilar o‘zga madaniyat kodlarining tizimiga tez-tez o‘tib turadi. Teomorfik kod o‘zida kult belgisini saqlaydi. Olamning lisoniy manzarasidagi teomorfizm (teonim komponentli metafora) – funksional ilohiy belgilarni ifoda etadi [7]. Alohida ta’kidlash kerakki, o‘zbek tilida teomorfik metaforaning kognitiv aspektda tadqiq qilinganligi [8] teomorf metaforaning ilmiy talqinini ma’lum darajada osonlashtiradi. Chunonchi, Sh.Maxmaraimova tadqiqoti [9:133,134] da Markaziy Osiyo xalqlarining parilar, jin va shaytonlar, devlar, alvastilar haqidagi tasavvurlari ozmi-ko‘pmi bir-birlariga ancha o‘xshashligi va bu g‘ayritabiiy mavjudotlar o‘zlarining xislatlari, odamlarga bo‘lgan munosabatlariga ko‘ra, odamlarga homiylik qiluvchi, ayni vaqtda ularga zarar va xastalik keltiruvchilar (ularga zarar-zahmatdan qurbonlik orqali xalos bo‘lish va rahm-shafqatga ega bo‘lish mumkin bo‘lgan ruhlar mansub, mozorlarda yashaydigan arvohlar, ruhlar, o‘t-o‘choqlar bilan bog‘liq diniy tasavvurlar va marosimlar misol bo‘la oladi), insonlarga ziyon keltiruvchilar (alvasti, ajina, dev, alomaon, sariqiz, olmoz kabi ruhiy mavjudotlar kiradi) va inson bilan o‘ziga xos tarzda munosabatda bo‘la oladigan parilar kabi uch guruhga bo‘linishini ta’kidlaydi.

Ayniqsa, T.Murod badiiy diskursida uchraydigan teonim komponentli metafora (TKM) lar nutqiy birliklar orasida voqelikning real tasvirini bera oluvchi, so‘zlovchining insoniy kompetensiyasini aks ettiruvchi lingvokulturema darajasida baholansa arziydi. Taqqos uchun misollar: Bo‘ri polvon Abil polvonni yaxshi biladi. Abilning cho‘nqayma usuli bor. Keyin... *jini bor*! Davraga kirsa, *tutib qoladi*... (Yulduzlar mangu yonadi) “Meni lozim ko‘ribdilarmi... menginani lozim ko‘ribdilarmi, — demak el nazarida *farishtali ayol* bo‘libman-da? — deya xayollandi onamiz. — Shukur, Yaratganning o‘ziga shukur, ishqilib, el savobini olar bo‘libman...”. (Oydinda yurgan odamlar) Birodarlar, *ot usti behisht, og‘zi do‘zax*! (Ot kishnagan oqshom)

Yuqorida berilgan mikromatnlarda metaforik asosdan tarkib topgan *jini bor* teomorf metaforasi ostida inson tabiatiga to‘g‘ri kelmaydigan ish yoki bir polvonning boshqa polvondan jahli chiqishi natijasida raqibiga nisbatan *tutib qolishi* (*jini tutib qolmoq* iborasining ellipslashgan: teomorf komponentli ibora) nazarda tutiladi.

Farishta ayol teomorf gender-metaforasi o‘zbek lingvomadaniyatida insonlar (ayniqsa, ayollar)dagi eng pok fazilatlarni, bu kabi odamlarning noyob inson ekanliklariga urg‘u berish hamda el nazdida yaxshi, pokiza, ibrat bo‘ladigan ayollarni sharaflash maqsadidagina real insonlar, qahramonlarga nisbatan ishlatiladi.

Ot usti behisht, og‘zi do‘zax paremiologik (aynan matal) ko‘rinishdagi TKMdagi ot ustining behisht, ya’ni jannat (Alloh taolo Niso surasining 57-oyatida: “Iymon keltirgan

va yaxshi amallar qilgan zotlarni esa ular abadiy yashaydigan, ostidan daryolar oqib turadigan jannatlarga doxil qilajakmiz. Ular uchun u joylarda pok juftlar bordir. Ularni quyuq soyali joylarga kiriturmiz" [10:60], deya jannatning naqadar rohatbaxsh joy ekanligini aytadi)ga mengzalishi undagi rohat-farog'atni, ot minganda odamning rohatlanib yayrab yurishini anglatgan bo'lsa, ot og'zining do'zax (Niso surasining 55-56-oyatlarida jahannam (jahannam ahli) haqida: "Bas, ularning ichida unga (ya'ni Muhammadga) iymon keltirganlar ham bor, undan yuz o'girganlar ham bor. (Bularga) jahannam o'ti bas kelur (55-oyat). Bizning oyatlarimizni inkor qilgan kimsalarni albatta do'zaxga kiritajakmiz. Qachonki terilari kuyib bitishi bilan haqiqiy azobni totib ko'rishlari uchun o'rniga boshqa terilarni almashtiramiz. Albatta Olloh qudrat va hikmat egasi bo'lgan zotdir (56-oyat)" [10:59,60] deb izoh beriladi)ga o'xshatilishi esa otni boqib, ko'pkariga tayyorlashning mashaqqat, azob-uqubati (Ziyodulla chavandoz tilidan quyidagicha izohlanadi: "Tarlonni boylovga tashladim. Otxonadagi baland oxurga bog'ladim. Go'ng chiqariladigan teshikni janda bilan kechalari yopib qo'ydim, kunduzlari ochib qo'ydim. Tarlonga arpa yem berib boshladim. Azonda to'rt kilo arpa yem berdim. Tushda olti kilo arpa yem berdim. Oqshomda besh kilo arpa yem berdim. Kaftimda tuz berdim. Tarlon tuzni kapalab-kapalab yedi. Kaftimda oq qand tutdim. Tarlon qandni lablari bilan oldi. Qars-qars yedi. Endi so'yilgan qo'y quyrug'ini tuzlab-tuzlab berdim...") ni ifoda etadi.

Qator tadqiqotlarda inson tajribasini asosan, diniy-e'tiqodiy shaklda talqin qilish hamda unga sharh berish ustuvor ahamiyat kasb etib, olimlar insoniy muloqot va lisoniy semantikaning maqsadi va asosi sifatida birlamchi idealistik dunyoqarashni ko'rsatadilar. Unga ko'ra, dunyoqarashning (idealistik dunyoqarashning) negizini birlamchi teomorfizm va keyingi o'rinda bazaviy shakllanish kategoriyasi sifatidagi demonomorfizm (ins-jins nomlari bilan bog'liq metaforik nutqiy ifodalar) va antropomorfizm tashkil qiladi [11]. Demak, teomorf metafora kognitiv mexanizmning tarixan shakllangan materiali bo'lib, olamni bilish, anglash, tushunish va tushuntirishning eng asosiy kategoriyasi sifatida insoniyatning olamdagi mavjud bo'lish sabablarini izohlay oladi.

Mulohaza uchun misollar: Qishloq odamlari olchin, tog'chi, *parito'p,* qovchin, *go'rxov,* yuz... deya atalmish urug'-aymoqlarga bo'linib olishadi. (Yulduzlar mangu yonadi) Normurod polvon davra aylana berdi. — Bizda polvon yo'q, bo'lsa chiqardi! — dedi... Normurod polvon Bo'ri polvon qo'lidan yulqinib chiqdi. Yana davraga aylandi. — E, master sport tugul, *dev bo'lsayam chiqaman!* — dedi. (Yulduzlar mangu yonadi) Bo'ri polvon o'pkasini bosolmadi... Hansirab-hansirab nafas oldi. O'z ajdodlaridan madad so'radi. *Otasining piriga sig'indi*... (Yulduzlar mangu yonadi.

Yuqoridagi misollarda *parito'p* (o'zbek xalqi tarkibidagi urug'lardan birining nomi (O'TIL, 3-jild): ayollari, xotin-qizlari paridek juda go'zal bo'lganidan, shu nom kelib chiqqan. Bizga ma'lumki, "pari" so'zi bilan bog'liq etnik, toponimik nomlar O'zbekistonda ko'plab uchraydi. Jumladan, Surxondaryo viloyatining Muzrabot tumani "Yangiobod" mahallasida Pariqishloq deb ataladigan tub aholi borligini aytib o'tish mumkin), *go'rxov* (ushbu etnonim "go'rkov" (qabristonda go'r qazuvchi) leksemasining fonetik variantidir) etnotoponimik biriklari, *dev bo'lsayam chiqmoq* (devdek ulkan gavdali, baquvvat bo'lsa ham, kim bo'lsa ham kurashmoq) hamda *otasining piriga*

sig‘inmoq (bunda pir:1) otasining arvohi, ruhi; 2) otasi ixlos qo‘ygan biror din peshvosi, avliyo) teonimik iboralari kabi individual-mualliflik metaforalari TKMning etnogenezisdagi mustahkam o‘rnini dalillaydi.

Teomorfik metaforaga nisbatan madaniyatni shakllantiruvchi va olam konseptosferasining asosini tashkil etuvchi, uning konstantalarini belgilovchi, olam manzarasida o‘zining konkret “chizgilari”ga ega bo‘lgan mexanizm deb qarash to‘g‘ri bo‘ladi. Negaki, metafora yordamida individ ongidagi fikriy jarayonda tashqi olamning bahosi yuzaga keladi, unga mos muqobillar, yondosh holatlar belgilanadi va anglanadi. Metaforaning kognitiv xossalari nafaqat bilimlar tizimi, madaniy qadriyatlar, mentalitet bilan, balki real voqelik manzarasining emotsional tasviri, his-tuyg‘ular majmuyi bilan ham shartlanadi [12]. Bu holatda ham teomorf metafora boshqa turdagi fundamental metaforalardan o‘zida inson ruhiyatining nozik qirralarini ifoda eta olish xususiyati bilan keskin farq qiladi: yaxshi va yomonni anglashdagi harakatlarda teomorf metafora eng ma’qul ko‘rsatma vazifasini o‘tay oladi va bu borada olam manzarasidagi mavjud tajribaga tajriba qo‘shuvchi muhim kognitiv mexanizm bo‘la oladi [13:132].

Faktik materiallar, yig‘ilgan misollardan ma’lum bo‘ladiki, TKMlar orasida genezisi “salbiy”dan “ijobiy” qutubga qarab transformatsiyalangan obrazlar o‘zbek tilida so‘zlashuvchilarning asosan so‘zlashuv va badiiy uslublarida mahsuldor va qo‘llanilish chastotasi yuqori ekanini ko‘rsatdi. Ayniqsa, T.Murod leksikonidagi *go‘r* (*go‘rni biladi, ochiq lahadni biladi; go‘rniyam biladi, yerniyam biladi; o‘lik bo‘lib go‘rda yo‘q, tirik bo‘lib to‘rda yo‘q; go‘rga bo‘lsa; yo‘l azobi – go‘r azobi; go‘r bo‘ladimi?; bari katta bir go‘r; go‘rxov; go‘rga-ya*), *ziyon* (*ziyon bermoq; ziyon bermaslik; ziyon-zahmat; foyda-ziyon*; *ziyoni yo‘q*), *shayton* (*shaytonga xay bermoq; noumid shayton; shayton yo‘ldan ozdirgan, yomon yo‘lga boshlagan vaqtlar; qiz bola shayton*) singari teomorf-metaforik nomlar shular jumlasidan.

Misol uchun: Endigi uloq vaxshivorlik Yo‘ldosh chavandozda bo‘ldi. Yo‘ldosh uloqni chilvirsiz, halol olib ketdi. Yo‘ldosh chavandozga *ziyon bermadim, oshiga sherik bo‘lmadim*. (Ot kishnagan oqshom) Qulmat cho‘loq achchiq bilan qayta-qayta qo‘l qo‘ydi. — Mana bo‘lmasa, mana! — dedi. — Yashang, otaxon, yashang! — dedi Daho. — Qo‘sh imzo bo‘ldi, qo‘sh imzo! *Ziyoni yo‘q*! (Momo yer qo‘shig‘i) Bo‘ri polvon Shukurni silab-suydi. Chuchuk-chuchuk so‘zlar aytdi: — *Shaytonga hay bering*, polvon, chiqing endi. (Yulduzlar mangu yonadi) Uloqni ko‘rib, yoqalarimni ushladim. Yo, tavba, yo, tavba! O‘sha-o‘sha uloq. Lekin bo‘yni yo‘q! Butlari yo‘q!..Shunday bo‘lsa-da, chavandozlar *noumid shayton* deya, uloqqa talpindi. Ammo yerdan uzib ololmadi. (Ot kishnagan oqshom)

Bu o‘rinda keltirilgan birinchi misolda *ziyon bermoq (bermaslik)* teomorf-metaforik oborotdan tarkib topgan frazemasi “halaqit bermoq, zarar bermoq” ma’nosida qo‘llanilib, “*ziyon*” ([arabcha – afsonaviy maxluq; arvoh; yovuz ruh] Sharq mifologiyasida va diniy tasavvurlarga ko‘ra: pastqam joylarda kishi ko‘ziga odam timsolida ko‘rinib, go‘yo uni biror dard-illatga chalintirib ketadigan afsonaviy maxluq – O‘TIL, 2-jild) “*jin*” teonimining sinonimi hisoblanadi. *Oshiga sherik bo‘lmoq (bo‘lmaslik)* ham “zarar bermoq (bermaslik)” semasiga teng bo‘lgan frazeologik oborotli metaforadir. Ikkinchi misoldagi “ziyoni yo‘q” teomorfik metaforasi “zarari yo‘q” ma’nosini anglatadi.

Keyingi misollardagi *shaytonga xay bermoq* (ma'lumki, shayton insonlarning salbiy kamchiliklari, qusurlarini ro'yobga chiqaruvchi hamda insonlarni yomon ishlar qilishga undaydigan lanatlangan mal'undir. Bu frazeologik ifoda – insonlarni insonlarga jahl, g'azab qilishlaridan saqlanishlari uchun aytilgan bir chaqiruv) va *noumid shayton* (Allohning har bir bandasi eng og'ir vaziyatlarda ham umidini uzmasligi kerak. Umidini uzgan shaytonga esh, ya'ni do'st bo'ladi) FTM tarkibida eskirgan metaforaga xos "yedirilganlik" yoxud "uniqqanlik" ([14:512]) xususiyatini kuzatish mumkin.

Umuman, biz teonim komponentli metaforalarni mifonim komponentli metaforalar tarkibida o'rgandik va tahlillarimiz davomida T.Murod badiiy nutqida jami 33 ta (7 %) mifonim komponentli metaforalarni aniqladik.

Umuman olganda, teonim komponentli metaforalar nutqning situativ shabloni vazifasini o'tab beruvchi benazir vosita bo'lib, o'zining diskursiv shakllangan tugal konstruksiyalariga ega. Boshqa turdagi metaforalardan farqli, TKM o'zida "salbiy" va "ijobiy" to'g'risidagi tasavvurning shartli skriptini namoyon etadi hamda shunga ko'ra qadriyatiy bahoning etaloni hisoblanadi. Shuningdek, T.Murod nasrida uchraydigan ko'chimlar orasida teomorf komponentli ifodalar voqelikni kognitiv-diskursiv modellashtiruvchi muhim konseptual birliklar sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Красных В.В. Коды и эталоны культуры (приглашение к разговор)//Язык, сознание, коммуникatsiя: Сб. статей. – М. МАКС Пресс, 2001. – С. 6.
2. Маслова В.А. Духовный код с позиции лингвокультурологии: единица сакрального и светского // Метафизика. – М., 2016. - №4. – С. 79.
3. Краснобаева-Чёрная Ж.В. Пространственный код культуры ценностной картины мира (на материале русской, украинской, английской и немецкой фразеологии) // Сибирский филологический журнал. – 2018. - №4. – С. 169.
4. Саргач Х. Коды культуры как одно из основных понятий лингвокультурологии: на материале фразеологизмов с компонентом «камень» и «ветер» в русском и турецком языках // www/ulakbilderdergisu.com.
5. Свирепо О.А. Метафора как код культуры/ Автореферат дисс. кан. философских наук. - Ростов-на-Дону, 2002. http://www.dissercat.com/content/metafora-kak-kod-kultury.
6. Коды культуры и принципы концептуализatsiи мира (об основных структурных признаках базовых концептов культуры). Часть 11. http://everlastpro.ru/sopostavitelnoe-issledovanie-konceptualnyx-struktur/
7. Коды культуры и принципы концептуализatsiи мира (об основных структурных признаках базовых концептов культуры). Часть 11. http://everlastpro.ru/sopostavitelnoe-issledovanie-konceptualnyx-struktur/; Neta S.Theomorphism and Modern Hebrew Literature's/Search for the Divine: Brenner and Shlonsky as a Case Study/ Jewish Studies Quarterly 22, 62–85 ISSN 0944–5706. - Mohr Siebeck, 2015. http://nextweb.lib.ohio-state.edu/projects/hebrew-lexicon/00399-files/00399202.pdf.

8. Махмараимова Ш. Оламнинг миллий лисоний тасвирида теоморфик метафоранинг когнитив аспекти: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (Doctor of Philosophy) диссертатsiяси. – Қарши, 2018.

9. Махмараимова Ш. Оламнинг миллий лисоний тасвирида теоморфик метафоранинг когнитив аспекти: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (Doctor of Philosophy) диссертатsiяси. – Қарши, 2018. – Б. 133-134.

10. Қуръони карим. НИСО СУРАСИ. Алоуддин Мансур таржимаси. – Тошкент: “Шарқ юлдузи” ойномаси ҳамда “Чўлпон” нашриёти, 1992. – Б. 60.

11. Алешина О.Н. Семантическое моделирование в лингвометафорологических исследованиях. (на материале русского языка). Автореферат дисс. на соиск. уч. степени доктора филологических наук. – Томск, 2003.

12. Вильгельм фон Гумбольдт. Избранные труды по языкознанию. 2-е издание. – М.: Прогресс, 2000.

13. Махмараимова Ш.Т. Лингвокультурологический аспект узбекской теоморфической метафоры /The priorities of the world science: experiments and scientific debate// Proceedings of the XII International scientific conference -North Charleston, SC, USA: 16-17 November, 2016; Махмараимова Ш.Т. Роль теоморфической метафоры в практике познания мира/ Актуальные вопросы общественных наук: социология, политология, философия, история. № 8 (28): сборник статей по материалам XXVIII международной научно-практической конференции. — Новосибирск: СибАК, 2013. – С. 132.

14. Теория метафоры: Сборник: Пер. с анг., фр., нем., исп., польск. яз. / Вступ. ст. и сост. Н. Д. Арутюновой; Общ. ред. Н. Д. Арутюновой и М. А. Журинской. — М.: Прогресс, 1990. – С. 512.

Tuya LMGi asosida shakllangan maqollarning lingvokulturologik tadqiqi

(“Tuya” hamda “Igna” detallari qatnashgan maqollar asosida)

Gadoyeva Qunduz,
5-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi,
qunduzmustafoyevna@mail.ru
Jumayeva Marjona,
Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi
Tel**:** + 998904132553
E-mail:jumayeva7@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada “tuya” hamda “igna” detallari qatnashgan “Ignadek teshikdan tuyadek sovuq kirar”, “Ignadek gunoh tuyadek ko‘rinadi”, “Ignaning teshigidan tuyani o‘tkaza oladi” kabi maqollari tahlilga tortilgan. Mazkur maqollar qatnashgan ilmiy manbalar qiyoslanib variantlar o‘zaro solishtirilgan.

Kalit so‘zlar: zoonim, lingvokulturologiya, madaniy kod, o‘rganish obyekti, madaniyat elementlari, paremiologiya, lingvokulturema.

Maqollarda xalq tafakkuri va madaniyati birlashadi, millatning mental xususiyatlari, asriy an’ana va turmush tarzida mavjud qadriyatlar o‘zini namoyon etadi.

Lingvokulturologiya – ana shu mentallikni madaniy kodlar asosida o‘rganadi va tilda tadbiq etadi. Lisonda barcha hodisalar milliylik va madaniyat asoslari bilan shakllangan holda mavjud bo‘ladi. Tilning aloqa-aralashuv paytida esa mazkur jihat o‘zini so‘zlovchi kognitiv olami bilan birgalikda namoyon etadi. O‘zbek xalq maqollari ham o‘zida mental xususiyatlarni aks ettirishi jihatdan tegishli etnos haqida ma’lumot beradi.

Ignadek teshikdan tuyadek sovuq kirar.

O‘zbek xalq paremalarida bir necha o‘rinlarda *tuya* hamda *igna* obrazlari yonma-yon qo‘llaniladi. “Iganani teshigidan tuyani o‘tkaza oladi”, “Ignadek gunoh tuyadek ko‘rinadi”, “Ignadek teshikdan tuyadek sovuq kirar” kabi maqollar shular jumlasidandir. Xalq nutqida qo‘llanilayotgan har qaysi birlik o‘z sababiga ega bo‘lgani kabi, bu ikki obrazning bir o‘rinda qo‘llanishiga ham sabablar mavjud. Tilda ifodalanayotgan maqollarning aksariyati diniy omil asosida shakllangan. Xalq tafakkur tarzi va dunyoqarashi Islom olami madaniyatidan kuch olgan. Mazkur ikki tushunchaning ham qo‘llanilishi muqaddas “Qur’oni Karim” ga borib taqaladi.

Albatta, oyatlarimizni yolg‘on degan va ulardan kibr-havo bilan (yuz o‘girgan) kimsalar uchun hargiz samo eshiklari ochilmas va toki tuya igna teshigidan o‘tmas ekan, ular ham jannatga kira olmaslar (ya’ni hech qachon kirmaslar). Jinoyatkor — osiylarni mana shunday jazolagaymiz.

Muqaddas Qur’oni Karimda keltirilgan igna teshigidan tuya o‘ta olishi kabi holat aslida hech qachon sodir bo‘la olmaslikka dalildir. Kibr-havoga berilgan hamda Alloh kalomini yolg‘on degan kimsalar, hech qachon jannatga kira olmaslar. Yuqoridagi oyatda tuyaning katta vazni hamda ignaning kichik teshigi bir-biriga parallel holatda keltirilib “imkonsiz ish”, “hech qachon sodir bo‘lmaslik” mazmunini ifodalamoqda.

Qur’oni Karimdan avval Olloh tomonidan Muso paygambarga nozil etilgan “Injil” kitobida ham tuya va igna ko‘zi haqida fikrlar mavjud.

Boyning jannat shohligiga kirishidan ko‘ra, tuyaning igna teshidan o‘tishi osonroqdir.

Ushbu iboraning kelib chiqishining ikki omili mavjud. Muqaddas Kitobning ba’zi tarjimonlari bunday iboraning paydo bo‘lishiga asl Injil matnining tarjimasidagi xatolik sabab bo‘lgan deb hisoblashadi: "tuya" o‘rniga "qalin arqon" yoki "kema arqoni" o‘qilishi kerak, tuya istilohi haqiqatan ham mumkin emas, deb ta’kidlashadi.

Bir badavlat yahudiy yigit Isoning oldiga kelib: “Ustoz! Abadiy hayotga ega bo‘lish uchun nima qilishim mumkin?

Masih javob berdi:

-Siz amrlarni bilasiz: zino qilmang, o‘ldirmang, o‘g‘irlik qilmang, yolg‘on guvohlik bermang, xafa qilmang, ota-onangizni hurmat qiling.

U bu yerda yahudiy xalqining butun diniy va fuqarolik hayoti qurilgan Muso qonunining o‘nta amrini sanab o‘tadi. Yigit ularni tanimasdi. Darhaqiqat, u Isoga shunday javob beradi:

-Bularning barchasini yoshligimdan saqladim.

Shunda Masih shunday deydi: “Sizga bir narsa yetishmaydi: boring, bor narsangizni sotib, kambag‘allarga bering, shunda osmonda xazinaga ega bo‘lasiz; va kelib, menga ergashing”.

Yigitning bu so‘zlarga munosabati haqida Xushxabar shunday deydi: “Bu so‘zni eshitib, yigit qayg‘u bilan ketdi, chunki uning katta mulki bor edi”.

Hafsalasi pir bo‘lgan yigit chiqib ketadi va Masih shogirdlariga o‘sha so‘zlarni aytadi: “Boy odamning Osmon Shohligiga kirishi qiyin; Yana sizlarga aytamanki, boy odamning Osmon Shohligiga kirishidan ko‘ra, tuyaning igna teshigidan o‘tishi osonroqdir”.

Ushbu epizodni shu tarzda izohlash eng oson.

Birinchidan, boy odam haqiqiy nasroniy bo‘la olmaydi.

Ikkinchidan**,** chinakam haqiqiy nasroniy – Masihning izdoshi bo‘lish uchun kambag‘al bo‘lish, barcha mulkdan voz kechish, hamma narsani sotish va kambag‘allarga tarqatish kerak,

narsani “berishi” kerak bo‘lgan juda “kambag‘al” sifatida harakat qilishadi.

O‘zbek klassik adabiyotida ham igna ko‘zi iborasi *Chashmi so‘zon* shaklida qo‘llanilib, bir qancha g‘azallarda obraz yaratish maqsadida qo‘llaniladi. Xususan, Turdi Farog‘iyning “Turdiman” radifli g‘azalida quyidagi holatni ko‘rish mumkin.

Qatrayam nochiz, ammo zoti qulzum Turdiman,
Kelturan amvojg‘a bahri talotum Turdiman.
Qirq, Yuz, Ming aqrabolar etdilar mandin nufur,
Ne balo baxti qaro-yu toleyi shum Turdiman.
Rishtadek ming pech-u tob *jismi so‘zondin o‘tar*,
Bovujudi e’tibori *chashmi mardum* Turdiman

G‘azalning maqta’ qismida kelgan dastlabki *misrada jismi so‘zon,* keyingi misrada esa *chashmi mardum* so‘zlari qo‘llangan. Bu ifoda orqali *yana tuya va igna teshigi leksemalariga ishora bor.*

Ignadek teshikdan tuyadek sovuq kirar.

Mazkur maqol ham o‘z ma’nosida, ham ko‘chma ma’noda qo‘llaniladi. O‘z ma’nosida qish faslida uy eshigi yoki derazasida mavjud tirqishdan xonani muzlatishga yetadigan sovuq kirishi mumkinligi nazarda tutilgan. Shuningdek, aholi qish kelishi oldi hamma joyni ta’mirlab, eshik qoqib kelayotgan sovuq kunlarni kutib olishga hozirlik ko‘rishi lozimligi ta’kidlangan. Ko‘chma ma’noda esa arzimagan xato yoki kamchilik tufayli ulkan rejaning ham barbod bo‘lishi mumkinligi, yomon narsa va muammoning katta-kichigi yo‘qligi e’tirof etilgan [10].

Bu maqolni to‘g‘ridan-to‘g‘ri shu ma’noda ham, “qish-qirovli kunlarga oldinan hozirlik ko‘rib qo‘y, uyingning telva-teshiklarinni beekitib, sovuq kirmaydigan qilib qo‘y” ma’nosida ham, majozan: “ozgina, kichkina kamchilikni, xatolikni nazar-pisand qilmay yurma, shundan senga katta ziyon-zahmat yetishi mumkin, ehtiyot bo‘l” degan ma’noda ham qo‘llaydilar. “Yolg‘iz baloga indamasang- ko‘payadi” degan maqol ham borki, uni keying aytilgan ma’noda qo‘llaydilar [11].

Xalqimizda kichik kemtiklik ham katta muammolarga sabab bo‘lishi haqida ko‘plab maqollar mavjud. Shular jumlasidan “Ignadek teshikdan tuyadek sovuq kirar” maqoli ham kiradi. Moddiy jihatdan qiynalgan oilalarga yetkazilgan kichik bir zarar ham, uning hayotini qiyinlashtirishga sabab bo‘lishi haqida fikr yuritilgan.

Ignani teshigidan ham tuya o‘tkaza oladi.

Ushbu maqol ikki ma’noda qo‘llaniladi. Birinchidan, hayotda omadi chopgan, olg‘ir, ishning ko‘zini biladigan odamlarga nisbatan ushbu hikmat qo‘llanilsa, ikkinchidan, g‘am-tashvish yoki musibat sabab katta jussaning kichrayishi, ulkan imkoniyatlarning torayishiga ishoradir.

Kesakpolvon uning ta’zimiga e’tibor bermay piyolaga konyak quyib ichdi-da, gazak qilmay o‘rnidan turdi. “Qozi” itoatkor mulozim ko‘rinishida uni ko‘chaga qadar kuzatib bordi. “Lozim bo‘lsa *ignaning teshigidan tuyani ham o‘tkazib yubora olaman”,* deb katta ketuvchi “qozi” xo‘jayinning fe’li aynib turganini fahmlab, bunday kezlarda chorakta gap ham ortiqchaligini bilgani uchun lommim demay, barcha ehtiromini ta’zim orqali izhor eta qoldi. Choyxona hovlisidagi mashina yonida turgan yigitlardan biri orqa eshikni ochdi. Ammo Kesakpolvon haydovchi o‘rni tomon yurdi. Uning maqsadini anglagan haydovchi darrov joyni bo‘shatdi. Kesakpolvon “qozi”ga xayr ham demay, eshikni yopdi-da, mashinani yurgizdi. Kuzatuvchi yigitlar tushgan kulrang “Jiguli” beto‘xtov ravishda unga ergashdi. “Qozi” kirgan vaqtda Kesakpolvon xayolini kishanlagan bo‘lsa-da, yuragini qizdirayotgan g‘alayon o‘tini o‘chira olmagan edi. Bu o‘t choyxonadan uzoqlashgach, kishanni parchalab, yana xayollariga erk berib yubordi. Mashinani o‘zi haydashidan maqsadi – ko‘ngli yolg‘izlikni qo‘msaganidan edi.

Bu sirning ma’nisiga etish uchun Fuzuliy yashagan davrga murojaat qilish kerak. O‘sha davrdagi rivoyatlarni, maqolu matallarni, hatto qo‘shiqlarni xam bilmoq kerak. Bir rivoyatda odamlar Allohdan, ey tangrim, zindonda yotgan kofirlar qachon ozod qilinadi, deb so‘rabdilar. Allox, tuya ignaning teshigidan o‘tgandagina kofirlar ozod qilinadi, deb javob qilgan ekan. Fuzuliy ana shu rivoyatni g‘azaliga asos qilib olgan. Ya’ni: “Mening g‘amlarim shunchalik ko‘pki, tuyaning ustiga ortsam, ko‘tarolmay, ozib, ipdek bo‘lib qoladi”. Ipdek ozib qolgan *tuya ignaning teshigidan bemalol o‘tishi mumkin.* Demak, kofirlar zindondan ozod qilinadi. Domlaning bu qadar bilimdonligiga qoyil qolishdi, tahsinlar o‘qishdi [5].

Lingvokulturologiya – tilni madaniyat fenomeni asosidao‘rganadigan, xalq nutqida, lisonida mavjud har qanday birlikni ularning o‘zidagi madaniyat elementi bilan bog‘lab tushuntiradigan fan. Tuya hamda Igna leksemalarining maqollarda bir necha o‘rinda qo‘llanilishi ham bejiz emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бердиёров Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984. –Б. 286.
2. Imom al Buxoriy. Al jome as sahih. 1-kitob. – T.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1991. –B. 403.
3. Injildan. Matto Xushxabari, 19-bob, 24-modda; Luqo Xushxabari, 18-bob, 25-modda.
4. Жўраева Б. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари. - Т.: Академнашр, 2019. –Б. 221.
5. S.Ahmad.Umrim bayoni. –Toshkent: “Sharq” NMAK, 2008. –B. 37.
6. Tohir Malik. Shaytanat 3-kitob, “Sharq” nashriyoti, - Toshkent , 2007. –B. 12.
7. Qur’oni Karim. A’rof Surasi. 40 – oyat. “HILOL NASHR” nashriyot-manbasi. Ma’nolar tarjimasi. – B. 93.

8. Воробьев В.В. Лингвокультурология: теория и методы. – М.: Издательство РУДН, 1997. –Б. 332.

9. O‘zbek xalq maqollari. –Toshkent: G‘afur Gulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. –Б.127.

10. Xolmonova Z, Tosheva D. Zoonim komponentli paremalarning izohli lug‘ati. – T.: “Turon zamin ziyo”, 2016. –B. 359.

11. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. –Т.: Ўзбек совет энциклопедияси, 1990. –Б . 524.

O‘XSHATISHLAR VA MILLIY-MADANIY KONNOTATSIYA (TOHIR MALIKNING “SHAYTANAT” QISSASI MISOLIDA)

Turakulova Umidaxon,
Namangan davlat universiteti magistranti,
Email: talabagrant555@gmail.ru

Annotatsiya. Maqolada milliy-madaniy konnotatsiyani ifodalovchi o‘xshatishlar haqida so‘z boradi. Tohir Malikning milliy-madaniy konnotatsiya ifodalovchi o‘xshatishlardan foydalanish mahorati ba’zi o‘xshatishlarni tahlili davomida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: o‘xshatishlar, milliy-madaniy konnotatsiya, o‘xshatish etaloni.

Har bir tilda o‘sha til iste’molchilari bo‘gan til egalarining – xalq, millat va etnik birliklarning zamonlar osha o‘z boshidan kechirgan ijtimoiy hayoti, yashash tarzi, hayotiy tajribalari o‘z aksini topadi. Shu sababli ham tilni xalq hayoti, tarixiy taraqqiyoti bosqichlarining yagona guvohi, uning hayotiy tajribalarini to‘plab ajdodlardan avlodlarga yetkazuvchi, milliy o‘ziga xosligini saqlab turuvchi, etnik jipsligining ramzi sifatida tan oladilar.

Konnotativ ma’no haqida so‘z borganida uning ma’lum millatga xos mentalitet, urf-odat, dunyoqarash, olamni lisoniy anglash kabi belgilarni mujassamlashtirgan til vositasi ekanligi ko‘zga tashlanadi. Bundan tashqari, milliy-madaniy konnotatsiya ifodalovchi o‘xshatishlar faqat bir xalq uchun ochiqligicha qoladi. Bu degani ayni shunday o‘xshatishlar boshqa xalqlar uchun tushunarsiz va noma’lum birlik sifatida yopiq tizimni yuzaga chiqaradi.

Nominativ birliklarning konnotativ ma’nolari, ularning yuzaga kelish sabablari, bu birliklardagi konnotativ ma’nolar tahlili tadqiqotchisi M.Mamadaliyevaning “O‘zbek tilida nominativ birliklarning konnotativ aspekti” nomli ilmiy tadqiqotida batafsil yoritlgan.[1] O‘xshatishlarda milliy madaniy konnotatsiyaning aks etishi xalqning olamni lisoniy anglashi, madaniyati, tasavvuroti, an’analari haqidagi darakchidir. Umuman olganda, nafaqat o‘xshatishlarda balki, xalq ijodi bilan bog‘liq barcha birliklarda xalqning aksi namoyon bo‘ladi.[2:61] Professor Nizomiddin Mahmudov hamma xalq ongida olamni lisoniy anglash bir xilda emasligi haqida fikr bildirib, *oy* etaloni bilan bog‘liq o‘xshatishlarni lingvomadaniy jahatlarini tahlili orqali isbotlashga harakat qilgan. *Oy* etaloni mavjud bo‘lgan o‘xshatishlarni bir qator xalqlarning lingvomadaniyati bilan qiyoslagan.

Milliy-madaniy konnotatsiya haqida gap ketar ekan, Ikromjon Mirzaaliyev o‘zining “O‘zbek tilida milliy madaniy konnotatsiyaning ifodalanishi” nomli maqolasida quyidagi fikrlarni bildirgan: “Madaniy konnotatsiyalarda milliy ong, milliy tafakkur va dunyoqarash o‘z ifodasini topadi. Bunday birliklar til egalarining milliy-madaniy qarashlarini, voqelikka munosabatini ham aks ettiradi. Masalan, o‘zbek tilida madaniy konnotatsiya hisoblangan *do‘ppisini osmonga otmoq* iborasi konnotativ ma’no ifodalash bilan birga, milliy-madaniy qadriyatlar (o‘zbek xalqining do‘ppi kiyish madaniyati, xursandchiligi vaqtida do‘ppisini olib osmonga otishi kabilar) bilan aloqador birlik hisoblanadi. Yoki “Yetti o‘lchab, bir kes” maqoli madaniy konnotatsiya sifatida millatga xos aql bilan ish tutish, bir ish qilishdan avval mushoxada qilish, ish yuritishda shoshqaloqlik qilmaslik kabi xislatlarni aks ettirish bilan birga, fikrni ta’sirchan, hissiy tarzda ifodalashga xizmat qiladi“.[3:90]

Maqolada konnotativ xarakterdagi o‘xshatishlar, xususan, “it” etalonli o‘xshatishlar tahlil etilgan bo‘lib, ularning xalq madaniyati bilan bog‘liq lingvomadaniy xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi.

Tahlil obyekti bo‘lgan mazkur asarda qator o‘xshatishlar va ularda aks etgan konnotatsiyalarni kuzatdik. Jumladan, *it* etaloni bilan bog‘liq o‘xshatishlar asarda yigirmaga yaqin o‘rinlarda qo‘llangan bo‘lib, shundan o‘n martasida bir-birini takrorlamay yangi semani ochib berishga xizmat qilgan. Asardagi ayni o‘xshatishlarni tahlil qilganimizda ularning barchasi salbiy holatni aks ettirish uchun qo‘llanganiga guvoh bo‘lindi. O‘ylab qaralsa, o‘zbek millati mentalitetida *it* bilan bogliq qarashlar ikki ko‘rinishda aks etadi. Anglaganingizdek, *it*ga nisbatan ham salbiy, ham ijobiy munosabat shakllangan. Ijobiy munosabatni ifodalashda undagi sadoqat, do‘stlik, qo‘riqlash kabi tomonlar nazarda tutiladi. Salbiy munosabatni ifodalaganda esa, itdagi daydilik, ko‘p hurish, qopish, qaramlik, horlik kabi holatlar nazarda tutiladi. O‘zbek millati mentalitetida it, ot kabi hayvonlar bilan do‘st tutinish, ular bilan insondek gaplashish badiiy asarlarda ham aks ettirilgan. Bundan tashqari o‘zbek xalq maqollarida ham it bilan bog‘liq bir qator o‘rinlar bor: “Yaxshi it o‘ligini ko‘rsatmas”[4:36], “Toyni ot qilguncha, Egasi it bo‘lar”[4:79], “Hurag‘on it egasiga qo‘noq keltirar”[4:85], bunday maqollarni ko‘plab keltirish mumkin. Ulada aks etgan semalar esa, salbiy va ijobiylikni ifodalab kelmoqda, ammo, shuni ham aytib o‘tish joizki, o‘rganilgan o‘xshatishlarning hammasida it salbiy bo‘yoqni aks ettirish uchun xizmat qilgan. Quyida ana shunday o‘xshatishlar tahlili bilan tanishtiriladi: *Bundan tashqari xonasiga kiruvchini it kabi qopadigan rahbar-u rahbarchalarga azaldan tob-u toqati yo‘q* [5:99]. Ushbu parchada *it kabi qopadigan* o‘xshatishi ko‘chma ma’no uchun ishlatilgan. Sababi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *qopmoq* so‘ziga tishlab olmoq, tishlamoq kabi izohlar berilgan.[6:355] Ayni mana shu o‘xshatish shaxsning holatini ochib berish uchun qo‘llangan. Bu o‘rinda o‘xshatish jerkib, urushib gapirmoq, dag‘al gap bilan dilini og‘ritmoq kabi semalarni o‘zida jamlayapti. Qopish it va tuyaga xos bo‘lgan xususiyat bo‘lib, tuyaga qaraganda itning qopishi hamma uchun ayon holat. Tuyaga nisbatan itni yaxshi tanish bu o‘xshatishning tuyadek emas, itdek qopmoq holida yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Qopag‘on itning qopishi uchun unga teginish shart emas, o‘xshatishda ayni shu xususiyati bilan ba’zi rahbar shaxslarning o‘z hodimiga qiladigan muomalasiga ishora bor.

Ha, mayli, qo‘yavering. Ular itga o‘xshab huraverishadi, — dedi. — Nima bo‘lsa bo‘ldi! Kunimiz shunday to‘nkalarga qolganidan keyin nima qilardik [5:237]. Bu matnda ham yuqoridagi misolga o‘xshash ma’no ifodalanmoqda, o‘xshatish tarkibidagi hurishda inson nutqiga ishora bor. *Huraverish* leksemasida esa *besamar, mazmunsiz, bir gapni ko‘p takrorlash* kabi semalar aks etadi. Mazkur o‘xshatish sanalgan semalar bilan birga gapini nazarga ilmaslik, e’tibor bermaslik kabi ma’nolarni ham tashimoqda.

Sal qoldi urilib ketishimga. Bitta yulduzni, — Nozir pogoniga ishora qildi, — o‘shanda kamaytirishdi. Bu qiztaloqlar pichanga bog‘lab qo‘yilgan itga o‘xshashadi. O‘zlari ham yeyishmaydi, birovga ham bergilari kelmaydi [5:166]. Mana bu parchada qo‘llangan o‘xshatish erkin o‘xshatish bo‘lib, etalonga sifatlovchi bo‘lib kelayotgan qism o‘xshatishning mazmunini yuqori darajaga ko‘tarib berishga xizmat qilgan. Chunki, hammaga ma’lumki, it go‘shtxo‘rlar sirasiga kiradigan hayvon. Shuning uchun unga o‘txo‘rlarning ozuqasini berish mumkin emas. O‘xshatishda ifodalangan *pichanga bog‘langan it* ba’zi shaxslardagi qizg‘anchiqlik, baxillik kabi xarakter nuqsonlarini ochib berish uchun qo‘llangan. Itdagi xususiyat: oldidagi yemishini begona it bilan yemaydi, ammo yemishdan boshqa narsa bo‘lsa ham, uni qattiq qo‘riqlaydi. Mazkur o‘xshatishda qo‘riqlash semasi bor deyishdan yiroqmiz. Unda aks etgan konnotatsiyadan *ko‘rolmaslik, boshqa bir shaxsga to‘sqinlik, qarshilik qilish* semalarini anglash mumkin.

It bilan bog‘liq o‘rinlarda konnotatsiyaning namoyon bo‘lishi, asosan, salbiy bo‘yoqni ifodalashda ko‘zga tashlanadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga murojaat qilganimizda buni yaqqol ko‘rish mumkin. It. 1. Uy-ro‘zg‘orni qo‘riqlash, ovlash va shu kabi maqsadlar uchun saqlanadigan uy hayvoni. 2. Shu hayvonga nisbatlanuvchi haqoratni bildiradi: it emgan, itvachcha, itdan tarqagan. 3. Ko‘chma ma’noda. Birovning manfaatlarini himoya qilib boshqalarga zulm o‘tkazuvchi odam. Boshiga it kunini solmoq, it azobi, it tekkan, it boqmaydi (varianti: it ham qaramaydi. nazardan qolgan ma’nosida), itdan suyak qarz (hammadan qarzi bor hatto itdan ham ma’nosida), itning keyingi oyog‘i, ichini it tatalamoq, Kambag‘alni tuyaning ustida ham it qopadi.[7:241]

Yuqorida aytib o‘tilganidek, milliy-madaniy konnotatsiya xalq tafakkurining aksi, dunyoqarashining ifodachisi sifatida xizmat qilar ekan, o‘zga millat vakillarining qarashlari va milliy nigohi bilan zidlikni hosil qilishi mumkin. Shu o‘rinda boshqa millatlarning it bilan bog‘liq tasavvurini o‘zbek millati munosabatlari bilan taqqoslash muhim hisoblanadi. Demak, o‘zbek xalqida itga bo‘lgan munosabat salbiy hamda ijobiy, rus va ingliz millati mentalitatida itga nisbatan faqat ijobiy munosabat aks etishi hammaga ma’lum. Buni quyidagi rus xalq maqollardan ham bilsa bo‘ladi: “It insonning birinchi do‘sti”, “It insonning o‘zgarmas do‘sti”, “It ozuqaga arziydi”.

Xalqimizda insonlar yashaydigan, ovqatlanadigan joyga hayvonning kirishi tasavvur qilib bo‘lmaydigan holdir. Shuning uchun ham xonadonida uy hayvonlarini boqadigan insonlar ularning yashash joylarini o‘zlarinikidan ancha uzoqqa, ovqatlanganda ko‘zi tushmaydigan joyga qurishadi. Qolaversa, Islom dinida it xarom qilingan. Bu bilan o‘zbek xalqining hayvonlarga bo‘lgan munosabati salbiy demoqchimasmiz, ammo xalqimiz mentalitetida inson va hayvonlarning yashash joyi alohida bo‘lishiga qattiq e’tibor beriladi. Shu bilan birga qadrdon do‘st bo‘lsa ham, inson bilan hayvonning bir tom ostida yashashi mumkin emas. D.Ashurovning dissertatsiyasida insonni itga o‘xshatish orqali uning ijtimoiy mavqeyini ko‘rsatib o‘tiladi: “*Majlisli kun bo‘lsa, to‘rdan*

joy tegmay, piyoladan choy tegmay, bo‘sag‘aning oldida kovushga joy bermay, kovush bilan aralashib, it yiqilish bo‘lib, poyga betda yotar edi [8:46]. Bu o‘rinda Yartiboyning ijtimoiy mavqeyi haqida tavsif ketar ekan, *“joy tegmay”, “choy tegmay”, “kovushga joy bermay”, “kovush bilan aralashib”, “it yiqilish bo‘lib”* birikmalari bir paradigma holatida *“pastlik”, “beizzatlik”, “obro‘sizlik”* ma’nosini bildiradi. Bizningcha, *“it yiqilish”* deganda ostonadan o‘tishda itning poygakda dasturxonga tikilib yotishi va odatda odamlardan tepki eyishi yoki olishuv natijasida tuproqqa belanishi nazarda tutilgan.”[9:67]

O‘zbek xalqi uchun sigir, qo‘y, ot va shunga o‘xshash uy hayvonlari qay darajada qadrli bo‘lsa, rus va ingliz xalqlari uchun it va mushuk shunday qadrlidir. Uy hayvonlaridan birining kasallanishi uning egasi uchun og‘ir holat, ya’ni u tuzalguniga qadar veterenar maslahatlariga quloq solishadi. Ammo itda shunday hol kuzatilsa, aksincha, o‘z holiga tashlab qo‘yiladi. Mentalitetimizdagi itga bo‘lgan bee’tiborlik quyidagi o‘xshatishda o‘z aksini topgan:

O‘lim-ku kelar, ammo qay holda jon beradi? Hayotda omadsiz edi, o‘limda ham shunday bo‘ladi shekilli? Itday xor bo‘lib o‘ladi, murdasini itning o‘ligiday olib chiqib tashlashadi [5:206].

Itday xor qilib haydab kelishgan [5:346]. Yozuvchi tomonidan qo‘llangan *itday xor bo‘lmoq* o‘xshatishi insonning qiyin ahvolini tasvirlash uchun qo‘llangan. Ayni o‘xshatishga etalon sifatida it olingani e’tiborimizni tortdi. Xorlikni ifodalash uchun boshqa hayvonning nomini keltirib bo‘lmaydi. Chunki boshqa uy hayvonlarida ham, yovvoyi hayvonlarda ham horlik kuzatilmaydi. It faqatgina qo‘riqlash maqsadida kerak bo‘lgani uchun qariganda uni haydab yoki biror ovloq joyga tashlab kelinishini bilamiz. Boshqa uy hayvonlari qarisa so‘yish yoki sotib yuborish mumkin, shuning uchun ularga nisbatan bunday holat kuzatilmaydi. Ammo itdek sadoqatli hayvon topilmaydi. Boshqa hayvonlar ketsa, qaytib kelmaydi, it esa har qanday holatda ham qaytib keladi. It egasi bergan ovqatnigina yeydi, agar egasi ovqat bermasa hovli, xonadon yoki oshxonaga kirib o‘z xohishi bilan hech narsa yeya olmaydi. Bu uning sodiqligidan dalolat. Sigir, qo‘y, tovuq va shunga o‘xshash uy hayvonlariga esa tez-tez yemish beriladi. Ammo bu uy hayvonlari qozig‘idan, katagidan qo‘yib yuborilsa, darrov o‘z xohishiga ko‘ra yemak yeyishni boshlashadi. Yovvoyi hayvonlar esa uchragan narsani yeyaverishadi. Ko‘rinib turibdiki, itda ovqatlanish imkoniyati cheklangan. Undan tashqari itdagi xorlikni uning haydalishida ham ko‘rish mumkin, sababi boshqa hayvonlarni o‘ziga xos so‘zlar bilan ketishga undaymiz, masalan, qushlarga kish-kish, mushukka pisht, tuyoqli hayvonlarga chu, itga esa, tur, yo‘qol, tur ket kabi qo‘pol so‘zlarni qo‘llaymiz. *Itday xor bo‘lish* o‘xshatishi turg‘un o‘xshatish bo‘lib, uning semasida yuqoridagi fikrlar jamlangan.

Yuqorida qator o‘xshatishlar anglatayotgan semalar tahlilga olindi. Aytish joizki, it bilan bog‘liq o‘xshatishlarda insonlarga nisbatan eng salbiy holatning eng oxirgi nuqtasini ochib berishda keng foydalanish yaqqol ko‘zga tashlanadi. Misol sifatida “Itdan suyak qarzi bor” hammadan qarz, hatto itdan ham qarzi bor manosida, “It boqmaydigan” nazardan qolgan, hatto it ham boqmaydi ma’nosida. Ko‘rilgan misollardan shuni anglash mumkinki, konnotatsiya hodisasi bir so‘zning o‘zida aks etmaydi. Biror so‘z gap kontekstidagina namoyon bo‘lishi mumkin. Ikromjon Mirzaaliyev ham o‘z maqolasida: “so‘z ma’nosining komponenti har bir so‘zda turlicha bo‘lishi mumkin. Bu holat so‘zning

qanday milliy-madaniy mohiyatga ega narsa-predmet, voqea-hodisa kabilarni nomlab kelayotgani bilan aloqador, masalan, o‘zbek tilidagi do‘ppi so‘zining madaniylik komponentida intellektual, ekspressiv-emotsional hissiy baholar kuzatilmaydi. Shu bois bu so‘z madaniy konnotatsiyani hosil qilmaydi. Ammo do‘ppisi boshiga tor kelmoq iborasida ekspressiv-emotsional, hissiy salbiy baho ajralib turadi. Anglashiladiki, har qanday milliy-madaniy birlik konnotatsiyani ifodalayvermaganidek, konnotativ ma’noni ifodalovchi har bir til birligi milliy-madaniy birlik bo‘lavermaydi”.[3:91]

Xulosa qilib aytganda, o‘xshatishlarda namoyon bo‘luvchi milliy-madaniy konnotatsiya xalq qarashlarining ko‘zgusidir. Duch kelgan o‘xshatishni milliy-madaniy konnotatsiya deb bo‘lmaydi. O‘xshatishlarda milliy-madaniy konnotatsiyaning yuzaga chiqishi biror predmet, shaxs, yoki voqea-hodisaning hammaga ayon bo‘lgan xususiyati bilan bog‘liq. Bunda o‘xshatish etaloni muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мамадалиева М. Ўзбек тилида номинатив бирликларнинг коннотатив аспекти: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент,1997.
2. Narzullayeva F. Konnotativ ma’noning nutqda voqealanishi// Ilm sarchashmalari. – Urganch, 61-bet. Veb sayt: www. ilmsarchashmalari.uz
3. Мирзаев И. Ўзбек тилида миллий маданий коннотациянинг ифодаланиши // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2020. – № 2. – Б. 90.
4. Mirzayev T., A.Musoqulov., B.Sarimsoqov. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 36.
5. Tohir Malik. Shaytanat. 5 tomlik. 3-kitob. – Toshkent: Sharq, 2013. – B. 99.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 5-ж. – Б. 355.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 2-ж. – Б. 241.
8. Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 100 жилдлик. 1-жилд. Алпомиш. (Фозил Йўлдош ўғли варианти). Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – Б. 509.
9. Ашуров Д.А. “Алпомиш” достонининг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Наманган, 2021. – Б. 67.

JAHON TILSHUNOSLIGIDA BOLALAR NUTQINING O‘RGANILISHI

Yarashova Nasiba,
NavDPI 10.00.01-O‘zbek tili ixtisosligi doktoranti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
yarashovanasiba44@gmail.com.

Annotatsiya. Bolalar nutqi avvalo, til va nutq tizimini, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning nutqini namoyon etuvchi, uni o‘zlashtirishning alohida ko‘rinishidir. Bolalar nutqi ilk marotaba tilshunoslar tomonidan emas, balki psixolog, logoped, pedagoglar tomonidan tadqiq etilgan. Bolalar nutqini lingvokognitiv, lingvopsixologik, balki umumiy planda tadqiq etish kattalarga xos bo‘lmagan lingvistik tizim aspekti bilan bog‘liq bo‘lib, bolada nutqni shakllantirish va rivojlantirish, til qobiliyatini namoyon etishning dastlabki bosqichlari o‘ziga xos bolaning aqliy hamda psixik qonuniyatlariga, kognitiv qobiliyatiga mos tarzda amalga oshirilganda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: Ontogenez, go‘daklik davri, bolalik davri, manipulyativ faoliyat, obrazli tafakkur, nutqiy faoliyat, bolalar nutqi, nominatsiya.

Bolalar nutqi, uning rivojlanish masalalari psixolog, pedagog, logoped hamda tilshunoslarning doimo diqqat markazida bo‘lgan. Ruhshunoslar tomonidan bolalar nutqining psixologik jihatlari o‘rganilgan bo‘lsa, XX asrning 40 yillariga kelib bolalar nutqining fonologik xususiyatlari tadqiq etila boshlandi [13: 17.,263-b.]. Zero, A.M.Shaxnarovich ta’kidlaganidek, «bola nutqi lingvist uchun o‘ziga xos sinov maydoni bo‘lib, bu yerda mavjud nazariyalar va maxsus yaratilgan nutq ontogenezi konsepsiyalari sinovdan o‘tadi» [18: 134-b.]. Shu bois tilshunoslikda hozirga qadar yaratilgan tadqiqotlarda bolalar nutqi faoliyati, ularga ta’sir etuvchi omillar va ularning mexanizmlari tadqiq qilingan. «Bolaning o‘zini tutishida yuzaga keluvchi murakkab boshqaruv masalalarida nutq faoliyati asos bo‘ladi» [11: 70-b.].

Jahon tilshunosligida, xususan, bolalar nutqining rivojlanishi hamda uning bosqichlari to‘g‘risida S.N.Seytlin tadqiqotlarida [17: 9-b.], bolalar nutqida tilning voqelanish masalasi T.A.Gridina ilmiy izlanishlarida [6: 152-b.], bolalar nutqida deyksisning ifodalanishi hamda fonetik, leksik, grammatik deyktik birliklarning o‘zlashtirilish imkoniyatlarining bosqichlari G.R.Dobrova, V.Korolev hamda C.B.Krasnoshekovalarning ilmiy izlanishlarida [8: 280-288-b.; 9: 222-226-b.; 10: 273-b.], bolalar nutqining pragmatik xususiyatlari badiiy matn misolida ye.V.Beloglazova, O.L.Strogonovalarning tadqiqotlarida [1: 30-b.; 16: 244-249-b.], bolalar nutqining reprezentativ imkoniyatlari personaj obraziga hamda yozuvchi tomonidan yaratilgan badiiy unsurlarga bog‘liq ekanligi ye.YU.Moiseyenkoning ilmiy ishlarida [12: 266-272-b.], bolalar nutqi pragmatik xususiyatlarining namoyon bo‘lishida ekstralingvistik omillarning ta’siri bir qator olimlarning izlanishlarida [7: 74-77-b.], bolalar nutqida kuzatiladigan grammatik o‘zgarishlar I.T.Vepreva, I.T.Sibiryakova ishlarida [7: 74-82-b.], bolalarning fikrlash qobiliyati, tasavvur va ijod olami hamda

ularning nutqini rivojlantirish imkoniyatlari L.S.Vыgotskiy tadqiqotlarida [5: 92-b.] qayd etib o‘tilgan.

Bolalar tomonidan til birliklarining o‘zlashtirish imkoniyati xususida R.Yakobson tomonidan olib borilgan tadqiqotlarni e’tirof etib o‘tmoq darkor. “Bolaning til o‘zlashtirish jarayonida to‘plangan ma’lumotlar tilning struktur qurilma ekanligi va undagi mushtarak qonuniyatlarni asoslashga imkon beradi. Bola tilni o‘zlashtirar ekan, unda bo‘shliq yoki chalkashlik bo‘lmaydi, turli mamlakat va qit’a bolalarida hayratlanarli darajadagi universalliklar kuzatiladi, ya’ni ular aynan bir xil tizim bo‘yicha nutq tovushlarini o‘z nutqida ifodalay boshlashini qayd etib o‘tadi” [19: 105-116-b.].

L.S.Vigotskiyning fikricha, til tafakkur bilan birga parallel holda rivojlanadi. U til o‘rganishning kishining ongli fikrlash qobiliyatiga ta’sir ko‘rsatishini qayd etib, so‘z predmetning strukturasiga yo‘nalib, funksional ma’no kasb etadi, – deydi. SHu bilan birga, olim bola mavjud bo‘lgan til muhitining fikrlash tizimiga ta’sir qilishini ham alohida ta’kidlaydi. Insonning psixik rivojlanishi uning umuminsoniy madaniy tajribani o‘zlashtirishi (bu asosan moddiy dunyoni, aniqrog‘i, narsa-buyumlarni o‘rgana borishi) bilan bog‘liq holda ro‘y beradi [4: 63-b.].

Biologik va ijtimoiy o‘zaro munosabat haqidagi masalani fransuz psixologi Jan Piaje asosli ravishda izohlaydi. Jan Piaje asosiy e’tiborini bola tafakkurining xususiyatlari, borliqdagi hodisalarni go‘dak ongida qay tarzda namoyon bo‘lishiga qaratadi. J.Piaje bolada tafakkur va tilning rivojlanishi uzluksiz ravishda emas, balki bosqichma-bosqich amalga oshishini qayd qiladi. J.Piaje bolaning rivojlanishi ikki bosqichda amalga oshishini ta’kidlaydi va intellektni birinchi planga chiqaradi:

1) sensomotor mantiq;
2) konseptual mantiq.

Tilning rivojlanishi umumiy intellekt o‘zgarishlarini boshqaradi va intellektual rivojlanish tildan ta’sirlanadi. Birinchi *sensomotor mantiq* bosqichida bolada harakatlar mantig‘ini tushunishga yordam beradigan *sensomotor intellekt* rivojlanadi. Ikkinchi bosqichda harakatlar mantig‘idan *konseptual mantiqqa* o‘tiladi. U bola hayotining ikkinchi yilida yuz beradi. Mazkur bosqichda bola tilni semiotik vosita sifatida o‘zlashtiradi. U kattalarning imo-ishoralarini takrorlaydi va unda ramzlar funksiyasi rivojlanadi. Bolaning dastlabki so‘zlari haqiqiy ramzlar emas. Chunki bu ramzlar ko‘rilgan narsalar va hodisalar bilan bog‘liq bo‘ladi. Bolalar atroflarida mavjud bo‘lmagan narsalar haqida gapirishni boshlaganda haqiqiy, asosiy ramzlarni qo‘llay boshlaydilar [14: 133-136-b.].

J.Piajening fikricha, bola ongi dastavval toza, sof bo‘ladi. Bejizga olimlarimiz tomonidan bola ongi oppoq yozilmagan qog‘ozga qiyos etilmaydi. U jamiyatga kirib borishi bilan bolaning ongida ham ijtimoiylashuv yuz bera boradi. Bolaning intellekti uni o‘rab turgan muhit bilan munosabatiga ko‘ra shakllanib boradi. Munosabat qaysi til orqali amalga oshirilsa, bola tafakkuri shu tilda o‘sadi, biroq til o‘z holicha bu o‘sishni belgilab berolmaydi [15].

L.S.Vigotskiy va J.Piaje fikrlarini birlashtirib qaraydigan bo‘lsak, til rivojlanishini tashqi olamdagi narsalarning mental ramzlashishi bilan amalga oshishi ma’lum bo‘ladi. Til bir tomondan fikrlash uchun xomashyo tayyorlar ekan, ikkinchi tomondan fikrlay olish qobiliyatiga parallel ravishda faoliyat ko‘rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, til

bolaning mavhum fikrlash qobiliyatiga tashqi olamdan ramzlashtirilgan ma’nolarni biriktirishiga yordam beradi. Ya’ni til va tafakkur bir-biri bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, ular o‘zaro aloqadadir. Shuning uchun bola tilni yetarli darajada tushunadi va uning tushunchaviy fikrlash qobiliyati ortgan sari tili ham rivojlanadi.

Shuningdek, bola nutqining izchil rivojlanishi L.S.Vigotskiy, S.A.Rubinshteyn, A.M.Leushina, F.A.Soxin singari olimlar tomonidan o‘rganilgan.

L.S.Vigotskiy esa quyidagilarni qayd etadi: bola nutqni o‘zlashtirishda, avvalo, tovush chiqarishdan boshlaydi, so‘zga o‘tadi, ikki yoki uch so‘zning kombinatsiyasiga, keyin oddiy iboraga va hatto keyinchalik murakkab jumlalarga, so‘z birikmasi, gaplar tuza boshlaydi.

S.A.Rubinshteyn izchil nutqning ikki xil shaklini ajratdi: kontekstual va vaziyat. Uning fikricha, kontekstual nutq o‘z mavzu mazmuni asosida ancha tushunarli bo‘lishi mumkin bo‘lgan nutqdir. Muallifning ta’kidlashicha, yosh bolaning nutqi birinchi navbatda qarama-qarshi xususiyat bilan belgilanadi: “bola izchil semantik butunlikni shakllantirmaydi, balki buni matn asosida to‘liq tushunish mumkin; uni tushunish uchun bolaning o‘zi va uning nutqi bilan bog‘liq bo‘lgan aniq, ko‘p yoki kamroq nutqning semantik tarkibi faqat shu holat bilan birgalikda olinganda aniq bo‘ladi”.

A.M.Leushina, izchil nutqni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganib, turli vazifalar va aloqa shartlari bo‘yicha bolalar bayonotlari bilan bog‘liq muhim materiallarni to‘pladi. Muallifning ta’kidlashicha, vaziyatli nutq nafaqat maktabgacha yoshdagi bolalar uchun xos bo‘lgan yoshga bog‘liq xususiyat emas va hatto eng yosh bolalarda ham muayyan aloqa sharoitida kontekstli nutq paydo bo‘ladi va o‘zini namoyon qiladi. Shu bilan birga, maktabgacha yoshdagi vaziyatlarning namoyon bo‘lishi sezilarli darajada kamayadi va bolalarning kontekstli nutqining xususiyatlari, hatto nutqning vaziyat shakllarini rag‘batlantiruvchi vazifalar va shartlar bilan ham amalga oshadi. Shu asosda muallif dialogik nutq bola nutqining birlamchi shakli degan xulosaga keladi. “Vaziyatli nutqning asosiy o‘ziga xos xususiyati, – deb qayd etadi A.M.Leushina, – uning suhbat xarakteriga ega bo‘lishidir. Bolaning nutqi bevosita muloqot vositasi bo‘lib, uni yarim so‘zdan tushunadigan yaqin odamlar bilan grammatik jihatdan kamroq rasmiylashtiriladi”.

Rus tilshunosi A.R.Luriya bolaning o‘zini tutishida yuzaga keluvchi murakkab boshqaruv masalalarida nutq faoliyati asos bo‘lishini ta’kidlaydi.

Rus psixologi va tilshunosi, maktabgacha yoshdagi bolalarda tilni egallash nazariyasi bo‘yicha mutaxassis, bola lingvistik rivojlanishi konsepsiyasining yaratuvchisi F.A.Soxin o‘zining “Bola tomonidan tilning grammatik tuzilishini o‘zlashtirishning dastlabki bosqichlari” mavzusidagi nomzodlik hamda “Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning psixologik va pedagogik asoslari” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida izchil nutqni shakllantirishda bolalarning nutqi va aqliy rivojlanishi, fikrlash, idrok va kuzatishning rivojlanishi o‘rtasidagi yaqin bog‘liqlik aniq ko‘rinishini qayd etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning psixologik va pedagogik muammolarini tadqiq qilishda F.A.Soxin uchta asosiy yo‘nalishni aniqladi: tarkibiy (til tizimining turli tarkibiy darajalarini shakllantirish-fonetik, leksik, grammatik); funksional (uning kommunikativ funksiyasida tilni bilish ko‘nikmalarini shakllantirish - izchil nutqni rivojlantirish, nutq aloqasi); kognitiv (hodisalarni elementar

anglash qobiliyatlarini shakllantirish til va nutq). Uchala yo‘nalish ham o‘zaro bog‘liqdir, chunki til hodisalari to‘g‘risida xabardorlikni rivojlantirish masalalari maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq rivojlanishining turli jihatlarini o‘rganadigan barcha tadqiqotlar muammolariga kiritilgan.

Bolalar nutqi assotsiativ-situatsion xarakterga ega, ya’ni uni faqat vaziyat, intonatsiya, imo-ishoralar asosida tushunish mumkin. Bolaning so‘zlari butun jumla yoki so‘zning ma’nosiga teng keladi, bu ma’no vaziyatga qarab farq qiladi. Bolaning nutqiy faoliyati kattalar kabi bolaning nutqiy saviyasi, fikrlash ko‘lami va ruhiy dunyosini namoyon etadi. Bu nutq faoliyati bolalarning xulq-atvorida xushmuomalalik, tashabbuskorlik, yetakchilikka intilish, qattiqqo‘llik, monolog va dialog o‘tkazish qobiliyati, boshqalarning nutqiga hissiy munosabat shaklida yuzaga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Белоглазова Е.В. Дискурсная гетерогенность литературы для детей: Автореф. дисс. … д-ра фил. наук. – Санкт-Петербург, 2010. –С. 30.

2. Вепрева И.Т., Сибирякова И.Т. Грамматические варьирование в детской речи // Детская речь и пути её совершенствования: Межвуз. сб. науч. тр. – Свердловск, 1989. – С. 74-82.

3. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: Просвещение, 1934. –С. 262

4. Выготский Л.С. Избранные психологические исследования. Мышление и речь. Проблемы психологического развития ребенка. – Москва, 1956. – С. 63.

2-SHO‘BA. O‘ZBEK ALIFBOSI VA IMLOSI MUAMMOLARI

“CHIG‘ATOY GURUNGI” VA IMLO

Ashirboyev Samixon,
filologiya fanlari doktori, professor,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyot universiteti
Azimov Inomjon,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyot universiteti

Annotatsiya. O‘zbek tilshunosligi nisbatan qisqa davrni bosib o‘tgan bo‘lsa-da, u hozirgi kunda dunyo tilshunosligining bir bo‘lagi sifatida rivojlangan til bilimi ekanligi ma’lum. U turli davrlarni boshidan o‘tkazdi. Shunday davrlardan biri o‘tgan asrning 20-yillaridagi til vaziyatidir. Bu davrda o‘zbek tilshunosligining asosiy tadqiqot yo‘nalishi arab alifbosi asosidagi o‘zbek yozuvini takomillashtirish bo‘lgan. Bu harakatdan maqsad xalqimizga qulay bo‘lgan imlo tizimini yaratish edi. Bu yo‘lda dastlab “Chig‘atoy gurungi” tashkiloti jonbozlik ko‘rsatdi. Ular ilk bor imlo qoidalarini tavsiya etdilar va “Bitim yo‘llari” nomida yo‘riqnomada bayon qildilar. Bu yo‘riqnomada imlo bosh masala edi, lekin bu masalani yaratish, asoslash uchun o‘z davri til bilimining an’analaridan foydalanish yoki o‘zlari termin va tushunchalarni yaratish, lozim bo‘lganda, shu davrgacha an’ana bo‘lib kelgan arab va fors tili terminlarini o‘zbek tiliga o‘girish vazifasi turar ediki, bu maqsad va vazifalar ushbu asarda o‘z davriga yarasha hal qilingan.

Kalit so‘zlar: “Chig‘atoy gurungi”, imlo, bo‘g‘in (hijo), harf, tovush, cho‘zg‘i, tovush harfi, yot harf, so‘z, qalinlik va ingichkalik, so‘z turlari, odot.

O‘zbek tili imlosi XX asr boshlaridan to hozirgi kunga qadar hamon o‘zgarish va takomillashish yo‘llarini bosib o‘tmoqda. Uni ijobiy yoki salbiy hodisa deb qarash masalasida ixtiloflar bo‘lishi mumkin, chunki har bir davr o‘z ta’lim siyosatiga ega bo‘lib, uni goh ijtimoiy guruhlar, goh davlat tashkil qilib kelgan. Albatta, o‘tgan asrning 50-yillaridan e’tiboran adabiy til, yozuv va imlo masalalari davlat monopoliyasiga o‘tgan. Garchi bu masalada ijtimoiy va ilmiy fikrlar yetarli bo‘lsa-da, hamon uning munozarali o‘rinlari mavjud. Bu tabiiy bo‘lib, ijtimoiy fikr taraqqiyoti har doim ham o‘z talablarini jamiyat oldiga qo‘yib boradi va ularni oddiy jarayon sifatida qabul qilish lozim bo‘ladi.

Imlo tarixi uzoq davrlarni o‘z ichiga oladi, u ba’zan stixiyali rivojlandi, ya’ni to XX asr boshlarigacha arab yozuvidagi imlo va tildagi o‘ziga xos normalar tizimi o‘sha davr mashhur adiblar asarlari tili an’anasi asosiga qurilgan edi, masalan, Alisher Navoiy asarlari ko‘chiruvchilarining imlosiga ergashilishi tufayli o‘ziga xos imlo tizimi shakllanar edi, ba’zan esa muayyan tashkilot va guruhlar tomonidan boshqariladi.

Ma’lumki, arab yozuvi ming yillardan ko‘proq turkiy, xususan o‘zbek xalqiga xizmat qilib kelgan yozuv edi. Yuqorida aytilganidek, bu yozuvning imlo qoidalari

bo‘lmagan, balki an’anaga ko‘ra amalda bo‘lgan. Lekin ko‘p o‘rinlarda so‘zlar va qo‘shimchalarning yozilishi kotibning bilim saviyasiga va uning qanday yozish moyilligiga bog‘liq bo‘lib kelgan. Masalan, *ko‘ngul* so‘zi besh xil, *qora* so‘zi uch xil yozilib kelgan.

O‘tgan asrning boshlarida bu masalaga ijtimoy tashkilotlar e’tibor qaratishgan bo‘lib, ularning yaratgan ilmiy-metodik ishlanmalari vaqtida qatag‘on qilingan. Shunday ishlar jumlasiga “Chig‘atoy gurungi” [1, 44-48] tomonidan yaratilgan “Bitim yo‘llari”dir [2]. Avvalo bu ishlanma qanday maqomga ega bo‘lgan degan savolga javob berish lozim bo‘ladi. “Bitim yo‘llari”ga hozirgi dastur, yo‘riqnoma, o‘quv qo‘llanmasi, darslik kabi didaktik shakllar nuqtayi nazardan qaralganda, ularning hech biriga to‘liq mos kelmaydi. Aslida mualliflarning o‘zlariga quloq soladigan bo‘lsak, u imlo qoidalari to‘plamiga ko‘proq yaqin keladi. Ular yozishadi: “Til bilan yozuvimizni belgili bir yo‘lga qo‘yub...” degan so‘zlariga ko‘ra u imlo qoidalarini anglatadi. Buni uning muqovasidagi “Imlo” yozuvi ham bildirib turibdi. Lekin asarni o‘rganar ekanmiz, unda o‘zbek tilining nazariy masalalari ham aks etganligini ko‘ramiz. Nazariy fikrlarni asarning barcha o‘rinlarida qayd qilish mumkin.

Artikulyatsiya masalasi. Bu asarda *tovush* termini unli va undoshlarni ifodalash uchun qo‘llangan, lekin undosh o‘rnida *harf*, unli o‘rnida *cho‘zg‘i yoki cho‘zg‘i harf* terminlaridan foydalanilgan. Tovushlar artikulyatsiyasi haqida gap ketganida shu terminlarni qo‘llaydi. Undosh (harf) artikulyatsiyasini quyidagi kabi izohlardan anglab olish mumkin: “b(i)r” deganimizda boshda dudoqlarimizni yopishtiramiz, undan so‘ng tilimizning uchini o‘ynatib qo‘yamiz” [2, 2]. Bundan *b* undoshining lab tovushi, *r* undoshining til (titroq) undoshi ekanligiga ishora borligini sezish qiyin emas. Bunday izoh *b(i)l, t(i)nch* so‘zlaridagi undoshlar uchun ham beriladi.Lekin unli tovushlar artikulyatsiyasi to‘g‘risida ma’lumotlarni uchratmaymiz, faqat ularning cho‘zilishi mumkinligi aytiladi, xolos.

Lingvistik tushunchalar tavsifi. So‘z tushunchasiga ta’rif beriladi va unda hozirgi adabiyotlarimizdagi tovush qatori va ma’nodan iborat ekanligiga ishora bor[1]. Asarda yoziladi: “*Bir necha harf birlashib, bir narsani anglatishga so‘z bo‘lur*” [2, 10]. Bu o‘rinda *harf* termini tovush ma’nosida qo‘llangan. Demak bu qayd mazmunan hozirgi qarashlarga ancha yaqin keladi.

Bo‘g‘in tushunchasi. Bu termin qo‘llangan emas, balki bo‘g‘inni so‘z bilan bog‘lagan holda uning bo‘lagi deb tasavvur qilishgan va unda tovushlarning bo‘linmasdan butun bir bo‘lak bo‘lib chiqishi to‘g‘risda fikr boradi. Uni *keldi* so‘zida ikki bo‘lak, *yig‘ishtir* deganda uch bo‘lak mavjudligi aytiladi va birinchisini ikki bo‘lakli so‘z, ikkinchisini uch bo‘lakli so‘z deb yuritadi.

So‘z turkumlari qoidalari tavsifi. Asarda *ism, fe’l, sifat, odot* turkumlari tilga olinadi. Buni o‘sha davr an’anasi deb qarash mumkin. 1913-yilda Mulla Muhammadamin ibn Muhammad Karimxojaning ibtidoiy maktablarning 2-, 3-, 4-sinflari

[1] Бу изоҳнинг илмийлаштирилган варианти ахборот тизимларида давом этмоқда. Улардан бирида сўзга шундай таъриф берилади “В лингвистике исследуется разных его проявлениях, начиная внешной звуковой оболочки (фонетика) и заканчивая его внутренным содержанием (лексическое значение) // Что изучает лексикология. russkiiyazyk.ru/leksika/leksikologiya. htmil

uchun e’lon qilingan “Turkcha qoida” asarida ism, sifat, zamir, odot, fe’l turkumlari keltirilgan [3, 4-10]. Ko‘rinadiki, bizning tahlil obyektimizda faqat zamir (olmosh) yo‘q. Afsuski, uning amaliy yoki nazariy tavsifini bera olmaymiz. Shuni ta’kidlash kerakki, asarda so‘z turkumlariga ta’rif berilgan bo‘lib, deduktiv metod elementlaridan foydalanilgan, lekin ularning xususiyati bir jumla bilan beriladi.

Ism terminidan o‘zbek tilshunosligida keyingi davrlarda ham foydalanildi, lekin bu termini ot, sifat, son, olmoshni umumlashtiruvchi so‘zlar turkumini ifodalash uchun qo‘llandi [4, 74]. Asarda u hozirgi ma’nodagi ot turkumini ifodalash uchun qo‘llangan va “bir narsaning otidir” ifodasi bilan cheklanadi. *Fe’l*ga bergan ta’rifi (*bir ish bilan bir zamonni ham shul ishni(ng) qilg‘uchi kimsani bildiradi*) tahlilga muhtoj. Unda qo‘llangan *ish* so‘zini ish-harakat, *shul ishning qilg‘uchi kimsa* deganda, ehtimol, “ismi foil” shakllarini tushunish mumkindir. Sifatning “bir narsaning biror holini” bildirishi aytiladi. Ko‘rinadiki, bu qayd sifatning asosiy xususiyatini aks ettira olmas edi.

Bu davrda affikslarga nisbatan so‘z deb qarash an’anasi bor edi, shu tufayli ham ushbu asar mualliflari *odot* degan turkumni belgilaydilar va unga har qanday affiksni kiritadilar. Hatto 20-yillar tilshunosligida affikslar barchasi bir turkum sifatida tushuntirilgan. [5, 50]. “Turkcha qoida” asarida ham *odot* turkumi keltirilgan va unga shunday ta’rif keltiriladi: “Odot deb yolg‘iz o‘zidan ma’ni chiqmaydurg‘an kalimalarni aytilur” [2, 7]. Ushbu asarda o‘sha qoida birmuncha rivojlantiriladi va unga “yolg‘uzlikda ma’nosizdek ko‘runub, gapga qo‘shilg‘anda ma’no berar” tarzida shakllantiriladiki, uni takomillashtirish tomon siljigan deb qarash mumkin, lekin gapga qo‘shilishi tushunchasi mantiqiy emasligini ham eslatish lozim.

Singarmonizm. Bu qonun *qolinlik va ingichkalik* deb yuritilgan. U nazariy qoida sifatida emas, ularning imlo qoidasi uchun keltirishadi. Bu qonun uchun asos bo‘ladigan asosiy tamoyil old qator va orqa qator unlilar uyg‘unligi ular uchun ma’lum bo‘lgan, lekin u o‘z davriga va o‘sha davr tilshunoslik an’anasi asosida tushuntirilgan, ya’ni bu qonunni tushuntirishda quyidagi terminlardan foydalanilgan:

Qalin so‘z. Bu *orqa qator unlilar*dan iborat bo‘lgan so‘zni bildiradi.

Ingichka so‘z. U old qator unlilardan iborat bo‘lgan so‘zni anglatgan. Shunga ko‘ra “turkcha so‘zlar qalin yo ingichka bo‘lur” [2, 17] deb izohlashadi.

”Qalin so‘z”:

birinchi bo‘g‘inda orqa qator *ā* unlisi qatnashganda (“birinchi bo‘lagida to‘la ustun qatnashsa”) hosil bo‘lishi aytiladi;

so‘zda q, g‘, x undoshlaridan biri qatnashganda ham orqa qator unlilari uyushishi ko‘rsatiladi.

“Ingichka so‘z”:

birinchi bo‘g‘inda *ä* unlisi kelganda (“birinchi bo‘lagida to‘la ustun[2]”);

birinchi bo‘g‘inda *e, i* unlilari qo‘llanganda (“birinchi bo‘lagida to‘la ostun”);

g, k undoshlari ishtirok etgan co‘zlar *ingichka* bo‘lishi aytiladi.

---

[2] “*Тўла устун*” терминидаги *устун* сўзи *уст* араб ёзувидаги *фатха* билан ифода қилинадиган товушни англатади. *Устун* деганда **ā** ва **ä** унлилари тушунилган. “тўла” сўзидан орқа **ā** унлисини ифодалашда, “ингичка” сўзидан олд қатор **ä** унлисини ифодалашда фойдаланишган.

Bu qaydlar ifoda usulidan qat'i nazar, hozirgi singarmonizm qoidalariga mos keladi [6, 185], lekin, albatta, hozirgi singarmonizm qonuni xususiyatlarini to‘la qamrab olgan degan so‘z emas. Bugungi o‘zbek tilshunosligida ham bu asarda qo‘llangan qalinlik-ingichkalik termini ba'zan uchrab turibdi, lekin u asosiy termin sifatida qo‘llanayotgani yo‘q. Bu qonunning hayotiyligiga jiddiy e'tibor qaratishmagan o‘rinlar ham bor. Jumladan, "Itf sig‘alarining yoziluvi (so‘z shakllarining yozilishi)" sarlavhasi ostidagi -b, -ib, -ub affiksli ravishdoshlarni izohlashda *borib, berib* (transkripsiyada *barïb, berib*) so‘zlaridagi i, ï unlilarini old qator, *yugurub, qo‘shulub* (transkripsiyada *yügürüb, qošulub*) so‘zlaridagi *u, ü* unlilarini ham old qator sifatida izohlaydilarki, bu singarmonizm qonuniga xilof, chunki *borib* so‘zidagi **i** unlisi singarmonizm qonuniga binoan orqa qator, *berib* so‘zidagi **i** esa old qator unli bo‘lib, ular asarda "ingichka ostun" , ya'ni old qator unli deb qaralgan. *Yugurub, qo‘shulub* so‘zlarida ham ravishdosh tarkibidagi u "ingichka utru", ya'ni old qator unli deb tushunilmoqda, balki *yugurub* so‘zidagi u old qator, *qo‘shulub* so‘zidagi u orqa qator ekanligini ta'kidlagan bo‘lar edik. Bu jihatdan avval o‘zlari ta'riflagan singarmonizm qonunini saqlamaganligi ma'lum bo‘ladi.

Asardagi tilshunoslik terminlari tavsifi. Ularni quyidagi toifalarga ajratish mumkin:

1. Hozir ham qo‘llanmoqda bo‘lgan terminlar: *tovush* (tovush harfi birikmasida undoshni ifodalagan), *harf* (ham *harf*, ham *tovush* uchun qo‘llangan), *so‘z* (hozirgi ma'noda qo‘llangan), *ism* (ot turkumini ifoda qilgan), *fe'l, sifat*.

2. Hozir ham ba'zan qo‘llanayotgan terminlar: *qalin* (orqa qator unli.), *qalinlik va ingichkalik* (singarmonizm).

3. Faqat shu davrda, aslida alifbo va "Tajvid" qoidalarida an'anada bo‘lgan terminlar: *surat* (harfning ko‘rinishi), *cho‘zg‘i* (unli)

4. Asar mualliflarining tashabbusi bilan yasalgan terminlar: *tovush harfi* (undosh), *cho‘zg‘i harf* (unli), yot harflar (arab va fors tillaridan o‘zlashgan se, hoye hutti, ayn, zol, itqi, zod, sod, izg‘i, je harflarga nisbatan aytilgan), *ustun* (fathaning tarjimasi, *ust* so‘zi negizida yasalgan), *ostun* (kasraning tarjimasi, *ost* so‘zidan yasalgan), *to‘la ustun* (orqa qator *o* unlisi), *ingichka ustun* (old qator *a* unlisi), *utru cho‘zg‘isi* (utru harakatiga mos keladigan old qator *ü* va orqa qator *u* unlisi) , to‘la utru (orqa qator *u* unlisi), ingichka utru (old qator *ü* unlisi), ostun cho‘zg‘isi (orqa qator ï unlisi), ingichka ostun (old qator *i* unlisi), tutash-uzuk harflar (qo‘shib va ayirib yoziladigan harflar), so‘z bo‘lagi (bo‘g‘in), so‘zlarning o‘zgarishlari (fonetik jarayonlar).

Imlo qoidalari tavsifi. Qo‘shib va ayirib yozish. Arab grafikasidagi imlo qoidalari aynan beriladi, ya'ni munfasil va muttasil harflarning yozilishi to‘g‘risida gap boradi [7, 4].

Bo‘g‘in ko‘chirish qoidasi berilgan. Afsuski, bo‘g‘in strukturasi to‘g‘risidagi fikrlashlari o‘z davri uchun ham ilmiy qarashlardan yiroqdir. Ular bo‘g‘inning bir harf (bir undosh tovush), bir cho‘zg‘i harf (bir unli tovush), cho‘zg‘isiz ikki harf (ikki undosh), cho‘zg‘isiz uch harf (uch undosh) tuzilishiga aynan transliteratsiyada *b-la-man, bl-dm, t-n-ch* misollarini keltiradilar. Asar mualliflari so‘zlarni yozishda isloh qilingan alifbodan foydalanganlar, ya'ni so‘zdagi unlilar uchun harflar tanlangan, shuni hisobga oladigan bo‘lsak, so‘z bo‘g‘inlarini (ularning terminida *bo‘lak*larini) belgilashlari fonetik tamoyillarga muvofiq kelmaydi. Bu davrdagi til saboqliklarida ham [8, 65] shunday yo‘l

tutilishi arab yozuvining konsonant yozuv [9, 190] ekanligi an’anasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bo‘g‘in ko‘chirishda boshqa o‘rinlariga qaraganda ham juda primitiv yo‘ldan boradi. Bu “*bir yo‘lning so‘nginda bir so‘zning yarmisi sig‘orliq o‘rin qolsa, so‘zni bo‘laklarga ayirib, bir-iki bo‘lagini yozmoq va qolg‘anini ikinchi yo‘lg‘a ko‘chirmoq kerak*” tarzida bayon qilinadi. Bu jumladagi “*bir-iki bo‘lagini yozmoq*” birikmasidagi “*bir bo‘lagi*” tushunchasi noaniq va nazariy jihatdan o‘ylanmaganligi ma’lum bo‘ladi, ya’ni ularning tushunchasida *b-la-man* so‘zidagi bir bo‘g‘inni *b* tashkil etadi, lekin arab yozuvida bu bo‘g‘in hech qachon ajratilmagan va keyingi satrga ko‘chirilmagan, hatto bu yozuvda bo‘g‘in ko‘chirish qoidasi ishlamagan.

Bo‘g‘in(*bo‘lak*)ni belgilashda grafik belgi asos qilib olinganligi uchun *o‘g‘ul* so‘zida *o‘* uchun olingan ﺆ belgilaridan birinchisi undosh (tovush harfi) ikkinchisi unli (cho‘zg‘i) tarzida tushuntiriladi. Lekin *o‘g‘ul, ko‘ngul, o‘rin* so‘zlaridagi ikkinchi bo‘g‘inda unlining eliziyaga uchrashi ularga ma’lum bo‘lgan, faqat *o‘qutuchi* so‘zining *o‘qtuvchi* shaklida tavsiya etilishi yuqoridagi qoidaga mos tushmasligini ta’kidlagan bo‘lar edik.

Shuningdek, bu yo‘riqnomada singarmonizm bilan bog‘liq imlo qoidalari, q, k harflarining yozilishi, otlarning qo‘shib yozilishi, arabcha so‘zlar imlosi to‘g‘risida ham fikr yuritiladiki, ular to‘g‘risida boshqa ishda tahlili amalga oshiriladi.

Xulosa. “Bitim yo‘llari” yo‘riqnomasi “Chig‘atoy gurungi”ning imlo sohasidagi asosiy yo‘nalishlarini aks ettirgan. Bu asar bilan “Chig‘atoy gurungi”chilar undagi e’tirozga sabab bo‘ladigan o‘rinlarni hisobga olmaganda, tashabbusli ishni amalga oshirganligini ta’kidlash joiz bo‘ladi. Albatta, bu asar keyingi davrda shu mazmundagi asrlarning yuzaga kelishiga zamin yaratdi. Uning namunasi sifatida Elbekning “Yozuv yo‘llari” yo‘riqnomasini ko‘rsatish mumkin. Bu ikki asar qiyosiy o‘rganilishi o‘sha davr imlosining munozarali masalalarini hal qilish uchun iomiy-metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Faydalanilgan adabiyotlar:

1. Нормаматов С. Ўзбек луғатчилигининг шаклланиши ва ривожида жадид маърифатпарварларининг ўрни. Филология фанлари доктори (DSc) автореф. – Тошкент, 2019. – Б. 68.
2. Битим йўллари (араб ёзувида), 1919.
3. Мулла Муҳаммадамин ибн Муҳаммад, Каримхожа. Туркча қоида. – Тошкент, 1913. – Б. 4, 5, 6, 10.
4. Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008.
5. Қодиров Қ. Ўзбек тили морфологик тизимининг ўрганилиш тарихидан: Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2006. – Б. 50.
6. Решетов В.В., Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1962. – Б. 185.
7. Аширбоев С. Азимов И. Ввa бошқ. Эски ўзбек ёзуви практикуми. – Тошкент: Ижод, 2006. – Б.
8. М.Қори, Қ. Рамазон, Ш. Зуннун. Тил сабоқлиғи, - Тошкент: Ўздавнашр, 1925. – Б. 65.

9. Реформатский А.А. Введание в языкознание. – Москва: Аспент Пресс, 1996.

O‘ZLASHMA SO‘ZLAR IMLOSINI BELGILASH MUAMMOLARIGA DOIR

Bahriddinova Bashorat,
filologiya fanlari doktori, professor,
QarDU O‘zbek tilshunosligi mudiri
Xidirova Gavhar,
Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada muallif o‘zlashma so‘zlar imlosini belgilashga doir muammolar ustida fikr yuritar ekan, so‘z o‘zlashtirishning ikki mezoni: o‘zlashtirilayotgan tilning fonetik xususiyatlari, millatning nutq apparati fiziologiyasidan kelib chiqib so‘zni moslashtirib olish va aynan, asliga muvofiq olish haqida gapiradi. Shuningdek, ayrim so‘zlar imlosiga doir takliflarini ilgari suradi.

Kalit so‘zlar: so‘z o‘zlashtirish, imlo muammosi, imlo qoidalari, imlo lug‘ati.

Tilning to‘g‘riligi, me’yoriyligi masalasi barcha sivilizatsiyalarda til sohiblari, millat jonkuyarlari, ziyolilar, qolaversa, hukumatning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Tilning paydo bo‘lish tarixi noma’lum, u ijtimoiy ehtiyoj tufayli qachonlardir, qanchadir vaqtda shakllangan va tabiiy ravishda taraqqiy etgan. Yozuv esa ancha keyin – kishilik jamiyatining takomili, insonning bevosita ongli munosabati bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan.

Ma’lumki, har bir tilning grammatik qurilishi ma’lum me’yorga, qonun-qoidaga ega bo‘lib, bu shu tilda so‘zlashuvchi kishilarning ijtimoiy ruhiyati bilan belgilanadi. Shu boisdan nazariy tilshunoslik asoschisi V.Humboldt bundan qariyb ikki asr ilgari “Har qaysi tilning o‘z sistemasi bo‘lib, tilni tadqiq qilishni shundan boshlash kerak”, - degan edi. Ayni paytda yozma savodxonlik, til madaniyatiga putur yetkizayotgan asosiy omillardan biri ikki yozuv sharoitida kirill va lotin yozuvlariga xos orfografik qoidalarning bir-biri bilan aralashib ketishi bilan bog‘liq. Amaldagi yozuvlarning o‘ziga xos tabiati va imloviy me’yorlari mavjud, ular bir-biriga to‘la mos tushmaydi. Imloga doir asosiy muammolar o‘zlashma so‘zlarning yozilishi doirasida kuzatilmoqda. Joriy imlo qoidalari bo‘yicha yozilishida muammo yuzaga kelayotgan aksariyat so‘zlar asli lotincha bo‘lib, rus orfografiyasi prinsiplari asosida yozilgan, o‘zbek tiliga to‘g‘ridan to‘g‘ri emas, rus tili orqali o‘zlashgan. Ikki undosh o‘rtasida y orttiriladigan so‘zlarni yozishda bir prinsip asosida yondashib bo‘lmaydi. Bu so‘zlarning aksariyati lotincha bo‘lib *y* siz yozilgan: *alumen aluminis*. Inglizcha lug‘atda *aluminium*. Ruslarda *алюминий*. O‘zbek tilida aluminiy shaklini tanlagan ma’qul. Ba’zi so‘zlarni yozishda talaffuzga ham qarash kerak. Ba’zan u ni tushirish so‘z etimologiyasiga ta’sir etishi ham mumkin: *avantyurizm – авантуризм*.

Odatda, so‘z o‘zlashtirishda ikkita mezonga tayaniladi:

1. O‘zlashtirilayotgan tilning fonetik xususiyatlari, millatning nutq apparati fiziologiyasidan kelib chiqib so‘zni moslashtirib olish. Ijobiy tomoni: talaffuz uchun

qulay bo‘ladi, so‘zning xalq tiliga singishi osonlashadi. Salbiy tomoni: so‘z asl manbasidan uzoqlashib, etimologiyasi yo‘qoladi.

So‘zni bu shaklda o‘zlashtirish, bir tomondan, milliy mentalitetga ham bog‘liq. Aniqroq qilib aytganda, boshqa millat so‘ziga nisbatan bepisandlik, uni aynan talaffuz etish uchun nutq a’zolarini majburlamaslik va yozuvda ham talaffuzga tayanish ba’zi tillarda so‘z o‘zlashtirishda bosh mezon hisoblanadi.

2. Aynan, asliga muvofiq olish. Ijobiy tomoni: so‘zning etimologiyasi saqlanadi, qaysi tildan o‘zlashganligi aniq bo‘ladi. Salbiy tomoni: talaffuz va yozuvda bir xillik bo‘lmaydi.

So‘z o‘zlashtirishda shakliy yozuv tamoyiliga amal qilish millatning madaniy saviyasini ko‘rsatib turadi. O‘zbek xalqi bu borada boy amaliy tajribaga ega. Arab va fors-tojik tillaridagi son-sanoqsiz so‘zlardan o‘z ijodida foydalanar ekan, buyuk mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiy, asosan, so‘zning asl shaklini buzmay olishga harakat qilgan. Bu buyuk shoirning nafaqat yuqori darajadagi madaniy, ma’naviy saviyasi, balki siyosiy arbob sifatida shu so‘z mansub tilga va u orqali o‘sha millatga bo‘lgan hurmati nishonasi ham edi. Bugungi kunda o‘zbeklarning ayrim turkiy xalqlardan farqlanib ko‘pgina arabiy va forsiy o‘zlashmalarni asliga muvofiq yozishiga Alisher Navoiy asarlari turtki bo‘lgan desak, yanglishmaymiz. Talaffuzda biroz (*fikr, qahr, sabr, muallim, ta’na, bid’at, saodat; daraxt, baxt, taxt, go‘sht va hk*.) noqulaylik bo‘lsa-da, xalq o‘tgan davr mobaynida bu so‘zlarning imlosini o‘zlashtirdi, yozuvda bu bilan bog‘liq xatolik ko‘p uchramaydi.

Nutq apparati insoniyatning barchasida bir xil. Biroq turli millatlarda bu a’zolarning faolligi turlicha. Masalan, qaysidir tilda lab, qaysi birida tanglay harakati faollashgan, ba’zi tillarda esa urg‘uning roli kuchli bo‘ladi. Shunga ko‘ra bir tilga mansub so‘zni boshqa til vakillari aynan talaffuz qilishda qiynaladi. So‘z shaklini talaffuzga moslash hech narsani o‘zgartirmaydi. O‘zlashma so‘z – o‘zlashma so‘z. Uni o‘zimizniki qilishga urinish o‘rinsiz. So‘zning o‘zlashmaligi undan foydalanishda, yangi so‘zlar yasashda muammo keltirib chiqarmaydi. Imloda qaysi shakli ma’qul ko‘rilsa, xalq shu shaklni qabul qiladi va yozishga odatlanadi. Masalan, yozilishi xalq jonli talaffuziga yaqinlashtirib olingan ruscha *chorizm* (*sarizm*), *chor Rossiyasi (sarskaya Rossiya), pudratchi (podryadchik*) kabi so‘zlar o‘zbekcha so‘zga aylandimi? Uni ruslar ham o‘ziniki demaydi; so‘zning etimologiyasi yo‘qoldi xolos.

Talaffuz va yozuv hatto o‘z qatlam so‘zlarida ham har doim mos tushavermaydi: *ketdi – ketti, yuzsiz – yussiz, bog‘ga – boqqa, sig‘gan – siqqan* va hk. Umuman, o‘zbek tilida to‘g‘ri talaffuz me’yorlari deyarli o‘rganilmagan. Boshlang‘ich sinf ona tili darsliklari ko‘r-ko‘rona yodlatiladigan grammatik qoidalardan batamom xoli qilinib, o‘quvchining so‘z zaxirasini boyitish, to‘g‘ri yozish va to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatishga xizmat qilsa, bu boradagi muammolarga barham berish harakati ertaroq boshlangan bo‘ladi.

O‘zbek tilining imlo qoidalari tasdiqlangandan so‘ng nashr qilingan imlo lug‘atlarida (1, 2, 3) nutqimizda faol ishlatiladigan ko‘pgina o‘zlashma so‘zlarning imlosi belgilangan bo‘lib, ular lug‘at boshida berilgan imlo qoidalariga mos edi. Ayrim so‘zlar imlosi talaffuz uchun erish tuyulsa-da (октябрь/oktabr, тюлень/tulen, шляпа/shlapa, этюд/etud, пляж/plaj, дюйм/duym), o‘tgan davr mobaynida mazkur lug‘at asosida

yaratilgan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, ommaviy axborot vositalari sabab xalq shu shaklga moslasha boshlagan edi. Mazkur lug‘at ayrim kamchiliklardan xoli bo‘lmasa ham, imloda asosiy muammo keltirib chiqarayotgan tarkibida *е, ё, ю, я* grafemalari ishtirok etgan so‘zlar imlosini belgilashda xalq jonli talaffuzini inobatga olgan holda bitta prinsipdan kelib chiqib yondashmagan edi. Masalan, byuro, byurokrat, byust, gravyura, dvoryan, kompyuter, plyonka so‘zlari va glukoza, aluminiy, rukzak, illuziya, sujet, parashut, agglutinativ so‘zlari imlosini belgilashda bir xil qoidaga asoslanilmaydi. Shuningdek, tarkibida s harfi bo‘lgan so‘zlar imlosini berishda ham talaffuz (fonetik yozuv) va asliga tayanishda (shakliy yozuv) muvozanat saqlangan edi: litsey, aksiya, antisiklon kabi. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, keyingi imlo lug‘atlarida “Imlo qoidalari”ga qo‘shimcha izohning berilishi (4) tarkibida ц harfi bo‘lgan so‘zlarni yozishda bir prinsipga tayanishga olib keldi va jonli talaffuz hamda imlo o‘rtasida nomuvofiqlikni yuzaga keltirdi: публицистик – publitsistik, процессуал – protsessual, полицмейстер – politsmeyster, плацкарта – platskarta, пацифизм – patsifizm, лейкоцит – leykotsit, классицизм – klassitsizm, коэффициент – koeffitsent, фармацевтика – farmatsevtika, эритроцит – eritrotsit, процент – protsent, процессор – protsessor, ациклик – atsiklik, ацетон – atseton, бициклик – bitsiklik, бицилиндр – bitsilindr va hk. Abssess, abssissa, ssenariy, ssintigramma, ssuda, krossbriding, krossvord kabi so‘zlarning yozilishi ham talaffuzga mos emas. Hatto rus orfografiyasida ham s va ц harfli so‘zlarni yozishda qat’iy bir prinsipga tayanilmaydi. Aslida, yozilishida muammo yuzaga kelayotgan aksariyat so‘zlar asli lotincha bo‘lib, rus orfografiyasi prinsiplari asosida yozilgan, o‘zbek tiliga to‘g‘ridan to‘g‘ri emas rus tili orqali o‘zlashgan. Masalan: lotinchada alumen, ingliz tilida aluminium, rus tilida alyuminiy. Bunday holatda, bizningcha, umumiy bitta prinsipdan kelib chiqib emas, har bir so‘zning imlosiga individual yondashish maqsadga muvofiq.

2013-yilda “Akademnashr”da chop etilgan “O‘zbek tilining imlo lug‘ati” shu vaqtga qadar yaratilgan imlo lug‘atlaridan so‘zlikning boyligi, imlosi munozarali bo‘lganligi sababli boshqa lug‘atlarda chetlab o‘tib kelinayotgan so‘zlarni, shuningdek, so‘nggi yillarda kirib kelgan yangi so‘zlar, atamalarni ham qamrab olganligi bilan ahamiyatli. (5) Ammo taniqli olim Nusratullo Jumaxo‘ja o‘rinli ta’kidlab o‘tganidek, hanuz “...mavjud imlo qoidalariga asoslangan, tegishli davlat idoralari tomonidan tasdiqlangan birorta rasmiy, mukammal imlo lug‘atiga ega emasmiz”. Uning “Afsuski, keyingi davr lug‘atchiligida boshboshdoqlik yuzaga keldi. R.Jomonov tilga olgan boshqa lug‘atlar bilan birga 2013-yili chop etilgan “O‘zbek tilining imlo lug‘ati”ni ham yangi, rasmiy lug‘at sifatida qabul qilib bo‘lmaydi. Unda yuzlab xato va tushunmovchiliklar bor” (6) deyishida jon bor. Lug‘atda ko‘pgina so‘zlar, xususan, tarkibida е, ю, ё, я harflari va ц tovushi bo‘lgan so‘zlar imlosini belgilashda qat’iy bir prinsip asosida yondashilishi bahs-munozaralarga sabab bo‘ldi. Unda bugungi o‘zbek rasmiy tilida deyarli ishlatilmaydigan, iste’molda bo‘lmagan so‘zlar ko‘p uchraydi. O‘zbek tilining aggyutinativ tabiati imlo lug‘atida so‘zning faqat asosiy shaklini qamrab olish imkonini beradi. Masalan, fe’lning nisbat shakllari, sifatdosh ravishdosh, harakat nomi kabi vazifa shakllarini, otning ko‘plik, kichraytirish shakllarini lug‘atda berishga ehtiyoj yo‘q. Qo‘shimcha qo‘shilish jarayonida yuz berishi mumkin bo‘lgan ayrim tovush o‘zgarishlari imlo qoidalarida aks etgan. Ichki fleksiyaga asoslangan tillar, jumladan, rus, arab tillarida so‘zning grammatik

shakllari imlosi ham lug‘atda berilishi asosli. Shuningdek, *abjir – abjirlik, abituriyent / abituriyentlik, aktrisa / aktrisalik* kabi so‘zlarda ikkinchi so‘z imlosini berishga ham u qadar ehtiyoj yo‘q. Bu lug‘atdagi so‘zlar hajmini ko‘paytirish xolos. To‘g‘ri, *-li* va *-lik* qo‘shimchalarining ayrim so‘zlarga qo‘shilishi bilan bog‘liq muammolar mavjud. Masalan, *paltoli – paltolik, bolali – bolalik, otali – otalik* juftliklarining har ikkisi tilimizda mavjud bo‘lgani holda *shaharli – shaharlik, aytarli – aytarlik, guruchli – guruchlik* so‘zlari imlosida ikkilanishlar uchraydi. Ammo ular ko‘pchilikni tashkil etmaydi. Qolaversa, lug‘atda sifat yasovchi *-li* va ot yasovchi *-lik* qo‘shimchalarini farqlash bilan bog‘liq munozarali o‘rinlar ham mavjud: *besh tonnalik, beshpullik, besh xollik, bir ko‘zlik* va hk.

Ko‘rinib turibdiki, bugungi imlo bilan bog‘liq muammolarni tartibga solish mutasaddilardan, avvalo, o‘zlashma so‘zlar imlosi xususida bir to‘xtamga kelishni talab etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ҳожиев А.П, Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг имло луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
2. Панасенко Э.Д., Умаров Э. Ўзбек тилининг имло луғати. –Тошкент: “Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси”, 1998.
3. Тоғаев Т., Тавалдиева Г., Акромова М. Ўзбек тилининг кирилл ва лотин алифболаридаги имло луғати. –Тошкент: Шарқ, 1999.
4. Ўзбек тилининг имло луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 2011.
5. Begmatov E.A., Madvaliyev A.P. O‘zbek tilining imlo lug‘ati (85000 so‘z) / Professor N.Mahmudov tahriri ostida. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – B. 528.
6. Нусратулло Жумахўжа. Имло барқарорлиги – саводхонлик омили. Маърифат, 2015 йил 22 август, 67-сон.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TIL SIYOSATI VA LISONIY MUHITIDA BAG‘RIKENGLIK HAMDA MILLATPARVARLIK

Uluqov Nosirjon,
filologiya fanlari doktori, professor,
Namangan davlat universiteti,
onomastika66@mail

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi til siyosatining bag‘rikenglik va millatparvarlik tamoyillari va uning amaliyoti masalalari sotsiolingvistik tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: til, til siyosati, milliy til, davlat tili, lisoniy muhit, millatlararo til, ta’lim tili.

O‘zbek tili tarixiga nazar solsak, yarim asrdan oshiq (1938-1989-yillar) davr mobaynida tilimiz mafkuraviy, siyosiy, ma’muriy jihatdan ulkan tazyiq ostida yashadi. Sobiq SSSR Xalq Komissarlari Soveti va VKP(b) MKning 1938-yil 13-fevraldagi “Rus tilini milliy respublikalarda majburan o‘qitish to‘g‘risida” qarori chiqqandan so‘ng sho‘ro

mamlakatida keng miqyosda ruslashtirish siyosati amalga oshirildi, boshqa milliy tillar qatori o‘zbek tili ijtimoiy hayotning asosiy sohalaridan asta-sekin chiqarildi [2:421].

O‘zbekistonimizda istiqlol ona tiliga davlat maqomini berish bilan boshlandi. Davlat tili ma’lum davlatning siyosiy-ijtimoiy va madaniy doirasida faol qo‘llanuvchi, shu davlatning ramziy belgilaridan biri hisoblanuvchi tildir. Davlat tili tegishli davlatdagi umumiy rasmiy til.

Davlat tili odatda uch yo‘l bilan belgilanadi:

1) tarixiy an’analar asosida davlat hududida istiqomat qiluvchi barcha xapqlarni mavjud tillaridan birini umumtil sifatida tan olinishi asosida;

2) hukumat, prezident, parlament yoki rahbar organlari tomonidan xalqaro yoki jahon tillaridan birini davlatning rasmiy tili deb e’lon qilinishi asosida;

3) davlatning qonun chiqaruvchi organi yoki mamlakat prezidenti tomonidan ma’lum tilning jamiyat hayotining barcha sohaparida qo‘llanilishi shart deb e’lon qilinishi asosida[2:82].

O‘zbek xalqining asriy orzu-istaklari, xohish-irodasi, takliflari va mustaqillik, istiqlol sari ilk qadamlari ifodasi sifatida 1989-yil 21-oktabrda XI chaqiriq O‘zbekiston Oliy Kengashining o‘n birinchi sessiyasida O‘zbekiston Respubpikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilindi. Albatta, aholisining 72 foizi o‘zbek, 85 foizi o‘zbek tilini biladigan fuqarolardan iborat Respublika uchun bu tabiiy bir hol edi.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng xalqimiz ma’naviy hayotidagi boshqa ko‘plab muammolar qatori til masalasi ham kun tartibidagi dolzarb vazifaga aylandi. Ayniqsa, ona tilimizning xalqaro maydondagi obro‘-e’tibori va nufuzini yuksaltirish, mamlakatimizning jahon kommunikatsiya tizimiga integratsiyalashuvini ta’minlash, farzandlarimiz uchun chet tillar, axborot texnologiyalarini har tomonlama puxta egallash borasida qulay imkoniyatlar yaratish kabi bir-biridan muhim vazifalar bu masalani kechiktirmasdan hal qilishni talab etar edi. Shu bois O‘zbekiston hukumati tomonidan til siyosatiga istiqlol siyosatining uzviy bir qismi sifatida qaraldi.

1995-yil 21-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni yangi tahrirda qabul qilindi. Mazkur o‘zaro izchillikka, bog‘liqlikka asoslangan 24 moddadan iborat Qonun o‘zbek xalqining milliy va ona tilisi bo‘lgan o‘zbek tilining huhuqiy asosi hisoblanadi [1].

1992-yil 7-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o‘zbek tilining maqomi huquqiy jihatdan aniq belgilab berildi. Ijtimoiy-siyosiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy hayotda ona tilimizning mavqei tiklandi. O‘zbek tili mustaqil O‘zbekistonimizning bayrog‘i, gerbi, madhiyasi, konstitutsiyasi qatorida turadigan muqaddas timsollaridan biriga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinishi natijasida o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyotida yangi davr boshlandi. Ijtimoiy-siyosiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy hayotda ona tilimizning mavqei tiklandi. O‘zbek tili davlat tili maqomini oldi. Davlat tili ma’lum davlatning siyosiy-ijtimoiy va madaniy doirasida faol qo‘llanuvchi, shu davlatning ramziy belgilaridan biri hisoblanuvchi tildir. Davlat tili tegishli davlatdagi umumiy rasmiy til.

Shundan beri o‘tgan sapkam o‘ttiz yil davomida tilimiz taraqqiyoti va ravnaqi borasida salmoqli yutuqlarga erishildi. Ijtimoiy-siyosiy, madaniy, ilmiy doirada o‘zbek tilining mavqeyi ortdi, tiklandi, qo‘llanish doirasi kengaydi.

Bu davrda o‘zbek tilini o‘qitishga e’tibor kuchaydi, dars soatlari ko‘paydi, yangi zamonaviy andozalarga mos tarzda umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun yangi ona tili darsliklari va o‘quv lug‘atlari avlodi yaratildi. O‘zbek tili dunyoda rivojlangan va takomilga erishgan tillar qatoridan o‘rin oldi.

Birgina dalil: 2014-yil oxirida Google tarjima xizmatiga o‘zbek tili qo‘shildi. Endi ushbu xizmat orqali o‘zbek tilidan boshqa tillarga va boshqa tillardan o‘zbek tiliga tarjima qilish imkoniyati mavjud.

Hozirda Google tarjima xizmati tillari ro‘yxatidagi 90 ta til orasada o‘zbek, tojik va qozoq tillarini ham ko‘rish mumkin. Bugina emas, o‘zbek tili “Yandeks” tarjima xizmatiga ham qo‘shildi. “Yandeks. Tarjima” matnlar va veb-sahifalarni avtomatik ravishda tarjima qilish xizmati endi o‘zbek tilidan boshqa tillarga va boshqa tillardan o‘zbek tiliga tarjima qiladi.

O‘zbek tili O‘zbekiston Respublikasining davlat tili sifatida e’tirof etilar ekan, hududdagi tillarning faoliyat ko‘rsatishi, rivojlanishi va boshqa millat vakilarining o‘z ona tillarida erkin aloqa qilishlari uchun aslo monelik qilmaydi.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonunining 24 moddasidan beshtasida boshqa milpat va elat vakillari tillarining erkin amap qilishi himoya qilinadi. Bu qonunni boshqa millatlarni hurmat qilish, kamsitmaslik, aniqrog‘i, millatparvarlik, xalqparvarlik, erkinlik tamoyillariga asoslanganligini ko‘rsatadi [1].

“Davlat tili haqida”gi Qonunining 4-moddasida: “O‘zbekiston Respublikasida davlat tilini o‘rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo‘lish ta’minlanadi, bu tillarning rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi.

Fuqarolarga davlat tilini o‘qitish bepul amalga oshiriladi”, – deb ko‘rsatilgan[1:6].

Demak, Qonunga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasida barcha millatlar va elatlarning tillariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish belgilangan hamda ta’minlangan.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonunining 5-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida davlat tilida faoliyat ko‘rsatadigan, milliy guruhlar zich yashaydigan joylarda ularning tillarida faoliyat ko‘rsatadigan maktabgacha tarbiya muassasalarini tashkil etilishi qayd etilgan [1:7].

Qonunning 6-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta’lim olish tilini erkin tanlash huquqi beriladi.

O‘zbekiston Respublikasining davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda ham umumiy, o‘rta maxsus va oliy ma’lumot olish mumkin.

Qonunning yuqoridagi moddalari mamlakatimiz milliy siyosatining bosh tamoyiliga asoslangan bo‘lib, fuqarolarga ta’lim tilini erkin tanlash huquqini berish barobarida ta’lim to‘g‘risidagi konstituttsiyaviy me’yorning rivojpanishiga asos bo‘ldi.

So‘nggi ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda 139 millat vakillari istiqomat qiladi. Hozirgi kunda o‘zbeklar O‘zbekiston aholisining deyarli 4/5 qismini tashkil qiladi. Shuningdek, aholining 4,0 foizini ruslar, deyarli 5 foizini tojiklar, 4,5 foizini qozoqpar, 1,8 foizini tatarlar tashkil qiladi [2:229]. Demokratik O‘zbekistonda aholining

ko‘pmillatlilik darajasi yanada o‘smoqtsa. Shularni e’tiborga olgan holda, “Yuksak bilimli intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi xalqaro konferentsiyada ta’kidlanganidek, O‘zbekiston Respublikasida maktab ta’limi 7 ta: o‘zbek, qoraqappoq, rus, qozoq, qirg‘iz, turkman va tojik tillarida olib borilmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda rus, qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman tillarida ta’lim beradigan 1906 ta maktab mavjud bo‘lib, ularda 725 ming nafar o‘quvchi ta’lim oladi.

Respublikamizdagi bir qator oliy o‘quv yurtlarida, jumladan, Andijon davlat universitetida qirg‘iz tili va adabiyoti, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti va Guliston davlat universitetlarida qozoq tili va adabiyoti, Qoraqalpoq davlat universitetida qoraqalpoq filologiyasi, qozoq filologiyasi, turkman filologiyasi bo‘yicha mutaxassislar ham tayyorlanmoqtsa.

Bunday demokratiya, bag‘rikenglik, millatparvarlik va xalqparvarlik boshqa biror davlatda kuzatilmaydi. Bu ham O‘zbekiston Respublikasining til siyosati va “Davlat tili haqida”gi Qonuni mazmun-mohiyatiga O‘zbekiston o‘zbeklarnikigina emas, balki O‘zbekistonda yashayotgan barchaniki degan davlat siyosatining singdirilganligini ko‘rsatadi.

Demak, yurtimiz tinchligi, osoyishtaligi yo‘lida barcha xapq vakillarining bu yurtni o‘z bosh chiqarib hamjihatlik bilan mehnat qilishlari uchun respublikamizning boshqa qonunlari kabi “Davlat tili haqida”gi Qonunida ham puxta zamin yaratilgan.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, o‘zbek tili O‘zbekistonda istiqomat qiluvchi turkiyzabon fuqarolar va qisman, tojiklar uchun millatlararo til bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu, albatta, o‘zbek tilining kelajagi va buyuk istiqbolidan dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдумажидов Ф. “Ўзбекистон Республикасининг давлат тили ҳақида” ги қонунига шарҳлар. – Тошкент: Адолат, 1999.

2. Абдуллаев М., Абдуллаева М., Абдуллаева Ф., Абдураззоқова Г. ва бошқа. Мустақиллик: илмий-оммабоп луғат. – Тошкент: Шарқ, 2006.

IMLO QOIDASI – ADABIY TIL FOYDASI

Ravshan Jomonov,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

Annotatsiya. Imlo qoidalari adabiy tilni shakllantiradigan, uning rivojini ta’minlaydigan asosiy omillardan biri. O‘zbek tili tarixida bir necha marta imlo qoidalari tasdiqlangan. 1995-yilda tasdiqlangan imlo qoidalarida o‘zlashtirilgan so‘zlar imlosi yetarlicha ishlanmagan. Natijada hozirgi paytda imlo lug‘atlarida ma’lum bir so‘z bir necha shakllarda berilmoqda. Bu esa ta’lim-tarbiya jarayonida, umuman, til amaliyotida qator qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Imlo qoidalarini takomillashtirish va tezda rasmiy tasdiqdan o‘tkazib, yozuv amaliyotiga zudlik bilan joriy etish zarur.

Kalit so‘zlar: yozuv amaliyoti, imlo, imlo qoidalari, imlo lug‘atlari, o‘zlashtirilgan so‘zlar imlosi, “yolashgan unlilar” imlosi, s harfli so‘zlar imlosi, ayirish va yumshatish belgili so‘zlar imlosi.

Har qanday adabiy tilning rivojini ta’minlaydigan, uni takomillashuviga xizmat qiladigan asosiy omillardan biri – imlo qoidalaridir. Shu sababli ham ma’lum bir alifbo tizimiga asoslangan imlo qoidalari yaratiladi, yuqori idoralar tomonidan tasdiqlanib, yozuv amaliyotiga joriy qilinadi. Jumladan, o‘zbek tili tarixida 1921, 1923, 1929, 1934, 1940, 1956 va 1995-yillarda imlo qoidalari tasdiqlangan [3]. Shulardan 1921 va 1923-yillardagi qoidalar arab yozuviga asoslangan bo‘lsa, 1929, 1934-yillardagisi lotin yozuviga, 1940 va 1956-yillardagisi esa kirill yozuviga asoslangan edi. 1993-yil 2-sentabrda O‘zbekiston Respublikasining “Lotin yozuviga asoslangan lotin alifbosini joriy etish to‘g‘risi”gi qonuni joriy qilinishi munosabati bilan yangi imlo qoidalariga zarurat tug‘ildi va 1995-yil 24-avgustda “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari” tasdiqlandi. Biz hozirga qadar lotincha yozishmalarda ayni shu qoidalardan foydalanamiz.

Mazkur imlo qoidalari asosida bir necha imlo lug‘atlari tayyorlandi, darslik va o‘quv qo‘llanmalar, minglab nomdagi badiiy adabiyotlar nashr etildi, qisqasi, respublikamizdagi ta’lim tizimi va ko‘pgina ommaviy axborot vositalarida lotin yozuvi to‘liq qo‘llana boshladi. Bularning hammasi quvonarli hol, albatta. Lekin... Yozuv amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, hozirga qadar bosib chiqqan adabiyotlarda, umuman olganda, lotin yozuvidagi barcha yozishmalarda imlo qoidalariga qat’iy rioya qilinyapti deb bo‘lmaydi. Ayniqsa, rus tili va rus tili orqali Yevropa tillaridan o‘zlashtirilayotgan so‘zlarda bir xillik, ya’ni yozuvdagi izchillik yetishmaydi. Buning yorqin dalili *сентябрь* so‘zining ikki xil: *sentabr* va *sentyabr* shakllarida berilayotganidir. Xo‘sh, bu nimadan dalolat beradi? Bizda hozirga qadar imlo masalalariga jiddiy e’tibor qaratilmadi. To‘g‘rirog‘i, o‘z holiga tashlab qo‘yildi, kim qaysi variantni ma’qul ko‘rsa, o‘sha variantni qo‘llaydigan bo‘ldi. Vaholanki, talaffuzda ma’lum ma’noda erkinlik bo‘lishi mumkin, ammo yozuvda erkinlikka yo‘l qo‘yish aslo mumkin emas.

Bizningcha, bunday holatlar yuzaga kelishining bir qator sabablari bor. Birinchidan, nashr etilgan imlo lug‘atlarida berilgan so‘zlar – orfogrammalar chuqur asoslangan bo‘lishi lozim. Masalan, *сентябрь* so‘zi 1995-yilda nashr etilgan “O‘zbek tilining imlo lug‘ati”da *sentabr* shaklida berilgan bo‘lsa, 2013-yilgi imlo lug‘atida *sentyabr* tarzida tavsiya etildi [1: 364]. Endi mana shu ikki orfogrammadan qaysi birini to‘g‘ri deb hisoblash mumkin? To‘g‘ri variantni belgilashda imloning qaysi prinsipi (tamoyili)ga amal qilinadi? Bunday hollarda yozuv amaliyotida qanday yo‘l tutiladi?

Ko‘rinadiki, savollar talaygina, biroq aniq va konkret bir javob yo‘q. Nazarimizda, 1995 yilda tavsiya qilingan variant - *sentabr* shakli xalq jonli talaffuziga yaqin bo‘lib, to‘g‘ri orfogramma tavsiya qilingan edi. Chunki oddiy xalq vakillari hozir ham [sentabr], [o‘ktabr] tarzida aytib, o‘zbek tilining milliy tabiatini saqlab qoladilar. 2013-yildagi imlo lug‘ati tuzuvchilari esa butunlay boshqacha yo‘l tutadilar. Mana ularning asoslari: “Qo‘lingizdagi lug‘atning tuzuvchilari ... institutning yetakchi tilshunoslari bilan maslahatlashgan holda, rus tili orqali kirib kelgan va tarkibida ё, ю, я harflari bo‘lgan ruscha va baynalmilal so‘zlarni yangi imloda barcha o‘rinlarda bir xil, ya’ni *yo, yu, ya*

harflari bilan yozishni va shu orqali bu sohadagi harxillikni bartaraf etishni eng maqbul yo‘l deb hisoblaydilar va ushbu lug‘atda shunday yo‘l tutdilar ham”[1:18]. 2013-yilgi lug‘at tavsiya qilgan variant – *sentyabr* shaklining qanday afzalliklari bor?

Nazarimizda, uning yagona afzalligi shundaki, kompyuter dasturlari orqali o‘girish osonlashadi, ya’ni barcha o‘rinlarda *ya* yozilaveradi: *sentyabr, snaryad, zaryad, Yaroslavl, Ryazan, Finlyandiya, Vyacheslav* kabi. Endi mazkur masalaning mohiyatini yaxshiroq anglab olish uchun yuqoridagi so‘zlarni o‘zbek kirill alifbosidagi transkripsiyada o‘qib ko‘ramiz: sentyabr [сент-йабр], snaryad [снар-йад], zaryad [зар-йад], Yaroslavl [йа-рос-лавл], Ryazan [рйа-зан], Finlyandiya [фин-лйан-ди-йа], Vyacheslav [вйа-чес-лав]. Маълум бўладики, snaryad, zaryad, Yaroslavl so‘zlarining yozilishi o‘zini oqlaydi, chunki ulardagi ya harfi haqiqatan ham o‘zida y+a tovushlarini ifodalaydi. Shu boisdan ham lotincha imlomizda yuqorida ko‘rsatilgan shakllarda berilishi o‘zini to‘liq oqlaydi. Biroq sentyabr [сент-йабр], Ryazan [рйа-зан], Finlyandiya [фин-лйан-ди-йа], Vyacheslav [вйа-чес-лав] orfogrammalari xususida bunday deb bo‘lmaydi. Masalan, *Рязань* toponimi o‘zbek tilida hech qachon [rya-zan] tarzida aytilmaydi, balki *Rezan* [re-zan] tarzida talaffuz qilinadi. Xuddi shuningdek, *Вячеслав* ham [вйа-чес-лав] tarzida emas, balki *Vecheslav* [ви(е)-чес-лав] tarzida aytiladi. Ayni shu holatda haqiqiy ruscha talaffuz ham saqlanib qoladi, xalq jonli tiliga xos va mos orfogramma yuzaga keladi. Shunday ekan, imlo lug‘atlarida beriladigan har bir so‘z shakli, avvalo, ilmiy-nazariy asoslanishi, mutaxassislar ishtirokida muhokama qilinib, undan keyingina o‘quvchiga tavsiya etilishi lozim. Aks holda imloda bir xillik emas, chalkashlik kelib chiqadi, imloda anarxiya boshlanadi.

Ma’rifat” gazetasining 2014-yil 22-yanvar sonida bosilgan maqolamizda “O‘zbek tilining imlo lug‘ati” (T.: Akademnashr, 2013)da berilgan o‘zlashtirilgan so‘zlar tahlil qilingan hamda “yolashgan unlilar” borasida yo‘l qo‘yilgan orfografik kamchiliklar ro‘y-rost ko‘rsatib berilgan edi [2]. Lekin o‘sha kamchiliklar keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilinmadi va tegishli qaror qabul qilinmadi. Natijada imlodagi chalkashliklar davom etib kelmoqda. Mana oddiy misollar: *сюжет, бюджет, Брюссель.*

Mazkur so‘zlar hozirgi kunda yozuv amaliyotida qay shakllarda berilmoqda? Tabiiyki, lug‘at mualliflari tavsiya etgan shakllar: syujet, byudjet, Bryussel tarzidagi orfogrammalar qo‘llanmoqda. Bu ham so‘zlarni harfma-harf o‘girish - transliteratsiya qilish oqibati. Aslida-chi, mazkur so‘zlar o‘zbek lotin alifbosida qay shaklda berilishi lozim? Bizningcha, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan o‘zlashmalarning ham asl manbaga muvofiq talaffuzi hisobga olinishi shart. Masalan, *syujet*, *byudjet* so‘zlari fransuz tilidan o‘zlashtirilgan bo‘lib, asl manbada sujet [sɥjɛ̱], budjet [bɥdjɛ̱] tarzida aytiladi, oxirgi t harfi talaffuz qilinmaydi. Ushbu leksemalar rus tiliga asosan transliteratsiya qilingan va rus tili foetikasi qoidalariga moslashtirilgan, ya’ni *syujet* so‘zidagi [s] ni, *сюжет* so‘zidagi [с] ni, *бюджет* so‘zidagi [б] ni yumshoqroq talaffuz etish maqsadida *ю* harfidan foydalanilgan. O‘zbek kirill alifbosiga esa rus tilidagi shakl to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirib o‘tkazilgan. O‘zbek lotin imlosida esa mazkur leksemalarni o‘zlashtirishda vositachi bo‘lgan rus tilidagi shakl emas, balki asl manba – fransuz tilidagi shakl asos bo‘lishi kerak. Ana o‘shanda *ю* harfi *y+u* tarzida emas, balki birgina *u* harfi bilan berilishi lozim bo‘ladi: sujet, budjet. Endi bu shakllarni *syujet, byudjet* shakllari bilan solishtirib ko‘ramiz: syujet [сйу-жет], byudjet [бйуд-жет].

Koʻrinib turibdiki, syujet, byudjet shakllaridagi yozuvlar oʻzbeklar nutqiga xos emas. Shunday ekan, biz oʻzbek lotin alifbosida *sujet, budjet* kabi shakllardan foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda Брюссель toponimini ham Bryussel [брйуссел] shaklida emas, balki Brussel [бруссел] shaklida tavsiya etish oʻzini toʻliq oqlaydi.

Imlo qoidalarining zarurati yana bir qator boshqa omillar bilan ham bogʻliq. Tabiiyki, har bir til oʻz lugʻaviy imkoniyatlarini oshirib, kengaytirib boradi. Chunki bugungi lisoniy vaziyat ayni shuni taqozo etadi. Binobarin, kundan-kunga soʻz oʻzlashtirish ehtiyoji kuchayib bormoqda. Ayniqsa, Yevropa tillaridan soʻz qabul qilish nihoyatda kuchaydi. Bunday tipdagi soʻzlarning imlosi murakkabligicha qolmoqda. Buning oʻziga xos sababi shundaki, hozirga qadar kirilcha imloda bunday orfografik muammo boʻlmagan – oʻzlashtirilgan soʻzlar rus tilidagi shaklda yozib kelingan. Koʻrsatib oʻtilganidek, lotincha imloda rus tili qoidalariga toʻliq tayanish mumkin emas. Shunday ekan, oʻzlashtirilayotgan soʻzlar har tomonlama oʻrganib chiqilishi, puxta oʻylab koʻrilishi, ularni yozishda imkon qadar oʻzbek tilining milliy tabiati hisobga olinishi lozim boʻladi. Lekin hozirgi paytda koʻpchilik tilshunoslar orasida soʻzlarning ruscha shaklini saqlab qolish tarafdorlari ham bor. Ularning nazdida, "*stajor* bilan *aktyor, lustra* bilan *byuro, flaga* bilan *snaryad* soʻzlarida mazkur *ё, ю, я* harflari bir xil pozitsiyada boʻlib, oʻzbekcha talaffuzda umuman farq qilmay, ikki tovush (yo, yu, ya) bilan aytiladi" [1: 17]

Imlo qoidalarini takomillashtirish ham bugungi eng dolzarb masalalardan biridir. Negaki, 1995-yilda tasdiqlangan imlo qoidalari lotincha imlomizning barcha jabhalarini qamrab ololmagan: bahsli oʻrinlar mavjud, eng muhim muammolarga yechim topilmagan. Masalan, Yevropa tillaridan oʻzlashtirilgan soʻzlarni qay holatda, qay tarzda aks ettirish masalasi uzil-kesil hal etilmagan. Shunday ekan, biz tezlik bilan koʻrsatib oʻtilgan muammolarga yechim boʻladigan imlo qoidalari yaratishimiz zarur. Bizningcha, yangi imlo qoidalarida "Oʻzlashtirilgan soʻzlar imlosi" deb nomlangan alohida boʻlim boʻlishi shart. Unda hozirga qadar munozarali boʻlib kelayotgan "yolashgan unlilar" – *е, ё, ю, я* harfli soʻzlarni aks ettirish aniq va tiniq koʻrsatib berilishi lozim. Ayni paytda *ц* harfli soʻzlarni lotincha imloda berish ham juda munozarali masalalardan sanaladi. Chunki yuqorida koʻrsatib oʻtilgan 2013-yilgi imlo lugʻatida bu borada jiddiy chalkashliklarga yoʻl qoʻyilgan.

Shuni ham ta'kidlash oʻrinliki, rus tilidagi *щ* harf soʻzlar oʻzbek kirill alifbosida *шч* tarzida berib kelingan: *боршч, плашч, помешчик, мешчан* va h.k.

Agar mazkur soʻzlar ham kompyuter dasturlari orqali bitta buyruq bilan lotinchaga oʻgiriladigan boʻlsa, quyidagi orfogrammalar yuzaga keladi: *borshch, plashch, pomeshchik, meshchan*. Koʻrinadiki, bu oʻrinda ikki holatni hisobga olish zarur. Birinchisi - *borshch, plashch* orfogrammalaridagi *ch* ning ortiqchaligi, ya'ni ularning *borsh, plash* shaklida yozilishi yetarli. Ikkinchisi esa *pomeshchik, meshchan* kabi toʻgʻri orfogrammalarning yuzaga kelishi. Chunki mazkur soʻzlarda *sh, ch* harf birikmalari alohida-alohida boʻgʻin tarkibida kelmoqda. Shu sababli ham talaffuzda noqulaylik tugʻilmaydi, ayni paytda hozirga qadar erishilgan talaffuz ham saqlab qolinadi. Demak, mana shunday nozik nuqtalar ham imlo qoidalarida aks ettirilishi lozim.

Imlo qoidalarida *айириш* (ъ) va *юмшатиш* (ь) belgili so‘zlar imlosiga ham jiddiy e’tibor qaratilishi lozim. Chunki mazkur belgilar bilan yozib kelingan so‘zlarning lotincha shakllarida o‘ziga xosliklar mavjud. Masalan, kirilcha imloda birgina ayirish (ъ) belgisi bilan yoziladigan so‘zlar lotincha imloda ikki xil berilishi qoidalashtirilmog‘i zarur. Buning yorqin misoli *санъат* va *подъезд* so‘zlaridagi ayirish belgisining o‘zbek lotin imlosida ikki xil tarzda berilishidir: *san’at, podyezd.* Demak, arab tillaridan o‘zlashtirilgan so‘zlarda tutuq belgisi, Yevropa tillaridan o‘zlashtirilgan so‘zlarda esa **y** harfi qo‘llanadi. Ayni shunday jihatlar imlo qoidalarida qat’iy qilib belgilab berilishi lozim. Xuddi shunday holat yumshatish () belgili so‘zlar imlosida ham uchraydi.

Aslida, mazkur belgi kirilcha imlomizda ruscha so‘zlarning shaklini buzmaslik maqsadida qabul qilingan: aprel, iyun, iyul, mebel, albom va h.k. Bunday o‘rinlarda lotinchada hech qanday belgi ishlatilmaydi: aprel, iyun, iyul, mebel, albom. Biroq yumshatish belgili ayrim so‘zlar imlosiga alohida yondashuv talab qilinadi. Masalan: *батальон, сеньор, бульон* kabi so‘zlarda mazkur belgi o‘rniga **y** harfidan foydalaniladi: *batalyon, senyor, bulyon* kabi. Ayni paytda belgisi bilan yozilgan shunday so‘zlar borki, ularning orfografik yechimi butunlay boshqacha hal etilishi lozim. Masalan, *Ильин, Ильич* tipidagi familiyalardagi yumshatish belgisi o‘rnida **y** harfini qo‘llab bo‘lmaydi, ya’ni Ilyin [ilyin], Ilyich [ilyich] shaklida yozish mumkin emas. Shu sababli ham bunday holatlar alohida bir imlo qoidasini taqozo etadi. Binobarin, bunday tipdagi so‘zlarda tutuq belgisini ishlatishga to‘g‘ri keladi: *Il’in* [ilin], *Il’ich* [ilich].

Ko‘rinadiki, imlo qoidalarini takomillashtirish davr talabi, hayotiy ehtiyojga aylanib turibdi. Imlo qoidalari nafaqat lisoniy, balki juda muhim ijtimoiy, madaniy xarakterga ega bo‘lgan, milliy birlikni ta’minlaydigan, ona tilimizning o‘zligini namoyon qiladigan vositalardan biridir. Shuning uchun ham, avvalo, alifbodagi o‘zgarishlarni oxiriga yetkazish, 2021-yil noyabrda bo‘lib o‘tgan imlo anjumanidagi variantni tezda tasdiqlatib, uni yozuv amaliyotiga tatbiq etish zarur. Negaki, 2023-yildan boshlab mamlakatimizda lotin yozuvi to‘liq joriy etilishi imlo qoidalarini pishiq va puxta ishlab chiqish, keng jamoatchilik muhokamasiga qo‘yish, ommaviy axborot vositalari orqali imlodagi o‘zgarishlarni yetkazishni taqozo etadi. Bu borada tilshunos olimlar, adabiyot ilmi vakillari, barcha jurnalist va bloggerlar, ta’lim muassasalarining yetakchi o‘qituvchilari – barcha ziyoli ahli o‘z fikrini bildirishi, bu jarayonda faol ishtirok etishi ham farz, ham farzdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. 85 000dan ortiq so‘z. Filologiya fanlari doktori, professor N.M.Mahmudov tahriri ostida. T.: Akademnashr, 2013.

2. Жомонов Р. Тилимизнинг миллий табиати луғатларда соғлом сақланиши керак. - “Маърифат” газетаси, 2014 йил 22 январь.

3. Жомонов Р. Ўзбек тилида сўз ўзлаштириш ва имло муаммолари. – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2013.

QARAQALPAQSTANDAǴÍ TIL SIYASATÍ: MASHQALA HÁM SHESHIMLER

Babadjanov Farhod,
f.i.k. docent,
Mámleketlik tilde is júrgiziw tiykarların
oqıtıw hám qánigeligin arttırıw orayınıń
Qaraqalpaqstan Respublikası aymaqlıq bólimi baslıǵı
Dabılov Perdegaliy,
f.i.f.d., Qaraqalpaqstan Respublikası
Ministrler Keńesi Baslıǵınıń
másláhátshisi-departament baslıǵı

Annotatsiya. Bu maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi til siyosati va undagi kelib chiqayotgan muommolar, ularning hal qilinish usullari tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: davlat tili, til hodisasi, adabiy til, til siyosati, adabiy til me’yori, davlat tilida ish yuritish.

Kóplegen mámleketlerde mámleket islerin tártipke salıw, is júrgiziw hám hújjetshilikti birdey formada alıp barıw maqsetinde aymaqtıń túpkilikli xalqı máplerinen kelip shıǵıp mámleketlik til belgilenedi. Mámleketlik til nızamlı tastıyıqlanıwı yaki ulıwmaxalıqlıq tán alıwı boyınsha ámel etiwi múmkin. Óytkeni, ayırım mámleketlerde Mámleketlik til haqqındaǵı nızam qabıl etilmegen, al ulıwmaxalıqlıq tán alıw jolı menen mámleket isleri belgili bir tilde alıp barıladı.

Ózbekstanda ózbek tili, Qaraqalpaqstanda bolsa qaraqalpaq hám ózbek tilleri mámleketlik til bolıp esaplanadı. Tillerge berilgen “mámleketlik til” biyligi nızam jolı menen bekkemlengen bolıp, usı huqıqıy hújjet aymaqta ámel etiwshi basqa tillerdiń máplerin de qorǵaydı hám kepil boladı. Bul teńlik hám keńpeyillik kategoriyası Qaraqalpaqstan Respublikası Konstituciyasınıń 4-statyası menen jáne de bekkemlengen. Demek, Ózbekstanda milliy máseleler, ásirese, til máseleleri úlkedegi basqa mámleketler menen salıstırǵanda demokratiyalıq principler tiykarında, bawrıkeńlik penen jolǵa qoyılǵanlıǵı xalıqaralıq jámiyetshilik tárepinen moyınlanǵan haqıyqat. Biraq bul jaǵday mámleketlik tillerge mensinbewshilik penen qatnasta bolıwǵa alıp kelmewi kerek.

Qaraqalpaqstanda til situaciyası Ózbekstannıń basqa aymaqlarına salıstırǵanda quramalılaw. Óytkeni bul jerde qaraqalpaq, ózbek, qazaq, túrkmen, rus milletiniń wákilleri aralasıp jasaydı hám bes tilde ulıwma bilimlendiriw mektepleri jumıs alıp baradı. Aymaqta til máseleleri Ózbekstan Respublikasınıń “Mámleketlik til haqqında”ǵı Nızamı, Qaraqalpaqstan Respublikasınıń “Mámleketlik til haqqında”ǵı Nızamı, Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2019-jıl 21-oktyabrdegi PP-5850-sanlı “Ózbek tiliniń mámleketlik til sıpatındaǵı abıroyı hám mártebesin túpten asırıw ilajları haqqında”ǵı, 2020-jıl 20-oktyabrdegi PP-6084-sanlı “Mámleketimizde ózbek tilin jáne de rawajlandırıw hám til siyasatın jetilistiriw ilajları haqqında”ǵı Pármanları, Qaraqalpaqstan Respublikası Joqarǵı Keńesi Prezidiumınıń 2020-jıl 3-noyabrdegi “Qaraqalpaq tiliniń mámleketlik til sıpatındaǵı abıroyın ele de asırıw ilajları haqqında”ǵı 135-sanlı, 2021-jıl 16-iyuldegi “Qaraqalpaq tilin jáne de rawajlandırıw hám til siyasatın

jetilistiriw ilajları haqqında”ǵı 410-sanlı Qararları menen tártipke salınadı. Qaraqalpaqstanda eki tildiń mámleketlik til biyligine iye bolıwı is júrgiziw processinde, mákan-jay atamaların jazıwda, sırtqı jazıwlardı tártipke salıwda, hújjet blankaların tayarlawda, mámleketlik tillerdi oqıtıwda, ilajlar hám ánjumanlardıń tilin belgilewde, sonday-aq, basqa til hám jazıw menen baylanıslı máselelerde ayırım mashqalalardı keltirip shıǵaradı. Mámleketlik shólkemler tiykarınan eki tilde is júrgiziwdi shólkemlestiriw, biraq tiller arasındaǵı teń salmaqlılıqtı saqlaw, hár bir tildi orınlı qollanıw, mámleketlik tiller menen baylanıslı mashqalalardı tez hám ádalatlı sheship barıw basshılardan ıqtıyatlılıqtı hám sergeklikti talap qıladı. Óytkeni, milliy másele, ásirese, til máselesi júdá názik hám qaltıs mashqala bolıp esaplanadı. Onı ádillik penen sheshiw saldamlılıq hám aqıl menen is tutıwdı talap etedi. Sebebi, tilde millet arı jasaydı, onıń ayaq astı etiliwi milliy qarama-qarsılıqlarǵa, shovinistlik háreketlerge alıp keliwi múmkin.

Qaraqalpaqstanda mámleketlik tillerdiń oqıtılıwı da ózine tánligi menen ajıralıp turadı. Basqa aymaqlardan parıqlı jeri joqarı hám ulıwma bilimlendiriw mákemelerinde, qánigeligin arttırıw kurslarında mámleketlik til ushın ajıratılǵan saatlar eki til – qaraqalpaq hám ózbek tilleri ushın teń halda bólistiriledi. Bunday jaǵdayda oqıw baǵdarlamasında belgilengen materiallardı tolıq ótiw imkaniyatı kemeyip ketedi. Bul mashqala ayırım mákemelerde sheshilgen bolsa da, ayırımlarında elege shekem saqlanıp kelmekte. Qaraqalpaqstanda Mámleketlik til boyınsha qánigeligin arttırıw sistemasında bul mashqala aqıllılıq penen sheshildi. Ózbekstan Respublikası Ministrler Kabinetiniń 2020-jıl 3-marttaǵı 117-sanlı qararına muwapıq Álisher Nawayı atındaǵı Ózbek tili hám ádebiyatı universiteti janındaǵı Mámleketlik tilde is júrgiziw tiykarların oqıtıw hám qánigeligin arttırıw Orayı hámde onıń Qaraqalpaqstan Respublikası hám wálayatlarda 13 aymaqlıq bólimi shólkemlestirilgeni mámleketlik shólkemler xızmetkerlerin oqıtıwǵa, kárxanalarda is júrgiziwdi mámleketlik tilde hám latın álipbesinde alıp barıwǵa úlken járdem bermekte. Dáslepki payıtlarda Oraydıń Qaraqalpaqstan Respublikası aymaqlıq bóliminde qánigeligin asırıw kurslarınıń oqıw baǵdarlamaların ámelge asırıwda aytarlıqtay mashqalalar júzege keldi. Qaraqalpaqstan sharayatında mámleketlik tilge ajıratılǵan saatlardıń ekige bóliniwi nátiyjesinde oqıw baǵdarlamaların orınlawdıń imkanı bolmay qaldı. Bul mashqala Qaraqalpaqstan Respublikası Ministrler Keńesi janındaǵı Mámleketlik tildi rawajlandırıw departamenti hám aymaqlıq bólim menen birgelikte úyrenip shıǵıldı. Qaraqalpaqstan ushın ulıwma saat kólemi 50 procentke asırılǵan «Ózbek hám de qaraqalpaq ádebiy tili ólshemleri hám mámleketlik tilde is júrgiziw» qánigeligin asırıw kurslarınıń jańa oqıw jobası hám oqıw baǵdarlaması islep shıǵıldı. Oray basshılıǵı menen kelisilgen halda 2021-jıldıń aprel ayınan baslap oqıw joba menen baǵdarlama ámeliyatqa engizilip, mashqalalar saplastırıldı.

Mámleketlik tildiń oqıtılıwı máselesinde ulıwma bilimlendiriw hám joqarı bilimlendiriw sistemalarında bunday mashqalalar elege shekem saqlanıp kelmekte. Tiyisli ministrlikler Qaraqalpaqstandaǵı til situaciyasınan kelip shıǵıp, aymaqta mámleketlik tillerdi oqıtıw boyınsha óz aldına ilajlar islep shıqsa maqsetke muwapıq bolar edi.

Eki tildiń mámleketlik til biyligine iye bolıwı shaxstı tastıyıqlawshı hújjetlerdi, notarial mákeme hújjetlerin, PHAJ bólimleri hújjetlerin tayarlawda da ayırım

mashqalalardı keltirip shıǵaradı. Atap aytqanda, latın jazıwı negizindegi ózbek hám qaraqalpaq álipbeleriniń bir-birine mas kelmesligi bir tilden ekinshi tilge adam atı hám familiyalarınıń jazılıwın ózgertkende namuwapıqlıqlardı keltirip shıǵarmaqta. Nátiyjede ayırım jaǵdaylarda puqaralardıń narazılıǵına da sebep bolıp atır.

Máselen, házirgi kúnde Qaraqalpaqstan Respublikası IIM Migraciya hám puqaralıqtı rásmiylestiriw basqarmasınıń sırt elge shıǵıw boyınsha biometrik pasportın rásmiylestiriw sistemasında latın jazıwına tiykarlanǵan qaraqalpaq álipbesindegi ayırım háripler **(Ы- Í, Ө-Ó, Y-Ú, Ә-Á, Ң- Ń)**diń joqlıǵı sebepli shet elge shıǵıw biometrik pasportın alıw talapnamaların rásmiylestiriwde qátelikler júzege kelmekte. Óytkeni, usı talaplardı sistemada durıslaw imkaniyatı joq. Mısalı ushın, Bozataw rayonı IIB Migraciya hám puqaralıqtı rásmiylestiriw bólimi tárepinen 2021-jıl 13-avgust kúni qáliplestirilgen talapnamada PHAJ sistemasında bir puqaranıń familiyası, atı, ákesiniń atı latın jazıwına tiykarlanǵan qaraqalpaq álipbesinde kirgizilgen hám sırt elge shıǵıw sistemasında (nesovpadenie FIO-transliteraciya) qátelik júz bergen, nátiyjede usı talapnamanı sistemada durıslaw imkaniyatı tabılmaǵan. Jazıwlardıń bir-birine mas kelmesligi usıǵan uqsas basqa mashqalalardı da keltirip shıǵarmaqta.

Usı orında aytıp ótiw kerek, ózbek hám qaraqalpaq latın álipbelerin imkaniyat dárejesinde bir-birine jaqınlastırıw Qaraqalpaqstanda mámleketlik tillerde is júrgiziw boyınsha júzege kelip atırǵan mashqalalardı málim dárejede sheshiwge múmkinshilik tuwdırǵan bolar edi. Máselen, ózbek tilinde «ц» háribi dara halında qollanılmaydı. Hátte reforma qılınıp atırǵan álipbe joybarında da hárıplik jasalma ç bar, biraq c qollanılmaydı. Usı hárip álipbege kirillshe ц háribiniń sıńarı sıpatında kirgizilse, kirillshe tekstlerdi transliteraciya qılǵanda mashqala júzege kelmes edi, sonday-aq, ózlestirme sózler ózbek hám qaraqalpaq tilinde birdey jazılǵan bolar edi: *vaksina (ózb.) – vakcina (qq.), sex (ózb.) – cex (qq.), ssenariy (ózb.) – cenariy (qq).*

Búgingi kúnde qaraqalpaq tiline ózbek tilinen kóplep sózlerdiń ózlestirilip atırǵanlıǵın yaki belsendi emes sózlerdiń ózbek tili tásirinde kirip kelip atırǵanlıǵın bayqaw múmkin. Bul jaǵday álbette qaraqalpaq tiliniń sózlik qatlamınıń bayıwına sebep bolmaqta. Biraq qaraqalpaq tilinen de ayırım sózlerdi ózbek tiline biymálel qabıl etiw múmkin, tilekke qarsı bul máselege jeterli dárejede itibar qaratılmay atır. Óytkeni, ayırım qaraqalpaqsha (kópshiligi sap túrkiy) atamalar ózbek tilindegi sıńarına (ekvivalentine) qaraǵanda gózlengen maǵanasın anıq sáwlelendiredi. Máselen, qaraqalpaq tili hújjetshiligindegi *ómirbayan* (*tarjimai hol*), *minezleme* (*tavsifnoma*), *usınıs* (*qanday da bir usınıstı kirgiziw*), *sın* (*taqriz*) sózlerinen dóretiwshilik penen paydalanıp *umrbayon* (*tarjimai hol*), *hulqnoma* (*tavsifnoma*), *taklifxat* (*qanday da bir usınıstı kirgiziw*), *sinchixat* (*taqriz*) sıyaqlı atamalardı jasaw múmkin. Gáp sonda, qaraqalpaq tilinde sap túrkiy sózlerdiń kóplep saqlanǵanlıǵı olardı da ózbek tilinde ámeliyatqa engiziw imkaniyatın beredi hám til iyelerine sáwlelenip atırǵan túsiniktiń mańızın tez hám anıq ańlap jetiw múmkinshiligin beredi. Tiller aralıq bunday sheriklik múnásibetleri xalıqlar doslıǵın bekkemlewde úlken áhmiyetke iye.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Dawletov M, Abdinazimov Sh. Qaraqalpaq tilinin orfografiyaliq. Nokis, «Bilim» baspasi, 2020. – B. 540.

2. Madvaliyev A**.** O‘zbek tilining imlolug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2012.
3. https://lex.uz/docs/4561730
4. https://lex.uz/docs/-5058351

SAMARQAND SHAHRI O‘ZBEK SHEVALARIDAGI PARONIM SO‘ZLARNING TALAFFUZI VA IMLOSI

Tillabayeva Zilola,
Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi
SamDCHTI tadqiqotchisi
Telefon: +998(97) 9169261
tillabayeva87@bk.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada Samarqand shahri o‘zbek shevalarining o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Mazkur shevadagi paronimlarning qanday holatda uchrashi, ularning talaffuzi, imlosi misollar yordamida tahlil qilib berilgan. Mavzu yuzasidan mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Samarqand shahri o‘zbek shevalari, leksik-semantik guruh, paronimlar, talaffuz, imlo, fonologik-fonetik belgi.

Hozirgi Samarqand viloyati O‘zbekistonning o‘rta qismida joylashgan bo‘lib, shimoli-g‘arbdan Navoiy, janubdan Qashqadaryo, shimoli sharqdan Jizzax viloyatlari hamda janubiy-sharqdan Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh. Xususan, biz tadqiq qilayotgan Samarqand shahri viloyat statistika boshqarmasi bergan ma’lumotlarga ko‘ra, 519600 ming kishi (2016)ni tashkil etadi. Aholining asosiy qismini o‘zbeklar, tojiklar va eronilar tashkil etib, tub aholi orasida rus, arman, tatar, koreys, ozarbayjon, ukrain, yahudiy millatiga mansub kishilar ham bor. Samarqand shahrida 207 ta mahalla bo‘lib, Samarqand shahar kengashiga qarashli 4 shaharcha (Ingichka, Kimyogarlar, Farhod, Hishrov) mavjud. Maydoni 120 km.

Shuningdek, hudud shevasining boshqa sheva va lahjalardan ajralib turadigan xususiyatlari mavjudligini ko‘rsatib o‘tish lozimligini ta’minlashdan maqsad ham Samarqand shevalari haqida yanada yorqinroq tasavvurga ega bo‘lish imkonini beradi:

Dastlab qisqacha fonetik xususiyatlari haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, yig‘ilgan materiallarimizda unli tovushlar 6 tagacha bo‘lishi kuzatildi: *i, u, ā, ä, o, e.* Shu bilan bir qatorda adabiy tildagi so‘zlarning unli tovushlari almashinib talaffuz qilinadi:

[ā>ä] o*lma/älmä, piyola/pijälä, bola/bäčä, to‘rtov/tortäv, kuyov/kujäv* va hokazo. Chunki v undoshidan oldin o emas balki ä unlisining kelishi bilan xarakterlanadi.

[ä > ā] *usta/ustā, po‘lat/polād, ketyapti/ ketāpti, boryapti/ bārāpti, tilla/ tillā* kabi. Bu holat tojik shevalarining qanchalar Samarqanddagi o‘zbek shevalariga kuchli ta’sir ko‘rsatganligidan dalolat berib turibdi.

Ma’no farqlamaydigan ikkinchi darajali cho‘ziqlik holati ham ko‘p kuzatiladi: *dugā:na, dolā:na, pijā:va, ke:lin, dāmmā:d, polā:d, šā:na, kadu:* kabi.

So‘z tarkibida ikkita har xil undoshning bir-biriga moslashib, bir xil talaffuz qilinishi, ya’ni assimilyatsiya hodisasi uchraydi: *kelli (keldi), bolli (bo‘lli), kammaγäl (kambag‘al), bāddu (bordi), massi (mahsi).*

Samarqand shahri o‘zbek shevalarida l, r, t kabi undoshlardan birining so‘z o‘rtasida tushib qolishi ham uchraydi: *däsäxān/ dastarxon, ketur/ keltir, tor/ to‘rt, däsromāl/ dastro‘mol, binnimä/ bir nima* va hokazo.

So‘z oxirida qator undosh sifatida qo‘llaniladigan t tovushi tushirib talaffuz qilinadi: *goš/go‘sht, γiš/g‘isht, sus/sust, Tāškän/Toshkent, dos/do‘st* kabi.

Biz o‘rganayotgan shevaning morfologik xususiyatalari ham o‘ziga xosliklarga ega. Masalan, -lar ko‘plik qo‘shimchasi -ä, -lä ko‘rinishlarda uchraydi: *Ulä kelišdi. Bizä kettik.*

Oltita kelishik to‘rt xil shaklda qo‘llaniladi. Qaratqich va tushum –ni qo‘shimchasi bilan, jo‘nalish va o‘rin-payt kelishiklari –ga qo‘shimchasi ko‘rinishida uchraydi: *Ujgä qālli*. (Uyda qoldi.) *Bäläni xayāli pärišān* (Bolaning xayoli parishon.)

Shuningdek, qaratqich kelishigi qisqarib, –i unlisi bilan ham ifodalanishi mumkin: *Bizi ujimiz.* (Bizning uyimiz.)

Jo‘nalish kelishigi qisqarib, -ä, -jä ko‘rinishida uchrashi mumkin: *Kočajä čiqmä.* (Ko‘chaga chiqma.) *Sizä gäpim bār.* (Sizga gapim bor.)

Mazkur shevada –dan chiqish kelishigi assimilyatsiya hodisasiga uchrab, -zän variantida qo‘llanilishi mumkin: *Āllizän otāppan.* (Oldingizdan o‘tyapman.) *Dugonajizzän āllim.* (Dugonangizdan oldim.)

Samarqand shahri o‘zbek shevalarida u, bu, shu, o‘sha olmoshlariga qo‘shilib keladigan –dek, day qo‘shimchalari o‘zgacha ko‘rinishda, ya’ni *undāq, munnāy, ošändāq* tarzda qo‘llanadi. Ko‘rsatish olmoshining unaqangi, bunaqangi kabi variantlari esa *unnoγčigin, munnoγčigin* shaklda aholi nutqida uchraydi.

Hozirgi zamon davom fe’lining -yap varianti -āp shaklida uchraydi: *bārāppan, kelāpti, ajtāpti* kabi.

U, bu, shu, o‘sha ravishlariga yoq, yer, tomon so‘zlarini qo‘shish bilan shakllangan yasama ravishlar shevada *ošäqqä, šeqqä, äqqä, beqqä* ko‘rinishlarda uchraydi.

Ushbu shevada payt ravishlariga mansub so‘ng, keyin ma’nosida *soγun, soγunbät, sānibät, äkunbät* tarzida qo‘llanilishini aniqladik.

Tilimizning mana shunday leksik boyligi, tabiiyki, Samarqand shahri o‘zbek shevalari qatlamining rang-barangligida namoyon bo‘ladi. Bu esa mazkur hududda aholi nutqida uchraydigan so‘zlarni o‘zbek adabiy tilidagi va boshqa shevalarga xos lug‘aviy birliklar bilan qiyoslab, tadqiq qilish, ularning o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash shevalarning bugungi holatini aniqlash imkonini beradi.

Professor A.K.Borovkov o‘zining o‘zbek va tojik tillarining o‘zaro munosabatiga bag‘ishlangan asarida Samarqand va Buxoro shevalarida so‘zlovchi aholining o‘zbekcha va tojikcha so‘zlarni qo‘shib gapirishlarini qayd etib o‘tgan [2: 56-bet].

O‘z o‘rnida biz ham mazkur shevalarga doir so‘zlarni yig‘ish, tadqiq qilish jarayonida shunga guvoh bo‘ldik.

Samarqand viloyati shevalarini shartli ravishda 3 guruhga bo‘lib o‘rganishni tavsiya qilardik.

1-guruh: qarluq lahjasiga mansub shevalar;

2-guruh: o‘g‘uz lahjasiga mansub shevasi;

3-guruh: qipchoq lahjasiga tegishli shevalar.

Tadqiqot obyektimiz bo‘lgan Samarqand shahri o‘zbek shevasi bo‘yicha hozirga qadar monografik planda tadqiqot yaratilgan emas. Bu holat mazkur mavzu bo‘yicha hudud shevalarining leksik xususiyatlarini o‘rganishning dolzarb masala ekanligini ko‘rsatadi.

Samarqand shahri o‘zbek shevalari qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasiga mansub bo‘lib, mazkur lahja shahar tip shevalarini qamrab oladi. Uning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, ularda singarmonizm qonuniyati amal qilmaydi.

Tilning omonimiya, sinonimiya, antonimiya, polisemiya kabi munosabatdosh leksik-semantik guruhga kiruvchi paronimiya hodisasi o‘zbek tilining, shevashunosligining milliy xususiyati va ontologik tabiatini o‘zida namoyon qiluvchi hodisa sifatida ahamiyatli. Xususan, paronimlar ma’lum tovush bilan farqlanuvchi leksemalar qatori hisoblanadi.

O‘zbek tilshunosligida polisemiya va unga yondosh hodisalar A.Hojiyev, Sh.Rahmatullayev, M.Mirtojiyev, R.Shukurov, R.Safarova, O.Bozorov, A.Omonturdiyev, Sh.Orifjonova, B.Qilichev, B.T.Suyunov, J.Djumabayeva, F.Jumayeva, V.Nafasova kabi olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan.

Xususan, paronimlarda hal qiluvchi vazifani tovushlarning o‘xshashligi emas, balki farqi, birini boshqasidan ajratib turuvchi fonologik-fonetik (va grafik) belgi muhim sanaladi. O‘xshash ikki leksemadan noo‘xshash fonologik-fonetik dalil qidiriladi: chalg‘i-cholg‘u juftligida besh tovushning ikkitasi noo‘xshash. O‘xshash qism miqdoran ko‘p, noo‘xshash qism tarkibi asosan bir, ba’zan ikki tovushdan iborat, ba’zan distributsiya (tansiq-tanqis, qismoq-siqmoq) va shunga o‘xshash lingvistik hodisalar ham farqlanish vazifasini bajaradi [3: 12-bet].

Biz ham mazkur mezonlardan kelib chiqqan holda Samarqand shahridagi o‘zbek shevalari yuzasidan to‘plangan materialimiz tarkibidagi ayrim paronimlik juftliklarni ko‘rib chiqamiz.

Doqqi – notekis yoki tekis bo‘lmagan sirtga ega; silliq yoki tekis emas. Ma’nosiga ega sifat turkumiga mansub so‘z. *Hoqqi*- muomalasi qo‘pol, zardali, beandisha bo‘lgan kishi.

Olus –- ko‘zlari ikki chetga siljib qolgadigan g‘ilay ko‘z. *Olis*- oraliq masofasi katta, nisbatan narida joylashgan uzoq masofani anglatadi.

Mādä – biror bir parrandaning, qushning urg‘ochisini anglatadi. *Me’dä*- kishining ovqat hazm qilish a’zolaridan biri.

Bā – avval bo‘lgan ish-harakat, narsa-hodisaning takror yuz berishini boshlanishi va davom etishini bildiradigan tag‘in, yana so‘zlarining shevadagi varianti. Be-Ajablanishni, hayronlikni yooki norozilikni ifodalovchi iye, iyya kabi undov so‘zlarning dialektal varianti.

Millä – odamning bosh terisida o‘sadigan qil tolalar qoplamasi va ularning har biri, ya’ni soch ma’nosida. *Hillä*- amalga oshirish, bajarish qilish imkoni, chorasi mazmuniga ega lug‘aviy birlik.

Šo:rä – tashlandiq yerlarda, ekin maydonlarida g‘ovlab o‘sadigan yovvoyi o‘t *Šorā*- sovet hokimiyatining turkiylar va xalq orasida qo‘llangan nomi. *Šolä*- go‘sht, sabzi-piyoz va guruch solib pishiriladigan bo‘tqasimon shovla ovqatining shevadagi shakli.

Fällä – og‘iz suti, ya’ni tuqqandan keyin dastlabki 2-3 kunda keladigan sut. *Pällä*- mazkur omonim so‘z Samarqand shahri o‘zbek shevalarida asosan tarozining narsa yoki tosh qo‘yiladigan har bir taqsimchasi ma’nosida qo‘llanilishiga guvoh bo‘ldik. *Häjlä*- ko‘z o‘ngida turgan, o‘zidan nariroqda bo‘lgan narsaga ishora qiluvchi ana, mana degan ko‘rsatish olmoshining dialektal ko‘rinishi.

Ütti: – kiyim-kechak va matolarni tekislash uchun qo‘llanadigan dazmol. *Xüddi:*- aynan, aniq so‘zining keng tarqalgan sinonimi.

Nilčop – uchi paxtali quloq tozalash va o‘sma qo‘yishda qo‘llanadigan cho‘pcha. *Čilčop*- nisholda tayyorlashda qo‘llanadigan uzun dastali cho‘p.

Či:l – shakldosh so‘z bo‘lib, qirq sonini, ma’rosim ma’nosini anglatadi. *Si:l*- shevada juda qattiq siqilmoq ma’nosida ko‘p uchraydi.

Qärz – ma’lum muddatdan keyin qaytarilishi lozim bo‘lgan narsa. *Qärs*- ayollar boshiga o‘raydigan yupqa, oq matodan tayyorlangan katta ro‘mol.

Nimxām – yaxshi, maromiga yetkazib pishirilmagan degan mazmunga ega so‘z. *Nimxāb*- ko‘zlar yumuq bo‘lsa-da hali to‘la uxlanmagan holat tushuniladi.

Ǯinni: – aqldan ozgan, ruhy kasalikka chalingan telba degan ma’noga ega so‘z. *Činni:*- chinnidan yasalgan idishlar to‘plami. *Binni:*- hidlash, hid bilish a’zosi bo‘lgan burunning Samarqand shevalaridagi varianti.

Ämbor – mix sug‘urish, narsalarni qisib ushlash, ko‘tarish, egish, qirqish kabi ishlar uchun qo‘llanadigan ikki jag‘li asboblarning umumiy nomi bo‘lgan omburning dialektal variantdoshi. *Āmbār*- oziq-ovqat, asbob-anjom kabilar saqlanadigan bino.

Zotan, Samixan Ashirbayevning ta’kidlashlaricha: “O‘zbek adabiy tili shakllanishida shevalarning barchasi u yoki bu darajada ishtirok etadi. O‘zbek adabiy tili muayyan sheva va shevalar guruhidan leksik, fonetik, grammatik xususiyatlarni adabiy til fakti sifatida oladi hamda o‘sha sheva va shevalar guruhi taraqqiy etishi bilan birga taraqqiy etadi, chunki shevalar jonli til bo‘lib, u doimo rivojlanish va o‘zgarishda bo‘ladi, shu tufayli adabiy til ham taraqqiy etib boradi” [1: 81-bet].

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Samarqand shahri o‘zbek shevalarida o‘zbek adabiy tilida bo‘lgani kabi talaygina paronim so‘zlar juftligi mavjud. Ishning ko‘lamidan kelib chiqqan holda faqat ularning ayrimlarigagina to‘xtalib o‘tdik, xolos.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent: Nodirabegim, 2021. –B. 81.

2. Боровков А.К. Таджикско-узбекское двуязычие и вопрос о взаимовлиянии таджикского и узбекского языков ,…Учен.зап. инс-та Востоковедения, 4, -М., 1952.

3. Нафасова В. Ўзбек тили паронимларининг лисоний таҳлили. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. - Қарши. 2019. –B. 12.

4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Samarqand.

O‘ZBEK LOTIN ALIFBOSI VA IMLOSI MUAMMOLARIGA DOIR AYRIM FIKR-MULOHAZALAR

Qudratov G‘ayratjon,
Termiz davlat universiteti,
kudratov@mail.ru

Annotatsiya. O‘zbek tilining qo‘llanish doirasini kengaytirish, har bir sohada uning amal qilishini ta’minlash uchun alifbo, imlo, lug‘atlar masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda joriy alifbo va imloni takomillashtirish masalasi birinchi o‘ringa chiqadi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, alifbo, imlo, takomillashtirish, isloh qilish, o‘zgarsihlarni qabul qilish, nufuzini oshirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari xalqimiz hayotida tub burilish yasab, til borasidagi islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi. [1].

O‘zbek tilining qo‘llanish doirasini kengaytirish, har bir sohada uning amal qilishini ta’minlash uchun alifbo, imlo, lug‘atlar masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda joriy alifbo va imloni takomillashtirish masalasi birinchi o‘ringa chiqadi. Zero, alifboni tartibga solmay turib, imloni takomillashtirish mantiqqa zid.

Alifbo va imlo masalasi XX asrning boshlariga kelib jiddiy tarzda kun tartibiga qo‘yilgan. 1921-yilda Toshkentda bo‘lib o‘tgan til-imlo anjumanida milliy alifbo va imlo qoidalari ilk marta maxsus ko‘rib chiqilgan. 1923-yilda Buxoroda o‘tkazilgan shunday anjumanda esa birinchi marta o‘zbek tilining imlo qoidalari qabul qilingan hamda Maorif komissarligi tomonidan rasman tasdiqlangan. Lekin ijtimoiy o‘zgarishlar, jumladan, siyosiy ahvol, savodxonlikka talabning oshib borishi, maktab-maorif ishining rivojlanishi tufayli arab yozuvi zamon talablariga javob berolmasligi ma’lum bo‘ldi. Shu bois, 1926-yili Bokuda o‘tkazilgan Birinchi turkologiya qurultoyi turkiy tilli respublikalar uchun lotin yozuviga asoslangan alifboga o‘tish to‘g‘risida qaror qabul qildi.

1929-yili Samarqandda bo‘lib o‘tgan til-imlo anjumanida lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi qabul qilindi va mazkur alifbo asosidagi imlo qoidalari tasdiqlandi. Ayni shu jarayon o‘zbek adabiy tili tarixida muhim qadam bo‘ldi: xalqning yozma savodxonligi keskin oshdi, o‘zbek tilining tabiatiga mos ishlab chiqilgan imlo qoidalari umummilliy birlikni ta’minlashga xizmat qildi. Chunki unda o‘zbek tilining asrlar mobaynida shakllangan tovush xususiyatlari hisobga olinib, alifboda 9 ta unli tovushni ifodalash uchun belgilar olingan edi. Lekin bu hodisa 1930-yillarning boshlarida turli qarashlarni vujudga keltirdi. Natijada 1934-yilda Toshkentda o‘tkazilgan til-imlo anjumanida unli tovushlar soni 6 ta etib belgilandi va shu asosda yangi imlo qoidalari tasdiqlandi. Mazkur imlo qoidalari, ayrim kamchiliklariga qaramay, o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyotida muhim rol o‘ynadi. Binobarin, o‘zbek tilining tovushlarini nisbatan to‘g‘ri aks ettiradigan alifbo yuzaga keldi. Xalqning savodxonlik darajasi ko‘tarildi. Og‘zaki nutq va yozuv orasida yaqinlik paydo bo‘ldi. Bu esa mustabid

tuzum mafkurasiga, “qizil imperiya” manfaatlariga mos kelmas edi. Shu sababli ham o‘zbek lotin alifbosining “kamchiliklari”, jumladan, SSSR xalqlarining jipsligiga xizmat qilmasligi, rus tilini o‘rganishda qiyinchilik keltirib chiqarayotgani kabilar haqida bahs-munozaralar avj oldi. Qisqasi, barcha turkiy tilli respublikalarni rus alifbosiga ko‘chirish uchun zamin hozirlandi.

1940-yil 8-mayda “O‘zbek yozuvini lotinlashtirilgan alifbodan rus grafikasi asosidagi yangi o‘zbek alifbosiga ko‘chirish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. 1940-yil 4-iyulda esa “Birlashgan o‘zbek orfografiyasining asosiy qoidalari” tasdiqlandi. Shunday qilib, 33 harf va 2 belgidan iborat o‘zbek kirill alifbosi amal qila boshladi. 1956-yilda esa “O‘zbek orfografiyasining asosiy qoidalari” tasdiqlandi. Biz hozirga qadar kirillcha yozuvimizda mazkur imlo qoidalariga amal qilamiz.

Xalqimizning ona tilimizni rivojlantirish kabi asriy ezgu niyatini amalga oshirish, dunyodagi boshqa xalqlar, millatlardan orqada qolmasligi va ular bilan taraqqiyot sari qadamba-qadam odimlashini ta’minlash maqsadida 1993-yilning 2-sentabr kuni O‘zbekiston Respublikasining “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. U tom ma’nodagi lisoniy mustaqillik nishonasi edi. Shunday qilib, o‘zbek lotin alifbosi 26 harf va 3 harf birikmasidan iborat bo‘ldi.

Biroq til amaliyotidan kelib chiqqan holda 1995-yil 6-mayda mazkur alifboga ayrim tuzatishlar kiritildi. 1995-yil 24-avgustda mazkur alifboga asoslangan “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari” tasdiqlandi. 1996-yildan boshlab barcha ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayoni o‘zbek lotin alifbosida olib borildi. O‘qitish jarayoni uchun barcha darslik va qo‘llanmalar, ko‘rgazmali vositalar lotincha imloda nashr qilindi, ko‘plab badiiy adabiyotlar lotin yozuvida chop etildi.

Bu alifboning o‘ziga xos yutug‘i, birinchidan, alifbo tartibi ixchamlashdi, lotin tilidan meros qolgan harflardan 24 tasi (c va w dan tashqari) o‘z tartibida saqlab qolindi. Bu esa lotin yozuviga asoslangan boshqa alifbolar (ingliz, fransuz, nemis) bilan umumiylikni ta’minladi. Ikkinchidan, bo‘g‘iz undoshi [h] va qattiq tanglayda hosil bo‘ladigan [x] tovushlari uchun bir-biridan shakl jihatidan keskin farqlanadigan shakllar: H(h) va X(x) ning qabul qilinishi juda katta qulaylik yaratdi. Demak, talaffuzda unchalik farqlay olmaydigan yurtdoshlarimiz ham endi ularni yozuv orqali farqlay olish imkoniga ega bo‘ldi. Ya’ni *xush* (xush) va *hush* (hush), *xam* (xam) va *ham* (ham) shakl jihatidan yaqqol farqlanadi.

Ikkinchidan, qo‘shaloq harflar: Ss — Sh sh, Cc — Ch ch, Nn — Ng ng kabi harf birikmalarining yuzaga kelishi ingliz tilini o‘rganishda muayyan darajada qulaylik yaratdi. Ammo vaqt o‘tgan sari alifboning kamchiliklari ham bilinib qoldi.

Lotin yozuviga asoslangan joriy alifboning kamchiligi shuki, O‘o‘ va G‘g‘ harflarining bosma shaklini yozish murakkablashdi, ya’ni o va g harflarining yoniga maxsus diakritik belgi (’) qo‘yiladigan bo‘ldi. Bu esa lotin yozuvidagi matnlarning kengayib ketishiga sabab bo‘ldi. Masalan, *o‘g‘il — o‘g‘il* kabi. Ayni paytda lotin yozuvidan foydalanishda tutuq (’) va diakritik (’) belgilarni chalkashtirish holatlari ko‘p.

Hozirga qadar ham ko‘p o‘rinlarda *O‘zbekiston* so‘zini *O‘zbekiston* shaklida yozish holatlari uchraydi. Shuningdek, [sh], [ch], [ng] tovushlarini ifodalashda ham murakkablik yuzaga keldi. Bir tovushni ikkita harf bilan — harflar birikmasi orqali ifodalash yozuv amaliyotida ko‘p harf ishlatishga, ko‘p vaqt sarflashga olib keldi. [5].

Lotin alifbosidan foydalanayotgan ilg‘or xalqlar tajribasiga qaraydigan bo‘lsak, ular alifbodagi asosiy harflar yoniga o‘ziga xos tovushlarni ifodalash uchun qo‘shimcha belgili harflarni qabul qilganini ko‘ramiz. Xususan, nemislar Ä Ö Ü ß, chexlar Á Č Ď Ě Ň Ř Š Ť Ů, polyaklar Ą Ć Ę Ł Ń Ó Ś Ź Ż, litvaliklar Ą Č Ę Ė Į Š Ų Ū Ž, vengerlar Á É Ó Ö Ő Ú Ű, finlar Å Ä Ö Š Ž, ruminlar Ă Â Î Ș Ț, ispanlar Ñ kabi harflarni o‘z alifbolariga qo‘shib olishgan. Boshqa xalqlarning alifbolarida ham o‘zlariga xos harflar mavjud. Ya’ni, ular bizga o‘xshab ona tilini jonsiz klaviaturaga emas, klaviaturani ona tiliga moslashtirganlar.

Ma’lumki, til ijtimoiy hodisa. Yillar o‘tishi bilan til ham rivojlanib boradi. Ilmiy-texnik taraqqiyot, xalqlar, davlatlar o‘rtasidagi savdo-sotiqning, xalqaro aloqalarning rivojlanib borishi tufayli til ham rivojlanib boradi. Ya’ni, tilga boshqa xalqlar tillaridan yangi so‘zlar kirib keladi va tilning so‘z boyligi boyib boradi. Nafaqat, yangi so‘zlar balkim til alfavitiga yangi harflar ham kirib kelishi mumkin.

Masalan, ba’zi manbalar yozilishicha hozirgi rus tili alfavitidagi ы harfi turkiy va mo‘g‘ul xalqlaridan rus tiliga kirib kelgan. Chunki, boshqa slavyan xalqlar tillarida bu harf uchramaydi. Bunday misollarni yana ko‘plab keltirish mumkin.

Ingliz tilining dunyo tili sifatida keng miqyosda o‘rganilayotganining sabablaridan biri inglizlarning o‘z tilini boyitib va til qoidalarini soddalashtirib borayotganidadir.

Ko‘pchilik xalqlarning alfavitlarida shu xalq tilini bildirib turadigan kalit harflari mavjud. Ushbu tilni bilmasdan turib ham kalit harflar orqali qaysi til ekanini fahmlasa bo‘ladi. O‘zbek tili alfavitiga ham o‘zbek tili ekanligini bildiirb turadigan kalit harflar zarur. Bular C c, Š š, Č č, Ň ň, Ŏ ŏ, Ğ ğ, Ɉ ɉ harflari bo‘lishi mumkin.

Biz ham o‘zbek tilini boyishiga xizmat qiladigan harf va so‘zlarni ikkilanmasdan qabul qilishimiz kerak. Shu tufayli, o‘zbek tili alfavitiga C harfini (Ц kirillchada) qabul qilish maqsadga muvofiq bo‘lardi. Chunki, xalqimiz bu harfni hazm qilib bo‘lgan va talaffuz qilaoladi. Shuningdek, bu harf bilan yoziladigan bir qancha baynalnimal so‘zlar ham tilimizga kirib kelgan. Ularni yozishdagi ba’zi noqulayliklar ham bartaraf etilgan bo‘lar edi. [ts] ni C harfining o‘qilishi (transkripciyasi) sifatida qabul qilish mumkin.

Masalan, turklar Cc harfini Jj harfi sifatida qabul qilishgan. Misol uchun, jahon – cihan, jumhuriyat – cumhuriyet, o‘quvchi – öğrenci va boshq.

Agar C harfini kirillchadagi Ц sifatida qabul qilsak, ushbu harf ishtirok etgan so‘zlar quyidagicha yozilgan bo‘lar edi.

№	Kirillchada yozilishi	Amaldagi alfavitda yozilishi	Taklif etilayotgan alfavitda yozilishi	Ingliz tilida yozilishi
1.	Авиценна	Avitsenna	Avicenna	Avicenna
2.	медицина	meditsina	medicina	medicine
3.	Конституция	Konstitutsiya	Konstituciya	Constitution
4.	цемент	sement	cement	cement
5.	цирк	sirk	cirk	circus
6.	цех	sex	cex	workshop
7.	цент	sent	cent	cent
8.	лицей	litsey	licey	liceum
9.	концерт	konsert	koncert	concert

Bizningcha, so‘zlarning bunday yozilishiga qo‘shilib bo‘lmaydi. Hech qaysi o‘zbek bu so‘zlardagi ts birikmasini o‘zga til talaffuzi bilan s tarzida – yagona tovush sifatida aytmaydi, balki yozuvda ko‘rganiga muvofiq (asosan) t ni alohida, s ni alohida o‘qishga majbur bo‘ladi: *antit-sik-lon, biot-sikl, bit-sikl, bitsilindr*, *geot-sentrik* kabi. Oqibatda bu kabi so‘zlarning g‘ayritabiiy talaffuzi hosil bo‘ladi. Shunday ekan, o‘quvchini chalkashtiradigan, so‘zlarning o‘zbekcha talaffuz me’yorlarini buzadigan, tilimiz tabiatiga yot bo‘lgan tavsiyalarni yoqlab bo‘lmaydi. Bu tavsiyalar mahsuli imlo lug‘atlaridan joy olgach, majburiylik maqomini da’vo qiladiki, ular tufayli lug‘at tuzuvchilari tuzatmoqchi bo‘lgan imlomizdagi “har xillik”, aksincha, yana ko‘payganini ko‘ramiz. Shuning uchun kirillchadagi ц uchun c harfini qabul qilish va tegishli so‘zlarni ularga amal qilgan holda yozish to‘g‘ri deb hisoblaymiz: *anticiklon, biocikl, bicikl, bicilindr, geocentrik* kabi.

Alifbo va imloni takomillashtirish bo‘yicha bildirilayotgan fikrlar va mulohazalar orasida quyidagi qarashlar ustun:

a) sh, ch, ng harf birikmalarini bitta harflar bilan ifoda etish. Ya’ni: Sh sh o‘rniga Š š; Ch ch o‘rniga Čč; NG ng o‘rniga Ň ň harflarini olish (1993-yil 2- sentyabrda qabul qilingan variantdagi kabi);

b) harf belgisiga ega bo‘lgan O‘o‘ o‘rniga Ŏ ŏ; G‘ g‘ o‘rniga Ğ ğ harflarini olish, bosma o‘ va g‘ harflarini ularning yozma shakli bilan birxillashtirish; [6].

d) rus tilidan va u orqali boshqa tillardan o‘zlashgan *sirk, sirkul, sex* kabi so‘zlar uchun c harfini qabul qilish.

e) sirg‘aluvchi j (jurnal so‘zi boshidagi undosh) va qorishiq j (jo‘ja so‘zi bo‘g‘in boshidagi undoshlar) uchun ayrim harflar olish. Masalan, sirg‘aluvchi j uchun Ɉ harfini qabul qilish mumkin.

Ayni paytda Google, Microsoft, Huawei, Samsung, LG va boshqa qator yirik texnologik kompaniyalar o‘z dasturiy mahsulotlarini o‘zbekchalashtirayotganini hisobga olsak, alifboni kechiktirmasdan isloh qilishimiz ayni muddao bo‘ladi. Milliy alifbomiz isloh etilib, qulaylashsa, katta-kichik avlodlarga mansub hamyurtlarimiz, shuningdek, yaqin-olis mamlakatlarda yashovchi millatdoshlarimiz yagona yozuv atrofida jipslashadi. Nuqsonsiz, qulay alifbo xalqimizning birligiga, yakdilligiga xizmat qiladi. Turkiyzabon davlatlar va xalqlar o‘rtasida o‘zbek tilining nufuzi keskin ko‘tariladi. Shuningdek, o‘zbek tilining internet va global axborot operatsion tizimlarida qo‘llanish imkoniyatlari oshadi. Loyihada almashtirish taklif qilinayotgan har belgining Yunikodda kodi mavjud bo‘lgani sababli bir harfni kompyuterda terish uchun bitta harakat bajariladi. Eng muhimi, alifbo qulay bo‘lsa, lotin yozuviga to‘liq o‘tish ham tezlashadi, ikkiyozuvlilikka barham beriladi. Albatta, alifbomizdagi bu o‘zgarishlar tilimizning boyishiga va nufuzining ortishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.
3. Rafiyev A. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi va imlosi. –Toshkent, 2003.
4. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. –T.: Universitet, 2002.
5. http://til.gov.uz
6. http://library.navoiy-uni.uz
7. https://uz.wikipedia.org

AKADEMIK YOZUV VA UNI O‘QITISHDAGI MUAMMOLAR

Abdiyeva Mohinur,
Qarshi davlat universiteti magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.n., dots.I.I.Xudoynazarov
abdiyevamohinur@gmail.com

Annotatsiya. Akademik yozuv – bu o‘z fikrlarini qisqa, ammo ishonchli ilmiy matn orqali ifoda etish va oqlash qobiliyatidir. Ushbu maqolada akademik yozuvning kognitiv kompetenlikni o‘stirishdagi roli haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: akademik yozuv, svilizatsiya, ilmiy matn, tadqiqot, dissretasiya.

Inson fikrlash qobiliyatini yangi egallagan dastlabki paytlardan boshlab, u biror narsani yozishni istaydi: fikrlar, g‘oyalar, kashfiyotlar, hayajonli hikoyalar yoki qiziqarli odamlar xotirasini yozma holatda qoldiradi. Biror kishi qanday qilib to‘g‘ri gapirishni hali bilmaganida va uning tili o‘nlab tushunarsiz so‘zlardan iborat bo‘lganida ham, u allaqachon g‘orlar devorlarida hayratlanarli rang-barang va realistik rasmlarni qoldirgan. Keyinchalik, bir kishi nutq so‘zlaganida, odamlar bir-birlariga nima deyishlarini yozish juda muhim bo‘lib qoldi. Shu ehtiyoj tufayli yozuvning ilk shakllari paydo bo‘la boshladi.

Yozuv insoniyat sivilizatsiyasi tarixida oldindan aytish mumkin bo‘lgan davrning boshlanishi edi. Ajdodlarning dunyo va tabiat haqidagi bilimlari avlodlarga aynan yozma asarlarda yetkazilgan. Ishonch bilan aytishimiz mumkinki, yozuv o‘tmish va hozirgi kun o‘rtasidagi bog‘liqlikdir [5].

Akademik yozuv – akademik nutqda yozma matnlar yaratish, olingan asl bilimlarni ma’lum bir ilmiy sohaning tadqiqot mezonlari bo‘yicha, janrning ma’lum bir shaklida kognitiv faoliyat predmetining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq holda tashkil etish va ifodalash

Akademik yozuvning prototiplari so‘nggi besh ming yil ichida toshdagi ierogliflardan qog‘ozdagi harflarga qadar rivojlangan. Bizgacha saqlanib qolgan yozma yodgorliklarda kundalik va diniy ma’lumotlardan tashqari astronomiya va geometriyaga oid ma’lumotlar ham mavjud. Zero, bu fanlar bundan yuz yil avval paydo bo‘lmagani, balki qadimgi dunyoda mavjud bo‘lganligi hech kimga sir emas. Toshlar yoki gipsli

planshetlarga yozilgan birinchi ilmiy ma’lumotlar faqat odamlarning maxsus doirasi uchun mo‘ljallangan edi va yozib olish uchun ishlatilgan qadimgi tillar endi o‘lik deb hisoblanadi.

Har bir sivilizatsiya tarixda yozma iz qoldirgan. Shunday qilib, qadimgi Rim lotin tili turli xil akademik yozma materiallar tiliga aylandi. Ammo vaqt o‘tishi bilan mustamlaka mamlakatlari tomonidan targ‘ib qilingan xalqaro aloqa tillarining kombinatsiyasi paydo bo‘ldi. Buning ajablanarli joyi yo‘q, chunki dunyo uzluksiz muloqot jarayonida edi va aloqa va tushunish nuqtalarini topish kerak edi.

Akademik matn – o‘z fikrini aniq, ishonchli, tartibli, oson o‘qiladigan ilmiy matnda ifodalash va asoslashdir. Matn ochiq va tushunarli bo‘lishi kerak, taqdimot uslubi esa ilmiy bo‘lishi kerak. Akademik matn yozish uchun muallif ikkala lingvistik kompetensiyaga ham ega bo‘lishi kerak – gap, paragraf, matn darajasida so‘z va iboralarni iboralar bilan ifodalay olish, lingvistik vositalardan foydalangan holda fikrlarni so‘zlash; metallingvistik kompetensiyalar – mantiqiy fikrlash, tahlil qila olish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.

Akademik yozuv qoidalariga muvofiq tuzilgan va yozilgan matn har bir strukturaviy element aniq belgilangan modellarga muvofiq qurilgan [2].

Standart strukturaviy va semantik bloklar, leksik va grammatik qismlar, o‘z fikringizni ifodalash va bahslash, dalillarni tushuntirish va dalillarni mantiqiy qurishda foydalanish kerak bo‘lgan stilistik xususiyatlar mavjud. Aynan mana shu standart nutq bloklari fikrlash va o‘z mulohazalarini taqdim etish standartlarini belgilaydi. Akademik matnda bunday standartlashtirish mavjud bo‘lganda, tadqiqotchining o‘ziga xos uslubini, mualliflik uslubini va mualliflik shaxsini rivojlantirish vazifasi keskindir.

Akademik matnlar kalit so‘zlarning tarkibiga ko‘ra ham farqlanadi. Shunday qilib, akademik yozuvda kalit so‘zlarni 6 ta so‘z yoki birikmalar qatori sifatida ko‘rsatish odatiy holdir va kalit so‘zlar maqolaning sarlavhasi, referatı va matnida ishlatilganidan farq qilishi mumkin. Bu maqolada qo‘llanilganlarga nisbatan terminologik parafrazlar yoki umumlashtiruvchi tushunchalar bo‘lishi mumkin, ammo ular ishda muhokama qilinadigan narsalarni aniq aks ettirishi kerak.

Agar umuman akademik yozuvning xalqaro standartlari haqida gapiradigan bo‘lsak, shuni ta’kidlash kerakki, bunday matnlarda “muallif (asarlar, maqolalar)” kabi birinchi shaxs olmoshlari va leksemalardan foydalanish taqiqlanadi. Buning sababi shundaki, bunday matnda asosiy narsa muallif emas, balki matnning o‘zi bo‘lishi kerak [4].

To‘g‘ri va standartlashtirilgan akademik matn juda qisqa paragraflardan iborat bo‘lishi kerak. Ideal paragraf bitta tezisni o‘z ichiga oladi. Uni shakllantirish uchun kirish fikrni shakllantirish uchun kamida uchta jumla kerak, so‘ngra hukm va xulosa uchun dalillar bilan asosiy g‘oya. Yangi tezis yangi paragrafni tashkil qiladi. Har bir tezis oldingi va keyingilari bilan bog‘langan bo‘lishi kerak, shuning uchun paragraflar mantiqiy ravishda bog‘lanishi kerak.Rus amaliyotida akademik yozuvdan foydalanishda ba’zi muammolar mavjud, chunki dastlab akademik yozuv an’analari XX asrning ikkinchi yarmidan chet ellarda, boshqa ijtimoiy-madaniy muhitda, boshqa ruhiy munosabatlarda, uslubiy va didaktik jihatdan tan olingan. Modellar. Akademik yozuv tarixi va uning modellari Rossiya universitetlarining aksariyat o‘qituvchilariga ma’lum emas.Shuningdek, rus ilmiy va ijtimoiy-madaniy muhitida akademik yozish tajribasidan

keng foydalanilmaydi, bu Rossiya fan va ta’limini xalqarolashtirish uchun etarli bo‘ladi. Ta’kidlash joizki, ilmiy matnni zamonaviy xalqaro talablarga muvofiq yaratish uslublari va texnologiyalarini targ‘ib qilish bo‘yicha ma’lum faoliyat mavjud, ammo u juda mahalliy, ichki, tizimsiz xususiyatga ega [2].

Ilmiy matn yozish qobiliyati hayot davomida rivojlanadi va yaxshilanadi. O‘z xabaringizni notanish o‘quvchiga aniq va ishonarli matn shaklida yetkazish qobiliyati faqat amaliyot bilan birga keladi, shuningdek, har bir yangi matn murakkab ish natijasidir. Shu sababdan ushbu qo‘llanma “Akademik yozuv: matn yaratish usullari” deb nomlanadi.

Akademik yozish – bu murakkab va ko‘p qirrali ko‘nikmalar bo‘lib, bugungi kunda butun dunyoda universitetda muvaffaqiyatli o‘qish uchun zarur bo‘lgan barcha boshqa ko‘nikmalarga nisbatan eng muhimi sifatida tan olinadi. Ushbu ko‘nikmalar bo‘limi nafaqat lingvistik (lingvistik, sintaktik va stilistik) balki, birinchi navbatda mantiq, tahlil, tanqidiy fikrlash, obyektivlik va boshqa g‘oyalar va boshqa odamlarning matnlariga hurmat kabi metallingvistik kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi. Bu ko‘nikmalar ko‘pincha talabalarimiz va yosh mutaxassislarimiz uchun yetishmaydi.

Shunga qaramay, O‘zbekistonda akademik yozuv endigina shakllana boshladi. Biz fan bo‘yicha uni o‘rgatishga majbur bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlamaymiz va o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar uchun akademik yozuvlar bo‘yicha darsliklar deyarli yo‘q. Shunga qaramay, yozuvning fan sifatida shakllanishi masalasi allaqachon tayyorlangan. Mamlakatda tobora ko‘proq mazmunli muhokamalar olib borilayotgani va fan bo‘yicha xorijiy mutaxassislarning ularga bo‘lgan qiziqishi tobora ortib borayotgani ushbu muhim an’anaviy fan asoslarini joriy etish vaqti kelganidan dalolat beradi. Tegishli dasturlar va kurslarni ishlab chiqish, Rossiya, Yevropa, Avstraliya va boshqa xalqlar talabalariga yordam beradiganlarga o‘xshash yozish markazlarini ochish talab etiladi. O‘zbekistonda ham kelajak uchun bugungi kunda biz ishonch bilan aytishimiz mumkinki, bu narsa jadal rivojlanmoqda.

Bu muqarrarlikni bugungi kunda akademik va ilmiy jamoatchilikning barcha vakillari his qilmoqda. Uni O‘zbekiston ilm-fani va ta’limning xalqarolashuvi va ochiqligi tarafdorlari, universitet professorlari, ilg‘or olimlar va ilmiy nashrlar muharrirlari kutib olishadi. Biroq, akademik yozuv atrofidagi davra suhbatlari va muhokamalar natijalari shuni ko‘rsatadiki, bir ovozdan akademik yozuvni ta’limga intizom sifatida kiritish zarurligini e’tirof etgan bo‘lsa-da, ularning ishtirokchilari ko‘pincha akademik yozuv nima, uni qanday va kim berishi kerakligi haqida kelishmaydi.

Bunday qiyin vaziyatda mazkur ish murakkab va noaniq maqsadlarni ko‘zlaydi. U aqliy ravishda talabalarni akademik yozishning xalqaro tizimining asosiy tamoyillari bilan tanishtiradi va tahlil hamda sintez orqali ularni o‘z amaliyotiga qo‘shishga yordam beradi. Biz ushbu ishimizda ilmiy matn qanday bo‘lishi kerakligi haqidagi odatiy, ba’zan chuqur ildiz otgan g‘oyalarni chetga surib, tor intizomli, mantiqiy va sog‘lom fikr nuqtai nazaridan, ba’zan esa shunchaki yolg‘on akademik an’analardan xalos bo‘lish, yangi fanga xolis nuqtai nazardan qarash zarurligi haqida fikr yuritamiz.

Talabalarga, izlanuvchilarga, mustaqil tadqiqotchilarga buni amalga oshirishning eng oson g‘oya va an’analarga ko‘nikish bo‘ladi. Ular hali ilmiy matnlarni yozishni

o‘rganmaganlar, bu qiziqarli va umuman zerikarsiz bo‘lishi mumkinligini bilishmaydi. Talabalardan tashqari, ushbu dissretatsiyaning adresatlari turli fanlarning o‘qituvchilari bo‘lib, ular soxta akademik an’analar va mahalliy byurokratik to‘siqlarni yengib o‘tishga intilishadi. Bunday repetitorlar akademik yozuv repetitorlari rolini o‘z zimmalariga olish orqali yangi fanning birinchilari bo‘lishlari mumkin. Bilim berishni boshlagandan so‘ng, ular o‘zlari uchun intuitiv ravishda ishlab chiqqan foydali amaliyotlarni tushunadilar va ehtimol tizimlashtiradilar. Hozirgacha ular o‘zlari uchun unchalik tushunarsiz bo‘lgan savollarga javob topadilar. Natijada repetitorlarning o‘zlari xalqaro standartlarga muvofiq yozishni o‘rganadilar va akademik yozishni fan sifatida o‘qitish tajribasini O‘zbekiston va xorijdagi hamkasblari bilan teng ravishda baham ko‘rishlari mumkin bo‘ladi.

Agar Akademik yozuv o‘qitish yuzasidan qo‘llanma tayyorlansa, qo‘llanma ma’lum darajada o‘zi o‘qimagan va oliy ta’lim tizimida ishlamasa ham, o‘zbek ilm-fanini xalqaro miqyosda olib borish va atrofdagi dunyo millionlab odamlar uchun ochiq bo‘lishidan manfaatdor bo‘lganlarning barchasiga qaratilgan. Bular ilmiy muassasalar rahbarlari, olimlar va tadqiqotchilar, siyosatchilar hamda ilmiy nashrlar muharrirlaridir. Albatta, biz ularni talabalar va o‘qituvchilar bilan bir xil darslik foydalanuvchilari deb hisoblay olmaymiz, ammo akademik yozuv fanlarini rivojlantirishda ularning ishtiroki juda muhimdir.

Aytish kerakki, Akademik yozishning tizimlashtirilgan bilimlari va ko‘nikmalari barcha tadqiqotchilar uchun o‘zlarining shaxsiy bilimlarini shakllantiradigan, fan bo‘yicha ilmiy tajribani rivojlantiradigan, o‘z tadqiqotlarini amalga oshiradigan va pirovardida bularning barchasini hamkasblar muhokamasi uchun ilmiy matn shaklida taqdim etadigan umumiy asosdir.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida “ritorika va kompozitsiya” deb nomlangan akademik yozuv va uning yuqori bosqichi barcha fanlar o‘qituvchilariga o‘quvchilarning o‘z fikrlarini shakllantirish hamda o‘z dalillarini yaratish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan ilmiy fan, bularning barchasini juda yuqori darajada tashkil etadi. Aniq matn shakli ... So‘nggi o‘n yilliklarda ushbu fanning jadal rivojlanishi uni ko‘plab xorijiy universitet dasturlarining asosiga aylantirdi va bugungi kunda u eng dinamik rivojlanayotgan tadqiqot yo‘nalishlaridan biridir.

Afsuski, O‘zbekistonda “akademik yozuv” tushunchasi ko‘pincha undan juda farq qiladigan ko‘proq tanish belgilar tushunchalar bilan aralashib ketgan. “Tadqiqot kompetetsiyalari”, “ilmiy ish metodikasi”, “matnni nutq tahlili”, “nutq madaniyati” yoki hatto “o‘zbek tili”. Bunday qarama-qarshiliklarning oldini olish, o‘qituvchi va talabalarga akademik yozuv fanni fan sifatida tushunish va uning afzalliklarini aniqlashga ko‘maklashish maqsadida darsliklar yaratish rus, ingliz tilidagi ilmiy va o‘quv-uslubiy adabiyotlar asosida yaratilmoqda.

Bugungi kunda yozish qiziqarli yo‘nalishda rivojlanayotgani qiziq. Har qanday til vakillari uchun ma’lum bir fikrni ifoda etish zarur bo‘lsa, biz yana piktogrammalarga qaytamiz. Yo‘l belgilari, kiyim yorliqlaridagi yorliqlar («dazmollamang», «30 daraja yuving» va boshqalar) yoki xalqaro aeroportdagi belgilar nima? Xalqaro aloqaga bo‘lgan ehtiyoj ideografik yozuvga qaytish zarurligini taqozo etadi. Ammo, Xudoga shukur, har doim ham chiroyli emas. $ Belgisi nimani anglatishini hammamiz bilamiz. Bu ideogramma, belgi, dollarning bevosita tasviri emas.

Shubhasiz, yozuvning rivojlanishi davom etadi. Hech shubha yo‘qki, bu voqea tugamagan – u hali ham bizning e’tiborimizga ko‘plab

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. В.Н. Академическое «письмо» (методический аспект). – М.: Изд-во СГУ, 2015. –С. 276.

2. Боголепова С.В. Обучение академическому письму на английском языке: подходы и продукты // Высшее образование в России. 2016. № 1. – С. 87–94.

3. Колябина Н.С. Роль академического письма в формировании общепрофессиональных компетенций магистра // Научные ведомости. Серия Гуманитарные науки. 2016. № 21 (242). – С.180-187.

4. Короткина И.Б. Академическое письмо: процесс, продукт и практика. Учебное пособие для вузов. М.: Юрайт, 2015. –С. 295.

5. Хасянова Д.З. Академическое письмо: история развития и современное состояние. – Москва, Исследовария молодых учёных, 2020.

3-SHO‘BA. DAVLAT TILIDA ISH YURITISH MASALALARI

MILLAT HAMIYATINING MUNTAZAM HIMOYATI

Mahmudov Nizomiddin,
filologiya fanlari doktori, professor,
O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti direktori,

Mamlakatimizda benihoya ko‘lamli islohotlarning naqd natijalari bois “Yangi O‘zbekiston” degan mag‘zi to‘q istiloh istifodasi urfga kirdi. “Yangi O‘zbekistonda el aziz, inson aziz” shiori yurtimizda mutlaqo tabiiy ravishda bosh g‘oya maqomiga ko‘tarildi. Davlatimiz rahbarining izchil va chinakam xalqchil siyosati tufayli inson qadri eng oliy qadriyatlardan biri sifatida e’zoz-u e’tibor, hifz-u himoyat bag‘ridan muqim va mustahkam joy oldi.

Shubhasizki, bu xalqimizning nelarni ko‘rmagan boshini ko‘kka yetkazdi. Zotan, o‘zbekning o‘lmas hikmat yombilari orasida “Qornimga emas, qadrimga yig‘layman” tarzidagi teran va dildagi adoqsiz og‘riq bilan aytilgan haqiqat ham bor. Inson bolasi, xususan, bizning ajdodlarimiz azaldan qorin qayg‘usi bilan emas, balki, avvalo, qadr qayg‘usi bilan umrguzaronlik qilgan. Shuning uchun ham ular hech kimdagidan kam bo‘lmagan qadr tuyg‘usi bilan ilm-fan, ma’rifat, madaniyat va ma’naviyat bobida tengsiz durdonalarni yaratgan, o‘z nomlarini tarix sahifalariga muhrlagan.

O‘zbek tilidagi *qadr* so‘zining asosiy ma’nosi lug‘atda shunday izohlangan: “jamiyatda, kishilar o‘rtasida tutgan o‘rin, o‘zga(lar) tomonidan bo‘lgan hurmat, e’tibor”. Albatta, buni salomat saqlash hamiyat so‘zi bilan ifodalanadi. Bu so‘zning asosiy ma’nosi izohli lug‘atda “or-nomusini, qadr-qimmatini pok saqlash tuyg‘usi” tarzida tavsiflangan. Aytish mumkinki, qadr tuyg‘usi va hamiyat tirikligi bir-biri bilan tamoman uyqash, birisiz ikkinchisining mavjudligi nomumkin bo‘lgan tushunchalar o‘laroq insonning oliy va ardoqli sezgilari sirasiga kiradi. Albatta, til, xususan, ona tili ayni shu qadrning ham, hamiyatning ham hamisha zimnu zaminida yotadigan tushunchalardandir.

Til saltanatining benazir sultoni ulug‘ bobomiz Alisher Navoiyning “Insonni so‘z ayladi judo hayvondin”, “Tilga e’tiborsiz – elga ixtiyorsiz” kabi hikmatlarida odam bolasi uchun tilga ehtiromli munosabatning azaliy va abadiy ehtiyoji, insonlikning bosh belgisi til ekanligi, til va el hurmati tanosibining tarangligi go‘zal shamoyillarda ifoda topgan. Umuman, har qanday tilga, xususan, ona tiliga, biron-bir darajada bo‘lsin, nopisandlik yoki kamsitish bilan qarash inson va el qadriga hurmatsizlik, inson va xalq hamiyatiga daxl qilish tarzida anglanishi, kishilar ko‘nglini, yumshoqroq ta’bir bilan aytganda, og‘ritishi, tabiiyki, yaqin o‘tmishimizda biz buning guvohi bo‘lganmiz.

Bugun yurtimizda xalq hamiyatining muntazam va iddaosiz himoyasi muddaosi bilan o‘zbek tilini davlat tili deb e’lon qilgan qonunning imzolanganiga 33 yil bo‘ldi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida alohida ta’kidlaganidek, “Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma’naviy boylik, buyuk qadriyatdir”. Shuni mamnuniyat bilan ta’kidlamoq joizki, davlatimiz rahbarining doimiy

e’tibori bilan, ayniqsa, so‘nggi besh-olti yil ichida mamlakatimizda o‘zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish borasida yangi bosqich boshlandi. 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiya va maxsus dastur qabul qilingan, kelgusidagi ishlar aniq-tiniq ko‘rsatib berilgan, shu asosda til ilmi tadqiqi, ta’limi va targ‘ibiga daxldor tizimli hamda keng qamrovli ishlar jadal sur’atlarda amalga oshirildi va oshirilmoqda.

Prezidentimizning o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish borasidagi ko‘rsatmalari asosida izchil harakat olib borilmoqda. Mamlakatimizda istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlar tillarining rivojlanishi uchun keng imkoniyat hamda sharoitlarning yaratilgani ham bor haqiqatdir. Yurtimizda qaror topgan benihoya oqil va odil til siyosati tufayli ko‘p millatli xalqimizning birligi, hamjihatligi yanada mustahkamlanmoqda. O‘zbek tili bayrog‘imiz, gerbimiz, madhiyamiz qatorida davlatimizning muqaddas hamda muhtasham ramzlaridan biri sifatida takomil va rivoj o‘zanidan bormoqda. Har yili 21-oktabr “O‘zbek tili bayrami kuni” sifatida butun xalqimiz tomonidan cheksiz mamnuniyat bilan keng nishonlanmoqda, bu kun amalga oshirilgan ishlar sarhisob qilinib, yangidan-yangi rejalarning tarhi chizilmoqda.

Tilning ijtimoiy hodisa ekanligi haqida ko‘p gapirilgan. Shubhasizki, tilning paydo bo‘lishi, o‘zlashtirilishi va taraqqiyotiday murakkab jarayonlarni jamiyatdan ayro holda aslo tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bu murakkab jarayonda ijtimoiy muhitning, kishilik jamoasining, uy-xonadon degan birlikning hal qiluvchi omil ekanligidan iborat haqiqatni inson aqli hazm qilib ulgurguncha, ne-ne nasllar yugurik asrlar to‘zoni ichra abadga qo‘nim topgan.

Eramizdan oldin ham, bizning eramizda ham dunyoning turli burchaklarida ana shu haqiqatni izlab, turli-tuman tajribalar o‘tkazilgan. Jumladan, “Mo‘g‘ullar imperiyasining umumiy tarixi” (Parij, 1705) nomli kitobda XVI asrda Akbarshoh tomonidan o‘tkazilgan bir g‘aroyib tajriba haqida batafsil yozilgan. Ulug‘ shoh “Biron-bir tilga o‘rgatilmagan odamning tabiiy tili yahudiy tili bo‘ladi”, degan g‘ayriilmiy gapni eshitib qoladi. Shunda Akbarshoh bolaga hech qanday til ataylab o‘rgatilmasa, u, chindan ham, qaysi tilda gapiradigan bo‘lishini bilishni istaydi. Ana shu maqsadda shoh o‘n ikkita emizikli bolani ajratib olib, Agradan olti mil uzoqlikdagi qal’aga joylashtiradi, ularni tarbiyalashni o‘n ikki soqov enagaga topshiradi. Tilsiz qorovulga qal’a darvozasini ochish qat’iyan taqiqlanadi. Bolalar o‘n ikki yoshga yetganda, shoh ularni huzuriga keltirishni buyuradi va saroyga barcha tillarni biladigan donishmandlarni ham taklif etadi. Agrada yashaydigan bir yahudiy bolalar, chindan ham, yahudiycha gapirish yoki gapirmasliklariga hakamlik qilishi kerak edi. Agrada arablar va xaldey (somiylardan bo‘lgan qadimiy xalq)lar bisyor edi. Hind faylasuflari bu bolalarning tili sanskrit (qadimgi hind tili)cha bo‘lib chiqadi deb hisoblardi. Ammo bolalar shoh huzuriga keltirilganda, barcha hayratdan tosh qotib qoladi, chunki ular hech bir tilda gapirmas edi. Bechoralar o‘z enagalaridan fikrlarini faqat turli imo-ishoralar bilan ifodalab, hech qanday tilsiz muomala qilishni o‘rgangandi. Ular bu notanish, begona jamoadan qo‘rqib-hurkib turardi, ochilmay tugilgan bu tillarning tugunini yechmoq tamoman mushkul, ularga nutq tovushlarini ayttirmoq zamoni o‘tib bo‘lgan edi.

Qilni qirq yorgan aksariyat dunyo tilshunoslarining ta’kidlashlaricha, nafaqat tilni o‘zlashtirish, balki tilning ibtidodan paydo bo‘lishi ham muayyan jamoada birovning boshqasiga nimanidir aytish, nimagadir undash, o‘zining muayyan hissiy holatini bildirish kabi ehtiyoji mahsulidir. Qisqacha aytganda, jamoa-jamiyat bilan bog‘liqdir. Aytish joizki, tilning takomilu taraqqiyotini ham, uning shaxs ma’naviy-madaniy tashakkuli va ajdodu avlodning zamonlar osha vorisiyligidagi qiyossiz o‘rnini ham jamiyatsiz anglash mutlaqo mumkin emas. Shuning uchun ham jamiyat hamda xalq taraqqiyoti, tinchligi va farovonligini, ularning milliy manfaatlarini ta’minlashday oliy maqsadni birlamchi burchi deb bilgan davlat o‘z hududida milliy tilni davlat tili maqomiga ko‘tarishi, uning tirikligi muhofazasi hamda har taraflama kamoloti uchun qayg‘urishi qonuniy va haqqoniy zaruriyatdir. Prezidentimizning 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi tarixiy Farmonida behad o‘rinli ta’kidlanganidek, “Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada avvalo o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir”.

Tilsiz milliy ruh degan bemisl teran va ulug‘vor tushunchaning mohiyati tamoman muallaqlashadi. O‘zbek pedagogikasining atoqli namoyandalaridan biri Abdulla Avloniy 1917-yilda ikkinchi marta nashr qilingan “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida bu haqiqatni mana bunday ifodalagan: “Har bir millatning dunyoda borlig‘in ko‘rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur”. Demakki, milliy ruh, milliy ong, milliy ma’naviyat, milliy madaniyat kabi tushunchalarning tayanch ustuni, tirik tirgagi ona tilidir. Zabardast o‘zbek tilshunosi, akademik Alibek Rustamov bu holatni go‘zal va ohorli qiyos vositasida mana bunday tavsiflagan: “Tirik jonning hayoti uchun havo qanchalik zarur bo‘lsa, insonning inson sifatidagi turmushi va uning insonligini belgilovchi ma’naviy tirikligi uchun so‘z (ya’ni til) shunchalik zarurdir”.

Til nafaqat ma’naviyat va madaniyatning, balki tafakkurning ham asosiy tayanchi, shuning uchun ham milliy tafakkur tushunchasi mavjud. Tabiiyki, insonning dunyoni bilishiday adoqsiz tadrijiy jarayonning qudratli harakatlantiruvchi kuchlarining boshida tafakkur turadi. Bu kuch ta’rifini ulug‘ mutafakkir bobomiz Alisher Navoiydan o‘tkazib hech kim aytolgan emas: “Har ishki qilmish odamizod, Tafakkur birla bilmish odamizod”. Shuni ham yodda tutish joizki, tafakkurni voqelantiradigan, unga faqat shamoyilgina emas, balki aniq o‘zan baxsh etadigan qudrat esa tildir. Til milliy tafakkur tarzini tayin etadi va mutlaqo tanosibiy bir intizomda tafakkur takomili tilning tadrijiy taraqqiyotini ta’minlaydi. Insoniyat kamolotida, uning tafakkuri, tasavvuri va taxayyuli parvozida tilning beqiyos omil ekanligi bugun e’tirof etilgan haqiqatlardandir.

Mashhur olmon allomasi V. Gumboldt va uning davomchilarining e’tiroflaricha, til kishilar o‘rtasidagi shunchaki aloqa vositasigina emas, u millatning dunyoni ko‘rar ko‘zi, eshitar qulog‘i, anglar aqlidir. Har bir xalqning boshqalardan farqli milliy nigohi bor. Har bir til vakili muayyan tovushni boshqasidan farqli eshitadi, masalan, o‘zbek itning tovushini “vov-vov” deb, rus “gaf-gaf” deb va hokazo tarzda ifodalaydi. Idrok intizomidagi farqlarni ham sezmaslik mumkin emas, masalan, ruschadagi “ne dayot govorit” birikmasini o‘zbekchaga “gapirishga bermayapti” tarzida o‘girish ana shu

ruschadagi idrok intizomini o‘zbekchaga noo‘rin ko‘chirish natijasidir, o‘zbekcha idrok intizomiga muvofiq “gapirishga qo‘ymayapti” tarzida bo‘lishi zarur. Til bu sinoatli olamni muntazam inkishof qilishning birlamchi qudratli qurolidir.

Dunyo adabiyotining nomdor namoyandasi Chingiz Aytmatov “Avezov haqida so‘z” nomli maqolasida “Til xalqning avtoportretidir”, degan behad teran obrazli ta’rifni aytgan. “Avtoportret” so‘zining ma’nosi, ma’lumki, “rassom yoki haykaltaroshning o‘z qo‘li bilan ishlagan o‘z tasviri, portreti”dir. Chindan ham, masalan, o‘zbek tili o‘zbek xalqining siyratu suratini, tafakkur va taxayyul olamini, o‘tmishu bugunini boricha aks ettiradigan, muhimi, shu tilning o‘zi vositasida hamda “o‘z qo‘li” bilan “chizilgan” ham ichki, ham tashqi xolis qiyofasidir. Bu qiyofa xalqimizning ming yillik lisoniy-tarixiy taraqqiyoti jarayonlarida, betakror madaniy va aqliy, adabiy-badiiy durdonalarida bo‘y ko‘rsatib turibdi. Bu qiyofa parvarishu muhofazaga, e’zozu ehtiyotga, ko‘z qorachig‘idek asramoqqa, yanada kamolot sari eltmoqqa shoyon muhtasham boylikdir.

Dunyo til ilmida til va tafakkur munosabati borasida turli fikrlar bildirilgan, ulardan biriga ko‘ra, til tafakkurning shakllanishi jarayonlarida bevosita ishtirok etadi. Bunday fikrni ilgari surganlardan biri amerikalik taniqli olim Benjamin Li Uorfdir. Uning nazariy qarashlarini tahlil qilgan Maks Blek “Til mustaqil mazmunning tashqi ifodasidir, til va mazmun o‘rtasidagi munosabat kiyimning o‘zi yopib turgan tanaga munosabatiga o‘xshaydi”, qabilidagi hukm aytilsa, bunga Uorfning mutlaqo qo‘shilmagan bo‘lishini ta’kidlaydi. Buning ma’nosi shuki, tilni Uorf hech qachon ikkilamchi, ya’ni tafakkur shakllanishidagi yordamchi vosita deb hisoblamagan. Ana shu jihatdan qaraganda, mutafakkirning quyidagi ikki mulohaza-hukmi ham alohida e’tiborga molik: “Ta’kidlamoq kerakki, “hind-evropa tillarida gapiradigan barcha zamonaviy olimlar” va “barcha olimlar” tushunchalari bir-biri bilan teng emas. Zamonaviy xitoy yoki turk olimlarining dunyoni Yevropa olimlari kabi tavsiflashi faqat shuni ko‘rsatadiki, ular o‘z tafakkur tizimlarini mustaqil holatda ishga solmaganlar, balki butun g‘arbcha tafakkur tizimini yaxlitligicha o‘zlashtirganlar”. “Aytish mumkinki, insoniyatni kelajakda bir tilda, xoh ingliz, xoh nemis yoki xoh rus tilida, gaplashishini tasavvur qiladiganlar insoniy tafakkur taraqqiyotiga ulkan zarar keltirishi aniq bo‘lgan holatni ideal sifatida qabul qilganlari uchun qattiq adashadi”. Olimning bu gaplaridagi ayovsiz haqiqatni unutmaslik lozim. Til tafakkurning shunchaki libosi, tashqi tomoni emas, balki tafakkurning tashakkulida bevosita ishtirok etadigan, uning o‘zanini tayin etadigan benazir unsurdir. Ana shuning uchun ham unutmaslik zarurki, ona tili darsliklarini faqat xorijiy til darsliklari qolipida yaratish, ona tilini o‘qitish jarayonlarini tamoman chet tili ta’limi andozalariga solish maqsadga muvofiq emas. Ona tili ta’limida raso milliy tafakkur va rost milliy ma’naviyatning muntazam tarbiyasi ustuvor yo‘nalish bo‘lmog‘i kerak.

“Davlat tili haqida”gi Qonunimizda bu tilni rivojlantirish va uning sofligini saqlash masalalariga daxldor qoidalar belgilangan. Bugungi kunda o‘zbek tili rivojlangan tillardan biri sifatida hayotimizning barcha sohasida emin-erkin qo‘llanmoqda. O‘zbek tilining sofligini saqlashday ezgu maqsad bilan ba’zan u yoki bu o‘zlashgan (arab, fors, rus, yevropa tillaridan) so‘zni tildan chiqarish, uning o‘rniga boshqa so‘zni kiritish borasidagi yetarlicha o‘ylanmagan yoki ilmiy-mantiqiy asosi anchayin bo‘sh taklif-mulohazalar bildiriladi, o‘zbek tilidagi har qanday o‘zlashmaga g‘ashlik bilan qaraladi,

har qanday o‘zlashmani eski turkiy tilga oid so‘z bilan almashtirish tavsiya qilinadi. Holbuki, Yer yuzidagi 6909 ta tildan (YUNESKOning 2012-yildagi ma’lumoti) lug‘at boyligida o‘zlashmalar tamoman yo‘q bo‘lgan birorta til mavjud emas. Hatto eng yirik va rivojlangan deb hisoblangan tillarda o‘zlashmalar anchayin katta miqdorni tashkil etadi. Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi Mahmudxo‘ja Behbudiy tomonidan 1915-yilda aytilgan quyidagi fikrlarning nechog‘li asosli ekanligiga diqqat qiling: “...Ming yil avvalgi tilg‘a qaytmoq qonuni tabiatg‘a muxolifdur. Chunki moziyg‘a ruju’ mumkin yo‘q. Begona tildan so‘z olmoqdan qutulgan til yo‘qdur. Anglischani arabchadan so‘ngra eng boy til derlar. Ma fihi (shunga qaramasdan), o‘n minglar ila begona lug‘atlarni majburan olganligini yozarlar. Xulosa fikrimiz shuki, yalg‘uz turkcha so‘ylamak va yozmoq abadan mumkin yo‘q. Baqadri imkon arabiy va forsiyni oz yozayluq. Barcha ilmu fan istiloh lug‘atlarig‘a turkchadan muqobil oxtarib vaqtni zoye etmayluk”. Bugungi globallashgan XXI asrda esa bir-biri bilan muloqotda bo‘lmagan til yoki xalqning o‘zi yo‘q, tillararo so‘z olish-berish ancha faollashgan va bu odatiy hol tusini olib bo‘lgan. Tilimizga kirib, o‘zlashgan, lug‘atimiz tarkibidan joy olib ulgurgan har qanday chet so‘zga muqobil izlayverish, o‘rinli-o‘rinsiz uni almashtirish payidan bo‘laverish foydali yumush emas.

Ko‘hna va donishmand Sharq odamlarida, xususan, bizning alloma bobolarimizda ko‘p tilni bilish benihoya mo‘tabar fazilat hisoblangan va ana shu fazilat sohiblari bo‘lganliklari bois ham ular jahon ilm-fani hamda adabiyotida muhtasham va muhtaram o‘rinlarni egallagan. Hatto XIII asrda yashagan tarixchi Ibn Xallikonning ko‘rsatishicha, buyuk olim Abu Nasr Forobiy o‘z ona tili — turkiy tildan tashqari yetmishdan ortiq tillarni bilgan. Bu haqdagi rivoyatlardan birida aytilishicha, bir kuni Damashq hokimi huzuridagi olimlar yig‘iniga Forobiy ham kelib qoladi. O‘z taxtida o‘tirgan hokim Sayfutdavla Forobiyni o‘tirishga taklif etadi. Forobiy: “O‘zimning martabamga qarab o‘tiraymi yoki sizning martabangizga qarab o‘tiraymi?” deb so‘raydi. Hokim: “O‘zingning martabangga qarab o‘tir”, deb javob beradi. Olim to‘ppa-to‘g‘ri hokimning taxti yoniga borib o‘tiradi. Bundan g‘azablangan hokim ko‘pchilikka noma’lum bo‘lgan bir tilda soqchisiga: “Bu odobsizlik qildi, axloqsizligi uchun uni ketayotganida jazolanglar!” deydi. Shunda Forobiy: “Men hech qanday gunoh qilganim yo‘q-ku, nima uchun meni jazolaysiz?” deb so‘raydi. Hayratga tushgan hokimning “Bu tilni xalq orasida hech kim bilmas edi, sen qayerdan o‘rgangansan?” degan savoliga Forobiy: “Men ko‘p tillarni o‘rganganman”, deb javob beradi. “Ikkinchi muallim”ni tanib qolgan hokim olimdan uzr so‘raydi.

Yurtimizda ko‘p tilni bilish, ko‘p tilni o‘rganishga harakat qilish azaldan an’ana tusini olgan. Bu an’ananing mamlakatimizda bardavom bo‘lishini ta’minlash borasida davlatimiz rahbari doimiy ravishda g‘amxo‘rlik ko‘rsatib kelmoqda. Prezidentimiz o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida “Biz yoshlarimizning jahon tillarini egallashga bo‘lgan ulkan qiziqish va intilishlarini har doim qo‘llab-quvvatlaymiz”, deb ta’kidlar ekan, XX asr boshida olti tilli — o‘zbek, arab, fors, hind, turk va rus tillarida lug‘at tuzgan ma’rifatparvar Ishoqxon Ibratning quyidagi so‘zlarini eslatadi: “Bizning yoshlar albatta boshqa tilni bilish uchun sa’y-harakat qilsinlar, lekin avval o‘z ona tilini ko‘zlariga to‘tiyo qilib, ehtirom ko‘rsatsinlar. Zero, o‘z tiliga sadoqat — bu vataniy ishdir”.

Shubhasizki, odam har qancha koʻp tilni bilmasin, uning tamomila va tom maʼnoda oʻziniki boʻlgan tili faqat bitta boʻladi, albatta, bu uning oʻz ona tilidir. Shuning uchun ham boshqa tillarni oʻrganishda ona tili orqali u tillar olamiga kirish aql va mantiqning yoʻrigʻidir. Ona tilidagi sobitlik — milliy tafakkur oʻzanini salomat saqlaydi.

Yana shuni ham taʼkidlamoq joizki, xalqimizda "Oʻz qadrini bilmagan oʻzganing qadrini bilmas" tarzidagi bikir bir hikmat bor, shu hikmat taʼbiri doirasida atoqli oʻzbek shoiri Erkin Vohidov oʻzining "Soʻz latofati" nomli latif kitobida quyidagi haqqoniy gaplarni aytgan: "Biz oʻz ona tilimiz qadriga yetsak, arab tilining boyligi va mukammal qurilishini qadrlaymiz, fors tilining nafosati va goʻzalligidan bahra olamiz, ingliz, rus tillarining qudratini his qilamiz. Ularni chuqur oʻrgansak, raqobat toʻla bu olamda bamaylixotir qadam tashlaymiz".

Intihosiz iftixor bilan aytish joizki, oʻzbek tili bu kurrai zamindagi eng qadimiy va boy tillardan biridir. Bu tilda bugun ellik millionga yaqin kishilar soʻzlashmoqda, bu tilning chin muhiblari soni ortib bormoqda. Koʻplab turli xorijiy mamlakatlarda oʻzbek tilini katta ishtiyoq bilan oʻrganishmoqda. Mamlakatimizda millat va xalq hamiyatining muntazam himoyatini yelkalagan "Davlat tili haqida"gi Qonunimizga muvofiq tarzda shakllangan xolis til siyosati bois oʻzbek tili hamda boshqa tillar erkin rivoj va takomil yoʻlidan bormoqda.

Oʻzbekiston mustaqil davlat sifatida oʻzining ozod va obod soʻzi bilan, bu soʻzga monand koʻlamli faoliyati bilan oʻzligini dunyoga namoyish etayotir.

DAVLAT TILIGA OID NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR TAHLILI

Roʻziyev Zafar,
yuridik fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Ushbu maqolada amalga oshirilayotgan til siyosati borasidagi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlarining mazmum-mohiyati haqida soʻz boradi.

Kalit soʻzlar: qonun, farmon, qaror, til siyosati, islohot, oʻzbek tili, davlat tili, hujjat

Ulugʻ jadid maʼrifatparvari Abdulla Avloniy ona tili maqomi haqida shunday degan edi: "Har bir millatning dunyoda borligʻini koʻrsatadurgan oinayi hayoti uning tili va adabiyotidir. Milliy tilni yoʻqotmak millatning ruhini yoʻqotmakdir". Haqiqatan ham, millatning borligi uning tili bilandir, shuning uchun ham har bir rivojlangan davlatda tilning nufuzi normativ-huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlanib qoʻyiladi.

Maʼlumki, oʻtgan oʻttiz yil mobaynida davlat tiliga oid 1 ta qonun ("Davlat tili toʻgʻrisida"), 1 ta qaror (Vazirlar Mahkamasining "Oʻzbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida" qarori), yaʼni 2 ta normativ hujjat amalda boʻlgan boʻlsa, soʻnggi uch yilda yigirmaga yaqin normativ hujjatlar qabul qilindi. Quyida mazkur hujjatlar xususida soʻz yuritiladi.

Xususan, *"Oʻzbek tili bayrami kunini belgilash toʻgʻrisida"* Qonuni bilan 21-oktabr oʻzbek tili bayrami kuni deb belgilandi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining *“O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”*gi Farmoni (2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son) asosida Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil qilinib, uning vazifalari belgilab berildi. “O‘zbek tili bayrami kuni”ni belgilash bo‘yicha qonun loyihasini, “Davlat tili to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini bugungi kun talablari nuqtai nazaridan takomillashtirgan holda uning yangi tahrirdagi loyihasini ishlab chiqish, xoijiy davlatlar tajribasini o‘rgangan holda ilmiy asoslangan yangi so‘z va atamalarni rasmiy iste’molga kiritish bo‘yicha Atamalar komissiyasini tashkil etish, 2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi va davlat dasturini tayyorlash vazifalari belgilandi.

Buning amaliy ifodasi natijasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining *“Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”*gi (2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son) qabul qilindi. Farmon bilan 2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi, 2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini 2020-2022-yillarda amalga oshirish dasturi, 2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining *“Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”* qarori (2019-yil 04-oktabrdagi PQ-4479-son) bilan O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita tarkibi, O‘zbekiston Respublikasining **“**Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligi munosabati bilan o‘tkaziladigan ommaviy ma’naviy-marifiy chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 10 dan ortiq quyidagi qarorlari qabul qilindi:

Birinchidan, Vazirlar Mahkamasining *“Mamlakatda davlat tilida ish yuritishni samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”*gi qarori (2020-yil 20-yanvardagi 34-son) bilan Davlat boshqaruvi organlari, xo‘jalik birlashmalari rahbarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman (shahar) hokimlari davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga so‘zsiz rioya qilish, ish yuritishni davlat tilida tashkil etishga shaxsan mas’ul ekanliklari belgilandi, barcha vazirlik va idoralarda rahbarning ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi lavozimi joriy etildi. Maslahatchi o‘z maqomiga ko‘ra davlat organlari va xo‘jalik birlashmalari rahbarlarining o‘rinbosariga tenglashtirildi.

Ikkinchidan, Vazirlar Mahkamasining *“O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”*gi qarori (2020-yil 29-yanvardagi 40-son) bilan *49 nafar* mutaxassislardan iborat tarkibda Vazirlar Mahkamasi huzurida Atamalar komissiyasi tashkil etildi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi.

Uchinchidan, Vazirlar Mahkamasining *“O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasining faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”*gi qarori (2020-yil 10-fevraldagi 73-son) asosida Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi tashkil etildi, O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi vasiylik kengashining tarkibi, tuzilmasi, O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi, Jamg‘armaning asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari belgilandi.

To‘rtinchidan, Vazirlar Mahkamasining *“Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”*gi qarori (2020-yil 03-martdagi 117-son) bilan Universitet oliy ta’lim muassasalarida o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasini takomillashtirish, o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchilarining malakasini oshirish, ilmiy tadqiqotlar olib borish, davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish hamda atamashunoslik bo‘yicha tayanch oliy ta’lim muassasasi etib belgilandi, Universitet huzurida yuridik shaxs maqomiga hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi davlat universitetlari hamda pedagogika institutlari huzurida hududiy bo‘linmalariga ega bo‘lgan Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi tashkil etildi.

Beshinchidan, Vazirlar Mahkamasining *“O‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”*gi qarori (2020-yil 11-martdagi 139-son) asosida O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tuzilmasida qo‘shimcha 5 ta shtat birligidan iborat Sotsiolingvistika bo‘limi tashkil etildi, Institutning sotsiolingvistika sohasidagi qo‘shimcha vazifalari belgilandi.

Oltinchidan, Vazirlar Mahkamasining *“O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilishda davlat tilini bilish darajasini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”*gi qarori (2020-yil 28-sentabrdagi 592-son) bilan O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilishda davlat tilini bilish darajasini aniqlash tartibi to‘g‘risida Nizom tasdiqlandi. Mazkur Nizom bilan O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilishda chet davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning davlat tilini bilish darajasini aniqlash tartibini belgilandi.

Yettinchidan, Vazirlar Mahkamasining *“Rahbar kadrlar va mas’ul lavozimlarga tayinlanadigan shaxslarning davlat tilini bilish darajasini aniqlash va ularga davlat tilini bilish bo‘yicha daraja sertifikatini berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”*gi qarori (2021-yil 04-fevraldagi 52-son) bilan 2021-yil 1-apreldan boshlab mas’ul lavozimlarga tayinlanadigan shaxslar uchun davlat tilini bilish bo‘yicha daraja sertifikatlari joriy etildi, daraja sertifikati berish Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yildi.

Sakkizinchidan, Vazirlar Mahkamasining *“Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to‘liq o‘tishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”*gi qarori (2021-yil 10-fevraldagi 61-son) bilan lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to‘liq o‘tishni ta’minlash bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tasdiqlandi, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to‘liq o‘tishni ta’minlash

bo‘yicha respublika ishchi guruhi (*27 nafar*) tuzildi. Topshiriqqa asosan, 2023-yil 1-yanvarga qadar:

– internet tarmog‘idagi O‘zbekiston Respublikasi rasmiy veb-saytlarining lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga to‘liq o‘tkazilishini ta’minlash;

– ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari yuzasidan tayyorlangan dissertatsiyalar himoyasi bilan bog‘liq jarayonlarning lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida bo‘lishini ta’minlash;

– ish qog‘ozlari, turli blanklarni lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida bo‘lishini ta’minlash;

– joy, ko‘cha, atamalar, tashkilotlarning nomlari, peshlavhalar, ommaviy targ‘ibot vositalari, reklama va e’lonlarni to‘liq lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida yozilishini ta’minlash;

– markaziy, mahalliy bosma va elektron ommaviy axborot vositalari, internet saytlari, nashriyotlar, matbaa korxonalari faoliyatini to‘liq lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga o‘tkazish;

– 2023-yil 1-yanvardan boshlab tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’i nazar, barcha tashkilotlarda ish yuritish hujjatlari va boshqa hujjatlarni lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida ishlab chiqish, qabul qilish va e’lon qilish amaliyotini to‘liq joriy qilish belgilandi.

To‘qqizichidan, Vazirlar Mahkamasining *“Savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish obyektlariga nom berishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”*gi qarori (2021-yil 16-martdagi 144-son) asosida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi hamda uning hududiy bo‘linmalari tomonidan savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish obyektlariga davlat tilida nom berish xizmatini ko‘rsatish, xizmat ko‘rsatish bo‘yicha Markazga qo‘shimcha vazifalar yuklandi.

O‘ninchidan, Vazirlar Mahkamasining *“Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”*gi qarori (2021-yil 28-oktabrdagi 662-son) bilan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi, 2023-yil 1-yanvardan boshlab loyihani ishlab chiquvchining tashabbusi bilan yoxud topshiriqqa asosan vazirlik, idoralar bilan kelishishdan oldin loyiha matni davlat tili qoida va talablariga muvofiqligini tekshirish maqsadida lingvistik ekspertizadan o‘tkazilishi belgilab qo‘yildi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash kerakki, Vazirlar Mahkamasining Ma’naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamenti tomonidan mazkur normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosi bo‘yicha tizimli ravishda monitoring olib borilmoda. Qonunchilik hujjatlarining o‘z vaqtida, sifatli ijro etilishi ona tilimizning nufuzi va mavqeyini oshishida, davlat tili sifatidagi haqiqiqiy maqomiga ega bo‘lishida muhim omil hisoblanadi. Bu esa, har bir rahbar xodimning ijro intizomi bo‘yicha mas’uliyatli bo‘lishga, davlat tiliga munosabatda jamoasiga o‘rnak ko‘rsatishga undaydi. Zero, Muhtaram Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek: “Davlat tili masalasi milliy g‘oyamizning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lishi zarur”.

GLOBALLASHUV JARAYONLARIDA DAVLAT TILINING O‘RNI

Sobirov Abdulhay,
filologiya fanlari doktori, professor

Tilga ixtiyorsiz – elga e’tiborsiz.
(Alisher Navoiy)

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi va uning olmashumul ahamiyati, bugungi kunda va kelgusida davlat tilini rivojlantirish uchun nimalarga e’tibor berishi masalasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: davlat tili, o‘zbek tili, globallashuv, til sohiblari, xavfli tillar, zaif tillar, yo‘qolayotgan tillar, dunyo tillari xaritasi, ona tili o‘qitish.

Til haqida gap ketganida *“Buyuk davlat tili boqiydir”, “Til – Vatan ramzi, timsoli, ruhi”, “Til – millat tayanchi”, “Til – millat boyligi”,“Til – millatning ko‘zgusi”, “Til – tamaddaun taraqqiyoti asosi”, “Til – millat nishoni”, Ona tili – millatning ruhi, or-nomusi”, “Ona tili – xalq ruhi, ma’naviyatimiz ko‘zgusi”, “Ona tili – millat ma’naviyatining mustahkam poydevori”* degan jumlalarni tez-tez takrorlashga o‘rganib qolganmiz. Barchaga ma’lumki, mazkur gaplar ostida birinchi galda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni yotadi. Ushbu olamshumul hodisaga ham 33 yil to‘ldi. Ko‘hna tarix oldida bu yillar arzimas sanaga o‘xshaydi, ammo chuqurroq o‘ylab ko‘rilsa, xalqimiz o‘tgan yillar mobaynida asrlar davomida ko‘rmagan voqea-hodisalarni boshidan kechirdi. Davlat tili haqidagi gaplar, xatti-harakatlar asov daryodek jo‘sh urgan 80-yillarning oxiri va 90-yillarning boshidagi hayotimizni bugungi shiddat bilan kechayotgan kunlarimizga mutlaqo tenglashtirib bo‘lmaydi. Mustaqillik xalqimizning turmush tarzini, dunyoqarashini, orzu-umidlarini va intilishlarini tubdan o‘zgartirib yubordi. Sanoat, xalq jo‘jaligi, madaniyat, san’at, adabiyot, musiqa – bir so‘z bilan aytganda, barcha jabhada tub islohotlar amalga oshirildi. Turgan gap, bu o‘zgarishlar birinchi galda “***milliy ma’naviyatimizning bitmas-tuganmas bulog‘i***” [1] sanalgan ona tilimizda o‘zining aks-sadosini ko‘rsatdi.

Bugun “dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma’naviy boylik, buyuk qadriyat [2]” sifatida Davlat Bayrog‘i, Gerbi, Madhiyasi kabi muqaddas ramzlar qatorida xalqimizni bir davlatga, bir yurtga birlashtirib, jipslashtirib turibdi [3].

“O‘zbek Milliy Ensiklopediyasi”da davlat tiliga shunday ta’rif beriladi:

DAVLAT TILI – muayyan mamlakatda qonun chiqarish ijroiya va sud hokimiyatlarida ish yuritish uchun rasmiy belgilangan til [4].

Bu lisoniy birlik, ya’ni davlat tili degan tushuncha ostida bizni chuqur o‘ylantiradigan, ona tilimizning kelajak taqdiri ustida bosh qotirishimiz lozim bo‘lgan bir talay masalalar o‘z yechimini kutib yotibdi. Ayniqsa, hozirgi tezkor, tahlikali globallashuv jarayonlarida siyosiy, ijtimoiy, huquqiy-me’yoriy tirgaklari zaif tillarning muntazam ravishda yo‘qlikka yuz tutib borayotgani dunyo xalqlarini har taraflama o‘ylashga majbur qilmoqda. Shu o‘rinda “O‘zbek tilini saqlab qolish uchun nimalar

qilish kerak?” degan savolning paydo bo‘lishi tabiiy. Ona tilimiz taqdirida ham e’tibor qilinmasa yo‘q bo‘lib ketish xavfi bor.

Harorld F.Shiffmanning aytishicha: “*Til milliy o‘zlikni belgilovchi kuchli omil, milliy merosni o‘zida saqlaguvchi vositadir. Til grammatikasi, lug‘at tarkibi, uslublariga yuzaki yondashish, til qashshoqligi va uning boyitib borilmagani, milliy adabiyotni o‘rganuvchilar sonining kamayishi uning tanazzulga yuz tutishini bildiradi*” [5].

YUNESKOning “Yo‘qolib ketish xavfi ostidagi tillar xaritasi” (*Atlas of the World’s Languages in Danger*)ga ko‘ra hozirda 2500 ta til yo‘qolib ketish arafasida turibdi. Ulardan 230tasi allaqachon o‘lik tilga aylanib bo‘ldi. Bu jarayonlarni tadqiq etayotgan mutaxassislar tomonidan yo‘qolib ketgan va yo‘qolib borayotgan noyob tillar bilan shug‘ullanuvchi reliktolingvistika yoki retrolingvistika, sun’iy tillar ustida tadqiqot olib boruvchi interlingvistika, bobo tillar qurilishini o‘rganuvchi komparalingvistika va qadimiy tillarni tadchqiq etuvchi arxeolingvistika kabi yangi yo‘nalishlarni ochish takliflari berilmoqda. 1994-yili “Yo‘qolib borayotgan tillarning Qizil kitobi” (*Red Book of Endangered Languages*), Yo‘qolib borayotgan dunyo tillarining interaktiv xaritasi” **(***Interactive Atlas of the World’s Languages in Danger*) yaratildi.

Ushbu hujjatlarda barchaning, xususan, til qonunchiligi va amaliyoti bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislarning, jamoatchilikning e’tiborini yo‘qolib borayotgan tillarga qaratish, lisoniy rang-baranglikni saqlab qolish nazarda tutilgan.

Atlasda tilning saqlanish darajasiga quyidagi til guruhlari berilgan bo‘lib, ularni hisobga olish biz – o‘zbek tili sohiblari uchun nihoyatda zarur.

1. Xavfsiz tillar (*safe*) – avlodlar tomonidan qo‘llanib kelingan va ular o‘rtasida uzilishlar bo‘lmagan, hozirda ham davom etayotgan tillar: *ingliz, arab, rus, tatar, tojik, qozoq* va h.k. Ular orasida o‘zbek tilining ham borligi quvonarli hol.

2. Zaif tillar (*vulnerable*) – ko‘pchilik bolalar gapirsa ham qo‘llanish doirasi cheklangan tillar: *chuvash, tuva, yoqut, belorus, osetin* kabi. Mazkur tillardan faqat uyda foydalanishadi, ularning yo‘qolib ketish xavfi kuchli.

3. Yo‘qolib ketish xavfi bor bo‘lgan tillar (*definitely endangered)* – hozirda qo‘llanayotgan, lekin bolalar o‘z ona tillarida ta’lim olmayotgan *buryat, komi, mari, qolmiq* kabi tillar.

4. Yo‘qolayotgan tillar (*endangered languages*) – aholisi shu tilda deyarli gaplashmay qo‘ygan tillar. Ular mazkur tillarda so‘zlashuvchilar ozchilikni tashkil etgani bois, o‘zlari yashayotgan davlatlardagi hukmron til ta’sirida qolgan va o‘z ona tillarini unutgan til sohiblari. Masalan, Rossiya Federatsiyasining Komondor, Chukotka, Aleut orollarida va AQShning Alyaskasi 500 dan ortiq aleut xalqiga mansub insonlar yashaydi. 2022-yil sentabr oyida 86 yoshli aleut tilini biladigan eng so‘nggi vakil tillar – G.Yakovlevning vafot etishi bilan aleut tilida gaplashuvchi odam qolmadi. Tofalar, evenk tillarini ham shunday taqdir kutib turibdi.

5. O‘lik tillar – jonli muloqotda foydalanmaydigan, faqat yozma yodgorliklarda saqlanib qolgan, sun’iy tartibga solinadigan tillar. Bu ro‘yxatga *ubix, yugagir,* eng qizig‘i, *farg‘ona qipchoqlari* tili kiritilgan.

6. Tiklanadigan tillar – butunlay yo‘q bo‘lib ketgan, bironta ham so‘zlashuvchisi qolmagan tillar. Dunyo tajribasida ehtiyojga qarab bunday tillarni tiklash mumkin.

Masalan, ivrit (ibroniy) tili o‘lik til sanalar edi. Isroilda va dunyoning turli joylarida yashovchi 9 million yahudiylar harakati bilan u Isroil davlatining rasmiy tiliga aylandi.

Demak, “xavfli ro‘yxatlar”ga kirib qolmaslik uchun biz astoydil harakat qilishimiz kerak. Shuningdek, quyidagi vazifalarni zudlik bilan bajarishimiz zarur.

1. Globallashuv sharoitiga moslashish, tilimizni taraqqiy ettirish uchun munosib yo‘l topish. To‘g‘risini aytadigan bo‘lsak, ingliz, arab, xitoy, fransuz, rus, ispan tillarining yetakchilik mavqeyiga ko‘ratilishida yagona bir omil bor – mazkur tillarda muloqot qiladigan til sohiblari o‘z ona tillarini axborot kommunikatsion texnologiyalari makoniga olib kirib bo‘ldi. Boshqacha aytadigan bo‘lsak, globallashuv jarayonlariga moslashib ulgurdi. Bu esa o‘z navbatida ilm-fan, texnika taraqqiyotining bugungi darajasiga borib taqaladi. Sodir bo‘layotgan har qanday ilmiy yangilik ushbu tillarda o‘z aksini topmoqda. Biz esa bu borada “tetapoya davri”da turibmiz. Jahonga chiqishni, boshqa xalqlar va millatlar orasida o‘z o‘rnimizga ega bo‘lishni orzu qilyapmiz, shu yo‘lda butun kuch-qudratimiz bilan g‘ayrat qilyapmiz, ammo natijaga kelganda, sarhisob qilinganda, amalga oshirayotgan ishlarimiz maqtanarli darajada emas. Hali dunyo o‘zbeklarning soni haqida ham aniq tasavvurga ega emas. Bunga o‘zimiz aybdormiz, e’tibor qilmaganmiz. Axborot texnologiyalari bilan bog‘liq manbalarni tahlildan o‘tkazib, to‘g‘rilab qo‘ymaganmiz, boshqalardan ham real hisob-kitob qilishlarini talab qilmaganmiz. Shu bois, internet manbalarida xalqimizning nufuzi har xil bayon etiladi. Masalan, xalqimiz nufuzi *https://ru.wikipedia.org.* saytida 20 million 51 ming [6], *https://ru.wikinews.org.*da 21-25 million [7], *https://en.wikipedia.org.*da 44 million [8], *https://bigenc.ru/-linguistics.*da 31 million [9], *https://ru.wikipedia.org.*da 48 million 600 ming [10] deb ko‘rsatilgan.

Saytlar minglab odamlarga adashsa, kechirish mumkin, biroq gap millionlab aholi haqida ketganida, o‘ylab qolasan kishi.

2. Ilm-fan, texnikani rivojlantirish. Buning uchun biz o‘zbek tilining mashinaviy tilini yaratishimiz, shevalardagi bor boyligimizni yig‘ib, saralab, ulardan eng ma’qullarini adabiy tilimizga kiritishimiz, chetdan kirib kelayotgan har bir so‘z, iborada o‘ta ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishimiz, o‘zbek tilini dunyo miqyosiga olib chiqishimiz talab etiladi. Ayniqsa, aniq fanlar: fizika, matematika, kimyo, biologiya va texnika sohalarida qo‘llanadigan so‘z va iboralar ustida jiddiy bosh qotirishimiz kerak, ularda o‘zbekcha ilmiy uslubni shakllantirishimiz zarur. Aniq fanlar terminologiyasi eng katta muammolardan biri. Ilm-fan, texnika tilini “o‘zbekchalashtirishimiz”, mikroelektronika, neyroxirurgiya, nanofizika, gen injeneriyasi kabi tor sohalarda ham o‘zbek tiliga yo‘l ochishimiz kerak.

3. Tillar uchrashganda, kontakt holatlarida to‘g‘ri yo‘lni aniqlash. Avvallari chetdan so‘z olishimiz asosan rus tili hisobiga bo‘lgan bo‘lsa, bugun dunyoning barcha tillaridan, ayniqsa, ingliz tilidan ko‘p so‘z o‘zlashtiryapmiz. Ammo, to‘g‘ri yo‘ldan ketyapmizmi? Bizningcha, ikkita yo‘lni tanlaganmiz. Birinchisi to‘g‘ri yo‘l – qonuniy tarzda so‘z o‘zlashtirish. Ilm-fan, texnika yutuqlari orqasida kirib kelayotgan so‘zlarni e’tirozsiz qabul qilish yoki kalkalab olish. *Barter, briffing, investitsiya, chat, charter, menejment, menejer, konsalting, bakalavr, magistr, kompyuter, monitoring*; *tadbirkor, ishbilarmon, raqobatbardosh, qimmatbaho qog‘oz, dastur* – ro‘yxatni uzoq davom ettirish mumkin. Sanalgan leksik birliklar allaqachon o‘zbek tiliga kirib bo‘ldi. Sohalarda faol iste’molda.

Ikkinchisi xato yo‘l – hali o‘zbek tiliga o‘zlashmagan *house, royal, grand, market, hoom, food, hotel, sity* kabi so‘zlarni *Lag‘mon house, Kabab house, City market, Market foods, Good market, Royal Cinema, Vega Cinema, Mega Cinema, Grand Cinema, Leader hotel, Bavaria plaza* kabi nomlarda qo‘llash. Aynan mana shu usul tilni siyqalashtirishga, qashshoqlashtirishga olib keladi.

5. Milliy g‘urur, milliy iftixor tuyg‘ularini singdirish. Biz – o‘zbeklarda milliy g‘urur, ona tilidan iftixor tuyg‘ulari hamisha baland bo‘lgan. Alisher Navoiyning 40 ga yaqin asarlarni yaratishi, “Muhokamat ul-lug‘atayn”dek bebaho asarni yozib, turkiy hamda forsiy tillarni solishtirib, chog‘ishtirib, barcha sohada turkiy (o‘zbek) tilining fors tildan qolishmasligini isbotlab berishi ostida ham undagi milliy g‘urur tuyg‘usi yotgani hech kimga sir emas. Faqat biz milliy g‘urur tuyg‘usini lisoniy bag‘rikenglik soyasida qoldirib ketyapmiz.

“Davlat tili haqida”gi Qonunning 2-moddasida: “O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o‘z ona tilini qo‘llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi” degan yozuv bor. Qonunning 4-, 5-, 6-, 17-, 18-, 23-, 24-moddalarida ham boshqa tillarga nisbatan xayrixohlikni sezish mumkin. Mamlakatimizda 7 ta tilda ta’lim-tarbiya ishlarining olib borilayotgani, rus, qirg‘iz, qozoq, tojik, qoraqalpoq, turkman tillarida teleko‘rsatuvlar, radioeshittirishlar, ommaviy axborot nashrlarining yo‘lga qo‘yilgani yuqoridagi fikrimizning isbotidir. O‘zbek xalqi hech qachon boshqa xalqlarga, ularning milliy qadriyatlari va tiliga nisbatan hurmatsizlik qilgan emas. Eng og‘ir damlarda ham katta sabr-bardosh, g‘amxo‘rlik bilan boshqa millatlarning dardiga malham bo‘lishga intilib kelgan. Davlat tili haqida gap ketganida biz birinchi galda Qonun tijrosini ta’minlashimiz kerak. Maktablarda, oliy ta’lim muassasalarida, korxona va tashkilotlarda milliy g‘ururni yuksaltirish bilan bog‘liq targ‘ibot-tashviqot ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘ygan taqdimizdagina tilimiz rivoji uchun yo‘l ochilishi aniq.

6. O‘zgarayotgan dunyoda milliy mentalitetni saqlab qolish, ona tili tuyg‘usini yo‘qotmaslik. Bu talab millatdoshlarimizning, ayniqsa, yoshlarimizning chet tillarini o‘rganishi bilan har jihatdan bog‘liq. XX asr boshlarida Mahmudxo‘ja Behbudiy aytgan “Ikki til emas, to‘rt til kerak” degan shior bugun kamlik qilib qoldi. O‘nlab tillarni puxta o‘zlashtirish o‘zbek yoshlarining kelajagini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylanib bormoqda. Ammo, bu yerda bir hadik bor. Ayrim yoshlarimiz xorijiy tillarni, jumladan, ingliz tilini o‘rganishni chetga ketish uchun o‘ziga xos “ko‘prik”ka aylantirib olmoqda. Shu o‘rinda o‘zim guvoh bo‘lgan ikkita voqeani aytib o‘tmoqchiman. Toshkent davlat Sharqshunoslik institutining bakalavriatura va Toshkent Islom universitetining magistratura mutaxassisliklarini tamomlagan yigit bilan suhbatlashib qoldim. Unga ajoyib kadr bo‘lib yetishganini aytib, endi nima qilmoqchi ekanini so‘raganimda, nima dedim bilasizlarmi?! “Bironta chet mamlakatga qarab “surayyo” qilaman”. Mana shu “surayyo” degan so‘z mening dilimni og‘ritdi.

Ikkinchi misol: Andijonda Azamatjon Rahimov degan tilshunos olim yashab o‘tdi, juda qisqa umr ko‘rdi – 29 yil... Bilsangiz, u ingliz tili bo‘yicha Respublika fan olimpiadasida 1-o‘rinni egallab, xohlagan oliy ta’lim muasasasiga ingliz tili va adabiyoti bo‘yicha yo‘llanmani qo‘lga kiritdi, lekin u O‘zbekiston Milliy universitetining O‘zbek filologiyasi fakultetini tanladi. O‘shanda ko‘pchilik Azamatjonga e’tiroz bildirishganda,

u: “Men ingliz tilini o‘zbek tili uchun o‘rgandim(!) – deb javob bergan edi. Haqiqatan u inglizcha-o‘zbekcha lug‘atlar chop ettirdi, sinergetika yo‘nalishini o‘zbek tiliga olib kirdi. Ko‘pchilik yoshlar uchun ibrat maktabini o‘tab ketdi.

7. Ommaviy axborot vositalarida, radio-televidenieda targ‘ib qilish. Yaqin yillarda O‘zbekiston televideniesi va radiosida tub islohotlar amalga oshirildi. Ularning moddiy texnik bazasi yaxshilandi, “Yoshlar”, “Navo”, “Mahalla”, “Dunyo bo‘ylab”, “Bolajon”, “Zo‘r-TV”, “Sevimli” kabi telekanallar paydo bo‘ldi, ularda ona tilimiznitng targ‘iboti bilan bog‘liq ko‘plab ko‘rsatuvlar namoyish etildi. Biroq, televidenie xodimlari, rejissyorlar, boshlovchilar, ishtirokchilar bir narsani e’tibordan chetda qoldirishadi. Har qanday ko‘rsatuv yoki eshittirish ostida ona tili mazmuni yotadi. Shevada gapirish, murojaat qilish, so‘z ishlatishdagi e’tiborsizliklarga barham berish payti keldi.

8. Kompyuter texnologiyalari. Ma’lumotlarga ko‘ra, internetda ingliz tilidagi maqolalarning adadi 5 milliondan ortiq ekan. Undan keyingi o‘rinni 1,5-1 millionta maqola bilan nemis, rus, yapon tillari egallar ekan. Mana, ingliz tilining ommalashib, dunyoga yoyilib ketgani sabablaridan biri qaerda ekan! Holbuki, madaniy meros, adabiyot, adabiyot, san’at borasida o‘zbek xalqi dunyoning eng oldingi xalqlaridan biri bo‘lgan. Mana shunday ulkan meros bilan dunyoga chiqadigan bo‘lsak, bu eng katta yutuqlarimizdan biri bo‘ladi. Buning uchun kompyuter lingvistikasini rivojlantirishimiz, o‘zbek tilining korpusini yaratishimiz, til borasida topgan-tutganimizni saytlarga joylashimiz kerak bo‘ladi. Bu borada Hukumat tomonidan sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda, lekin bu oz.

9. Ona tili va adabiyotini o‘qitishni tubdan isloh etishimiz, yangi sifat bosqichiga ko‘tarishimiz, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, ishlanmalarining yangi avlodlarini yaratishimiz davr talabi. Bu borada ham kamchiliklarimiz bor. Xorij tajribasiga ergashib, o‘zimizda azaldan bor bo‘lgan ko‘plab imkoniyatlarni boy berib qo‘yyapmiz. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, G‘.Abdurahmonov, A.Hojiyev, U.Tursunov, Sh.Rahmatullayev, A.Nurmonov, N.Mahmudov kabi o‘zbek tilining zabardast olimlari tomonidan yaratilgan darsliklarni chetga surib qo‘yib hech narsaga erisha olmaymiz. Ularning umrboqiy ilmiy asarlarini, darsliklarini qaytadan nashr etishimiz kerak.

O‘qitishdagi eng katta qusurlardan yana biri yangi metodikamiz yo‘q, axborot kommunikatsion texnologiyalarini ona tili o‘qitish jarayoniga sust tatbiq etyapmiz, ona tili va adabiyoti mutaxassislarida ijodkorlik yetishmaydi.

10. O‘zbek tilini xalqaro miqyosda targ‘ib qilishimiz tilimizning taraqqiyotini ta’minlashdagi eng katta omil sanaladi. Hukumat talabi bilan tashkil etilayotgan o‘zbek tilini o‘qitish markazlarining ochilishi, “O‘zbek tili do‘stlari” klublarining tashkil etilishi, xorijiy oliy ta’lim muassasalarida o‘zbek tilining o‘qitilishining yo‘lga qo‘yilishi, professor-o‘qituvchilar va talabalarni almashtirish, tajriba almashish – bularning barchasi yaxshi, ammo bizdan talab etilayotgan eng katta narsa bu – bor ma’naviy boyligimizni xorijiy tillarda dunyo aholisiga yetkazib berishdan iborat.

Bir so‘z bilan aytganimizda, qiladigan ishlarimiz behisob. Faqat tartib bilan, aql-zakovat yondashsak, albatta, barcha ishning uddasidan chiqamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // “Xalq so‘zi”, 2019 йил 22 октябрь сони.
2. Юқоридаги манба.
3. Давлат тилида иш юритиш. Амалий қўлланма. Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 2020. – Б. 4.
4. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. – 3-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2002. – Б. 286.
5. Harold F. Schiffman. Linguistic culture and language policy. – London. 1996.
6. https://ru.wikipedia.org.
7. https://ru.wikinews.org.
8. https://en.wikipedia.org.
9. https://bigenc.ru/linguistics.
10. https://ru.wikipedia.org.

AJDODLARDAN MEROS ONA TILI BU, AVLODLAR-CHUN E’ZOZ ONA TILI BU

Jo‘rayeva Bibish,
filologiya fanlari doktori, professor,
Davlat tilida ish yuritish asoslarini
o‘qitish va malaka oshirish markazi
Buxoro viloyati hududiy bo‘linmasi rahbari

Annotatsiya. Millatning o‘ziga xosligini namoyon qiluvchi milliy urf-odatlar: milliy muomala-munosabat, milliy marosim, milliy yashash tarzi, bir so‘z bilan aytganda milliy o‘ziga xoslik til bag‘rida umrguzaronlik qiladi. Til – millatning borligini ko‘rsatib turuvchi, millatni millat sifatida shakllantiruvchi asosiy birlik.

Muallif maqolada o‘zbek tilining boy o‘tmishiga nazar tashlab, uning millat ma’naviyatini belgilovchi mezon ekanligini yana bir bor ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, milliy til, ajdodlar merosi.

Ma’lumki, o‘zbek xalqi O‘rta Osiyoning qadimgi xalqlaridan biri bo‘lib, uning tili ham uzoq zamonlardan boshlab asta-sekinlik bilan taraqqiy qilib kelgan. O‘rta Osiyoning hozirgi o‘zbeklar yashaydigan qismida qadimdan birga yashab kelgan eroniy elatlar bilan turkiy qabilalarning hamda ular so‘zlashadigan tillarning tarixiy aralashuvi natijasida XI–XII asrlarda keyinchalik o‘zbek deb nomlangan xalq va uning tili shakllana boshladi. Demak, o‘zbek xalqi va uning tili 1000 yillik tarixga ega. Uning ilk yodgorliklari – bevosita hozirgi o‘zbek millatiga mansublari, chunonchi, qariyb 15 ming misradan iborat bo‘lgan “Qutadg‘u bilig” shunday yuksak badiiy san’at va mahorat bilan yozilganki, mutaxassislar bunday adabiy nutq shakllanishi uchun u kamida 500–600 yil koyne – og‘zaki me’yorlashgan til sifatida ishlov topishi kerak degan fikrni ilgari suradilar. Jahondagi kamdan kam xalq bunday katta va uzoq madaniy an’ana hamda badiiy merosga ega. IX–X asrlarda qoraxoniylar saroyida keng amalda bo‘lgan,

XIV–XV asrlarda temuriylar davrida gullab yashnagan, shayboniylar, ashtarxoniylar va mang‘itiylar hukmronligi vaqtida rasmiy til sanalgan, tarixiy manbalarda *turkiy, xoqoniy, chig‘atoy, sart*; ilmiy tadqiqotlarda *qadimgi turkiy, eski turkiy, eski o‘zbek, chig‘atoyi turkistoniy* nomlari bilan atalgan adabiy tilning bevosita davomi va merosxo‘ri bo‘lgan hozirgi o‘zbek adabiy tili (nutqi) zamonaviy me’yorlari XX asrning 30–40-yillarida tugal shakllandi. Lekin bu shakllanish ostida ajdodlarimizning, fidoyi ota-bobolarimizning mislsiz mehnati, izlanishi, zahmati yotadi.

Millat, yurt fidoyilari xalqni xalq, millatni millat sifatida shakllantiruvchi, uning yashash tarzini belgilab beruvchi til taqdiriga daxldorlik tuyg‘usini hamma vaqt his qilib yashagan; yurt farzandi sifatida ona tiliga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, uning yashashi va taraqqiy qilishiga hissa qo‘shishdek muqaddas vazifani ado etishni o‘zlarining birinchi galdagi burchi deb bilgan.

Turkiy til XI asrda O‘rta Osiyoda, asosan, yerli xalq tomonidan ishlatib kelingan bo‘lsa-da, arab tilshunoslari bu til bilan ham shug‘ullana boshladi. Arablarning turkiy tilni o‘rganishi uchun yaratilgan “Devonu lug‘otit turk” asarida buning sababini M.Koshg‘ariy quyidagicha izohlaydi:

“Xudo davlat quyoshini turklar burchida yaratdi. Falakni ham shular mulkiga moslab aylantirdi. Ularni turk deb atadi, mulkka ega qildi, ularni zamonamizning xoqonlari qilib ko‘tardi. Zamon ahlining ixtiyor jilovini shular qo‘liga topshirdi, xalqqa bosh qildi, bularni to‘g‘ri yo‘lga yurishga qodir qildi. Bularga qarashli kishilarni g‘olib qildi. Ularga qarashli kishilar maqsadlariga yetib, beboshlar halokatidan qutuldi. Ularning (turklarning) o‘qlaridan saqlanmoq uchun ularning xatti-harakatlarini mahkam tutmoq har bir aqlli kishiga loyiq va munosibdir. Bularga yaqin bo‘lish uchun *eng asosiy yo‘l* – ularning tillarida so‘zlashishdir, chunki ular bu tilda so‘zlashuvchilarga yaxshi quloq soladilar, o‘zlarini yaqin tutadilar, ularga zarar bermaydilar. Hatto ular o‘z panohida turgan boshqalarning gunohini ham kechib yuboradilar.

Ishonchli bir buxorolik olimdan va nisoburlik boshqa bir ishonchli olimdan shunday eshitgan edim, ular bu so‘zni payg‘ambarga nisbat berib aytgan edilar, payg‘ambar qiyomatning belgilari, oxir zamon fitnalari va o‘g‘uz turklarining xuruji haqida gapirganda, shunday degan edi: “Turk tilini o‘rganing, chunki ularning hukmronligi uzoq davom etadi”. Hadisning to‘g‘ri yoki to‘g‘ri emasligining javobgarligi aytgan kishilar gardaniga. Agar to‘g‘ri bo‘lsa, turk tilini o‘rganish vojibdir, hadis to‘g‘ri bo‘lmagan taqdirda ham uni o‘rganish zarurligini aql taqozo qiladi”.

Turkiy til haqida M.Koshg‘ariy tomonidan aytilgan ushbu fikrlar tilimizga berilgan dastlabki genial ta’rif bo‘lib, sobiq sho‘ro tuzumi davrida “Devonu lug‘otit turk” asarining ommalashtirilmaganligi sabablaridan biri ham shunda edi.

XII asr olimi Ibn Mansur Marvarudiyning “Tarixi Muborakshoh” asarida aytilgan fikrlar ham M.Koshg‘ariy qarashlariga hamohang va qaysidir ma’noda uni to‘ldiradi (bu muallif O‘rta Osiyodan, Marvarud qishlog‘idan): “Turklarda (oliy) martabalar va darajalar bo‘lmasa-da, ular shunday maqtovga sazovorli shuhratga egadirlarki, musulmon hokimlarining qudrati Alloh yordamida (faqat) turklar tufaylidir. Shu sababli Turkistondagi turklar boshqa xalqlarga nisbatan ustunlikka egadirlar... Bulardan biri shundaki, hech qaysi mamlakat kattaligi, kengligi jihatidan Turkistonga teng kela olmaydi. Turkiston xalqlarini boshqalardan ajratib turuvchi yana boshqa ayrim narsalar

mavjud. Shulardan biri turk tili bo‘lib, bu til arab tilidan keyingi eng yaxshi va ta’sirli tillardandir. Hozirda odamlarning turk tilini o‘rganishga intilishining sababi shundaki, avvalgi zamonlarda amir va harbiy boshliqlarning ko‘p qismi turklardan bo‘lgan, hokimiyat ular qo‘lida bo‘lgan, har qanday foydali narsalar, oltin, kumushlar ham ularning qo‘lida edi.., zodagonlar, amaldorlardan chiqqanlar va ularning o‘g‘illari turklar xizmatida bo‘lgan. Yana, turklarda yozuv bo‘lgan, ular osmon jismlari va uning sirlarini bilganlar, bolalarni savodga o‘qitganlar”. (Материалы по истории Средней и Центральной Азии X–XIX вв. - T., 1988, c. 91-92.)

O‘rta asrlarda musulmon olamining Sharqida arab tili xalqaro til sifatida qo‘llanib, O‘rta Osiyoning dunyoga mashhur olimlari Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va boshqalar ilm-fanning turli sohalarini qamrab oluvchi o‘z asarlarini arab tilida yozdilar. Hatto turkshunos olim M.Koshg‘ariy ham «Devonu lug‘otit turk» asarini ana shu tilda yozishga majbur bo‘ldi. Xalifalikka qaram bo‘lgan deyarli hamma mamlakatlarda ahvol xuddi shunday edi. Biroq X asrlarda «dariy» yoki forsiy deb atalgan til ham mavjud edi. Bu til, ayniqsa, somoniylar davrida yagona davlat tili sifatida madaniy hayotda, badiiy adabiyotda keng o‘rin egalladi. Shuni aytish mumkinki, forsiy til to XV asrgacha bir o‘lka va xalqlarning mushtarak adabiy tili sifatida keng qo‘llandi. G‘aznaviylar va Saljuqiylar davridayoq ular bosib olgan o‘lkalarda ham, jumladan, Kavkaz (Arron, qisman Gruziya, Armaniston)da, Hindistonning shimoliy qismlarida dariy-forsiy tili davlat tili va adabiy til sifatida e’lon qilindi. Ana shu siyosat tufayli buyuk ozarbayjon shoiri va mutafakkiri N.Ganjaviy (1141–1203) “Layli va Majnun” dostonining kirish qismida asarlarini o‘z ona tilida emas, balki fors tilida yozishga majbur bo‘lganini afsus bilan qayd etgan edi. O‘sha davrlarda forsiy tilni bilish va shu tilda so‘zlashish, ijod qilish jamiyatning yuqori tabaqasiga xos bo‘lgan «imtiyoz» hamda «bilimdonlik» belgisiga aylandi. Bu an’ana hatto temuriylar davrida ham saqlanib qoldi. Shu paytga kelib, forsiy til hatto feodal aristokratiyasining so‘zlashuv tiliga aylandi. Har ikki temuriylar davlati – Xuroson va Movarounnahrda ham forsiy til hukmron edi.

XV asrda o‘zbek tilida original va tarjima asarlari yaratgan Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy, Amiriy, Gadoiy, Yaqiniy kabi iste’dodli shoirlar o‘zbek dunyoviy adabiyotini ravnaq toptirish bilan birga, o‘zbek adabiy tili taraqqiyotiga ham katta hissa qo‘shdilar. Biroq ular son jihatidan nihoyatda ozchilik edi. Navoiy “Majolis un-nafois” asarining ikkinchi majlisida tilga olgan va yoshlik chog‘ida ko‘rgan yoki gaplashgan 90 shoirdan 16 tasi turkiy tilda, shuningdek, fors tilida ham ijod qilgan. Asarning 3-majlisida tilga olingan 110 shoirdan faqat 3 tasi turkigo‘y bo‘lgan.

“Bu til dag‘al, unda yuksak san’at asarlari yaratib bo‘lmaydi” degan fikrlarga uzil-kesil zarba berish, o‘zbek tilining yashirin qolib kelayotgan xazinalarini ochish va uni ilm ahliga, she’r muxlislariga tushuntirish o‘zbek xalqining buyuk farzandlari oldida muhim vazifa bo‘lib turardi. Xuddi shunday davrda A.Navoiy o‘z xalqining adabiyoti va adabiy tilini himoya qilish, rivojlantirishdek zo‘r davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan muhim masalani ko‘tarib chiqdi va umrining oxirigacha o‘zbek adabiy tili hamda adabiyotini yuksak darajaga ko‘tarish uchun kurashdi. Badiiyat durdonalarini yaratishda turkiy tilning boshqa tillardan qolishmasligini shoir o‘z badiiy asarlari misolida amaliy,

“Muhokamat ul-lug‘atayn” vositasida nazariy asoslab berdi. Hazrat Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn”da yozadi:

Bu xoksorg‘a sabo avoilidakim, og‘iz huqqasidin biror gavhar zohir bo‘la boshlar, ul gavharlar hanuz nazm silkiga kirmaydur erdikim, zamir daryosidin nazm silkiga tortilg‘on gavharlar tab’ g‘avvosi sa’yi bila og‘iz sohilig‘a kela boshlamoq ko‘rguzub erdi. Chun mazkur bo‘lg‘on qoida bilakim, ado topti – mayl forsiy sari bo‘ldi. Ammo chun shuur sinnig‘a qadam qo‘yuldi, chun haq subhonahu va taolo tab’g‘a g‘arobat sari maylni zotiy va diqqat va dushvor pisandliqqa shuru’ni jibilliy qilib erdi, turk alfozig‘a dog‘i mulohazani lozim ko‘ruldi – olame nazarg‘a keldi, o‘n sakkiz ming olamdin ortuq; anda zeb va ziynat sipehri tab’g‘a ma’lum bo‘ldi, to‘qquz falakdin ortuq; anda fazl va rif’at maxzane uchradi, durlari kavokib gavharlaridin raxshandaroq va gulshane yo‘luqti, gullari sipehr axtaridin duraxshandaroq; harimi atrofi el ayog‘i yetmakdin ma’sun va ajnosi g‘aroyibi g‘ayr ilgi tegmakdin ma’mun. Ammo maxzanining yiloni xunxor va gulshanining tikani behad va shumor.

Xayolg‘a keldikim, hamonoki, bu yilonlar neshi nashtaridin tab’ ahli xiradmandlari bu maxzandin bahra topmay o‘tupturlar. Va ko‘ngulg‘a andoq evruldikim, go‘yo bu tikanlar sarzanishi zararidin nazm xayli guldastabandlari bu gulshandin bazm tuzgucha gul iliklay olmay yo‘l tutupturlar.

Shoir ijodining ibtidosini fors tilida boshlaganligi va bu o‘sha davr uchun qoida ekanligini ta’kidlaydi. Ammo ijodi “o‘smirlik” pallasiga yetganida, unda ijodga bo‘lgan mayl jiddiy tus olgan, Alloh taolo qalbida ijod nurlarini yolqinlantirgan paytda Navoiy ro‘parasida bir *olam* bo‘y ko‘rsatadi: o‘n sakkiz ming dunyo go‘zalligidan ortiq unda zeb va ziynat; to‘qqiz falakdan ortiq unda fazilat va yuksaklik; *xazina* namoyon bo‘ladi: durlari yulduzlardan-da yarqiroq; *gulshan* yo‘liqadi: gullari osmon yoritgichlaridan-da nurliroq.

Shoir o‘zbek tilini go‘zal, pari-paykar, huriliqolar yig‘iladigan maskan – haramga mengzaydi. Haram atrofi el oyog‘i yetishidan asralgan va g‘aroyib ashyolari, mollari begona qo‘li tegishidan himoyalangan. Ajoyibotlar, g‘aroyibotlar jamuljam bo‘lgan xazina-maxzanning ilonlari qonxo‘r-xunxor va gulshanining tikanlari behad-u bisyor. Ilonlar nishi zahridan, nishtarining sanchilishidan qo‘rqqan hushyor, aqlli, dono ijodkorlar maxzandan bahra topmay o‘tibdilar va ko‘ngulda shu narsa aylandiki, go‘yo bu tikanlar ozoridan nazm ahli guldastamandlari, ya’ni ijod gulshanidan gul saralab, muxlislarga go‘zal, dilkash guldasta taqdim etuvchi qalam ahli bu gulshandan kishi ko‘nglini yashnatuvchi, junbushga keltiruvchi guldasta saralay olmay o‘tib ketibdilar.

Shoir tili bilan aytganda, tilimizdagi ohori to‘kilmagan so‘zlar badiiy adabiyotga olib kirilmagan, ularning qo‘llanilish o‘rinlari belgilanmagan. Shu sabab bu tilda ijod qilish, qalam tebratib, san’at namunasi yaratish tab’ ahli uchun mushkulot tug‘diradi. Ana shu qiyinchiliklar sabab ijod ahli xazinadan bebahra qolgan.

Hazrat A.Navoiy tomonidan bildirilgan bu mulohazalar M.Koshg‘ariydan keyin turkiy tilga berilgan ikkinchi genial ta’rif edi.

“Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida turkiy tilning ilmiy, badiiy jihatdan o‘ziga xos jihatlariga e’tibor qaratilib, tilimiz martabasi belgilanganligi Navoiy dahosi tomonidan xalqqa in’om etilgan beqiyos tuhfa, o‘zligini anglash yo‘lidagi dadil qadam edi. Asarda bildirilgan fikr-mulohaza, ya’ni tahsin, alqov ona tilimizga atalgan madhiya bo‘lib,

hozirga qadar har bir millat farzandini o‘z tili sir-u asroridan voqif etish barobarida uning ko‘nglini junbushga keltiradi, tiliga bo‘lgan mehr-muhabbatini orttiradi. Shoir tili bilan aytganda, “Turk ulusi fasihlarig‘a ulug‘ haq sobit qilindiki, ular o‘z alfoz va iboratlari haqiqati va o‘z til va lug‘atlari kayfiyatidin voqif bo‘ldilar va forsiygo‘ylarning iborat va alfoz bobida ta’n qilur sarzanishidin qutuldilar”.

Xalqimiz “Erga bersang oshingni, Erlar silar boshingni” degan maqolni bejizga tarix zarvaraqlariga muhrlamagan. Zero, har bir qilingan yaxshi ish, ezgu amal o‘zining natijasini, albatta, beradi. Hazrat Mir Alisher Navoiyning o‘z ona tili va adabiyoti rivoji yo‘lida chekkan zahmatlari o‘zining totli mevasini berib kelmoqda. Har yili fevral oyida “Navoiyxonlik” kechalarining tashkil qilinayotganligi er xalqning mard o‘g‘loniga chuqur ehtiromi namunasidir.

Til – millatning borligini ko‘rsatib turuvchi, millatni millat sifatida shakllantiruvchi asosiy birlik. Odatda, tilning taqdirini ijtimoiy hayot bilan bog‘lashadi, ya’ni jamiyat bo‘lsagina u mavjud bo‘ladi, chunki til ijtimoiy xarakterga ega deb talqin qilishadi. Bu – oynaning bir tomoni. Ikkinchi jihatdan e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ijtimoiy hayot tilning yashashi uchun qanchalik muhim bo‘lsa, millatning millat sifatida yashab qolishi uchun til birligi ham shu qadar ahamiyatli. Chunonchi, millatning o‘ziga xosligini namoyon qiluvchi milliy urf-odatlar: milliy muomala-munosabat, milliy marosim, milliy yashash tarzi, bir so‘z bilan aytganda milliy o‘ziga xoslik til bag‘rida umrguzaronlik qiladi. Shu bois millat saodati yo‘lida jon fido etgan A.Fitrat “Rahbari najot” asarida tilning yosh avlod hayot tarziga ta’siri masalasiga e’tibor qaratib yozgan edi: “*Suv qaysi rangdagi idishda bo‘lsa, o‘sha rangda tovlangani kabi bolalar ham qanday muhitda bo‘lsalar, o‘sha muhitning har qanday odat va axloqini qabul qiladilar”*. Chindan ham ona tili bilan birga insonda o‘zbekona milliy ruh, milliy muomala madaniyati, milliy ong, qisqasi, milliy o‘zlik shakllanadi.

Milliy tilimiz milliy nutqimiz, milliy ma’naviyatimiz va mafkuramizning tarkibiy qismi sifatida yuksalib boradi.

Har qaysi millat mavjudligining, rivojlanayotganligining asosiy belgisi bo‘lib faqatgina bir til xizmat qiladi, bu ham bo‘lsa so‘zlovchining o‘z ona tilisidir. Xalqlarning o‘z madaniyatini bir tilda rivojlantirishga intilishi tabiiy hol bo‘lib, har bir madaniyatni faqat milliy til asosida erkin, mustaqil va tez sur’atlar bilan gullab-yashnatish mumkin – natijada o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan mustaqil haqiqiy milliy madaniyatli xalq jahon miqyosida juda katta obro‘ga ega bo‘ladi.

TIL VA MADANIYAT MUSHTARAKLIGI XUSUSIDA

Kazakov Ilhom,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
QQDU, o‘zbek tilshunosligi kafedrasi

Annotatsiya. Maqolada til va madaniyat tushunchalarining bir-biri bilan aloqadorligi, bunday bog‘liqlikni lingvokulturologiya sohasi o‘rganishi, uning tub ildizlari xorij lingvistlariga borib taqalishiga doir fikrlar o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: leksik sath, frazeologik birlik, paremiologik birlik, o‘xshatish, ramz, stereotip, milliy nigoh, milliy madaniyat, milliy mentalitet, lingvokulturologiya, olam manzarasi.

Jahondagi har qanday millat o‘zining milliy nigohiga ega. Milliy nigoh orqali milliy tushuncha shakllanadi. Milliy tushuncha esa olam lisoniy manzarasining voqelanishi bo‘lgan leksik sathda, frazeologik va paremiologik birliklarda, o‘xshatish, ramz, stereotiplarda ko‘zga tashlanadi. Tilshunoslar tomonidan milliy-madaniy nigohga turfa xil ta’riflar berilgan. Chunonchi “Tabiiy til milliy o‘ziga xos variantlarda inson dunyosini aks ettiradi” deb ta’kidlanib, milliy nigoh va milliy baholash hodisalarining yaxlitligi e’tirof etiladi [1, 33]. Xullas, til va madaniyatning mushtarak hodisalar ekanligi hozirgi kunda barcha tilshunoslar tomonidan e’tirof etildi. Lekin ularning ma’naviy-ruhiy yoki moddiy-madaniy hodisalar ekanligini tavsiflashda har xil fikrlar mavjud.

Til va madaniyatning rang-barangligi, serqirraligi haqiqat. Bu xususiyatlar ular munosabatlarida ravshanlashadi. Xususan, til millatning moddiy-ma’naviy boyligi. Mental dunyoqarash esa milliy madaniyatni aniqlash va talqin qilishning ibtidosidir. Hozirgi kunda til hodisalariga maxsus lingvokulturologik yondashuv tamoyillari ustuvorlik kasb etayotgan bir vaqtda an’anaviy talqinlardan farqli holda milliy va madaniy jihatlarni ajratish, til birliklaridagi yaxlitlik va hamrohlik darajasini ajratib olish, har qanday talqinda ularga mohiyat e’tibori bilan munosabatda bo‘lish katta metodologik ahamiyatga sazovor masaladir. Bu esa lingvokulturologik tahlillarning obyekti va predmetini muayyanlashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Til hodisalaridagi milliy-madaniy yaxlitlik xususida fikr yuritar ekan, tilshunos V.G.Gak ushbu yaxlitlikdagi milliy va madaniy unsurlarni farqlash muhimligini uqtiradi. Uning fikriga ko‘ra, tillarni qiyoslash jarayonida milliy xususiyatlar ochiladi [2, 260-261]. Biz bu fikrni shunday to‘ldirishni istar edikki, tillarni qiyoslash orqali nafaqat milliy, balki madaniy qiyofa ham dunyo yuzini ko‘radi. Asosan, o‘zbek va qoraqalpoq tillarida lingvokulturologik birliklar qiyoslanishi natijasida ham nafaqat milliy, balki madaniy xususiyatlar yanada oydinlashadi. Zero, o‘zbek va qoraqalpoq xalqlari azaldan ma’naviyati, milliy madaniyati, qadriyatlari bir xil bo‘lgan, har ikkisi o‘z ona tillari – o‘zbek va qoraqalpoq tillarida so‘zlashuvchi millat vakillaridir. Xalqlarning bunday mushtarakligi o‘zaro hamjihatlikni, shuningdek, tillararo munosabatlarni yanada mustahkamlashni taqozo etadi [3, 3]. Milliy istiqlol tufayli Qoraqalpog‘istonda o‘zbek va qoraqalpoq tillarining keng iste’molda bo‘lishi, ta’lim tizimida o‘rgatilishi bu tillarni tilshunoslikning turli sohalari bo‘yicha, xususan, lingvokulturologik nuqtayi nazardan

ham qiyosiy holda o‘rganish, tillar hamda madaniyatlararo umumiy va xususiy jihatlarni aniqlash maqsadida tadqiq qilish zaruratini vujudga keltirdi.

Dunyodagi har bir tilning tarixiy taraqqiyot bosqichlari madaniy taraqqiyot bosqichlari bilan uyg‘un holda kechgan. O‘tmishda til qabila, elat, xalq, millat tili sifatida rivojlangan. Madaniyat ham bosqichma-bosqich qabila, elat, xalq, millat madaniyatiga qadar o‘sishda davom etgan. Har qanday tilning milliy-madaniy o‘ziga xosligi ana shu tahlitdagi takomilni boshidan kechirgan.

Muayyan til fonetik, leksik va grammatik qurilishi jihatidan o‘ziga xos me’yor va qonun-qoidalarga ega. Bu mezonlar shu til sohiblarining ming yillik tadrijiy taraqqiyot bosqichlariga ega bo‘lgan ijtimoiy ruhiyatining o‘ziga xos xususiyatlari, mental qiyofasiga bevosita bog‘liq. Til qurilishida xalqning milliy mental xususiyatlari aks etishi sababli tilshunos V. fon Gumboldt bundan qariyb ikki asr ilgari har qaysi tilning o‘z sistemasi mavjudligini, tilni tadqiq qilishni, qaysi maqsadda bo‘lishidan qat’iy nazar, shundan boshlash kerakligini qayd qilib o‘tgan edi [4, 448].

Tilshunoslikda “xalq va til”, “millat va til” masalasining o‘rtaga qo‘yilishi va bu bo‘yicha muhokamaning boshlanishiga E.Sepir va B.Uorflar tomonidan ilgari surilgan tilning insonga ta’siri farazi turtki bo‘ldi. Keyinchalik tillarning milliy-madaniy xususiyati muammosiga ko‘plab lingvistlar o‘z e’tiborini qaratganlar. Bugungi kunda til hodisalarining milliy-madaniy xususiyati masalalari psixolingvistika, sotsiolingvistika, etnolingvistika, etnopsixolingvistika sohalarining o‘rganish obyektiga aylanganligi hech kimga sir emas.

XX asrning oxirgi choragida tillarning o‘ziga xos sistem-struktur xususiyatlari nisbatan to‘liq tahlilga tortilgan va tushuntirilgan, ilmiy tadqiq qilingan bo‘lib, asosiy e’tibor til sistemalarining milliy xususiyatlariga qaratilgan edi. Ana shu davrda tilshunoslikda “tilning milliy xususiyati”, “tilning milliy-madaniy xususiyati” kabi tushunchalar ommalasha boshladi. Ayni kunda ham tilning milliy-madaniy xususiyatlari lingvistikadagi markaziy muammolar sirasiga kiradi. Bu masala hozirgi paytda lingvistlar tomonidan har tomonlama o‘rganilayotganligini ta’kidlash kerak. Biroq fikr yuritilayotgan muammo barcha qirralari nuqtayi nazaridan ilmiy adabiyotlarda keng va atroflicha yoritilgan degan xulosaga kelib bo‘lmaydi. Lingvist A.Vejbitskayaning fikricha, birinchidan, til antropotsentrikdir: u inson tomonidan yaratilib, inson uchun mo‘ljallangan, borliqni ifodalash, guruhlash va tasniflash – bu barcha tillarning umumiy xususiyatlari sanaladi. Ikkinchidan, har bir til milliy xoslanganligi bilan xarakterlanadi. Bunda til nafaqat tabiiy sharoit va madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi, balki shu bilan birga til sohiblarining milliy xarakteri o‘ziga xosligini va tafakkur tarzini ham ifodalaydi [5, 411].

Milliy mentalitet (psixologiya) va dunyoqarash, tafakkur tarzi izlari nafaqat nutqning o‘ziga xosligi va muloqot etikasida, balki ana shu asosda ming yillar mobaynida shakllangan til imkoniyatlarining o‘ziga xosligida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Nutq til asosida shakllanadigan lahzalik jarayon bo‘lishi bilan birga, til nutq orqali uzoq vaqtlar davomida vujudga kelgan va barqarorlashgan mavjudlikdir.

Til – madaniyatning oddiygina bir ko‘rinishi, til – bu madaniyatning fakti, til – bu madaniyatning asosiy bo‘lagi, til – bu madaniyatni o‘zlashtirishdagi asosiy instrumentdir [6, 60-62]. Haqiqatan ham, har bir til madaniyatning asosiy qismi, tirgagi. Shuning uchun

tilda butun olamning manzarasi aks etadi. Til shunchaki muloqot manbai bo‘libgina qolmasdan, insonning hayotdagi munosabatlarida, atrof-muhitga nazarida ham muhim o‘rin tutadi. Shunday ekan, har bir inson hayotda butun olam manzarasini o‘z mentaliteti, ichki dunyosi, yashash tarzi, dunyoqarashidan kelib chiqqan holda tushunadi. Madaniyat tushunchasi qadimiy. O‘zbek, qoraqalpoq mentalitetida hozirgacha qadimdan qolgan, ya’ni avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan urf-odatlar, an’analarning o‘rni yuksak bo‘libgina qolmay, ta’lim-tarbiya jarayonidagi maqomi ham beqiyosligini ta’kidlamoq zarur. Madaniyat haqida V.V.Vorobyovning fikri o‘rinli: “Madaniyat tushunchasi qadimiy, u harakatlanadigan hamda barqaror, ya’ni turg‘un mukammallashgandir” [7, 60-62]. Tabiat, jamiyat va inson o‘sha madaniyatni shakllantiradi. Jahondagi barcha xalqlar madaniyati bir-biridan farqlanishi tabiiy hol.

Til va madaniyat mushtarakligini o‘rganuvchi lingvokulturologiyaning ildizlari Yevropada V. fon Gumboldtga, Amerikada F.Boas, E.Sepir, B.Uorflarga borib taqaladi. Rossiyada uning shakllanishida D.K.Zelenin, E.F.Karskoy, A.A.Shaxmatov, A.A.Potebnya, A.N.Afanasev, A.I.Sobolevskiy va boshqalarning tadqiqotlari alohida ahamiyatga molik [8]. Tilshunoslik tarixiga nazar tashlasak, XX asrning ikkinchi choragida lingvokulturologiya termini shakllandi. Shundan keyin lingvokulturologiya fanining yuzaga kelishida nemis olimi V.fon Gumboldtning xizmatlari katta bo‘ldi. Ushbu sohaning yanada ravnaq topishi rus tilshunosi V.N.Teliya nomi bilan bog‘liq [9, 288]. Shuningdek, bu soha takomiliga A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, X.Glins, X.Xols, U.D.Uitni, D.U.Pauell, F.Boas, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Brutyan, A.Vejbitskaya, D.Xaymz kabi lingvistlar ham munosib hissa qo‘shgan [10, 6]. Xullas, shu kunga qadar til va madaniyat aloqadorligi masalasi ko‘proq xorijiy lingvistlar tomonidan o‘rganilgan. Keyingi vaqtlarda o‘zbek, qoraqalpoq tilshunosligida ham til va madaniyat yaxlitligi talqiniga doir yangi-yangi tadqiqotlarning vujudga kelayotganligi ushbu masalaning bugungi kun tartibida dolzarb darajaga ko‘tarilganligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арутюнова Н.Д. Об объекте общей оценки // Вопросы языкознания. –М., 1985. –№ 3.
2. Гак В.Г. Национально-языковая специфика меронимических фразеологизмов // Фразеология в контексте культуры. –М.: Языки русской культуры, 1999.
3. Казаков И.Р. Ўзбек ва қорақалпоқ тилларида от ясовчи қўшимчаларнинг қиёсий функционал-семантик тадқиқи: Филол. фан. номз. … дис. –Тошкент, 2011.
4. Гумбольдт В. Язык и философия культуры. –М., 1985.
5. Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. –М.: Русские словари, 1996.
6. Воробьёв В.В. Лингвокультурология: монография. –М.: РУДН, 2008.
7. Воробьёв В.В. Лингвокультурология: монография. –М.: РУДН, 2008.
8. Ковшова М.Л. Словарь лингвокультурологических терминов: идея, принципы, схема, опытный образец // Язык, сознание, коммуникация. Сб. ст / ред кол. М.В.Красных и др. –М.: МАКС Пресс, 2013.
9. Телия В.Н. Русская фразеология семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа «Язык русской культуры», 1996.

TIL BOR-MILLAT BOR

Ro‘zimboyev Sarvar,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent,
Urganch davlat universiteti,
sarvar.rozimboyev.73@ mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tili, uning millatning borligi va birligining bosh belgisi ekanligi xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: til, millat, qonun, modda, madaniyat, lug‘at

Insonning ma’naviy kamolotga erishuvida, jamiyatning madaniy-ma’rifiy rivojida ona tilining o‘rni favqulodda muhimdir. Til milliy ma’naviyat, ma’rifat va madaniyatning eng xolis va xira tortmas ko‘zgusidir. Hadisi shariflarda “Kishining zebu ziynati, go‘zalligi uning tilidadir” deyiladi. Qadim zamonlardan beri har bir millat, har bir qavm o‘z tiliga buyuk hurmat bilan qaraydi. Bu tilning sohir ohanglari og‘ushida erimoqdan adoqsiz huzur tuyadi. Bu tilga timsol topmaslikdan taskin topadi. Bu nodir boylikni dunyolarga bermaslikka hozir turadi. Chunki til millat degan birlikning tamal toshi, u boy berilsa, millat ham boy beriladi. O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimovning quyidagi so‘zlarida ulkan ma’no bor: “Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi... Ona tili - bu millatning ruhidir. O‘z tilini yo‘qotgan har qanday millat o‘zligidan judo bo‘lishi muqarrar.” Demakki, millatning borligi va birligining bosh belgisi tildir. [2:3]

Tarixiga nazar solsak, ona tilimiz rivoji xalqimizning siyosiy, iqtisodiy mavqeyi, ma’naviy kamoli bilan vobasta tarzda kechganini ko‘ramiz. Faktlar o‘zbek tili rivoji, bor imkoniyatlarini ishga solish uchun bugungidan ko‘ra qulay shart-sharoit bo‘lmaganini ko‘rsatadi. Respublikamizning mustaqillikka erishishi o‘zbek tiliga davlat maqomi berilishi bilan bog‘liq holda, qadam-baqadam kechgani ham bejiz emas. Nazarimizda, bunda o‘ziga xos sinoat borday – ona tili va davlat mustaqilligi bir-biri chambarchas bog‘liqligi, aniqroq aytganda, siyosiy mustaqillik ma’naviy mustaqillik asosi ekanini unutmaslikka chorlaydi.

Albatta, ona tili va davlat tili tushunchalari bir-biridan farqli tushunchalar. Masalan, ona tilini asrash har bir millat vakilining ijtimoiy-ruhiy saviyasi, dunyoqarashidan kelib chiqadigan ijtimoiy masala bo‘lsa, davlat tiliga bo‘lgan munosabat siyosiy masaladir. Shuning uchun ham ona tili o‘zbek tili bo‘lgan millatdoshlarimiz zimmasida bu borada qayd etilgan ikki muhim yo‘nalishdagi mas’uliyat borligi tayin.

O‘zbekistondagi til siyosati xususiyatidan kelib chiqib, davlat tili masalasini ona tili, ona tili masalasini davlat tili tushunchalarisiz sharhlash, izohlash mumkin emas. Chunki “Davlat tili haqida”gi qonunning qator moddalari boshqa millat vakillarining o‘z ona tillarini asrab-avaylashi, rivojlantirishiga qaratilgan.

O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga ham mana 30 yildan oshib qoldi. Mana shu davr ichida davlat va jamiyat taraqqiyotida o‘zbek tilining tutgan o‘rni, uning davlat tili sifatidagi mavqeyi qay darajaga erishdi? O‘tgan davr ichida bu sohada nimalarni amalga oshirdik va yechimini kutayotgan yana qanday muammollar mavjud?

Bizning nazarimizda bunday savollarga butun dunyo miqyosidagi hozirgi globallashuv jarayonida jahon tillarining taqdiri, ularning hozirgi holati va kelajagidan kelib chiqqan holda javob berilsa, yuqoridagi masalalarning mohiyati yanada aniqroq koʻrinadi.

YUNESKO maʼlumotiga koʻra, hozirgi paytda yer yuzida 7000 mingga yaqin til mavjud. YUNESKO 2001-yildan nafaqat madaniy yodgorlik va binolarni, balki xalqlarning ogʻzaki va nomoddiy merosini (shu jumladan, tillarni ham) dunyo boʻyicha himoya qilishga kirishdi. Ularni saqlab qolishga hukumatlar rahbarlari hamda keng jamoatchilikning eʼtiborini qaratish maqsadida yoʻqolib borayotgan dunyo tillarining qizil kitobi va xaritasini tuzdi.

Baʼzi farazlarga koʻra, asr oxiriga kelib mavjud tillarning 95 foizi oʻlik tilga aylanadi. Bu jarayon dunyoning har bir qitʼasida roʻy beradi. Chunonchi, Rossiyada 136 ta, Markaziy Osiyoda 14 ta til yoʻqolib boruvchi tillar roʻyxatiga kiritilgan. Markaziy Osiyoda oʻlayotgan tillarga koʻproq Pomir togʻlarida yashayotgan mayda etnik guruhlarning tillari kiradi (oʻzbek, tojik, turkman, qozoq, qirgʻiz tillaridan tashqari.) Oʻlik tilga aylanayotgan tillarni saqlab qolish insoniyat oldidagi oʻtkir muammolardan. Shuning uchun 1999-yil 17-noyabrda YUNESKO Bosh Anjumani 21-fevralni Xalqaro ona tili kuni (Международный день родного языка, International mother languare day) sifatida eʼlon qilib, 2000-yilning fevralidan boshlab bu sana har yili lisoniy, madaniy taraqqiyot va koʻp tillilikni taʼminlashga koʻmak berish maqsadida nishonlab kelinadi. [3:82]

Yuqorida taʼkidlangan 7000 ga yaqin til huquqiy maqomi jahon maydonida tutgan oʻrni, qoʻllanish doirasiga koʻra quyidagi uch toifaga boʻlinadi. 1. Xalqaro tillar (6ta – ingliz, frantsuz, ispan, rus, arab, xitoy tillari). 2. Davlat tili (180 ta atrofida –jumladan, oʻzbek, qozoq, nemis va boshqa tillar). 3. Mahalliy tillar (5800 ta atrofida – xalqaro va davlat tili maqomiga ega boʻlmagan boshqa tillar).

YUNESKO tomonidan yoʻqolishi mumkin deb hisoblangan tillar asosan mahalliy tillarga toʻgʻri keladi. Chunki bunday tillarning aksariyatida mayda milliy etnik guruhlargina muloqot qilishadi, ular davlat va jamiyat faoliyatida, taʼlim jarayonida deyarli qoʻllanmaydi, yoshlar bu tilni bilishmaydi, qariyalargina gaplashadi xolos. Keyinchalik, ana shu yoshi katta kishilar olamdan oʻtganidan soʻng, tabiiyki, bu til ham oʻlik tilga aylanadi. Tilning oʻlishi esa, oʻz navbatida, millatning yoʻqolishi demakdir.

Shuni alohida taʼkidlash lozimki, yuqoridagi 7000 mingga yaqin til ichida ham hayotda qoʻllanish doirasini kengaytirish yuzasidan zimdan kurash boradi. Bunda xalqaro maydonda iqtisodiy, siyosiy jihatdan kuchli boʻlgan mamlakatlarning tillari boshqalariga nisbatan ustunlik qila boshlaydi. Davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlangan, jamiyat fuqarolari tomonidan keng targʻib qilingan tillargina bu kurashda bellasha oladi. Agar aksi boʻlsa, oʻz-oʻzidan, shu til tanazzulga yuz tutadi.

Shu bois har bir xalq oʻz ona tilining yuqori pogʻonalarga koʻtarilishini istaydi. Agar muayyan til mahalliy tillar darajasida qoʻllanayotgan boʻlsa, davlat tili maqomini olishini, davlat tili maqomiga ega boʻlsa, uni xalqaro darajaga koʻtarishga harakat qiladi, kerak boʻlsa, shu yoʻlda kurashadi.

Shunday qilib, hozirgi XXI asrda dunyo tillari rivojida juda murakkab jarayonlar kechmoqda. Tabiiyki, “Bu oʻzgarishlarning ona tilimiz – oʻzbek tiliga taʼsiri qanday? Uni

yanada rivojlantirish, yo‘qolib borayotgan tillar safiga tushib qolmasligi uchun nimalarga alohida e’tibor qaratishimiz lozim?” degan savollar tug‘iladi

Shu ma’noda ona tilimiz – o‘zbek tiliga baho beradigan bo‘lsak, u 1989- yilgacha uchinchi darajadagi, ya’ni mahalliy til darajasida edi. 1989- yil 21-oktabrda “Davlat tili haqida”gi qonunning qabul qilinishi o‘zbek tilini uchinchi bosqichdan ikkinchi bosqichga ko‘tardi – mahalliy tildan davlat tili darajasiga olib chiqdi.

Bu qonunning qabul qilinganiga ham mana 32 yil bo‘ldi. Bu davr ichida o‘zbek tilining davlat tili sifatida mamlakat va jamiyat faoliyatidagi mavqei ortdi, bu sohada ko‘pgina ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, O‘zbekistondagi boshqa millat va elatlar tillarining rivojlanishiga ham keng imkoniyatlar yaratildi.

Natijada millatlararo totuvlik, bag‘rikenglikka erishdik, davlat va jamiyat hayoti barqarorlashdi. Albatta, bu sohadagi yutuqlarimiz juda ko‘p. Gap faqat yutuqlarni ta’kidlash emas, balki ona tilimiz - o‘zbek tilini davlat va xalqaro miqyosda rivojlantirish uchun endilikda nimalarga alohida e’tibor qaratishimiz lozimligi haqida o‘ylab ko‘rish maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Nazarimizda, o‘tgan davr ichida “Davlat tili haqida”gi qonun o‘zining tarixiy vazifasini bajarib bo‘ldi. Endilikda bu sohadagi ishlarimizni tamoman yangi bosqichga ko‘tarishimiz zarur. Buning uchun, birinchi navbatda, bu sohada dunyoning ilg‘or tajribalarini keng o‘rganishimiz, mamlakatimizda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan tub islohotlar, ayniqsa, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasidan kelib chiqqan holda, “Davlat tili haqida”gi qonunning butunlay yangi variantini qabul qilishimiz lozim.

Yangi qonun qabul qilingandan keyin uni hayotga joriy etish mexanizmini shakllantirish kerak. Buning uchun hozirgi zamon talablaridan kelib chiqqan holda istiqbolli maxsus davlat dasturi ishlab chiqilishi lozim. Unda mamlakatimizda kelajakda (kamida keyingi 20 yilda) tillarning rivojlanish strategiyasi, davlat tilini nafaqat mamlakatimiz doirasida, balki xalqaro darajada yanada rivojlantirish, yozuv va imlo, lotin alifbosini joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish kabi masalalar to‘la qamrab olinishi zarur.

Bizning nazarimizda, yangi “Davlat tili haqida”gi qonuni va uni hayotga joriy etish Davlat dasturini ishlab chiqishda hozirgi paytdagi mavjud quyidagi muammolarni hal etishga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi:

Birinchidan, amaldagi “Davlat tili haqida”gi qonun ko‘proq deklarativ xarakterga ega bo‘lib, qonun buzilgan holatlarda javobgarlik belgilanmagan. Ayrim mamlakatlarning qonunchiligida davlat tili to‘g‘risidagi qonun buzilsa, javobgarga nisbatan majburiyat, jarima va boshqa jazo choralari belgilangan. Shu bois qonunning yangi variant qabul qilinayotganda shu masalalarni ham o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bundan tashqari, amaldagi davlat tili haqidagi qonun qabul qilingan davrda asosan davlat korxona va muassasalari mavjud edi. Shuning uchun ham unda asosan davlat muassasalari nazarda tutilgan. Hozirda esa mamlakatimizda nodavlat muassasalari, xorijiy qo‘shma korxonalar faoliyat yuritmoqda. Yangi qabul qilinadigan qonunda aynan shu jihatlarni ham inobatga olish zarur.

Ikkinchidan, hozirgi o‘zbek tilining davlat tili sifatida davlat organlari faoliyatida to‘la qo‘llanishiga erishish zarur. Mustaqil mamlakat sifatida faoliyat yuritayotganimizga chorak asr bo‘lgan bo‘lsa-da, ayrim muassasalarda ish yuritishga oid ba’zi hujjatlarning hali ham o‘zga tillarda tayyorlanayotganini qanday baholash mumkin?

Uchinchidan, o‘zbek tilini jamiyat faoliyatining har bir sohasida to‘la qo‘llashga erishishimiz kerak. Ayniqsa, zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, yurisprudentsiya, diplomatiya va harbiy ish kabi sohalarda o‘zbek tilining mavqeini yanada oshirishni uchun hayotning o‘zi taqozo etyapti. Shu o‘rinda Prezidentimizning Tashqi ishlar vazirligi xodimlari bilan uchrashuv chog‘ida diplomatiya sohasidagi mutaxassislarning o‘zbek tilini bilishi borasida muammolar mavjudligi to‘g‘risidagi fikrlarini eslab o‘tish joizdir.

Bundan tashqari, normativ-huquqiy hujjat loyihalari faqat davlat tilida tayyorlanishi va qabul qilinishini yagona norma sifatida belgilash maqsadga muvofiqdir. Chunki hozirgi paytda ayrim davlat organlari o‘z hujjatlarini o‘zga tillarda (rus tilida) tayyorlab, keyin o‘zbek tilida o‘girishmoqda. Bu esa shu hujjatlar tilining g‘alizligiga, aniq, ravon ifodalanmasligiga olib kelyapti va amalda mazkur hujjatni bajaruvchilarga ma’lum bir qiyinchiliklar tug‘dirmoqda.

Ayrim muassasalar esa o‘z hujjatlarini faqat o‘zga tilda (rus tilida) e’lon qilmoqda. Bunday amaliyotga chek qo‘yish kerak. Yangi qonunda aynan shu masalalar aniq tartibga solinishi zarur.

To‘rtinchidan, “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da ta’kidlanganidek, davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish, davlat hokimyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash, xalq bilan muloqotning samarali mexanizmlarini joriy etish; jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish, jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash vazifalari ma’lum ma’noda mamlakatimizning barcha ta’lim bo‘g‘inlarida davlat tilini o‘qitishning ham qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Bunda, ayniqsa, maktab ta’limiga alohida e’tibor qaratish kerak. Bu sohada bugungi kunda ayrim holatlarda ota-onalar tomonidan noo‘rin harakatlar ham sodir etilmoqda, ya’ni birinchi sinfga borayotgan bolasining rus tilini bilishi va bilmasligidan qat’iy nazar uni rus sinflariga berishga harakat qilmoqda. Endigina yangi ijtimoiy muhitga qadam qo‘yayotgan bola uchun ta’lim olish tilini bilmaslik juda katta ruhiy zarba bo‘ladi. Chunki u yangi muhitga moslashsinmi yoki til o‘rgansinmi? Tilni o‘rgangan taqdirda ham u o‘z ona tilida fikrlaydi. Shuning uchun bunday holatlar bolalarda depressiya holatini keltirib chiqaradi. Binobarin, ota-onalar, albatta, bunday holatlarni hisobga olishlari zarur.

Shuningdek, maktab, akademik litsey va kollejlarda o‘zbek tili ta’limi haqida gap ketganda, ona tili darslarida, asosan, o‘zbek tilining ichki qurilishi (fonetika, leksika, grammatika kabi) bilan bog‘liq bilimlar berilmoqda, oliy o‘quv yurtiga kirish test sinovlarida ham ona tilidan asosan, grammatikalashgan savollar berilmoqda. Natijada, yoshlarimizda og‘zaki va yozma nutq masalalari susayib boryapti. Shuning uchun o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga nutqni qanday shakllantirish, nutq madaniyati, notiqlik

san’ati kabi bilimlarni ham kiritish va insho yozish amaliyotiga alohida e’tibor berish kerak.

Bundan tashqari, oliy ta’lim tizimida, ayniqsa, nofilologik oliy o‘quv yurtlarida tayyorlanayotgan mutaxassislarning davlat tilini mukammal darajada egallashiga alohida e’tibor qaratish zarur. Bugungi kunda nofilologik oliy o‘quv yurtlarida o‘zbek tilini o‘qitish amaliyoti faqatgina rusiyzabon talabalarga ta’lim berish bilan cheklanadi, xolos. Milliy guruhlarda ona tili bo‘yicha hech qanday fan o‘qitilmaydi. Natijada talaba ertaga bu oliy dargohni bitirib, biror muassasa yoki korxonaga borgandan keyin o‘z fikrini aniq ifodalashda, o‘z sohasiga oid hujjatlarni to‘ldirishda qiynaladi.

Shuning uchun rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda mamlakatizdagi barcha nofilologik oliy o‘quv yurtlarida davlat tilini o‘qitish tizimini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

Bizning fikrimizcha, nofilologik oliy o‘quv yurtlarida davlat tilini o‘qitish tizimi quyidagi uch bosqichga asoslanishi lozim: birinchi bosqichda – birinchi kursda rusiyzabon talabalarga o‘zbek tilini o‘qitish; ikkinchi bosqichda – ikkinchi va uchinchi kurslarda milliy guruhlarda “Mutaxassislik tili”, “Kasbiy nutq madaniyati”, “Ixtisoslik hujjatlarini tuzish asoslari”; uchinchi bosqichda – magistraturada “Kasbiy notiqlik san’ati” kabi o‘quv kurslarini joriy etish. Talabalar bakalavriyatni bitirayotganda o‘zbek tili bo‘yicha davlat imtihonini (attestatsiyasini) yo‘lga qo‘yish zarur bo‘ladi.

Beshinchidan, o‘zbek tilini ilmiy sohada tadqiq etishda dunyo ilm-fani yangiliklaridan kelib chiqqan holda, hayot va jamiyat uchun zarur bo‘lgan amaliy yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratish zarur. So‘nggi yillarda jahon ilm-fani fanlararo yo‘nalishda, ya’ni ikki yoki undan ortiq fanlarning o‘zaro kesishgan nuqtasida rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, tilshunoslik maxsus sohalarga ixtisoslashtirilgan holda “Kompyuter lingvistikasi”, “Matematik lingvistika”, “Lingvokulturologiya”, “Sotsiolingvistika”, “Yuristlingvistika”, “Psixolingvistika” kabi fanlar rivojlanib bormoqda. Shuning uchun tilshunos olimlarimiz aynan shu ilmiy yo‘nalishlarga ustuvor soha sifatida qarashlari, boshqa soha olimlari (huquqshunos, siyosatshunos, diplomat, iqtisodchi kabi) bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishlari va ular tomonidan bu sohada ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari yaratishlari maqsadga muvofiqdir.

O‘tgan davr ichida o‘zbek lug‘atshunosligi sohasida ham ancha ishlar qilindi. O‘zbek milliy entsiklopediyasi singari ko‘plab izohli lug‘atlar, deyarli barcha fan sohalarida bir qancha ikki va uch tilli terminologik lug‘atlar yaratildi. O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folьklori instituti xodimlari tomonidan o‘zbek tilining ko‘p jildli izohli lug‘ati tuzatilgan holda qayta nashrga tayyorlandi.

Endilikda bu ishlarni zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalariga ko‘chirish, shu sohadagi ilg‘or rivojlangan tillar tajribalaridan kelib chiqqan holda amalga oshirish zarur.

Oltinchidan, “Davlat tili haqida”gi qonun targ‘iboti, uning tarixiy ahamiyati haqidagi ommaviy tadbirlar taqvimiy xarakterga ega bo‘lmay, doimiylik kasb etishi shart. Bu degani har bir fuqaro “Davlat tili haqida”gi qonunning siyosiy ahamiyatini anglashi, unga og‘ishmay amal qilish shartligi, uning ma’naviy va huquqiy natijalarini tasavvur qila olishi lozim.

Yettinchidan, tilimiz taraqqiyotini ko‘zlagan holda mavjud darslik, o‘quv qo‘llanmalarni stabillashtirish, ma’lum tizimga solish zarur. Bu borada zamonaviy va ana’anaviy yo‘nalish tarafdorlari bir-biriga ta’na toshini otishdan, o‘zlarini ko‘rsatishdan tiyilishlari shart. Chunki bu ish ayrim shaxs yoki guruh manfaati emas, millat manfaati, davlat manfaatiga xizmat qiladi.

Sakkizinchidan, o‘zbek tilini o‘zga millat vakillariga, xususan, xorijliklarga qisqa muddat ichida intensiv o‘rganishning amaliy metodikasini ishlab chiqish kerak. Bunda o‘zbek tili bo‘yicha hozirgi zamon axborot va kommunikatsiya tizmlari asosida turli o‘zi o‘rgatadigan elektron darsliklar tayyorlashga va maxsus ixtisoslashgan veb sahifalarga, distansion ta’limga alohida e’tibor berish maqsadga muvofiq. Shu yo‘l bilan o‘zbek tilini o‘rganmoqchi bo‘lgan xorijliklar uchun o‘z mamlakatida turib til o‘rganish imkoniyatini yaratish lozim.

Umuman olganda, mustaqillikdan keyin o‘tgan 31 yil ichida til siyosatida mamlakatimizda yashovchi barcha xalqlarning millatlararo totuvligiga bir-birini o‘zaro tushunishga erishdik. Har bir millat o‘z ona tiliga davlat tomonidan g‘amxo‘rlik qilinayotganiga qat’iy amin bo‘ldi. Nazarimizda, endigi vazifa O‘zbekistonda davlat tilini hayotga to‘la joriy etishni yanada takomillashtirish maqsadida “Davlat tili haqida”gi qonunni yangidan ishlab chiqish va uning loyihasini xalq muhokamasiga qo‘yish, bildirilgan fikr-mulohazalaridan kelib chiqqan holda qabul qilish kerak. Yangi qonun qabul qilingandan keyin uni hayotga joriy etish mexanizmini shakllantirish lozim.

Bosh maqsadi Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi bo‘lmish milliy g‘oyamizning kurashchanligini ta’minlashda mukammal ma’naviyat va ma’rifat hal qiluvchi omil bo‘lib, ona tiliga muntazam muhabbat, davlat tiliga barqaror ehtirom ana shu omilni shakllantiradi, unga kuch beradi, ko‘lam baxsh etadi. SHuning uchun ham milliy g‘oya targ‘ibida “millatning o‘lmas ruhi bo‘lgan ona tiliga muhabbat” [4:49] tarbiyasi muhim o‘rin tutadi.

Qayd etilgan masalalar mavjud muammo va mulohazalarning bir qismi bo‘lib, ular o‘z yechimini topishi uchun har birimiz astoydil harakat qilishimiz darkor. Til har birimizning o‘zligimiz, har birimizning jahonda bor ekanimizni ko‘rsatuvchi ko‘zgudir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Komilov N. Xizr chashmasi. Toshkent: Ma’naviyat, 2005, –B. 209.

2. Mahmudov Nizomiddin. O‘qituvchi nutqi madaniyati: talabalar uchun darslik / O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. –Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. –B. 188.

3. Mengliyev B., Toshmirzayeva SH., Atoyeva S., Majidova S., Mannopova D. Ona tili: Umumuy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik / “O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T.-2020. –B**.** 96.

XI-XIII ASRLARDA TURKIY TILDA ISH YURITISH

Sadinova Nafisa,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Navoiy davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Maqolada Qoraxoniylar davlati boshqaruvi davrida o‘zbek hujjatchiligining til xususiyatlari haqida so‘z yuritilgan va lug‘aviy tarkibi, shuningdek, grammatik xususiyatlari manbalar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ish yuritish, dariy tili, hujjat, lug‘aviy tarkib, tarxon, mansab.

Ish yuritish asosini hujjatlar tashkil qilib, ularning paydo bo‘lish tarixi juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Ma’lumotlarga qaraganda, Markaziy Osiyoda arxiv yozuv bilan bir vaqtda paydo bo‘lgan [1:3]. Demak, ish yuritish sohasi qadimiy xalqimiz madaniyati, tarixi, tilining ajralmas qismi sifatida asrlar osha rivojlanib kelgan. Ish yuritish sohasi millatimizning uzoq va murakkab o‘zgarishlarga boy tarixini o‘zida aks ettirgan. Qadimgi Tuproqqal’a xarobalaridan topilgan Xorazm shohlariga tegishli III-IV asr boshlariga oid qadimgi hujjatlardan iborat arxiv qoldiqlari, 1930-yil boshlarida qadimgi So‘g‘diyona davlatining Mug‘ tog‘i xarobalaridan topilgan Devashtich arxivi, Qo‘qon va Xiva xonligi arxivlari, Buxoro amirligining Qushbegi arxivi [1:3] fikrimizning dalilidir. O‘tmishda ro‘y bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, madaniy hayot, iqtisodiy munosabatlar, birinchi navbatda, leksik qatlam tarkibini boyitib, hujjatlarda ham o‘z aksini topgan. O‘z navbatida, ish yuritish sohasining shakllanishi, hozirgi kundagi takomilida tarixiy jarayonning alohida o‘rni bor.

“Turkiy tillar tarkibida yetarli miqdorda forscha, arabcha hatto mo‘g‘ulcha so‘zlar uchrashi tasodifiy emas, bunda ma’lum rolni siyosiy omil o‘ynaydi” [2:13]. Bu hol nafaqat tilshunoslik, balki boshqa sohalar terminologiyasida ham aniq ko‘rinadi.

O‘rta Osiyo xalqlari arablar istilosiga qadar ham ish yuritish va hujjatchilik sohasida ma’lum yutuqlarga erishgan edi. Masalan, so‘g‘dcha *parvonak kirok – parvonachi* so‘zi XIX asrgacha iste’molda bo‘lgan bo‘lsa, *bozkirom* (baz so‘zidan) – *boj* so‘zi hozirgi kunda ham ishlatilib kelinmoqda [4:61] . *Ulus, otabek, yurt, ko‘ruk, jarchi, tunqator* kabi ko‘plab turkiy so‘zlar yaqin kunlargacha ham amalda bo‘lgan.

Ma’lumki, VII asrda arablar Eron, O‘rta Osiyo va unga yondosh bo‘lgan mamlakatlarni zabt eta boshlagan va islom dini bilan birga arab madaniyati, tili va yozuvi ham joriy etilgan. Bu davrlarda O‘rta Osiyo, Eron, Xuroson hatto Hindistonda fors tili ko‘proq badiiy adabiyot – ijod tili sifatida ravnaq topgan bo‘lsa, falsafa, huquq, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, tibbiyot kabi ko‘plab sohalarga oid ilmiy asarlar asosan arab tilida yaratilgan. Xalifalikka asos solingach, Bog‘dod akademiyasining tashkil etilishi ilm-fan taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Buning oqibatida O‘rta Osiyo madrasalarida ham o‘qish ko‘proq arab tilida olib borilgan. Ma’muriy idoralar va hatto shaxsiy yozishmalarda ham arab tilidan keng foydalanilgan. Yozuvda arab alifbosi mustahkam o‘rnashib olgan.

Arablar bosib olgan butun territoriyada qariyb ikki asr mobaynida arab tili adabiyot va ilm-fanga hukmronlik qiladi [5:11]. Shu bilan birga xalqdan qat’iy tartibda islom

dinini tan olish, ularning tartib-qoidalarini to‘la-to‘kis amalga oshirish talab qilingan. Shariat qonun-qoidalariga, muvofiq ish yuritilib, bu holat yangi tushunchalarni ifodalovchi ko‘plab arabcha so‘zlarning mahalliy xalq tiliga kirib kelishiga sabab bo‘lgan: arz, bayon, vakolat, vazir, vasiy, vasiqa, voris, davlat, ziddiyat, idora, inobat, mahkama, munshiy, munshaot, muvofiq, ommaviy, ruxsat, manzil, shohid, qozi, ajrim, mahr kabi. Arab tilining yetakchi o‘ringa chiqib olishi natijasida hozirgi kunga qadar rasmiy-idoraviy uslubga doir terminlar orasida arabiy so‘zlar salmoqli o‘rin egallaydi.

IX asrda arab xalifaligi yemrilib, Somoniylar davlati vujudga keldi va bu davlat dariy yoki forsiy nomi bilan atalgan mahalliy tilni o‘zlarining davlat va adabiy tili deb e’lon qiladi. Bu davrda fors tiliga e’tibor kuchayadi. Ilmiy, adabiy asarlar bilan birga hujjatlarning ham fors tilida yozilishi keng urfga kiradi. Fors tilining ta’siri shu darajada kuchayib ketadiki, hatto o‘zbek shoirlari XIX asrning oxiriga qadar ham o‘z she’rlari va asarlarini o‘zbek tili bilan bir qatorda forsiy tilda yozganlari ma’lum. *Bozor, garov, guvoh, gunohkor, daromad, narx, noma, devon, ziyon, nishon, oshkor, bekor* kabi forscha so‘zlarning turkiy tillarda keng iste’molga kirib kelishini shu bilan izohlash mumkin.

Somoniylar davlati o‘rnida Qoraxoniylar sulolasi boshqaruvni qo‘lga olgach, davlat qurilishi va boshqaruvida bir qancha o‘zgarishlar bo‘ldi. Ular Somoniylar boshqaruvi tizimini to‘laligicha qabul qilishmagan bo‘lsa ham, Somoniylar davridagi ko‘pgina mansab, vazifalar saqlab qolindi. Bu esa, o‘z navbatida, davlat boshqaruvi leksikasiga muayyan darajada ta’sir qilgan. Qoraxoniylar davri (XI-XIII asrlar) eski turkiy yozma yodgorliklarida uchraydigan mansab va vazifa nomlarini ifodalovchi saksonta termin tarixiy-etimologik jihatdan tahlil qilinganda 62 ta terminning o‘z qatlamga, 18 ta terminning o‘zlashma qatlamga mansub ekanligi aniqlangan [3:45] . O‘zlashma qatlamga mansub so‘zlarda orasida arab, fors tillaridan o‘zlashgan o‘zlashmalar yetakchi o‘rinni egallaydi.

Ba’zi so‘zlar qadim zamonlardan beri saqlanib kelgan: *hoqon, xon, tarxon* “g‘arbiy turklardagi davlat boshlig‘i lavozimi”, *buyruq, su bashi* “ish boshqaruvchi”, *yalavach, elchi.*

Bu davrda ish yuritish sohasiga oid so‘zlarning ichki resurslar hisobiga boyishi ikki xil shaklda amalga oshib bordi:

1) tilda mavjud so‘zlarni yangi ma’noda qo‘llash: *yumush* “elchilik topshirig‘i” – “delo, porucheniye”; *yumushchi* “hukmdor” – “rabotnik, sluga, posrednik”;

2) eski turkiy tilning so‘z yasash imkoniyatlaridan kelib chiqib yangi so‘z yasash: *elig* “hukmdor” (el “birlashgan qabila” + lig), *ashbashchi* “bosh oshpaz”, *ag‘ichi* “xazinachi”, *terkan* “viloyat hukmdorlari unvoni” (ter – “termoq”+ kan).

Bu davrda quyidagi usullar bilan so‘z yasash birmuncha mahsuldor bo‘lgan:

a) morfologik – *bitikchi* “xon devoni kotibi”, *bashg‘uchi* ”hukmdor, podshoh”, *achunchi* “olampanoh, shohanshoh”;

b) analitik (so‘z qo‘shish) – *o‘rda boshi,* “farmonbardor”, *inanch beg* “ishonchli bek, asosiy ishonchdagi bek”;

v) kalkalash – *ulug‘ hojib* birikmasi forscha “hojibi buzurg” iborasining kalkalanishi natijasida hosil qilingan.

Shuningdek, arab va fors tilidan kirib kelgan so‘zlar eski turkiy tilning qonun-qoidalariga bo‘ysungan, ya’ni ular turkiy tildagi so‘z yasovchi qo‘shimchalarga qo‘shilib

yangi so‘z hosil qilgan: *hajibliq* “hojib martabasi, mansab”, *vazirliq* “vazir mansabi, vazifasi”, *maliklig‘* “hukmdor martabasi, mansabi” [13:47].

Umuman, Qoraxoniylar davlati boshqaruvi davrida turkiy tilga bo‘lgan e’tibor kuchaydi. Bu davrda turkiy til, jumladan ish yuritish sohasi ma’lum yutuqlarga erishgan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aliyev I., Ergashev F., Bo‘tayev A. Arxivshunoslik. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 1997.

2. Ахмедов Б.А., Мукминова Р.Г. Тюркские заимствования в персоязычных хрониках XY-XYII вв. “Историко-культурные контакты народов алтайской языковой общности.” Тезисы докладов XXIX сессии постоянной международной алтаистической конференции(PIAC). – Москва: Наука, 1986. Часть II.

3. Дадабоев Х.А. Термины, обозначающие административные должности и титулы в старотюркских письменных памятниках XI-XIII вв. “Историко-культурные контакты народов алтайской языковой общности.” Тезисы докладов XXIX сессии постоянной международной алтаистической конференции(PIAC). – Москва: Наука, 1986. Часть II.

4. Исхаков М. Элементы согдийского языка в совр Исхаков М. Элементы согдийского языка в современном узбекском. “Историко-культурные контакты народов алтайской языковой общности.” Тезисы докладов XXIX сессии постоянной международной алтаистической конференции(PIAC). – Москва: Наука, 1986. Часть II.

5. еменном узбекском. “Историко-культурные контакты народов алтайской языковой общности.” Тезисы докладов XXIX сессии постоянной международной алтаистической конференции(PIAC). – Москва: Наука, 1986. Часть II.

6. Fors tili. – Toshkent, 1977. II nashr.

ONA TILIMIZ SOFLIGI TIL TARAQQIYOTINI BELGILAYDI

Boboyorov O‘rinboy,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi
Davlat tilida ish yuritish asoslarini
o‘qitish markazi bo‘lim boshlig‘i

Annotatsiya. Maqolada ona tilimiz sofligi, davlat tili me’yorlariga amal qilish borasidagi ba’zi bir mulohazalar yoritildi. Shuningdek, jamiyatimiz taraqqiyotida tilning tafakkur ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy ko‘prik ekanligi, bu borada amalga oshirilayotgan ishlardagi muammo va kamchiliklar, ularni bartaraf etish bo‘yicha ba’zi bir mulohazalar bayon qilindi.

Kalit so‘zlar: lug‘at, til sofligi, muqobil so‘z, jurnalistika, televidenie, ommaviy axborot vositalari.

Har qanday jamiyatning taraqqiyot ko‘zgusi, o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Agar til bo‘lmay, insonning mavjudligi uning o‘z hayotiy tajribasiga asoslangan bo‘lganda edi, inson shu kungacha o‘zidan farqli bo‘lgan boshqa mavjudotlar qanday yashasa, shunday yashagan va bugungi moddiy, ma’naviy taraqqiyotga erishmagan bo‘lardi. Aytish mumkinki, har qanday til o‘sha xalq milliy madaniyatining shakli sifatida tafakkurning mevalari va ma’naviy boyliklarini zamon va makonda abadiylashtiruvchi vosita hisoblanadi.

Darhaqiqat, bugun biz tarixiy davrda xalqimiz o‘z oldiga ezgu va ulug‘ maqsadlar qo‘yib tinch osoyishta hayot kechirayotgan, avvalombor, o‘z kuch va imkoniyatlariga tayanib, ko‘plab sohalarda ulkan natijalarni qo‘lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz. Mamlakatimizda “Milliy tiklanishdan –milliy yuksalish sari” degan ustuvor g‘oya asosida o‘z taraqqiyotining tamomila yangi bosqichiga dadil qadam qo‘yayotgan bir davrda barcha sohalar kabi davlat tilining o‘rni va nufuzini oshirish borasida ham tub burilish jarayonlari boshlandi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida bu borada qilinadigan keng ko‘lamli ishlarning to‘laqonli tarhini chizib berar ekan, bu ishlarning natijalarini quyidagicha ifoda etadi: “Muxtasar aytganda, har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e’tiborni mustaqillikka bo‘lgan e’tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozim”.

Jamiyatdagi har qaysi millat, agar u millat sifatida shakllana olgan bo‘lsa, katta yo kichikligidan qat’iy nazar, o‘z ona tilini hurmat qiladi. Chunki har qanday tilning muhim ahamiyati shundaki, u ma’naviyat belgisi sifatida kishilarni yanada bir-birlariga yaqinlashtiradi, jipslashtiradi. Til tufayli jamiyat a’zolarining har birida hosil bo‘lgan bilim ommalashib, uning ko‘pchilik tomonidan rivojlantirilishiga imkon tug‘iladi. Bundan tashqari, til orqali bilim avloddan-avlodga og‘zaki va yozma tarzda qoldiriladi, natijada yangi avlod o‘tgan avlodning ishini yangidan boshlamasdan, uni davom ettiradi. Til ilm olishda zamon va makon g‘ovini o‘rtadan ko‘taradi. Faqat tilimiz orqaligina eng qadimgi ma’lumotlarga ega bo‘lamiz, hatto kelgusiga oid ma’lumotlarni ham olamiz. Til tufayligina sezgi a’zolari bilan bilib bo‘lmaydigan narsalarni ham o‘rganamiz. Yashash davomida ko‘rinishi, shakli bir xil bo‘lgan narsalarning aksi, ifodasi ongimizda o‘rnashishi mumkin, lekin shaklsiz narsalarni biz faqat tilimizdagi so‘z sifatida o‘zlashtiramiz.

Tilni o‘rganish va o‘rgatishni osonlashtiradigan yana bir jihati shundaki, u umumlashtirish xususiyatiga ega. So‘z yordamida biz mavjudotni o‘rganib, umumiy tushunchalar hosil qilamiz va hatto ularning haqiqatini idrok etishga imkoniyat hosil qilamiz. Tilimiz orqali millatning ruhi, bebaho tarixi, boy merosini kelajakka yetkazamiz, uni ardoqlaymiz, e’zozlaymiz. Shu o‘rinda ona tilimizga munosabat orqali cheksiz hurmatimizni, uni e’zozlab, boyitgan holda asrab-avaylay olyapmizmi? - degan o‘rinli savol tug‘iladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi xalqimizning milliy mustaqillikka erishish yo‘lidagi muhim qadamlaridan biri bo‘lgan. Bu mamlakatimiz, yurtdoshlarimiz hayotidagi unutilmas, tarixiy voqeaga aylandi. Agar

o‘shanda til to‘g‘risida qonun qabul qilinmaganda edi, o‘zbek tili ham tarix sahifalaridan joy olgan bo‘larmidi?!.

Albatta, mustaqillik yillarida mamlakatimizda barcha sohalarda bo‘lgani kabi tilimiz taraqqiyotida ham muhim o‘zgarishlar yuz berdi. O‘zbek tilining xalqaro miqyosda obro‘si oshdi. “Davlat tili haqida”gi Qonun ona tilimizning bor go‘zalligi va jozibasini to‘la namoyon etish bilan birga, uni ilmiy asosda rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Olimlar va mutaxassislar tomonidan ilm-fan va turli sohalarga oid ensiklopediya va lug‘atlar, darslik va o‘quv qo‘llanmalari, ko‘plab monografiyalar chop etildi. Mumtoz adabiyotimiz namunalari, sakson mingdan ziyod so‘z va so‘z birikmasini, fan, texnika, sanoat, madaniyat va boshqa sohalarga oid atamalarni, shevalarda qo‘llaniladigan so‘zlarni o‘z ichiga olgan besh jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” bu borada amalga oshirilgan ishlarning eng muhimlari hisoblanadi. Shu tariqa ona tilimiz mustaqil davlatimizning bayrog‘i, gerbi, madhiyasi qatorida turadigan, qonun yo‘li bilan himoya qilinadigan muqaddas davlat ramziga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilini davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son hamda 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6084-son Farmonlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining til va yozuvimiz to‘g‘risidagi o‘ndan ortiq qarorlarining qabul qilinishi o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini oshirish uni rivojlantirish, takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlar o‘z mevasini berishni boshladi, deb bemalol aytishimiz mumkin.

Afsus, mazkur ijobiy harakatlar bilan birga dilni siyoh qiladigan, tilimiz ravnaqiga to‘siq bo‘lishi, soya solishi, milliy urf-odatlarimiz, o‘zligimiz, tafakkurimizga salbiy ta’sir etishi mumkin bo‘lgan holatlar ham har qadamda yetarlicha, hatto ortig‘i bilan topiladi. Jumladan, poytaxtimiz, viloyatlar markazlarini qo‘yaveraylik, hattoki uzoq tuman markazlarida ham ko‘chalarimiz, tashkilot, bozor, tijorat va notijorat tashkilotlarimiz, tadbirkorlik muassasalarimiz, xo‘jalik birlashmalaridagi nomlanishlar, e’lonlar, shiorlar, peshtoqlardagi har xil ajnabiy yozuvlar har birimizning dilimizni og‘ritishi, chuqur o‘yga solishi ham bor gap. Masalan: o‘zbek tilida muqobil so‘z shakliga ega bo‘lsa-da, lekin boshqa tillarda ifodalanib, hammaning sabr kosasini to‘ldirgan “мы открылись”, “ксерокопия”, “мини маркет”, “супер маркет”, “car wash”, “бургер”, “fast food”, “welcome”, “добро пожаловать”, “парковки”, “стоянка”, “эвакуация”, “сити”, “салон”, “секурити”, “модератор”, “тютор”, “кофе брейк”, “авто школа”, “еда с собой”, “кофе с собой”, “возми собой”, “оформления”, “напитки”, “почемучка”, “отдел продаж”, “оптом маркет”, “golden house”, “style”, “оригинал”, “hotel”, “xostel”, “тонировка”, “мега скидка” kabi so‘zlarni istagancha keltirish mumkin. E’tibor bering-da, yuqorida sanab o‘tilgan so‘zlarning hammasini o‘zbek tilida biz oldindan qo‘llab kelgan muqobil so‘z shakllari nafaqat ziyolilarga, hattoki maktab ta’limidan so‘ng hech qaerda o‘qimagan insonlarga ham tushunarlidir. Nimagadir biz o‘zimiz bilib-bilmay shu kabi ajnabiy so‘zlarni ongimizga singdiryapmiz. Bu tilimiz sofligiga putur yetkazayotgan omil sifatida o‘ta xavfli hisoblanadi.

Eng achinarlisi, shu peshtoqlardagi yozuvlarni ham, e’lon-u shiorlarni ham, barcha-barchasini o‘zimiz amalga oshirmoqdamiz, o‘zimiz yozyapmiz, o‘zimiz peshtoqlarga

osyapmiz, o‘zimiz teskari targ‘ib qilyapmiz. Hech kim chetdan kelib bizni shunga majburlagani ham, buyurgani ham yo‘q. Xo‘sh, qachon tilimiz qadriga yetamiz? Qachon tilimiz bilan faxrlanamiz? O‘zbek tilining boshqa tillardan qanday kamchiligi bor?

Bugungu kunda amalga oshirilayotgan va oshirilishi lozim bo‘lgan islohotlarning asosiy targ‘ibotchisi bo‘lgan Ommaviy axborot vositalarining yetakchisi va asosiysi bo‘lgan televideniyadagi, ayniqsa, nodavlat kanallardagi ko‘rsatuvlarning nomlanishi, ba’zi suxandon-boshlovchilarning o‘zbek tiliga bo‘lgan munosabatlari dilni xira qiladi. E’tibor bering-da: “Топспинг”, “М-НЬЮС”, “МТВ-шоу”, “TV SALE”, “Sketch shou”, “Хит парад”, “Mostbet”, “Jackpot”, “Anons”, “Xop-shop”, “Telemagazin”,“Cover Up”, “Реал Хит”, “Superliga”, “Offside” kabi ajnabiy ro‘yxatni, ming afsuski, bemalol davom ettirish mumkin.

Xuddi shuningdek, tilimizning og‘zaki muomala shakli ham maqtangudek emas. Og‘zaki nutqimizni turli xil ajnabiy so‘zlar, varvarizmlar, bir qarashda anglash qiyin bo‘lgan o‘ta qo‘pol qisqartmalar, jargonlarsiz bayon qila olmaslik holatlari ko‘p uchramoqda. Bu kabi holatlar tilimizga e’tiborli bo‘lgan har qanday insonni ham

chuqur o‘yga solishi aniq. Axir ona tilimizning aybi nimada? Ajdodlarimizni allalagan, farzandlarimizga ta’lim-tarbiya bergan, boy tariximiz, moddiy va ma’naviy merosimiz, dinimiz, e’tiqodimiz haqida eng ishonarli ma’lumotlarni kelajakka opichlab o‘tkazib kelayotgan tilimizga ehtirom shumi? Nahotki, joylarda shu masalalarni risoladagidek amalga oshirish qiyin bo‘lsa. Zero, adibimiz Abdulla Qahhor ta’kidlaganidek: “Juda boy, chiroyli tilimiz bor. Bu tilda ifoda etib bo‘lmaydigan fikr,tuyg‘u yo‘q!”

Shu o‘rinda dunyodagi barcha xalqlar o‘zining milliy rasmiy tiliga ega deb aytolmaymiz. YUNESKOning ma’lumotlarga qaraganda, bugungi kunda har ikki haftada bitta til yo‘qolib bormoqda. Ba’zi tillarda so‘zlovchi aholining ayrimlari yozuvga ega bo‘lsa, ayrimlari bundan bebahradir. Masalan, Afrika tillarida so‘zlashuvchi aholining 80 foizi hamon o‘z yozuvlariga ega emas. Minglab tillardan ta’lim tizimida foydalanishning imkoniyati yo‘q.

Ming shukurlar bo‘lsinki, o‘zbek tili davlat tili maqomiga ega bo‘lgan, bugungi kunda og‘zaki va yozma shakllari mavjud, grammatikasi shakllangan, dunyo bo‘yicha 50 million atrofida inson iste’molida bo‘lgan yirik, boy til hisoblanadi. Mutaxassislarning fikricha, til yashab qolishi uchun undan kamida bir millon kishi so‘zlashishi, foydalanishi kerak ekan. Biroq bunday tillar dunyoda atigi 250 tani tashkil qiladi, xolos. O‘zbek tilimizning mana shu 250 ta tilning tarkibida ekanligi quvonarli hol, albatta.Tilimiz poydevori, ildizi juda chuqur, tarixiy, boy tillardan biri bo‘lib, ishonchimiz komilki, tilimiz yo‘qolib ketmaydi, ammo buzilayotgani insonni xavotirga soladi. To‘g‘ri, bugungi kunda dunyo miqyosida global taraqqiyotning ta’siri, fan-texnika rivoji, ijtimoiy hayot sur’atining o‘sishi, ijtimoiy tarmoqlar faollashuvi natijasida har qanday tilda ham u yoki bu o‘zgarishlar kuzatilishi tabiiy hol. Tilga kirib kelayotgan o‘ta faol so‘zlar, ayniqsa, ba’zi xalqaro atamalarni inkor qilib bo‘lmaydi. Faqat bu so‘zlarning ifoda ma’nosiga ko‘ra ehtiyotkorlik bilan iste’molga kiritish, so‘zlarning tilimizda mavjud bo‘lgan ma’nodoshlariga almashtirish maqsadga muvofiqdir. Masalan, parol-(im,o‘ron), heshteg-(tanitma, xosbelgi), skrinshot-(qaydlavha,ekranlavha), masterklas-(mahorat darsi), QR kod-(yo‘naltirma, yoki tezkor javob kodi, xos kod), shtandart-(tug‘, ramziy tug‘, sanjoq,

andaza) tyutor-(tarbiyachi), sayt-(sahifa), onlayn-(to‘g‘ridan to‘g‘ri uchrashuv, aloqa), oflayn-(yuzma-yuz uchrashuv), vebinar-(tarmoq orqali mashg‘ulot, yoki tarmoqda mashg‘ulot), frilanser-(shartnoma asosida ishlovchi mutaxassis, yollanma), chellenj-(chorlov, da’vatli tashviqot, chaqiriq, ommalashuv), fleshmob-(tezkor ommaviy targ‘ibot), dayjest-(qisqa izoh), startap-(tashabbus, yangi loyiha, yoki yangi qadam), xostel-(kichik mehmonxona, mehmon uyi), kouch-(maxsus murabbiy, xos murabbiy), trening-(o‘quv mashg‘uloti), yuzer-(foydalanuvchi), rezyume-(ma’lumotnoma), messenger-(aloqa tarmog‘i), login-(eslatma), fake-(soxta), keshbek-(ulush), admin-(tarmoq boshqaruv nazoratchisi), chat-(tarmoq yozishmasi), prank-(kutilmagan hazil), layfhack-(ayyorona yechim), lichka-(shaxsiy sahifa), motivatsiya-(ruhlantirish), reglament-(mosqoida) va boshqalar. Albatta, izlasa imkon topiladi, vaholanki, adibimiz Abdulla Qahhor aytganidek: “Juda boy, chiroyli tilimiz bor. Bu tilda ifoda etib bo‘lmaydigan fikr, tuyg‘u yo‘q!”

Shu o‘rinda yana bir mulohaza, bugungi kunda og‘zaki va yozma shakli, qolaversa, grammatikasi ma’lum ma’noda shakllangan ona tilimiz AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Rossiya, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Qozog‘iston va shu kabi bir qator rivojlangan davlatlarning 60 ga yaqin oliy ta’lim muassasalarida,100 dan ortiq maktablarida qiziqish bilan o‘rganilayotgan bir paytda, biz yurtimizda ko‘plab nomlashlarni ingliz yoki rus tillarida nomlab, farzandlarimizni yoppasiga rus maktablariga berishimizni jiddiy o‘ylash vaqti kelmadimikan? Shularsiz ham bizda xohlagan chet tillarni o‘rganish uchun sharoitlar muhayyo-ku?

Zero, prezidentimiz ta’kidlanganlaridek: “Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma’naviy boylik, buyuk qadriyatdir”. Ajdodlarimizdan meros bo‘lib kelayotgan ana shunday bebaho ona tilimizni har birimiz asrab-avaylashga harakat qilaylik.

TIL – INSON XAZINASINING NODIR MEROSI

Abduvaxobova Dildora,
katta o‘qituvchi,
Jizzax politexnika instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilining sofligi, jamiyat hayotidagi o‘rni va jahondagi nufuzi haqida, uning rivoji uchun yurtimizda sezilarli darajada amal oshirilayotgan ishlarning samarasi xususidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: til, kamolot, millat, jamiyat, adabiyot, madaniyat.

Har bir inson qalbida vatan muhabbati pinhona yashaydi. Mana shu mehr-muhabbatni nutqida ifodalash uchun esa unga o‘z milliyligini aks ettira olgan ona tiliga ehtiyoj seziladi.

O‘zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi, “Davlat tili haqida”gi qonunning qabul qilinishi, 21-oktabrni “Til bayrami” sifatida nishonlashning belgilanishi, “O‘zbek tilining Davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonning qabul qilinishi, Davlat tili markazlarining tashkil etilishi [1] yurtimizda tilga, davlat tiliga bo‘lgan e’tiborning yuksak darajada ekanligidan dalolat beradi. Tilimizning

sofligi, uning rivoji, jamiyat hayotidagi o‘rni va jahondagi nufuzini oshirish uchun yurtimizda sezilarli ishlar amal oshirilmoqda.

Til – inson kamolotining ko‘zgusi, til millat ruhi, shu tariqa tilga bir qancha tashbehlarni keltirishimiz mumkin. Til benihoya muqaddas va mo‘tabar ne’mat, u inson degan mavjudotni shakllantirgan, taraqqiyot bosqichlariga olib chiqqan, ruhiy komillikka boshlagan, ijtimoiy munosabatlarga yo‘l ko‘rsatgan, tafakkur qulflarini yechgan, ilm yo‘lida mayoq, zulmatlarda chiroq bo‘lgan sehrli bir jilodir. Shuning uchun ham tilga hurmatsizlik, insoniyatning o‘ziga bo‘lgan behurmatligidir. Bejiz emaski, xalqimiz tilga, xususan, o‘zining ona tiliga muntazam muhabbat bilan e’tiborda bo‘lgan, uni e’zozlab ardoqlagan, o‘zbek tilining mukammalligi va betakrorligidan faxr-u iftixor qilgan.

Bugun o‘zbek tili dunyo tillari qatori jahonda o‘z o‘rni, obro‘ va maqomiga ega. Shu bilan birga bugun ona tilimiz imkoniyatlarini qay darajada namoyon eta olyapmiz, degan haqli savol ham borki, u har birimizni o‘ylantirishi, mushohadaga tortishi, shu jumla qalbimizda isyon qilib turishi darkor. Biz kelajak avlodni tilimiz boyliklari bilan ta’minlashimiz, til xazinamizning nodir merosini saqlab turgan asarlarimizni ularga kengroq o‘rgatishni insoniylik va pedagoglik burchimiz deb bilishimiz lozim.

O‘zbek tili boyligini yaxlit holda tasavvur etish uchun eski o‘zbek adabiy tilining asoschisi, Maqsud Shayxzoda ta’biri bilan aytganda, so‘z mulkining sultoni Mir Alisher Navoiy asarlari dunyosiga bir nazar tashlashning o‘zi kifoya [3-152] Bu olamda butkul koinot aks etadi, bu bepoyon tafakkur va tuyg‘ular olami adabiyot va ilm ummoniga boshlab boradi. Alisher Navoiy ijodiga nazar tashlasak, ona tili ravnaqi uchun ulkan ishlarni amalga oshirganini guvohi bo‘lamiz. Alisher Navoiy o‘zbek tilini xazina deb baholaydi. Bu xazinani esa “ilon” va “tikanlar” o‘rab turganini ta’kidlaydi.

Navoiy “Muhokamat-ul lug‘atayn” kabi lingvistik ahamiyatdagi asari bilan bemisl xazina − tilimiz qadr-qimmatini oshirdi, sharq mumtoz adabiyotining hamma janr va turlarida betakror asarlar yaratdi. Bu tilda birinchi “Xamsa”ni, birinchi “Majolis un-nafoisni” yozdi. Mavjud adabiy an’analarga yangiliklar kiritdi. Xalq madaniyati, ma’rifati va ma’naviyatining yuksalishida tilning muhim vosita ekanligini, til bashariyat naslini o‘tmish va zamon bilan bog‘lovchi timsol ekani shoir va arbob Navoiyning hamisha diqqat markazida bo‘ldi.

Alisher Navoiy butun faoliyati va ijodiyotini insonning baxt saodati uchun kurashga, halqning osoyishtaligiga, obodonchilik ishlariga, ilm-fan, adabiyot va san’at taraqqiyotiga bahshida etdi. U juda ko‘p o‘qishi, o‘qiganda ham uqib o‘qishi tufayli ulug‘ donishmand, davlat arbobi, o‘zbek adabiy tiliga asos solgan va o‘zbek mumtoz adabiyotini yangi taraqqiyot pog‘onasiga ko‘targan buyuk so‘z san’atkori, iste’dodli olim bo‘lib yetishdi, juda qimmatli asarlar yaratdi, davrining madaniy hayotiga rahbar, ilm-fan, san’at va adabiyot oqimlariga homiy, ko‘plab shogirdlar yetishtirgan ustoz bo‘ldi.

Alisher Navoiy juda katta va boy lirik va epik Xazina yaratib qoldirdi. Ushbu lirik xazinaning asosini o‘z ichiga 4 devonni qamrab olgan “Xazoyinul-maoniy”, fors-tojik tilidagi katta asari “Devoni Foniy”, “Nazmul Javohir”, “Munshaot”, “Vaqfiya”, “Xamsatul mutaxayyirin”, “Holoti Pahlavon Mahmud”, “Holoti Said Hasan Ardasher”, “Muhokamatul-lug‘atayin” va “Mezon-ul avzon” kabi asarlar tashkil etgan bo‘lsa, epik asarlarning asosini “Xamsa”, “Lison-ut tayr” asarlari tashkil etdi.

Navoiy o‘z asarlarida u xoh lirik, bo‘lsin, xoh epik bo‘lsin hayot va insonni tarannum etdi. U hayotni e’tirof qiladi, uni sevadi, insonni sharaflaydi va ulug‘laydi. Zero, olamning olam bo‘lib yaratilishi ham asosan hayot guli bo‘lgan inson uchundir.

Navoiyning fikricha, inson hayotining mohiyati uning qisqa va uzunligi bilan emas, balki mazmuni bilan belgilanadi. Hayotdan murod faqat aysh-ishrat emas, hayotning mezoni insonning faoliyati, xatti-harakati, sifati va fazilatidir. Inson hayotini o‘zi uchun ham, butun jamiyat uchun ham foydali bo‘lgan xizmatga bag‘ishlashi, kasb-hunar o‘rganishi, ma’rifatli bo‘lishi, yaxshi fazilatlarni egallashi kerak.

A.Navoiyning komil inson to‘g‘risidagi ta’limotida ilgari surilgan oriflik, oqillik, saxiylik, iffatlilik, shijoatlilik, poklik, mehr-shavqat, insofu-diyonat singari qarashlarni har bir ma’rifatli inson komillikni o‘ziga shior qilib olishini zarur deb biladi.

Yuqorida Navoiy ijodidan keltirilgan qisqagina misollar mazmunidan ko‘rinib turibdiki, Navoiydek ulkan ijodkorning asarlaridan bahramand bo‘lgan har qanday kitobxon o‘z hayot mazmunini istagancha boyitish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Sharq xalqlarining serqirra va boy ma’naviy merosida inson kamoloti, uning mezonlari to‘g‘risidagi qarash, ta’limotlar bugungi kun barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Badiiy adabiyot bilan doimiy muloqotda bo‘lgan odam bunday voqealardan tegishli xulosa chiqaradi. Adabiyotning qudrati ham shunda. U faqatgina vijdonimizga ta’sir ko‘rsatib qolmasdan, ongimiz, madaniyatimiz, his-tuyg‘ularimizga ham o‘z ta’sirini o‘tkazib, bizga ibratli saboqlar beradigan hayot darsligidir.

Mumtoz adabiyotimiz vakillarining xalq dostonlari – “Alpomish”, “Kuntug‘mish”, “Rustamxon”, “Go‘ro‘g‘li” turkumdagi asarlarining ta’rifga sig‘mas boy tili, shuningdek Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Oybek, G‘afur G‘ulom, ularning izdoshlari Hamid Olimjon, Zulfiya, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf, Shavkat Rahmon va boshqa ijodkorlar yaratgan go‘zalliklar ham, “Boburnoma”day asardagi tafakkur saltanati ham o‘zbek tili buyukligini, yuksakligini namoyon etadigan bebaho, o‘lmas adabiy boylikdir. Nutqning go‘zalligi, tilning burroligi, ifodaning aniqligi inson uchun o‘ziga xos husndir, bu husn esa oxir-oqibatda jamiyatning millatning yuzini ko‘rsatadi.

Yozuvchi Ulug‘bek Hamdam ham: “Til – millatning ma’naviy pasporti”, – deya ta’rif bergan edi . Haqiqatan ham, tilda millat ruhi yashaydi, millat hayotida yuz berayotgan o‘zgarishlar tilda xuddi ko‘zgudek aks etib turadi.

I.G‘ofurov shunday degan edi: “Til millatning birinchi haqqidir. Shu haq o‘ksitilgan bo‘lsa, demak, millat o‘zini o‘zi o‘ksitib kelgandir”. Shuning uchun ham milliy til har qanday davlatning ramzlaridan biri hisoblanib, tilning takomili, rivoji davlat himoyasida bo‘ladi. Har bir davlat o‘z rasmiy tilining sofligi va boyib borishini ta’minlaydi va uning iste’mol doirasi kengayib borishi uchun turli davlat dasturlarini ishlab chiqadi, o‘rganish uchun esa qulay shart- sharoitlar yaratib beradi. Biz ham ona tilimiz mavqeining oshishi, milliy yuksalishi, ravnaq topishi va yanada takomillashuvi uchun o‘z hissamizni qo‘shishimiz lozim.

Bugun yurtimizda “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan ustuvor g‘oya ilgari surilmoqda. Barcha sohalar bilan birga davlat tilining jamiyatdagi o‘rni va nufuzini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish, davlat tilini milliy qadriyat sifatida targ‘ib qilish, unga nisbatan

milliy g‘urur hissini tarbiyalash, tilimizning xalqaro mavqeini mustahkamlash, yana muhimi, davlat tiliga oid muammolarni hal etishda ijodiy yondashuvni rivojlantirishda bizning fakultetda ham bir qancha ishlar amalda yo‘lga qo‘yildi. O‘zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub eng yirik tillardan biri hisoblanadi. [2-58] Til – millatning ma’naviy boyligidir. Til nafaqat muomala vositasi – balki xalqning madaniyati, urf-odati, uning turmush tarzi, tarixidir.Tilni asrash, rivojlantirish – millatning yuksalishi demak.

Shu jihatdan bugun yurtimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarning madaniyati va urf-odatlarini, xususan, ularning ona tillarini rivojlantirish uchun ham zarur sharoitlar yaratilmoqda. Turli hududlarda tashkil etilgan 140 ga yaqin milliy madaniyat markazlari ana shu maqsadlarga xizmat qilmoqda. Ko‘plab ta’lim-tarbiya maskanlari, ommaviy axborot vositalari o‘zbek tili bilan birga, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg‘iz, tojik, turkman tillarida faoliyat ko‘rsatmoqda. Xorijiy tillarga ixtisoslashgan hamda ta’lim chet tillarda olib boriladigan ta’lim muassasalari soni oshib borayotir.

Aytish mumkinki, har qaysi xalq yoki millatning ma’naviyatini uning tarixi, o‘ziga xos urf-odat va an’analari, tili, madaniyati va qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Xalqning Vatani, davlati kabi yana bir buyuk, ehtimolki, birlamchi boyligi bor. Bu – uning tili. Aynan til odamlar guruhini bir millat sifatida biriktiradi, ya’ni xalqni – xalq, millatni – millat qiladi.

Buyuk mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek, «Ko‘ngil qulfi maxraning qulfi til va gulfin kalitin so‘z bil». Ya’ni, inson qalbining xazinasi til, bu qalb xazinasining kaliti so‘zdir. O‘zbek tilining so‘zlari shu qadar ma’noli, boyki, bitta ma’noga ega bo‘lgan tushunchani, bir necha so‘zlar orqali ifodalash mumkin. [2-116] Masalan, birgina ko‘z so‘zining bir necha ma’nolari bor. Bilamizki bir tushunchaga tegishli so‘z, bir necha so‘zlar bilan ifodalansa, ya’ni sinonim so‘zlari qanchalik ko‘p bo‘lsa, ayni shu til boy til hisoblanadi.

Olimlar insoniyat tarixida 9000 mingdan ortiq til yo‘q bo‘lib ketganini aytishadi. Nafaqat bosib olingan xududlardagi xalqlarning tillari, balki fotihlarning tillari xam yo‘qolib ketgani tarixdan ma’lum. Bu borada qadimgi yunon, oromiy, lotin, sanskrit, vediy, assuriy, qadimgi fors tillarini misol sifatida keltirish mumkin. YUNESKO mutaxassislari o‘lib va yo‘qolib borayotgan tillarni qutqarib qolish mumkinligini aytishadi. Misol tariqasida o‘tgan asrning 80 yillarida atigi 8 kishi so‘zlashgan Yaponiyaning Xokkaydo orolidagi ayn tilini keltirish mumkin. Bugungi kunda tiklangan bu tilda bir necha ming kishi gaplashmoqda. Ikki ming yil davomida o‘lik til xisoblanib kelingan ivrit tili xam qayta iste’molga kiritildi. Bugungi kunda ivrit tilida 9 million kishi suxbatlashadi.

Qachonki insonlar o‘z ona tillarida o‘qishni to‘xtatar ekan, o‘sha til yo‘qolib ketish arafasiga kelib qoladi. Tillarni saqlab qolish bu o‘sha xalqning madaniyati, urf-odati, rasm-rusumlarining saqlanib qolinishini anglatadi. Chunki, xalq taqdiri til taqdiri bilan bevosita bog‘liq. Til har bir millat madaniyatining o‘zagidir. Shu sababli ham tilning saqlanishi xalq taraqqiyoti va kelajagini belgilaydi. Til xalqni birlashtiradi, tarbiyalaydi, o‘qitadi, urf-odat, ananalarini saqlaydi. Shunday ekan, ona tilimizning xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini yuksaltirishda, uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida taraqqiy etgan tillar safiga qo‘shishda har birimiz tilimizga chuqur hurmat bilan yondashimiz kerak

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, inson uchun uning vatani, ota-onasi, oilasi qanchalik qadrli bo‘lsa, uning ona tili ham shu qadar aziz va muqaddas bo‘ladi. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “Bugungi kunda biz yangi O‘zbekistonni, yangi Renessans poydevorini barpo etishdek ezgu maqsadlarimizga erishishda, hech shubhasiz, ona tilimizning hayotbaxsh qudratiga tayanamiz”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир // Халқ сўзи, 2017 йил 4 август.

2. Буранов Ж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. - М.: Высшая школа, 1983.

3. Бўронов Ж. Инглиз ва ўзбек тиллари қиёсий грамматикаси. - Т.: Ўқитувчи, 1973.

4. Абдувахобова Д., Эргашев У. Формирование умений и навыков в учебной работе. Молодой учёный, 2014. –С.762-769.

NUTQ – MANTIQIY FIKRLASH MAHSULI

Tuyeva Zulfiya,
Buxoro davlat universiteti,
o‘zbek tilshunosligi kafedrasi
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Inson tafakkurining asosiy birligi fikr, u odatda, faqat til yordamida moddiylashadi. Jamiyatda fikr almashish ijtimoiy jihatdan qonuniy ehtiyoj, hayotiy zarurat bo‘lib, bu ehtiyoj qondirilmasa, zarurat bajarilmasa, jamiyat taraqqiyoti haqida gapirish mumkin ham emas. Shuning uchun ham har bir kishi tildan foydalanishni bilishi, buning uchun esa grammatik jihatdan tilning o‘zidan xabardor bo‘lmog‘i lozim. Tilni o‘rganish bu faqat uning grammatik qurilishini bilish, tushuncha, ta’rif va qoidalarni o‘zlashtirib olish bilan chegaralanish degani emas, balki o‘sha tushuncha, ta’rif va qoidalarni amaliy jihatdan qo‘llay olish, ona tilining boy imkoniyatlaridan unumli foydalanib, fikrni og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash malakalarini egallashdan iboratdir.

Kalit so‘zlar: maktabda ona tili ta’limi, ijodiy tafakkur, shaxs tarbiyasi, nutq, o‘quvchi nutqiga qo‘yiladigan talablar

Maktab ta’limida bosh maqsadimiz “o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish” [1] ekan, buning asosiy vositalaridan bo‘lgan ona tili ta’limi masalasiga an’anadagidan farqli ravishda butunlay boshqacha ko‘z bilan qarashimiz lozim.

Ona tili ta’limining bosh *“ona tili mashg‘ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki, yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish”* maqsadida asosiy

e’tibor o‘quvchining tafakkuriga «*ijodiylik, mustaqil fikrlash*» urug‘ini sepa olish va “*ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki, yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash*”ni uddalay olishga o‘rgatish masalasi qo‘yilar ekan, demak, uch jihatga asosiy diqqatni qaratishimiz lozim:

1) o‘quvchini ijodiylik, mustaqil fikrlashga o‘rgatish;

2) o‘quvchini to‘g‘ri, ravon, asosli, mantiqli so‘zlay olishga o‘rgatish;

3) o‘quvchini to‘g‘ri, ravon, asosli, mantiqli yoza olishga o‘rgatish [5].

Inson butun umri davomida o‘z nutqini takomillashtirib boradi. Bu jarayon, ayniqsa, bolalik davrida samarali tus oladi. Kichik bolalik davridan boshlab u aloqa-aralashuvga ehtiyoj sezadi, o‘zgalarning fikrini tinglash va o‘z fikrini bayon qilishga tobora ko‘proq zarurat seza boshlaydi.

Yuqorida sanalgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib mulohaza yuritayotgan mavzumiz mohiyati bilan bog‘liq tarzda quyida maktabda o‘quvchi nutqiga qo‘yiladigan asosiy talablar xususida to‘xtalamiz.

*O‘quvchi nutqining nutqiy muloqot sharoitiga mosligi***.** Nutqiy muloqot sharoiti deganda suhbatga kirishish paytida so‘zlovchi va tinglovchining yoshi, saviyasi, dunyoqarashi, ijtimoiy, ruhiy, moddiy, ma’naviy, ma’rifiy holati, yashash o‘rni, muloqot mavzui kabilar nazarda tutiladi. (Nutqiy muloqot sharoiti behad ko‘p tarkibli, serqirra bo‘lib, so‘zlovchi va tinglovchini suhbat paytida qurshab turgan barcha narsa, buyum, holatlardan tortib, ularning bilim saviyasi, kasb-kori, so‘zlovchining muddaosi va imkoniyatlarigacha bo‘lgan barcha-barcha jihatlarni o‘z ichiga oladi.)

Muloqot nutqining og‘zaki/yozma shakllari muayyan nutqiy muloqot sharoitlariga yarasha xilma-xil xususiyatlarni namoyon eta oladi. Chunonchi, so‘zlovchining o‘z nutqini tinglovchilar saviyasi, yoshi, mavqei, xarakter-xususiyatini hisobga olgan holda bayon qilishi shular jumlasidandir. Buning uchun o‘quvchilar bilan ayni bir fikrni (axborotni, tilak-istakni va h. k.) o‘zidan kichiklarga, tengqurlariga, o‘zidan kattalarga, yaqinlariga, yaqindan tanish bo‘lmagan shaxslarga qanday yetkaza olishi ustida muntazam ish olib borishga to‘g‘ri keladi. Bolalarni maktub, xabar, esse, qisqa axborot va sh .k.larni yozishga o‘rgatish, ayni bir fikrni turli nutqiy muloqot sharoitlariga turli xilda bayon etish ko‘nikmalarini shakllantirishga samarali ta’sir ko‘rsatadi [2; 3]. Mazkur fikrni quyidagi misollar orqali dalillashga harakat qilamiz:

Hikoyat. *Bir kecha Xorun ar-Rashid tush ko‘radi, tushida uning barcha tishlari to‘kilib ketganmish. Xalifa ertasiga tushining ta’birini bilish uchun ta’birchilarni chaqiribdi. Kelgan ta’birchilardan birisi shunday deydi: “Ey amiralmo‘minin, sening ko‘z oldingda barcha qarindosh-urug‘laring o‘ladi. Sendan boshqa hech kim qolmaydi”. Bu so‘zni eshitgan Xorun ar-Rashid: “Menga bunday noxush ta’bir aytishga qanday jur’at etding”, deb uni jazoga tortadi. Ta’bir qilishga kelgan ikkinchi kishi esa shunday debdi: “Ey amiralmo‘minin, sening baxting kulibdi. Sen barcha qarindoshlaringdan ko‘ra ko‘proq umrguzaronlik qilasan”. Shunda Xorun ar-Rashid: “Barcha aqlning yo‘li birdir va ikkovining ta’biri bir erga borib taqaladi, ammo bu ibora bilan u iboraning orasida farq bag‘oyat ko‘pdir”, – deydi va ikkinchi ta’birchini mukofotlaydi.* (Kaykovus “Qobusnoma”)

Insonning go‘zalligi, avvalo, uning muomalasida, shirinsuxanligida, so‘zni qopib emas, topib gapirishidadir. Xalq bejizga aytmagan: “O‘ynab gapirsang ham, o‘ylab

gapir”.

Maktab ona tili mashg‘ulotlari o‘quvchilarni o‘zaro munosabatlarda samimiy, shirinsuxan, har qanday holat bo‘lganda ham yaxshi gap va odob bilan ish yuritishga harakat qiladigan bo‘lishga o‘rgatmog‘i zarur.

O‘quvchi nutqining mazmundorligi. Unutmaslik kerakki, istalgan nutq mazmundor bo‘lgandagina nutqiy muloqot sharoitiga mos tushadi. O‘quvchi faqat bilgan narsalarini, o‘zi xabardor bo‘lgan voqea-hodisalarni og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri bayon qilishi mumkin. Aniq dalillar, kuzatish yoki taassurotlar, his-tuyg‘ular asosida yuritilgan fikrgina o‘zgalar diqqatini o‘ziga tortadi. Shu o‘rinda xalqimizning: “Yolg‘onga o‘xshagan haqiqatdan ham yiroq bo‘l” degan o‘gitiga rioya etish ham muhim. Ya’ni, so‘zlovchi garchi o‘zi to‘g‘ri deb hisoblasa-da, uning haqiqati hech kimni ishontira olmasa, yaxshisi nutqda undan foydalanmaslik zarur.

“Rostgo‘ylikdan xavfu xatar ko‘rsanglar ham rost so‘zlanglar. Shunda najot topasizlar. Garchi foyda ko‘rib turgan bo‘lsangiz ham, yolg‘ondan saqlaninglar. Chunki bari bir yolg‘onning oxiri voy”.

O‘quvchi nutqidagi fikrning mantiqan to‘g‘ri, aniq va izchil bo‘lishi ham juda muhim. Nutqda fikr mantiqan asoslangan bo‘lsa, uning ta’sir kuchi ortadi. Bu har bir o‘quvchidan narsa, voqea-hodisaga sinchkovlik bilan qarash, ularning har biriga to‘g‘ri baho bera bilish, shu yo‘l bilan nutqni muntazam va izchil qurish, uni isbotlash, bir fikrni ikkinchisi bilan mantiqan to‘g‘ri bog‘lay olish, mavzuga aloqador bo‘lgan asosiy fikrlarni ikkinchi darajali fikrlardan farqlay bilish, qaytariq fikrlarga yo‘l qo‘ymaslikni talab etadi.

Nutq – mantiqiy fikrlash mahsuli. U izlash, topish, taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish, qo‘llay olish kabi aqliy faoliyat usullari bilan chambarchas bog‘langan. Bularning barchasi Abdurauf Fitrat “Rahbari najot” asarida ta’kidlaganidek: “Suv qaysi rangdagi idishda bo‘lsa, o‘sha rangda tovlangani kabi bolalar ham qanday muhitda bo‘lsalar, o‘sha muhitning har qanday odat va axloqini qabul qiladilar. Axloqiy tarbiyaning eng buyuk sharti shundan iboratki, bolalar ko‘proq yaxshi va yomon ahvolni o‘z uylaridan, ko‘chadagi o‘rtoqlaridan, maktabdagi o‘quvchilardan qabul qiladilar». Demak, o‘quvchi nutqidagi fikrning mantiqan to‘g‘ri, aniq va izchil bo‘lishi jamiyatda “maktab–oila–jamiyat” hamkorligiga ham bog‘liq.

Zero, Huvaydo ta’kidlaganidek: “Kishi bo‘lmasa ma’nidin xabardor, Ani odam dema, de naqshi devor”.

O‘quvchi nutqining boy va rang-barang bo‘lishi. Nutqning boy rang-barangligi fikrni bayon qilishda o‘zbek tilining leksik imkoniyatlari: ma’nodosh, uyadosh va qarama-qarshi ma’noli so‘zlardan, tasviriy ifoda va iboralardan, bo‘yoqli va bo‘yoqsiz so‘zlardan, shuningdek, nutqning badiiy qimmatini oshiruvchi vositalar: maqol va matallardan, ulug‘ shoir va yozuvchilarning aforizmga aylanib qetgan jumlalaridan, badiiy asarlardan olingan parchalar va yorqin adabiy timsollardan, nozik qochirimlar va iboralardan, o‘xshatish, sifatlash, jonlantirish, istiora, mubolag‘a kabi badiiy til vositalaridan, ritorik so‘roqlardan foydalanishda namoyon bo‘ladi. Tilning bu tasviriy vositalari nutqqa go‘zallik, joziba va rang-baranglik baxsh etadi, nutqning tovlanishini, o‘zgalar e’tiborini tortishini ta’minlaydi.

Buning uchun o‘quvchilarda so‘z tanlashda zargarona didni tarbiyalab borish muhim.

O‘quvchi nutqining aniq bo‘lishi. Nutqning aniqligi bu faqat narsa, voqea-hodisa, jarayonni tasvirlash yoki bayon qilish emas, balki shu narsa, voqea-hodisa uchun xos bo‘lgan belgilarni aniqlash, ularning tasviriga mos tushadigan so‘z, so‘z birikmalari va gaplar tanlashdan ham iborat. Aniqlik nutqning boyligi va rang-barangligi bilan chambarchas bog‘langan. Ma’lum bir mazmunni turli shakllarda bera bilish, nutq sharoitiga mos tushadigan tasvir usulini tanlay olish nutqqa aniqlik kiritadi.

Masalan,

Kim deganiga boqma, nima deganiga boq. (Maqol)

Insonning kiyimiga qarama, bilimiga qara.(Az- Zamaxshariy)

Inson tanni emas, ruhni boyitmog‘i kerak. (Yusuf xos Hojib)

Tafakkur boyligi moddiy boylikdan ming karra ustun.

O‘quvchi og‘zaki nutqining ohangdorligi. Ohang o‘quvchi og‘zaki nutqining ta’sirchaligini oshirish vositalaridan biri. Shuning uchun she’riy asarlar, nasriy parchalarni ohangdorlikka amal qilgan holda o‘qiy olish malakasi ham o‘quvchi nutqiga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri sanaladi. U ohang yordamida nutqni sintagmalarga bo‘ladi, mantiqiy urg‘uni o‘rinli qo‘llaydi, ijodkorlar nutqida qo‘llanilgan so‘z o‘yinidagi nozik qochirimlarni anglaydi.

Istalgan suhbat jarayoni ohangning turlichaligi bilan xarakterlanadi. Ohang nafaqat so‘zlovchining xarakteri yoki ayni vaziyatdagi ruhiyatini ifodalab qolmay, u har bir xalq vakilining milliy o‘ziga xosligini ham aks ettiradi. Chunki har xil mentalitet a’zolari turlicha ohangdan foydalanadilar. Qanday diskursda bo‘lmasin ohang aloqa vositasi, his-tuyg‘u ifodachisi yoki nutqni shakllantiruvchi bo‘lak sifatida namoyon bo‘ladi. So‘zlovchi nutqi ohangini to‘g‘ri tahlil qila olish nutq maqsadini to‘g‘ri tushunishning kaliti hisoblanadi [6].

Ifodali o‘qish malakalari faqat adabiyot darsliklarining emas, balki ona tili mashg‘ulotlarining ham tarkibiy qismiga aylanmog‘i foydadan xoli emas.

O‘quvchi nutqining grammatik jihatdan to‘g‘ri qurilgan bo‘lishi. Avvalo, o‘quvchi o‘z nutqida foydalanishi uchun tuzayotgan matniga mos so‘z, so‘z birikmasi va gaplarni tanlay olishi zarur. Shundan keyin har bir grammatik birlikning paradigmatik qatorlaridan zarurlarini zargarona foydalana olishi, ya’ni so‘z birikmasi yoki gap tarkibidagi so‘zlarni bir-biriga bog‘lashda ismlarga morfologik shakllar − kelishik, egalik qo‘shimchalaridan, fe’llarga nisbat, bo‘lishsizlik, sifatlarga daraja, otlarga erkalash-kichraytirish, ko‘plik qo‘shimchalaridan, kesim vazifasida kelayotgan so‘zga esa nutq sharoitiga mos ravishda mayl, zamon, shaxs-son qo‘shimchalaridan zarurlarini o‘rinli qo‘llay olish; gap bo‘laklari: kesim, ega, to‘ldiruvchi, aniqlovchi va holni moslashtira bilish kabi malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi shart. Shu o‘rinda tilshunos olim Peshkovskiyning: “Grammatikani bilgan kishi tilni boshqaradi, grammatikani bilmagan kishini til boshqaradi”, degan gapini eslash kifoyadir.

O‘quvchi nutqining soddaligi va sofligi. Aslida, nutqning soddaligi uning aniqligidan dalolat beradi. Sodda nutq, eng avvalo, tushunarli bo‘ladi. Nutqning tushunarli bo‘lishi, bir tomondan, fikrni lo‘nda, aniq bayon qilish, tushunarli bo‘lmagan g‘aliz jumlalardan saqlanishda namoyon bo‘lsa, ikkinchi tomondan, tinglovchining

tayyorgarlik darajasiga ham bog‘liqdir. Demak, o‘quvchi fikrni ham sodda, ravon bayon qilish, ham o‘zgalar fikrining mohiyatini anglab, uni tushunish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim.

Masalan, shoir Muhammad Yusufning she’rlarini ko‘pchilik yod biladi. Nima uchun? Sababi, shoir insonga xos bo‘lgan istalgan his-tuyg‘uni sodda falsafada bera olgan. Aytaylik, vatanni sevish tuyg‘usini shoir shunday ifodalaydi: “*Parijning eng go‘zal restoranlarin bitta tandiringga alishmasman men…*” yoki “*Men dunyoni nima qildim? O‘zing yorug‘ jahonim…*”

Nutqning sofligi deganda o‘quvchilar nutqining har xil qaytariqlar, ortiqcha jumlalar, o‘zbek adabiy tiliga xos bo‘lmagan so‘zlar (varvarlar), disfemistik xarakterdagi birliklardan xoli bo‘lishini nazarda tutadi. Ularni fikrni sof adabiy tilda, uning boy imkoniyatlaridan foydalanib bayon qilishga odatlantirish ona tili mashg‘ulotlarining asosiy vazifasi hisoblanadi [3;4].

Biz yuqorida o‘quvchi nutqiga qo‘yiladigan asosiy talablarni qisman sanab o‘tdik. Bu talablar o‘zaro chambarchas bog‘langan bo‘lib, o‘quvchi to‘g‘ri nutqqa yuqorida sanalganlarning barchasiga amal qilish orqali erishadi. Shuning uchun o‘qituvchi ona tili mashg‘ulotlarida nutqning faqat bir tomoniga e’tiborni kuchaytirib, ikkinchi talabni unutishi yoki bir talabni quyi sinfda, ikkinchisini keyingi sinfga qoldirishi mumkin emas. Bu talablarga doimiy amal qilinsagina nutq o‘stirish samarali kechadi.

Maktabda o‘quvchilar nutqini rivojlantirishda murakkab jarayon bo‘lib, uni amalga oshirishda qo‘yidagilarga e’tibor qaratish muhimdir:

1. O‘quvchilarni ularga lug‘aviy ma’nosi notanish bo‘lgan so‘z va iboralar bilan muntazam tanishtirib borish.
2. O‘quvchilarni so‘zning yangi ma’nolari bilan tanishtirish.
3. O‘quvchi nutqidagi kam iste’mol so‘zlarni keng iste’molli so‘zlarga aylantirish.
4. O‘quvchi nutqidagi adabiy tilga zid so‘zlarni bartaraf etish.
5. O‘quvchilarda lug‘atlardan foydalanish malakalarini shakllantirish va h.

O‘quv topshiriqlari o‘qituvchi tomonidan shunday belgilanishi shartki, ularning har birini o‘quvchi o‘rgansin. (*Ta’lim jarayonida o‘rgatish emas, o‘quvchiga mustaqil o‘rganish uchun sharoit yaratish lozim!*)

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, endigina maktabga qadam qo‘ygan bolaning besh omil asosida og‘zaki nutqi rivojlanadi (keyinchalik bu, albatta, yozma nutqiga ham ta’sir ko‘rsatadi):

1. Oiladagi kundalik muloqot (oila a’zolarining o‘zaro muloqoti, bola bilan bevosita muloqoti).
2. Maktabdagi muloqot (o‘qituvchi~o‘quvchining dars jarayoni va darsdan tashqaridagi muloqoti, o‘quvchilarning o‘zaro muloqoti va b.).
3. Ko‘chadagi muloqot (yoshi kattalar bilan muloqot, tengdoshlar va o‘zidan kichiklar bilan muloqot).
4. Ijtimoiy muhit.
5. Ta’lim-tarbiya jarayoni (uyda, maktabda) va mustaqil mutolaa, televidenie, radio, internet va b.

Yozma nutqni shakllantirish va rivojlantirish esa, asosan, bola maktabga qadam qo‘ygandan keyingi jarayon hisoblanadi.

Demak, ona tili mashg‘ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki, yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, til sezgirligini tarbiyalashga xizmat qilmog‘i lozim. Bu ona tili ta’limiga qo‘yilgan ijtimoiy buyurtma talabidan kelib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни, 2020-йил 23 сентябрь https://www.lex.uz/acts/16188.

2. Муҳиддинов А. Ўқув жараёнида нутқ фаолияти. – Т., 1995.

3. Yuldasheva D.N. Problems of national language education at school. Volume 4 Issue 3 BSU 2020 (3) Published by 2030 Uzbekistan Research Online, 2020 https://uzjournals.edu.uz/buxdu/vol4/iss3/15/

4. Tuyeva Zulfiya Nozimovna, Yuldasheva Dilorom Nigmatovna. Statement and about its types. International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA issue 01, volume 93 published January 30, 2021. – Pag.72-77. https://elibrary.ru/item.asp?id=44644256

5. Юлдашева Д. Н. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури талаблари асосида таълим мақсадини белгилашнинг дидактик асослари: НДА.–Тошкент, 2007.– 24 б.

6. Chulliyeva G.T. Ohang situativ pragmatik tizim birligi sifatida//”Сўз санъати” халқаро журнали. 2021, 1-сон, 4-жилд. –B.127-134.

7. Кайковус «Қобуснома» https://kitobxon.com/uz/kitob/Qobusnoma

DAVLAT TILIGA E’TIBOR – ONA VATANGA BO‘LGAN HURMAT NAMUNASI

Islomova Sojida,
Uchquduq tuman hokimining
ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish,
davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya
etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchi

Annotatsiya. Davlat tilini o‘rganishdagi yuzaga kelgan ayrim muammolar va ularning yechimi xususida fikr yuritish. Ona tiliga hurmat va uning bebaho so‘z xazinasidan o‘rinli foydalanish, til vositasida ravshan va ta’sirchan so‘zlab yoza olish, nutqiy savodxonlikka erishish kabi masalalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: milliylik, atamashunoslik, noqulay, reklama vositalari, nutqiy savodxonlik, so‘z, yozuv.

Keyingi paytlarda hukumatimiz tomonidan davlat tiliga bo‘lgan e’tibor ancha kuchaygani hammamizga yaxshi ma’lum. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli Farmoni, mazkur farmonga asosan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Davlat tilini rivojlantirish departamentining tashkil etilishi hamda 2020-yil 20-yanvardagi “Mamlakatda davlat

tilida ish yuritishni samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 34-sonli qarori shular jumlasidandir.

Bu kabi hujjatalardan maqsad o‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini tubdan oshirish, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug‘ ajdodlarimizning boy merosiga hurmat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini keng miqyosda, to‘liq joriy etishni ta’minlash hisoblanadi. Bugungi kunda bu borada davlat organlari va tashkilotlarda, shu jumladan, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida davlat tilini rivojlantirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga to‘liq o‘tishni jadallashtirish yuzasidan muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Afsuski, hozirda – ayni mamlakatimiz gullab-yashnab rivojlanayotgan bir davrda, milliyligimiz va qadriyatlarimizni biroz unutib qo‘ymoqdamiz. Oddiygina bozorlarimiz yoki maishiy savdo do‘konlari, umumiy ovqatlanish majmualaridagi yozuvlarga e’tibor bersangiz, ularning ko‘pchiligida boshqa tillarda berilgan bo‘lib, milliyligimizga nomunosib usullarda yozilgan yozuvlarga yoki reklama vositalariga ko‘zingiz tushadi. Ba’zan katta-katta korxonalar yoki savdo majmualariga savodsizlarcha, xato yozilgan yozuvlarni ko‘rasiz.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi, 2022-yil 7-iyundagi O‘RQ-776-son “Reklama to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-fevraldagi “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to‘liq o‘tishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 61-sonli qarorlari hamda boshqa bir qator huquqiy-normativ hujjatlar talablariga ko‘ra respublika hududidagi korxona, tashkilot, muassasa hamda tadbirkorlarga tegishli obyektlarda o‘rnatilgan peshlavha, reklama va boshqa e’lon, axborot matnlari davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga mos bo‘lishi lozimligi qayd etilgan.

Til millat ruhining ko‘zgusidir. Tilda millatning bor-yo‘g‘i, o‘y-fikri, dunyoqarashi, orzu-umidlari, Vatani, his-tuyg‘ulari aks etadi. Tildagi har bir so‘z, uning har bir shakli inson tafakkuri va tuyg‘usining natijasi bo‘lib, uning yordamida bu tafakkur va tuyg‘ular orqali Vatan va xalq tarixi ifodalanadi.

Ona tiliga hurmat va uning bebaho so‘z xazinasidan o‘rinli foydalanish, til vositasida ravshan va ta’sirchan so‘zlab yoza olish, nutqiy savodxonlikka erishish shu til vakili bo‘lgan har bir shaxsning burchidir.

Zero, muhtaram Yurtboshimiz Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e’tiborni mustaqillikka bo‘lgan e’tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozim!”, - deb ta’kidlaganlar. Bu vazifani a’lo darajada bajarishimiz uchun barcha mas’uldir.

Ma’lumki, 2021-yilning 10-fevralida Vazirlar Mahkamasining “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to‘liq o‘tishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va “yo‘l xaritasi” tasdiqlandi. Lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosiga to‘liq o‘tish masalasi nisbatan cho‘zilgani lotin alifbosiga bosqichma-bosqich o‘tish jarayoni hisobga olingani sababli ekanini tushunish mumkin. Mazkur hujjatga asosan, 2023-yildan to‘liq lotin yozuviga o‘tilishi ko‘zda tutilgan.

Bu jarayonda joriy alifbo va imloni takomillashtirish masalasi birinchi o‘ringa chiqadi. Zero, alifboni tartibga solmay turib, imloni takomillashtirish mantiqqa zid. Shu o‘rinda lotin alifbosi bilan bog‘liq jarayonlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, xalqimizning ona tilimizni rivojlantirish kabi asriy ezgu niyatini amalga oshirish, dunyodagi boshqa xalqlar, millatlardan orqada qolmasligi va ular bilan taraqqiyot sari baqamti odimlashini ta’minlash maqsadida 1993-yilning 2-sentabr kuni O‘zbekiston Respublikasining “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilingan edi. Biroq til amaliyotidan kelib chiqqan holda 1995-yil 6-mayda mazkur alifboga ayrim tuzatishlar kiritildi. 1995-yil 24-avgustda mazkur alifboga asoslangan “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari” tasdiqlandi. 1996-yildan boshlab barcha ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayoni lotin alifbosida olib borildi. O‘qitish jarayoni uchun barcha darslik va qo‘llanmalar, ko‘rgazmali vositalar lotincha imloda nashr qilindi, ko‘plab badiiy adabiyotlar lotin yozuvida chop etildi.

“Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonunni bajarish muddati ikki marta o‘zgardi. Birinchi o‘zgarishda 2005-yil deb belgilangan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 30-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, yangi alifboga o‘tish muddati 2010-yilgacha uzaytirildi. Shunday qilib, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi 2010-yildan boshlab respublikamiz hududida yagona alifbo sifatida qo‘llanishi kerak edi. Biroq bu amalga oshmadi. Yozuv amaliyotida lotincha imloga to‘liq o‘tilmadi. Hozirga qadar ko‘plab ommaviy axborot vositalari, nashriyotlarda asosan kirillcha yozuvdan foydalanilmoqda. Bu esa aholining, xususan, yoshlarning haqli e’tiroziga sabab bo‘lyapti. Negaki, har qanday huquqiy-demokratik davlatda qonun ustuvorligi ta’minlanishi shart.

Joriy lotin alifbosi 26 yildan ortiqroq vaqt davomida amaliy jihatdan o‘zini to‘liq oqlamadi, ya’ni mazkur harflar yozilishi, qo‘llanishi jihatidan barcha ehtiyojlarimizni to‘laqonli qondira olishini namoyon etolmadi.

Aytish mumkinki, bugun milliy alifbo va imloni takomillashtirish borasida yurtimizda amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlar yangi O‘zbekistondagi boshqa ulug‘vor islohotlarga hamohang, uyg‘un tarzda kechmoqda.

2021-yilning 16-mart kuni “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonunga o‘zgartirishlar kiritish haqidagi qonun loyihasi jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilgandi. Unga ko‘ra, alifboda mavjud harf birikmalari: sh va ch, shuningdek, o‘ va g‘ harflarini diaktrik belgisiz harflar bilan almashtirish taklif etildi.

Lotin yozuviga asoslangan joriy alifboning kamchiligi shuki, O‘o‘ va G‘g‘ harflarining bosma shaklini yozish murakkablashdi, ya’ni o va g harflarining yoniga maxsus diakritik belgi (‘) qo‘yiladigan bo‘ldi. Bu esa kamchiliklar va noqulayliklarning kelib chiqishiga, bir harfni to‘g‘ri terish uchun oltitagacha tugma bosishga, lotin yozuvidagi matnlarning kengayib ketishiga sabab bo‘ldi.

Keng jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilgan qonun loyihasi bilan tanishib chiqqan har bir millatimiz vakili borki, unga befarq bo‘la olmaydi. Chunki milliy alifbo har qanday millatning muayyan darajadagi saviyasi, shu bilan birga, kundalik ma’naviy ehtiyoji sanaladi. Binobarin, yozuv kishilar o‘rtasidagi muhim aloqa vositasi sifatida kundalik ijtimoiy hayotdagi eng faol amaliy jarayon hisoblanib, u yoki bu ko‘rinishdagi

turli yozishmalarda o‘z ifodasini topadi. Mana shundan kelib chiqilgan holda har jihatdan qulay bo‘lgan alifboga ehtiyoj tug‘ilishi tabiiy holdir. Yangi qonun loyihasida ko‘pchilikni uzoq yillardan beri qiynab kelayotgan ba’zi muammoli holatlarga asosli yechimlar taklif etilayotganidan faqat quvonish mumkin. Qolaversa, amaldagi alifboning tegishli o‘zgartirish va to‘ldirishlar bilan takomillashtirilishi savodxonlikni oshirishga xizmat qiladi, yozuv amaliyotini osonlashtiradi, shuningdek, milliy alifbomizning ilmiy-ta’limiy jihatdan puxta bo‘lishini ta’minlaydi.

Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad: milliy alifbo har qanday millatning yuzi hisoblanishi, uning har jihatdan barqaror va to‘kis bo‘lishi, u asosli taklif-tavsiyalar asosida chuqur ko‘rib chiqilishi, ona tilimiz tabiatiga uyg‘un, turli avlodga mansub yurtdoshlarimizni birlashtira oladigan, o‘qish va yozishga qulay, yaxlit harflardan iborat, zamonaviy axborot texnologiyalari talablariga mos, ko‘rkam alifboga ega bo‘lishdir. Zero, dunyo tamadduniga beqiyos hissa qo‘shgan va bebaho badiiy asarlarning dunyoga kelishiga poydevor bo‘lgan go‘zal ona tilimiz mukammal alifboga munosibdir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, milliy alifbomiz isloh etilib, qulaylashsa, katta-kichik avlodlarga mansub hamyurtlarimiz, shuningdek, yaqin-olis mamlakatlarda yashovchi millatdoshlarimiz yagona yozuv atrofida jipslashadi. Alifbo islohi o‘zbek tilining to‘laqonli davlat tiliga aylanishiga, rivojlanishiga, internet tili darajasiga chiqishiga, alifbodagi noqulayliklar sabab yuzaga kelayotgan savodsizliklarning oldi olinishiga, bir so‘z bilan aytganda, tilimiz kamoloti uchun xizmat qiladi.

Zero, har birimiz davlat tiliga hurmat – yuksak insoniy burch ekanligini chuqur his qilib, uning ravnaqi uchun mas’ul ekanligimizni unutmaylik va bu sharafli ishga o‘z hissamizni qo‘shaylik!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. – Toshkent. 2013.

2. Aminov M va boshq. Davlat tilida ish yuritish. Amaliy qo‘llanma. -T.: “O‘zbekiston”, 2021.

ONA TILIMIZ ZARVARI

Qo‘ldosheva Nazokat,
Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish
va malaka oshirish markazi
Navoiy viloyati hududiy bo‘linmasi uslubchisi

Annotatsiya. Ona tilimizning davlat tili mavqeining mustahkamlanib borishi, milliy tilimizda yuz berayotgan ijobiy hodisalarni o‘rganish, ilmiy tadqiq etishga e’tibor kuchayayotganligi. Bu esa ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ona tilining qamrovi ortib borishiga, lisoniy muammolarning to‘g‘ri ilmiy hal etilishida muhim ahamiyatga ega bo‘lishi. Qadimdan o‘zbek millati orzu-umidlarini milliy til imkoniyatlaridan foydalanib yuksak saviyada ifodalagan, milliy ruh bilan sug‘orilgan asarlarida ifoda etganliklari to‘g‘risida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: ona tili, adabiyot, ijodkor, iqtidor, ma’naviyat, g‘urur, tafakkur,

O‘tgan yillar mobaynida ona tilimizning davlat tili mavqeining mustahkamlanib borishi, milliy tilimizda yuz berayotgan ijobiy hodisalarni o‘rganish, ilmiy tadqiq etishga e’tibor kuchaydi. Bu esa ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ona tilining qamrovi ortib borishiga, lisoniy muammolarning to‘g‘ri ilmiy hal etilishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Zamonaviy fanlar sohalarida umume’tirof etgan atamalarning milliy til xususiyatlariga amal qilgan holda qabul qilinishi leksik xazinamizni tobora boyitmoqda. Bu tamoyilning kuchayishi va me’yoriy talabga aylanishida 1995-yil 24-avgustda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonun muhim ahamiyat kasb etib kelyapti. Ushbu Qonun talablari asosida qabul qilingan va tasdiqlangan “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida”gi qaror ona tilimiz taraqqiyotining yorqin istiqbolini belgilab berdi. Endilikda o‘zbek tilining tovush tizimi, fonetik hodisalarning ilmiy talqini, morfologiya va sintaktik qoidalarning milliy til tabiatiga ko‘ra yaratilishi bilan bog‘liq vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish, shu paytgacha bu borada hukmron bo‘lib kelgan aqidalarga barham berish imkoniyatlari ortdi.

Dunyoda xalqlar ko‘p. Ular o‘z tafakkur hodisalarini, fikr-mulohazalarini turli tillarda bayon qilishadi. Insoniyat madaniyatining mahsuli bo‘lgan kitoblar asos-negizida til hodisasi turadi. Qadimdan o‘zbek millati hayoti va orzu-umidlarini milliy til imkoniyatlaridan foydalanib yuksak saviyada ifodalagan, milliy ruh bilan sug‘orilgan asarlarida ifoda etgan.

Turkiy xalqlarning yozuvchisi Mahmud Qoshg‘ariy “Devonu lug‘otit-turk” asarida “Erdam (odob)ning boshi-til” maqolini keltiradi. ”Odobning boshi” sanalmish tilni bilish, ona tilining boyliklaridan foydalanish lozimligini uqtiradi.

Alisher Navoiy “Muhokamatul-lug‘otayn” asarida o‘zbek xalqini “turk”, tilini “turkiy til” deb yuritadi:

Xamsada:

“Turk nazmida chu men tortib alam,

Ayladim ul mamlakatni yakqalam”, - deydi.

Turkiy til qancha hududga tarqalganini esa:

Olibmen taxti farmonimda oson,

Cherik chekmay Xitodin to Xuroson.

Alisher Navoiy o‘z asarlarida o‘zbek tilining imkoniyatlaridan foydalanib, tilning bor xazinasini ishga soldi, uni boyitdi, bu boyliklarni ko‘z-ko‘z qilish borasida ma’naviy jasorat ko‘rsatdi. Shu sababdan o‘zbek adabiy tili taraqqiyotining yuksak nuqtasiga chiqdi. Asarlarida ona tilining har bir so‘zini ardoqlab, e’zozlab ishlatdi.

Bosh Qomusimiz Konstitutsiyada ham o‘zbek tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Konstitutsiyaning 4-moddasida:

O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiliuvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi deb mustahkamlab qo‘yilgan.

2020-yil 20-oktabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son Farmoni bilan 2020-2030-yillarda o‘zbek

tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi, 2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini 2020-2022-yillarda amalga oshirish dasturi, 2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari tasdiqlandi. Davlatimiz rahbarining Birlashgan Millatlar Tashkiloti anjumanida jahon hamjamiyatiga qarata tarixda birinchi marta hammani birday to‘lqinlantirgan, O‘zbekiston g‘ururini yuksakka ko‘targan tarixiy nutqini o‘z ona tilimizda so‘zladi.

“Tilning butun qudrati-uning xalq dilida va mehnat jarayonida yaratilib, boyib borishi bilan bog‘liq”,- deb yozadi yozuvchimiz Pirimqul Qodirov. Xuddi shunday xalq dilida yashay olgan O‘zbekiston Xalq shoiri Muhammad Yusufdir.

Ijodkor ilohiy iqtidor egasi. Uning ash’orlari biz bilgan bilmagan mo‘zjizalarga boy, sehrli, o‘qiganingiz sari yana o‘qigingiz kelaveradi. She’rlarini o‘qir ekansiz ona tili go‘zalliklari har yon ifor sochib, sizni so‘zlar dunyosiga yetaklaydi. O‘zbek tilining betakror kuchidan, tarovatidan bahramand bo‘lishdek imkoniyatni taqdim qiladi.

Qadim yurtga qaytsin qadim navolarim,
Qumlar bosib qurimasin daryolarim.
Alpomishga alla aytgan momolarim,
Ruhini shod etay desang-xalq bo‘l, elim.

Adib o‘zbek tilini mukammal bilgan, har bir so‘zni o‘z o‘rnida qo‘llay olgan, har bir so‘zdan kelib chiqadigan ma’noni bilib turib qo‘llagan.

O‘zbekning ayollari,
O‘zbekning xotinlari,
Suvdan halol, Guldan pok,
Qo‘llari oltinlari,
Qay tomonga bursa yuz,
Yo‘llari oltinlari, Izzat uchun yaralgan.

Muhammad Yusuf ijodi to‘g‘risida soatlab gapirish mumkin. Uning ona tili haqida, o‘zbek tilining jamiyatimizdagi o‘rni, unga bo‘lgan munosabatlarimiz to‘g‘risada bitgan asarlarda biri- “Ona tilim” she’ridir.

Sen bo‘lmasang nima bizga silliq she’rlar,
Bu dunyoda tili yo‘qda dili yo‘q derlar,
Bahoingni-ku berib ketgan Alisherlar,
Yuragimning to‘ridasan so‘lmas gulim,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

So‘z san’atkori Muhammad Yusuf she’riyatining badiiy tili o‘ziga xos, unda ona tili va milliy tafakkur betakror ifodalangan desak yanglishmagan bo‘lamiz. Adibning jamoat arbobi sifatidagi chiqishlari, ma’ruzalarida ham til sofligi, aniqligi, ifoda madaniyati va go‘zal tashbehlaridan unumli foydalanganini ko‘ramiz.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, inson uchun uning vatani, ota-onasi, oilasi qanchalik qadrli bo‘lsa, uning ona tili ham shu qadar aziz va muqaddas bo‘ladi. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “Har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e’tiborni mustaqillikka bo‘lgan e’tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozim. Bu olijanob harakatni barchamiz o‘zimizdan, o‘z oilamiz va jamoamizdan boshlashimiz,

ona tilimizga, urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimiz kerak”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhammad Yusuf. Biz baxtli bo‘lamiz. – T.: M.Yusuf nomidagi adabiy-ijtimoiy fond, 2014.

2. So‘z xiyoboni *(Adiblar so‘z ta’rifida)*. O‘zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2020.

TILSHUNOSLIKNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

Anorboyzoda Feruza,
Jizzax politexika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilining sofligi, jamiyat hayotidagi o‘rni va jahondagi nufuzi haqida, tilning millat ravnaqida tutgan o‘rni, uning rivoji uchun yurtimizda amal oshirilayotgan ishlar xususidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: tilshunoslik, millat, jamiyat, xalqaro, madaniyat.

Til bu madaniy hodisadir; shuning uchun har mamlakatning merosi uning tiliga bog‘liq. Ma’lumki, bugungi ingliz tili xalqaro muloqot tili hisoblanadi, u hayotimizning har bir jabhasiga kirib borgan va siyosiy hamda iqtisodiy masalalarni hal etishni osonlashtiradi. Biroq, har bir mamlakat o‘z tilini saqlab qolishga harakat qilishi kerak, chunki aynan til uni o‘ziga xos qiladi va boshqa mamlakatlardan ajratib turadi. Biz ko‘p tilli dunyoni saqlab qolishni istar edik, chunki har bir tilni o‘rganishimiz bilan biz yangi bilimlarga ega bo‘lamiz, Gyote shunday degan: “Inson nechta til bilsa, u shuncha marta odamdir”[3-47]. Boshqa tarafdan esa bugungi kunda dunyo aholisining katta qismi so‘zlashadigan ingliz tilini bilishga yetarlicha baho bermaslik ham to‘g‘ri emas, chunki u iqtisodiyotning rivojlanishiga yordam beradi. Bu esa o‘z navbatida millat, mamlakat va umuman jamiyat rivojlanishiga yordam ko‘rsatadi.

Inson, eng avvalo, muloqot qiluvchi zotdir, shu bois, millatlarning tili unutmasligi zarur, biroq rivojlanishimiz va komil bo‘lishimiz uchun bir-birimizni tushunish qobiliyatiga ega bo‘lishimiz shart. Butun tarix davomida mamlakatlar ko‘pgina masalalarni yechish uchun bir-biriga ehtiyoj sezgan va umumiy til ularning o‘zaro muloqotini amalga oshirish imkonini bergan.

Tilning millat, davlat, jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni juda muhim, o‘ta zaruriy va dolzarb deb izohlagan bo‘lar edim. Zero, bu tushunchalar o‘zaro dialektik bog‘liq va o‘zaro aloqador tushunchalardir. Millat, davlat, jamiyat taraqqiy qilar ekan, uning tili va tilshunosligi taraqqiy qilib boradi. Davlat, jamiyatdagi o‘zgarishlar birinchi navbatda tilda, xususan, uning leksikasida – lug‘at boyligida o‘z aksini topadi. Modomiki, til ijtimoiy xarakterga ega ekan, ijtimoiy hayotdagi taraqqiyot tildagi taraqqiyotni belgilab beradi.[2-73]. Va o‘z navbatida til va tilshunoslikning taraqqiyoti jamiyat, davlat taraqqiyotiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi... Buning isbotini bugungi kundagi dunyo manzarasidan topish mumkin – qaysi mamlakatda – jamiyatda tinchlik, farovonlik hukm

surayotgan bo‘lsa, shu yerda til va tilshunoslik taraqqiy qilyapti va buning aksi bo‘lgan mamlakatlarda til va tilshunoslik rivoji haqida fikr yuritish amrimahol.

Qolaversa, til, avvalo, millatni millat qiluvchi vosita, u millatning ko‘zgusidir. Zero, tilimizda bizning qiyofamiz, ma’naviyatimiz aks etadi, til millat vakilining ma’naviyatini namoyon qiladi. Mustaqillik davrining eng ulug‘ imkoniyat va ne’matlaridan biri bu o‘zbek tilining o‘z yerida obro‘, e’tibor topishi, Davlat tili maqomini olishidir. Bugungi kunda o‘zbek tili milliy mafkuramizning tarkibiy qismlaridan va mustaqilligimizning bosh belgilaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Chet tilini o‘rganish “yaxshi taassurot qoldiradigan” tarjimayi holga ega bo‘lish yoki sayohat qilishda qo‘l keladigan vositadan ham jiddiyroq ahamiyatga ega. U sizni aqlliroq, tez qarorga keluvchi insonga aylantiradi va hatto suhbat olib borish qobiliyatingizni oshiradi. Psixologik tadqiqotlar ham ikki va undan ortiq tilda so‘zlashish afzalliklarini namoyon etmoqda. Ikki tilni biladigan odamning miyasi bir tilda so‘zlashadigan odamnikidan boshqacha ishlaydi. Afsuski, bugungi kunda qo‘llanayotgan ba’zi til o‘rgatish metodlari talabalarning vaqti va pulini behuda sarflaydigan mashg‘ulotlar, xolos. Til o‘qituvchilari chet tilini o‘rgatishda adabiyotni o‘qish va grammatik qoidalarni batafsil tahlil qilishga emas, balki ko‘proq suhbatlashish ko‘nikma va malakalariga alohida e’tibor berishlarini xohlar edim. Bunday darslarda o‘qish va yozishga asosiy e’tibor qaratiladi, so‘zlashuv va tinglab tushunishga juda kam yoki umuman izchil e’tibor berilmaydi.

Bugun yer yuzida olti mingga yaqin til va lahja bo‘lsa, ulardan bor-yo‘g‘i yuzga yaqini davlat tili maqomiga ega. Ular orasida o‘zbek tili ham borligi bizning baxtimiz, faxrimizdir. Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o‘zbek tilining davlat tili sifatida huquqiy maqomi aniq belgilab berildi. Shu tariqa, o‘zbek tili mustaqil davlatimizning bayrog‘i, gerbi, madhiyasi, Konstitutsiyasi qatorida turadigan, qonun yo‘li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollaridan biriga aylandi.

Qarangki, dunyo xalqlari tarixini, ayniqsa, XX asrni, kuzatar ekanmiz, ne ajabki, ularning ko‘pchiligi o‘z milliy mustaqilligi uchun kurashni o‘z ona tiliga davlat tili maqomini berish uchun kurashishdan boshlashgan. Xususan, Hindiston, Pokiston, Bangladesh kabi Angliyaning, Afrikadagi Fransiyaning, Amerikadagi Ispaniyaning mustamlakalari bo‘lgan davlatlarda mustaqillik yo‘lidagi dastlabki kurash aynan o‘z ona tiliga davlat tili maqomi berish uchun kurashlardan boshlangan. Ammo, afsuski, ularning barchasi ham hali-hanuz o‘z niyatiga erishgan emas. Hozirgacha ham ayrim davlatlarda ingliz, ispan, fransuz va portugal tillari davlat tili hisoblanadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston aholisining 60 foizdan ortig‘ini yoshlar tashkil etadi. Yoshlar jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’naviy yangilanishining muhim subyektlaridan bo‘lib, jamiyatda sodir bo‘layotgan murakkab jarayonlarga o‘z ta’sirini o‘tkazishda va taraqqiyotni harakatga keltirishda muhim rol o‘ynaydi. Mustaqillik tufayli jamiyatimizda, ayniqsa uning madaniy-ma’naviy, ma’rifiy sohalarida sodir bo‘layotgan sifat o‘zgarishlari yoshlar ongi, dunyoqarashiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda.

Yoshlarda ona Vatanga faxr va iftihor tuyg‘ularini kamol toptirish, yurtimiz ravnaqi uchun o‘z hissasini qo‘shishga undash, yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash, sog‘lom turmush madaniyatini targ‘ib etish, mustaqil turmush arafasida turgan yoshlarda oila uchun mas’uliyat hissini shakllantirish, keksa avlod vakillariga hurmat-ehtirom

munosabatida bo‘lish va xalqimizning boy ma’naviy qadriyatlar ruhida farzand tarbiyalash tuyg‘ularini takomillashtiirish, iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularning o‘z aql-zakovatini namoyon etishda badiiy adabiyotning o‘rni nihoyatda katta.

Bu borada yana buyuk shoir Alisher Navoiy ijodiga murojaat qilamiz.

Alisher Navoiy butun faoliyati va ijodiyotini insonning baxt saodati uchun kurashga, halqning osoyishtaligiga, obodonchilik ishlariga, ilm-fan, adabiyot va san’at taraqqiyotiga bahshida etdi. U juda ko‘p o‘qishi, o‘qiganda ham uqib o‘qishi tufayli ulug‘ donishmand, davlat arbobi, o‘zbek adabiy tiliga asos solgan va o‘zbek mumtoz adabiyotini yangi taraqqiyot pog‘onasiga ko‘targan buyuk so‘z san’atkori, iste’dodli olim bo‘lib yetishdi, juda qimmatli asarlar yaratdi, davrining madaniy hayotiga rahbar, ilm-fan, san’at va adabiyot oqimlariga homiy, ko‘plab shogirdlar yetishtirgan ustoz bo‘ldi.

Alisher Navoiy juda katta va boy lirik va epik Xazina yaratib qoldirdi. Ushbu lirik xazinaning asosini o‘z ichiga 4 devonni qamrab olgan “Xazoyinul-maoniy”, fors-tojik tilidagi katta asari “Devoni Foniy”, “Nazmul Javohir”, “Munshaot”, “Vaqfiya”, “Xamsatul mutaxayyirin”, “Holoti Pahlavon Mahmud”, “Holoti Said Hasan Ardasher”, “Muhokamatul-lug‘atayin” va “Mezon-ul avzon” kabi asarlar tashkil etgan bo‘lsa, epik asarlarning asosini “Xamsa”, “Lison-ut tayr” asarlari tashkil etdi.

Navoiy o‘z asarlarida u xoh lirik, bo‘lsin, xoh epik bo‘lsin hayot va insonni tarannum etdi. U hayotni e’tirof qiladi, uni sevadi, insonni sharaflaydi va ulug‘laydi. Zero, olamning olam bo‘lib yaratilishi ham asosan hayot guli bo‘lgan inson uchundir.

O‘zbek tili oddiy til emas, u agglyutinativ tillardan biri bo‘lib xushmuomalalikning turli shakllariga egadir.[4-114].Bu til boshqa tillarda mavjud bo‘lmagan grammatik elementlarga egadir. Shuning uchun ushbu tilni o‘rganayotganlar turli qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Chunki, uni o‘zlashtirish asnosida ular nutqning butunlay yangi qirralari bilan to‘qnash kelishadi. Biroq bu bilan ular umidsizlikka tushmasligi zarur, har qanday tilni o‘rganish mumkin va o‘zbek tilini o‘rganish yangi hamda qiziqarli madaniyat bilan tanishishni, boy leksikani o‘rganishni bildiradi.

So‘ngi yillarda O‘zbekistonning jahon hamjamiyati bilan iqtisodiy va siyosiy aloqalari tobora kengayib bormoqda. Yurtimizdagi investitsiya uchun yaratilgan qulay sharoitlar sababli tadbirkorlar, bankirlar, dunyo sayyohlari uchun eng qiziqarli mamlakatlardan biriga aylanib bormoqda. Mana yaqinda internetda nufuzli sotsiologik tadqiqot markazlarining xulosalari asosida dunyoning borib ko‘rish zarur bo‘lgan eng jozibali 50 ta shahari e’lon qilindi. Bu ro‘yxatda Samarqand shahri eng oldingi o‘rinlarda turibdi. Shunga ko‘ra, dunyo xalqlari orasida o‘zbek tilini o‘rganishga ehtiyoj va e’tibor ortishi mumkin. Yaponiya, Xitoy, Koreya yoshlarining o‘zbek tiliga bo‘lgan qiziqishlari va imkoniyatlari kuchli, ular sof o‘zbek tilida nutq tuzish imkoniyatiga ega. Garchi AQSh va Yevropa yoshlari, slavyan xalqlari vakillari o‘zbek tiliga xos bo‘lgan spesifik tovushlarni to‘liq va to‘g‘ri talaffuz qila olmasalar-da, ularda ham o‘zbek tilini o‘rganishga ehtiyoj kuchli.

Texnologiyalar tez sur’atlar bilan rivojlamoqda va bu ta’limga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Masofali ta’lim, AKT vositalaridan foydalanish, bugungi kunda daftar va kitoblarning o‘rnini bosayotgan ba’zi elementlar hisoblanib bugungi kunda ta’lim jarayonida foydalanib kelinmoqda. Boshqa tarafdan shunday maktablar borki, ular ta’lim uchun boshqa muhitni taklif qiladi va maqsadlarni ko‘zlaydi. Texnologiyalarni

suiiste’mol qilish mumkin emas, talabalar o‘zlariga qiziqarli masalalarda qarorlar qabul qilishda ishtirok etishlari kerak, ta’lim rag‘batlantirilishi lozim, to‘liq shaxs sifatida shakllanish uchun amaliy bilimlarga ega bo‘lishlari lozim.

Tilning barcha tamoyillari bir xildek muhimdir va ularning hammasi o‘rganilishi shart, chunki hech bir til to‘liq o‘rganib chiqilmagan va unda doimo qandaydir yangi qirrasi chiqadi va u ochilishi kerak. Bugungi kunda barcha tilshunoslar shu narsada yakdilki, odamlar so‘zlashadigan tilni bilish bu abstrakt predmetni bilishdir. Bunday bilim konkret tovushlar, so‘zlar va jumlalarni bilishdan ko‘ra ovoz chiqarib aytishning va tovushlar ko‘llanilishining qoidalarini, yo‘llarini va usullarini bilish hisoblanadi. Bu tilga nima tegishli va nima tegishli emasligini bilishdir, nimani aytsa bo‘ladi va nimani aytsa bo‘lmaslikni bilishdir.

Odamlar orasida bir tilda muloqot qilish qachon mumkin, qachonki ular ushbu tilni o‘zaro tushunishsa; biroq ushbu til ular tarafidan qanday tushunilishi, qanday o‘zlashtirilishini tushunish murakkab masaladir. Albatta, bu yerda psixologik, ijtimoiy va genetik omillar muhim o‘rin egallaydi. Til umumiy foydalanish predmeti hisoblanadi va bir vaqtning o‘zida abstrakt mohiyatga ega.

Qachonki insonlar o‘z ona tillarida o‘qishni to‘htatar ekan, o‘sha til yo‘qolib ketish arafasiga kelib qoladi. Tillarni saqlab qolish bu o‘sha xalqning madaniyati, urf-odati, rasm-rusumlarining saqlanib qolinishini anglatadi. Chunki, xalq taqdiri til taqdiri bilan bevosita bog‘liq. Til har bir millat madaniyatining o‘zagidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир // Халқ сўзи, 2017 йил 4 август.

2. Аракин В.Д. Сравнительная типология английского и русского языков. - М.: Просвещение, 1990.

3. Абдуазизов А.А. Элементы общей и сравнительно-типологической фонологии. - Т.: Фан, 1981.

4. Буранов Ж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. - М.: Высшая школа, 1983.

MA’MURIY-BOSHQARUV FAOLIYATIDA ISH YURITISH HUJJATLARINI MAVZUIY GURUHLARGA AJRATISH

Saidov O‘lmas,
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti tayanch doktoranti,
Tel: 97 402-27-75,
email: saidov75@ umail.uz

Annotatsiya. Davlat tilining jadal joriy qilinishidagi asosiy masalalardan biri mamlakatimizda ish yuritish tizimini to‘laligicha o‘zbek tiliga o‘tkazishdan iborat. Ayni paytda turli soha xodimlarining ish yuritish borasidagi bilim va malakalarini muntazam oshirib borish ham zaruriy ehtiyojdir. Maqolada tashkilot va muassasalarning ish yuritish faoliyatida eng ko‘p qo‘llanadigan hujjatlar, ularni tuzish tartib-qoidalari, ish hujjatlarining mavzuiy guruhlari to‘g‘risida fikrlar berildi.

Kalit so‘z: rasmiy ish uslubi, hujjatchilik, hujjat, o‘zbek hujjatchiligi, hujjatlar tili, ish yuritish qog‘ozlari, xizmat yozishmalari, xizmat xatlari, ot turkumiga oid so‘zlar.

Hujjatshunoslik sohasida hujjatlar bajaradigan vazifasiga qarab bir necha jihatlar asosida tasnif qilinadi. Tasniflashda mutlaqo bir xil guruhlashtirish mavjud bo‘lmasada, har qalay, ularni bir qadar yagonalashgan holda guruhlashtirish mumkin.

Ish yuritish hujjatlari tizimini mavzuiy guruhlarga ajratishda ham hujjatlarning tuzilishi, mazmuni, mazmun bayonining shakli, tegishlilik jihati, tayyorlanish xususiyati va darajasi, xizmat mavqei kabi xususiyatlariga qarab tasniflash muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda rasmiy ish uslubini o‘rganish bo‘yicha ilk qadamlar qo‘yilgan, xususan bir nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilingan. Mustaqillik yillaridan keyin ham hujjatchilik sohasiga oid bir qancha adabiyotlar va qo‘llanmalar yaratildi. Jumladan, “Rasmiy uslubning diplomatik yozishmalar turi” *(Muhiddinova X.S., Abdullayeva N.A.)*, “Davlat tilida ish yuritish” *(M.Aminov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov, N.Mahmudov, Y.Odilov)* kabi amaliy qo‘llanmalarni e’tirof etish joiz. Bu qo‘llanmalarda o‘zbek tilidagi ish yuritish hujjatlariga umumiy ta’rif va tavsiflar berilgan. Shuningdek, “Davlat tilida ish yuritish” qo‘llanmasida ish yuritish hujjatlarining turlari, shakllari va mazmuni kabilar birmuncha kengroq yoritib berilgan.

Ish yuritish hujjatlarida ishlatiladigan atamalar (so‘zlar, so‘z birikmalari, terminlar)ning tildagi lisoniy tasviri, lingvistik ideografik va mavzuiy talqinida ma’lum bir bo‘linishga tayanish maqsadga muvofiqdir. Ma’lumki, terminosistemada atamalarning ma’nosi universal xarakterda bo‘lishi talab etiladi. *Ish yuritish atamalari* ideografik guruhiga kiruvchi birliklar boshqa terminologik sistemalarda bo‘lgani kabi ana shunday universal xarakteri bilan ajralib turadi. Ular olamning lisoniy tasvirida ma’lum bir uzv sifatida namoyon bo‘ladi, lekin turli “rang”lardan xoliligi, milliy sub’ektivizmdan yiroqligi bilan xarakterlanadi.

Ish yuritish atamalari mavzuiy tizimida *hujjat* leksemasi markaziy o‘rinni egallaydi. Shundan kelib chiqib aytilsa, *ish yuritish atamalari* mavzuiy tizimi o‘z o‘rnida mikrotizimni hosil qiladi hamda quyidagi ichki mavzuiy guruhlardan tashkil topadi:

I. Tashkiliy hujjatlarga oid atamalar.

II. Farmoyish hujjatlariga oid atamalar.

III. Ma’lumot-axborot hujjatlariga oid atamalar.

IV. Xizmat yozishmalariga oid atamalar.

V. Turli sohalarga tegishli atamalar.

Ish yuritish hujjatlari orqali davlatlar, idoralar, tashkilotlar, turli muassasalar, korxonalar o‘rtasida rasmiy aloqalar o‘rnatiladi, turli mazmundagi xizmat aloqalari amalga oshiriladi. Ish qog‘ozlari mazmunining mukammal, to‘liq, aniq va lo‘nda bo‘lishi uni qabul qiluvchi tomonning oson tushunishini ta’minlaydi. Hujjatshunos A.S.Golovach shunday yozadi: “Boshqaruv sohasidagi kamchiliklarning asosiy sabablaridan biri ayni soha xodimlarining ko‘pchiligida nazariy va amaliy tayyorgarlikning bo‘shligidir, ular muassasa, tashkilot va korxonalarda qabul qilingan hujjatlar bilan ishlash yo‘riqnomalari, usullari va yo‘llari majmuini etarli darajada bilmaydilar”. Natijada hujjat matnida va mazmunida turli g‘alizliklarga yo‘l qo‘yiladi. Hujjatlar tilida xatoliklarga yo‘l qo‘ymaslik, xolislikni ta’minlash uchun yuqorida ta’kidlanganidek, tilning barcha asosiy qonuniyatlari va qoidalarini ma’lum darajada bilish zarurdir.

Hujjatchilik rasmiy ish yuritish taomillariga ko‘ra ish qog‘ozlari mazmunida qoliplashgan birikmalar tez-tez takrorlanadi, chunki bunday xatlarda ko‘pincha bir xil turdagi vaziyatlar aks etadi. Shu sababli, xizmat xatlarining ba’zi muhim jihatlari uchun bir xil lingvistik dizaynga ega bo‘lgan til birliklari ishlatilishi tabiiydir. Bunday jihatlar uchun so‘z birliklarining ma’lum bir sintaktik modeli mavjud bo‘lib, u semantik, uslubiy xususiyatlariga qarab bir qator o‘ziga xos nutq variantlariga ega. Masalan, muayyan bir shart yoki va’dani tasdiqlash maqsadida tuziladigan kafolat xatlarida kafolat ma’nosi quyidagicha ifodalanishi mumkin: *“To‘lovga kafolat beramiz”, “To‘lovni kafolatga olamiz”* kabi. Aynan shu jumlani kengaytirish ham mumkin:

– *Qurilish ishlari tugashi bilan bir oy muddat ichida tegishli haqni Sanoat-qurilish bankining 27-bo‘limi orqali to‘lashga kafolat beramiz.*

– *“.....ish tugatilgach to‘lovni kafolatga olamiz”;*

– *“.....shartnoma shartlari uchun to‘lov kafolatlanadi”* kabi.

Bunday modellarning mavjudligi va ularning nutqiy variantlari hujjatlarning tuzilishini sezilarli darajada osonlashtiradi. Yagona vazifa - tegishli gapga mos keladigan sintaktik modelni va uning nutq variantini to‘g‘ri tanlashdir.

Hujjatlar tilida ot turkumiga oid so‘zlar ham ayniqsa juda ko‘p qo‘llanadi. Xizmat xatlari matnlarida bayonot, tavsiflash, tasvirlash holati ustunlik qiladi, shunga muvofiq matnlarning mazmuni qoida tariqasida ko‘plab tafsilotlarni nomlashni talab qiladi. Bu esa hujjatlar matnida ot turkumidagi so‘zlarga tez-tez murojaat qilishni taqozo etadi.

Har qanday yozishmada, umuman, ko‘p hujjatlarda ot so‘z turkumining quyidagi turlari ishlatilishi kuzatiladi:

– kishilarning ismi, otasining ismi, familiyasini bildiruvchi shaxs nomlari (antroponimlar) – *Rahim Islomovich Alyiev, Mahmud Sobirovich Karimov;*

– joy nomlari *(Samarqand shahri, Bog‘ishamol ko‘chasi, Toshkent shahri, Qo‘yliq dahasi, 42-uy, 14-xonadaon).*

– tashkilot, korxona, muassasa nomlari *(O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga, Oliy xo‘jalik sudiga, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O‘zbekiston milliy universiteti va sh.k.);*

– tarixiy sana va bayram nomlari *(8-mart – xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan muborakbod etamiz, 21-mart – Navro‘z bayrami munosabati bilan chin dildan qutlaymiz, 1-oktabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni muborak bo‘lsin va sh.k.);*

– suv havzalari va inshootlari nomlari *(Chirchiq daryosi, Chorvoq suvombori, Amu-Buxoro kanali va sh.k.);*

– shaxs otlari *(o‘qituvchi, ishchi, pedagog, vrach, muhandis, haydovchi, o‘quvchi, tarbiyachi, san’atkor, tadbirkor, vazir, hokim, suvchi, paxtakor va sh.k.);*

– narsa otlari *(qog‘oz, kitob, daftar, avtobus, mashina, avtotransport, telefon, eshik, deraza, kiyim, parta, stol, stul va sh.k);*

– o‘rin-joy otlari *(sayilgoh, oshxona, sartaroshxona, shahar, qishloq, mahalla, viloyat, tuman, sharq, g‘arb, ko‘cha, gulzor, olmazor va sh.k);*

– faoliyat-jarayon otlari *(chorvachilik, ovchilik, paxtachilik, gulchilik, asalarichilik, urug‘chilik, terim, chopiq, attorchilik, savdogarchilik va sh.k).*

Hatto fe’l bilan ifodalanuvchi harakat va holatlar ifodasi uchun ham otga yaqin so‘z shakllari tanlanadi, ya’ni «harakat nomi» deb ataluvchi so‘z shakllari faol ishlatiladi: *«...tayyorgarlikning borishi haqida», «...qarorning bajarilishi to‘g‘risida», «...yordam berish maqsadida», «...qabul qilishingizni so‘rayman»* kabi.

Ish hujjatlari davlatlar, idoralar, tashkilotlar, korxonalar o‘rtasida, shuningdek, bir tomondan shaxs, boshqa tomondan jamiyat, davlat, muassasa o‘rtasida o‘rnatiladigan rasmiy munosabatlar sohasiga xizmat qiladi. Shuning uchun rasmiy ma’noga ega bo‘lgan har bir so‘z, har qanday grammatik qurilish, manzil egasiga juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan xabarni olganligini, unga jiddiy va mas’uliyatli munosabatda bo‘lishi, u yoki bu vazifani bajarishi kerakligini bildiradi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki,

- rasmiy ish yuritish hujjatlarining o‘ziga xos til xususiyatlari mavjud;
- hujjat yuritishda har doim ma’lum bir til qoidalariga amal qilinadi va bunga katta ahamiyat beriladi;
- ma’muriy-boshqaruv sohasida hujjatlar bilan ishlash yo‘riqnomalari, usullari va yo‘llari majmuyi mukammal darajada egallangan bo‘lishi lozim;
- ish qog‘ozlari mazmunida bir xil lingvistik dizaynga ega bo‘lgan til birliklari ishlatilishi tabiiydir;
- hujjatlarda lingvistik modellar va ularning nutqiy variantlaridan to‘g‘ri foydalanish hujjat mazmunini tushunishni osonlashtiradi;
- hujjatda tegishli gapga mos keladigan sintaktik modelni va uning nutq variantini to‘g‘ri tanlay bilish lozim. Hujjat matnlarida bayonot, tavsiflash, tasvirlash holati ustunlik qiladi, shunga muvofiq matnlarning mazmuni qoida tariqasida ko‘plab tafsilotlarni nomlashni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Odilov Y. Davlat tilida ish yuritish. Amaliiy qo‘llanma. – Toshkent: “O‘zbekiston nashriyoti”, 2020.

5. Выготский Л.С. Воображение и творчества в детском возрасте. – Москва: Просвещение, 1999. – 92 с.
6. Гридина Т.А. Онтолингвистика. Язык в зеркале детской речи. – Санкт-Петербург: Флинта, 2006. – 152 с.
7. Детская прагматика или социально-психологический аспект развития речи/http://matenok.ru/ pragmatika.php. – 2004. – С. 74-77.
8. Доброва Г.Р. Онтогенез персонального дейксиса/ http://www.dslib.net/jazyko - znanie/ontogenez-personalnogodejksisa.html - 2003. – С. 280-288.
9. Королев В. Стадии освоения детьми средств выражения локативного и темпорального дейксиса/ http://cyberleninka. ru/ article/n/ # ixzz2K6sLGDlP - 2011. – С. 222-226.
10. Краснощекова С.В. Местоименный дейксис в русской детской речи: Дисс. … канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2006. – 273 с.
11. Лурия А.Р. Язык и сознание. – Москва: Наука,1979. – С. 70.
12. Моисеенко Е.Ю. Дискурсно-прагматические особенности детской речи (на материале современного английского языка) / http://avtoreferat.net/content/ view/10628/31/ - 2003. – С. 267-272.
13. Mowrer O.N. Speech development in the young child, the autism theory of speech development and some clinical applications. In: Journd of speech and hearing disorders, 1952. – С. 17., 263.
14. Пиаже Ж. Схемы действия и усвоение языка // Семиотика. – Москва, 1983. –С. 133-136.
15. Пиаже Ж. Речь и мышление ребёнка. – Москва, – Ленинград, 1932.
16. Строгонова О.Л. Особенности репрезентации языковой личности подростка: лингво-прагматический аспект (на материале современных англоязычных учебно-методических комплексов и художественной литературы о подростках). http://dissers.ru/1filologiya/.php. - 2003. – С. 244-249.
17. Цейтлин С.Н. Лекции по онтолингвистики. – Санкт-Петербург: Флинта, 2008. – С. 9.
18. Шахнарович А.М. Проблемы психолингвистики. – Москва: Наука, 1987. – С. 134.
19. Якобсон Р.О. Звуковые законы детского языка и их место в общей фонологии // Избр. работы. М.: Прогресс, 1985. - С. 105-116.

4-SHO‘BA. AMALIY TILSHUNOSLIK MASALALARI

SO‘Z SEHRI

Yo‘ldoshev Ibrohim,
filologiya fanlari doktori, professor,

Annotatsiya. Ushbu maqolada g‘azal matnida ishlatilayotgan so‘zlarning ma’nosiga e’tibor qaratiladi. Muallif: “g‘azal kuy ipiga terilgan dur bo‘lsa, kuy g‘azal rishtasini bezab turuvchi marvarid. Har ikki rishtaga tizilgan dur-u marvaridlar mo‘tabar. O‘z talqinida ohang va so‘z mohiyatini to‘la-to‘kis yetkaza olmaydigan xonanda esa hali barkamollikdan yiroqda, ko‘p izlanishi lozim” deydi. Shuningdek, muallif “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga murojaat qiladi va bir qancha so‘zlarning ma’nosiga to‘xtalib o‘tadi.

Kalit so‘z: g‘azal, so‘z ma’nosi, so‘z tarixi, etimologiya, sarimsoq, o‘rtar.

Til xususida bildirilgan fikrlar turlicha, lekin haqiqat shuki, til benihoya muqaddas va mo‘tabardir. U insonni shakllantirgan, taraqqiyot sari yetaklagan, uning aql ne’matlarini ifoda etib, tafakkur gulshani darvozalarini ochgan tengsiz bir robitadir. Shunday bir buyuk ehtirom va e’zozga sazovor bo‘lgan tillarning kechmishi bir xil emas, albatta. Tarix sahnasida o‘zbek tili ne mashaqqatlar bilan omon qoldi. Axir, til – millatning ruhi, deyiladi, til o‘lsa, millat ham tamom bo‘ladi. Bunga misollar kammi? Shu yil 6-oktabr kuni xabar.uz internet tarmog‘ida “Alvido Gennadiy, alvido aleut tili!” sarlavhasi bilan xabar tarqaldi: “Aleut tili eskimo-aleut tili oilasidagi tillardan biri, bu tilda Alyaska, Aleut va Komandor orollari mahalliy aholisi gapirgan. Kamchatkada aleut tilida so‘zlasha olgan so‘nggi inson Gennadiy Yakovlev 86 yoshida olamdan o‘tdi. Yakovlev Komandor orollari arxipelagidagi Bering orolida joylashgan Nikolskoe qishlog‘ida istiqomat qilgan. So‘nggi yillarda Rossiyada aleut tilida so‘zlashadigan ikki kishi qolgan, ulardan biri aleut tilining bering dialektida so‘zlashgan Vera Timoshenko 2021-yilda 93 yoshida vafot etgan edi. Hozirda marhumning qishlog‘ida mahalliy aholi rus tilidagi nutqida aleut tilidagi ayrim so‘zlarni qo‘llaydi, xolos”. Qanday ayanchli holat. Shu bilan bir til va u bilan birga bir millat yakun topdi. Voqelik aynan shu bugungi kunimizda sodir bo‘ldi. Bu hodisa yana bir bor tilning yo‘qolishi millatning yo‘q bo‘lib ketishiga yaqqol misol bo‘la oladi. Shuning uchun ham tilimizning bugungi rivoji va jahon tillari orasidagi munosib o‘rni uchun beadad shukurlar qilishimiz kerak.

To‘g‘ri, tilimiz ham o‘z tarixiy taraqqiyoti davomida ko‘p sinoatlarni ko‘rdi, lekin ularning barchasidan zafar qozonib, muvaffaqiyat bilan o‘ta oldi. U dunyo tillari ummoniga kelib quyilgunga qadar qayerdadir shovullab shiddat bilan oqdi, qayerdadir tarix yo‘lidagi dambaga duch kelib, shiddatini sekinlatdi, yana dambani oshib o‘tib, o‘z o‘zanida til ummoni sari intildi. *Tilimizning bugunga qadar omon-eson kelishining asosiy boisi xalqimizning o‘z ona tilini jonidan sevishi, ardoqlashidadir.*

Til hodisasi – ajoyib hodisa. Har qanday til uning so‘zlari bilan go‘zal. Buni biz ba’zida yo sezamiz, yo sezmaymiz. Bu holatni buyuk shoirimiz Erkin Vohidov quyidagicha ta’riflaydi: “Dunyoning eng ajib, eng sirli va sehrli sayohatlaridan biri So‘z olamiga sayohatdir. Negaki, So‘z yaratilishdan mo‘jiza. Avval So‘z bo‘lgan, deyiladi muqaddas kitoblarda. ...So‘zning ildiziga yetgan kishi dunyoning tagiga yetgandek bahra topadi. Insoniyat tarixi so‘zlar qismatida yashirinib yotar ekan” [1].

Shu o‘rinda Samarqandda bo‘lib o‘tgan bir voqea yodimga tushdi. 2021-yilning yanvar oyida xizmat safari bilan Samarqandga borganimdagi bir tadbirda yosh bir xonanda Mashrab g‘azali bilan “O‘rtar” qo‘shig‘ini aytib bermoqchi bo‘ldi. Qo‘shiq kuylandi. Hammamiz olqishladik. Shunda men hofizdan “o‘rtar” so‘zining ma’nosini so‘radim. Hofiz esa biroz noqulaylik bilan bilmasligini aytdi. Shunda men buyuk o‘zbek hofizlari Jo‘raxon Sultonov hamda Rasulqori Mamadaliyevlar bilan bo‘lib o‘tgan voqeani so‘zlab berdim. Kunlarning birida Jo‘raxon Sultonov Navoiy g‘azallaridan biriga kuy bastalayotgan vaqtida g‘azaldagi so‘zlardan birining ma’nosini tushunmaydi va tevarak-atrofdagi o‘zi tanigan insonlardan so‘rab ham bila olmaydi. Shunda Toshkentga kelib, Navoiyshunos olim Hamid Sulaymonovdan bu so‘zning ma’nosini o‘rganadi. So‘ngra Marg‘ilonga qaytib borib, boshqatdan kuy bastalaydi. Xuddi shunga o‘xshash holat Xalq hofizi Rasulqori Mamadaliyev bilan ham sodir bo‘lgan ekan. Bu haqda O‘zbekiston xalq artisti, dotsent O‘lmas Rasulov yozgan edi: “Qo‘qon urfiy ijrochiligining eng yetuk vakillaridan biri sifatida Rasulqori Mamadalievning xonandalikda qo‘l urmagan usulini topish qiyin. U maqom va maqom yo‘lidagi qo‘shiqlarni bir zaylda mahorat bilan ijro eta olardi. Hofizning ishqi o‘sha davrda endi paydo bo‘lgan Ma’rufxo‘ja Bahodirov bastalagan “Na qildim” ashulasiga tushadiyu, tinchini yo‘qotadi. Biroq ijro etishga jur’ati yetmaydi. G‘azaldagi bir so‘z ma’nosini qishlog‘idagi, hatto qo‘shni qishloqlardagi ziyolilardan so‘raydi, surishtiradi. Biroq jo‘yali javob ololmaydi. Axiyri, o‘sha paytlarda (70-yillar) Qo‘qondagi Muqimiy muzeyida ishlab yurgan aruz bilimdoni, g‘azalnavis shoir Charxiy domlaning huzuriga borib, ustozga o‘z maqsadini aytadi.

– “Na qildim sango man yorim, jamolingdin judo qilding, Boshimda gardu g‘amni chun charog‘i osiyo qilding” bayti bilan boshlanuvchi ashulani rosa aytgim boru aytolmayapman, domla, – deydi hofiz.

– Shoir sababini so‘raganida g‘azaldagi “charog‘i osiyo” so‘ziga tushunmayotganini aytgan.

– “Charog‘i osiyo” tegirmonning chirog‘i degani, – javob beradi Charxiy. – Unga ko‘p chang, g‘ubor qo‘nadi, oqibatda nuri xiralashib boradi. Gard, changning ko‘pligidan mening boshim ham tegirmon chirog‘iga aylanib qoldi, ya’ni men senga nima qildimki, meni jamolingdan judo qilding, boshimda gardu g‘amni charog‘i osiyo qilding, demoqda ustoz Huvaydo. Buni to‘la tushuntirishimga bir kun ham kamlik qiladi, hofiz. G‘azalni ko‘p o‘qing, ashulasini ko‘p ayting. Shunda bir-biridan go‘zal ta’sirchan ma’nolarni, ishtibohlarni topasiz, inshoolloh.

Shu muloqotdan so‘ng “Na qildim” ashulasi hofiz ijro dasturlarining ko‘rkiga aylanadi. Rasulqori Mamadaliyev ko‘zi ojiz bo‘lsa-da, “yiqilmagan” edi o‘shanda.

Bu ibratli muloqotni bejizga keltirmadik. Zero, g‘azal kuy ipiga terilgan dur bo‘lsa, kuy g‘azal rishtasini bezab turuvchi marvarid. Har ikki rishtaga tizilgan dur-u marvaridlar mo‘tabar. O‘z talqinida ohang va so‘z mohiyatini to‘la-to‘kis yetkaza olmaydigan xonanda esa hali barkamollikdan yiroqda, ko‘p izlanishi lozim. Achinarli tomoni shundaki, hozir unvonlarga sazovor ijrochilarda ham so‘zni buzib aytish hollari uchrab turadi. So‘z, ohang uyg‘unligini yetarlicha his qilishga intilishni istamagan xonandalarning befarqligi oqibatida “Munojot”, “Soqiynomai savti kalon”, “So‘lim” kabi

ko‘plab nodir ashulalarning ijrosi sayozlashib boryapti. Boz ustiga ularni “zamonaviylik” niqobi ostida qayta ishlayotganlar ham urchib ketyapti” [2].

Ko‘rinib turibdiki, she’riy matnni quruq yodlagan holda ma’nosini to‘liq anglamay yoki tushunmay kuylayverish ma’qul emas ekan.

Endi “o‘rtar” so‘zining ma’nosiga kelsak, bu so‘zga izohni Mahmud Koshg‘ariy bobomizdan topamiz: “o‘rtandi – kuydi, yondi. Kun botgandan so‘ng bulut qizarsa *bulut o‘rtandi* deyiladi. Turklar buni yaxshilikka yo‘yadilar” [3].

Alisher Navoiy asarlarida ham ayni shu ma’nolarda qo‘llanganligini kuzatish mumkin: “o‘rt 1. Kuyish, yonish, o‘rtanish; 2. O‘t, alanga. 3. Tutun; *O‘rt solmoq* – O‘t solmoq; o‘rtamoq, yondirmoq;

Barqi ishqing solibon jonimg‘a o‘rt,
Shu’lasi obodu vayronlarg‘a o‘rt. (L.T.)

O‘rtanmak 1. Kuymoq; 2. Maj. Azobda ezilmoq;

Ko‘nglum o‘rtansun agar g‘ayringg‘a parvo aylasa,
Har ko‘ngul ham kim, sening shavqingni paydo aylasa. (G‘.S.)”.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ham mazkur so‘z quyidagicha izohlangan: *“O‘rtamoq* 1 O‘t olmoq; yonmoq, yondirmoq. 2 *ko‘chma* Nihoyat darajada qizdirmoq; kuydirmoq. 3 *ko‘chma* Ruhiy alam – iztirobga solmoq; kuydirmoq. *Yurakni o‘rtamoq. Jonni o‘rtamoq*”.

“O‘rtamoq” so‘zining ham tarixiy, ham zamonaviy lug‘atlardagi sharhlari orqali uning ma’no ko‘lamida deyarli o‘zgarish bo‘lmaganini ko‘rishimiz mumkin. Faqat bu so‘z bugungi tilimizda o‘z faolligini yo‘qotgan.

Sarimsoq so‘zining etimologiyasi ham ancha qiziqarli. Bu so‘z ham qadimgi sanaladi. Mahmud Koshg‘ariyda qayd etib o‘tilgan: *“surmusaq – sarimsoq. Samursaq* shakli ham bor” [3]. Ushbu satrlarning yozilganiga ham ming yildan ortiq vaqt o‘tdi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da bu so‘zga quyidagicha izoh berilgan: *SARIMSOQ 1* Piyozlar turkumiga mansub, ikki yoki ko‘p yillik o‘simlik va uning ovqatga ishlatiladigan o‘tkir hidli, achchiq piyozi; sabzavot ekini. *Sarimsoq, rayhon hidi dimoqqa urildi. O‘.* Umarbekov, Yoz yomg‘iri.

*Sarimsoq piyoz ayn***.** *sarimsoq 1. Oldiga yoyib qo‘ygan yaxna go‘sht, shokolad, sarimsoq piyoz, olmalarni bitta-bitta lunjiga tiqardi.* S. Ahmad, Saylanma.

2 Sarimsoq (erkaklar ismi).

“O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da o‘qiymiz: “SARIMSOQ “piyozsimon ko‘pyillik o‘simlik”. *Bultur sarimsoqning narxi ko‘tarilib ketdi.* Bu yerda qadimgi turkiy tildagi *“o‘ra-”* ma’nosini anglatgan *saru-* fe’lidan *-m* qo‘shimchasi bilan ot yasalgan va unga *-sa* qo‘shimchasi bilan fe’l yasalgan, keyin bu fe’ldan *-q* qo‘shimchasi bilan yana ot yasalgan; eski o‘zbek tilida *u* unlisi *ы* unlisiga almashgan; keyinchalik *ы* unlisining qattiqlik belgisi yo‘qolgan, birinchi *a* unlisi *ä* unlisiga, q undoshi oldidagi **a** unlisi *ä* unlisiga almashgan: *[(saru– + m = sarum) + sa = sarumsa–] + q = sarumsaq > sarыmsaq > särimsâq.* Qadimgi turkiy tilda bu so‘zning tovush jihatdan o‘zgargan *sarmusaq, samursaq* shakllari mavjud bo‘lgan. Bu shakllarning birinchisida *um*

tovushlari, ikkinchisida *r* va *m* tovushlari o‘rin almashgan. O‘zbek tiliga bu so‘zning yuqoridagicha tovush almashuvlariga uchramagan ilk shakli yetib kelgan”.

Bugungi turk tilida ham uning *sarmisaq* (sarmısak) shakli faol qo‘llanadi. “Turk tilining etimologik lug‘ati”da bu so‘zga shunday tahlil berilgan: *“SARMISAK”*, eski turkiy so‘z bo‘lgan *“sarimsaq”* dan tovush almashishi natijasida *sarmisaq* bo‘lgan. So‘zning o‘zagi *sari* bo‘lib, unga *m-saq* qo‘shimchalarining qo‘shilishi bilan yasalgan. Bunday usulda so‘z yasalishi turkiy tillarga xosdir. Osiyo turkiy tillarida *sarmisaq* ma’nosini ifodalashda *sarmusaq, samursaq* so‘zlari ham bor. So‘zning asosi *sam* emas *sar* dir”. Eski turkchada faol bo‘lgan *sarmak* fe’li hozirda ham keng muomalada bo‘lib, *o‘ramoq, bog‘lamoq, quchoqlamoq, qoplamoq, tirmashmoq, atrofini aylanib chiqish, yo‘lini yopib qo‘ymoq* kabi ma’nolarni ifodalashda qo‘llanadi. Demak, *sarimsoq* so‘zining yasalishida eski turkchada va o‘zbekchada mavjud bo‘lgan *“o‘ra”* ma’nosini anglatgan *sari* fe’li asos hisoblanadi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida *sari* fe’li muomalada mavjud emas. Tilimizda muomalada bo‘lib turgan *sari* so‘zi butunlay boshqa ma’nolarda, ya’ni:

CARI I a) ko‘makchi sifatida ma’lum tomonga qarab. Insof sari baraka; b) *sayin* (kun sayin).

SARI II Eng yaxshi, sara.

SARI III Sariq, sariq rangli.

SARI IV Hind ayollarining yubka shaklida belga bir necha bor o‘ralib, bir uchi ro‘mol qilib boshga tashlab qo‘yiladigan kiyimi ma’nolarida qo‘llanadi.

Keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, hozirgi o‘zbek adabiy tilida *o‘ramoq, bog‘lamoq quchoqlamoq, qoplamoq* kabi ma’nolardagi *sarmoq* fe’li mavjud emas. Bu so‘zning fe’l shakli eski o‘zbek tili uchun xosdir, lekin ushbu fe’ldan yasalgan *sarimsoq* so‘zi tilimizda faol qo‘llanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Воҳидов Э. Сўз латофати. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. –Б. 5.

2. Расулов Ў. “Сўзи росту, аммо...” // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси, 2018, - 12 октябрь.

3. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. 1-жилд. – Тошкент: Фан, 1971.

XATBOSHINING NUTQ BIRLIGI SIFATIDAGI TAVSIFI VA XATBOSHI SATHI XUSUSIDA

Xayrullayev Xurshidjon,
SamDCHTI, filologiya fanlari doktori, professor
Zayniyeva Madina,
SamDCHTI tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada nutqning muhim sintakik qismlaridan biri bo‘lgan abzatsning struktur xususiyatlari xususida fikr yuritiladi. Xususan, xatboshining lingvistik xususiyatiga ko‘ra sintaktik qurilmadan ajralib turishi tufayli nutqning alohida sathini tashkil etuvchi birlik sifatida tadqiq etilishi haqida mulohaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: nutqning birligi, gap, jumla, murakkab sintaktik qurilma, xatboshi, sathlar, paradigmatik munosabat, sintagmatik munosabat, iyerarxik munosabat, til va nutq birliklari, til strukturasi, til belgisi, til birligi, sath tushunchasi, sathlarning asoslanishi, sintaktik derivatsiya.

Nutqning murakkab sintaktik qurilmalardan katta sathi xatboshidir. Xatboshi ham nutqda shakllanadi va shu bois uni biz nutq birligi tarzida talqin etmoqdamiz. Ayni paytda shuni ham aytish lozimki, murakkab sintaktik qurilma ham, xatboshi ham o‘z struktur xususiyatiga ko‘ra nutqning minimal birligi – gapdan farq qiladi. Ravshanki, gap strukturasini til birliklari, xususan, so‘zlar majmuasi tashkil etadi. Murakkab sintaktik qurilma hamda xatboshi strukturalarini esa nutq birliklari shakllantiradi. Boshqacha aytganda, ularning qurilish materiali sifatida, asosan, nutq birligi – *gap* faollik ko‘rsatadi. To‘g‘ri, xatboshining shakllanishida ayrim nutq muhitida murakkab sintaktik qurilmalar qatnashishi ham kuzatiladi. Lekin bu, birinchidan, doimiy emas, ikkinchidan, murakkab sintaktik qurilmaning ham qurilish materiali gapdir.

Xatboshi o‘z lingvistik maqomiga ko‘ra murakkab sintaktik qurilmadan bir pog‘ona yuqori turadi. Biroq shunisi xarakterliki, murakkab sintaktik qurilma kamida ikki gapning o‘zaro bog‘lanishidan tashkil topadi. Xatboshi esa bir gapdan iborat bo‘lishi ham mumkin. Bu jihatlariga ko‘ra mazkur nutq birliklari so‘z birikmasi va gap o‘rtasida mavjud bo‘lgan struktur tafovutni takrorlaydi.

Xatboshi necha komponentli bo‘lishidan qat’i nazar, har doim ham fikr ifodasining tugalligini ko‘rsatavermaydi. Ba’zan tugal fikr ifodasi ikki xatboshi materialida berilishi ham mumkin [Sh.Turniyozova 2007: 45-46]. Bu uning doimiy bir xil bo‘lgan modeli yo‘qligini ko‘rsatadi. Ana shuni e’tiborga olib, O.I.Moskalskaya uni til birligi deb atab bo‘lmaydi, degan xulosaga keladi. Bundan tashqari, O.I.Moskalskaya abza hajmi bir gapdan tortib, bir necha sahifagacha etishini ham eslatib o‘tadi [O.I. Moskalskaya 1981: 31-32].

O.I.Moskalskaya xatboshining nutq birligi ekanligi masalasiga ishora qilgan bo‘lsa ham, buni ro‘yirost aytmaydi. A.G. Fridman esa uni nutq birligi tarzida tavsiflaydi [A.G.Fridman 1984: 30-52]. Ammo, ba’zi tilshunoslar xatboshini kengroq ma’noda til va nutq birligi deb ham biladilar. Bunday fikr vetnamlik tilshunos Chan Ngok Txemning ishlarida uchraydi.

Bizningcha, mazkur mulohaza bilan qo‘shilish mumkin. Chunki, nafaqat xatboshi, balki sintaktik strukturalarning barchasi material jihatidan tilga tegishlidir. Ularning konkret tarzda amalda qo‘llanishi esa nutq bilan bevosita bog‘lanadi. Chan Ngok Txemning mazkur mulohazasida aynan ana shu narsa nazarda tutilmoqda. E.A.Referovskaya esa xatboshini stilistik-semantik birlik deb ta’riflaydi [E.A.Referovskaya 1983:91]. Bunday mulohazani M.Yo‘ldoshevning tadqiqot ishida ham kuzatamiz. Olim xatboshini kompozitsion stilistik usul deb ko‘rsatadi [M.Yo‘ldoshev 2008: 77]. Bu o‘rinda, albatta, uning sintaktik tabiati e’tibordan chetda qoladi. Shuning uchun xatboshini biz sintaktik birlik deb atash maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Ayyub G‘ulomov ham xatboshini sintaktik birlik sifatida tavsiflagan edi: “Tekst – yirik nutq parchasi, xatboshi esa tekstning bo‘lagi. Tekstning hamma ko‘rinishlari ...ma’lum bir temani tugal ifodalaydi. Demak, u – yuqori darajadagi sintaktik birlik” [A.G‘ulomov, M.Asqarova 1987: 7].

Xatboshi o‘z lingvistik tabiatiga ko‘ra murakkab sintaktik qurilmadan ajralib turadi. Buni N.A.Levkovskaya quyidagilarda ko‘rish mumkinligini ta’kidlaydi: a) xatboshi matnning muallif (so‘zlovchining) pragmatik nuqtayi nazaridan sub’ektiv bo‘linishidir; b) murakkab sintaktik qurilma esa matnning pragmatik omillari qurshovidagi bo‘linishni taqozo etadi [N.A.Levkovskaya 1990:75].

Ana shulardan kelib chiqib, xatboshini nutqning alohida sathini tashkil etuvchi birlik sifatida tushunamiz. Buning uchun quyidagilarga asoslanish mumkin: 1. Xatboshi nutq jarayonida shakllanadi. 2. So‘zlovchining nutqiy uslubi mahsuli sanaladi. 3. Nutqning gap, murakkab sintaktik qurilma va jumla (turli xil sintaktik qurilmalar, ilovali va partsellyativ strukturalar, elliptik qurilmalar va h.k.) kabi birliklari vositasida voqelanadi.

Gap nutq birligidir. U real qo‘llanilganda chap tomondan til birliklari bilan, o‘ng tomondan esa nutq birliklari bilan uzviy munosabat tashkil etadi. Biroq tilshunoslik adabiyotlarida gapni til birligi tarzida tavsiflash hollari ham ko‘p kuzatiladi. Bunday vaziyat birinchi galda til bilan nutq hodisalarini keskin farqlamaslik sababli vujudga keladi. Fanimiz taraqqiyotining bugungi davrida nutq lingvistikasi alohida faoliyat ko‘rsatayotgan ekan, uning birliklarini qat’iy va aniq belgilab olish davr talabidir. Ana shundan kelib chiqib, mazkur ishimizda nutq birliklari jumlasiga gap, murakkab sintaktik qurilma va xatboshini kiritishni maqsadga muvofiq deb topdik. Biroq gapning struktur sxemasi til birligidir. U tilimizda tayyor holda mavjud bo‘lgan gap modellarini taqozo etadi.

Xatboshi nutqning makrobirligidir. Albatta, bob xatboshidan katta birlik hisoblanishi mumkin. Lekin, ba’zi makromatnlar boblarga bo‘linmaydi (masalan, hikoyalar, ocherklar). Shu bois nutqning makro birligi xatboshiga tegishlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 1987.

2. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. –Тошкент, 2008.

3. Левковская Н.А. В чем различие между сверхфразовым единством и абзацем // Филол.науки, 1990, №7.-С.75.

4. Москальская О.И. Грамматика текста. –М., 1981.

5. Реферовская Е.А. Лингвистические исследования структуры текста. –Л.,1983.

SHUKUR XOLMIRZAEVNING BADIIY MATNDA SO‘ZDAN FOYDALANISH MAHORATI

Hamidova Muhayyoxon,
filologiya fanlari nomzodi, professor v.b.,
Namangan davlat universiteti,
muhayyoxon@gmail.com

Annotatsiya. Shukur Xolmirzayev o‘ziga xos shaxsiy badiiy uslub sohibi sifatida tanqidchilikdan, biryoqlamalikdan, bayonchilikdan qochadi. So‘zga xasis bo‘lsa-da faqat o‘quvchiga to‘la va yorqin yetkazishga erishadi. Biroq ba’zan uning asarlari tugallanmagandlek taassurot uyg‘otadi. O‘quvchi asar davomini kutadi. Qahramonlar portretini chizmaydi, asosiy e’tiborni xarakter yaratishga qaratgandek ko‘rinadi. Bu esa o‘quvchini o‘ylashga, chuqur mulohaza qilishga undaydi. Asar qahramonlari ustidan chiqarilgan hukm o‘quvchi e’tiboriga havola etiladi. Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayevning badiiy matnda so‘zdan foydalanish mahorati xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: badiiy niyat, ijodiy jarayon, badiiylik, yozuvchi mahorati, so‘z san’atining o‘rni, badiiy-tasviriy vositalar, adabiy til, badiiy asar tili, umumxalq tili, so‘z va uning badiiy matndagi o‘rni, so‘z vositasid, tasviriy vositalar.

Shukur Xolmirzayev serqirra ijodkor. U hikoya, qissa, romanlar bilan birga, drama va esselar muallifi hamdir.

Ma’lumki, har bir xalqning, har bir millatning o‘z milliy madaniyati va milliy tili mavjud. Uning rivojlanishi va shakllanishida adabiyotning roli kattadir. Badiiy adabiyot qahramonlar hayotini tasvirlash, o‘y-kechinmalari, orzu-intilishlarini ochishda tilning ahamiyati kattadir. O‘zbek adabiyotida har bir iste’dodli yozuvchining so‘zdan foydalanish mahorati va uslubi o‘ziga xosdir.

Shukur Xolmirzayev ijodining o‘ziga xosligi uning asarlari tilida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Badiiy asar tilida yozuvchining tildan foydalanishdagi o‘ziga xos poetik mahoratini aniqlash uchun avvalo, adibning tilga bo‘lgan munosabatini kuzatish lozim. Adib bu xususda shunday degan edi: “Biz bitta adabiy tilni qabul qilganmiz, Haqiqiy adabiy til bu Andijon tili. Cho‘lponning tili. Men o‘zim yozganimda hamma vaqt muallif tilida, sof Andijoncha yozishga harakat kilaman. Ammo qahramonlarim o‘z-o‘zicha. Lekin adabiy tilga har narsani tiqishtirishni yoqtirmaganimdek, badiiy asar tilini ham buzishni xohlamayman”.[2: 109.]

Darhaqiqat, hozirgi tez o‘zgarayotgan globallashuv davrida o‘zbek tilining o‘ziga xos betakror xususiyatlarini saqlab qolish, uni kelajak avlodga beshikast yetkazish bizning ajdodlarimiz va kelgusi avlod oldidagi muqaddas burchimizdir.

Tarixga nazar tashlasak, asrlar, davrlar o‘tishi bilan ko‘plab tillar iste`moldan chiqib, “o‘lik til”ga aylanganini ko‘ramiz. Lotin, oromiy, qadimgi yunon, kelt, shumer, akkad, xett tillari... Ular qatori bir paytlar yurtimiz hududida muomalada bo‘lgan qadimgi xorazmiy, so‘g‘d, boxtariy (baqtriy) tillarini ham keltirish mumkin. Turli bosqinlar, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, avlodlar, din va mafkuralar almashuvi singari omillar tillarning taqdirida hal qiluvchi rol o‘ynagan. Bu jarayon bugungi kunda ham davom

etmoqda. Har ikki haftada 1 ta til o‘lik tilga aylanmoqda. Bu holat har bir til egalarini sezgirlikka chaqiradi.

O‘zbek tili davlat tili maqomiga ega bo‘lgan 100 ta tildan biridir. Holbuki, dunyoda bunday yuksak maqomga ega bo‘lmagan, ammo yuz millionlab kishilar so‘zlashadigan tillar ham bor. O‘zbek tili qo‘shni davlatlarda ham muomaladagi asosiy tillardan sanaladi. Xususan, qo‘shni Tojikistonda va Qirg‘izistonda o‘zbeklar tub millat vakillaridan keyingi o‘rinda turadi. Afg‘onistonda esa o‘zbek tili pushtu va dariy tillaridan keyingi uchinchi rasmiy til sanaladi.

O‘zbek tili qadimiy va boy tarixga ega bo‘lib, uning shakllanishida miloddan oldingi va miloddan keyingi dastlabki asrlarda mintaqamiz hududida yashagan baqtriylar, so‘g‘diylar, xorazmiylar hamda boshqa elat va millatlar o‘z ta’sirini ko‘rsatgani haqida mavjud ilmiy manbalar dalolat beradi.

O‘zbek tilining har tomonlama taraqqiy topishi va adabiy til sifatida maydonga chiqishida qadimiy turkiy til katta hissa qo‘shganini, shuningdek, yozuvchi, shoirlarni alohida ta’kidlash tabiiydir.

Mustamlaka tuzumining tazyiqlariga qaramasdan, o‘z hayotini xalqimizning ma`naviy kamolotiga, ona tilimizning ravnaq topishiga bag‘ishlagan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy kabi ulug‘ ma’rifatparvarlarning ulkan xizmatlarini, bu yo‘lda haqiqiy vatanparvar, yurtparvar, millatparvar sifatida iz qoldirgan ziyoli insonlarning nomlarini el-yurtimiz doimo hurmat bilan eslaydi.

1989-yil 21-oktabrda o‘zbek tiliga “Davlat tili” maqomining berilishi o‘zbek tili taraqqiyoti uchun tub burilish yasadi. Yurtimizda mustabid tuzum hali o‘z hukmini o‘tkazib turgan g‘oyat og‘ir sharoitda xalqimizning taqdiri va kelajagini hal qiladigan qonunni qabul qilinishida O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti muhtaram Islom Abdug‘aniyevich Karimovning siyosiy irodasi katta o‘rin tutdi.

Mustaqillik yillarida o‘zbek tilining qadri yana baland bo‘ldi. Davlatimiz mustaqilligi aynan ona tilimizda jahonga e’lon qilindi; mamlakatimizning Asosiy qonuni – Konstitutsiyamiz o‘zbek tilida yaratildi, yurtimiz bo‘ylab va xalqaro maydonlarda Davlat madhiyamiz ona tilimizda yangramoqda.

Shuningdek, 1990-yili Vazirlar Mahkamasining “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonunni amalga oshirish davlat dasturi to‘g‘risida”gi qarori, 1993-yilda “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonun, 1995-yili “Davlat tili haqida”gi qonunning yangi tahriri, 1996-yili ushbu qonunni amalga oshirishga qaratilgan davlat dasturiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish haqida Vazirlar Mahkamasining qarori va shu kabi boshqa hujjatlar qabul qilingani bu borada muhim ahamiyat kasb etdi.

Hozirgi kunda o‘zbek tili davlat tili sifatida siyosiy-huquqiy, iqtisodiy-ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy hayotimizda faol qo‘llanmoqda, xalqaro minbarlardan baralla yangramoqda.

Davlatimizda kitobxonlik madaniyatini oshirish bo‘yicha qabul qilingan farmon va qarorlar o‘zbek tili ravnaqiga bevosita xizmat qilmoqda.

2020-yilning 23-sentabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 75-sessiyasida o‘zbek tilida nutq

so‘zladi. Bu chinakam tarixiy hodisa edi. Davlatimiz rahbari o‘z tilimizda butun dunyoga mustaqil mamalakatning o‘z tilida dunyoga aytar so‘zi borligini namoyon qildi.

Shu bilan birga, 2020-yil noyabr oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonni imzoladi. O‘zA xabariga ko‘ra, farmon bilan 2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish kontsepsiyasi hamda asosiy yo‘nalishlari tasdiqlangan.

Ushbu farmon imzolangandan so‘ng o‘zbek tiliga e`tibor yanada ortdi.

Bu borada o‘z asarlari bilan o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos o‘rin tutgan ijodkorlarni aloqida e`tirof etmaslik mumkin emas. Shu o‘rinda O‘zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayevning xizmati va qoldirgan merosi muhim o‘rin egallaganini alohida qayd etish joiz.

Darhaqiqat, Shukur Xolmirzayev o‘zbek adabiyotimiz tarixida chuqur iz qoldirgan ijodkordir. Shunga ko‘ra adib asarlarining tilini o‘rganish *birinchidan,* adibning badiiy til mahoratini belgilash imkoniyatini bersa, shu bilan birga, uning tilimiz rivojiga qo‘shgan hissasini aytish, baholash imkoniyati paydo bo‘ldi. *Ikkinchidan,* mullifning tilshunosligimiz taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini bekamu-ko‘st aytib o‘tish joiz bo‘ladi. Uning asarlari qanday janrda yozilgan bo‘lmasin xalqona ohanglarda bitilganligi bilan boshqa ijodkorlar uslubidan ajralib turadi. Ana shu o‘ziga xoslikni ta’minlovchi badiiy til vositalari, shubhasiz, yozuvchining o‘zbek umumxalq tili vositalaridan unumli va o‘rinli foydalana bilishida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek tilshunosligida badiiy asar tilini o‘rganish borasida talaygina ishlar yaratilgan va yaratilmoqda. [1:13] Ayniqsa, keyingi yillarda bu sohada qilinayotgan ishlar diqqatga molikdir. Aytish mumkinki, Shukur Xolmirzayev asarlari tilining o‘ziga xos tomonlari u yoki bu tomonlama o‘rganilgan.[4: 34-36]

Shukur Xolmirzayev ijodi o‘rganilayotganda, shubhasiz, yozuvchining bu boradagi izlanishlari o‘ta darajada mukammal ekanligi bilan xarakterlanadi. Yozuvchi asarlari tilini qunt bilan o‘rganish jarayonida shu narsaga amin bo‘lamizki, uning tili sodda, ravon, xalqona va tushunarlidir. Bu, shubhasiz, muallifning umumxalq o‘zbek tili vositalarini sinchkovlik bilan tanlay bilish mahoratidan darak beradi. Bu sinchkovlik, albatta, har bir ijodkorga taalluqli bo‘lgan ish.

Shukur Xolmirzayev– xalqchil yozuvchi. U xalqning tilini yaxshi bilgan, xalq tiliga hamohang bo‘lgan ijodkordir. Shuning uchun ham yozuvchi asarlari tili xalqona ohangda yo‘g‘rilgan. Bu, shubhasiz, yozuvchi asarlari tilining sodda, ravon, tushunarli bo‘lishini ta`minlagan. Xususan, yozuvchining badiiy til lingvopoetikasiga aloqador bo‘lgan *“Og‘ir tosh ko‘chsa”, “So‘nggi bekat”,“Qil ko‘prik”, “Bodom qishda gulladi”, “Qushlar qishlovdan qaytdi”, “Navro‘z, Navro‘z”* kabi hikoyalari tilini o‘rganish jarayonida buning bevosita guvohi bo‘lamiz.

Shukur Xolmirzayev o‘ta nozik didli yozuvchidir. U har bir so‘zni nozik did, kuzatuvchilik bilan tanlaydi. Shuning uchun ham yozuvchi asarlari tili ohangdor va jozibadordir. Xullas, yozuvchining ijodi serqirra va serbo‘yoqdir, shunga ko‘ra yozuvchi asarlari tili o‘ziga xos ohangda ifoda etilganlik nuqtai nazaridan ham ajralib turadi.

Shukur Xolmirzaev ijodini o‘rganish jarayonida yozuvchining o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan lug‘aviy va uslubiy vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash

imkoniyatiga ega bo‘lamiz.. Ta’kidlash joizki, yozuvchi umumxalq tilida mavjud barcha lug‘aviy va uslubiy vositalardan mohirlik bilan foydalangan. Ayniqsa, uning badiiy til tasviriy vositalaridan foydalanishi, og‘zaki nutqqa xos so‘zlarni ishlatishda topqir va zukkoligi, yangi so‘z va iboralarni ishlatishi, shuningdek, frazemalardan foydalanish mahorati xarakterlidir.

Badiiy asar uchun so‘z asosiy ozuqa manbai hisoblanadi. So‘z badiiy asarni jonlantiradigan, unga jilva beradigan, rang-barang manzara hosil qiladigan bezakdir. So‘z va uning badiiy matndagi o‘rni hamda badiiy asarga yangicha mazmun baxshida etishi ko‘plab tilshunos olimlar izlanishlarida o‘z ifodasini topgan. Xullas, so‘zdan nechog‘lik yoki qay yo‘sinda foydalanish badiiy asar uchun bitmas-tuganmas boylikka ega. Shukur Xolmirzayev so‘z san’atkori sifatida har bir so‘zdan unumli va o‘rinli foydalanadi, nima demoqchi bo‘lsa, albatta, o‘z fikrini so‘z bilan bayon etadi. Shuning uchun ham yozuvchining har bir asarining tili puxta, sodda, ravon hamda o‘qilishi tushunarliligi bilan xarakterlanadi. Shukur Xolmirzayev hikoyalari tiliga nazar tashlar ekanmiz, *birinchi navbatda* yozuvchining aytayotgan fikrini qisqa, ixcham, lo‘nda bayon etayotganligidan voqif bo‘lamiz. Qisqalik esa asarning yanada mazmunini oshiradi, o‘quvchini ko‘plab mushohada yuritishga jalb etadi. *Ikkinchidan,* asar tilida ishlatiladigan har bir so‘zni o‘z o‘rnida qo‘llay biladi, unga turlicha bezak berib asar tilining ohangdor, jozibador bo‘lishiga erishadi. Pirovardida o‘quvchining asar mazmunini o‘z-o‘ziga singdirib olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Xullas, yozuvchi asarlarida so‘z asosiy vosita sifatida ishlatiladi.

Shukur Xolmirzayev hikoyalari tilini qunt bilan o‘rganish jarayonida shu narsa ma’lum bo‘ladiki, yozuvchi har bir so‘zni ishlatishda undan ma’lum bir maqsadlarni ko‘zlaydi. Yangicha ma`no qirralarini ochishga harakat qiladi. Natijada asar tilining rang-barangligiga erishadi.

So‘z umuman nutqning, shuningdek badiiy asarning ham asosiy ifoda vositasi bo‘lib, yozuvchining maqsadi, xatti-harakati, intilishlari, qolaversa obraz yaratishdagi badiiy mahorati ham shu bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. So‘z kishining aloqa vositasi sanalgan tilning ham asosiy elementidir. Shunday ekan har bir san’atkor hayotni, voqelikni obrazli tasvirlashda so‘zlardan unumli foydalanadi.

Demak, badiiy nutq tushunchasi barcha xalqlarda bir xil, biroq har bir xalqning o‘ziga xos urf-odatlari borligi, yashash tarzi har xil bo‘lgani uchun ham badiiy nutq turlicha nomoyon bo‘ladi. Adib hikoyalarining tili ana shunday xalq an’analari, uning urf-odatlari, yashash tarzi, xalqning butun orzu umidlari zamirida shakllangani ham fikrimizga asos bo‘ladi. Binobarin, tilda xalq gapiradi, shuning uchun ham, uning vakili bo‘lmish san’atkor qanday xohlasa, shu tarzda o‘z fikrini so‘z bilan ifodalaydi. Shukur Xolmirzayev o‘z hikoyalari tilini boyitish, uning barkamol bo‘lishini ta’minlash uchun ham xalq tiliga murojaat qiladi.

Har bir so‘zning ma’naviy jihatini o‘rganish jarayonida uning ma’nosi qay darajada ifoda usuliga ega bo‘lishi va bo‘lmasligiga qarab talqin qilinadi. Masalan, kambag‘al va gado so‘zlari ma’no jihatdan farqlanadi. Chunki kambag‘al so‘zi og‘zaki nutqqa xos bo‘lib, gado so‘zi esa kitobiy nutqqa taalluqlidir. Ayni paytda kambag‘al so‘ziga nisbatan gado so‘zining salbiy ma’nosi kuchlidir. Masalan, “shunday deb, u turmushning har qalay “yomon tomonlari” ko‘pligini esladi. Kambag‘al, gadolar ko‘p edi.[6:12]

Umuman, ushbu matnda kambag‘al, gado so‘zlari o‘zaro sinonim so‘zlar sifatida qo‘llangan va ta’kidni kuchaytirish uchun foydalanilgan.

So‘z inson ma’naviyatining bitmas-tuganmas xazinasi sifatida namoyon bo‘lar ekan, yozuvchilar o‘z qahramonlarining xarakterining ochishida so‘zning u yoki bu xususiyatlaridan unumli foydalanadilar. Ba’zan badiiy matnlarda so‘zning ana shunday odamga ozuqa berishi, kayfiyat va ruhiyatini ko‘tarishini ko‘ramiz. Bunday misollar Shukur Xolmirzayev badiiy prozasi tilining o‘ziga xos ifodaviyligini uyushtirishga ham xizmat qilgan: “qulluq, qulluq, boshim osmonga yetdi, jon uka. Yanagi shanba. Soat oltilarda. Ishdan chiqadigan paytimizga to‘g‘ri keladi.”(“Og‘ir tosh ko‘chsa”) ushbu matndagi talaygina so‘zlar kishiga ma’naviy ozuqa beradi, chunki har bir so‘zda hurmat, izzat, iftixor kabi ma`nolar mujassam etilgan. Xususan, qulluq, qulluq takror so‘zlari boshim osmonga yetdi, jon, uka kabi birikmalarda sevinmoq, suyunmoq ma’nolari bor. Bunday so‘zlarning matnda shu tarzda qo‘llanishi faqat asar tilining o‘zigax osligini ta`minlabgina qolmaydi, balki so‘zlovchi tomonidan tinglovchiga ma’naviy ozuqa beradi. Demak, so‘zdan o‘rinli va unumli foydalanish, xususan inson nutqida doimo yaxshi va ijobiy so‘zlarning namoyon bo‘lishi inson ma’naviyatiga ijobiy ta`sir etib boradi. Badiiy adabiyot tilida so‘zdan oqilona foydalanish natijasida badiiy matnning ta’sirchanligi oshadi va kishining diqqatini o‘ziga jalb etadi.

Hikoyachilikda Abdulla Qodiriy va Abdulla Qahhor an`analarini yangi bosqichga ko‘tarishda Shukur Xolmirzayevning o‘ziga xos o‘rni bor. Masalan, Shukur Xolmirzayevning qahhorona uslubda yozilgan “Podachi” nomli hikoyasi bor. Kimdir bu fikrga qo‘shilar, balki qo‘shilmas, biroq shu hikoya yaratilishiga Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri”si kuchli ta’sir etgan, deyish mumkin. Yaqinlik ikkala hikoyada ham gap ho‘kiz to‘g‘risida borganida emas, albatta. Gap badiiy mantiq yaqinligi va mushtarakligida, xarakter yaratish borasida ustoz adib ijodiy prinsiplarining shogird tomonidan rivojlantirilishida.[3: 499]

“Podachi”dagi Ostonaqul chol jamoa xo‘jaligidagi ho‘kizning harom o‘lishiga sababchi bo‘ladi. E’tiborsizlik yoki o‘z ishiga sovuqqonlik tufayli emas, yo‘q, aksincha. Bu ho‘kiz ko‘p yillar davomida Ostanaqul cholning og‘irini yengil qilgan, qanchadan-qancha qayg‘u-quvonchlariga sherik bo‘lgan. Qisqa qilib aytganda, ko‘pdan-ko‘p shirin va achchiq xotiralariga guvoh. Shu ho‘kiz bexosdan qattiq kasallanadi-yu jon talvasasiga tushadi. Qani endi, Ostonaqul cholning so‘yishga qo‘li borsa. Chol bir necha bor bu ishga jahdlanadi ham, lekin yuragi betlamaydi. Oqibatda, podachi Ostonaqul jamoa xo‘jaligiga ho‘kiz xunini to‘lashga majbur bo‘ladi. Mana bu lavhada endi biz kitobxonga kuchli ta’sir etuvchi asarning ikkinchi magnit maydonchasiga duch kelamiz.

“Bo‘lim boshlig‘i inqillab o‘rnidan turdi:

- Ota, gap tamom. Ho‘kizning pulini to‘laysiz!- U atrofdagi kishilarga ham bir-bir qarab oldi.- Qasdddan o‘ldirgan hisoblanadi... Kelishdikmi, ota?

Ostonaqul chol sekin boshini ko‘tardi:

- Xo‘p, o‘g‘lim, to‘laymiz.

- Kechiktirmang faqat! Kambag‘al emassiz, belingiz baquvvat, qarindosh-urug‘laringiz bor. Kampiringizniyam yig‘ib qo‘ygani bordir? Shunday bo‘lsin... Majlis tamom!”[5: 300]

Sekingina boshini ko‘tarib, siniq bir ovozda ho‘kiz xunini to‘lashga rozilik bildirayotgan chol bizga avvaldan biroz tanishga o‘xshaydi. Ushbu o‘rinda Qobil boboni k’rgandek bo‘lamiz. Sho‘rlik kampirlar hayot shomida besh-o‘n tangani nimaga deb yig‘adi, barchaga ma’lum bu. Ana shu tugib o‘limligiga yig‘ganini tortib olayotgan basharalar- bizga tanish. Qobil boboning yo‘qolgan ho‘kizini topib beraman, deb uni battar adoyi-tamom qilganlar bilan majlis o‘tkazib, Ostonaqul cholga hukm chiqarayotganlar ikki zamonning bir xil tiplari emasmi, “O‘g‘ri” dagi ho‘kizni topib berish tadrigini ko‘ruvchilarning Qobil bobo qalbi bilan bir mirichalik ishlari bo‘lmagandek, “Podachi”dagi Ostonaqul cholning shu holatdagi qalbi-yu, ho‘kizning bevaqt o‘lib qolish sababini aniqlash bilan bu boshliqvachchalarning ham necha pullik ishi bor?

Shukur Xolmirzayev Abdulla Qahhordan so‘z tejash, detallarga katta ma’nolar yuklash, qahramon ruhiyatida kechayotgan ziddiyat, to‘qnashuvlarni sodda va hayotiy qilib, ixcham tasvirlash, dialoglardan jonli manzara yaratish sirlarini o‘rgandi. Biroq, bu ta`sirni faqat tashqi ko‘rinishdan izlamaslik kerak. Bu ta’sirni qahramonlar ruhiy dunyosini aks ettrishdagi badiiy prinsiplar mushtarakligidan izlamaslik kerak.

Umuman olganda, Shukur Xolmirzayev ijodini tahlil qilish orqali quyidagi xulosaga kelish mumkin:

1.Shukur Xolmirzayev umumxalq o‘zbek tili imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanadi. Shubhasiz, bu jarayon yozuvchi asarlari tilining rang-barangligini ta`minlashga xizmat qilgan.

2.Shukur Xolmirzayev har bir so‘zdan, so‘z vositasidan unumli va o‘rinli hamda maqsadga muvofiq foydalanadi. Shubhasiz, bu jarayon muallif hikoyalari tilini sodda, ravon, qisqa, ixcham va tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi.

Shukur Xolmirzayev o‘zbek tili tasviriy vositalarini ishlatishga alohida ahamiyat beradi, shuning uchun ham asarlari tili badiiy ko‘lamdorlik nuqtai nazaridan ko‘tarinkilik, tantanavorlik ruhi bilan sug‘orilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Djalalova L.Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanining lingvistik tadqiqi. Filol. fanlari. nomz. diss..avtoref. – T., 2007

2. Doniyorova Sh. Shukur Xolmirzaev hikoyalarining badiiy-uslubiy o‘ziga xosligi: Filol.fanlari nomzodi... diss. – Toshkent, 2000. – B.130.

3. Karimov N. va boshqalar. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi: universitetlar va pedagogika institutlari bakalavr ixtisosini oluvchilar uchun darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999. – B. 544.

4. Mahmudov N.Abdulla Qahhor hikoyalarining lingvopoetikasiga doir. // O‘zbek tili va adabiyoti, 1987. №4. – B. 34-36.

5. Xolmirzayev Sh. Tanlangan asarlar: III jildlik. 1-jild: ikoyalar. – Toshkent: Sharq, 2003. – B. 300.

6. Xolmirzayev Sh. Qil ko‘prik: Roman. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1984.

O‘ZBEK ISMLARI TADQIQIGA DOIR

Saparniyazova Muyassar,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti
saparniazovamuassar@gmail.com
Mahmudov Uchqun,
Vazirlar Mahkamasining Ma’naviyat
va davlat tilini rivojlantirish masalalari
departamenti bo‘lim boshlig‘i

Annotatsiya. O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeyi va nufuzini oshirish borasida bugungi kunda yechimini kutayotgan qator dolzarb muammolar mavjud. Jumladan, o‘zbek ismlarining izohli hamda imlo lug‘atlarini yaratish va lug‘atlardan foydalanishning zamonaviy va qulay usullarini ishlab chiqish kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalardan biridir.

Ushbu maqolada o‘zbek ismlarining izohli imlo lug‘atini yaratish zarurati va uning tamoyillari xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ismlar, antroponim, o‘zbek ismlari lug‘ati, mobil ilova.

Bugungi kunda barcha sohalarda davlat tilining jamiyatdagi o‘rni va nufuzini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Hukumatimiz tomonidan ma’naviy hayotimizni yanada rivojlantirish, jumladan, ta’lim-tarbiya ishlarini zamon talablari asosida tashkil etish, madaniyat, san’at va adabiyot sohalarini rivojlantirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha qabul qilingan farmon, qaror va farmoyishlar o‘zbek tili ravnaqiga xizmat qilmoqda.

O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqei va nufuzini oshirish borasida bugungi kunda yechimini kutayotgan qator dolzarb muammolar mavjud. Jumladan, o‘zbek ismlarining izohli hamda imlo lug‘atlarini yaratish va lug‘atlardan foydalanishning zamonaviy va qulay usullarini ishlab chiqish kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalardan biridir.

O‘zbek ismlari haqida kitoblar yozilgan. Ularning aksariyati filologiya fanlari doktori, professor Ernst Begmatov qalamiga mansubdir. Ustozimizning o‘zbek ismlarini to‘plash, ularni lug‘at holiga keltirish borasidagi ishlari juda katta ahamiyatga molik.[1]

“O‘zbek ismlari ma’nosi” lug‘atida 14600 ga yaqin ismlar to‘plangan va izohlangan. Ishda muallif tomonidan o‘rinli ta’kidlanganidek, ushbu lug‘atda o‘zbek tilidagi barcha ismlar va ism shakllarini qamrab ololgan emas. O‘zbek ismlari ma’nosini izlab mavjud kitoblarni yana bir bor o‘rganib chiqilsa, bu borada ko‘ngildagidek ma’lumot olish birmuncha mushkul.

Bugungi globallashuv sharoiti millatning eng muhim qadriyatlaridan biri bo‘lmish kishi ismlarini millat tili lug‘at fondi, milliy va diniy qadriyatlar asosida va ularga mos tarzda muntazam boyitib borilishini taqozo qiladi. Ism masalasi shu qadar muhimligidan Yevropaning ba’zi davlatlarida tarixiy-milliy ismlar qo‘yish, boshqa xalqlardan ism olmaslik haqida alohida qonunlar qabul qilingan. Shuningdek, Turkiyada Mustafo Kamol

Otaturk tomonidan o‘z xalqi uchun ismlar borasidagi islohotlari tarixdan ma’lum va bugun dunyo maydonida turklarning ismi orqali ularning turk ekanligini tanib olish mumkin.

Bu boradagi e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan masalalardan yana biri bu tilning an’anaviy antroponimiya fondini asrash, uning kamayishiga qarshi kurashish masalasidir.

Ism berish rasm-rusumlari, buning qadimiy va an’anaviy ko‘rinishlariga e’tibor qratish, nomlash motivlariga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish, o‘zbek ismlarining boy fondini saqlash va asrashga intilish lozimligi E.A.Begmatovning deyarli barcha ishlarida qayta-qayta ta’kidlangan. U bu haqda quyidagilarni bayon qilgan edi: “Tilimizning boshqa lug‘aviy boyliklari kabi o‘zbek nomlari, familiyalari ham ma’lum e’tibor va g‘amxo‘rlikka muhtojdir. Chunki ba’zi hollarda chaqaloqni nomlashga yetarli e’tibor bermaslik yoki “chiroyli”, “mazmundor” ism orqasidan quvish natijasida xalqning an’anaviy ismlar boyligidan unumli foydalanmaslik, ko‘p qadimiy ismlarni unutib yuborish hollari ychpab turibdi. Keyingi sabab tufayli hozirda o‘zbeklar foydalanayotgan ismlar doirasi anchagina torayib ketganligini ijobiy hodisa deb bo‘lmaydi. Qo‘yiladigan ismlar miqdoran qancha ko‘p bo‘lsa, shuncha yaxshi. Chunki ismlar shaxslarni oilada, avlod, mahalla, jamoa doirasida bir-biridan ajratishga imkon beradi”. [2]

Olim boshqa bir o‘rinda yuqoridagi fikrni yanada kengroq izohlagan va to‘ldirgan: “Zamonaviy ismlarni axtarish, ismlarni faqatgina “chiroylilik” mezoni bilan o‘lchash o‘zbek tilida ko‘p davrdan beri qo‘llanib kelgan kishi nomlarini “chiroyli” va “xunuk”, “zamonaviy” va “eski” kabi guruhlarga ajratishga sabab bo‘ldi. Natijada paydo bo‘lishiga ko‘ra, ba’zi rasm-rusumlar, diniy tasavvurlar va aqidalar bilan bog‘liq, shuningdek, ba’zi mahalliy xalq shevalari xususiyatlari bilan aloqador ismlar “nozamonaviy”, “eskirgan” nomlar deb baholanadigan bo‘lib qoldi. Bolalarga bunday nomlarni qo‘yish hozir ancha kamaydi. Ba’zan “zamonaviy”, “chiroyli” ismlar haqida gap ketar ekan, tilimizda qadimdan qo‘llanib kelgan *Tojiboy, Boltaboy, Temirboy, O‘roqboy, Turdiqul, Tirkash, Ulansin, Qo‘ysin* singari ismlarni tasodifiy otlar deb atash hollari uchrab turadi. Bu mazkur ismlarning berilish sabablarini bilmaslik, ota-onalarning bu nomlar zamirida yotgan ezgu niyatlaridan bexabarlik oqibatidir.[3]

Shuni alohida ta’kidlash joizki, ijtimoiy hayot, globallashuv sharoiti kabi omillar, jamiyat tafakkur tarzidagi o‘zgarishlar natijasida ismlar lug‘at fondi ham o‘zgarib boradi. Biz bu boradagi o‘zgarishlarni aniqlash maqsadida Adliya vazirligi tizimidagi bir necha FHDY bo‘limlari bilan kichik tadqiqot o‘tkazdik.

1-jadval

Namangan viloyatida FHDY bo‘limlarining statistik hisobotiga ko‘ra 2021-yilda eng ko‘p qo‘yilgan ismlar yuzasidan MA’LUMOT

№	*O‘g‘il*	*Soni*	*Qiz*	*Soni*
1	MUHAMMAD	*1016*	SOLIXA	*815*
2	MUHAMMADALI	*935*	XADICHA	*651*
3	MUSTAFO	*358*	MUBINA	*464*
4	ABDULLOH	*257*	IYMONA	*349*

Izoh: *Namangan shahar, Namangan tuman, Pop 1-son, Pop tuman 2-son, Chortoq tumani, Chust tuman, Yangiqo‘rg‘on tuman, Uychi tuman, Kosonsoy tumanlari FHDY bo‘limlarining statistik hisobotidan olindi.*

2-jadval

Andijon viloyatida FHDY bo‘limlarining statistik hisobotiga ko‘ra 2020- yilda eng ko‘p qo‘yilgan ismlar yuzasidan MA’LUMOT

№	*O‘g‘il*	*Soni*	*Qiz*	*Soni*
1	ABDULLOH	*1153*	MUSLIMAXON	*1392*
2	MUHAMMADALI	*2606*	IMONAXON	*115*
3	MUHAMMADZIYO	*155*	HADICHAXON	*136*
4	MUHAMMADAZIZ	*501*	MUBINAXON	*111*
5	MUHAMMADYUSUF	*876*	OMINAXON	*348*
6	MUSTAFO	*863*	ROBIYAXON	*446*
1	MUHAMMADUMAR	*755*	SOLIHA	*1666*
2	IMRONBEK	*115*	XADICHA	*1591*
3	MUHAMMAD	*607*	OYSHAXON	*970*
4	MUHAMMADAYUB	*437*	SAMIYA	*199*
5	MUHAMMADRIZO	*168*	IYMONA	*135*
6	MUHAMMADMUSTAFO	*150*	SHUKRONA	*82*
7	UMAR	*98*	FARANGIZ	*120*
8	ZUBAYR	*73*	MUHLISA	*95*
9			XONZODABEGIM	*69*

Izoh: *Andijon shahar, Andijon tuman, Asaka 1-son, Asaka tuman 2-son, Baliqchi tuman, Buloqboshi tuman, Bo‘ston tuman, Jalaquduq tuman, Izboskan tuman, Qo‘rg‘ontepa tuman 1-son, Qo‘rg‘ontepa tuman 2-son, Marhamat tuman, Oltinko‘l tuman, Paxtaobod tumani, Ulug‘nor tuman, Xo‘jaobod tuman, Xonobod shahar, Shahrixon tumanlari FHDY bo‘limlarining statistik hisobotidan olindi.*

3-jadval

Buxoro viloyatida FHDY bo‘limlarining statistik hisobotiga ko‘ra 2020- yilda eng ko‘p qo‘yilgan ismlar yuzasidan MA’LUMOT

№	*O‘g‘il*	*Soni*	*Qiz*	*Soni*
1	MUHAMMADALI	*1116*	IYMONABONU	*515*
2	MUHAMMAD	*730*	IYMONA	*510*
3	NURMUHAMMAD	*158*	MADINA	*464*
4	ISLOMBEK	*150*	BAHORA	*149*
5	ALIXAN	*143*	CHAROS	*110*
6	MUSTAFO	*102*	IFORA	*125*
7	ALISHER	*103*	SOLIXA	*184*
8	IMRONBEK	*118*	XADICHA	*109*

9	ABDURAXMON	*150*	ASAL	*90*
10	AKOBIR	*92*	MUBINA	*36*

Izoh: *Buxoro shahar, Buxoro tuman, Kogon tuman, Kogon shahar, Buxoro shahar "Nikox uyi", Buxoro shahar 1-son FHDY, Buxoro shahar 2-son FHDY bo'limlarining statistik hisobotidan olindi.*

4-jadval

Farg'ona viloyatida FHDY bo'limlarining statistik hisobotiga ko'ra 2020- yilda eng ko'p qo'yilgan ismlar yuzasidan MA'LUMOT

№	*O'g'il*	*Soni*	*Qiz*	*Soni*
1	ABDULLOH	*607*	MUSLIMAXON	*694*
2	MUHAMMADALI	*577*	SOLIHABONU	*549*
3	MUHAMMADZIYO	*503*	IMONAXON	*371*
4	MUHAMMADAZIZ	*472*	HADICHAXON	*302*
5	MUHAMMADYUSUF	*465*	MUBINAXON	*300*
6	MUSTAFO	*420*	OMINAXON	*299*
7	MUHAMMADUMAR	*388*	SHUKRONAXON	*291*
8	IMRONBEK	*370*	ROBIYAXON	*249*
9	MUHAMMAD ALI	*241*	SOLIHA	*223*

Izoh: *Farg'ona, Marg'ilon va Qo'qon shaharlari hamda Toshloq, Beshariq, Quva va Farg'ona tumanlari FHDY bo'limlarining statistik hisobotidan olindi.*

Tahlillardan ko'rinadiki, xalqning tafakkur tarzidagi o'zgarishlar, diniy qadriyatlarga e'tiborning kuchayishi, nomlash motivatsiyalari kengayishi kabi omillarning ta'sirida o'zbek xalqi antroponimlar tizimi, uning lug'at fondida yangilanishlar vujudga kelganligini ko'rsatadi. Bu o'rinda esa ularning imlosi masalasida ham bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Ismlar o'zbek tili orfoepik va orfografik tamoyillariga mos bo'lishi lozim. Yuqoridagi taqdim etilgan ma'lumotlarga nazar solsak:

- bir qator ismlarning yozilishida imlo xatolarga yo'l qo'yilgan: MUHLISA, HADICHAXON, SOLIXA, IYMONA kabi;
- bir xil ismlar ikki (ba'zan uch) ko'rinishda qayd etilgan: HADICHA? XADIJA, XADICHA; OYSHA, AISHA kabi;
- qo'shma ismlar ba'zan qo'shib, ba'zan ajratib yozilgan: MUHAMMAD ALI, MUHAMMADUMAR, MUHAMMADMUSTAFO kabi.

Xullas, O'zbek ismlarining izohli imlo lug'atini hamda uning mobil ilovasini yaratish bugungi kunning kechiktirib bo'lmas vazifasidir. Bu orqali FHDY bo'limlarida, shuningdek, fuqarolik pasportlarini rasmiylashtirish jarayonida o'zbek ismlarining lotin hamda kirill alifbosidagi imlosi, ismlar ma'nosi izohi, shuningdek, pasport tizimida ularning ingliz tilidagi variantining to'g'ri yozilish holatlaridagi bir qator muammolarga yechim bo'ladi. Leksikografiya sohasida yangilik sifatida qaralayotgan lug'atlarning mobil ilovalarini yaratish ismlarni tilimiz qonuniyatlari va me'yorlariga mos to'g'ri

rasmiylashtirish jarayonida soha mutaxassislari tomonidan unumli foydalanishlari uchun zamin yaratadi. Bundan tashqari, lug‘atlar muntazam to‘ldirib, boyitib borish imkoniyatining yaratilishi bilan ham afzallik kasb etadi. Qolaversa, o‘zbek ismlari lug‘atini qadriyatlarimizga mos ismlar bilan boyitish va zaxirasini tartibga solishga yordam beradi; FHDY bo‘limlari, fuqarolik pasportini qayd qilish sohalari mutaxassislarining ismlarni til qoidalari va qonuniyatlariga mos tarzda qilishlari uchun muhim qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi; lug‘atning zamonaviy elektron shakllarini yaratish kelgusida uni muntazam boyitib borish imkonini beradi va ulardan istalgan paytda foydalanish uchun qulayliklar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бегматов Э.Киши номлари имлоси. – Т., 1970; Ўзбек исмлари имлоси. – Т., 1972; Ўзбек исмлари. Т., 1991; Исм чиройи. – Т., 1991.

2. Бегматов Э. Ўзбек исмлари маъноси. – Тошкент: Қомуслар Бош таҳририяти, 1991. – Б. 5-6.

3. Бегматов Э.А. Кўрсатилган манба. – Б. 192-193.

ONA TILI GO‘ZALLIGINI KO‘RSATUVCHI HIKMATLI SO‘ZLAR VA MAQOLLARDA TAGMA’NO IFODALANISHINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI TADQIQI

Rahimov Usmonjon,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent,
Davlat tilida ish yuritish asoslarini
o‘qitish va malakasini oshirish
Andijon viloyati hududiy bo‘linma rahbari

Annotatsiya: Ushbu maqolada maqollarning pragmatik xususiyatlari haqida fikr yuritiladi, maqollar tahlilga tortilib, ularda ifodalanayotgan tagma’no izohlanadi.

Kalit so‘zlar: maqol, tagma’no, pragmatika, hikmatli so‘zlar.

Inson olam yaralganidan buyon hayot darsini o‘qiydi va o‘qimoqda. Hayot so‘qmoqlarida duch kelgan qiyinchilik, to‘siqlar, xursandchilik, xafagarchiliklar hikmatli so‘z, maqol, matal va iboralar tarzida dunyoga keladi. Xalqimizga hayotiy tajribalarining majmui quyma satrlarda o‘z ifodasini topadi. Uni inson hayotiy tajribalarining oynasi desa bo‘ladi. Shuning uchun sodda, ihcham va go‘zal bo‘ladi. Soddalik mazmun jilosiga burkanib, go‘zallik kasb etadi.

Hikmatli so‘zlar va maqollar sodda, ixcham bo‘lish bilan birgalikda mazmunan murakkab bo‘ladi. Mazmuniy qobig‘da hikmatona, ibratona ma’nolar jamlangandir. Ibratnoma fikrlar uzoq hayotiy tajribalar mahsuli sifatida maydonga kelgan. Shuning uchun hikmatlar va maqollar avloddan avlodga o‘tib, o‘z qadrini, qimmatini yo‘qotmay kelmoqda.

“Hikmat” arabcha so‘z bo‘lib, o‘ta donolik, donishmandlik, zakovat, aql-idrok ma’nolarini anglatadi. Hikmat so‘zi tagini anglash qiyin bo‘lgan, yashirin bir ma’no, yashirin bir sabab, sir ma’nolarini ham ifodalaydi. “Maqol” ham arabcha so‘z bo‘lib,

hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda pand-nasihat mazmuniga ega bo‘lgan ixcham, obrazli va hikmatli ibora, gap ma’nosini anglatadi. Hikmatlar va maqollar – xalqimiz aql-zakovatining nodir mevasi. Shuning uchun ularning zamirida insonning aqliga havola etilgan ibratona tagma’nolar mavjud. Unda so‘zlarning sarasi ishtirok etib, turli vositalar orqali sharoit uchun mos ma’nosini tanlab oladi. Maqol va hikmatlar xalq ijodiyotining xazinasi hisoblanadi. Xazina rang-barang boyliklardan tuzilgan. Shu boisdan maqol va hikmatlar hayotning barcha tabaqasini qamrab olgan. Ularning mavzu jihatdan xilma-xilligi hayotning murakkabligidan, serqirra ekanligidandir.

Bundan tashqari maqollar, hikmatlarda shakliy va mazmuniy nomutanosiblik mavjud. Bunday nomutanosiblik faqat maqollardagina emas, xalq yaratgan boshqa ma’naviy boyliklarda ham bor. Chunki xalq ijodida bir narsa o‘ta pishib yetilmaguncha, tilga kelmaydi. O‘ta pishib yetilgan, sayqallashgan, bezaklarga burkangan gaplar juda ixcham, sodda bo‘lib, murakkab mazmun uchun xizmat qiladi. Natijada shakl va mazmun nomutanosibligi yuzaga keladi. Mazmuniy murakkablik turli vositalar orqali maydonga keladi. Bunday mazmuniy murakkablik tilshunoslikda “tagbilim”, “tagmaʼno”, “presuppozitsiya” tarzida o‘rganilmoqda.

Maqol va hikmatlarda tagma’no nihoyatda kuchli bo‘lib, har bir so‘z zamiridan tushunilishi mumkin. Shuning uchun ulardagi so‘zlar ramziy ma’nolarda qo‘llaniladi. U yoki bu maqolning ko‘chma ma’nosini, unda nima deyilmoqchi bo‘layotganini aniqlash uchun maqollarda keltirilgan obrazlarning mohiyatini to‘g‘ri aniqlamoq kerak. Xalq og‘zaki ijodining ko‘pchilik janrlarida, jumladan, maqollarda ham jamiyatdagi munosabatlar, hodisa va holatlarni soddaroq, oydinroq ifodalamoq maqsadida tabiatdagi o‘z xususiyatlari bilan shunga mos keladigan turli narsalar (hayvonlar, o‘simliklar, ularning mevalari, jismlar, uy jihozlari, kiyim-kechaklar, ish qurollari, mehnat mahsulotlari va hokazo) obrazlaridan ustalik bilan foydalaniladi. Masalan, xalqimiz sherni mard, dovyurak botirlarga, chumolini mehnatkash mazlumlarga, qurbaqani dangasa, ishyoqmas kishilarga o‘xshatadi. Shu sababdan maqol va hikmatlarda timsol asosidagi ma’nolarni tushunishda tagma’no qo‘l keladi. E’tibor “kosa tagidagi nim kosa”ga qaratiladi.

Maqollar va shakliy, ham mazmuniy go‘zal bo‘ladi. Maqol va hikmatlarning tashqi ko‘rinishi tovushlarning qator kelishi va ohangdoshligi asosida go‘zallik kasb etsa, mazmunan bir qancha tagma’nolarga ishora qilishi bilan lol qoldiradi. Shuning uchun ularni eslab qolish ham oson bo‘ladi. Maqol va hikmatli so‘zlarda tildagi tasviriy vositalar keng qo‘llaniladi va ular asosida fikr lo‘nda, ixcham hamda ta’sirli ifodalanadi.

Masalan: “Sabrning tagi – sariq oltin” maqolida, s, a, r, t tovushlari o‘zaro bir-biriga ohang jihatidan moslashgan holda tartiblangan. Shuning uchun bu maqol ohang jihatidan qulog‘imizga yoqimli eshitiladi, eslash uchun ham osonlik tug‘diradi. Tovushlarning bir-biriga ohangdoshligidan shakliy go‘zallik yuzaga kelgan. Shu shakliy go‘zallik ostida mazmuniy noziklik yotadi. Xalq ijodidagi o‘ziga xoslik ham shakliy va mazmuniy go‘zallik asosida belgilanadi.

Bunday mutanosiblik xalq ijodining barcha janrlarida mavjud. Ayniqsa, maqol va hikmatlarda kuchli tarzda namoyon bo‘ladi.

Tovushlarning qator kelishi ohangdoshlikni yuzaga keltiradi. Misraning ravonligini silliqligini ta’minlaydi. Bunday holatni ko‘pgina ilmiy adabiyotlarda umumiy jihatdan takror deb ataydi. Xususan, unli tovushlarning qator kelishi konsonans deyiladi. Adabiyotshunoslikda tavzi’ san’ati deb atalib, nutqni go‘zallashtiruvchi vositalar sifatida talqin qilinadi.

Tavzi’ – arabcha so‘z bo‘lib, tarqatish, bo‘lib tarqatish, taqsimlash kabi ma’nolarni ifodalaydi. Bu talqinlarda umumiylik jihatdan qaralsa, “takrorlanish” tushunchasi mavjud ekanligi ko‘zga tashlanadi. Shuning uchun biz takrorlanish asosidagi “ohangdoshlik” nomi bilan atashni ma’qul ko‘rdik. Unlilarning takrorlanishini “unlilar ohangdoshligi” undoshlarning takrorlanishini “undoshlar ohangdoshligi” deb atadik.

Maqol va hikmatlardagi tovushlar ohangdoshligi oddiy ohangdoshlik bo‘lmay, mazmuniy jihatdan ham mutanosiblik asosida yuzaga keladi. Masalan: “Sinamaganning sirtidan o‘tma” maqolida “S” undoshining qator kelishi natijasida ohangdoshlik paydo bo‘lgan. Ma’nolar mosligi ham ohangdoshlikka mutanosibdir. Maqoldagi “sirt” so‘zining o‘rnida “ust” so‘zini ishlatsa ham bo‘ladi. Bunda shakliy jihatdan g‘alizlik sezilmasa ham, mazmunan kambag‘allik yuzaga keladi. Ta’sirchanlik ozayadi. Bundan tashqari tovushlarning ohangdoshligi ham buziladi. Shakliy va mazmuniy tuzilishdagi silliqlik yo‘qoladi. Shuning uchun “sirt” so‘zi o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llanilgan. Bu maqol shakliy tugallanmagan bo‘lsa ham mazmunini to‘la tushunishimiz mumkin. To‘la tushunishimizga turli xil ishora vositalari yordam beradi.

“Sinamaganning sirtidan o‘tma” maqoli dastlab majoziy tarzda “Sinamagan otning sirtidan o‘tma” shaklida aytilgan. “Ot” so‘zi umumlashma sifatida muayyan nutqiy sharoitda o‘z ma’nosida, boshqa holatlarda esa “inson” ma’nosida qo‘llanilgan. “Inson” ma’nosi turli nutqiy sharoitlarda xilma-xil ma’nolar ifodalaydi. Masalan, “qiz”, “yigit”, “quda”, “musofir” va hokazolar. “Ot” so‘zi ramziy ma’noda ishlatiladigan bo‘lib qolgan. Ramziy ma’no asosida turlicha tagma’nolar yuzaga keladiki, bu so‘zlovchi va tinglovchining o‘zaro shartnomaviy munosabatiga hamda nutqiy sharoitiga bog‘liq holda kechadi. Shuning uchun bu maqolning tagma’nolarini quyidagicha belgilash mumkin bo‘ladi.

1. Sinamagan yigitga ko‘ngil qo‘yib bo‘lmaydi.
2. Sinamagan qizga ko‘ngil qo‘yib bo‘lmaydi.
3. Sinamagan joydan quda tutinib bo‘lmaydi.
4. Sinamagan do‘stga sir aytib bo‘lmaydi.
5. Sinamagan joyga kirib bo‘lmaydi.
6. Sinamagan hayvonning oldiga borib bo‘lmaydi va hokazo.

Ko‘rinib turibdiki, maqol nihoyatda keng qamrovli bo‘lib, turmushning juda ko‘p qirralarini aks ettirishi mumkin. Ammo muayyan nutqiy sharoitda bitta tagma’nosi bilan ishtirok etadi, qolganlari esa insonning umumiy bilish xazinasida imkoniyat tarzida turadi. Shuning uchun bu maqol “Sinamaganning sirtidan” shaklida umumiylik kasb etadi. Maqolning shakl jihatdan soddalanishining ham lisoniy asoslari bor. Bu maqol dastlab hayvonga nisbatan aytilgan bo‘lsa ham, keyinchalik mazmunan kengayib, boshqa narsalarga nisbatan ham qo‘llanilavergan. Natijada davrlar o‘tishi bilan “ot” so‘zi tushib qolib, bu so‘zning barcha xususiyatlarini “Sinamagan” so‘zi olgan, ya’ni otlashgan “Sinamagan” sifatdoshidagi bo‘lishsizlikning ishorasi butun maqolning mazmuniga ta’sir

etgan va o‘tma so‘zini ham qolishiga sabab bo‘lgan. Natijada “Sinamaganning sirtidan” shakli yuzaga kelgan. Bu shakl barcha nutqiy sharoit uchun qo‘llanilish imkoniyati kengaygan.

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki, maqollardagi shakliy va mazmuniy go‘zallikda mutanosiblik mavjud bo‘lsa, tuzilish jihatdan nomutanosiblik bor. Ya’ni, shaklan qisqa bo‘lsa ham, mazmunan murakkab bo‘ladi. Sodda shakl murakkab mazmun ifodalaydi. Bunday nomutanosiblikning ham lisoniy va lisoniy bo‘lmagan asoslari bor. Ular turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.

“Sinamaganning sirtidan” maqoli muayyan nutqiy sharoitda bitta tagma’nosi bilan ishtirok etadi. Ya’ni, so‘zlovchi va tinglovchining o‘zaro shartnomaviy munosabati orqali bittasi tanlab olinadi. Shartnomaviy munosabat so‘zlovchi va tinglovchining kommunikativ maqsadi, niyati asosida belgilanadi. Agar so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasida kommunikativ maqsad biror qiz haqidagi nutqqa qaratilgan bo‘lsa, u holda maqol shu nutqiy sharoitga moslashadi. Umumiy bilish xazinamizdagi bilimlar ko‘lami ham shunga qaratiladi. Maqolning ishoraviy ma’nosini tushunishga imkon yaratadi. Bir qancha shakllar ifodalaydigan mazmunni tushunib yetish imkoni tug‘iladi. Ya’ni, qiz bolaning tashqi ko‘rinishi, odobi, yurish-turishi, uy tutishi kabilar “Sinamagan” so‘zi orqali anglashiladi. “Sirtidan” so‘zi esa oldindan hukm chiqarish, xulosalash kabi ma’nolarni ifodalaydi. “Sinamagan” so‘zining bo‘lishsizlik –ma shakli butun maqol mazmuniga taalluqli bo‘lib, qiz bolani bilmay turib, oldindan hukm chiqarish xato bo‘lishi mumkinligiga ishora qiladi. Shuning uchun sodda shakl ostida murakkab mazmun aks etadi. Bunday mazmunni tushunishga tagbilim yordam beradi. Shu sababdan maqollarda “Kosa tagidagi nim kosa” ma’nosi ahamiyatli bo‘ladi. Ishoraviy ma’no birinchi planda turadi.

Maqol va hikmatlarda allegoriya orqali ham turli tagma’nolar ifodalanib, mazmun sig‘imini oshiradi. Masalan: “Bo‘ynida illati bor itning oyog‘i qaltiraydi” maqolida “it” so‘zi allegorik ifodaga ega bo‘lib, umumiy jihatdan “inson”, “odam” ma’nolarini ham anglatadi. Maqoldagi “it” so‘zi mazmunni nihoyatda kuchaytirgan. Chunki it har qanday sharoitda ham instinkt asosida ko‘ringan narsaga tashlanishi, qo‘rqmasligi mumkin. “Oyog‘ining qaltirashi” esa “illat” so‘ziga bog‘liq holda mazmunan moslashgan. Natijada “hatto illati, nuqsoni bor itning ham oyog‘i qaltiraydi” ma’nosi yuzaga kelgan. Bunda ham shakliy, ham mazmuniy mutanosiblik mavjud. O‘z ma’noda ham, ko‘chma ma’noda ham barcha nutqiy sharoit uchun qo‘llanilishi imkoniga ega.

Agar “it” so‘zining o‘rnida “odam”, “inson” so‘zi qo‘llanilsa, shakliy jihatdan g‘alizlik sezilmasa ham, mazmunan kambag‘allik yuzaga keladi. Maqoldagi tagma’no u darajada kuchaymagan, mazmunan murakkablashmagan va barcha nutqiy sharoit uchun barobar qo‘llanilish imkoniga ega bo‘lmagan bo‘lardi. Shuning uchun “it” so‘zi o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llangan va o‘z ma’nosida ham, ko‘chma ma’noda ham mutanosiblikni yuzaga keltirgan. Barcha nutqiy sharoit uchun qo‘llanish imkonini yaratgan.

Maqollar va hikmatlarda qarama-qarshi munosabat kuchli tarzda ifodalanadi. Bunday holat maqolning mazmuniga ham ta’sir etadi. Turlicha tagma’nolarni yuzaga keltiradi. Masalan: “To‘g‘ri odam egri so‘zdan or qilar”, “shirin yolg‘ondan achchiq haqiqat yaxshi”, “Yaxshi so‘z jon ozig‘i, yomon so‘z – bosh qozig‘i”, “Yaxshilik nur keltirar, yomonlik zulmat”, “Mayda gap katta ishni g‘arq qiladi” kabi maqollarda

antonimik munosabatdagi so‘zlar ishlatilgan. Antonimik – qarama-qarshi zid munosabatdagi so‘zlar maqollarning mazmun sig‘imini oshirgan. Ba’zan bunday maqollar to‘la shakllanmagan bo‘lishi ham mumkin. To‘la shakllanmasa ham tushunarli bo‘lishi ziddosh - qarama-qarshi ma’noli so‘zlarning o‘zaro munosabatdorlikdagi aloqasi natijasida yuzaga keladi. Chunki bunday so‘zlar bir-biriga ishora qilish xususiyatiga ega. Yaxshi so‘zi o‘zaro ma’no munosabatdorlikda matnda yomon so‘ziga ishora qiladi. Yoki shirin so‘zi achchiq so‘ziga ishora qiladi. Natijada matnda antonimik munosabatdagi so‘zlardan biri ishtirok etsa, mazmunan ikkinchi jufti ham tushunilaveradi. Masalan: “Dili to‘g‘rining yo‘li to‘g‘ri”. Bu maqolning ishorasidan “Dili egrining yo‘li egri” maqolini ham tushunish mumkin.

Maqollar va hikmatlarda turli vositalar asosida tagma’nolar ifodalanadi. Tagma’nolarning yuzaga kelishida badiiy ifoda vositalar, omonimik, sinonimik, antonimik munosabatlar vosita bo‘ladi. Maqol va hikmatlarning lisoniy tahlili shu sohadagi kemtik joyni to‘ldirishi mumkin. Chunki maqollarning badiiy qimmatini, ta’sir quvvatini belgilashda lisoniy tahlil qo‘l keladi va maqollarning tub mohiyatini ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. V jild, –T., 2020. – B. 527.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. II jild, –T., 2020. – B. 569.
3. Shomahsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. – Toshkent, 1990. – B. 10.
4. Qo‘ng‘urov R. va boshq. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. 1992.
5. Rustamov A. So‘z xususida so‘z. Toshkent, 1986 yil
5. Navoiy asarlari lug‘ati. – Toshkent, 1972. –B. 282.

MAMLAKATIMIZDA PESHLAVHALARNING TARIXIY TARAQQIYOTI, SHAKLLANISHI VA ULARNI VUJUDGA KELTIRUVCHI OMILLAR

Chiniqulov Nurmurod,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Maqola xalqamizning ma’naviy va madaniy merosi – tarixiy obidalar, uningning nomlari, obidalarga sharqona dizaynda bitilgan yozuvlar haqida so‘z yuritiladi. Muallif “Shardor” madrasasidagi sha’riy parchani tahlilga tortadi.

Kalit so‘zlar: tarixiy obidalar, me’morial obidalar, bitiklar, sharqona uslub.

Xalqimizning madaniy, ma’naviy tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Asrlar davomida odamzod aqlini lol qoldirib kelayotgan Samarqand, Xiva, Buxoro va boshqa shaharlardagi me’morial obidalar bunga misol bo‘ladi. Vatanimiz hududidagi yozma manbalar tarixi ming yillardan ham uzoqroq tarixga ega.

Me’moriy inshootlarning nomlari va nomlanishi tarixiy inshootlarning maydonga kelishi bilan, uning ijodkori bo‘lgan xalq tarixi bilan uyg‘unlashib ketadi. Qadimiy obidalar nomlarining semantik tabiatini ko‘zdan kechirsak, nomlar inshootlarning yaratilish tarixi, uning haqiqiy ijodkori bo‘lgan xalqimizning ijtimoiy hayot tarzi bilan

bevosita aloqador ekanligining shohidi bo‘lamiz. Mamlakatimizdagi juda ko‘plab tarixiy inshootlar, yodgorliklar nomlari ko‘p hollarda obyektning vujudga kelishida bevosita va bilvosita ishtirok etuvchi shaxslar, qisman joylar nomi bilan aloqador.

Eng yirik qadimgi lavhalar Kultegin, Bilga hoqon, To‘nyuquq va boshqa qadimiy yozma yodgorliklarga borib taqaladi. Bu bitik toshlarida sarkardalarning hayot yo‘li, yurishlari va vafoti haqida ma’lumot berilgan. Masalan,”...Kul tigin qo‘y yilida, o‘n yettinchi(kun)da uchdi(o‘ldi). ...Binosini naqshini, bitiktoshini Maymun yilida, yettinchi oy(ning) yigirma yettisida butunlay tugatdik. Kul tigin u ...qirq yetti yoshida vafot etdi. ...uni ko‘rib shunday deb biling: bu bitig bitilguchining birodari Yo‘llig‘ Tegin” [1].

Movarounnahrga islom dinining kirib kelishi arab tili va yozuvining keng tarqalishiga sabab bo‘ldi. Binobarin, arab yozuvi Markaziy Osiyo va Kavkazning bosib olinishi va islom dinini targ‘ibot qilish orqali kirib keldi.

Vaqt o‘tishi bilan axborot berish va axborot olish ehtiyoji epigrafik yozuvlarning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan. O‘z navbatida, yirik shaharlarning paydo bo‘lishi, ularda qad ko‘targan imoratlar va obyektlarda yozilgan lavhalar keyinchalik peshlavhalarning shakllanishiga asos bo‘ldi. Aytish mumkinki, peshlavhalarning ilk taraqqiyoti turli tosh taxtalar, qoyalar, metallar, sopol va boshqa buyumlarda bitilgan epigrafik yozuvlar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Kuzatishlardan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, bunday axborot beruvchi lavhalar bitilishi dastlab qabr toshlarida o‘z ifodasini topgan. Masalan, Samarqand shahridagi Ahmad ibn Muhammad qabrida «Bu qabrtosh serg‘ayrat, axloqli, dehqon ibn Muhammad tikuvchiga qo‘yildi. 551-yil rajab oyining birinchi o‘n kunligida vafot etdi. (1141-yil dekabr o‘rtalarida). Alloh uni va barcha musulmonlarning qilgan gunohlarini mag‘firat qilsin. [2]

Ana shunday epigrafik yozuvlarga va ularning tarixiga oid ko‘plab maqolalar va maxsus monografik ilmiy - tadqiqot ishi mavjud. Bunday epigrafik qabr toshlarini o‘z zamonasining ulug‘ insonlari, avliyolar, hukmdorlar va boshqa ko‘zga ko‘ringan shaxslar qabrlariga qo‘yish odat tusiga kirgan. Keyinchalik kuzatishlardan ma’lum bo‘ladiki, bu qabrlar ustiga maqbaralar barpo etilgan. Maqbaralarga esa, unda dafn etilgan shaxslar haqida yozuvlar bitilgan. Qabr ustiga qurilgan yodgorliklar, maqbaralar naqshinkor sharqona bezaklar bilan arab yozuvining kufiy, nas’h xatlarida bitilgan [3]. Epigrafikada “Kufiy xati” muhim o‘rinni egallaydi. “Nas’h” xatidan devonlarni yozishda qadimda ko‘proq qo‘llanilgan [4].

Mamlakatimizda barpo etilgan qadimiy obida va yodgorliklarda bitilgan yozuvlarda o‘ziga xos sharqona dizayn elementlari mavjud. Masalan, Samarqand shahrida islom olamining mashhur shaxslaridan biri Qusam ibn Abbosning qabri tepasida keyinchalik “Shohi Zinda”maqbarasi barpo etilgan. Bu joy XII asrdan boshlab ziyorat qiluvchilar makoniga aylangan. Uning atrofiga islom dinining ko‘zga ko‘ringan vakillari, hukmdorlar dafn etilgan. Keyinchalik qabrlar tepasiga maqbara, chillaxonalar qurilgan. 1434–1435-yillar Mirzo Ulug‘bek davriga kelib Shohi Zinda ansambli to‘liq qurib bitkazildi.

Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz shaharlari, umuman, Markaziy Osiyo va Kavkazda qad ko‘targan bunday maqbara, madrasalarning peshtoqiga, eshiklariga Qur’on oyatlari, hadislardan namunalar yozilishi o‘sha davr uchun odat tusiga kirgan hamda

kimga atab qurilgani, u shaxsning vafoti, uni qurdirgan shaxs haqida, shuningdek, qurgan usta haqida ma’lumot berilgan. Biroq qadimiy inshootlarning kiraverishida yoki tepasida bino haqida axborot beruvchi peshlavhalar yozib qo‘yilmagan. Chunki o‘sha davrlarda shaharlarda yirik inshootlar uncha ko‘p bo‘lmagan. Bundan tashqari, peshlavhalarni yozish odat tusiga kirmagan va bu obidalar bir-birini takrorlamaydigan o‘ziga xos me’moriy usulda qurilgan bo‘lib, asrlar osha uning nomi xalq tilidan-tiliga o‘tib kelgan.

Xalqimiz tarixiga bir nazar tashlaydigan bo‘lsak muhim voqealar, hodisalar, mashhur shaxslarning tug‘ilgan yili va vafoti, bino va inshootlar tarixi yozma manbalarda bitilgan. Ko‘pincha bu ma’lumotlar abjad hisobida, she’riy shaklda muammo tarzida bitilgan. Fikrimizning dalili sifatida quyidagi faktlarga murojaat qilamiz. Buxorodagi Mir Arab madrasasining binosiga quyidagi qit’a tarix bo‘lgan:

Qurildi ajab quvonch bila yoqimlik,
Taajjublanurlik madrasayi oliy,
Shunisi taajjubki, uning tarixi (ham)
Bo‘ldi «Madrasayi oliy Mir Arab».

Tarix moddasi keyingi misra bo‘lib, 942 ni bildiradi. Demak, madrasa hijriy 942, milodiy 1535-yilda qurilgan [5].

Mirzo Ulug‘bek madrasasi (1417) Amir Temir nabirasi, buyuk astronom Ulug‘bek qurdirgan uch madrasaning eng qadimiysidir. Madrasa uni bunyod etgan ulug‘ olim va shoh nomi bilan ataladi. Uning darvozasi tabaqalariga «Bilim olish har bir muslim va muslimaning burchidir» degan ibora o‘ymakorlik usulida yozib qo‘yilgan [9].

Ayniqsa, Samarqand shahrining Registon ansamblidagi uch madrasadan biri “Sherdor” madrasasiga bitilgan she’riy satrlar diqqatga sazovordir. *“Sherdor” madrasasidagi bitik:*

Sarkarda, muboriz odil Yalangto‘sh,
Uning kamolotin vasf etmoq qilsang,
Javohir sotuvchi fasohatli til
Bu maqsad nishoniga uruvchi o‘qdir.
U shunday bir madrasa qurdiki,
Uning binosi yerdan ko‘k gumbaziga qadar yetgan,
Yerning ham osmonning ham bezagidir.
Aql burguti o‘z qanotlarining quvvati bilan parvoz qilsa,
Yillar davomida ham madrasa
Peshtoqining teppasiga yeta olmas.
Fikru xayolning chaqqon darbozi,
Taxayyul arqoni uzra asrlar davomida yursa-da,
Uning qubbasiga (minoraning teppasiga) chiqa olmas.
Me’mor ark peshtoqi shaklini bino etganda,
Osmonu falak uni Yangi oy deb o‘ylab,
Hayrat barmog‘ini tishladi.

Bu madrasaning asoschisi Yalangto‘sh Bahodir bo‘lganligi uchun uning qurilgan yili haqidagi ma’lumot abjad hisobida “Yalangto‘sh Bahodir” so‘zi bilan izohlanib 1028/1618-yilga to‘g‘ri keladi.

Tarixdan ma’lumki, bu madrasa Yalangto‘sh Bahodir madrasasi deyiladi. Lekin madrasa tepasidagi aks ettirilgan chiqib kelayotgan quyosh va sherning aksi tushirilishi natijasida xalq atamasi tashqi ko‘rinishga qarab birinchi o‘ringa chiqqan. Vaqt o‘tib keyinchalik xalq qo‘ygan nom hozirgi kunda “Sherdor” nomi bilan peshlavhada quyidagicha rasmiy tus olgan. Samarqand shahar Registon ansambli “SHERDOR” madrasasi XVII asr.

Yana bir misol, Xivadagi Pahlavon Mahmud maqbarasi Muhammad Rahimxon I tomonidan qurdirilgan. Pahlavon Mahmudning vasiyatiga ko‘ra vafotidan keyin uni o‘zi yashagan uyga dafn qilishgan. Keyinchalik uning qabri ustida maqbara bunyod etilgan hamda unga xon avlodlari va boshqa shaxslar dafn etilgan.

Pahlavon Mahmud maqbarasida o‘yma naqshli eshiklarning 5 tasida, koshinlarning 10 ta joyida, 6 ta marmar toshda, 3 ta metall buyumda arab, fors va turkiy tillardagi yozuvlar bo‘lib, ular tariximiz hamda shu maqbara haqida ma’lumot beradi.

Mehribon va rahmli Allohning nomi bilan boshlayman,
Allohdan boshqa iloh yo‘q va Muhammad uning rasulidir
Davronning (zamonasining) qutbi qudratli va uyg‘oq
Allohning do‘sti...
Bu muqaddas ostonaning gumbazi,
Alloh nuridan bahramand bo‘lgandir.
Shoh Niyozxon qazo topgach
Tengsiz karomat va yaxshilik egasi hazrati
Pahlavon yoniga keldi
Usta Nadir Muhammadning ishi

Yuqoridagi misollardan ko‘rinadiki, qadimiy obidalar, madrasalar, yodgorliklar, masjid, karvonsaroy, minoralar va boshqalarda bitilgan lavhalarda peshlavhalarga xos bo‘lgan elementlar kuzatiladi.

Xususan, Xorazmshoh Ma’mun II tomonidan qurdirilgan Ko‘hna Urganchdagi 401/1010-1011-yillar va Termizdagi 423/1032-yildagi minoralardagi yozuvlar [3]. Sanglahdagi karvonsaroy fasadidagi quyidagi yozuv bitilgan. (Buyuk sulton Xalil bu binoni qurishni buyurdi, Alloh uning humkronligini barqaror qilsin, 843/1439-1440-yil). Yuqoridagi keltirilgan masjid, karvonsaroylar uni qurdirgan shaxslar nomi bilan atalgan. T.Tursunova me’morchilik terminlarini tadqiq qilib, tarixiy inshootlar-me’moriy obidalarning nomlari quyidagi leksik-semantik prinsiplar asosida vujudga keladi deb hisoblaydi.

- Inshootning tashqi ko‘rinishi va belgi-xususiyatiga ko‘ra nomlanadi: Kalta minor, Sherdor madrasasi, Oq saroy, Ichan qal’a, Chor minor kabi.
- Ishlanish xususiyati, ish uslubi va materialiga ko‘ra nomlanadi: Tilla kori madrasasi, Tosh hovli.
- Diniy aqidalarga ko‘ra simvolik xarakterdagi nomlar: Mo‘yi muborak, Shohizinda.
- Inshoot qurilgan joyning xususiyatiga ko‘ra nomlanadi:

Registon (reg- qum, iston – joy ma’nosidagi qo‘shimcha).

- Me’moriy inshoot shu qurilma bilan aloqador shaxsining laqabi, kasbi bilan ataladi: Pahlavon Mahmud maqbarasi, Mir Arab madrasasi.

➢ Inshoot uning qurilishi bilan u yoki bu darajada aloqador bo‘lgan oliy martabali yoxud badavlat shaxslar nomi bilan ataladi: Ulug‘bek madrasasi, Bibixonim masjidi, Go‘ri Amir va boshqalar. Bu tipdagi nomlangan tarixiy obidalar anchagina.

Qadimda shahar ichidagi ma’lum bir obyekt haqidagi ma’lumotni o‘sha obyektda tayyorlagan mahsulot bildirgan. Masalan, «Non» do‘koni oldiga nonni, kosiblar mahsi yoki boshqa mahsulotni ko‘zga tez tashlanadigan joyga qo‘yishgan. XIX asrda ruslarda do‘kon, fabrika va boshqa korxonalar uning xo‘jayini nomida yuritilgan. Peshlavhaga xo‘jayinning ismi, familiyasi yozilgan, yoniga u ishlab chiqaradigan mahsulot rasmi chizilgan. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Chor Rossiyasi istilosi natijasida ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi tub o‘zgarishlar, keng jamoatchilikning axborotga bo‘lgan ehtiyoji sababli O‘zbekistonda ham peshlavhalar shakllana boshladi.

Oktabr davlat to‘ntarishigacha bo‘lgan davrda asosan yirik fabrikalar, ishlab chiqarish korxonalariga va davlat idoralariga rus chinovniklari egalik qilishgan bo‘lib, bu obyektlardagi peshlavhalar rus tilida yozilgan. Keyinchalik Markaziy Osiyo hududi respublikalarga bo‘lib tashlangandan keyin, o‘zbek tilida ish yuritish, peshlavhalar yozishga e’tibor berila boshlagan. O‘zbekiston jumhuriyatining inqilobiy qo‘mitasi 1924-yilning 31-dekabrida 48-raqamli muhim bir qaror qabul qildi. Bu qarorning nomini aynan keltiramiz: “Ishlarni o‘zbek tilida yurgizish ham O‘zbekiston jumhuriyatining inqilobiy qo‘mitasi huzurida markaziy yerlashgan hay’atlari tuzilish(i) to‘g‘risida”. Bu qarorda muassasa, tashkilot, korxona va boshqalarda ishlarni o‘zbek tilida yuritish lozimligi ko‘rsatib o‘tilgan. Qarorni joriy qilish bo‘yicha muayyan ishlar qilina boshladi. Xususan, Toshkent muzofotining inqilob qo‘mitasi “Вывеска”larni asosan o‘zbek tilida yozishni amalga qo‘yish to‘g‘risida” maxsus qaror chiqargan. Unda peshlavhalar, ularning yozilishi, qarorni amalga oshirishni mahalliy militsiya idoralariga topshirilishi hamda unga amal qilmagan hukumat va xususiy idora rahbarlariga beriladigan qonuniy choralar ko‘rsatib o‘tilgan. Qarorning birinchi bandida: “вывеска”larni asosan o‘zbek tilida yozishg‘a va undan keyin rus tilida yozishg‘a majbur qilinadurlar”[2], - deb yozib qo‘yilgan.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki mamlakatimizda peshlavhalar shakllanishi o‘z tarixiy taraqqiyotiga egadir. Biroq, sobiq sho‘rolar davri totalitar tuzum, ayniqsa, qatag‘onlik yillarida olib borilgan siyosat ona tilimizning rivojlanishiga xususan peshlavhalarning o‘zbek tilida shakllanishiga salbiy ta’sirini o‘tkazdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдураҳмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил.-Т.: Фан,1982. – В. 91.

2. Бальшаков О.Г. Надгробий 541/1146 из Самарканда // Эпиграфика Востока. - М-Л., 1961. – С. 9.

3. Крачковская В.А. Эволюция куфическая письма в Средней Азии // Эпиграфика Востока. - М-Л., 1946. – С. 3-27.

4. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Выдающийся памятники Архитектура Узбекистана. - Т.: Фан, 1958. – В. 41-42.

5. Жувонмардиев А. Ҳарфлар рақамларга айланганда. -Т.: Фан, 1966. – В. 32.

6. Морозова М.Н. Названия культурно-бытовых учреждений // Русская речь. – Москва, 1973. -№6. – С. 54.

NOM YARATISHGA ASSOTSIATIV YONDASHUV

Saparniyazova Muyassar,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Sabirova Muxlisa,
filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa (PhD) doktori

Annotatsiya. Mahsulotga nom berish – iste’molchi ongiga ta’sir ko‘rsatish orqali unga murojaat, nomning assotsiativ sohasida atrof-muhitni shakllantiruvchi bo‘g‘indir. Ma’lumki, nom yaratishning bir qator lingvistik asoslari mavjud. Shulardan biri assotsiativ yondashuvdir. Nom yaratish mexanizmida ham nomning assosiativ ma’nolariga asoslaniladi.

Ushbu maqolada o‘zbek tilida nom yaratish (neyming) tamoyillaridan biri - assotsiativ yondashuv tamoyillari xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: nom (neym), nom yaratish (neyming), brend nomi, assotsiativ tafakkur, assotsiativ munosabat.

Yangi asrda jamiyatning barcha sohalarini shiddat bilan qamrab olayotgan globallashuv jarayoni dunyo miqyosida tilshunoslikning ham, til ta’limining ham zimmasiga yangidan yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Davr tildan amaliy foydalanish samaradorligini fanning ham, ta’limning ham asosiy vazifasiga aylantirib qo‘ydi. Natijada dunyo fanida tilning ichki qurilishini tavsiflaydigan nazariy lingvistikadan til va shaxs mushtarakligi masalasiga asoslangan amaliy yo‘nalishlarga o‘tish to‘lqini kuchaymoqda. Shu jarayonda amaliy tilshunoslik sohalaridan biri bo‘lgan nomlash(neyming)ning til me’yorlariga mos qonuniyatlarini ishlab chiqish, milliy nomlar zaxirasini yaratish bugunning kechiktirib bo‘lmas vazifalaridan biridir.

Ma’lumki, nomlash bugungi kunda biznesning alohida tarmog‘iga aylangan. Mahsulot haqida vizual tasavvur uyg‘otishda uning nomi iste’molchi uchun yaxlit brend imidjini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda nomlashda bir qator muhim jihatlar, ya’ni – marketing, lingvistik, ijodiy va huquqiy jihatlari hisobga olinadi. Siz ishlab chiqarayotgan mahsulot turiga kompaniya nomini moslash ham yaramaydi. Chunki, vaqt o‘tib boshqa turdagi tovarlarni ham sotish bilan shug‘ullanishni istab qolishingiz mumkin. Faoliyat nomga mos bo‘lishi uchun esa keyin kompaniya nomini o‘zgartirish uchun uni qayta ro‘yxatdan o‘tkazishingizga to‘g‘ri kelishi mumkin. O‘zgalardan ajralib turmoqchi bo‘lgan ba’zi tadbirkorlar qosh qo‘yaman deb ko‘z chiqarishadi: murakkab so‘zlar va tushunarsiz jumlalardan foydalanishadi. To‘g‘ri, siz tanlagan nom o‘zgacharoq jaranglasa va yozilsa, u noyoblik kasb etadi. Ammo bu iste’molchilaringiz yoki mijozlaringizning jig‘iga tegmasmikin? Shunchaki chiroyli bo‘lgan so‘zni toppish yetarli emas. Nom faoliyat turiga ishora qilishi joiz. Yaxshi nom – eshitganingdayoq kompaniya qanday sohada faoliyat yuritishi va qanday xizmatlarni taqdim etishi to‘g‘risida tasavvur hosil qildirishi lozim.

Mahsulotga nom berish – iste’molchi ongiga ta’sir ko‘rsatish orqali unga murojaat, nomning assotsiativ sohasida atrof-muhitni shakllantiruvchi bo‘g‘indir. Ma’lumki, “assotsiativ munosabat til birliklarining inson psixologik tasavvuriga asoslangan

munosabati bo‘lib, “bir-birini yodga solish” mexanizmini aks ettiradi. Bu munosabat asosida assosiatsiya tushunchasi yotadi” [1].

“Tashqi olam inson ongida bir-biri bilan aloqador turli obyektlar, voqea-hodisalar hamrohligida aks etgani bois ular assotsiativ tarzda biri ikkinchisini yodga tushiradi. Nafaqat tashqi olamdagi obyektlar, balki insonning birgalikda va bir vaqtda boshidan kechirgan turli kechinmalari ham aloqadorlik tamoyili asosida bir-birini eslatib turadi” [2].

Ma’lumki, nom yaratish mexanizmida ham nomning assosiativ ma’nolariga asoslaniladi. Masalan, Toshkentdagi kafe “Osh bo‘lsin!” – ichki neyming modeli bo‘lib, amfiboliya, ya’ni ixtiyoriy yoki g‘ayriixtiyoriy ikki ma’noni ifoda etadi: a) “Yoqimli ishtaha!”; b) “Doim osh bor bo‘lsin!” “Osh bo‘lsin!” – bu haqiqiy ma’nosi faqat shu til egalari uchun tushunarli bo‘lgan turg‘un birlikdir. Ushbu nom artikulyatsiyasi va intonatsiyasiga bog‘liq ravishda turlicha talqin qilinishi mumkin. Bunda buyruq maylining neytral (betaraf) shakli “Osh bo‘lsin”ni, buyruq – “Bugun kechki ovqatga osh bo‘lsin”ni, nutqiy etiket – “Osh bo‘lsin!” (Yoqimli ishtaha!) assosiativ ma’nolarini hosil qiladi. Lisoniy fon bu yerda shu qadar o‘ziga xoski, xorijliklarga ushbu nomning birgina qirrasini soatlab tushuntirish kerak.

Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan “YOSHULLI” kafesi Xorazm shevasida “Boshliq” ma’nosini anglatib, kafe uchun tanlangan nom “Xorazm taomlari pishirilishi” assotsiatsiyasini yuzaga keltirgan. Shuningdek, “TOJMAHAL” restorani nomi ham Hindistonda hukmronlik qilgan boburiylar sulolasi vakili Shohjahon davriga oid qadimiy me’moriy yodgorlikning nomi restoran nomi sifatida tanlangan. Nomlovchi Tojmahal so‘zi orqali “Shoh Jahon va Mumtoz mahalning sevgi ramzi, muhabbat abadiyligi” assotsiatsiyalarini yuzaga keltirib, restoranga nisbatan qiziqishni uyg‘otgan. “ALIBOBO” kafesiga berilgan nom esa mashhur ertak “Alibobo va qirq qaroqchi”dagi mashhur qahramonni anglatadi. Bu birliklar markazga intiluvchi milliy nom sifatida ahamiyatlidir.

Tadbirkorlik obyektlariga nom berishda til birliklaridan o‘rinli va maqsadga muvofiq tarzda foydalanish, nom orqali samarali kommunikativ muloqotni yarata olish qobiliyatini talab etadi. To‘g‘ri tanlangan nom tadbirkorning muvaffaqiyat kaliti hisoblanadi. Masalan, Toshkent shahrida go‘zallik salonlaridan bir qanchasiga “Afrodita” nomi berilgan. Nomga Yunon xudolaridan birining tanlanishi “go‘zallik timsoli, doimiy bahor va xushkayfiyat ramzi” assotsiatsiyalarini yuzaga keltirgan va bunday tanlov go‘zallik salonining samarali reklamasi uchun xizmat qilgan.

Ma’lumki, O‘zbekistondagi ko‘plab kafe-restoranlarga berilgan nomlar o‘zbek tilidan tashqari, o‘zga tillarda ham uchratish mumkin. Nomlovchilar nazdida ajnabiy tilda berilgan nomlar tadbirkorlik obyektlariga xorijliklar e’tiborini ko‘proq jalb qiladi. Aslida ham shundaymi? Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, o‘zbek tilida nomlangan juda ko‘p milliy restoranlarimiz bor, masalan: “Karomat”, “Sim- sim”, “Nur”, “Samo”, “Joziba”, “Jiz-biz”, “Rayhon”…. Bu kabi nomlar, avvalo, o‘zligimiz, milliyligimizni anglatib turmaydimi?

Endi yuqoridagi nomlarning ayrimlarini nima ma’no anglatishini tahlil qilib chiqamiz: *Karomat* restoraniga muvaffaqiyatli nom berilgan. Nomlashda so‘zning assotsiativ ma’nolariga asoslanilsa “obro‘-e’tibor”, “saxovat”, “saxiylik”, “mo‘jiza” degan ma’nolarni anglatadi. *Nur* kafesiga qo‘yilgan nom esa “nur taratib turuvchi”, “yog‘du” assotsiatsiyalarini hosil qiladi. Aslida ham shunday: bu restoranga tashrif buyuruvchilar

ham birinchi o‘rinda uning nomiga e’tibor beradi. Keyin esa xizmat ko‘rsatishiga. Bundan kelib chiqadiki, nom qo‘yish muhim ahamiyatga ega ekan. Keyingi restoranlarimizdan yana biri bu – *Samo.* Muvaffaqiyatli nom qo‘yilgan deyish mumkin. Nomlovchi samo so‘zi orqali yuzaga keladigan “osmon, ko‘k, falak” ma’nolari orqali nomlanuvchi obyektning “poklikda, cheksizlikda faoliyat yuritishi” assotsiativ ma’nosini yuzaga keltirgan. Yana bir muvaffaqayatli nomlardan biri – *Joziba.* Nomlovchi obyektga nom berishda “yoqimlilik, dilbarlik, malohat, o‘ziga tortuvchi kuch” assotsiatsiyalariga tayangan va samarali reklama uchun ximat qilgan.

Shuningdek, taom nomlarining nomga ko‘chish holatlari ham uchrab turadi. Masalan, *Jiz-biz* restorani. Aslida qovurilgan go‘sht ma’nosini anglatuvchi nom keyinchalik restoran nomiga o‘tgan. Nomlovchi jiz-biz so‘zi orqali “Bu yerda faqat qovurilgan go‘sht emas, xohlagan taomingizni tanovul qilishingiz mumkin” assotsiatsiyasini hosil qilgan. *“Rayhon” milliy taomlari* hozirda eng ommabop oilaviy restoranlarimizdan hisoblanadi. O‘zbek xonadonini, hovlisini rayhonsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Nomga aylangan bu so‘z taom nomini emas, xushbo‘y o‘simlik turi ma’nosini anglatadi, biroq u orqali o‘zbekona qadriyatlarga ishora mavjud. Ko‘rinadiki, bu milliy nomlar o‘zgacha, o‘ziga xos jozibasi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lutfullayeva D. Assotsiativ tilshunosilik nazariyasi. – Toshkent, 2017. – B. 7.

2. Лутфуллаева Д., Сапарниязова М. Проблема ассоциативного подхода к языку на современном этапе узбекского языкознания // Вопросы когнитивной лингвистики. – Россия, 2020. № 2. – С. 139-146.

3. D.Lutfullayeva, M.Saparniyazova, R.Davlatova. Monografiya. O‘zbek tilida nom yaratishning lingvistik-me’yoriy asoslari. – Toshkent, 2022.

O‘ZBEK TILIDA NOMLASH TIZIMI VA NEYMING XIZMATI

Bobojonov Farhod,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Davlat tilida ish yuritish asoslarini
o‘qitish va malaka oshirish markazi
Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududiy bo‘linmasi rahbari

Annotatsiya. Maqolada nomlash va neyming xizmati munosabati, o‘zbek tilida nomlash tizimining shakllanishi, nom tanlash yoki yaratishni davlat tilida amalga oshirishdagi muammolar, nomlash jarayoniga qo‘yiladigan talablar xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: nomlash, neyming, nomlash tamoyillari, nomlash xizmati, nom berish, neyming xizmati, ergonimlar, nom berishning elektron platformasi, milliylik, ommaboplik, jarangdorlik, ixchamlik, hududiy muvofiqlik.

Til jamiyatda juda muhim vazifa – axborot almashish tizimiga xizmat qiladi. Bu jarayonda predmet, shaxs, hudud, voqea-hodisa va tushunchalar turli xil nomlar bilan yuritiladi va nomlash jarayoni tilda muhim ahamiyat kasb etadi. Nomlash turli

maqsadlarda, xilma-xil usullar orqali va har xil tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Bu jarayon xorijda neyming xizmati deb yuritiladi. Neyming har qanday kompaniyaning marketing strategiyasida muhim o‘rin tutuvchi jarayon bo‘lib, kompaniyalarning mahsulot va xizmatlariga jarangdor, taniqli, tez ommalashadigan nomlarni topish, saralash, qayta ishlash hamda brend darajasiga ko‘tarish uchun olib boriladigan xizmatlarni o‘z ichiga oladi. Xalqaro tashkilotlar, ta’lim muassasalari, sport jamiyatlari, firmalar, korporatsiyalar, savdo, ishlab chiqarish obyektlari nomlari onomastikada alohida guruh – ergonimlar sifatida talqin qilinmoqda [2,111].

O‘zbek tilida keyingi yillarda neyming atamasi tilshunoslikka doir ilmiy ishlarda, biznesga doir matnlarda uchrab turadi. Neyming termini nomlash, nom berishga nisbatan ishlatilsa-da, ma’no doirasi, qo‘llanish obektiga ko‘ra so‘zlashuv nutqiga xos nom so‘zidan farq qiladi. “O‘zbek tilida nom so‘zi borliqdagi har qanday narsa-predmet, voqea-hodisa, belgi-harakat, miqdor kabilarga nisbatan ishlatiluvchi so‘z bo‘lsa, neyming ishlab chiqarish va savdo-sotiq obektlari, mahsulotlar, ularning markasi (brendi) nomlarini qamrab oluvchi terminologik birlik ekanligi bilan xarakterlidir. Bu termin zamonaviy tilshunoslikka ham aynan shu ma’nosida kirib keldi va bugungi kunda ishlab chiqarish va savdo-sotiq obektlari, mahsulotlarni nomlashning lingvistik jihatlarini o‘rganuvchi faoliyat turiga nisbatan faol ishlatilmoqda”.[4] Demak, neyming atamasi nomlash so‘ziga nisbatan ancha tor va ixtisoslashgan ma’noda qo‘llaniladi. Ya’ni “neyming” lingivistik atama darajasiga ko‘tarilgan.

Biroq til hamjamiyati vakillari – keng jamoatchilik uchun bu atama iste’molda tushunarsiz bo‘lib qolmoqda. Shu bois o‘zbek tili hamjamiyati vakillari uchun ilmiy matnlarda ham “nomlash xizmati”, “nom berish” birikmalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Neymingdan farqli o‘laroq nomlash jarayoni ko‘p qirrali tizim. Farzandga ism qo‘yish, hudud va geografik obyektlarga nom berish, tashkiliy tuzilma, jarayon, predmet, hujjat va boshqalarni nomlash kabilarning barchasini qamrab oladi. Nomlash jarayonida tanlangan nomning semantik ma’nosi, ko‘zlangan tushunchani ifodalash imkoniyati, uning ommabopligi, milliyligi, tub yoki yasalmaligi, bir yoki bir necha so‘z bilan ifodalanishi kabi bir qancha omillarni e’tiborga olish zarur. Masalan, *Boltavoy* ismini eshitish bilan mazkur shaxs o‘zbek millatiga mansubligini yoki *Ivan* ismi rus millatiga mansub shaxsni anglatishini darhol idrok etamiz. *Jeyms* yoki *Jonn* ismi bilan ataladigan o‘zbek bolasini tasavvur qilish juda qiyin. Xuddi shu tamoyillar hudud va geografik obyektlarni nomlashda, shuningdek, savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish obyektlariga nom berishda ham qo‘l keladi. Ya’ni obyektlarni nomlashda ham milliylik tamoyili bosh mezon bo‘lishi lozim. Bu borada tilshunoslarning ilmiy izlanishlari va shu soha doirasida amalga oshirayotgan tadqiqotlarining natijalari muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek tilshunosligida nom yaratish va neyming xizmatiga doir monografik ilmiy tadqiqotlar juda kam. D.Lutfullaevaning “O‘zbek tilida nom yaratish texnologiyasi” monografiyasi, D.Xudoyberganovaning “Tashkilot, korxona va muassasa nomlarining izohli-tavsiyaviy lug‘ati”, M.Saparniyazova, J.O‘rozovlarning “O‘zbek tilida nom yaratishning milliy-madaniy xususiyatlari” monografiyalari bu sohadagi dastlabki ishlardan sanaladi. Bu borada M.Saparniyazovaning izlanishlari diqqatga sazovor. Olima bu sohada ilmiy maqolalar yozish, monografik tadqiqotlar olib borish bilan birga Alisher

Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida “O‘zbek tilida neyming: me’yoriy-huquqiy asoslarini yaratish” mavzusidagi ilmiy loyihaga ham rahbarlik qilmoqda. Loyiha doirasida savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish obyektlariga nom berishning elektron platformasi yaratilyotganligiga e’tiborga loyiqdir. Mazkur sohaga oid tuzilayotgan lug‘atlarda nomlarning o‘zbek adabiy tili me’yorlariga mos kelmaydigan shakllar ham so‘zlik sifatida kiritilib, ularning nuqsonlari ko‘rsatib o‘tiladi hamda nomlarni takomillashtirish bo‘yicha aniq tavsiyalar berilgan[7,9].

Bugungi kunda obyektlarni davlat tilida va milliy an’analardan kelib chiqqan holda nomlashni tartibga solish uchun yangi bir soha davlat tilida nomlash tizimi shakllanmoqda. Mazkur tizimni huquqiy tomondan tartibga solishga, nomlashni davlat tilida amalga oshirishga hukumat darajasida e’tibor qaratilyapti. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 16-martda qabul qilingan “Savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish obyektlariga nom berishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 144-sonli qarori [1] sohaning rivojlanishi uchun huquqiy asos vazifasini o‘taydi. Qarorga muvofiq savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish obektlariga davlat tilida nom berish (neyming) xizmatini ko‘rsatish Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi hamda uning hududiy bo‘linmalari tomonidan amalga oshirilishi belgilangan. Darhaqiqat, obyektlarni (savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish obektlari) davlat tilida nomlash tilshunos mutaxassislar tomonidan amalga oshirilgani maqsadga muvofiqdir. Qaror ijrosini ta’minlash maqsadida mamlakatimizda ko‘plab obyekt va hududlarni davlat tilida nomlash masalasi ko‘tarilmoqda va bu borada salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Yangidan tashkil etilayotgan savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari, qo‘shma korxonalar, firmalar va boshqa xo‘jalik birlashmalarini milliy brend darajasiga ko‘tarila oladigan nomlar bilan atashda tilshunoslarning tavsiyalari muhim o‘rin tutadi.

Tilda har qanday nom til hamjamiyati vakillari ongida qandaydir borliq tasavvurini yoki mavhum tushunchaning in’ikosini shakllantirishi lozim. Ya’ni nomlash jarayonidagi eng muhim jihat nom inson ongida predmet yoki tushunchaning vizual modelini yaratishi kerak. Shuningdek, nomlashda *milliylik, ommaboplik, jarangdorlik, ixchamlik, hududiy muvofiqlik* kabi talablarni ham hisobga olish zarur. Bizning nazarimizda nom berish jarayonida bir qancha omillarga e’tibor qaratish lozim. Bular quyidagilar:

1) nomning milliyligi;
2) nomning yuklatilgan ma’noni ifodalash imkoni mavjudligi;
3) nomning ommabopligi;
4) nomning jarangdorligi;
5) nom ixchamligi (bir so‘z yoki ikki so‘zli birikmadan oshmagan);
6) nomning imkon qadar tub yoki ommabop yasalma bo‘lishi;
7) nomning hududga mos bo‘lishi.

Mazkur talablarni yanada kengaytirish mumkin. Biz juda muhim hisoblangan omillarni siralash bilan cheklandik. Nomlash jarayoni mutaxassis tomonidan amalga oshirilmasa, mazkur talablardan chetlashish mumkin. Odatda, tadbirkorlar biznes obyektlarni nomlashda xorijiy jarangdor so‘zlardan foydalanishga intilishadi. Milliylik, ommaboplik, nom etimologiyasi va semantikasi e’tibordan chetda qoladi. Go‘yoki chet

tili so‘zining jarangdorligi orqali o‘z biznesini xorijiy standartlar asosida tashkil qilayotgani to‘g‘risida tasavvur yaratmoqchi bo‘lishadi. Biroq yaratilgan tasavvurlar amalda isbotlanmasa, hech qanday nom sifatni kafolatlab bera olmaydi. Aksincha, chiroyli milliy nom tanlab, uni brendga aylantirish uchun doimiy ravishda sifatga e’tibor qaratish muhimroqdir. Ba’zan xorijiy brend nomlarni shunchaki ko‘chirib olish, ya’ni nom o‘g‘irlash holatlari ham uchraydi. Aslida tilimizda jarangdor, mahsulot yoki xizmat tavsifiga mos, ommalashtirish oson bo‘lgan ko‘plam nomlarni topish yoki yasash orqali hosil qilish mumkin. Faqat bu masalani mutaxassislarga topshirish kerak xolos.

Har qanday nomlashda (shaxsni, hududni, geografik obyektlarini, savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish obektlari) milliylikka birlamchi omil sifatida yondashish tavsiya qilinadi. Nomdagi milliy atributlar millat, xalq va hudud xususida, uning tarixi yoki madaniyati to‘g‘risida tasavvur yaratadi. Shuningdek, nom atalayotgan shaxs, predmet yoki obyektga mos bo‘lishini hisobga olish zarur. Ya’ni nomning ma’no qamrovida shaxs, predmet yoki obyektdan biriga ishora bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Shu bois nom tanlash yoki yaratishda uning ommabopligiga e’tibor qaratish yoki omalashishiga ishonch hosil qilish muhim jihatdir. Odatda, yangidan yasalgan jarangdor nomlar tez ommalashadi. Tajribali tilshunos ekspertlarning bu boradagi bashoratlari ko‘pincha o‘zini oqlaydi. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, tarixan iste’molda bo‘lgan so‘zlar orasida arabcha va forscha so‘zlarga nisbatan asl turkiy so‘zlar tez ommalashadi. Masalan, *samolyot* so‘zining muqobili sifatida ishlatiladigan *tayyora* va *uchoq* so‘zlarini tahlilga tortsak, ikkinchisining ommalashishi tez sodir bo‘ladi. Hatto bu holatni yangi yasalmalarda ham ko‘rish mumkin.

Demak, har qanday obyektga nom tanlash yoki yangi nom yaratish nafaqat mas’uliyatli ish, balki davlatning til siyosati bilan bevosita aloqador muhim jarayondir. Nom tanlash yoki yangi nom yaratish jarayonida birinchi navbatda nomning milliyligi, ommapobligi, jarangdorligi, ixchamligi, xududiy muvofiqligi, ko‘zlangan jbyektga mosligi kabi omillarni hisobga olish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 16-martda qabul qilingan “Savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish obyektlariga nom berishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 144-sonli qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2021-yil 17-martdagi 09/21/144/0214-son.

2. Елистратов В.С., Пименов П.А. Нейминг: искусство называть. М.: Омега-Л, 2014. –С.111.

3. Лутфуллаева Д. Сапарниязова М. Ўзбек тилида ном яратишнинг лингвистик асослари. //Илм сарчашмалари. Т., 2019. №9. – Б.54-57.

4. Лутфуллаева Д., Сапарниязова М. Нейминг: тилда ном яратиш технологияси. “SCOPUS” базасидаги журнал. November-December 2019. ISSN: 0193-4120 Page No. 4183 – 4189.

5. Lutfullayeva D. O‘zbek tilida nom yaratish texnologiyasi. – T., 2021.

6. Lutfullayeva D., Saparniyazova M., Davlatova R. O‘zbek tilida nom yaratishning lingvistik-me’yoriy asoslari. – Toshkent: «ZEBO PRINT», 2022. – B. 192.

7. Saparniyazova M., O‘rozov J. O‘zbek tilida nom yaratishning milliy-madaniy xususiyatlari. –T.: Ishonchli hamkor, 2021.

8. Xudoyberganova D. Tashkilot, korxona va muassasa nomlarining izohli-tavsiyaviy lug‘ati. – T.: Ishonchli hamkor, 2021.

ARAB TILIDAN O‘ZLASHGAN ISMLARNING MUAMMOSINI YARATUVCHI OMILLAR

Kadirova Xurshida,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
qodirova@navoiy-uni.uz

Annotatsiya. Maqolada arab tilidan kirib kelgan o‘zbek ismlarining orfografik, orfoepik, leksik-semantik buzilishlari bilan bog`liq muammolar ko‘rsatilgan, bu muammolarga sabab bo‘luvchi omillar sanab o‘tilgan. Muallif arab tilidan kirib kelgan ismlarni qo‘yishda o‘zbek va arab imlo qoidalariga rioya qilishni, arab-o‘zbek izohli lug`atlaridan foydalanish kerakligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: ismlar, arab tili, o‘zbek tili imlosi, diniy ta’limot, arab-o‘zbek tili izohli lug‘ati

Islom dinining fikx kitoblarida ota-onaning farzandga chiroyli va ma’noli ismlar qo‘yishi xususida ko‘plab ma’lumotlar keltiriladi. Zero, kelajakda farzand o‘z ismidan boshqalar huzurida istihola qilmasligi, tinglovchining idrok etishiga salbiy ta’sir etmasligi muhim hayotiy va ilmiy masaladir. Biroq ismlarning kelib chiqish sabalari turli-tuman, maqsad, sabab va niyatlar bilan bog‘liq ekan, uni tizimlashtirish, muayyan qonun qoidarga bo‘ysundirish muammo bo‘lib qolaveradi.

Islom madaniyatining taraqqiy etish jarayonida arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar qatorida ismlar ham o‘zbek ismlari lug‘atini boyitishga xizmat qilmoqda. Qolaversa, diniy ta’limot rivoji natijasi o‘laroq ismlarni o‘zgartirish holati bugungi kunda keng avj olmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarda muayyan mamlakatning ayrim ismlarni qo‘yish bilan bog‘liq taqiqlar, ba’zi mintaqalarda biror ismning keng tarqalgani yoki mashhur bo‘lgani xususida axborotlarning avj olishi yuqorida zikr etilgan sabablar oqibati deb tushunish mumkin. Biroq arab tilidan bexabar bo‘lgan til vakillari, xususan FXDYO xodimlari ismlarni qayd etish jarayonida arab tili grammatik va orfografik qonuniyati, tilning lingvokulturologik xususiyati va nomning ijtimoiy-siyosiy, diniy, tarixiy, etimologik hayoti bilan bog‘liq bilimlarga ega bo‘lmaganligi oqibatida muayyan omillarga tayanuvchi muammolarni yuzaga keltiradi.

Birinchi omil: diniy tushuncha va e’tiqodlar bilan bog`liq nomlarni qo‘yishga bo‘lgan ishtiyoq.

- Allohning nomi, sifatlaridan, uni madh qiluvchi tushunchalar nomidan yasalgan ismlar farzand uchun og`irlik qilishi mumkin degan ibtidoiy aqida bilan unga qo‘shimcha ravishda yana ismlarni qo‘shib aytish, natijada keng, uzun yoki qo‘sh ismlar paydo bo‘lishi muammosini keltirib chiqaradi. Ma’lumki, bunday ismlar ayrim hollarda nutq jarayonida qisqa aytilish, chala ifoda etish, adashib ketish, yodidan chiqarish kabi

vaziyatlarni taqozo qilishi va kommunikativ muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatish imkoniyatini yaratadi.

- Payg‘ambarlarning nomlari va sifatlarini bildiruvchi so‘zlardan yasalgan ismlar (Muhammad, Idris, Ibrohim, Is’hoq, Ya’qub, Muso, Yunus, Iso; Ahmad, Hamid, Mahmud, Rasul, Nabi (y), Komil, Habibulla, Najibulla, Bashir, Mubojir va boshqalar)ni ba’zi hududlarda to‘liqsiz shaklda “qul” so‘zi bilan istifoda etilish holatlari kuzatiladi. Masalan, *Qulmat, Qulmamat* (asli: *Qulmuhammad*); *Irisqul* (asli: *Idrisqul*). *Ibray* (asli: *Ibrohim*), *Ibrohimqul.* Bu esa disfemik kayfiyatni uyg‘otib, bugungi kunda ma’naviy-g`oyaviy eskirgan, faqat allohga nisbatan bo‘ladigan bu darajani shaxsga, Allohning bandasi, ya’ni o‘zi tanlagan quliga qul bo‘lishlik sifatini namoyon etadi.

- Xalifalar, ba’zi sahobalar, aziz-avliyolarning nomlariga nisbat berilgan ismlar Abubakr, Siddiq, Umar, Usmon, Ali va boshqalarni ilohiylashtirishga bo‘lgan urishish. Masalan, *Ijozali* – Alining mo‘jizasi karomati; *Imodali* – Ali ato qilgan suyanch, madad; Alining ko‘magi tufayli erishilgan bola; *Imombaxsh* – Imom ato qilgan, bergan bola; *Imomberdi* – diniy peshvo, muqaddas avliyo ato qilgan bola; *Imombergan, Imommurod, Imomnafas, Imomnazar, Imomniyoz; Imonali* – Aliga e’tiqod qiluvchi, sig`inuvchi bola yoki imon-e’tiqodli bolani Ali o‘z panohida asrasin, *Inoyatali* – Alining himmati, ehsoni, ko‘magi kabi ismlar shular jumlasidan.

Ikkinchi omil: imlo qoidalariga rioya qilmaslik. Ma’lumki, arab tilida ko‘p tovushlarning ber necha xil variatsiyasi bo‘lib, asosan izofalar yordamida turlicha talaffuz etilish xususiyatiga ega. Biroq, ota-onalar nomlarning asliyatdagi shaklidan bexabarligi barobarida o‘z farzanlariga qo‘yishi natijasida nomlarning turli ko‘rinishlari o‘zbek ismlari lug`atidan o‘rin egallab, bir xil ma’noli va har xil shaklli ismlar ortiqcha joy olish muammosini yaratgan. Masalan, *Iso – Iyso*; *In’om – Inom*; *Ibodulla – Ibodulloh, Ibray – Ibrohim, Is’hoq – Ishoq* (tutuq belgisining tushib qolishi natijasida paydo bo‘lgan nom); *Iffar – Iffat*; *Iymon – Imon* va boshqalar.

Uchinchi omil: arab tili izohli lug‘atidan foydalanmaslik. Mazkur omil yuqorida zikr etilgan barcha muammolarning boshi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Vaholangki, 2017-yildan boshlab to‘rt jilddan iborat, klassik va zamonaviy arab adabiy va so‘zlashuv tilidagi yuz mingdan ortiq so‘z va iboralarni, shuningdek, fan, texnika, san’at, va madaniyat sohalariga oid atama va tushunchalarni o‘z ichiga olgan *“Al-Qomus” arabcha-o‘zbekcha qomusiy lug‘at* nashr etilib kelinmoqda. Shuningdek, 60 mingga yaqin so‘zdan iborat “An-Na’ym ul-Kabir” arabcha-o‘zbekcha lug‘at (“An-Na’ym” arabcha-o‘zbekcha lug‘atining (Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2003) to‘ldirilgan va tuzatilgan variantidir.) nashr etiladiki, unda avvalgi nashrda mavjud bo‘lmagan sakkiz minga yaqin so‘z va iboralar kiritilgan. Shuningdek «An-Na’ym» lug‘ati tarkibiga kirgan yetti mingga yaqin so‘zning yangi ma’nolari kashf etilib, lug`atga kiritilgan, illyustratsiya harakterdagi misollar bilan ma’nolar konkretlashtirilgan. Bu yangi kiritilgan so‘zlarning ayrim qismini arabiy istorizm va arxaizmlar, kishi nomlari va geografik atamalar tashkil etadi. Demak, bunday bilimsizlik manbaaning yetarlimasligidan emas, balki e’tiborsizlikdan kelib chiqadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ism qo‘yuvchilar ijtimoiy tarmoq yoki diniy ulamoning og`zaki murojaati bilan qoniqib, arabcha nomlarni o‘zbek tilidagi orfoepik va orfografik, leksik va grammatik qoidariga putur yetkazishdek muammoni yuzaga keltirmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda o‘zbek tilini asrab avaylash, har jihatdan uni rivojlantirish va o‘zga til vakili onggida u xususda to‘g‘ri tasavvur hosil qilishiga ko‘mak berish masalasi kun tarbida turar ekan, tilshunoslarga ismlarni ham ilmiy tadqiq qilish vazifasi yuklatiladi. Zero, xalqning, millatning dunyo miqyosidagi o‘rni, mavqeyi va obro‘si nafaqat san’at, iqtisod va turizim kabi sohalar bilan, balki tili bilan ham belgilanadi. Katta yutuqlarga erishilayotgan, turli jabhalarda o‘zini ko‘rsatayotgan o‘zbek farzandining ismini dunyo to‘g`ri qabul qilishi va go‘zal bo‘lishi muhim masala. Demak, uni qonuniylashtirish, tizimlashtrish va bir qolipga keltirish burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bekmurodov N. Eng chiroyli ismlar va ularning ma’nolari. Toshkent: Yangi kitob, 2019. – B. 528.
2. Hamdamova Z. Ismlar ma’nosi. – Toshkent: Meruyus, 2014. – B. 80.
3. Зиёвудин Раҳим. Гўзал исмлар маъноси. – Тошкент: Наврўз, 2019. – Б. 408.
4. Бекмуродов Н. Исминг – истиқболинг. Чиройли исмлар тўплами. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013. – Б. 376.

O‘ZBEK TILIDA SO‘Z BIRIKMALARINING MURAKKABLASHISH OMILLARI

Madaminov Abdurahmon,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent,
Qoraqalpoq davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada hozirgi ozbek adabiy tilidagi sodda soz birikmalarining shakily va mazmuniy murakkablashish holatlari yoritilagan.

Kalit so‘zlar: sodda, murakkab, hokim, tobe, atributiv, yoyiq, oramlar.

Sodda so‘z birikmalari(SB) ikkita mustaqil so‘zning ma’no va grammatik jihatdan tobeli aloqaga kirishishi natijasida hosil bo‘ladigan sintaktik butunlikdir. Ammo bu holat hamisha saqlanib turmasdan birikmadan anglashilgan ma’no qancha konkretlashgani sari ular tuzilishi jihatidan ham murakkablashib boradi.Murakkab SBlar sodda SBlarning hokim yoki tobe qismlarning yoyilishi natijasida yuzaga keladi. Asosan, ular quyidagi hollarda shakliy va mazmuniy jihatdan murakkablashadi:

1. Sodda SBlari tobe qismining kengayishi natijasida murakkab so‘z birikmalari hosil bo‘ladi: Masalan: a) ism so‘z birikmalarining tobe qismi kengayadi: *bog‘dagi gullar - maktabimiz bog‘idagi gullar*; b) fe’lli SBlarining tobe qismi yoyiladi: *qiziqib o‘qimoq – asarni qiziqib o‘qimoq;* v) ravishli SBlari murakkablashadi: *ovozdan tez - o‘qning ovozidan tez* kabi.

2. Sodda SBlarning hokim bo‘lagining kengayishidan murakkab birikmalar yuzaga keladi: a) ism (keng ma’noda) sodda SBlarining hokim bo‘lagi yoyiladi: *bog‘dagi gullar - bog‘dagi xushbo‘y gullar*: b) fe’lli sodda SBlarining hokim bo‘lagi yoyiladi: *onani sevmoq-onani chin qalbdan sevmoq*; v) ravishli sodda SBlarining hokim bo‘lagi kengayadi: *ovozdan tez-ovozdan tez eshitilmoq* kabilar.

Demak, sodda SBlarining murakkablashish holati hokim va tobe bo‘laklar hisobiga sodir bo‘ladigan jarayondir. Bu esa nutq jarayoniga bog‘liq ravishda amalga oshadi.Hozirgach mavjud tatqiqotlarda SBlarining shakily tomoniga asosiy etibor qaratilib ularning mazmuniy jihatlari biro z etibordan chetda qolgan edi.

Turkiy tillarda, jumladan, o‘zbek adabiy tilida ham murakkab tushunchalarni sodda gap tarkibida uyushiq bo‘lak va o‘ramlardan tashqari murakkab SBlari bilan ham kengaytirish mumkin. Bu esa turkiy tilarning o‘ziga xos grammatik qonuniyatlari bilan bog‘liqdir.

Sodda SBlarining yoyilishi hokim bo‘lak vazifasidagi so‘zning morfologik tabiatiga ko‘ra ham amalga oshadi. Agar sodda SBlarida hokim bo‘lak ot turkumiga oid so‘zlardan tashkil topgan bo‘lsa, u o‘ziga aniqlovchilarni qabul qilib kengayishi, fe’l turkumidagi so‘zlardan iborat bo‘lsa, to‘ldiruvchi va hol vazifasidagi so‘zlar bilan yoyilib kelishi mumkin. Ammo barcha mustaqil so‘zlarning kengayish imkoniyati bir xil darajada emas. Haqiqatan ham ot va fe’lli SBlarida bu holat ancha kuchli, sifat, ravish kabi SBlarida esa ancha kuchsiz.

Xullas, SBlarining murakkablashuvi xilma-xil usullar yordamida yuzaga keladigan holatdir. Bu esa ularning o‘ziga xos xususiyatlarini maxsus o‘rganishni taqozo etadi.

Otli murakkab SBning struktur-semantik xususiyatlarini to‘la ochib berish uchun tobe qismning qanday so‘z turkumlari bilan ifodalanishi muhim ahamiyatga ega. MSBning tobe qismi asosan, sifatdoshlar yordamida yoyilib, hokim bo‘lak vazifasidagi otni har tomonlama to‘la aniqlashga xizmat qiladi: *Sochlari ustidan oppoq qalpoqchasini qo‘ndirib olgan doktor opa, uning ketidan xalat kiygan gavdali bir kishi kirib keldi* («Nur borki, soya bor» 16b). Keltirilgan misolda doktor opaning qiyofasini to‘la ochib berish uchun yoyik aniqlovchili birikmadan foydalanilgan. Natijada tobe qism bir butun holda doktor opa hokim bo‘lakni aniqlashga xizmat qiladi. Shuningdek, biror narsaning holati va unga ta’sir qilgan ikkinchi bir narsaning aksi natijasida sodir bo‘lgan voqea-hodisa ham izohlanadi. Masalan: *Buyuk sokinlik og‘ushidagi jimirlab yotgan suv, suv yuziga tushib charaqlagan kuyosh nurlari ko‘zni qamashtiradi* (Ch.Aytmatov). Demak, keltirilgan jumlada ega vazifasida kelgan suv va quyosh nurlari so‘zlari obyektni aniqlash maqsatida, yoyiq sifatlovchi aniqlovchilar yordamida murakkablashgan.

Ism MSBlari tobe qismi ravishdosh va sifatdosh o‘ramlar yordamida ko‘proq murakkablashib yoyiq birikmalar hosil qiladi. Masalan: *Olti yoshidan mol ketida yurib katta bo‘lgan Mamat ham yolchitib ishlamas edi* (A.Muxtor).

Otli MSB biror shaxs yoki predmetga xos turli xususiyatlarni to‘la ochib berish uchun uyushiq holatda ham keladi: *Odatda g‘am nimaligini bilmay, doim xushchaqchaq yuradigan Tohira bu safar qandaydir juda ma’yus ko‘rinar, yuzi so‘lg‘in, ko‘zlari kirtayib qolgandi* («Diyonat», 109 b.) kabi.

Bunday atributiv xarakterdagi MSBi badiiy asarlarda biror personajning hatti-harakati, qiyofasi, xulq-atvorlarini to‘la ochib berishda ko‘p uchraydi. Masalan: *Yelkasida banoras to‘n, ko‘kragi chapanilarcha ochiq, yangi chust do‘ppisini peshonasiga do‘ndirib kiyib olgan Otaqo‘zi xushnud iljayib kelardi*. (Diyonat,244-b) Ma’lumki,otli MSBning tobe qismi kelishik qo‘shimchalari yoki ko‘makchilar yordamida yoyilib kelishi mumkin. Natijada ular gap tarkibida bir butun holda yoyiq to‘ldiruvchi vazifasini bajaradi. Masalan: Otaqo‘zining tog‘day salmoqli gaplaridan

g‘ujanak bo‘lib qolgan Fazilat o‘zini jilmayishga majbur etdi. (Diyonat,106 –b.) *Atrofi ikki-uch qavatli eski binolar bilan qurshalgan, serdaraxt, salqin hovli gavjum*. (H.Nazir) Keltirilgan misollarda hokim so‘z vazifasidagi ot sifatdoshdan tashqari nimadan? nima bilan? kabi so‘roqlarga javob beradigan yoyiq to‘ldiruvchilar yordamida murakkablashib kelgan. Murakkab so‘z birikmalarning xarakterli xususiyatlaridan biri shundaki, uni tashkil etgan har bir qism shu birikma tarkibida ma’lum bir sintaktik vazifa bajarib, alohida mustaqil gap bo‘lagi sanaladi. Masalan: *Tog‘ etagidagi ko‘m-ko‘k qirlarda qiyg‘os gullagan bodomzorlar aniq ko‘rindi*. (O.Yoqubov)

Otli MSB tarkibida sifatdosh o‘ramlardan keyin bu, bir kabi aniqlovchi vazifasidagi so‘zlar kelib, ular birgalikda hokim so‘z vazifasidagi otni aniqlaydi. Masalan: *So‘ng, chehrasidan allaqanday shuur yog‘ilib turgan bu kimsa yugurib chiqdi.* (Ko‘hna dunyo,38 -b*) Sal o‘tmay, bo‘sag‘ada ustiga eski qora chakmon, boshiga qora ag‘darma telpak kiygan bir kimsa paydo bo‘ldi.* (Ko‘hna dunyo.60 b) kabi.

Yuqoridagi so‘z birikmalarida hokim bo‘laklar bu va bir olmoshlari yordamida birikmadan anglashilgan ma’nolarini yanada chuqurroq ifodalashga xizmat qiladi. Hatto, bu olmoshidan keyin ham hokim so‘z vazifasidagi otlar aniqlovchili birikmalar yordamida yana murakkablashishi mumkin. Masalan: *Kim bilsin, vasvasa dardiga duchor bo‘lgan bu qahri qattiq hokim erta mashvaratda ne deydi?* («Ko‘hna dunyo»,31-b). Bu yerda hokim so‘zi *bu, qahri qattiq* kabi so‘zlar yordamida murakkab tushunchani ifodalashga xizmat qilgan va bitishuv usuli yordamida aniqlovchilar hokim so‘zni har tomondan aniqlashga qaratilgan: *vasvasa dardiga tushgan hokim, bu hokim, qahri qattiq hokim* kabi.

Demak, yoyiq aniqlovchili MSBlari hokim so‘z vazifasidagi otni har tomonlama to‘liq va mukammal ifodalashga qaratiladi. Bunday paytlarda bir emas,bir nechta aniqlovchilar butunligicha hokim so‘zni kengaytiradi. Masalan: *Yelkasiga tashlab qo‘yilgan ikki o‘rim bo‘liq sochi to‘lg‘anib turibdi.* (Tashvishli dunyo, 5-b.)*Bo‘yi baravar tikilgan gulli qizg‘ish shoyi ko‘ylagi oldiga qator tugmalar qadalgandi* (shu joyda, 5-b). *U tumanda yangi tashkil etilgan mahalliy sanoat kombinatining direktori lavozimida ishlar edi*.(Qahqaha,87-b)

Bunday yoyiq aniqlovchili MSBlari bitishuv usuli yordamida ma’no jihatdan bir butun holda murakkab tarzda keladi. Masalan: *Og‘irligi yetmish kilo keladigan bitta semiz arabi qo‘chqor eltdim* (Qahqaha,27-b).Bu murakkab SBsi tarkibidagi so‘zlarni quyidagicha sodda birikmalarga ajratish mumkin. Masalan: *og‘irligi yetmish kilo keladigan qo‘chqor, bitta semiz qo‘chqor, arabi qo‘chqor* kabi. Lekin ular gapda bir butun holda yoyiq sifatlovchi aniqlovchi vazifasini bajarib kelgan.

Otli MSBlarining yoyilishi hokim so‘z vazifasidagi ot yoki otlashgan so‘z kengayishi bilan ham bog‘liq bo‘ladi: *Tog‘ archazorlariga tutashib ketgan bu hududsiz chakalakzor xuddi bahordagiday yashnab yotardi*.(Diyonat,137-b). *A’zamjon tushgan mashina olisda paranji yopingan xotindek ko‘ringan bir tup qayrog‘och tomonga intilardi* (Ufq,545-b) kabi. Keltirilgan yoyiq aniqlovchili MSB hokim bo‘lagi vazifasida bir tup qayrag‘och, bu hududsiz chakalakzor, bir dasta xat kabi murakkab birikmalar kelib, birikmaning hokim bo‘lagidan anglashilgan ma’noni yanada to‘la ifodalashga xizmat qiladi. Natijada, mazkur aniqlovchi vazifasidagi so‘z o‘zidan oldingi sifatdosh o‘ramli birikmalardan anglashilayotgan ma’noni to‘ldiradi va unga mos holda ijobiy yoki

salbiy ma’nolarni ifodalaydi. *U hozir katta falokat oldida nima qilishini bilmagan ojiz kishiga o‘xshar edi*. *(*Farg‘ona tong otguncha, 174-b) *Tashqaridan qaragan kishi bularni bir-biri bilan gaplashishdan hazar qiladigan ters odamlar deb o‘ylashi aniq edi*. (Farg‘ona tong otguncha,149-b).

Hatto, bitta yoyiq aniqlovchili MSB ma’noni yanada kuchaytirish maqsadida olmosh va sifatlar yordamida ular yanada kengayishi mumkin. Masalan: *Onalik mehridan tug‘ilgan bu teran donolikni ham, kampirning ko‘z yoshi bilan sug‘orilgan bu tiniq so‘zlar oldida o‘z xatlarining butun mudhish shafqatsizligini ham domla mana endi tushundi*. (Diyonat, 85 -b). Keltirilgan misollar tarkibida bu teran donolik, bu tiniq so‘zlar kabi sifatlovchi aniqlovchili birikmalar sifatdosh o‘ramli yoyiq aniqlovchilarga mos holda qo‘llanilgan. Lekin shuni alohida ta’kidlash lozimki, tarkibida turg‘un birikmalar ishtirok etgan sodda atributiv birimalarni MSBlaridan farqlash lozim: *U paytlarda Fazilat haliyam mana-man degan yigitlarning yuragiga cho‘g‘ solsa solgudek yosh juvon edi* (Diyonat, 105-b). Bu gapda yuragiga cho‘g‘ solmoq iborasi butunligicha bir xil so‘roqqa javob beradigan bitta leksik birlik sanaladi. Hatto, ular sifatdosh o‘ramli aniqlovchili MSBlariga ham teng kelib qolishi mumkin. Masalan*: Kalavasining uchini yo‘qotib qo‘ygan xudojo‘y otani endi munofiq muridlar o‘rtaga olishdi*. (Farg‘ona tong otguncha, 7- b)

Ma’lumki, ba’zan erkin so‘z birikmalari bilan turg‘un so‘z birikmalarining shakliy tomoni bir-biriga teng kelib qolishi mumkin, ammo ularning to‘g‘ri yoki ko‘chma ma’noda qo‘llanilganligi birikma ma’nosidan anglashilib turadi. Xullas, turg‘un birikmalar ishtirok etgan so‘z birikmalari butunligicha bitta so‘zga teng bo‘lganligi bois ular sodda SBlar tarkibida o‘rganiladi. Murakkab so‘z birikmalari tarkibidagi mustaqil so‘zlar ikki holatda kengayib kelishi mumkin: 1) o‘zaro zanjir hosil qilgan holatda. 2) zanjir hosil qilmagan holatlarda.Masalan,zanjir hosil qilganda bir so‘z oldingi so‘zga hokim, keyingi so‘zga nisbatan tobe bo‘lib keladi.Masalan, qishloqdan kelgan xabar kabi. Bunda kelgan so‘zi qishloqdan so‘ziga hokim, xabar so‘ziga nisbatan esa tobe a’zo sanaladi. Demak, birikma tarkibidagi a’zolarning bu tarzda kengayishi SBlari zanjiri deb ataladi (50 .305 b).

Har qanday mustaqil so‘zning zanjir hosil qilishida o‘ziga xos semantik va grammatik qonuniyatlar mavjud. Masalan, atributiv munosabatdagi otli MSB zanjiri quyidagicha kontominatsiya usuli yordamida hosil bo‘ladi: *hidi yaxshi → yaxshi gul* kabi sodda SBlardan quyidagi MSB hosil bo‘lgan*:hidi yaxshi gul* kabi.

Ko‘pincha SBlari zanjiri nutq jarayonida ma’lum bir tushuncha yoki voqeani batafsil ifodalash maqsadida yuzaga keladi. Masalan: *U onasiga yoqimli hidi dimoqqa urib turgan so‘lqildoq non oldi* (M.Ismoiliy).

Bu gapda *hidi dimoqqa urib turgan non* MSBning tobe bo‘lagi hokim bo‘lakni atroflicha aniqlashga qaratilgan. Yuqoridagi MSBning tobe qismi tarkibida bosh kelishikdagi ot tobe so‘zlar tomonidan izohlanib zanjir hosil qiladi. Bu xuddi ega va kesim munosabatini hosil qilgan predikativ birikmaga o‘xshaydi. Masalan: *hidi yaxshi gul* kabi. Biroq ular o‘z hokim bo‘lagi vazifasidagi ot yoki otlashgan so‘zlar oldida atributlashib, bir butun holda yoyiq aniqlovchi vazifasini bajaradi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, MSBlari tarkibidagi barcha sintaktik munosabatlar SBlari zanjirini hosil qilavermaydi. Masalan: *Hovlining qo‘sh tabaqali katta temir*

darvozasi berk (O.Yoqubov). Keltirilgan misolimizda *qo‘sh tabaqali katta temir darvoza* MSB tarkibidagi *qo‘sh tabaqali so‘zi katta* so‘ziga emas, balki *darvoza* so‘ziga tobelangan. Shu bois bu gap *qo‘sh tabaqali darvoza*, *katta darvoza, temir darvoza* kabi alohida-alohida bitishuvli SBlaridan iborat. Chunki, hokim bo‘lak vazifasidagi *darvoza* so‘zi qo‘sh tabaqali, *katta temirdan* yasalganligi kabi xususiyatlariga ko‘ra aniqlanmoqda. O‘zbek adabiy tilida tobe bo‘lagi yoyilishidan hosil bo‘lgan otli MSBlar zanjiri keng tarqalgan. Ularning zanjir hosil qilishida turli shakliy-grammatik, leksik-grammatik, pozitsion va intonatsion vositalarning xizmati katta. Masalan: *Otni minib ketganda egarning ustidan dumbaloq oshib tushgan paranjisiz qiz o‘ynoqi kaptardek abjirlik bilan o‘zini o‘ng‘arib oldi* (A.Q). Bu gapda egarning ustidan tushgan, dumbaloq oshib tushgan qiz, paranjisiz qiz birikmalari alohida-alohida zanjir hosil qilgan. Otli MSBlari tarkibida yuzaga keladigan SB zanjiri hech qanday grammatik vositalarsiz so‘z tartibi va ohang yordamida hosil bo‘ladi: *Kuyovlar kiyadigan qalampir nusxa marg‘iloncha do‘ppisi uning salovatini oshirib yubordi* (H.Nazir).

Bunday aniqlovchili MSB zanjiri tarkibida sifat yasovchi -li affiksi bilan birikkan sodda SBlari ham qo‘shilib, bitta bo‘lak vazifasini bajarib keladi. Masalan: *U baland bo‘yli, cho‘qqi soqolli bir yigitni uchratib qoldi* (O). Lekin bunday uyushgan aniqlovchili sodda SBlari zanjir hosil qila olmaydi.

Demak, otli, murakkab, bitishuvli so‘z birikmalari zanjirini hosil qilishda mantiqiy-grammatik vositalar muhim ahamiyatga ega. Chunki otli MSBlari zanjiri hech qanday grammatik vositalarsiz faqat so‘z tartibi va ohang yordamida hosil bo‘ladi. Masalan: *Hayotimning bir kunini, bor yo‘g‘i bir kunini shu jufti halolimga, bir umr xizmat qilib o‘tgan shu mushtipar xasta insonga bag‘ishlash nahot gunoh bo‘lsa?* (O.Yoqubov). Bu gapda bir umr xizmat qilib o‘tgan inson, shu inson, mushtipar inson, xasta inson kabi otli SBlarining tobe bo‘lagi hokim bo‘lak vazifasidagi ot bilan ma’no jihatdan birikadi.

Shuningdek, biror voqea yoki hodisa bir-biriga qiyoslansa, bitta gap tarkibida ikkita moslashuvli birikma kelishi ham mumkin. Masalan: *Bu turkiy beklarning davlati Buxoro hokimining davlatidan kam emas* (Qo‘hna dunyo, 69 b).

Demak, otli MSBlari tarkibidagi so‘zlar o‘zaro bitishuv va moslashuv usullari yordamida birikishi natijasida ular yoyiq gap bo‘laklarini hosil qiladi. Yoyiq gap bo‘laklari tarkibidagi so‘z birikmalari zanjiri kelishik va ko‘makchilar vositasida amalga oshadi. Ba’zan hech qanday grammatik vositalarsiz ma’no jihatdan birikib ham yoyiq gap bo‘laklari zanjiri vujudga keladi. Bunday hollarda so‘z tartibi va ohang muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Асқарова М.Предикатив муносабатли мураккаб сўз бирикмаларининг айрим хусусиятлари.Низомий ДПИ илмий асарлар тўплами.-Тошкент,1982. -В.3-8.

2.Базарбаев Н. Сложные словосочитания в тюркских языках (на материали узбекского казахского язика).-АКД. -Ташкент,1970.

3.Баскаков Н.А.Историко-типологическая характеристика структуры тюркских языков.-М., 1975.

4.Sayfullaeva R.,Mengliev B. va boshqalar.Hozirgi ozbek alabiy tili. –Toshkent: Fan va texnologiyalar.2010.

T.QAYÍPBERGENOVTÍŃ «UYQÍSÍZ TÚNLER» POVESTINDE QOLLANÍLǴAN KELBETLIKLERDIŃ MÁNILIK TOPARLARÍ HAQQÍNDA

Seytkasımov Dauletnazar,
PhD, dotsent,
QMU, Qaraqalpaq til bilimi kafedrası

Annotatsiya: Sifat so‘z turkumi boshqa so‘z turkumlaridan alohida belgilari bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada qoraqalpoq adibi T.Qayipbergenovning “Uyqısız túnler” povestida qo‘llanılgan sifatlarning ma’no guruhlari o‘rganilgan. Adibning badiiy mahorati asosida sifat so‘z turkumiga oid so‘zlarning ishlatilish xususiyatlari anıqlangan.

Kalit so‘zlar: *kelbetlik, stil, reń, kólem, ólshem; minez-qulıq; dám, forma.*

Kelbetlik ózine tán belgilerine iye. Ol tiykarınan atlıq hám atlıqlasqan sózlerdiń belgisin bildiredi, onı anıqlap, konkretlestirip keledi. Kelbetlikler, belgi ańlatıwshı sózler, ulıwma tilde, sonıń ishinde ádebiy tilimizde óziniń kútá jiyi qollanılıwı menen basqa sóz shaqaplarına salıstırǵanda ayrıqsha stillik boyawları, emocional-ekspressivlik qásiyetine iye. Olar ádebiy tilimizdiń ózine tán júzege shıǵarıwda onıń obrazlı, tásirsheń hám kórkemlilik qásiyetlerin ámelge asırıwda sheksiz keń múmkinshilikleri menen kórinedi. Kelbetlikler, ádebiy tilimizde kórkemlew hám sıpatlawı menen ajıralıp turadı, ol bayanlawǵa boyaw beredi. Kelbetlik boyawlarınıń baylıǵı nátiyjesinde ol táriyiplewshi-bayanlawshı sıpatqa iye boladı.

Kelbetlik sózler, olardıń mánilik túrlerin toparlarǵa ajıratıw boyınsha ulıwma hám túrkiy til biliminde birqansha jumıslar islendi. Islengen ilimiy jumıslarda kelbetliklerdiń mánilik túrlerin anıqlaw boyınsha birqansha jetiskenliklerge erisilgeni menen, olardı tematikalıq toparlarǵa ajıratıwda, bóliwde bir qıylılıqtıń joq ekenligin kóremiz. A.N.Kononov túrk tilindegi kelbetliklerdi mánilik jaqtan úsh toparǵa ajıratsa [1], túrkmen tilinde on toparǵa ajıratıladı [2].

Házirgi ózbek ádebiy tilinde kelbetliklerdi mánilik toparlarǵa ajıratıwda da bir qıylılıqtıń tán emesligin kóriwge boladı. A.N.Kononov hám I.Xamdamovalar jeti toparǵa ajıratsa [3], ótken ásirdiń 80-jılları jarıq kórgen ózbek tili sabaqlıqlarında segiz toparǵa [4], M.Sodiqova toǵız toparǵa bóledi [5]. Sońǵı dáwirde ózbek tilindegi kelbetliklerdiń mánilik toparların izertlegen Z.N.Pardaev olardı 1) reńdi bildiriwshi; 2) halattı bildiriwshi; 3) kólem muǵdarı hám xarakterdi bildiriwshi kelbetlik leksemaları degen úlken mánilik úsh toparǵa ajıratsa [6], F.Najmiddinov adektiv leksemalardıń semaların empirik hám racional kelbetlikler dep eki toparǵa bóledi [7].

Qaraqalpaq til biliminde kelbetlik sóz shaqabın tolıq qamtıp úyrengen arnawlı izertlew miyneti joq hám bul sóz shaqabı til bilimine arnalǵan miynetlerde ulıwma baǵdarda sóz etiledi. Qaraqalpaq tilinde de kelbetliklerdi mánilik jaqtan tematikalıq toparlarǵa ajıratıwda bir qıylılıqtıń joq ekenligin kóriwimizge boladı.

N.A.Baskakovtıń miynetinde qaraqalpaq tilindegi kelbetliklerdi mánisi boyınsha (1. Reńdi; 2. Kólem, ólshemdi; 3. Minez-qulıqtı; 4. Dámdi; 5. Formanı bildiriwshi kelbetlikler) bes toparǵa bólse [8], H.Hamidov hám A.Bekbergenovlar kelbetliklerdi mánilik jaqtan tórt toparǵa ajıratadı [9].

Qaraqalpaq tili morfologiyası tarawı boyınsha joqarı oqıw orınlarına arnalǵan 1981-jılı járiyalanǵan sabaqlıqta kelbetliktiń semantikalıq toparlarǵa ajıratılmaǵan bolsa [10], ótken ásirdiń 90-jılları basılǵan akademiyalıq grammatikada kelbetliklerdiń semantikalıq toparları on toparǵa bólinedi [11]. Sońǵı dáwirde basılǵan joqarı oqıw orınlarına arnalǵan sabaqlıqta kelbetliktiń mánileri on bir toparǵa bólingen [12]. Sabaqlıqta kelbetlikti semantikalıq toparlarǵa ajıratıwda birqansha anıqlıqqa eriskenin kóremiz. Degen menen bul bóliniw de tolıq turaqlılıqqa iye dep aytıwımızǵa tiykar bola almaydı.

Kelbetliklerdi mánilik jaqtan tematikalıq toparlarǵa bóliwde bir qıylılıqtıń bolmawı, olardıń semantikalıq qollanılıw ózgeshelikleri, kórkem shıǵarmalarda jumsalıw sheńberiniń júdá keń ekenligin kórsetedi.

T.Qayıpbergenov qaraqalpaq ádebiyatında óziniń turaqlı ornına iye kórkem sóz sheberi bolıp, onıń shıǵarmalarında kelbetliklerdiń qollanılıwı, jumsalıw ózgeshelikleri óziniń ayrıqshalıǵı menen kózge túsedi. Biz maqalamızda jazıwshınıń «Uyqısız túnler» povestinde qollanılǵan kelbetliklerdiń mánilik toparların anıqlawǵa háreket ettik.

1. Reńdi bildiriwshi kelbetlikler. Predmettiń belgi ózgesheliklerиniń biri, onıń reńi, túr-túsi bolıp, kórsetilgen shıǵarmada kelbetliktiń bul túri boyınsha birqansha mısallar bar. Mısallar: *Qarday aq* jipekten kóylek kiyip, shashına *aq* jipekten lenta taǵıptı. Kózleriniń jasın óziniń súttey *appaq* sharshısı menen sıpırıp, mańlayınan shorp-shorp súydi de, moynına otırǵızıp, ketip qaldı. Qurdaslarım jarasadı degeni ushın *sarı* kofta, *kók* yubka satıp alıp kiydim. Kórsetilgen mısallardaǵı kelbetlikler predmetlerdiń reńin bildiriw ushın qollanılǵan bolsa, tek adamǵa baylanıslı qollanılatuǵın tómendegidey reńdi bildiriwshi kelbetliklerdiń de shıǵarmada qollanılǵanın kóremiz: ol orta boylı, *ayday aq* júzine sál súyirlew qobaǵa murnı jarasqan, *biyday reń* shashın bir burım etip jelkesine taslaǵan, bir kózi jasalmalı, jigirma jaslardıń shamasındaǵı rus qızı. Kelbeti kelisken: *qara torı,* buyra shashlı, arıqlaw, Pushkinniń liceydegi jıllarına keyip beredi. ózi uzın boylı, *aq bozlaq,* jumalaq júzli, *qara qaslı* qız.

2. Halattı, jaǵdaydı bildiriwshi kelbetlikler. Kelbetliklerdiń bunday túrleri adam yamasa predmetlerdiń hárqıylı halatın, jaǵdayın, belgilerin kórsetedi. Ol óz gezeginde bir neshe kishi toparlarǵa ajıraladı. T.Qayıpbergenovtıń «Uyqısız túnler» povestinde kelbetliktiń bunday mánilik toparlarınıń qollanılıwı júdá ónimli ushıraydı:

a) predmettiń temperatura belgisin bildiriwshi kelbetlikler. Bunday kelbetlikler predmettiń belgisin bildirgende úsh túrli dárejeni (suwıq, jıllı, ıssı) kórsetiw ushın jumsaladı*:* Bazda *jıllı* suw soraydı, ákelsem quwanıp, kúlip, qolların qulaǵına aparadı, erinlerin jıbırlatadı, bilmeymen, rahmet aytıp, ózinshe bet-qolın juwǵanı bolsa kerek. *Issı* kóz jasların kesik bilegi menen sıpırıp bawırına qısadı. Bul toparǵa kiriwshi kelbetlikler tiykarǵı mániden basqa awıspalı mánide jumsalıw ózgesheligine de iye. – Há, jańa esime tústi, ol kisi bir qaraǵan adamǵa awır, kózge *suwıq* kóringeni menen, kútá kewilli, haqıyqattıń adamı edi, aqıllı edi. Keltirilgen mısaldaǵı «suwıq» sózi tiykarǵı mánide emes, al unamsız minez-qulıqtıń belgisin bildiriwshi mánide qollanılǵan.

á) Tazalıq, pataslıq halatın bildiriwshi kelbetlikler. Shıǵarmada bul toparǵa kiriwshi kelbetliklerdiń jumsalıwı ónimli qubılıs emes: Marat *taza* úyimizge ǵarejet toplaptı...

b) Tábiyiy minez-qulıq halatın bildiriwshi kelbetlikler. Kelbetliklerdiń bunday mánilik toparları tiykarınan adamlarǵa baylanıslı qollanılıp, shıǵarmadaǵı

qaharmanlardıń obrazların ashıp beriwde tiykarǵı rol oynaydı. Minez-qulıq ruwxıy halattıń bir kórinisi bolıp, unamlılıq hám unamsızlıq semaları boyınsha ekige bólinedi. Shıǵarmada avtor tárepinen qollanılǵan bul toparǵa kiriwshi kelbetliklerdiń ónimli jumsalǵanın kóriwimizge boladı. 1) Unamlılıq mánisinde qollanılǵan minez-qulıqtı bildiriwshi kelbetlikler: – Qanday *jaqsı* adam! – dedim tańlanıp. Adamǵa sonday *ısıq, miyirban. Kúshli* balalar ózlerinikin túwesip, ázzirektikine bas salatuǵın edi. Júdá *awır minezli* eken. – Sen oǵada *ashıq kewilli* jaqsı qızsań, Gúlzar. – Sen bul *márt* qızdıń zeynine tiyme. Biraq ol meni zeriktirmew ushın ertekler aytıp bergeni bolmasa, kútá *kem sózli.* 2) Unamsızlıq mánisinde qollanılǵan minez-qulıqtı bildiriwshi kelbetlikler: oylanıp qarasam hárkim ıǵıma jıǵılıp kewlimdi alǵan sayın júdá *názik kókirek, jılayman* bolıp baratırǵandayman. – Ózi kútá *samsam* jigit eken,– dep, Ayzada gúrk etti. Sol ushın *sılbıraq* bolmaw kerek. – Ol *shalaǵay* jigit sıyaqlı emes edi, xatları ǵabırısıp júrgen shıǵar, sińlim, óziǵdi aldırma, adresin taptırıp ózim xat jazıp kóremen, – dedi.

g) Tábiyiy halat belgilerin bildiriwshi kelbetlikler: Saxnada *sulıw* adamlar ǵana tamashagóylerge lázzet beredi.

ǵ) Ruwxıy halattı bildiriwshi kelbetlikler. Bul toparǵa kiriwshi kelbetlikler tiykarınan adamlardıń ruwxıy keypiyatınıń dárejesin anıqlawda qollanılıp, shadlıq yamasa qapalıq mánilerin bildiriwine qaray bólinedi: *Ruwxı kúshli* adam eken. Bunday hám *bekkem, shıdamlı* jan boladı eken! Há, jańa esime tústi, ol kisi bir qaraǵan adamǵa awır, kózge suwıq kóringeni menen, kútá *kewilli*, haqıyqattıń adamı edi, aqıllı edi. – Gúlzar, – dedi ol ásten ǵana kútá *kewilsiz* dawıs penen.

3. Dámdi bildiriwshi kelbetlikler: Rasında da Maratqa bolǵan sezimim, ómirimniń *ashshı* táreplerin umıttıra basladı. Keltirilgen mısaldaǵı dámdi bildiriwshi «ashshı» kelbetligi óziniń tiykarǵı belgisi bolǵan dámdi emes, al «awır, qıyın turmıs» mánisinde qollanılǵan.

4. Kólemdi bildiriwshi kelbetlikler: ózi júdá *semiz* eken. Qarayman, *iri gewdeli*, murtlı, iyinli qaraqalpaq soldatın izleymen, ádebinde maǵan hámme qaraqalpaqlar iri gewdeli, murtlı, iyinli kóringen edi. Joq, basqa xalıqlar sıyaqlı, hárkim hárqıylı: *iri, mayda...* Ol o*rta boylı,* ayday aq júzine sál súyirlew qobaǵa murnı jarasqan, biyday reń shashın bir burım etip jelkesine taslaǵan, bir kózi jasalmalı, jigirma jaslardıń shamasındaǵı rus qızı. ózi uzın boylı, aq bozlaq, *jumalaq júzli,* qara qaslı qız. Kelbeti kelisken: qara torı, buyra shashlı, *arıqlaw,* Pushkinniń liceydegi jıllarına keyip beredi. Biraq sol «S» awılına jaqın jerde bir *kishkene* bólim jaw bombasınıń astında qalıp joq bolıp ketken... Usılayınsha smenalı jumıs kúnimniń birinde ekewimiz asıǵıs pol juwıp, *uzın* dálizdi pitkergen edik.

5. Salmaqtı bildiriwshi kelbetlikler. Shıǵarmada salmaqtı bildiriwshi kelbetlikler óziniń tiykarǵı mánisinde emes, awıspalı mánilerde jumsalǵan: Keseli *awır*, ózi de júdá áljuwaz bolıp qalǵan kempir eken. – Há, jańa esime tústi, ol kisi bir qaraǵan adamǵa *awır*, kózge suwıq kóringeni menen, kútá kewilli, haqıyqattıń adamı edi, aqıllı edi.

Ulıwma alǵanda, kelbetlik sózlerden sóylew protsesinde, kórkem shıǵarmalarda orınlı hám aqılǵa muwapıq paydalanıw stillik tásirsheńlikti asırıw, mánini kúsheytiwdiń áhmiyetli qurallarınan esaplanadı. T.Qayıpbergenovtıń «Uyqısız túnler» povestinde qollanılǵan kelbetliklerdi anıqlap, olardı tematikalıq toparlarǵa ajıratıw barısında olardıń shıǵarmanıń tilin bayıtıwdaǵı ornı salmaqlı ekeni kórinedi.

Paydalanílǵan ádebiyatlar:

1. *Кононов А.Н.* Грамматика современного турецкого литературного языка. – М-Л.: 1956. –С.134-164.
2. Türkmen diliniñ grammatikasy. Morfologiÿa. – Aşgabat, “Ruh”, 2000. -Б.78-115.; *Петҗикова М.* Түркмен дилинде сыпатларың ясалышы ве маны топарлары. Филол.ылым.канд... дисс.автореф . –Ашгабат: 1995. –С. 22.
3. *Кононов А.Н.* Грамматика современного узбекского литературного языка. – М-Л.: 1960. –С.140-160.; *Хамдамова И.* Семантические разряды имен прилагательных и их подача в толковом словаре узбекского языка. Автореф. дисс… канд. филол. наук. – Ташкент: «Наука», 1965. –С. 21.
4. Ўзбек тили грамматикаси (морфология). – Тошкент: 1975. –Б.304.; *Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш.* Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975. –Б.149-158.
5. *Содиқова М.* Ҳозирги ўзбек тилида сифат. – Тошкент: Фан, 1974. –Б.49-55.
6. *Пардаев З.Н.* Ўзбек тилида сифатларнинг семантик-услубий хусусиятлари. Филол.фан.номзоди... дисс.автореф. – Самарқанд: 2004. – Б. 22.
7. *Нажмиддинов Ф.* Адъектив лексемаларда семалар таснифи ва семалараро муносабатларнинг турлари. Филол.фан.номзоди... дисс.автореф. – Навоий: 2004.
8. *Баскаков Н.А.* Каракалпакский язык. II. Фонетика и морфология. Часть первая (части речи и словообразования). – М.: 1952. –С.189-205.
9. *Хамидов Х.* Каракалпакский язык XIX - начала XX в. по данным письменных памятников. – Ташкент: Фан, 1986. –С.88-92.; *Бекбергенов А.* Қарақалпақ тилинде сөзлердиң жасалыўы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1979.
10. Ҳәзирги қарақалпақ тили. Морфология. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1981.
11. Ҳәзирги қарақалпақ әдебий тилиниң грамматикасы. Сөз жасалыў ҳәм морфология. – Нөкис: Билим, 1994. –Б.141-143.
12. *Da’wletov A., Da’wletov M., Qudaybergenov M.* Ha’zirgi qaraqalpaq a’debiy tili. Morfemika, morfonologiya, sóz jasalıw, morfologiya. – No‘kis: Bilim, 2010.

ADABIY ME’YOR EKOLINGVISTIK TAMOYIL SIFATIDA

Qo‘ldashev Nizomidin,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Davlat tilida ish yuritish
asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi
Farg‘ona hududiy bo‘linmasi rahbari

Annotatsiya: Maqolada jamiyatdagi shaxslarning nutqiy muloqot davomida so‘zlardan o‘rinli hamda to‘g‘ri foydalanishi ekolingvistik tamoyillar asosida me’yorlashtirilishi muhokama qilinadi.

Kalit so‘z va iboralar: Ekolingvistika, adabiy me’yor, ananaviy, ijtimoiy, tarixiy, milliy, talaffuz

Til nutqning juda muhim belgisi hisoblanadi. Bu aloqa, xabar, ta’sir etish kabi vazifalarni bajarishda yetakchi sanalib, imkoniyatlari kengayib borishi natijasida, kishilik jamiyati to‘plagan tajriba va bilimlarni kelajak avlodlarga yetkazishda ahamiyatlidir. Til shakllanib va rivojlanib borishi davomida uzoq, tarixiy yo‘l va muddatni bosib o‘tadi. Shu jarayonda, asta-sekinlik bilan bo‘lsa-da, takomillashib ham boradi. Bu holatni uning ichki qurilishida, amalda bo‘lish qoidalarining ma’lum bir tizimga kela borishida kuzatamiz. “Ichki qurilish nuqtai nazardan til ma’lum miqdordagi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan til birliklarining yig‘indisi va ana shu birliklardan foydalanish qoidalaridan tashkil topgan murakkab sistemadir”. [1] Ushbu tizimning mavjud bo‘lishi me’yor degan atamaning dunyoga kelishiga sababchidir. Demak, me’yor tilning barcha jarayonini tartibga solib turuvchi o‘lchov hisoblanadi. “Me’yor (norma) – til birliklarini nutqning u yoki bu ko‘rinishida ishlatish qonuniyatlari va imkoniyatlari bo‘lib, ular jamiyat tomonidan belgilangan va aniqlangandir”. [2]

Yuqorida aytilgan fikrlardan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, til va nutq tizimida me’yorning o‘rni katta. Darhaqiqat, til nutq jarayoniga xizmat qila boshlagan lahzalardanoq, uni me’yorlashtirish jamiyat, jamoa ehtiyojiga aylantirish uchun, me’yoriy muammolarni hal qilish kun tartibiga quyilgan. Demak, me’yor tushunchasini yoritishga nimalar kiradi? Me’yorni izohlovchi jamiyat tomonidan belgilangan “qonuniyat va imkoniyatlar” mavjud. Birinchidan, “tilning moddiy tomoni haqida bizning tasavvurimiz nutqda yuzaga chiqar ekan, u qanday shakl va ko‘rinishda voqelanishi jamiyat tomonidan muayyan me’yorlar bilan belgilangan bo‘ladi” [3]. Masalan, “nari bor” degan mazmundagi imo-ishorani qilmoqchi bo‘lsak, kaft barmoqlarini o‘zimizga nisbatan ikki-uch bor qarama-qarshi harakatlantiramiz. Nutqda esa tovushlar tizimi majvud bo‘lib, talaffuz qilish va aytishimiz kerak. Bu jamiyat tomonidan qabul qilingangan me’yor sanaladi. Tilni milliy xususiyatlardan ajratib bo‘lmaydi. Uning tarixiy jarayonda shakllanganligi, ko‘lamining kengligi millatning o‘tmishi bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bu holatda me’yor milliylik va tarixiylik tamoyilini o‘zida mujassam qiladi. Yillar davomida shakllangan *ana’naviylikka* ega bo‘ladi. Inson tafakkuri borliqni ongda shakllantirishi uzoq va davom etuvchi jarayon hisoblanadi. Tabiat hamda jamiyatdagi barcha narsa-hodisalar tilda zarur bo‘lgan nom bilan yuzaga keladi. Turli tillarda turlicha ifodalanadigan bir hil narsa va hodisalar fikrlashuv qurolining *ijtimoiy-tarixiy-milliy* hodisa ekanligini isbotlaydi. Tildagi me’yor muammolarini qisqa vaqtda bartaraf etish mushkul. “Aytilganlarning barchasi me’yorning tarkibiy qismlaridir. Shunga ko‘ra til imkoniyatlari me’yor darchasidan o‘tib, nutqda yuzaga chiqadi” [2].

Bu sohani shakllanishida lug‘atchilik katta ahamiyatga ega. 1981-yilda nashr qilingan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da o‘zbek adabiy tilining so‘z boyligini to‘plash va tavsif qilish bilan birga adabiy me’yorni belgilash hamda mustahkamlash lug‘atning asosiy vazifalaridan sanalgan. Lug‘atda zamon siyosiy muhitiga qaramasdan me’yorning barcha talablari imlo, talaffuz, so‘z yasalishi va ishlatish mezonlari tavsiya etilgan. Lekin akademik L.V.Щcherba aytganidek me’yorni aniqlash oson ish emas. Shuning uchun lug‘atda tilning ushbu jarayonlarini belgilashda ayrim xatoliklar uchraydi. Darhaqiqat, lug‘atlar adabiy til me’yorlarini belgilashga intilar ekan, uni abadiylashtirmaydi. Til o‘zgargani kabi me’yor ham vaqt o‘tgani sari o‘zgarib, rivojlanib boradi. O‘zbek adabiy

til me’yorining rivoji va kamoloti uchun xizmat qilgan asoslardan yana biri 1984-yili e’lon qilingan “O‘zbek adabiy talaffuzi lug‘ati”dir. O‘zbek xalqi orasida tilning og‘zaki shaklini keng yoyish imkonini berdi. Lug‘atning asosiy maqsadi so‘zlarni adabiy, ya’ni to‘g‘ri talaffuzini ko‘rsatish hamda o‘zbek adabiy talaffuzini me’yorlashtirishdan iborat. Lug‘atning ko‘zga tashlanadigan boshqa muhim jihatlari ham mavjud. Jumladan, so‘zlarning talaffuz variantlari, me’yoriy va me’yoriy bo‘lmagan grammatik shakllar yordamchi material sifatida beriladi. Ushbu lug‘at o‘zbek adabiy tilining og‘zaki shaklini me’yorlashtirish, tartibga solish, uning o‘ziga xos tomonlarini tadqiq qilish keraklini ko‘rsatib berdi. O‘zbek adabiy tili me’yorining izchilligini ta’minlashda yana bir hujjat katta o‘rin egalladi. 1989-yil “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili haqida”gi Qonunning qabul qilinishi me’yorni birinchi saqlov xujjat sanaladi. Uning hamma moddalariga to‘liq amal qilinmadi. Bir tomondan o‘sha davr muhiti rus tilida ish yuritishni talab qilsa, ikkinchi tomondan bu ko‘p millatli xalq uchun sharoit taqazosi bilan ayrim hududlarda savod chiqarish ham rus tilida bo‘lardi. O‘zbek tilidan foydalanishdagi ko‘plab qiyinchiliklarni bartaraf etish ancha murakkab edi. O‘zbek xalqi bir yuzi o‘ttiz yillik Chor Rossiyaga qaram bo‘lganligi tilimizning sofligiga jiddiy ta’sir o‘tkazdi. Natijada sof turkiy so‘zlarning qo‘llanilishi o‘rniga rus tilidagi so‘zlarning o‘zbekcha talaffuz bilan qo‘llanilishi ortib bordi. Ushbu omillar o‘zbek tili me’yoriga yetarli darajada o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Demak, bugungi kungi taraqqiyot talablaridan kelib chiqib, me’yor darajasini imkon qadar kuzatib, tartibga solish kerak. Bunga til mutaxassislari ma’lum bir darajada me’yorga e’tibor qilishsa, tilning o‘zi ham tabiiy ravishda shakllanib boraveradi. Tilga tazyiq o‘tkazib bo‘lmaydi. Shuning uchun tegishli yo‘l-yo‘riqlar, tavsiyalar, ko‘rsatmalar tavsiya qilinishi zarur. Keyingi yillarda nashr qilinayotgan qator imlo, izohli,talaffuz lug‘atlari, qolaversa, til to‘g‘risida qabul qilinayotgan qarorlar o‘zbek adabiy tili me’yorlarini yana bir tizimga tushishiga xizmat qilmoqda.

Me’yorga funksional jihatdan qaragan D.Krepp ham me’yorni ikkita aspektda yoritadi. Ya’ni tilda “me’yoriy” va “yaxshi” qo‘llanishni ajratib ko‘rsatadi. Tilshunos jamiyat tomonidan faol qo‘llanadigan so‘zlarni me’yor hamda til jamoasi vakillarining fikrlari va kechinmalarini tushunarli tarzda ifodalaydigan tilni yaxshi til deb hisoblaydi. Shunga yaqin fikrni tilshunos V.Xartung ham ilgari suradi. Olim me’yorni baholashda uch o‘lchovni farqlaydi:

1) so‘zlovchining o‘z fikrini to‘g‘ri, aniq va lo‘nda qilib ifodalay olishi;
2) tinglovchining u yoki bu darajada ta’sirlanishi;
3) ma’lum tilning strukturasi va uning an’analari.

Ushbu yondashuvda til vositalarini, qolaversa, me’yorni til tizimida tutgan mavqei ham tahlilga tortilgan. Fikrlarning teranligi to‘g‘rilik-noto‘g‘rilik tamoyili asosida yoritilib, jamiyatning ziyoli qatlami manbalarida berilgan til amaliyoti qabul qilinadi.

Keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligida nutq madaniyati va til me’yor masalalari ilmiy seminarlar, risola hamda to‘plamlarda yoritilib borilmoqda. Lisoniy me’yor nutq madaniyati bilan chambarchas bog‘langan. Bu ikki jarayon keyingi davrlarda bir xil rivojlanishda bo‘lmadi. Shuni alohida qayd qilish kerakki, o‘zbek adabiy tilining me’yoriy vositalarini aholi qatlamlarida o‘zlashtirish yetarli darajada emas. Ammo sheva va lahjalarga adabiy tilning ta’siri bo‘ldi. Shuning uchun xalqimizda shevaning

xususiyati va imkoniyati kamayib bormoqda. Yuqoridagi fikrdan anglashidiki, o‘zbek adabiy tili butun o‘zbek xalqining mulkidir. Nutq madaniyati o‘z navbatida tilning leksik, semantik, imlo, talaffuz va boshqa me’yorlarini nazorat qiladigan soha. Bu me’yorning shakllanishi va nazariyani ilgari surish tilshunoslarning vazifasi sanaladi. Til sathlari yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotlar hamda yaratilayotgan o‘quv qo‘llanma, darslik, talaffuz lug‘atlarini me’yor o‘lchovi sifatida ko‘rsatishimiz mumkin. Tilshunoslik instituti ushbu masalaga 1966-yildan e’tibor qaratdi. Professor G‘.Abdurahmonov me’yordan chalg‘imaslik, uni aniq ko‘rsatish maqsadida *“Tilshunoslar oldida turgan muhim vazifa normadan tashqari, xato deb tushunadigan til faktlarini kolleksiya qilish emas, balki ularni sistemalashtirish, sababini aniqlash, tilda qo‘llanilayotgan ammo normalashtirilmagan hodisalarni adabiy til normalariga zid bo‘lgan anormal hodisalardan farqlab borishdan iborat”* – deya ta’kidlaydi.

Tilshunos S.Ibrohimov ham me’yor, nutq madaniyati, til va uning qadr qimmati to‘g‘risida asosli mulohaza yuritadi. Ayniqsa, olimning uslubiy va talaffuz me’yoriga bag‘ishlangan nazariyasi diqqatga sazovor.

Nutqiy jarayonlarni pragmatik jihatdan monografik tarzda tadqiq etgan M.Hakimov pragmalingvistik masalalar tahlilida sotsiolingvistika sohasiga alohida to‘xtalib, “sotsial vazifa belgilari sifatida dastlab nutqiy me’yor tushunchasi ajratib olinishi” zarur degan fikrni ilgari suradi. Darhaqiqat, har qanday so‘zlovchi nutqida uning shaxsiga xos sotsial belgilarni namoyon etuvchi jihatlar mavjud bo‘lib, ularning katta foizi aksar hollarda lingvistik vositalar orqali namoyon bo‘ladi. Shundan kelib chiqib, muallif “jamiyatdagi ijtimoiy voqeliklarning tildagi ifodasi hamda ularning umummillat tiliga ta’siri”ni [5] sotsiolingvistik muammolarning asosiy masalasi deb belgilaydi.

Ekolingvistika hozirgi kunda katta odimlar bilan rivojlanib bormoqda. Bu zamon taqazosidir. O‘z mustaqilligiga erishgan davlatlarning milliy adabiy tillarini yaratish, yozuvni asoslash, uni mukammallashtirish, sof holda saqlash ishlari jadal olib borilmoqda. Zamon talabi bilan fan va texnika taraqqiyoti xalqaro savdoning rivojlanib borishi, bir tomondan, tillarda baynalminal so‘zlar sonining oshib borishiga sabab bo‘lsa, ikkinchi tomondan, mahalliy tillar bilan xalqaro til vazifasini o‘tayotgan tillar o‘rtasidagi to‘qnashuvlarga, til chatishuvlari (kreollashtirish, pijinlashtirish)ga [6] sabab bo‘lmoqda. Bu masalalar bilan ijtimoiy tilshunoslik yani ***ekolingvistika*** shug‘ullanishi, bunday hodisalarning qonuniyatlarini ilmiy ravishda ochib berishi zarur. Jamiyatga til qanchalik zarur bo‘lsa, til uchun jamiyatning bo‘lishi ham shunchalik zarurdir. Demak, jamiyatdagi shaxslarning nutqiy muloqot davomida so‘zlardan o‘rinli hamda to‘g‘ri foydalanishi ekolingvistik tamoyillar asosida me’yorlashtiriladi.

Biz tilni sof holda saqlash, so‘zlardan o‘rinli foydalanish haqida gapirishdan oldin bularning barchasi qay holatda qo‘llanilishi kerakligiga e’tibor qaratishimiz kerak. Ya’ni tildagi me’yoriylik tamoyillari ekolingvistikaning asosiy oltin qoidasi ekanligini unutmasligimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Содиков А., Абдуазизо В А., Ирисқулов М. Тилшуносликка кириш. – Тошкент, –Б. 22**.**

2. Неъматов Х,., Р а с у я о в Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. –Б. 7.

3. Каримов С. Тил таълими ва меъёр. Ўқув қўлланма. Абдулла Кодирий номидаги халк мероси нашриёти – Тошкент, 2002.

4. Бегматов Э. Адабий норма назарияси. – Тошкент: Наврўз, 1997 .

5.Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари – Тошкент: Академнашр, 2013. –Б. 68.

6. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. Ilmiy-uslubiy nashr. –Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2009.

ShÍǴARMADA KÓRKEM TIL ÓZGESHELIGI HÁM LAKONIZM

Kamalova Dilfuza,
PhD, O‘zbekiston davlat
konservatoriyasi Nukus filiali,
dilkamalova@mail.ru

Annotatsiya. Bu maqolada asar kompozitsiyasida badiiy tilning o‘ziga xos xususiyatlari va lakonizm haqida yozuvchi M.Tawmuratovning novellalari tahlil etilgan. Lakonizm novellaninig asosini tashkil qiladi. Qisqa bayon orqali keng tu’shuncha berish yozuvchidan mahorat talab etadi. Ulardagi insonning ruhiy holati, ichki kechinmalari, uning tashqi hodisalardan ta’sirlanishi berishda til xususiyatlari ahamiyatli o‘rin egallaydi.

Kalit so‘zlar: badiiy asar, til xususiyatlari, lakonizm, novella, kompozitsiya, psixik holat, emotsiya.

Kórkem shıǵarmada til tiykarǵı xızmet atqarıwshı element esaplanadı. jazıwshı dóretpede kórkem mazmundı xalıq tili arqalı bayanlaydı. ápiwayı xalıq tilin kórkemlep bayıtadı hám rawajlandıradı. «M.Gorkiy kórkem shıǵarma tili tuwralı, «Kórkem shıǵarmanıń sózi az, pikiri keń bolıwı shárt» dese, N.G.Chernishevskiy «qısqalıq bolmasa, kórkemlik te joq», degen pikir bildirgen» [2: 135].

Pikirdi qısqa hám anıq bayanlaw sheberligi lakonizm dep ataladı. «Lakonizm – grekshe sóz bolıp, Lakoniya qalasınıń atı menen baylanıslı. Bul qaladan shıqqan sóz sheberleri óz pikirlerin qısqa hám anıq bayanlawǵa sheber bolǵan. Lakonik sóylewdiń xarakterli ózgesheliklerinen biri qısqalıq hám bayanlawdıń anıqlıǵında maqalǵa jaqınlasıwında kórinedi. Avtor hám qaharman tilinde maqallar hám hikmetli sózlerdiń payda bolıwı da usı lakonizmniń nátiyjesi esaplanadı [6: 221]. «Lakonizm – tildiń stilistikalıq ózgesheligi, yaǵnıy onıń qısqalıǵı hám anıqlılıǵı. Lakonizmniń nátiyjesinde aforizmlik til payda boladı»[5]. Ádebiyattanıw atamalarınıń túsindirme sózliklerinde lakonizmniń ózine tán ózgeshelikleri haqqında, máselen, «… anıqlılıq óz náwbetinde obrazlılıqtı biykar etpeydi, kerisinshe, ol bayanlawdıń anıq baǵdarlanǵanlıǵın, súwretlewdiń isenimliligin támiyinlep, oqıwshınıń shıǵarmaǵa bolǵan qızıǵıwshılıǵın arttıradı»[3: 158] hám «Lakonizm termini ayırım dóretiwshilerdiń stiline tán ózgeshelik mánisinde de qollanıladı» [4: 150] dep atap ótiledi. Demek, kórkem shıǵarmada lakonizm jazıwshılardıń tilden sheber paydalanıwında hám waqıyalardı bayanlaw ózgesheliginde ayqın kózge taslanadı.

Ádebiyatta novella janrı lakonizmge, yaǵnıy pikirdi qısqa hám anıq bayanlawǵa tiykarlanǵanlıqtan, eger de qurǵaq bayanlaw arqalı waqıya yaki hádiyseler sóz etilse janrdıń ózine tán qásiyeti kórinbey qaladı. Novellada qısqalıq hám anıqlıqtı sáwlelendiriwde kórkem súwretlew qurallarınan utımlı paydalanıw jazıwshınıń individual ózgesheligin kórsetedi.

Qaraqalpaq novella jazıwshıları A.Sultanov, K.Smamutov, M.Tawmuratov, K.Allambergenov, H.Ótemuratovalar menen birgelikte K.Ernazarov, E.Ótepbergenli, P.Xojamuratova, A.Tájimuratova hám taǵı basqalardıń novellaları ideya-tematikalıq, janrlıq hám kórkemlik tárepleri menen dıqqatqa ılayıq. Mısalı, jazıwshı M.Tawmuratovtıń novellaların analizlep qaraǵanımızda, kórkem súwretlew qurallarınan epitet hám teńewlerdiń jiyi qollanılǵanlıǵınıń guwası bolamız. Teńew hám epitetler qaharman xarakterin ashıp beriwde, waqıyalardıń tásirsheńligin arttırıwda hám júz berip atırǵan jaǵdaydı konkretlestirip súwretlewde kórkemlik funkciya atqarǵan. Jazıwshı «Bul jer mayxana emes!», «Eki júzinshi» sanlı júk», «Gúlge zarıǵıp ótken ómir», «Bir mártebe túnde» h.t.b. novellalarınıń mazmunlıq hám formalıq sıpatın troplar járdeminde sheber súwretlep bere alǵan. Mısalı, «Sen, meni kút…» [7: 12] novellasında avtor qaharmannıń muhabbat sezimlerin hám olardıń ayanıshlı táǵdirlerin súwretlewde epitet hám teńewlerdi jiyi paydalanǵan. Waqıya novella qaharmanı tilinen bayanlanıp, onıń Biybinazǵa bolǵan pák muhabbatı hám ayralıq máwritleri kórkem súwretlew quralları arqalı ashıladı. Mısalı, « – Biybinaz, - dep ızǵar alaqanın sozıp ózin tanıstırdı. Men de kúni menengi apreldiń kók jamǵırındaǵı tońazıp qalǵan qolımdı berip atırıp atımdı ayttım. Sol birinshi tanısqan gezde men onıń girshiksiz tap-taza kóz qarashıqlarında muhabbet degenniń salmaǵı birneshe billion mikron bolǵan tuyǵıların ap-anıq kórdim – azǵantay kózsizlik etip biyjón háreket qılsań shıtnap sınıp ketejaq bakkara (xrustal) buyımlarınday dım ǵana názik edi ol!...» [7: 12]. Avtor bul jerde qızdıń gózzallıǵın «girshiksiz tap-taza kóz qarashıqlar» epiteti arqalı súwretlegen bolsa, «bakkara buyımlarınday» yaǵnıy xrustal buyımına teńew arqalı qız kewliniń názikligin kórsetedi. Shıǵarmada bir-birine ashıq bolǵan jigit hám qızdıń (Biybinazdıń) muhabbat jolındaǵı háreketleri biykarǵa ketip, ayra túsiwi olardıń psixologiyalıq halatın ele de tereńlestiredi. Avtor novellada júz berip atırǵan waqıyalardı qaharmanlardıń ishki sezimleri arqalı sáwlelendirgen. «Avgusttıń on segizinde de gúldirmama boladı eken aw?», - deymen ózimnen-ózim bılaylawda ızǵar beton baǵanaǵa arqasın bergen Biybinazdıń suwlanǵan kóz qarashıqlarınıń túpkirlerinde kúshli nayzaǵaydıń jalt-jult etken sap-sarı saǵımın kórip! Bunnan soń há demey gúldirmamanıń gúrkiregen ájeptáwir sesti pútinley Nókistiń bir tutas bólegi Shımbay shayxananıń tas tóbesinen arbalı tasırlatıp ótkendey boldı da, umbar-jumbar bulıtlardan qara jamǵırdıń muzday tamshıları tártipsiz tógildi…» [7: 15]. Demek, bul jerde peyzajlıq detallardı qaharmanlardıń psixologiyalıq jaǵdayına sáykes parallel túrde súwretlegen. Kórkem súwretlew quralları shıǵarmada emocional tásirsheńlikti arttırıp, pikirdiń jetip barıw tezligin támiyinlegen. Novellada qaharmanlardıń ishki keshirmelerinde ótip atırǵan arpalıslı tuyǵılardı «gúldirmama bolıp, jawın jawdı» dep tábiyat qubılıslarına mázi salıstırıp emes, «… umbar-jumbar bulıtlardan qara jamǵırdıń muzday tamshıları tártipsiz tógildi…» dep ele de tereńirek súwretlewi kórkem poetikalıq xızmet atqarǵan.

M.Tawmuratovtıń kópshilik novellalarında «suwıq», «salqın» epitetleriniń shıǵarmadaǵı júz bergen waqıya hám hádiyselerdi qaharmannıń ishki halatına say

kórsetiw maqsetinde kóbirek qollanǵanlıǵın kóremiz. «Bul jer máyxana emes!» [7] novellasında Maqset hám onıń ákesi ortasında júz bergen turmıslıq waqıya III bet qatnasıwshı qaharman tilinen bayanlanadı. Novellada waqıyalardıń tosattan baslanıp, keskin konfliktke hám kútilmegen juwmaqqa iye bolıwı janrdıń ózgesheligin kórsetedi. Kóp waqıttan beri kórispegen joraları Maqsettiń jumısın «juwıw» niyetinde onıń úyine jıynaladı. Shıǵarmada kútilmegen waqıya júz, berip syujettiń baǵdarın ózgertip jiberedi. Usı orında avtor tárepinen qollanılǵan epitetler waqıyanı konkretlestiriw hám qaharman xarakterin ashıwda úlken xızmet atqarǵanlıǵın kóriw múmkin. «Bosaǵada usı úydiń xojeyini – Maqsettiń ákesi basına taqıya kiyip, iynine zer shapan jamılǵan, uzın boylı adam payda boldı. Hámmemiz orınlarımızdan turıp, bet-júzinde qatallıq belgileri ornaǵan bul adam menen amanlastıq. Ol bizler menen salqın kóristi hám hesh birimiz kútpegen, hesh qaysımız usı waqıtqa shekem esitip kórmegen mına sózlerdi aytıp, sháwkildep turǵan júreklerimizdi silkindirip jiberdi!

Haal, jigitler, bul jer máyxana emes! Basqa jerge barıp ishiń túwe araqtı! – Sóytti de keynine burıldı. Bul suwıq sózdi esitken bizler qaytıp ornımızǵa otırarımızdı da, ya oǵan erip shıǵıp ketiwdiń de retin tappay qaldıq» [7: 53]. Dáslepki qatarlarda qollanılǵan «kóristi» sóziniń aldında kelgen «salqın» epiteti Maqsettiń ákesiniń qanday adam ekenligin kórsetedi. Ákeniń perzentiniń joralarına aytqan «bul jer máyxana emes!» sóziniń unamsız ekenligin «suwıq sóz» epiteti menen ayqınlastırılǵan. Novellada, sonıń menen birge, obraz jaratıw maqsetinde teńewlerdi de avtor sheberlik penen qollanıp, bolıp ótken hádiyselerdiń tásirsheńligin arttırıwǵa erisedi. Mısalı:

« – Aǵa! - dey bergen Maqsetti ákesiniń hawadaǵı qılıshtay sermelgen qolı toqtatıp tasladı.

– Ne dedim saǵan?! – Ol bul húkimdi Maqsetke qaratıp aytqanı menen de, qozǵalısa baslaǵan bizlerge baǵdarlanǵanı anıq edi» [7: 52].

Bundaǵı «qılıshtay sermelgen qolı» teńewi Maqsettiń ákesiniń ele de qáhárli ekenligin kórsetip tur. «Teńewler ushın, kóbinese, tábiyiy hám turmıslıq predmetler alınıp, bul predmetler emocional poetikalıq obrazlarǵa aylanadı» [1: 12]. Shıǵarmada Maqsettiń psixologiyalıq jaǵdayın ele de tereńlestiriw maqsetinde tómendegi salıstırmalı teńewden paydalanadı.

«Bosaǵaǵa qaytıp barǵan úy iyesi endi sırtqı plevra qabatı sılıp alınǵan ústi betleri gedir-budır bolıp qarawıtıp ketken ókpege uqsap ketti. Mına kóz qarasları dógerektegi tiri maqluqlar menen qosa tábiyat gózzallıqlarına da onıń pitpeytuǵın ashıw menen sónbeytuǵın ǵázebi bar ekenligin ańlatatuǵın edi» [7: 53). Avtor jası qırıq ekiden ótken Maqsettiń joraları aldındaǵı ayanıshlı kelbetin usılayınsha tásirli súwretlegen. Qursaq kótermegen hayalı, qatal ákesi Maqsettiń táǵdiriniń qanday ekenligin kórsetedi. Shıǵarma sońında berilgen juwmaqlar, ulıwma, novellanıń ideyasın ózinde jámley alǵan. «Usı waqıtları qálegen mezgilde joralarımız benen úyge barıp qalǵanımızda barı-joǵın dásturxanǵa shashıp, qonaqlardı otırǵızarǵa jer taba almay, tóbeleri kókke jetip quwanıp qalatuǵın ata-anamdı sonday saǵınıp kettim! Sizlerdiń usı aq kókirekligińiz eken ǵoy, aqlıq, shawlıq súyip otırǵanlarıńız!», - dedim ishimnen olarǵa qayıl qalıp» [7: 54]. Shıǵarmada waqıyalardı uzaqtan uzaq bayanlamay til normalarınan utımlı paydalanıw jazıwshınıń sheberliginen dárek beredi.

Juwmaqlap aytqanda, novella janrı lakonizmge yaǵnıy waqıyalardıń qısqa hám anıq beriliwine tiykarlanǵanlıqtan onda qollanılǵan kórkemlew quralları áhmiyetli orın iyeleydi. Sonlıqtan, kópshilik shıǵarmalarda kórkem súwretlew quralları tildiń kórkemligin arttırıwda, oy-pikirdi obrazlı jetkerip beriwde ónimli qollanılǵan hám qaharmanlarınıń xarakteri menen ishki psixologiyalıq keshirmelerin ashıp beriwde hám ıqshamlılıqtı támiyinlewde ayrıqsha kórkem-estetikalıq xızmet atqarǵan. Novellalardıń kórkem tásirsheńligin arttırıwda jiyi qollanılǵan epitet hám teńewler shıǵarmanıń mazmunlılıǵın támiyinlewde, personajlardıń ózine tán ózgeshelik belgilerin sıpatlap beriwde salmaqlı orın iyeleydi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Dosımbetova A. Ádebiyatta kórkemlew quralları (oqıw-metodikalıq qollanba). – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2017.
2. Járimbetov Q., Genjemuratov B. Ádebiyat teoriyası. Sabaqlıq. – Tashkent: Sano-standart, 2018.
3. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент. Ўқитувчи. 1979. – Б. 157-158.
4. Қуронов Д., Мамажанов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр. 2013.
5. Литературная энциклопедия. https://dic.academic.ru/dic.nsf/enc_literature .
6. Султон И. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 1986.
7. Таўмуратов М. Сен, мени күт…Гүрриңлер ҳәм новеллалар. – Нөкис: AVANGARD-BASPA, 2021.

O‘ZBEK VA QORAQALPOQ XALQLARIDA FARZAND TUG‘ILISHI BILAN BOG‘LIQ TO‘Y MAROSIMLARI XUSUSIDA

Babadjanov Mansurbek,
f.f.f.d.(PhD), Qoraqalpoq davlat universiteti
Almambetova Uldaulet,
Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek va qoraqalpoq xalqlarining qadim o‘tmishdan to bugungi kungacha shakllanib kelgan va hozirda davom etayotgan milliy urf-odatlari, farzand tug‘ilishiga bog‘liq bo‘lgan to‘y-marosimlari haqida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: etnografizm, to‘y-marosimlar, beshik to‘y, aqiqa, o‘g‘il to‘y, haydar qo‘yish, tusov kesish, sunnat to‘yi, muchal to‘y.

O‘zbek va qoraqalpoq xalqlari qadim o‘tmishdan bugungi kungacha o‘zining boy tarixi, ma’naviy qadriyatlari, milliy urf-odatlariga ega bo‘lib, zamonlar osha uni o‘z ma’naviyati va qalbida saqlab kelib, avloddan-avlodga meros qilib qoldirib kelmoqda. Bu ikki millatning ham tilini uning urf-odatlari, an’analari va qadriyatlaridan ajratgan holda tassavvur etib bo‘lmaydi. Etnografik leksika nomi ostida birlashgan etnografizmlarni o‘rganish milliy urf-odat va qadriyatlar leksikasini tadqiq etishda ahamiyatli hisoblanadi.

Etnologiya fani shakllangan davrdan boshlab milliy an’analar, rasm-rusumlar va urf-odatlarni xalq madaniyatining fenomeni sifatida o‘rganish fanning dolzarb muammolaridan biri hisoblanib kelgan. Ayniqsa, respublikamizda milliy qadriyatlarimizga va ma’naviy merosimizga davlat miqyosida e’tibor berilayotgan tarixiy bir jarayonda mutaxassis olimlar tomonidan an’anaviy marosimlarimizni tadqiq qilishda ularning yozma tavsifini berish bilangina cheklanib qolmaslik darkor. Bu borada qadimiy tarixga ega bo‘lgan milliy marosimlarning xalq turmushi va an’anaviy madaniyatida tutgan o‘rni, ular genezisi va o‘ziga xos xususiyatlari hamda saqlanish omillari borasidagi tadqiqotlar muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etib bormoqda. Etnografizmlarga oilaviy to‘y-marosimlar ham kiritiladi. Biz oilaviy to‘y-marosimlarni bir necha turlarga bo‘lib o‘rganishimiz mumkin. Masalan, farzand tug‘ilishi bilan bog‘liq to‘y-marosimlar, yoshga oid to‘y-marosimlar, nikoh to‘yiga bog‘liq to‘y-marosimlar.

Farzand tug‘ilishiga bog‘liq to‘y-marosimlarga beshik to‘yi, aqiqa, o‘g‘il to‘yi, soch to‘yi, muchal to‘yi kabilar kiradi.

Qarin shashiw – bu bolaga homilador bo‘lgan vaqtda beriladigan marosim. Bu, asosan, qoraqalpoq xalqida o‘tkaziladi. Bu kichik to‘y ancha vaqt farzand kutgan oilalarda, quvonchini ulashish va bolani omon-eson bag‘riga bosib olish maqsadida sadaqa tarqatish uchun nishonlanadi.

Beshik to‘yi – chaqaloqni birinchi marta beshikka solish bilan bog‘liq bo‘lgan marosimli to‘y hisoblanadi. Bu to‘y qoraqalpoq xalqida *“besik toy”* nomi bilan ataladi. Beshik to‘yi har ikkala xalqda ham birinchi farzand dunyoga kelganda o‘tkaziladigan eng qadimgi va keng tarqalgan marosimlardan biri. Odatda bu to‘y o‘zbek xalqida chaqaloq tug‘ilishining 7 ,9 ,11-kunlari, qoraqalpoq xalqida esa 40 kunlik chillasi tugagandan so‘ng o‘tkaziladi. To‘y kuni belgilangandan keyin, chaqaloqning buvisi va yaqin qarindoshlari(ona tarafdan) chaqaloqqa atab beshik, o‘yinchoqlar, kiyimlar va boshqa kerakli anjomlarini olib tayyorlab qo‘yishadi. O‘zbek xalqida to‘y kuni kelganda o‘sha tayyorlab qo‘yilgan buyumlar yoniga dasturxon tugilib, chaqaloqning ota-onasiga, bobo-buvilariga sovg‘alar qo‘shiladi va karnay-surnay sadolari ostida to‘y bo‘layotgan xonadonga boriladi. An’anaga ko‘ra olib kelingan beshikni avval chaqaloqning bobosi o‘ng yelkasiga qo‘yadi, keyin dadasining o‘ng yelkasiga uzatadi, u esa beshikni chaqaloqning onasiga beradi. So‘ng qo‘shnilar ishtirokida bolani beshikka solish marosimi bo‘lib o‘tadi. Marosim oxirida mehmonlar bolani ko‘rish uchun kelishadi, chaqaloqqa atalgan sovg‘alarni berib, beshikning ustiga shirinliklar sepadilar. Shu bilan beshik to‘yi marosimlari o‘z yakuniga yetadi. Qoraqalpoq xalqida ham chaqaloq uchun sovg‘alar olinib, u tug‘ilgan uyga boriladi. Mehmonlar dasturxon yozilgan xonaga kiritiladi va mehmon qilinadi. Shundan so‘ng chaqaloqqa atab olib kelingan beshikni ona tarafdan kelgan buvisi olib, chaqaloqning ichki a’zolari sog‘, 12 muchasi butun bo‘lsin deb *“tıshtırma”* qada oladi. Keyin bola beshikda tinch orom olishi uchun qilinadigan odat amalga oshiriladi. Bunda nondek bag‘ri butun bo‘lsin deb *non*, oynadek yuzi tiniq bo‘lsin deb *oyna,* po‘lat xanjardek o‘tkir bo‘lsin deb *pichoq*, buyuk olimlarning yo‘lini bersin deb bolaning yostig‘ining tagiga *kitob* qo‘yishadi. Shundan keyin *“besik shaptırıw”* marosimi bo‘lib o‘tadi. Bu marosimda chaqaloqning buvisi tarafidan qo‘shiq aytiladi va yaqin qarindoshlarni ismi aytilib, o‘sha tarafga qarab beshik bilan chopiladi:

Al, shabayın-shabayın,

Atımdı minip shabayın.
Atım bolsın tulpardan,
Ozi bolsın suńqardan.
Besiktegi bópeniń
Súmegi bolsın altınnan,
Túbegi bolsın gúmisten.
Al, zamanlas-zamanlas,
Biz benen turıp xabarlas.
Tulpar aldım shabag‘an,
Aq basli el salaman.
Alaman, tulparımdi shabaman.
Qollag‘aysań Qıdır ata.
Qulın sataman, qulın sataman
Qulınımnıń pulına bataman...

Ismi keltirilgan inson atagan narsasini beradi. Keyin chaqaloqni beshikka solishadi va uning bobolaridan qolgan choponlarini beshikning ustiga yopishadi. Shu bilan marosim tugaydi. Beshik to‘yi har bir xalq va viloyatlarda o‘zgacha xususiyatlarga ega bo‘lib, o‘ziga to‘q oilalar odatda bu to‘yni katta ko‘lamda o‘tkazsa, ayrim oilalar uni kamtarona nishonlaydilar.

Aqiqa – Allohga shukr qilish ma’nosida dunyoga kelgan chaqaloq uchun qurbonlik qilish va yangi tug‘ilgan chaqaloqning “qorin sochi”. Bu marosimni, asosan, o‘zbek xalqida ko‘p o‘tkazishadi. Qoraqalpoq xalqida esa bunday marosimni uchratmaymiz. Aqiqa marosimi chaqaloq dunyoga kelgandan keyin chillasidan chiqqunga qadar o‘tkaziladi. O‘sha kuni bolaning tug‘ilgandagi sochi olinadi va o‘sha soch og‘irligi bilan teng oltin yoki kumush sadaqa qilinadi. Aqiqa qurboni esa bola dunyoga kelgandan boshlab voyaga yetgunga qadar qilinishi mumkin. Qurbonlik sifatida bitta qo‘y so‘yish yetarli. Aqiqaning asl ismi “Nasiqa” bo‘lib, bu musulmon oilalarda o‘tkaziladigan marosim hisoblanadi.

O‘g‘il to‘y – bu o‘zbek xalqida ham qoraqalpoq xalqida ham ikki-uch qizdan keyin o‘g‘il farzand dunyoga kelsa o‘tkaziladigan to‘y hisoblanadi. Qoraqalpoq xalqida bu to‘y “ul perzentli bolg‘an toy” deb ataladi. Bunda farzand dunyoga kelgach, farzandli bo‘lgan oila quvonchini bo‘lishish uchun xalqqa osh tarqatib, to‘y beradi. Bu to‘y avvalari faqatgina farzandga juda muhtoj bo‘lgan oilalar farzandli bo‘lgan bo‘lsa berilgan. Hozirgi kunda bu to‘yni juda ko‘pchilik bermoqda.

Haydar qo‘yish – o‘g‘il farzandlarning (ko‘pincha yolg‘iz o‘g‘il yoki birinchi o‘g‘il farzand) uzoq umr ko‘rishi, sog‘-salomat yurishini niyat qilib, boshining tepa qismidan ozgina soch qoldirib o‘stirish. Bu odat qoraqalpoq xalqida "aydar qoyiw" deb nomlansa, unga atab beriladigan to‘y “Aydar toy” deb nomlanadi. O‘zbekistonning ko‘pchilik joyida bu odat yo‘qolib ketgan. Lekin qoraqalpoq xalqida bu marosim hozirgacha saqlanib qolingan. Qoraqalpoqlarda birinchi o‘g‘il farzand dunyoga kelganda uning “qorin sochi” olinib, tanganing ko‘lami bilan teng qilib soch o‘stiriladi. Bu sochni qo‘yishdan avval chaqaloqning tog‘asidan ruxsat so‘raladi. Bola 5 yoki 7 yoshga kirgunga qadar o‘sha soch o‘stiriladi. Bolaning tog‘asi uning uchun toychoq oladi va to‘y

kuni tantana bilan bolaga topshiradi. Hozirgi kunda toy o‘rniga velosiped singari narsalar berish urfga kirgan.

Tushov kesish – bu marosim qoraqalpoq va o‘zbek xalqlarida o‘tkaziladigan, qadimdan kelayotgan odat hisoblanadi. Buni qoraqalpoq xalqi *“tisaw kesiw”* deb nomlashadi. Bu marosimda bolaning ikki oyog‘ini birlashtirib ip bilan bog‘lanadi va yaxshi, martabali, chaqqon insonga o‘sha ipni kestirishadi va farzandimiz ham shu insonday bo‘lsin deb niyat qilinadi. Bu marosim ko‘pincha bolalari tezroq yurib ketishi va yurganda ko‘p qoqilib yiqilmasligi uchun o‘tkaziladi. Amudaryoda bu marosim katta yo‘lda turib o‘tkaziladi.

Sunnat to‘yi (xatna qilish) – islom dini tomonidan muqaddas deb e’zozlangan qadimiy odat. Bu marosim o‘g‘il bolalar uchun 3, 5, 7 yoshga kirganda, kamdan-kam hollarda 9, 11, 12 yoshda o‘tkaziladi. Bu to‘y o‘zbek va qoraqalpoq xalqlarida deyarli bir xil ko‘rinishda bo‘lib o‘tadi. Sunnat to‘yining o‘tkazilishi jamoatchilik tomonidan nazorat qilinadi. Qarindoshlar va qo‘shnilar ko‘rpalarni tikishda, to‘y sovg‘alarini tayyorlashda yordam beradilar. Bularning hammasi ko‘p bolali onalarga topshiriladi.To‘ydan avval mahallada yashovchi oqsoqollar, masjidning imomi va qarindoshlarning huzurida Qur’on o‘qiladi. Dasturxon yoziladi. Shundan keyin Qur’ondan suralar o‘qiladi va oqsoqollar o‘g‘il bolaga duo o‘qiydilar. Shundan so‘ng katta to‘y boshlanadi. To‘ydan avval bolaga qo‘shnilar, oqsoqollar, qarindoshlarning oldida sovg‘alarni, zar tikilgan kiyimlarni kiydirishadi. O‘tmishda toychoq sovg‘a qilish odat bo‘lgan. Hozirgi kunda ham bu odat saqlanib qolgan. Hamma o‘g‘il bolani tabriklab, unga pul va shirinliklar sepadi. Boy odamlar yaqin-uzoq tanishlarini chaqirib, ot choptirib, baxshi ayttirib, har xil o‘yinlar o‘tkazib, katta to‘y beradi. Boshqalar esa yaqin qarindoshlarini yig‘ib, kichik to‘y beradi.

Muchal to‘y – bola o‘n ikki yoshga to‘lganda o‘tkaziladigan to‘y. Bu har ikki xalqda ham bir xil ko‘rinishda bo‘lib o‘tadi. Qoraqalpoqlarda bu to‘y “muʻshe toy” deb nomlanadi. Bolasi 12 yoshga to‘lganda kimdir bosh-oyoq oq mato atab, masjidga olib borsa, yana kimlardir bolasining kiygan kiyimlaridan sharoiti og‘ir insonlarga berar ekan. Muchal yilini belgilash va hisoblash turkiy xalqlarning qadim zamonlardan beri kelayotgan urf-odatlari hisoblanadi.

O‘zbek va qoraqalpoq xalqlarida mana shunday qadimdan kelayotgan urf-odatlar ko‘p. Bu to‘y-marosmilardan boshqa go‘dakning birinchi qadam qo‘yishi, birinchi tishining chiqishi munosabati bilan bog‘liq marosimlar ham bajarilgan. Urf-odat va marosimlar maishiy turmush va oila hayoti bilan bog‘langan ijtimoiy hodisadir. Urf-odat va marosimlar jamiyat taraqqiyotining ilk davrlaridanoq shakllanib, rivojlanib kelgan. Kishilar o‘z hayotlari davomida ko‘plab urf-odat va marosimlarda ishtirok etishga jalb qilinadilar, bevosita uning ishtirokchisiga aylanadilar. Har qanday urf-odat va marosimlar muayyan etnosning boshqa etnoslardan farqlanib turishini ta’minlovchi muhim etnografik belgilardan biridir. Ayni vaqtda ushbu urf-odat va marosimlarda inoetnik jihatlar ham aks etib turadi. Negaki, har bir etnosga xos madaniyat mazkur etnosning boshqa etnoslar bilan uzoq davom etgan etnogenetik va tarixiy-madaniy aloqalari natijasining mahsulidir. Bunday jarayon ma’naviy madaniyatda ham, jumladan, urf-odat va marosimlarda ham namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirov A, Atadjanov SH. Etnologiya. –T.: Iqtisod-Moliya, 2008.
2. Mirzayev N. O‘zbek tili etnografizmlarining izohli lug‘ati. – T.: Fan, 1991.
3. Kasimova R. Ziyodullayev A. Etnografizmlarning o‘zbekcha-inglizcha izohli lug‘ati. –Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2018.
4. Nizanov M. Qaraqalpaqlar 1-kitap. –Nokis: Bilim, 2020.

BADIIY MATNGA LINGVOPOETIK YONDASHUV

Matnazarov Javlanbek,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Urganch davlat universiteti,
javlanbekmatnazarov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligining nisbatan yosh tadqiqot sohasi hisoblangan lingvopoetikaning tadrijiy taraqqiyoti, sohaning taniqli olimlari haqida ma’lumotlar berilgan, ba’zi tadqiqotlar sharhlangan.

Kalit so‘zlar: lingvopoetika, differensiatsiya, integratsiya, “lisoniy shaxs” tushunchasi, poetika, poetik individuallik.

Nodir badiiy asarlar insoniyat tafakkur xazinasining bir qismi hisoblanadi. Bugungi kunda bunday xos adabiyot namunalarini tahlil qilish va to‘g‘ri tushunishning yangicha yo‘nalishi sifatida maydonga kelgan lingvopoetika til faktlari asosida an’anaviy lingvistik yondashuvdan tubdan farq qiladi. Lingvopoetika – badiiy matnda lingvistik vositalarning ekspressivlikni yuzaga keltirish vazifalarini tadqiq qiluvchi soha.

O‘tgan asrning 30-yillarida rus tilshunosligida shakllangan badiiy matn tahliliga bag‘ishlangan ushbu soha hozirda o‘zining tadqiqot metodlariga ega. Uning yordamida tilshunoslik adabiyotshunoslik bilan hamkorlikda badiiy matnning tadqiqot ob’ektlarini kengaytirdi va natijada lingvopoetika badiiy matnni filologik nuqtai nazaridan o‘rganish bosqichini boshlab berdi.

M.Yo‘ldoshev, Sh.Toshxo‘jayeva va boshqa tilshunoslar o‘z tadqiqotlarida lingvopoetika sohasining paydo bo‘lish jarayonini ikki fanning uyg‘unlashuvi sifatida to‘g‘ri ko‘rsatadi [1]. Bunga qo‘shimcha sifatida aytish mumkinki, bu fan matnni aniqroq, tiniqroq tushunish, vaqt bilan bog‘liq ko‘proq ma’lumotni o‘zlashtirish, tarqatish ehtiyoji tufayli dunyoga kelgan. Falsafada fanlarning spiralsimon tadrijiy harakat sikli haqida gapiriladi. Bunda fanlar ma’lum davrda farqlanish (differensiatsiya) hamda uyg‘unlashish (integratsiya) harakatini amalga oshirishi aytiladi [2]. Filologiya ilmining ma’lum bir davrda tilshunoslik va adabiyotshunoslik bir-biridan ajralib chiqqan bo‘lsa, bugun ular badiiy matn tadqiqi doirasida o‘zaro birlashdi hamda buning mahsuli sifatida lingvopoetika fani yuzaga keldi.

Rus tilshunosligida lingvopoetik tadqiqotlarni amalga oshirganlar sifatida B.V.Tomashevskiy [3], L.V.Shcherba [4], D.N.Shmelev [5], V.V.Vinogradov [6], G.V.Stepanov [7], O.S.Axmanova [9], V.Y.Zadornova [10], A.A.Lipgart [11], O.I.Moskalskaya [12]larni sanab o‘tish mumkin. Ushbu tilshunoslar tomonidan

lingvopoetikaning tadqiqot tamoyillari yaratilgan va bu tamoyillar hozirgi davrda ham dunyo tilshunosligida keng qo‘llanilmoqda.

Rus tilshunosligida badiiy matnning lisoniy tahlili va uning metodikasi masalasini tatqiq qilgan L.V.Shcherba matn lingvistik tahlilining asosiy vazifasi sifatida adabiy asarning g‘oyaviy va shu bilan bog‘liq emotsional mazmunini ifodalashda ishtirok etadigan lingvistik vositalarni ko‘rsatib berish ekanligini ta’kidlaydi [13]. D.N.Shmelev esa “So‘z va obraz” kitobida tilning obraz yaratishdagi roliga e’tibor qaratgan bo‘lsa, V.V.Vinogradov birinchilardan bo‘lib o‘z tadqiqotlarida “lisoniy shaxs” tushunchasiga ahamiyat bergan, shu bilan birga lingvopoetikaning boshqa muammolari, xususan, nasriy asarlar tili va uslubi bilan ham shug‘ullangan. G.V.Stepanov o‘zining “Til. Adabiyot. Poetika” nomli asarida tilning badiiy matn qurilishida asosiy unsur ekaniligini tadqiq qilgan. Bu o‘rinda uning so‘zning ideal tomoni boshqa san’at turlari materiallaridan tubdan farq qilishi haqidagi fikrlarini alohida qayd qilish lozim. O.S.Axmanova rus tilida so‘zning uslubiy qo‘llanishi masalasida kuzatishlar olib borgan, olima lingvopoetika fanining terminologiyasi ustida tadqiqot olib borgan va lug‘at yaratgan. Ushbu lug‘at bugungi kunda ham soha tadqiqotlarida muhim amaliy qo‘llanma hisoblanadi. Lingvopoetikaning taniqli mutaxassislari V.Y.Zadornova hamda A.A.Lipgartlar ham badiiy asarning so‘z san’ati sifatidagi mohiyati asosan lingvopoetika asosida ochib berilishi mumkinligi xususida asosli mulohazalarni bayon etishgan. A.A.Lipgart lingvopoetikaga filologiyaning bir tarmog‘i sifatida qaragan, uning boshqa filologik fanlar bilan, xususan, lingvistik stilistika va adabiyotshunoslik bilan o‘zaro bog‘liqligi haqidagi fikrlarini bayon qilgan [14].

V.Y.Zadornova badiiy matnga lingvopoetik yondashuvning o‘ziga xos jihatlari xususida so‘z yuritib, quyidagi masalaga e’tibor qaratadi: “Badiiy matnning lingvopoetik tahlilida badiiy matndagi til birliklari va ularning turli estetik vazifalari munosabatlari o‘ta muhim ahamiyatga ega. Matnning estetik tuzilishida barcha til birliklari qatnashsa ham, undagi eng muhim rol tilning asosiy birligi bo‘lgan va atrofida tilning boshqa birlik va tushunchalari shakllanadigan so‘zga tegishlidir. Tilning boshqa aspektlari ahamiyatini kamaytirmagan holda shuni aytish mumkinki, badiiyatning ta’sir kuchi, eng avvalo, so‘zda mujassamlashadi. So‘z badiiy kontekstga tushishi bilan nafaqat real voqelikka, balki badiiy asardagi ijodiy yaratilgan o‘ziga xos olamga ham yo‘naltiriladi. Muallifning badiiy maqsadiga ko‘ra so‘z ma’noning estetik imkoniyatlari asosida boyiydi va u o‘sha jarayondan murakkab estetik birlik qonuniyatlari asosida yashashni boshlaydi. So‘z butkul rangin va nurli bo‘yoqlarda namoyon bo‘ladi, obrazli fikrlashning quroliga aylanadi” [15]. Shunga asoslanib aytish mumkinki, lingvopoetika tilshunoslikning amaliy jozibali sohasidir.

O‘zbek tilshunosligida lingvopoetikaning nazariy [16] masalalariga bag‘ishlangan ancha tadqiqotlar olib borilgan. Alohida olingan shoir she’riyati tilining lingvopoetik tadqiqi masalalariga bag‘ishlangan ishlar esa bunday tadqiqotlardan miqdor jihatidan kam. Bu borada endi jonlanish kuzatilmoqda. Tadqiqotimizga taalluqli bo‘lgani bois ularning ayrimlarini sanab o‘tamiz. Xususan, Muslihiddin Muhiddinov hamda Suyun Karimovlarning “G‘afur G‘ulomning poetik mahorati” [17] nomli monografiyasi alohida ijodkorning ijodiga e’tibor qaratilgan ilk lingvopoetik tadqiqotlardan sanaladi. Ushbu kitobda G‘.G‘ulomning ona tilimizdan foydalanishdagi o‘ziga xos mahorati haqida

mulohazalar bayon etiladi. Jumladan, kitobning “Shoir lingvopoetikasi xususida” nomli bo‘limida G‘afur G‘ulomning ayrim she’rlari lingvopoetik jihatdan tahlilga tortilgan. Bu bo‘limda qisqa bo‘lsa ham qo‘shimchalarning okkazional imkoniyatlari, leksik birliklarning poetik vazifasi, antonim, oksyumoron, okkazional yasalmalar, shoirning ko‘chimlardan ustalik bilan foydalanish mahorati hamda fonetik birliklarning poetik vazifalari haqida muhim dalillar keltiriladi.

Yana bir alohida shoir ijodini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqot ishi Suyun Karimov tomonidan olib borilgan kuzatishlar natijasida yuzaga kelgan “Zulfiya asarlari lingvopoetikasi” [18] monografiyasidir. Monografiyada Zulfiyaning tildan foydalanishdagi mahorati va o‘ziga xos uslubi, o‘zbek tili taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi, til elementlarining poetik matn shakllanishidagi xizmatlari lingvostilistik va lingvostatistik metodlar asosida yoritilgan; leksik, grammatik vositalar ham tahlilga tortilgan.

Muhammad Yusuf she’riyati tilini o‘rganishga bag‘ishlangan nomzodlik dissertatsiyasi [19] muayyan shoir tilining lingvopoetik tadqiqiga bag‘ishlangan, aynan lingvopoetik aspektda bajarilgan ilk tadqiqotlardandir. D.Shodiyeva Muhammad Yusuf she’riyati tilining leksik-semantik xususiyatlari: antiteza, sinonimlar, iboralar, maqollar va takrorning poetik xususiyatlari, okkazionalizmlarning lingvopoetik tomonlarini tadqiq qilgan.

D.Shodmonovaning Abdulla Oripov she’riyatining lingvopoetik xususiyatlari yuzasidan yozgan PhD doktorlik ishida shoir she’riyatidagi lisoniy metaforalar, badiiy metaforalar va bu birliklarning badiiy san’at hosil qilishdagi o‘rni haqida muhim ma’lumotlar bayon qilingan [20].

S.Umirovaning Usmon Azim she’riyati tiliga bag‘ishlangan [21] PhD doktorlik ishi bo‘lib, bu ham o‘zbek she’riyati lingvopoetikasi kuzatishlari doirasidagi muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Muallifning ushbu tadqiqotida poetik individuallikni yuzaga keltirishda U.Azimning alleteratsiya, parallelizm, oksyumoron, epitetlardan foydalanish mahorati baholangan va shoirning uslubiy o‘ziga xosligi ko‘rsatib berilgan.

Ushbu ilmiy ishlarda amalga oshirilgan kuzatishlar, ma’lumotlar, xulosalar bugungi o‘zbek she’riyati lingvopoetikasi mavzusida umumlashma tadqiqot yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Matnazar Abdulhakim she’riyati lingvopoetikasiga doir ushbu kuzatishlarimiz ham shu boradagi tadqiqotlar sirasiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2018. –B. 212.
2. Mavlonova R.A, Rahmonqulova N. H. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. – Toshkent: Ilm-ziyo, 2009. –B. 192.
2. Томашевский Б.В. Теория литературы (Поэтика). – М., 1925. –Б. 232.
3. Щерба Л.В. Избранные работы по языкознанию и фонетике. – Ленинград: Издательство ленинградского университета, Том 1, 1958. –Б. 182.
5. Шмелев Д.Н. Слова и образ. – М.: Наука, 1964. – С. 3.
6. Виноградов В.В. Избранные труды. О языке художественной прозы. – М., 1980. –Б. 360.
7. Степанов Г.В. Язык. Литература. Поэтика. – М.: Наука, 1988. – С. 148.

8. Ахманова О.С. О стилистической дифференциации слов // Сб. статей по языкознанию. Проф. МГУ акад. В.В. Виноградову в день его 60-летия. – М., 1958. – С. 24-39.

9. Ахманова О.С., Медникова Э. М. Проблемы неидиоматической фразеологии. – М., 1986. –Б. 235.

10. Задорнова В.Я. Словесно-художественное произведение на разных языках как предмет лингвопоэтического исследования: Дисс. ...докт.филол.наук. – М., 1992. – С. 60.

11. Липгарт А.А. О лингвопоэтическом анализе художественного текста // Студенческие научные доклады. Ч. III / Лингвистика. – М., 1992. – С. 3-8.

12. Москальская О.И. Грамматика текста. – М.: Высшая школа, 1981. –Б. 183.

13. Новиков Л.А. Лингвистическое толкование художественного текста. – М.: Русский язык, 1979.

14. Липгарт А.А. Лингвопоэтическое исследование художественного текста: теория и практика: Дисс. ...докт.филол.наук. – М., 1996. –Б. 656.

15. Задорнова В.Я. Восприятие и интерпретация художественного текста. – М., 1984. – С.115-116.

16. Andaniyazova D.R. Badiiy matnda onomastik birliklar lingvopoetikasi: filol.fan. falsafa dok. (PhD) avtoref. – Toshkent, 2017. –B. 52.

17. Muhiddinov M, Karimov S. G‘afur G‘ulomning poetik mahorati(Monografiya). – Samarqand: SamDU, 2003. –B. 126.

18. Karimov S. Zulfiya asarlari lingvopoedkasi. Monografiya. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2006. –B. 120.

19. Shodiyeva D. Muhammad Yusuf she’riyati lingvopoetikasi: filol.fan.nomz. diss. – Toshkent, 2007. –B. 144.

20. Shodmonova D. Abdulla Oripov she’riyatining lingvopoetik xususiyatlari(metoforik hodisalar misolida): filol.fan.nomz. diss. – Qarshi, 2019.

21. Umirova S. O‘zbek she’riyatida lingvistik vositalar va poetik individuallik (Usmon Azim she’riyati misolida) filol.fan.nomz. diss. – Samarqand, 2019. –B. 130.

BESH HARF MUAMMOSI

Begimov O‘ktam,
Davlat tilida ish yuritish
asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi
Xorazm viloyati hududiy bo‘linmasi rahbari

Annotatsiya. Ushbu maqolada kirill alifbosida mavjud, ammo alohida harf sifatida lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida mavjud bo‘lmagan Ее, Ёё, Юю, Яя, Цц harflarning amaldagi alifboda yozilishi va ular bilan bog‘liq muammolar xususida fikr boradi.

Kalit so‘zlar: alifbo, yozuv, imlo, harf, tovush, bo‘g‘in, abbreviatura, me’yor, grafik (yozuv) me’yor, imloviy me’yor.

1989-yil 21-oktabr... O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilingan qutlug‘ sana. Oradan 33 yil vaqt o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonuniga 1995-yil 6-mayda o‘zgartirishlar kiritildi va 31 harf, 1 ta belgidan iborat alifbo 26 harf, 3 ta harf birikmasi, bitta tutuq belgisidan iborat holga keltirildi. Biz to bugunga qadar ana shu alifbo asosida faoliyat yurityapmiz. Alifbo joriy qilingandan keyin esa maxsus orfografik me’yorlar – imlo qoidalari ishlab chiqiladi va shu asosda hududiy yaxlit davlat ma’naviy yaxlitlik nuqtayi nazaridan ham birlashgan sanaladi. Chunki qonun ustuvorligiga amal qilayotgan mamlakat uchun bu zaruriy holat hisoblanadi. Shuni inobatga olgan holda, 1995-yil 24-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida”gi 339-sonli qarori chiqqan va shu qarorga ilova sifatida “Harflar imlosi”, “Asos va qo‘shimchalar imlosi”, “Qo‘shib yozish”, “Chiziqcha bilan yozish”, “Ajratib yozish”, “Bosh harflar imlosi”, “Ko‘chirish qoidalari” kabi 7 bo‘lim, 82 banddan iborat o‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari keltirib o‘tilgan.

Avvalo, amaldagi alifbo va imlo qoidalari yuzasidan ba’zi mulohazalarimni bildirib o‘tishni joiz deb bildim. Bu mulohazalar ikki guruhga bo‘linadi:

1. Kirill alifbosida mavjud, ammo lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida mavjud bo‘lmagan harflar va ularning imlosiga doir (Ее, Ёё, Юю, Яя, Цц).

2. Alifboda mavjud, ammo ayrim munozara va mubohasalarga sabab bo‘layotgan harflarga oid (O‘o‘, G‘g‘, Shsh, Chch, ng).

Ushbu maqolaning imkoniyatidan kelib chiqib hozir faqat birinchi mulohaza yuzasidan o‘rtoqlashsak. Ma’lumki, amaldagi alifboda kirill alifbosidagi Ее, Ёё, Юю, Яя, Цц harflari yo‘q, ya’ni o‘rin olmagan. Ammo bularni ifodalash imkoniyati mavjud. Kirill alifbosida savodi chiqqan avlod vakillarining lotin alifbosida bularni ifodalashga qiynalayotganining eng asosiy sabablaridan biri harf va tovush tushunchalarining farqiga bormayotganligidadir. Zero, tovushlarning asosi ohang, harfning asosi ko‘rinishdir; tovushni eshitamiz, harfni yozamiz. Tovushni qaysi ko‘rinishda ifodalash, ya’ni yozish bu qabul qilingan, mavjud alifboning imkoniyatlaridan kelib chiqadi. Yuqoridagi dastlabki 4 ta harf (Ее, Ёё, Юю, Яя) o‘zida 2 ta tovushni ifodalagani uchun lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida Ее – Y E (ye), Ёё – Y O (yo), Юю – Y U (yu), Яя – Y A (ya) ko‘rinishlarida ifodalanadi.

Mukammal alifboga qo‘yilgan eng asosiy talablardan biri har bir tovushning bir harf asosida ifodalanishidir. Shunday ekan yuqoridagi harflar tarkibidagi har bir tovush alohida-alohida harflar aosida ifodalanadi. Demak, ushbu harflar alohida harf sifatida mavjud emas, ammo tovush sifatida mavjud. Faqat ifodalar turlicha:

Елкан — yelkan
Ёнғоқ — yong‘oq
Юрт — yurt
Яшна — yashna

Endi ozgina abbreviatura – qisqartmalar haqida.

Biz bugungi kunda yuqoridagi harflar bilan bog‘liq qisqartmalarda har xillik-larga duch kelayotganimiz rost. Masalan, *Yulduz Yangiboyeva, Yorqin Yusufboyev* antroponimlarini bugungi kunda nashr qilayotgan adabiyotlarda *Yu. Yangiboyeva, Yo.*

Yusufboyev shaklida ham, yoki *Y. Yangiboyeva, Y. Yusufboyev* tarzida ham uchratyapmiz. Xo‘sh, ular qanday qisqartirilishi kerak?

Abbreviaturada qisqartirish asosi sifatida *harf, bo‘g‘in, so‘z* olinadi. Qisqartirish turli yo‘l bilan amalga oshiriladi:

1. Barqaror so‘z birikmasi qismlarining birinchi tovushlari (harflari) asosida: *BMT, MDH, AQSH, DTM, XDP* kabi. Demak, asos harf.

2. Barqaror so‘z birikmasi birinchi qismining birinchi bo‘g‘ini, qolgan qismlarning birinchi tovushlari (harflari) asosida: *UrDU, O‘zMU, O‘zAS* (O‘zbekiston Adabiyoti va san’ati), *O‘zROAK* (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi). Bunda asos bo‘g‘in va harf.

3. Barqaror so‘z birikmasi birinchi va ikkinchi qismlarining birinchi bo‘g‘ini, qolgan qismlarning to‘la ko‘rinishi: *O‘zmashxolding*. Bu qoida uchun asos bo‘g‘in va so‘z.

4. Birinchi qismning birinchi bo‘g‘ini, qolgan qismlarning to‘la ko‘rinishi: O‘zmevaxolding. Bu qoida uchun ham asos bo‘g‘in va so‘z.

Demak, yuqoridagi qoidalarning birortasida so‘zni dastlabki 2 ta harf bilan (bo‘g‘in emas) qisqartirish usuli yo‘q. Bundan kelib chiqadiki, *Yulduz Yangiboyeva, Yorqin Yusufboyev* antroponimlarini *Y. Yangiboyeva, Y. Yusufboyev* tarzida qisqartirish lozim bo‘ladi. Solishtiring:

Ю. Янгибоева — Y. Yangiboyeva

Ё. Юсуфбоев — Y. Yusufboyev

Kirill alifbosida kishi nomlari dastlabki harf bilan qisqargani kabi lotin alifbosida ham bunday nomlar birinchi harflar asosida qisqartiriladi. Demak, E, Ё, Ю, Я harflari bilan keluvchi nomlarning barchasi lotin frafikasida “Y” tarzida qisqarar ekan.

To‘g‘ri, Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markaziga malaka oshirish uchun kelgan tinglovchilar savol berishadi: agar bu nomlarni “Y” shaklida qisqartirsak, biz uning kirill alifbosidagi 4 ta harfdan (E, Ё, Ю, Я) qaysi biri ekanligini qayerdan bilamiz? Javob quyidagicha: birinchidan, harfda ma’no bo‘lmaydi, shuning uchun uni Ye, Yo, Yu, Ya yoki Y tarzida ifodalasangiz ham ma’no topa olmaysiz. Muhimi, uning qabul qilingan me’yor asosida bo‘lishidir; ikkinchidan, qisqartmalar, asosan, yozma nutq uslubiga xos bo‘ladi. Keyinchalik hamma uchun tushunarli bo‘lgandan so‘ng og‘zaki so‘zlashuv uslubiga o‘tadi.

Demak, Nizomiddin Mahmudov, Ernest Begmatov, Zarifboy Do‘simov kabi olimlar nomini yoki yuqoridagi harflar uchraydigan *Yulduz Yangiboyeva, Yorqin Yusufboyev* kabi nomlar anglangan holda qisqaradi va ularni o‘qiganda yo qisqartma yoyiq holda, yoki tashlab ketilib faqat familiyalar o‘qiladi: *Nizomiddin Mahmudov, Ernest Begmatov, Zarifboy Do‘simov;Yulduz Yangiboyeva, Yorqin Yusufboyev yoki Mahmudov, Begmatov, Do‘simov; Yangiboyeva, Yusufboyev...*

Ma’lumki, o‘zbek tilida har bir harf bir tovushni ifodalashga xizmat qiladi. O‘ylashimizcha, tilning o‘ziga xos tabiatini saqlab qolish, sofligini ta’minlash uchun ham so‘zlarni (tovushlarni) mazmun va ifoda mohiyatidan kelib chiqqan holda yozish kerak. Ayrim tovushlar borki, ularni yozuvda saqlab qolgan bilan talaffuzda ifodalashning imkoni yo‘q. Masalan, metall (yozuvda) – metal (talaffuzda), matbaa (yozuvda) – matba

(talaffuzda). Lekin ayrim tovushlarni yozuvda ifodalashning imkoni bo‘la turib yozmaslik holatlarini imlo bilan bog‘liq muammo sifatida qayta ko‘rib chiqsa bo‘ladi.

Lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosida so‘zlar, asosan, qanday talaffuz qilinsa, shunday yoziladi. Kirill alifbosida кел, бер, девон, безори so‘zlari tarkibidagi “e” lotin alifbosida ye shaklida emas, e shaklida talaffuz qilingani uchun ham bu so‘zlarni kel, ber, devon, bezori shaklida yozamiz. Ammo boshqa so‘zlarda “e”dan oldin “y” tovushiga ehtiyoj sezilsa, talaffuz qilinganidek yozamiz. Masalan, so‘z boshida елим – yelim, so‘z ortasida премьера – premyera, so‘z oxirida ателье – atelye. Ammo shunday qoida bor: ruscha o‘zlashma so‘zlarda ye, yo, yu, ya harflari undosh tovushlardan keyin kelganda bir unli tovush, ya’ni a, u, o, yoki e tovushiday aytiladi va yoziladi. Masalan, сентябрь – sentabr, октябрь – oktabr, глюкоза – glukoza, алюминий – aluminiy, режиссёр – rejissor. Ammo bunday so‘zlardan mazkur qoidalar doirasiga kirmaydiganlari ham bor: samolyot, samolot emas; montyor, montor emas… Bugungi kunda xalqni chalg‘itayotgan, yozma nutqida imloviy xatolar yuzaga kelishiga olib kelayotgan eng asosiy sabab ham yuqoridagi ikki xillikda.

Aytish joizki, imlodagi mana shu chalkashlikni va xilma-xillikni bartaraf qilish uchun 2013-yilda chop etilgan “O‘zbek tilining imlo lug‘ati” tuzuvchilari rus tili orqali kirib kelgan va tarkibida я, ю, ё harflari bo‘lgan so‘zlar barcha hollarda bir xil, ya’ni ya, yu, yo holida yozilishini belgilab berishgan. Ammo bu o‘zgarishlar hukumatning qarori asosida belgilanmas ekan, u o‘zining huquqiy-me’yoriy tasdig‘ini ham topmasligi muqarrar.

2021-yil ilmiy anjumanlarning birida professor R.Jomonov kirill alifbosida yozilgan заряд, наряд, снаряд, разряд, отряд kabi so‘zlarning zaryad, naryad, snaryad, razrad, otrad kabi yozilishi ma’qul, degan taklifni bildirdi. Bu yerda ham ikki xillik. Ma’ruzachi o‘z fikrini so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratish va o‘zbekona ohang bilan talaffuz qilish omillari orqali isbotlaganday bo‘ldi. Зар-яд / zar-yad, нар-яд / nar-yad, снар-яд / snar-yad so‘zlaridagi “я” lotin grafikasida “ya”; раз-ряд / raz-rad, от-ряд / ot-rad so‘zlaridagi “я” lotin grafikasida “a” shaklida berilgani ma’qul ekan. Nega? “y” tovushu qayerga “uchib ketadi”. Agar bu bo‘g‘in bilan bog‘liq bo‘lsa, bu yuzasidan ham maxsus qoidalar bor:

a) o‘zlashma so‘zlarda 2 ta undosh bir joyda kelsa, ularning har biri alohida bo‘g‘inda bo‘ladi: zar-yad, nar-yad…

b) o‘zlashma so‘zlarda 3 ta undosh yonma-yon kelsa, birinchi undosh oldingi bo‘g‘inda, qolgan ikkitasi keying bo‘g‘inda bo‘ladi: ot-ryad, raz-ryad…

Shuningdek, R.Jomonovning Kun.uzga bergan intervyusini ham tingladim. Ustoz сентябрь so‘zining lotin alifbosida sentabr, бюджет so‘zining esa budjet shaklida yozilishi kerakligini ta’kidlagan. Buni shu tovushlarning funksiyalari bilan bog‘lagan. Baribir, chalkashlikka xizmat qilayotgan bu qoidalarni singdira olmadim.

Demak, e, ё, ю, я harflarining lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida har qanday holatda ham ye, yo, yu, ya tarzida yozilishi bu yozuvda so‘zlar qay tarzda tallaffuz qilinsa, shunday yoziladi degan fikrni to‘la isbotlagan hamda har jihatdan ma’qul bo‘ladi. Qolaversa, xalqni qoidalar girdobiga sho‘ng‘ishga emas, savodini ta’minlashga xizmat qiladi.

*Ц*ц harfining lotin alifbosida ifodalanishi. Kirill alifbosidagi bu harf lotin grafikasida ikki ko‘rinishda: “s” va “ts” tarzida ifodalanmoqda. Adabiyotlarda mavjud ilmiy-nazariy

qoidalar asosida qachon “s”, qachon “ts” tarzida yozilishini ilgari surishdan oldin butun omma yagona va oddiy qoidani o‘zlariga asos qilib olishlarini istagan bo‘lardik: bugungi o‘zbek adabiy talaffuzida quloqqa *Цц* bilan keladigan so‘zlarda “t” eshitilmadimi, demak, bu harfni “s” bilan ifodalang: sirk, aseton, aksent... Agar “t”ga zarurat tug‘ilsa, “ts” shaklida yozing: Sitseron, konstitutsiya... Endi qoidalarni keltirib o‘tamiz:

Lotin yozuvida Цц undoshi quyidagi hollarda **“s”** bilan ifodalanadi:

a) so‘z boshida: sirk, sement, sentner kabi;

b) so‘z o‘rtasida undosh tovushdan keyin: konstruksiya, direksiya, induksiya, deduksiya, aksent, ssenariy kabi;

d) so‘z oxirida: abzas, shpris, kvars kabi;

e) old qo‘shimchadan keyin: telesentr, antisiklon, episentr kabi;

f) so‘z boshida a mustaqil bo‘g‘in bo‘lib kelganda: aseton, asetilin, asetat kabi.

2. So‘z o‘rtasida ikki unli tovush orasida **“ts”** yoziladi: assimilatsiya, dissimilatsiya, kalkulatsiya, Sitseron, assotsiatsiya kabi. [1:48]

Xulosa qilib aytganda, adabiy til umumxalq tilining sayqallangan shakli sifatida aniq me’yor hamda qoidalar asosida ish ko‘radi. Milliy adabiy tilni, uning og‘zaki va yozma shakllarini puxta egallashda me’yorlarning o‘rni muhimdir. Tilshunoslikda me’yor tushunchasi mutaxassislar tomonidan qabul qilingan, ma’qullangan va til egalariga tushunarli bo‘lgan til birliklarining nutq jarayonida qo‘llanish holati va imkoniyatini anglatadi. Har qanday tilning muayyan qolipga solingan, belgilangan me’yorlarining borligi o‘sha til qoidalarining qat’iyligi, o‘rganilishi qulayligini ta’minlovchi muhim omillardandir. [2:3] Bu me’yorlar, xususan, grafik (yozuv) va imloviy me’yorlarda ham o‘sha qat’iylik va qulaylik bo‘lmas ekan, mukammal alifbo, to‘kis imlo, yaxlit qilib aytganda, ma’naviy yuksalish borasida gap ham bo‘lishi mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azimova I., Mavlonova K., Jabborova M., Tursun Sh.. O‘zbek adabiy tili / o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2022. –B. 212.

2. O‘zbek tili me’yorlari (punktuatsiya). – Toshkent: Zamin nashr, 2021. –B. 232 .

“RAQAMLI” VA “RAQAMLASHTIRISH” LEKSEMALARINING IJTIMOIY-SIYOSIY MATNLARDAGI SEMANTIKASI

Yokubbayeva Umida,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti,
uyokubbayeva92@gmail.com
Tel: +998930400270

Annotatsiya. Maqolada ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning tilning lig‘at tarkibiga ta’siri “raqam” va “raqamlashtirish” so‘zlari misolida o‘rganib chiqildi. Ularda hosila ma’noning ifodalanish usullari, ushbu lug‘aviy birliklarni bugungi siyosiy matnning mazmuniy mundarijasida bajarayotgan vazifasi tahlil qilingan. Tahlil jarayonida qiyosiy metadologik usul asosida leksemalarning bosh va hosila ma’nolari kontekstual xususiyatiga asoslangan holda o‘rganib chiqildi. “Raqamli” va “raqamlashtirish” so‘zlari atrofida shakllangan, mavjudlari esa kengaygan semantik maydon tahlil etildi.

Kalit so‘zlar: bosh sema, hosila ma’no, kontekstual xususiyat, raqamlashtirish, raqamli, neologizm.

XXI asr – axborot asri ekanligi va jamiyatdagi barcha sohalar faoliyatini kompyuter texnologiyalari asosida olib borish jarayoniga o‘tilishi tilimizda yangi ifodalarni shakllanishiga sabab bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349-sonli “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosi yo‘lida jamiyatning bir qator tizimlari faoliyati elektronlashdi.

Ma’lumki, axborotni elektronlashtirish uni raqamlar bilan kodlash asosida yuz beradi. Axborot oqimini to‘g‘ri va tartibli saqlash jarayonida ularni raqamlar asosida qayd etish faollashdi. Natijada yangi siyosiy-ijtimoiy jarayon nomemalariga ehtiyoj tug‘ildi. Avvalo, bu jarayon 1950-yili kompyuter yaratilgan paytga borib taqalishi, lug‘at tarkibimizdan jarayonning muqobil variantlarini topilishiga sabab bo‘ldi. Natijada ijtimoiy-siyosiy terminlar sirasini qayta tahlil qilish va shu asosda lug‘at shakllantirish tilshunosligimiz oldidagi muhim masalalardan biriga aylandi. Shunga muvofiq davr mazmunini aks ettiruvchi birliklardan *raqamli* leksemasining semantik takomili ijtimoiy-siyosiy leksemalar maydonida yangi uslubiy valentliklarni shakllanishi va amalda qo‘llanishiga olib keldi. Natijada *digital, цифровое* so‘zlarini kalkalangan varianti *raqamli* so‘zi axborot asri revolutsiyasi ta’sirida qo‘llanishi faollashdi.

So‘zning predmetlik semasi uning baho ma’nosi bilan bevosita bog‘liq [8,19]. O‘zbek tili leksikasi konnotativlik belgisiga egaligiga ko‘ra hamma uchun umumiy bo‘lgan hamda qo‘llanish doirasi chegaralangan so‘zlar tarkibiga ega. Raqam leksemasi faol so‘zlar qatorida qo‘llanib kelingan bo‘lib, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” [6,360] da arab tilidan olinganligi, uni son va miqdorga ishora qilishi haqida ma’lumotlar berilgan. A.Hojiyev [3,209] ham *raqam* so‘zi yozuvda sonni ifodalash uchun ishlatiladigan belgi ekanligini izohlab o‘tgan. Biroq so‘zning yangi “elektron” ma’nosi uning “raqamlashgan”, “raqamli” yasalmalari bilan bog‘liq holda yuzaga keldi.

Lug‘at tarkibimizda boshqa tildan kirib kelgan leksemalarni affiksatsiya usulida o‘zlashtirish holati uchrab turadi. Bu hodisa atamalar doirasida ham mavjud. Xususan, *raqam* so‘zining affiksatsiya usulida yangi jarayon nomemasi sifatida qo‘llanishida unga birikkan -li affiksining belgiga egalik ichki semasi “aniqlik, bir tarmoqqa jamlanganlik” semalari bilan uyg‘unlashdi. Bu hodisa esa tilimizning lug‘at tarkibini raqamlashtirish, raqamli singari neologizmlar bilan boyitdi. Ushbu so‘zlar leksik neologizmlar bo‘lib, unda oldingi ma’no o‘zgarib, kengaydi va termin darajasiga ko‘tarildi.

Bilamizki, tilining lug‘at tarkibi qo‘llanish chastotasiga ko‘ra faol va nofaol so‘zlar qatoriga ajratiladi. *Raqamli* va *raqamlashtirish* leksemalarining an’anaviy ma’nolari faol qo‘llanilib, endi ularning hosila ma’nolari terminologik tizim doirasida nofaollashdi. Biroq bu qat’iy xulosa emas. Davr ta’siri boshqa leksemalar kabi ushbu yangi neologizmlarni faollashishiga hamda zamonaviy so‘zlar sirasiga qo‘shilishiga olib kelishi mumkin.

Raqamli leksemaning yangi ma’nosi u bog‘langan leksik tarkib hamda kontekstga ham bog‘liq. Chunonchi, *raqamli* so‘zining maxsus ma’nosi aks etishi uchun matn yoki leksik tarkib zarur. Masalan, *raqamli texnologiya, raqamli iqtisodiyot; ...raqamli tizimlar elementlari o‘rtasidagi almashinuv vaqtini qisqartirish* kabi [1,181-193]. Ushbu o‘rinlarda leksemaning neologizmlik xususiyati birikmaviy shaklda yuzaga chiqib, atamalashish yuz bergan. Odatda, umumiste’moldagi so‘zlarning ma’lum sohaga oid tushunchani ifodalashi terminga aylanishiga olib keladi.

So‘zning eski va yangi ma’nosi ham asosan matn tarkibida anglashiladi. Masalan, *raqamli uy, raqamli o‘rindiq* birliklarida “raqamlanganlik, miqdor yoki tartibni ko‘rsatuvchi belgining mavjudligi” ga ishora qilingan bo‘lsa, *raqamli uskuna, raqamli tizim, raqamli shaklga o‘tkazish* kabi birikmaviy ifodalarda “ish yuritishning zamonaviy, raqamlar asosidagi ma’lumotlar majmui” ekanligini anglatmoqda. Kitob matnida qo‘llangan *raqamli infratuzilma, raqamli identifikatsiya, raqamli sug‘urta, raqamli startap* kabi birliklar tarkibidagi komponentlarning hokim bo‘laklarini ijtimoiy-siyosiy terminlar tashkil etgan bo‘lib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri *raqamli* leksemasining yangi semasini anglashilishiga olib kelmoqda.

Raqam leksemasining semantikasi

Raqam			
Raqamli		Raqamlashtirish	
Bosh sema	Hosila sema	Bosh sema	Hosila sema
Miqdor, sonni ifodalovchi belgiga egalik	Elektron tizimga asoslanganlik	Raqam bilan belgilash jarayoni	Ma’lumotlarni kompyuterda o‘qiladigan formatga aylantirish jarayoni.
Tartib raqam qo‘yilganlik	Ma’lumotlarning raqamlarda ifodalangan formatiga egalik		Diskret to‘plamni tavsiflovchi raqamlarni yaratish jarayoni

Raqamli va raqamlashtirish terminlarining eski ma’nodan uzilgan deb bo‘lmaydi. Chunki har ikki sema ham miqdor bilan bog‘liq belgiga ishora qilmoqda. Shu jihatdan ular o‘rtasidagi ma’noviy rishta saqlangan. Neologizm sifatida esa qayta ishlov berishda qulay, ma’lumotlarni bir xil samaradorlikda saqlash, qat’iy tartibga muvofiqlik kabi xususiy belgilarga ega bo‘ldi. Raqamlashtirish bu raqam bilan nomlash jarayonidir. Bu leksema raqam bilan bog‘liq boshqa leksemalarga ham ishora qiladi.

Raqamlashtirish



Biz ko‘rib chiqayotgan matnda ayrim o‘rinlarda *raqamli* leksemasini ko‘r-ko‘rona qo‘llanganligini ham uchratish mumkin. Masalan, *“...raqamli imkoniyatlardan foydalanish yuzasidan zarur ko‘nikmalarni shakllantirish; ...davlat boshqaruvi tizimining jadal raqamli rivojlanishini ta’minlash”* kabi [1,181-194]. Ushbu uslubiy xatolikda birikmaviy komponentlar semantik valentlik jihatidan o‘zaro hamohang bo‘lmasligi gap mazmuniga ham putur yetkazadi. “Raqamli imkoniyat” emas, ma’lumotni raqamli shaklda saqlash, qayta ishlash va undan foydalanishga asoslanishni imkoniyat sifatida ko‘rsatish to‘g‘riroqdir. Ikkinchi jumlada ham so‘z qo‘llash bilan bog‘liq uslubiy xatolik mavjudligini ko‘rish mumkin. Rivojlanishga bugungi siyosiy-ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqib bunday sifat berilayotganligini tushunish mumkin, lekin uslubiy jihatdan ushbu o‘rinda *shaklda* leksemasi yoki uning muqobil variantlarini qo‘llash o‘rinli bo‘ladi.

Raqam va raqamlashtirish birliklarini yangi ma’noda qo‘llash orqali yuzaga kelgan atamalashish ularni *elektron, smart* kabi so‘zlarga semantik yaqinlashishiga olib keldi. Bugun jamiyatimizda *elektron* so‘zi bilan bog‘liq jumlalarni juda ko‘p uchratmoqdamiz. *Elektron* so‘zi, birinchi navbatda, ilmiy termin sifatida eng kichik manfiy elektr zaryadiga ega bo‘lgan elementar zarrachaga nisbatan qo‘llangan [6,32]. Shu bilan birga elektron xususiyatiga ega va elektrondan qilingan buyumlarga nisbatan qo‘llanadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da elektron eng kichik zarracha sifatida ko‘rsatilgan. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova va boshqalarning hammuallifligida yaratilgan kitobida *elektr* so‘zini sanoat sohasida qo‘llanuvchi birliklar qatorida sanab o‘tilgan. O.Usmonov, Sh.Hamidovlar [5] tomonidan yaratilgan ilmiy manbaada esa elektr so‘zi XIX asrning 70-yillarida kirib kelgan terminlar sirasida izohlab o‘tilgan. *Elektron* leksemasini u o‘sib chiqqan *elektr* so‘zi bilan bir narsa deb bo‘lmaydi.

Elektron xisoblash mashinalari (kompyuter) rivoji ushbu leksemaga ijtimoiy-siyosiylik xususiyatini yukladi. A.Madvaliyev, N.Mahkamov va boshqalarning [4,62] hamkorligida tuzilgan “Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug‘ati” da esa, *elektron* so‘zi bilan bog‘liq bir necha terminlar keltirilgan. Masalan, *elektron hujjat, elektron davlat xizmati, elektron hukumat, elektron raqamli imzo, elektron pochta* kabi [1,184-201]. Bu birikmaviy ifodalarning barchasida umumiylik bo‘lib, ularni elektrga asoslanganlik semasi atrofida birlashtirish mumkin. Kitob matnida *elektron davlat xizmatlari, elektron tijorat, elektron to‘lovlar, elektron resurs va ma’lumotlar ba’zalari* kabi jumlalarni uchratish mumkin. Ushbu leksema avval fizikaviy ilmiy atama bo‘lgan

bo‘lsa, texnologik taraqqiyot uni ijtimoiy hayot uchun xizmat qilayotgan barcha sohalar faoliyatiga chambarchas bog‘ladi va ijtimoiy-siyosiy terminga aylantirdi.

Raqamli va *elektron* leksik birliklari aynan bir semantik qatorda yota olmay, bir birini taqozo qiluvchi, biri ikkinchisiga bog‘liq bo‘lgan jarayonlar nomemasi sifatida qo‘llana boshlandi. Shu bilan birga *smart* leksemasi va uning o‘zbek tilidagi kalkalangan varianti *aqlli* so‘zi ham tilda faollashib bormoqda. Kitob matnida ushbu leksemalar qo‘llangan o‘rinlarni uchratamiz. Masalan, *“...aholining hayotini qo‘llab-quvvatlashda aqlli tizimlarni joriy etish...; “aqlli” va “xavfsiz” shahar loyihalarini izchil amalga oshirish...; ...intelektual servislarni joriy qilish va kommunal xizmatlarni tartibga solish uchun “aqlli uy” tajribasini joriy qilish”* [1,187]. Endi *aqlli* so‘zini faqat ijobiy insoniy xususiyatlarga egalik sifatida emas, bugungi texnologik rivojlanishning barcha ijobiy sifatlarini o‘zida jamlagan predmet yoki jarayonga nisbatan qo‘llash ham mumkin.

Smart ⟶ intellektual ⟶ aqlli



Raqamlashtirilgan jarayonlarning hammasi ham elektron shaklga ega bo‘lmasligi mumkin, raqamli va elektron shaklning umumiyligiga ega texnologiyalarga nisbatan aqilli, smart yoki intelektual leksemalari qo‘llanmoqda.

Demak, axborotlashtirish siyosati ta’sirida *raqam* leksemasidan affiksatsiya usulida yasalgan *raqamli va raqamlashtirish* so‘zlarida hosila ma’no shakllanib, ijtimoiy-siyosiy terminlar darajasiga ko‘tarilishiga olib keldi. Natijada terminologik tizim doirasida raqamli va raqamlashtirish leksemalarining qo‘llanish chastotasi o‘zgardi. Biroq yangi ma’no ma’lum kontekts yoki birikmaviy tarkibdagina yuzaga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: O‘zbekiston, 2021. – Б.464.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Talqin, 2005.
3. Hojiyev A., Nurmonov A., va boshqalar. Hozirgi o’zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati. – T.: Sharq, 2001. – B. 209.
4. Madvaliyev A., Mahkamov N va boshqalar. Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug‘ati. – T.: Sahhof, 2020. – B. 62.
5. Усмонов О., Ҳамидов Ш. Ўзбек тили лексикаси тарихидан материаллар (XIX аср охири – XX асрнинг бошлари). – Т.: Фан, 1981.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати III жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – Б.32.
7. Искандарова Ш. Лексикани мазмуний майдон асосида ўрганиш муаммолари. – Т.: Фан, 1998.

HALIMA XUDOYBERDIYEVA IJODIDA OKKAZIONAL EVFEMIZMLAR

Yusupova Dildora,
Buxoro davlat universiteti
o‘zbek tilshunosligi kafedrasi doktoranti

Annotatsiya. Til tizimlarining turli tavsiflarini faqat nazariy jihatdan aniqlash kifoya emas. Lisoniy birliklarning nutqiy voqelanishini muloqot sistemasi tarkibida o‘rganish inson omiliga e’tiborni kuchaytirishini inobatga olib, quyida o‘zbekona nutqiy evfemizmlarning xususiyatlari, aniqrog‘i, Halima Xudoyberdiyeva ijodida okkazional evfemizmlar haqida mulohaza yuritamiz. Chunki milliy, madaniy o‘ziga xoslik o‘sha xalqning xulqi, madaniyati va muloqot jarayonida o‘z aksini topadi.

Kalit so‘zlar: evfemik ma’no, tibbiy evfemizmlar, Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida okkazional hamda tibbiy evfemizmlar

Axloqiy va madaniy jihatdan qo‘llanilishi mumkin bo‘lmagan yoki noqulay deb topilgan tushunchalarni ancha yumshoq tarzdagi ba’zan so‘z yordamida, ko‘proq birikmalar bilan ifodalash ehtiyoji evfemizmlarni yuzaga keltiradi va ijtimoiy qatlam egalarining har biri nutqida har doim nutqiy sharoitga mos yangi topilma sifatida yaratilaveradi. Nutqda evfemizmlarning qiymatini ularning noodatiyligi, favquloddaligi, inson tafakkuri ifodalanishi zarur bo‘lgan narsa va hodisalar orasidagi uyg‘unliklarni metaforik tarzda ko‘ra olishi, til sezgirligi, ichki sezimning kuchi bilan xarakterlash mumkin. Demak, evfemizm – idrokiy topilma.

Umumxalq tafakkuriga mos evfemistik birliklar tezda siyqalashadi, ommalashadi va ko‘pchilikning nutqidan o‘rin oladi. Aslida evfemizm an’anaviy semantik-sintaktik qoliplarga mos tushmasligi bilan ham alohidalik kasb etadi. U nutqda qo‘llash noqulaylik tug‘diruvchi voqelikka (predmet, harakat, belgi, xususiyat kabilarga) to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanmaydi, balki aylanma yo‘llar bilan keladi. Ana shu “aylanma yo‘l” evfemistik nutq egasining idroki hamda evfemalanuvchi hodisaning tegishli sifatini qay darajada ilg‘ay olishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, o‘zbek nutqidagi quyidagi evfemizmlar allaqachon umumiste’mol evfemizmlariga aylangan:

fe’l so‘z turkumi doirasida: *haqiqatdan uzoqlashmoq* (yolg‘on gapirmoq), *olamdan o‘tmoq* (o‘lmoq), *yengil bo‘lmoq* (tug‘moq), *begona bo‘lmoq* (ajrashmoq), *nomusiga tegmoq* (zo‘rlamoq), *uyli bo‘lmoq, boshini ikkita qilmoq, turmush qurmoq* (uylanmoq) va b.;

ot so‘z turkumi doirasida: *umr yo‘ldoshi, jufti halol* (er yoki xotin), *oliy jazo* (o‘lim), *beldan past* (avrat), *qo‘sh kabutar* (siyna) va b.;

sifat so‘z turkumi doirasida: *yoshi ulug‘* (qari), *o‘ylamay gapiradigan* (befarosat), *aqli noqis* (jinni), *imkoniyati cheklangan* (majruh), *ko‘zi ojiz* (ko‘r), *aybi bor* (xezalak), *suyuqoyoq* (fohisha) va b.

Nutqiy (dinamik) evfemizm turg‘unlashmagan va ijtimoiylashmagan, vujudga kelishidan jarayon bilan bog‘langan, bunda uning hosil qilinishi va qo‘llanishi faqat yakka shaxs bilan bog‘liq, statiklashmaganligi esa uning asosiy belgilovchi xususiyati

hisoblanadi. Bunday evfemizmlarning eng go‘zal namunalarini so‘z san’atkorlari, so‘z ustalari, yozuvchi, shoirlar, notiqlar nutqida tez-tez uchratish mumkin. Masalan,

Yel bo‘lib betoqat qoqdimu, lekin
Dil xonangni mutlaq ocholmadim men. (Halima Xudoyberdiyeva)

She’rning “*Dil xonangni mutloq ocholmadim”* evfemik satri “sevilmadim” birligi o‘rnida qo‘llanilgan. Ha, sevish, albatta, sevilish bilan to‘laqonli. Sevilmaslik, hamisha inson qalbiga bitmas armon, ulkan dard, ba’zan cheksiz nafrat ham soladi. O‘zbek shoirasi Halima Xudoyberdiyeva qo‘llagan “*Dil xonangni mutloq ocholmadim”* evfemizmi juda go‘zal. O‘z o‘rnida ishlatilgan. Ammo u o‘zbek umumnutqida turg‘unlashmagan, ya’ni ijtimoiylashmagan. Ijodkorning poetik nutqigagina xos, umumnutqida turg‘unlashmagan, ijtimoiylashmagan evfemik birliklarni okkazional evfemizmlar sifatida baholash o‘rinli.

O‘zbek shoirasi Halima Xudoyberdiyeva ijodida okkazional evfemizmlarning rang-barang va betakror ko‘rinishlari mavjudligini kuzatish mumkin. Masalan,

Nomard g‘olib kelsa mard diltangu zor
Bosh egib turganda qancha kuch sarflar.
...Ayting, yana necha asr solib iz
Bu do‘zaxiy so‘zdan kuyar tilimiz?!

Shoira el ham, millat yoki elat ham, makon yoki zamon ham tanlamaydigan “*ayriliq*”ni, ya’ni yaqinlarimizdan judo bo‘lishni anglatuvchi so‘z o‘rnida *do‘zaxiy so‘z* evfemizmini qo‘llaydi va o‘ziga xos orginallikni yuzaga keltiradi.

Yoki

Siz, ey, bu dunyoning hisobdonlari,
Taxminan bo‘lsa ham qilingiz hisob:
Qanchalik umri bor sun’iy shonlarning;
Sun’iy ko‘rk qanchada bo‘lgusi xarob;
Qancha davolangach past tushib har kas
O‘zin allomai zamon sanamas

misralarida *sun’iy shon, sun’iy ko‘rk* deganda ba’zi insonlarga tegishli manmanlik, kibru havoni nazarda tutadi. Inson zotiga xos illatlar nomini pardalashda efemik birliklardan foydalanadi.

Shoira ijodida an’anaviy umumiste’mol evfemizmlaridan ham juda o‘rinli foydalanilgan misollar ko‘p uchraydi. Ayniqsa, tibbiy evfemizmlardan ba’zan o‘z ma’nosida, ba’zan ko‘chma ma’noda foydalanilgan misollar e’tiborimizni tortadi. (Shu o‘rinda eslatib o‘tishimiz zarurki, biz inson salomatligi bilan bog‘liq barcha evfemik birliklarni tibbiy evfemizmlar sirasiga kiritdik):

Ming dard chekkan o‘zimiz silliq,
Ming tosh tekkan so‘zimiz silliq,
Qirq qirrali so‘zlarimizni
Shudgor qilib tekisladilar.

Ming dard chekkan tibbiy evfemizmi qiynalgan, azoblangan so‘zlari o‘rnida qo‘llanilmoqda.

Yo‘q, yo‘q, behudaga hech ko‘kraklarga tushmas dog‘,
Shig‘il mevasin axir ko‘tarolmay sinar shox.

Qator o‘g‘il-qizini o‘stirguncha tik qilib
Otaning tik qomati qolgay axir bukilib.

Yoki

Bizning yurak dog‘lidir, kim uchundir kuydik biz,
Kim uchundir ko‘krakda og‘riq, dardni tuydik biz.

Sog‘lom, bo‘m-bo‘sh qalb bilan yashamadik bekorga,
Yaralanib bo‘lsa ham malham bo‘ldik bemorga!

So‘nggi yo‘lga ketarmiz, shafqatni tishda tishlab,
Dog‘li, yarador, lekin toza yurakni ushlab...

Tanlangan misollardagi *shig‘il mevasin axir ko‘tarolmay sinar shox*, *so‘nggi yo‘lga ketmoq* evfemalari “o‘lmoq”, *otaning tik qomati qolgay axir bukilib* birligi “qarimoq”, *dog‘li yurak, ko‘krakda og‘riq, ko‘krakda dardni tuymoq* tibbiy evfemizmlari esa yurak kasalliklari (masalan, infarkt yoki h.) nomlarini atab kelmoqda.

Halima Xudoyberdiyeva “Eng toza meva” she’rida farzandni *eng toza meva* deb ataydi va shu she’rning sharhida shunday izoh yozadi: “*Bir kelinchak to‘rt oylik xasta chaqalog‘ini qaytib olmaslik sharti bilan kasalxonaga tashlab ketdi*”. Izohdagi *xasta chaqaloq* evfemizmi *nogiron* so‘zi o‘rnida ishlatilgan.

Mazkur she’rda yana shunday tibbiy evfemizmlar uchraydi:

Gunoh mahsulidir balki jahonda,
Dunyoga keltirmish balki xatolar...
Ular ko‘kragiga bosar qattiqroq
Sovugan go‘daklar tanalarini!

Gunoh mahsuli (tashlandiq bola), *sovugan go‘daklar* (o‘lik), *dunyoga keltirmish* (bolasidan voz kechgan ayol)...

Jahon tilshunoslari evfemizmlarning yuzaga kelishi uchun bir qator, masalan, xushmuomalalik (G.Grays, J.Lich, G.A.Vildanova, S.Levinson, N.I.Formanovskaya va b.), nazokatlilik (Lakoff, P.Braun va b.), injiqlik (Y.V.Gorshunov), xushxulqlik (Y.V.Gorshunov, E.P.Senichkina va b.), nutq madaniyatining yuksak darajaga ko‘tarilishi (V.I.Krasik, E.A.Zemskaya, J.Koast va b.) kabi pragmatik sabablar mavjudligini sanab o‘tadilar.

Taniqli tilshunoslarning fikrlarini quvvatlagan holda aytishimiz kerakki, jamiyatda o‘zini bilgan, o‘zligiga intilgan har bir shaxs, odatda, madaniyatiy so‘zlashga intiladi, chiroyli nutqi bilan suhbatdoshlarida yaxshi taassurot qoldirishga harakat qiladi. Demak, muloyim, ta’sirli nutq asosi bo‘lgan evfemizmlar jamiyatda shaxs mavqeini oshirishga xizmat qiluvchi lingvistik vosita hamdir.

Azaldan o‘zbek millatida o‘z fikrini odob doirasida ifodalash meros hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan yondashadigan bo‘lsak, ko‘pchilik odamlar bilan muntazam nutqiy muloqotda bo‘ladigan kasb egalari nutqida kasbiy etiketni saqlash va e’tiborni qozonish maqsadida ham evfemik birliklardan keng foydalaniladi. Ayniqsa, insonning jismi joni,

ruhiyati, hayoti bilan ish ko‘ruvchi shifokorlar muloqotida evfemizmlar boshqa kasb egalari nutqidan ko‘ra ko‘proq qo‘llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Миртожиев М.М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2010. –Б. 288.

2.Гулямова Ш.К. Ўзбек тили эвфемизмларининг гендер хусусиятлари: филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Бухоро, 2020.

3.Ғайбуллаева Н.И. Ўзбек тилида тиббий эвфемизмлар (тиббий даврий нашр материаллари асосида): НДА.– Бухоро, 2019. –Б. 50.

4. DY Yusupova. Poetess Khalim Khudoyberdieva and his skill in use of the word. International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA issue 01, volume 93 published January 30, 2021.–Pag.238-241. https://www.elibrary.ru/item.asp?id=44644284

5. Худойбердиева Ҳ. Сайланма.–Тошкент: Шарқ, 2000. –Б. 398.

LINGVOKULTUROLOGIYADA KONSEPT TUSHUNCHASI: RIVOJLANISH TARIXI, TUZILISHI, TASNIFI

Barnoyeva Samarabonu,
TIQXMMI Buxoro filiali o‘qituvchi

Annotatsiya. Maqola lingvokulturologiyaning "kontsept" tushunchasi tavsifiga bag‘ishlangan. Tilshunoslik fanida tushunchalarni o‘rganish tarixini ko‘rib chiqish va batafsil tahlil qilish, kontseptni lingvokulturologiyaning asosiy tushunchasi sifatida taqdim etish ushbu maqolaning asosiy maqsadi bo‘lib, unga rivojlanish tarixini tavsiflash, asosiy yo‘nalishlarni tahlil qilish orqali erishiladi. Asosiy tushunchaning tavsifi lingvokulturologiyada kontseptual tahlil usullari, tushunchalarni tasniflashning ko‘p qirrali yondashuvlari va kontseptsiya sohasini batafsil ko‘rib chiqish bilan ham to‘ldiriladi. O‘tkazilgan tahlilni jamlab, shuni xulosa qilish kerakki, kontsept ko‘p o‘lchovli aqliy shakllanish bo‘lib, uni ta’riflashda turli xil yondashuvlarning mavjudligiga olib keladi. Insonning ruhiy dunyosiga, shuningdek, madaniyat va tarixga yaqin bo‘lish, tushunchasi rasmiy va semantik tuzilmaning birikmasi sifatida qaraladi.

Kalit so‘zlar: konsept, konsepsiya, konseptual tahlil, konseptlar tasnifi, konseptlar tarkibi, milliy konseptlar, umuminsoniy konseptlar.

Insonda butun umri davomida shakllanadigan dunyo haqidagi g‘oyalar tizimi asta-sekin yangi bilimlar bilan boyib boradi. Umumiy tushunchalar shaklida shakllanadi. Ushbu to‘plam konseptdan iborat, chunki faoliyat va muloqot jarayonida shaxs muayyan xususiyat va xususiyatlarga ega bo‘lgan tushunchalar dunyosida o‘ylaydi va harakat qiladi. Kontsept - bu kognitiv tilshunoslik, madaniyatshunoslik, lingvokulturologiya, siyosatshunoslik, sotsiologiya va etnopsixologiya kabi bir qator fanlarning o‘rganish obyekti hisoblanadi. Tildagi madaniyat ko‘rinishlarini birgalikda tavsiflovchi va

taraqqiyotda til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatni tahlil qilish imkonini beruvchi asosiy tushunchalar majmuini tilshunoslik ko‘rib chiqadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida berilishicha: konseptsiya- (lotincha conceptio so‘zidan olingan bo‘lib to‘plash, birlashtirish, tizim, ibora) qarashlar, fikrlar yo‘nalishi tizimi; fikr yuritish, dunyoni tushunish, anglash usuli ma’nolarini bildiradi. Konsepsiya hozirda lingvokulturologiyaning asosiy tushunchalaridan biri. Rus tilida bu so‘z atama sifatida birinchi marta S. A. Askoldov (taxallusi S. A. Alekseeva) tomonidan 1928 yilda "So‘z va konsepsiyasi" jurnalida chop etilgan "Ruscha nutq”, maqolasida qo‘llangan. Bu yerda muallif konseptlarning asosiy xususiyati sifatida almashtirish funktsiyasini ko‘rsatadi [1, b. 269]. Bu maqola zamonaviy fanda kontseptual va madaniy yondashuvning boshlanishi edi bu atama rus tilshunosligida uzoq vaqtdan beri ishlatilmagan, faqat bir necha yillikdan keyin “kontseptsiya" inson bilimlarining quyi tizimlari o‘rganiladigan kognitiv tilshunoslik yo‘nalishi vakillari (R.I. Pavilenis, M.A. Xolodnaya) ning asarlarida paydo bo‘ladi.

1990-yillarning boshidan boshlab “Konsept” atamasi D.S.Lixachev va Y.S.Stepanovaning ilmiy ishlari tufayli lingvistik adabiyotda keng qo‘llanilishni boshladi.D. S.Lixachev S.A.Askoldovning innovatsion maqolasi haqida ijobiy gapiradi, lekin kontseptsiyaning mohiyatini aniqlash, undan farqli o‘laroq, konsept so‘z uchun emas, balki har bir asosiy, ya’ni lug‘at ma’nosi alohida-alohida bo‘lgan so‘zlar uchun mavjud, deb yozadi va kontseptsiyani ma’noning algebraik ifodasi sifatida ko‘rib chiqishni taklif qiladi.

Olimning fikricha, odam so‘zning ma’nosini to‘liq ifodalay olmaydi yoki tushuntirishga ulgurmaydi ba’zan ijtimoiy xususiyat va sharoitga qarab o‘ziga xos tarzda tushunadi [2,b. 281]. Y.S.Stepanov konseptni shunday tavsiflaydi: inson ongida madaniy-ruhiy lingvistik ta’lim, yig‘indisi. Tadqiqotchi kontseptni so‘z bilan birga keladigan tasavvurlar, tushunchalar, bilim va tasavvurlarning "to‘plami" deb hisoblaydi [3, b. 14] Olimning nazarida, madaniyat konsept tariqasida shaxs tomonidan aqliy idrok etiladi. Boshqa tomondan, Y.S.Stepanov insonning o‘zi kontsept orqali madaniyatga kiradi ba’zan esa unga ta’sir qiladi [3, 43-b] deb hisoblaydi.

Lingvokulturologiyada N.D.Arutyunovaning asarlari kontseptlarni o‘rganishga bag‘ishlangan. Z.X.Bijeva, A.Vejbitskaya, S.G.Vorkachev, V.I.Karasik, V.A.Maslova, G.G.Slyshkina, Y.S.Stepanova, V.N.Teliya, G.V.Tokareva,

R.M.Frumkina va boshqalar konseptni ko‘plab omillar ta’sirida inson ongida shakllanadigan psixik birlik sifatida hisobga oladi. Kontsept lingvokulturologiyaning asosiy tushunchasi bo‘lib, tilshunoslikda mustahkam o‘rin olgan ko‘p sonli ta’riflar va uni o‘rganishga yondashuvlar mavjudligiga qaramasdan, lekin u hali ham aniq talqinga ega emas.

N.D.Arutyunova asarlaridagi konsept kundalik falsafa tushunchasi sifatida talqin etiladi bu folklorning, dini, milliy an’analari, tuyg‘ulari va

qiymatlar o‘zaro ta’siri natijasidir olim kontseptsiyani dunyoqarash atamalarining analogi deb hisoblaydi, bu tilga mustahkam o‘rnashib, xalq ma’naviy madaniyatini yuksaltirishga hissa qo‘shadi. [4, b. 3–6]

Z.X.Bijeva konseptni ideal tushunchaning shakllangan ifodasi, ona tilining ma’lum bir madaniyat an’analari bilan belgilanadigan atrofdagi voqelik haqidagi tasavvurini aks

ettiradi. U kontsepsiyaga ega bo‘lgan quyidagi lingvokulturologik xususiyatlarni aniqlaydi: mavjudlikning doimiyligi,badiiy obrazlilik, tub ma’nolarining sinkretizmini saqlash, ma’lum madaniyat tarkibiy qismlari tizimiga integratsiyalashuv.

A.Vejbitskaya kontseptsiyaga bir nechta ta’riflar beradi [6, b. 549]. Uning fikricha, konsept nomga ega ideal dunyo obyekti sifatida tasvirlangan,

semantik ma’lumotlar to‘plami yordamida aniqlanadi va voqelikning madaniy idroklarini aks ettiradi.

S.G.Vorkachev kontseptsiyani jamoaviy ongning alohida obyekti sifatida, yuqori subyektlarga yo‘naltirilgan, tilda ifodalangan va etnik-madaniy xususiyat bilan belgilanadi deb hisoblagan.

V.I.Karasik kontseptni ko‘p tomonlama semantik shakllanish sifatida belgilaydi, unda qiymat, majoziy va kontseptual tomonlarni ajratish mumkin. Olimning ta’kidlashicha, qachonki konsept tegishli sohada bo‘lsa, bir so‘z bilan belgilansa va lingvistik ongda idrok qilinadigan bo‘lsa qarashlar haqida gapirish kerak [8, b. 109].

Shunday qilib, lingvokulturologiyada til tayanch tushunchalar , konseptni ongda shakllantirishning asosiy usullaridan biri hisoblanadi.

Inson konsept orqali so‘z ichiga kirib boradi. Kontseptsiya lingvistik aks ettirishning ilmiy-lingvistik tavsifida markaziy kategoriyadir. Shaxsiy va madaniy tajriba asosida shakllangan konseptlar insonlarlar ongida atrofdagi ma’naviy dunyoni bilish natijasi va milliy mentalitet merosi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста: антология. М.: Языки русской культуры, 1997. -С. 267–279.

2. Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста: антология. -М., 1997. -С. 280–287.

3. Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования. -М.: Академический проект, 2001. –С. 990.

4.Бижева З.Х. Антропоцентризм культуры – антропоцентризм языка / Русская и сопоставительная филология: состояние и перспективы. Казань, 2004. С. 207.

5. Вежбицкая А. Семантические универсалии и описание языков. -М.: Языки русской культуры, 1999. -С.780.

6. Воркачев С.Г. Счастье как лингвокультурный концепт. -М.: Гнозис, 2004. –С.192.

7. Карасик В.И. Языковые концепты как измерения культуры (субкатегориальный кластер темпоральности) / Концепты. Выпуск 2. Архангельск, 1997. -С. 156-158.

8. Маслова В.А. Лингвокультурология. М.: Академия, 2001. –С.208.

DINIY MANBALAR ASOSIDA SHAKLLANGAN O‘ZBEK XALQ PAREMALARIDA “SABR” KONSEPTI

Mamanazarov Sunnat,
Abdurauf Fitrat nomidagi Buxoro maqom san’atiga ixtisoslashtirilgan maktab-internati,
Mamanazarovsunnat20@gmail.com
Tel: 99 385 34 36
Jo‘rayeva Bibish,
Filologiya fanlari doktori, professor,
Tel: 91 419 60 89

Annotatsiya. Maqolada hadislar asosida shakllangan o‘zbek xalq paremalaridagi “sabr” konsepti tahlil qilingan. Sabr so‘zi zamirida o‘zbek xalqi onggida qanday mental xususiyatlar aks etishi ko‘rsatilgan. Bunga asos qilib xadislar va o‘zbek xalq paremalari keltirilgan. Kognitiv tilshunoslikning asosiy tushunchalaridan biri bo‘lmish konsept atamasi “sabr ” so‘zi orqali oydinlashtirilgan.

Kalit so‘zlar: hadis, o‘zbek xalq paremalari, sabr, ekstralingvistik asos, intralingvistik asos.

Inson jamiyatda istiqomat qilar ekan, axloq qoidalariga amal qilishi zarur. Hozirgi kundagi ko‘pgina muammolar mahalladagi kelishmovchiliklar, oilalardagi janjallardan kelib chiqmoqda. Biz globallashuv zamonida har xil madaniyatlar ortidan ko‘r-ko‘rona ergashmay, millatimiz shuuri va onggiga singgan mislsiz gavharlar Qur’oni karim, hadislar, paremalarga qarab intilishimiz darkor. Ularni chuqurroq o‘rganish, asl ma’nolarini anglab yetishimiz va hayotimiz davomida qo‘llab, uni avlodlarga bus-butun yetkazish bizning burchimizdir.

O‘zbek xalq parema xalqimiz tomonidan shakllantirilgan eng yuksak boyliklarimizdan biridir. Bu boylikning ichida inson hayoti davomida duch kelishi mumkin bo‘lgan har bir holat keng va atroflicha yoritilgan. O‘zbek xalq paremalarining ko‘lami va mavzulari juda ham boy. Paremaning yuzaga kelishida hadislarning o‘rni katta.

Inson tirik ekan, uning boshi uzra faqat quyosh charaqlab turmaydi. Turli tashvish va bulutli kunlar ham inson sabr-u toqatini sinovdan o‘tkazadi. Shunday vaqtlarda bashar farzandidan mashaqqat va musibat paytida sabr qilishi, umidsizlanmasligi, haq ustida sabot turishi talab etladi.

Sabr musibatning birinchi zarbasida bilinadi. Boshga musibat tushgan dastlabgi dosh berish tom ma’nodagi sabrdir.

Parema: *Sabr etgan murodga yetgan.*
Sabrlilik xudoning oyati,
Sabrsizlik shaytonning sifati.

Ayf ibn Molik: “Rasulullоh: “Eridan beva qolib ,bolalarni tarbiyat qilishda sabr etgan va turli mashaqqatlarga uchraganidan rangi sarg‘ayib ketgan xotin bilan jannatda shunday bo‘lamiz“, – deb ikki barmoqlarini bir biriga jips qilib ko‘rsatdilar”.

Parema: *Kamoli iymon sabr* .

Sabr tagi raxmon, shoshgan ishi shayton.

Qur’oni Karimda ham sabr haqida juda ko‘p yoziqlar mavjud. Sabr Alloh bergan ne’matlarning ulug‘idir.

“Ey mo‘minlar, sabr qilingiz va sabr-u toqat qilishda (kofirlardan) ustun bo‘lingiz” (Oli-imron surasi, 200- oyat).

Parema: *Kamoli imon — sabr.*

“...va albatta sizlarni xavf-u xatar, ochlik, mol-u jon va meva-chevalarni kamaytirish kabi narsalar bilan imtihon qilamiz. Bas, sabr qiluvchilarga xushxabar bering!” (Baqara surasi, 155-oyat).

Parema: *Bardoshliga yog‘lik osh,*

Sabrsizga osh ham tosh.

Sabr — achchiq, mevasi — shirin.

.....“Hech shak-shubha yo‘qki, sabr-toqat qiluvchilarga ajr mukofotlari hisob-kitobsiz to‘la-to‘kis qilib berilur” (Zumar surasi, 10-oyat).

Parema: *Sabr etgan — murodga yetgan.*

“Albatta, kim (o‘ziga yetgan ozor-aziyatlarga) sabr qilsa va (intiqom olmay, Alloh uchun) kechirib yuborsa, shak-shubhasiz, bu ish ishlarning maqsadga muvofig‘idur! (Sho‘ro surasi, 43-oyat).

Parema: *Sabr etgan yetar murodga, Besabr qolar uyatga.*

“Ey mo‘minlar, sabr qilish va namoz o‘qish bilan (mendan) madad so‘ranglar! Albatta, Alloh sabr qiluvchilar bilan birgadir!” (Baqara surasi, 153-oyat).

“Albatta, biz to sizlarning orangizdagi (bizning yo‘limizda mol-u jonlari bilan jihod qilguvchi va (yaxshi-yomon kunlarda) sabr qiluvchi zotlarni bilgunimizcha sizlarni imtihon qilurmiz!” (Muhammad surasi, 31-oyat).

Parema: *Sabrli qul murodiga yetar.*

“Biror kishiga sabrdan ko‘ra yaxshiroq va ulkanroq ne’mat berilmagan”. (Muttafaqun alayh)

Parema: *Sabr tagi — sariq oltin.*

Avf ibn Molik (r.a.) Rasulullohdan rivoyat qildilar. "Rasulullоh: "Eridan beva qolib, bolalarini sabr bilan tarbiya qilayotgan va turli mashaqqatlarga uchraganidan rangi sarg‘ayib ketgan xotin bilan jannatda shunday bo‘lamiz", deb ikki barmoqlarini bir-biriga jips qilib ko‘rsatdilar, dedilar".

Ya’ni shunday xotin jannatga kiradi va darajasi boshqa xotinlarga nisbatan mening darajamdek baland bo‘ladi.

Parema: *Sabrli bo‘lsang, o‘zarsan,*

Sabrsiz bo‘lsang, to‘zarsan.

Abu Hurayra (r.a.)dan rivoyat qilindi, u kishi aytdilar: “Rasulullоh (s.a.v.): “Bir mo‘min yoki mo‘mina kishini uzoq vaqt biror musibatga yo‘liqtirib sinaladi. U shu musibat Alloh tomonidan bo‘lganini e’tirof qilib, sabr etsa, Alloh taolo huzuriga gunohlaridan pok bo‘lgan holda boradi”, dedilar”.

Parema: *Odob bilan baxt topilar, Sabr bilan — taxt.*

Anas ibn Molik (r.a.)dan rivoyat qilindi, u kishi aytdilar: "Men Rasulullоh (s.a.v.)dan: "Allohu azza va jalla bir bandani o‘ziga sevimli ikkita a’zosi (ya’ni ikki

ko‘zi) bilan mubtalo qilsam, keyin u shunga sabr qilsa, badaliga jannatni beraman", degan hadislarini eshitdim".

Abu Umoma (r.a.) Rasulullоh (s.a.v.)dan rivoyat qildilar: “Rasulullоh (s.a.v.) aytdilar: “Alloh taolo: "Ey, Odam farzandi! Men sening ikkita nozik a’zoyingni (ko‘zingni) olsam va shu musibatga duchor bo‘lganingga sabr etsang va shunga mendan savob umid qilsang, senga jannatdan bo‘lak savob berishga men rozi bo‘lmayman”, deydi”.

Parema: *Sabr — umr xazinasi.*

Hadislardan “sabr” konsepti asosida shakllangan o‘zbek xalq paremalaring yana ko‘pini topishimiz mumkin. Ayni damda Rasulullohni ummatlariga aytgan ulug‘ so‘zlarini keltiramiz: “Havz kavsarda menga duch kelgunlaringizcha sabrli, toqatli bo‘linglar “. Insonlarni sabrga chorlovchi hadis va paremalarning har birida ulkan ma’no bor. Bu so‘zlarni har bir inson bir soniya bo‘lsa ham unutmasligi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Bakr Kaffol Shoshiy. Javomi’ul kalim. Payg‘ambarimiz (alayhissalom) ning mo‘jaz hadislari -T.: “Movarounnahr”, 2014. –B. 303.
2. Alefirenko N.F. The cognitive base of lingvosemiotics. Praesens Verlag, Wien (Austria). 2005. – P. 395.
3. Alefirenko, N.F. The synergetics of lingvoculturology as a methodical problem. Bratislava, 2005. – P. 310.
4. Jo‘rayeva B. O‘zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari. - T.: Akademnashr, 2019. –B. 221.
5. Muhammad ibn Ismoil al Buxoriy. Al-adab al-mufrad.”-T:” Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008. –B. 142 .
6. Raxmatullayev Sh. Frazeologik birliklarning bazi masalalari. –T.: Fan, 1966. –B. 264.
7. Raxmatullayev Sh. Frazeologik birliklarning asosiy ma’no turlari. –T.: Fan, 1955.
8. Safarov Oxunjon. O‘zbek xalq og’zaki ijodi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan universitetlar va pedagogika institutlari uchun darslik. - T.: Musiqa, 2010. – B. 292.
9. Safarov Oxunjon. O‘zbek xalq og’zaki ijodi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan universitetlar va pedagogika institutlari uchun darslik. - T.: Musiqa, 2010. – B. 292.
10. S.Basharan. Hadislerin turk atasozlerine tesiri. –Bursa: 1994. –B.191.
11. Ziyoyev Teshaboy.101 hadis – T. “Mehnat” nashriyoti, 1991. –B.41.
12. O‘rayeva D., To‘xsanov Q. Maqollarda turmush saboqlari. – Buxoro, 2013.
13. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Odoblar xazinasi.Imom al Buxoriyning Al-adab al-mufrad kitobining sharhi. 1-juz. - T.: Hilol-nashr, 2020.
14. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Odoblar xazinasi.Imom al Buxoriyning Al-adab al-mufrad kitobining sharhi. 2-juz. - T.: Hilol-nashr, 2020.
15. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Odoblar xazinasi.Imom al Buxoriyning Al-adab al-mufrad kitobining sharhi. 3-juz. - T.: Hilol-nashr, 2020.

16. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Odoblar xazinasi.Imom al Buxoriyning Al-adab al-mufrad kitobining sharhi. 4-juz. - T.: Hilol-nashr, 2020.

ERGASHTIRUVCHI BOG‘LOVCHILARNING FUNKSIONAL-STILISTIK XUSUSIYATLARI

Usmonov Aslam,
Doktorant, Sh.Rashidov namidagi SamDU
aslamusmonov9@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ergashtiruvchi bog‘lovchilarning nazariy jixatlari yoritilgan va funksional-stilistik xususiyatlari badiiy asarlardan olingan misollar orqali ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Bog‘lovchi, uslub, ergashtiruvchi bog‘lovchi, sof bog‘lovchilar, stilistik xususiyat, grammatik sinonim.

Ergashtiruvchi bog‘lovchilar qo‘shma gaplar tarkibidagi ergash gaplarni bosh gapga bog‘lash uchun xizmat qiladi. Shuning uchun ular bog‘lagan qo‘shma gaplar ergashgan qo‘shma gaplar deb tavsiflanadi. Ergashtiruvchi bog‘lovchi vazifalari va turlari haqida M.Asqarova quyidagilarni bayon etadi: “Ergashtiruvchi bog‘lovchilar ba’zan sodda gapdagi so‘zlar yoki birikmali bo‘laklarni bog‘lash uchun xizmat qilsa, qo‘shma gapda ergash gaplarni bosh gapga bog‘laydi. Ergashtiruvchi bog‘lovchilarni ularning funktsiyasiga ko‘ra asosan uch gruppaga ajratish mumkin:

1. Sof bog‘lovchilar.
2. Bog‘lovchi-yuklamalar.
3. Bog‘lovchi so‘zlar.

Sof bog‘lovchilar hokim, tobe elementlarni bir-biriga bog‘lash uchun xizmat qiladi. Bunday bog‘lovchilarga -ki, chunki, shuning uchun, negaki, sababki, shekilli, bo‘lmasa kabi so‘zlar kiradi.”[1.44] Keltirilgan fikrlar aytilganiga yarim asrdan oshgan. Olim ergartiruvchi bog‘lovchilarning vazifasiga ko‘ra 3 guruhga ajratishda chalkashliklar mavjud. Bizningcha, ergashtiruvchi bog‘lovchilarning turlari emas, balki, ergashtiruvchi vositalar turlari deyish maqsadga muvofiq. Keyingi paytlarda ko‘plab darsliklarda [2.431;4.180;5.217;6.391], ilmiy adabiyotlarda [7.362;8.572.] ergashtiruvchi bog‘lovchilar sirasiga *chunki, shuning uchun, agar, agarda, basharti, agarchi, go‘yo, go‘yoki, -ki, -kim, ya’ni* singari bog‘lovchilar kiritib kelinmoqda. Biroq bugungi kunda ergashtiruvchi bog‘lovchilar sifatida belgilanishi mumkin bo‘lgan ko‘plab yordamchi vositalar mavjudligi ta’kidlanmoqda. Jumladan, *negaki, sababki, mabodo, bordi-yu, toki, xuddi, deb* singari ergashtiruvchi bog‘lovchi vazifasini bajaruvchi so‘zlar hamda bular bilan grammatik sinonim bo‘lgan *-r, -ar ekan, -gandan so‘ng, -gandan keyin, - masdan avval, -masdan burun, -b,-ib, -gach, -kach, -qach, -guncha, -kuncha, quncha, -gunga qadar, -ganda edi, -sa, sa ham, sa-da, -may, -may turib, - masa, -masdan turib, -mas ekan, -mi* singari fe’lning sifatdosh, ravishdosh, shart mayli shakllari yordamida ergash gaplarni bosh gapga biriktirish vazifasini bajaradi.

A.Berdialiyev ergash gapli qo‘shma gaplarni o‘rganishda bog‘lovchi vositalarning semantik-sintaktik xususiyatlarini belgilab olish katta ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlab, rus tili ergash gapli qo‘shma gaplari qamrovidagi bog‘lovchilarni sintaktik va semantik turlarga ajratilish yuzasidan bildirilgan fikrlarni ma’qullaydi. Semantik bog‘lovchilarda forma va mazmun simmetriyasi mavjud bo‘ladi deb: chunki, shuning uchun, shekilli, negaki, uchun, sababki, toki, go‘yo kabi analitik; -gani uchun, ganligi sababli, -gan vaqtda, -gan chog‘da kabi birliklarni bog‘lovchi hisoblab, ular hamma vaqt sabab, maqsad ma’nolari bilan bog‘liq qo‘shma gaplarni hosil qilishini aytadi.

Darhaqiqat, ergashtiruvchi bog‘lovchi vositalar nafaqat qo‘shma gap tarkibidagi tobe munosabatli sodda gaplarni bog‘laydi, balki so‘zlovchining subyektiv munosabatlari bilan bog‘liq qo‘shimcha turli xil modal ma’nolarni ham ifodalaydiki, bu ularning stilistik-pragmatik xususiyatlari hisoblanadi.

«O‘zbek tili stilistikasi»ning «Bog‘lovchilarning uslubiy vazifasi, ular orasidagi sinonimiya» bo‘limida bu vositalarning uslubiy xususiyatlarini ko‘rsatish uchun qo‘yidagi misollar keltiriladi: *Ko‘nglimni zavq asir etdi-yu, yosh boladay har yon yugurdim. (H.O.); Ko‘nglimni zavq asir etdi va yosh boladay har yon yugurdim; Ko‘nglimni zavq asir etgach, yosh boladay har yon yugurdim; Ko‘nglimni zavq asir etib, yosh boladay har yon yugurdim; Ko‘nglimni zavq asir etgani uchun, yosh boladay har yon yugurdim; Ko‘nglimni zavq asir etganda, yosh boladai har yon yugurdim.*

Garchi yuqoridagi misollarda qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog‘lovchi vositalar o‘zaro muvaffaqiyatli o‘rin almashinayotgan bo‘lsalar-da, biroq ifodalanayotgan mazmunga ko‘ra bu gaplar bir-biridan keskin farq qiladi. Ya’ni biri semantik jihatdan sababni bildirsa, boshqa biri natijani, biridan payt mazmuni tushunilsa, biridan holat ma’nosi anglashilmoqda. Shu sababli biz bu bog‘lovchilarni to‘liq sinonimlar sirasiga qo‘shishga haqqimiz yo‘q. Demak, biz bu birliklarning sinonimiyasini tahlil qilishimizda, albatta, qo‘shma gap tarkibida yuzaga keladigan semantika bilan hisoblashishmiz zarur ekan. Ya’ni, bu ma’nodoshliklar faqatgina qo‘shma gap qismlari orasidagi bog‘lanishni mazmuniy-shakliy tomonlarini qamrab olgandagina to‘g‘ri bo‘ladi. Shuning uchun ergashtiruvchi bog‘lovchi vositalar sinonimiyasi qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar munosabatining sabab, payt, maqsad, natija, o‘rin, to‘siqsiz, chog‘ishtirish-o‘xshatish kabi ma’nolarga ko‘ra tahlil qilinishi maqsadga muvofiq.

Yana, ergashtiruvchi bog‘lovchilar stilistik tahlil qilishda bu birliklarning semantik-stilistik xususiyatlari va ergashtiruvchi bog‘lovchi vositalarning sinonimiyasi, ergashtiruvchi bog‘lovchilar bilan bog‘liq bo‘lgan badiiy vositalar, ergashtiruvchi bog‘lovchilar orqali ifodalangan ekspressiv-emotsional ma’nolar kabi xususiyatlariga ye’tiborga olish lozim. Biz bu o‘rinda sintaktik butunlik qismlari o‘rtasidagi tobe munosabatni yuzaga keltiruvchi ergashtiruvchi bog‘lovchi vositalarning, xususan, ergashtiruvchi bog‘lovchilarning stilistik xususiyatlarini ushbu semantik munosabatlarga ko‘ra tahlil qilish maqsad qildik.

-ki/-kim. Tilshunosligimizda bu bog‘lovchi xususida ko‘plab bahsli mulohazalar bildirilgan. Bu bog‘lovchi ergash gapli qo‘shma gaplar tarkibida eng ko‘p qo‘llanuvchi vositalar sirasiga kiradi. Chunki, bu bog‘lovchi ergash gapli qo‘shma gapning bir necha turlarini yuzaga keltiruvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Masalan: 1) Ega ergash gapli

qo‘shma gap tarkibida keladi. 2) To‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap tarkibida. Tushundimki, shoir millat taqdiri uchun eng mas’ul shaxs ekan.(Iqbol Mirzo) 3) Kesim ergash gapli qo‘shma gap tarkibida. 4) Aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gap tarkibida. 5) O‘xshatish ergash gapli qo‘shma gap tarkibida. 6) Natija ergash gapli qo‘shma gap tarkibida qo‘llanishi mumkin.

Nazmiy matnlarda –ki bog’lovchisining arxaiklashgan –kim shakli tez-tez uchraydi. Masalan: Asrlardan qolib kelgan oqibat shulkim, / Quloq solmas unga ba’zan oshno ijroqo‘m... (A.Oripov); Toleim shulkim, vatanda bir guliston tanladim, (H.Olimjon); Bir vatankim, bunda yo‘qdir dard va hasratdan nishon, / Bir vatankim, yer va osmonida odam topdi shon.(H.Olimjon); Shuni bilkim, jon uchun jon olamiz, / Shuni bilkim, to‘kamiz qon uchun qon.,(H.Olimjon)

-ki bog‘lovchisining bu shakli (-kim) hozirgi o‘zbek adabiy tilida tarixiy-an’anaviylik tamoyili asosida yozilgan ayrim she’riy asarlarda qo‘llanishi kuzatish mumkin. Masalan: Yig‘lama, ey ko‘z, nedin sohilga chiqmas kema deb, / Kim yoshing daryosidur har sorikim el ko‘z solur. (« Navoiy g’azaliga muxammas « E. Vohidov). Men ersam, vah, ne g‘urbatkim,/ Vatanda bevatan bo‘ldim. («Shukurkim, keldi istiqlol» E. Vohidov).

-ki bog’lovchisi ba’zi o‘rinlarda ko‘p vazifali vosita bo‘lib kelishi mumkin: masalan: Baxtlimanki, yoniq nafas-yor (Zulfiya). Bu o‘rinda –ki aniqlov bog’lovchisi: chunki bog’lovchisining ma’nosini ifoda yetmoqda; ergashgan gap tarkibiga qo‘shilgan; kuchli ta’kid manosini ham ifoda etmoqda.

Matnda –ki yordamchisi ham bilan qo‘shilgan holda ta’kidni ko‘chaytirib keladi: Meni kutgil va men qaytarmen, / Bo‘lsa hamki, ranging za’faron. (H.Olimjon); Ko‘zlaringga to‘lsa hamki, yosh /Faqat sen kut va ayla bardosh. (H.Olimjon) kabi.

Ba’zi o‘rinlarda –ki va –kim bog‘lovchilari bemalol o‘rin almasha oladi:

Vatandan ayri ko‘ngilni bilingki, yayratib bo‘lmas.(A.Oripov). Qiyoslang: Vatandan ayri ko‘ngilni bilingkim, yayratib bo‘lmas… Yoki: Tush bilib, ta’bir etingkim, O‘ngda bir gulshan topay.(E.Vohidov) Qiyoslang: Tush bilib, ta’bir etingki… Biroq poetik ohangdorlik –ki ga nisbatan –kim da boy. She’riy matnlarda ko‘proq –kim shaklini uchrashining sababi ham shu bo‘lsa kerak.

Ergashtiruvchi bog‘lovchisining yana biri *–Ya’ni* bog‘lovchisidir. Bu bog‘lovchi ilmiy, publitsistik, badiiy uslublarda faol qo‘llanilib, ba’zi-ba’zi o‘rinlarda rasmiy uslubda ham ishlatiladi. Umuman, ya’ni ergashtiruvchi bog‘lovchisida rasmiylik ottenkasi kuchli. Masalan: Demak, siz qotillik ro‘y bergan deb tasdiqlaysizmi?

— Men hech nima deganim yo‘q, kollega. Ilintirishga urinmay qo‘ya qoling.

— Yo‘q, men boshqa ma’noda... *Ya’ni*... birontasidan gumoningiz bo‘lsa...

— Gumonmi? Gumonim - hammadan! Eshitdingizmi? Ham-madan! Sizga ham shuni maslahat beraman! Yuz foiz hammadan, hatto o‘zining xotinidan, bolasidan gumon qilmaydigan odamdan haqiqiy chekist chiqmaydi! Avvalo Shomatovning o‘zidan gumon qilish kerak!

— *Ya’ni*... Qaysi ma’noda?

— Baloniyam bilmaysanlar! Hayronman, institutlaringda nimani o‘rgatadi senlarga?

Poetik matnda ba’zan ya’nikim shaklida ham qo‘llaniladi. Masalan: Ko‘zu og‘zingdin ketarga boru yo‘q oshubu ranj, / Sabru, ishqim sadqa, ya’nikim yo‘qu borim fido. (A.Navoiy)

Bugungi kundagi matnlarda ya’ni bog‘lovchisining qo‘llanishi bu bog‘lovchining semantikasidagi rasmiylik ottenksini biroz kamaytirish, so‘zlashuvga yaqinlashtirish va tabiiyligini oshirish maqsadida qo‘llaniladi. Ba’zan misra tarkibida kelib qofiya vazifasini bajarib, misralarning o‘zaro qofiyalanishini ta’minlaydi.

Masalan: Har kimda xalqining g‘ururi, sha’ni,

Yov kiftida ari yurgandek bo‘lsin.

Senga qarab, sherni ko‘rgandek, ya’ni –

Hazrat Boburbekni ko‘rgandek bo‘lsin! (Iqbol Mirzo. Agar jannat ko‘kda bo‘lsa...).

Umuman, o‘zbek tilshunosligida alohida yordamchi so‘z turkumi sifatida o‘rganib kelingan bog‘lovchilarning bir turi bo‘lgan ergashtiruvchi bog‘lovchilarning semantik-stilistik yo‘nalishdagi tahlillarimizdan shu narsa ayon bo‘ldiki, ushbu leksik-grammatik birliklar nafaqat grammatika doirasida, balki nutqiy muloqot jarayonida ham turli-tuman semantik-stilistik ma’no buyoqdorligini vujudga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Асқарова М. Ўзбек тилида эргашиш формалари ва эргаш гаплар. -Т:.Фан, 1966. –В.44.
2. Ҳозирги замон ўзбек тили. Ф.Камол таҳр. – Тошкент: “Фан”, 1957. –В.431.
3. Шоабдураҳмонов Ш., Асқарова М. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм, Тошкент, “Ўқитувчи”, 1980. –В. 431.
4. Турсунов У. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1965. –В.180.
5. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2003. –B. 217.
6. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R. va boshqa. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010. –B. 391.
7. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-т. – Тошкент: “Фан”, 1966. –В. 362.
8. Ўзбек тили грамматикаси. 1-т. – Тошкент: “Фан”, 1975. –В.572.
9. Бердиалиев А.Ўзбек тилида омоним моделли эргаш гапли қўшма гаплар. –Т.: Фан, 1990. –В. 16-17.

LINGVOPRAGMATIKANING TIL SATHLARI ARO MUNOSABATI

Ashirov Odilbek,
Qoraqalpoq davlat universiteti,
o‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqola tilshunoslikning yangi yo‘nalishi hisoblangan lingvopragmatika haqida bo‘lib, uning til sathlari bilan o‘zaro aloqalari masalalariga bag‘ishlangan. Lingvopragmatika bugungi kungacha to‘liq yoritilmagan tilshunoslik yo‘nalishi bo‘lib, bu sohada juda kam ishlar olib borilgan. Shu bois bu sohani tilshunoslikning boshqa sohalari bilan bog‘liq tomonini yoritish maqsad qilingan.

Kalit so‘zlar: Lingvopragmatika, fonopragmatika, leksopragmatika, morfopragmatika, ifoda semasi, sintaktik pragmatika.

Pragmatika tushunchasi g‘oyat keng bo‘lib, u til sathlari nuqtai nazardan ierarxik qismlarga ajratilishi mukin. Umumtilshunoslikda tilning quyidagi sathlariga xos pragmatika aniqlangan. Jumladan, *fonopragmatika, leksopragmatika, morfopragmatika, sintaktik pragamatika* kabi yo‘nalishlarga xos ekanligi ko‘rsatiladi.

Fonopragmatika lingvistik pragmatikaning yuqoridagi talqinidan kelib chiqadigan bo‘lsa, bu o‘rinda dastlab talaffuz shakllariga xos pragmatik hodisaning ikkita ko‘rinishini farqlashimiz lozim: a) ma’lum tilga xos talaffuzning yagona va to‘g‘ri shakli; b) ma’lum tilga xos talaffuzning noananaviy noto‘g‘ri shakli. Bunda talaffuz shaklining anormal variyantlarining yuzaga kelishi nutq subyektining artikulyatsion imkoniyatlari (duduq yoki ba’zi tovushlarni to‘g‘ri talalffuz qila olmaslik jihatlari) ta’sirida yoki nutq subyektining milliy til talaffuz shaklidan xabardor emasligi e’tiborga olinadi. Masalan, millati o‘zbek bo‘lsada, boshqa regionda xizmat qilishi va boshqa ijtimoiy muhitda tilning shakllanganligi yoki butunlay boshqa millat bo‘la turib, o‘zbek tiliga xos talaffuz shakllarini bayon qilishi ta’sirida uning nutqida pragmatik imkoniyatlari ko‘rinadi.

So‘zlovchining talaffuz imkoniyatlari bilan aloqador pragmatik hodisaning uchunchisi talafuz shaklida nutq subyektining niyatini u yoki bu qutib yo‘nalishida ifodalanishining boshlanishi masalasidir. Nutq subyektining talaffuz imkoniyatlari ta’sirida lingvistik pragmatikaning asosiy boshlang‘ich muammolari yuzaga chiqadi. Bundan ko‘rinadiki, nutq tovushlariga xos talaffuzning ananaviy to‘g‘ri, noananaviy (noto‘g‘ri) shakllarining namoyon bo‘lishi lingvopragmatikning dastlabki dolzar masalasi sifatida namoyon bo‘ladi. Nutqda tovush hamda ohangning ma’lum yashirin (illokutiv) maqsad bilan qo‘llanishi natjasida muallif munosabatining ifodalanishi fonopragmatik tahlil obyekti hisoblanadi. Bunday fonopragmatik hodisalariga tovush o‘zgarishi, tovush ortirilishi, tovush tushishi, tovush ikkilanishi kabilar kiradi.

Nutq vaziyati bilan bog‘liq ravishda so‘zlovchi kommunikativ niyati aks etgan matn qismlaridan biri aktuallashadi. Matnda kommunikativ maqsadning ifodalanish darajasi aktuallashtiruchi vositalar ta’siri bilan belgilanadi. Ayniqsa, so‘z tarkibi, mantiqiy va emperik urg‘u kabi aktuallashtiruvchi vositalar so‘zlovchi kommunikativ niyatiga xos pragmatik vositaning namayon bo‘lishida muhim o‘rin tutadi.

Bundan tashqari talaffuz akti (акцентирование) hodisasi ham kommunikativ-pragmativ katregoriyalardan biri sanaladi. Chunki *“акцентирование”* (talaffuz akti) hodisasi so‘zlovchining nutq jarayonidagi faoliyatini ko‘tsatadi va tinglovchi diqqatini shunga jalb qiladi. Demak, “ifoda tarkibidagi biror elementning alohida urg‘u bilan talaffuz qilinishi faqat so‘z, so‘z birikmasi uchungina emas, balki gap, xatboshi (jumla), hatto yaxlit matnlar uchun ham xosdir” deb ta’kidlanadi.[1, 111]

Quyida biz X. Do‘stmuhammad asarlari tilida uchraydigan fonopragmatik xususiyatlarning qanday jarayonlarda sodir bo‘lishini ko‘rib chiqamiz.

1. Tovush o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan fonopragmarik holatlar. Ular asosan so‘z tarkibida tovush o‘zgarishi bilan leksema semasida pragmatik ma’no hosil qiladi.

Yozuvchining “So‘roq” qissasida quyidagidek fonopragmatik holatni ko‘ramiz. Asar qahramoni Bozor paxtazor oralab kechasi uyiga qaytayotganda tepasida chaqmoq chaqqanday bir yorug‘ narsani ko‘radi. Uning uchar barkash (tarelka) ekanini aytadi-yu, boshi balolarga qoladi. Hamma undan u narsa haqida qiziqib so‘rab uni bezor qilib yuboradi. Masalan, “Ertasi ertalab gazetchi bola keldi. Bozorni yo‘qladi, Chuchuk momo uni sovuq qarshiladi. “Qo‘y, ulum, Bozor uxlayapti”, dedi norozilanib, “Yana uchar kelgindilarga yo‘liqibdi, deb eshitdim: - dedi u xiralik qilib, men eshitmadim, bizzi o‘z holimizga qo‘y”, dedi yuzini teris burib momo. Muhbir, “kelin-chi, kelin – u ham ko‘rgan emish”, deb ezmalik qilayotgandi, momo: “E, kelinim kasal, o‘zi, zo‘rg‘a yuribdi!” deb quvib soldi. Muhbir ketdi. Keynidan rayisning shafyo‘ri keldi – momo uni iziga qaytardi, allaqayerdan o‘g‘lining jo‘rasi keldi – unga ham o‘zi javob berib yubordi. Ish qilib qiziquvchilarning keti uzulmadi”.

Ushbu nutqiy aktda ulum (o‘g‘lim), bizzi (bizni) kabi so‘zlar dialektal va fonetik hodisa (assimilyatsiya) orqali talaffuz qilinishi natijasida fonetik pragmatika holatini yuzaga keltirgan.

2. Tovush tushirilishi bilan yuzaga kelgan fonopragmatika. Nutqda tovush tushirilishi bilan yuzaga kelgan fonopragmatik holat salbiy yoki ijobiy munosabatlarini anglatadi. Masalan, “Qayerning *handalagi amak*? -dedi u oliftagarchilik qilib”. (S.A.) Bu jumla tarkibidagi *amaki* so‘zining *amak* shaklida talaffuz qilinishidan “mensimaslik”, “o‘zini katta tutish” kabi pragmatik ma’noni yuzaga chiqargan.

3. Tovush ortilishi, cho‘zib talaffuz qilinishi, amashishi va ikkilantirilishi natijasida ham fonopragmatik vaziyatlar yuzaga keladi. Masalan, Bekorri beshtasini yebdi, onang! [4, 286]. Oshshi qachon damlaysiz? [4, 114]. Yomanning kuchi man yapaloqqa yetibdi-da! H-ah, sag‘irri haqqi ursin-o! [4, 136].

4. Lingvopragmatikaning leksika sathi bilan aloqasi. Leksopragmatika lelsemaning ichki mazmuniy tomonlarining ochilishi, matn tarkibida qanday presuppozitsiyani ifodalashni o‘rganadi. Malumki, leksemaning tashqi shakliy jihati uning mohiyati uchun ahamiyatsizdek bo‘lib, sistem tilshunoslik leksemaning ichki mazmuniy tomonini ochib beradi. Bu haqda o‘z vaqtida yetuk tilshunoslarimiz tomonidan ham alohida qayt qilingan edi. Jumladan, tashqi nutqning aniq moddiy shakli nutq vaziyati bilan so‘zlovchining maqsad va imkoniyatlari bilan belgilanadi. Shu bois sistem tilshunoslik nomemalarga ko‘p ahamiyat bermaydi. Leksemaning mohiyati uning ichki tomoni – semema orqali va shunga ko‘ra leksemaning boshqa til birliklari bilan munosabatga, aloqaga kirishuvi

orqali belgilanadi. [2, 55]. Shu boisdan ham bu tomoni bilan leksopragmatika shug‘ullanadi.

Ma’lumki semema sistem tilshunoslikda atash, ifoda va vazifa semalarga ajratiladi. Bularda *ifoda semasi* ayni pragmalingvistika uchun tadqiqot obyekti sanaladi. Professorlar Hamid Ne’matov, Ravshan Rasulovlarning ta’kidlashicha “atash semasi” obyektiv olamdagi narsa, buyum, belgi-xususiyat, miqdor kabilarni nomlaydi. So‘z kontekstda o‘zining fuktsional qo‘llanish o‘rnini o‘zgartirishi bilan atash semasi o‘rnida so‘zlovchining aniq munosabatini bayon qiluvchi ifoda semasi birinchi darajali mavqeyini egallaydi. Masalan, Bu kishi tashkilotning ustini. *Bu jumlada atash semasini* anglatuvchi *“ustun”* semasi insonga nisbatan *“tirgak”*, *“ushlab turuvchi”* ko‘chma ma’noga aylangan.[3, 56]

Leksema sememasining tuzilishiga ko‘ra turli darajadagi ma’no nozikliklari nutqdagi pragmasemantik vazifasi jihatdan uchta guruhga ajratiladi: a) betaraf (neytral); b) uslubiy bo‘yoqdor; c) ishora vazifasini bajaruvchi (ichi bo‘sh) so‘zlar. Bunday nutq vaziyati bilan aloqador ishora vazifasini bajaruvchi shaklan leksema, mazmunan “ichi bo‘sh” so‘zlarning esa, mazmuni kishilar xotirasidagi tushunchalar bilan bog‘lanmaydi.

Lingvopragmatikaning leksikologiya sathi bilan munosabatini yuqorida ta’kidlaganlarimiz asosida quyidagi masalalarni o‘z ichiga oladi:

a) leksema semasining tarkibiy qismlarida neytral, uslubiy bo‘yoqdorlik va ularning nutqdagi qo‘llanish vazifasiga ko‘ra his-hayajon belgilarining mavjud yoki mavjud emasligi bilan lingvistikpragmatikaning zohirasi sanaladi.

b) oziq-ovqatni iste’mol qilish darajasiga ko‘ra leksema sememasida milliy o‘ziga xoslikning pragmatik hoslanishi bilan ajralib turadi. Masalan, o‘zbeklar uchun “qo‘y go‘shtini kim sevmaydi!”; ruslar uchun “cho‘chqa go‘shtini kim sevmaydi!”; yaponlar uchun “ilon go‘shtini kim sevmaydi!” kabi mazmundagi qarashlar bularga misol bo‘la oladi. Mana shu lesemalar asosida yuzaga kelgan qo‘zichoq, porosyonok, iloncha kabi so‘zlar ishtirokida hosil bo‘lgan milliylikni ko‘rsatuvchi har qanday tushunchalar ham bunga misol bo‘la oladi. Chunki o‘zbeklar uchun suyish-erkalash ma’nosida qo‘zichog‘im, toychog‘im kabi leksemalar bilan; ruslar uchun “cho‘chqacham”; yaponlar uchun “iloncham” kabi so‘zlar orqali ifodalanadi.

s) uchinchidan leksemaning pragmatika yo‘nalishi bilan bog‘lanishi leksema sememasining kishilar xotirasidagi tushunchalar bilan bog‘lanish darajasining mavjud yoki mavjud emasligidir. Bu xususiyat asosan mustaqil leksemalargagina xos bo‘ladi. Undov, taqlidiy so‘zlar, yordamchi so‘z turkimlarida, olmoshlarda bunday aloqani ko‘rmasligimiz ham mumkin.

Demak, X.Do‘stmuhammad asarlari tilida fonopragmatik holatlar ko‘p va xilma-xil bo‘lib, ular yozuvchining biror voqea-hodisani kuchli, ta’sirli yoki obrazli qilib tasvirlashida fonouslubiy vosita tarzida xizmat qiladi. Mana shu holatlarni til sathlarining alohida obyekti sifatida matn tarkibida o‘rganish alohida tadqiqotni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сушинский И. Коммуникативная-пагматическая категории акцентирования и ее роль в вербалной коммуникации. Вопросы языказнание. № 6. 1987.

2. Nematov H. Rasulov R. O‘zbek tili sistemlekskologiyasi. –Toshkent, 1995.

3. Nematov H. Rasulov R. O‘zbek tili sistemlekskologiyasi. –Toshkent, 1995.
4. X.Do‘stmuxammad. “Beozor qushning qarg‘ishi”. – T., 2006.

ABDULLA ORIPOV SHE’RLARIDA KOSMONIMLARNING IFODALANISHI

Saydazamova Munojot,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti
munojot@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada koinot jismlari tushunchasining mazmuni, unda onomastik birliklarning tutgan o‘rni, xususan, kosmonimlarning paydo bo‘lishi hamda uning badiiy adabiyotda, lirikada aks etishi haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, kosmonimlar Abdulla Oripov ijodi orqali tadqiq qilinadi.

Kalit so‘z: Onomastika, kosmonim, kosmomorfik metafora,atoqli ot, nominativ birlik, leksema, astronomiya, oy, yulduz, lirika, osmon jismlari, samoviy nomlar.

Koinot jismlari qanday shakl va ko‘rinishda bo‘lmasin, ular so‘zlar bilan nomlanadi. Shu sababdan ularni tilning materiali sifatida lingvistik nuqtai nazardan o‘rganish lozim. Samoviy jism nomlari tilshunoslikning atoqli otlar haqidagi bo‘limi – onomastikada o‘rganiladi. Onomastikaning bu qismi astronimika yoki kosmonimika deb ataladi. Osmon jismlarining nomi astronim yoki kosmonim termini bilan yuritiladi. Turli ilmiy adabiyotlar va lug‘atlarda koinot obyektlarining nomi astroponim, astronim, astronomik jismlar nomi, kosmonim kabi terminlar bilan, koinot ob’ektlarining nomini o‘rganuvchi fan esa astronimika, kosmonimika terminlari bilan ifodalanadi.

O‘zbek nomshunosligida (antroponimika – ismshunoslik, toponimika, kosmonimika, zoonimika, teonimika, ktematonimika) ilmiy terminlari tizimini qat’iylashtirish, bir qolipga solish zarur.[4:12]

Yozuvchi va shoirlarning kosmonimiya bobidagi xizmati shundan iboratki, ular olimlar yaratgan va ma’lum tizimga solgan nomlarni o‘z asarlarida qo‘llash bilan bu kosmonimlarni xalqqa yanada yaqinlashtirdilar, ularning ilmiy tasavvurini kengaytirdilar. Ushbu maqolada esa kosmonimiyaning badiiy adabiyotga, aniqrog‘i, she’riyatga ko‘chgan o‘rinlari haqida so‘z yuritiladi.

XIV asrning yozma yodgorligi bo‘lmish Durbekning “Yusuf va Zulayho” nomli asarida *Moh, Shams, Qamar, Mushtariy, Quyosh, Oftob* kabi turkiy, arabcha va fors-tojikcha kosmonimlar qo‘llangan.[3.23]

Navoiyning lirik asarlarida ham, epik asarlarida ham kosmonimlar juda ko‘p uchraydi. Bu jihatdan, ayniqsa, uning “Hiloliya”, “Sab’ai sayyor”, “Farhod va Shirin”, “Saddi Iskandariy” kabi asarlari xarakterlidir. Navoiydan keyin ijod etgan Bobur, Muhammad Solih, Majlisiy, Turdi, Mashrab, Ravnaq, Nishotiy, Mujrim, Munis, Gulxaniy, Maxmur, Nodira, Uvaysiy, Ogahiy, Muqimiy, Furqat kabi juda ko‘p shoir va yozuvchilarning asarlarida ham kosmonimlar mavjud.[3:27]

Badiiy asarlar yaratgan ajdodlarimiz ko‘plab yangi kosmonimlarni vujudga keltirdilarki, ular tilimizga qaysi tildan kirib kelganiga qaramay, hozirgi o‘zbek tilining o‘z mulki bo‘lib qoldi.Tilimiz taraqqiyotining turli davrlarida qo‘llangan va hozir ham

ishlatib kelinayotgan qator astronomik nomlar, terminlar faqat o‘zbek tilida qo‘llanib, arab tilining o‘zida hozir deyarli ishlatilmayotir. Masalan, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiylar yashagan davrda ham, hozirgi kunlarda ham asli arabcha *sayyora* so‘zi “planeta” ma’nosida qo‘llangan va qo‘llanib kelmoqda.

Mumtoz adabiyotimiz vakillari asarlaridagi astronomik terminologiyaga oid dalillarni keltirish orqali turkiy tillarga oid astronomik terminlarning qadimiyligi isbotlab berilishi mumkin. Asarlarda turkiy tilga oid kosmonimlarning mavjudligi va kishilarga xizmat qilib kelganligi, ularning arab tili kosmonimlari bilan raqobatda bo‘lib kelganidan dalolat beradi.

Kosmonimlarni lirikada qo‘llash bevosita metafora bilan bog‘liq holda olib boriladi. Kosmomorfik metafora osmon jismlari nomi asosida hosil qilingan metafora. Bunday metafora *oy, quyosh, qamar, yulduz, osmon, nur* kabi leksemalar ma’nosini metaforik usul bilan ko‘chirish natijasida hosil bo‘ladi. Masalan,

Qanday yorug‘ yulduzsan, ajab,
Qanday porloq sayyoradirsan?
Yoki biror turkumdan ajrab
Biz yoqlarda ovoradirsan? (“Mening yulduzim”, 76-b.) Shular qatorida Abdulla Oripov ham kosmonimlardan unumli foydalangan. Quyida Abdulla Oripov she’rlarida aks etgan kosmomorfik metaforalar keltiriladi:

Kecha oqshom falakda *oy* bo‘zarib botganda,
Zuhra yulduz miltirab, xira xanda otganda,[1]
“Birinchi muhabbatim she’ridagi keyingi satrlarga e’tibor qarataylik:
Xolbuki orzulardan judo ham bo‘lganim yo‘q,
Yulduzday kuyganim yo‘q, *oy* kabi to‘lganim yo‘q.

Ushbu satrlar orqali kosmonimlar metafora orqali ifodalanmoqda, ular shaxsga xos sifatlar bilan jonlantirish san’atini aks ettirmoqda.

Qara-ya, o‘tibdi qirq yil muttasil,
Yashabman *yulduzlar* ostida karaxt. “|Shoir umri”, 1981,[1]

Abdulla Oripovning “Mitti yulduz” she’ri boshdan oyoq kosmomorfik metafora asosida qurilgan:

Ko‘k gumbazin bir chetida,
Bo‘shliqlarga urib bosh,
Miltiraydi mitti yulduz,
Tanholikdan to‘kib yosh.
Atrofida na bir yulduz,
Na bulut bor, na tuman.
Yulduzlarga termulib u,
Titrab turar shamsimon.
Eh, bechora, yashash nechun,
Yashnamasang, kulmasang.
O‘z to‘dangdan nega uchding,
Qaytish yo‘lin bilmasang?! [1]

Shoir ijod olamiga kirib kelgan ilk davrlardanoq so‘zga, badiiy ijodga yuksak hurmat va nihoyatda ehtiyotkorlik bilan yondashgan. Abdulla Oripov ijodida har bir so‘z uzukka qo‘yilgan ko‘zdek porlab turishi bejiz emas.

Bir qaraganda, she’r shunchaki tabiat tasviridan ilhomlangan qalbning hayrati va o‘z holatining ifodasidek taassurot uyg‘otadi. Ya’ni yulduz o‘z to‘dasidan yiroqlarga ko‘chgan, ijodkor ham yaqinlaridan yiroqda. Muqoyasa qilishga arzirli holat.

Osmon jismlarining qadimiy nomlari ajdodlarimizning tungi osmonni tushunishga, unga ma’no berishga intilishlari ifodasidir. Ular maxsus yasalgan so‘zlardan emas, balki tilning oddiy so‘zlarini takrorlash orqali paydo bo‘lgan, ularning asosida u yoki bu timsol yotadi. [3:57]

Ayrim kosmonimlarning metafora yo‘li bilan hosil bo‘lganligini isbotlash astronomik bilimlarni talab qiladi. Masalan, *Katta ayiq* yulduz turkumining nomlanishiga e’tibor qilaylik. U osmonning shimoliy yarimsharida joylashgan eng yorug‘ yulduz turkumi hisoblanadi. Uning nimaga kattaligini (Katta ayiq) tushuntirish oson: chunki hajmi kichikroq bo‘lgan Kichik Ayiq yulduz turkumi mavjud. Lekin nima uchun u ayiqqa o‘xshatilgan? Gap shundaki, bu turkumdagi yetti yorqin yulduz o‘z harakatlarining turli yo‘nalishlariga ega, shu sababdan asrlar osha ularning umumiy konfiguratsiyasi o‘zgarib kelmoqda.[2: 28-34]

Xulosa sifatida aytish mumkinki, samoviy jismlarning atalish motivlari jahondagi ko‘pgina xalqlarda mushtarak bo‘lib, osmon jismining rangi, samoda ko‘rinish davri, samoda hosil qilgan shakli kabi ko‘pgina holatlarga asoslangan. Keyinchalik esa mifologik qarashlarni keltirib chiqargan va shunga bog‘liq nomlar kelib chiqqan. Shundan kelib chiqib aytilsa, kosmonimlarni aniqlash, ularning xususiyatlarini o‘rganish, nomlarning ma’nosini to‘g‘ri tushunish , ularni badiiy adabiyotga olib kirish qiziqarli va murakkab jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Oripov. “Mitti yulduz”. – Toshkent, 2021.
2. Jo‘rayev M. O‘zbek xalq samoviy afsonalari. – Toshkent: Fan, 1995.
3. Primov A. O‘zbek tili kosmonimlarining lisoniy xususiyatlari. – T., 2009.
4. Qorayev S., Nafasov T., O‘zbek nomshunosligi: tadqiq yo‘nalishi va usullari // Xiva. Nomshunoslikka bag‘ishlangan ilmiy-amaliy anjuman tezislari. – Xiva, 1991.
5. O‘zbek tili kosmonimlarining yasalish xususiyatlari haqida ba’zi mulohazalar”. Al-Xorazmiy nomidagi Urganch davlat universiteti, filologik tadqiqotlar. – T., 2006.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-2-tomlar. – Moskva: Rus tili, 1981.

KORXONA VA TASHKILOTLAR NOMLARI ULARNING LISONIY TAHLILI

Ro‘ziyeva Maftuna,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU,
sirtqi bo‘lim 5-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada respublikamizda faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar nomlari lingvistik nuqtayi nazardan tahlilga tortiladi.

Kalit so‘z: lisoniy tahlil, peshlavha, tashkilot, korxona, nomlar.

Qadimda shahar ichidagi ma’lum bir obyekt haqidagi ma’lumotni o‘sha obyektda tayyorlagan mahsulot bildirgan. Masalan, “Non” do‘koni oldiga nonni, kosiblar mahsi yoki boshqa mahsulotni ko‘zga tez tashlanadigan joyga qo‘yishgan. XIX asrda ruslarda do‘kon, fabrika va boshqa korxonalar uning xo‘jayini nomida yuritilgan. Bu kabi lavhalarga xo‘jayinning ismi, familiyasi yozilgan, yoniga u ishlab chiqaradigan mahsulot rasmi chizilgan. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Chor Rossiyasi istilosi natijasida ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi tub o‘zgarishlar, keng jamoatchilikning axborotga bo‘lgan ehtiyoji sababli O‘zbekistonda ham peshlavhalar shakllana boshladi.

PESHLAVHA *(f.+a.)* - old to-monga osiladigan lavh(a)] Korxona, idora, muassasa, o‘quv yurti kabilar haqida qisqa, ixcham, aniq ma’lumot yozilgan va shular-ning kiraverishida ko‘rinarli joyga o‘r-natiladigan maxsus taxtacha. *Hozirda shah-rimizda juda ko‘plab peshlavhalar yangi qabul qilingan lotin alifbosida yozilmoqda* (*Gazetadan).*

Demak, korxona va tashkilotlar nomlari ya’ni *peshlavha* bu - korxona, tashkilot, muassasa, bino yoki biror obyekt haqida qisqa, ixcham, aniq ma’lumot beruvchi, shu obyektga kiraverishi yoki peshtoqidagi maxsus taxtachaga yozilgan lavha.

Korxona, tashkilot, muassasa va boshqa obyektlarning nomlanishiga e’tibor beradigan bo‘lsa, rasmiy nomlar ya’ni davlat tasarrufidagi idora, tashkilot va muassasalar aksariyat hollarda ona tilimiz qoidalariga mos holda shakllantirilganligini kuzatamiz. Masalan: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi (DTM), Alisher Navoiy nomdagi Davlat adabiyot muzeyi, Toshkent shahar Shoyxantohur tumani 24-ixtisoslashgan umumta’lim maktab va boshqalar.

Shu bilan bir qatorda xususiy korxonalar, qo‘shma korxonalar ham mamlakatimizda kundan kunga ko‘paymoqdaki, bu albatta jamiyat taraqqiyoti hamda globallashuv bilan bevosita bog‘liq holat. Biz asosiy fikrimizni mana shu korxona va tashkilot nomlari lisoniy xususiyatlariga qaratamiz.

1. Sof o‘zbekcha nomlar: Sho‘rtan gaz kimyo majmuasi MCHJ, Muborak gaz qayta ishlash zavodi, Xorazim tashqi elektir yoritish MCHJ, Xunarmandlar uyushmasi, “Mato Markazi“ texnik ko‘rik shaxobchasi, Qishloq Qurilish Bank, Polvon.uz shular jumlasidandir.

2. Aralash turdagi nomlar: “O‘zbekistin GTL” savdo belgisi, ASIA ALLIANCE BANK, TENGE BANK, TRASTBANK.

3. Faqat chet tilida shakllangan nomlar O‘zbekstondagi va jahondagi eng yirik kompaniyalar: Makro – ulkan, Dream city – orzu shahar, ICT city – muz shahar, “GENTLE KIDS” – muloyim bola, Fullde electic – to‘liq elektr.

Jahondagi eng yirik kompaniyalardan biri bo‘lgan **“NESTLE”** (*Nestle — nemis tilining Shveysariya shevasida “jajji uya”*) — Shveysariyadagi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi kompaniya.

ICT city – muz shahar, EKO rom - atrof – muhit, KFC (Kentucky Fried Chicken) shuningdek, binolar peshtoqidagi yozuvlar: “KeFsi.uz”, “Good day LAVASH”, “EVOS” – bular kafe va tamaddixonalar nomlari, “UNIFORMA” kiyim do‘koni”, “КОНСТОВАРЫ” do‘koni, “Aqua Heat” maishiy texnika do‘koni va boshqalar. Ushbu qisqartmalar kommunikant uchun hech qanday axborot bera olmaydi. Aksincha, chalkash va noto‘g‘ri xulosa chiqarish uchun asos bo‘ladi. Mazkur qisqartmalarning ko‘p qismi faqat ingliz tilida yozilgan. Bu kabi peshlavhalarda “LTD” (mas’uliyati cheklangan shirkat, jamiyat) tarzda o‘zbekcha birikmalar ichida yozilsa ham ijobiy baholab bo‘lmaydi. Birinchidan, bu tarzda yozilishi tilimiz qoidasiga to‘g‘ri kelmaydi, ikkinchidan, ularning tilimizga singib ketishi qiyin kechadi. Bu shakldagi qisqartmalar nafaqat axborotning noaniq bo‘lishi, balki keng omma noroziligiga ham sabab bo‘ladi.

Bugungi kunda ko‘chalarda aks etgan peshlavhalarda qisqartmalar alohida o‘rin tutadi. Ma’lumki, peshlavhalarda har qanday yozuv birinchi navbatta kommunikativ vazifa bajarishga qaratilgan bo‘ladi. Shunga ko‘ra joy va belgilar, birinchidan, miqdori nisbatiga qisqartma talab qilsa, ikkinchidan, qisqa vaqtda tegishli axborot bera olishga qaratiladi.

Shu o‘rinda ayrim korxona nomlarining ma’nosi va shakllanishiga ham to‘xtalib o‘tsak. Xususan, hozirgi kunda texnikaga bo‘lgan extiyoj yanada orta boshladi barcha jabhada elektronika va texnalogiyaga bo‘lgan extiyoj ortib bormoqda. Rivojlangan davlatlarda har bir sohada texnalogiyaga bo‘lgan extiyoj yanada ortib bormoqda chunki texnologiyalar ishlatilsa vaqt ham ishchi kuch ham tejaladi. O‘zbekstonda ishlab chiqarishga bo‘lgan extiyoj katta bo‘lgani sababli korxonlalar soni kundan kunga ortib bormoqda. O‘zbekstonda eng birinchilarda bo‘lib o‘z ishni boshlagan bugungi kunda xorijiy davlatlarga ham texnikalarni eksport qilayotgan korxonalardan biri **“Artel”** korxonasi xisoblanadi. **Artel** savdo belgisi – O‘zbekistondagi eng yirik maishiy texnika va elektronika ishlab chiqaruvchi kompaniya. Artel nomi “Artikxodjayev” va “Elektronika” so‘zlarining bosh harfiladan oligan.

Xulosa qilib aytganda, ommaviy kommunikativ munosabat markazida shaxs turadi, shu sababli ham har qanday matnning ikki xususiyati: matnni ifodalash va uni tushunish jarayoni kommunikativ aktda muhim sanaladi.

TERMINLARNING QO‘SHMA VA JUFT USULLAR BILAN IFODALANISHI

Nasirdin Qarshiyev,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti,
o‘zbek tili va adabiyoti, ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi
nasru@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada terminlarning turlari, ularning yasalish usullari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘z: so‘zlarning kompozitsion usul bilan yasalishi, qo‘shma terminlar, juft terminlar, takroriy terminlar, sifatdoshli terminelementlar, izofali terminelementlar.

O‘zbek tilining terminologiyasiga oid tadqiqotlarda ham mazkur tipdagi terminlar ozmi-ko‘pmi o‘rganilgan. Chunki ayrim terminologik tizimlarda qo‘shma, juft hamda takroriy terminlardan ham foydalanilmoqda. Qorako‘lchilik terminologiyasi haqida ham shunday deyish mumkin. To‘g‘ri, tadqiqot ob’ektimizda kompozitsion usul bilan yasalgan terminlar unchalik ko‘p emas. Shunday bo‘lishiga qaramay, bunday terminlar ham ozmi-ko‘pmi darajada qorako‘lchilik tushunchalarini ifodalash uchun xizmat qilmoqda.

Qo‘shma terminlar. Qorako‘lchilik sohasida ishlatilayotgan qo‘shma terminlar, asosan, “ot+ot” qolipi asosida yasalgan bo‘lib, ko‘proq qorako‘l terilarning gullari nomlarini ifodalash uchun qo‘llanmoqda. Misollar: *Halqagullar* o‘lchami mayda, o‘rta va katta gullarga bo‘linadi. Donagulli *guligaz* terilarda 50-55% i donagul, 25%i *qalamgul,* taxminan, 25% i past sifatli gullar bo‘ladi. *No‘xatgullarni* tashkil etuvchi jun to‘plamlarining uchlari tugunsimon yoki no‘xat shaklida jingalaklashgan bo‘ladi. Mayda jingalakli *halqagullar* past baholanadi. Yolgullar, asosan, terining yonbosh, son va ko‘rak qismlarini qoplaydi (1).

Shu bilan birga, tadqiqotimizda “sifat+ot” qolipi asosida yasalgan qo‘shma terminlardan ham foydalanilmoqda. Misollar: Qorako‘l, qorako‘l terisi. Qorako‘l qo‘zilarining 2-3 kunligida so‘yib olingan terisi. *Qorako‘lcha.* Embrional rivojlanishining 127-135 kunlik bosqichidagi homilalar terisi (2). Qorako‘l qo‘zilari terisida ter bezlari yaxshi taraqqiy etgan. ... [qo‘zilarning] Rangi och qora bo‘lsa teri xunuk ko‘rinadi va juni tez oqora boshlaydi, bu xil qo‘zilardan, ko‘pincha, *“oqgul”* [qo‘ylar] yetishadi. Gul uzunligining uchdan bir va ko‘pincha to‘rtdan bir qismi *chappagulga* o‘xshash .

Shunisi diqqatga sazovorki, qorako‘lchilikda keltirilgan qo‘shma terminlarga yasovchi affikslar qo‘shilib, yangi-yangi terminlar ham hosil qilinadi. Misollar: O‘zbekiston qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot institutida, ayniqsa, yosh *qorako‘lshunoslarga ye*tarli g‘amxo‘rlik ko‘rsatilmoqda (3). Ushbu kitob *qorako‘lshunoslik* (qorako‘l terishunosligi) to‘g‘risida yozilgan o‘zbek tilidagi birinchi o‘quv qo‘llanmasidir. *Qorako‘lchilarimiz* ko‘k va sur terilar yetishtirishni 19.2 % ga, shu jumladan, sur terilar yetishtirishni 5.7 % ga yetkazdilar. Qorako‘lchilikni rivojlantirish uchun qo‘ylarning qimmatli biologik xususiyatlaridan ustalik bilan foydalanish zarur. 145 kunligida onadan chala tug‘ilgan qo‘zilardan qorako‘l *qorako‘lcha* olinadi .

Bundan tashqari, qorako‘lchilik terminologiyasida terminelementlar (bu haqda mazkur bobning keyingi bo‘limida so‘z yuritilgan) dan foydalanib yasalgan ko‘plab birikmalar mavjudki, qo‘shma terminlar ham ayni shunday vazifani bajarib keladi. Misollar keltiramiz: *Qorako‘lchi chorvadorlarimiz* mustahkam konstitutsiyali qo‘ylar sonini ko‘paytirishga e’tibor berishlari kerak. Normal qorako‘l terilari to‘liq ifodalangan gul turlari bilan qoplangan. *Qalamgulli terilarning* gul tomoniga qaralsa, teri sathida gullar bir-birining ketiga terilib, juda go‘zal manzara kashf etadi. *Chappagulli terilar* juni, ko‘pincha, quruq va dag‘al bo‘ladi. *No‘xatgulli urg‘ochi qorako‘l* qo‘zilar past klasslarga va terisi esa past navlarga kiritiladi. *Qalamgulsimon jingalaklar* orasida eng kalta qiltiq va tivit jun tolali, *qovurg‘asimonlar* - o‘rtacha, yarim doiralilar esa uning tolasi bo‘lgan .

Juft terminlar. Qorako‘lchilik terminologiyasida juft terminlar-ning miqdori juda kam - o‘ntaga yetar-yetmas. Shunday bo‘lishiga qaramay, ularga lisoniy dalil sifatida qaralishi lozim.

Tadqiqotimizdagi juft terminlar qorako‘l terilarning yoxud ular gullarining turlari, xillarini ifodalab keladi. Misollar: Jun tolasi kalta va juda kalta bo‘lib, ipaksimon junli... qo‘zilar qimmatli hisoblanadi. Bunday qo‘zilar terisining tovarlik ko‘rinishi qorako‘lcha yoki *qorako‘l-qorako‘lchaga* o‘xshab ketadi. Yassi qalamigulning esa *qalami-iloncha* deb ataluvchi tur xili bor (4). ... sur terilar ichida *tilla-sur, kumush-sur, sur-antiq, shamchiroq-sur* va boshqa rang-barang go‘zal va tovlanuvchi terilar uchraydi. *Qalam-chappagul*. Bu gul ham o‘ziga xos belgilarga ega. 130 kunlik bo‘lganda ikkilamchi oqimlar terining deyarli butun sathini egallaydi. Bu davrda “yol gul” ozmi-ko‘pmi ko‘zga tashlana boshlaydi. Bu xil terilarni “*go‘lak-qorako‘lcha”*tipiga kiritiladi .

Qorako‘lchilik tushunchalarining birikma terminlar vositasida ifodalanishi. Bu yuqorida nomi qayd etilgan “Chorvachilik terminlariga oid ruscha-o‘zbekcha lug‘at”da qorako‘lchilikka oid jami 191 ta terminga izoh berilgan. Ularning atigi 34 tasi nobirikma (ya’ni tub, yasama, qo‘shma) bo‘lsa, 157 tasi birikma terminlardir. Bu raqamlar lug‘atdagi qorako‘lchilik terminlarining 84% birikma terminlardan iborat ekanligini ko‘rsatadi.

Shunisi diqqatga sazovorki, qorako‘l terilari xossalarining birida kamroq, boshqasida ko‘proq terminlardan foydalanilmoqda. Biroq ularning barchasini, tabiiyki, yakka terminlar bilan ifodalashning iloji bo‘lmaganidan birikma terminlar bilan ifodalashga “majbur” bo‘lingan. Mana shu sabablarga ko‘ra, qorako‘lchilik sohasida ham birikma terminlar yetakchi o‘rinni egallaydi.

Birikma terminlarining bog‘lanishiga ko‘ra turlari. Qorako‘lchilik sohasida qo‘llanishda bo‘lgan birikma terminlarning turlari, yasalish asoslari kabi xususiyatlari ham e’tiborni tortadi. Sh.Raxmatullaev o‘zbek tilida birikmalarning yetti xili borligini ko‘rsatib o‘tgan. Bular quyidagilar: sifatlovchili birikma, qaratuvchili birikma, izohlovchili birikma, izofa birikmasi, ta’kidlovchili birikma, to‘ldiruvchili birikma, hollovchili birikma .

Shuni ta’kidlash lozimki, o‘zbek tilida qo‘llanuvchi mazkur birikmalarning faqat uch turigina terminologik xarakterga egadir. Bular sifatlovchili birikma, qaratuvchili birikmalar va izofa birikmalardir. Quyida birikma terminlarning shu turlari xususida qisqacha so‘z yuritamiz.

Sifatlovchili birikma terminlar boshqa terminologik tizimlarda bo‘lgani kabi qorako‘lchilik terminologiyasida ham birikmalarning ayni shu turidan keng foydalanib kelinmoqda. Mazkur tipdagi birikmalar “sifatlovchi+sifatlanmish” qolipi asosida yasalib, tushunchani aniq ifodalash uchun xizmat qiladi. Tabiiyki, sifatlanmish vazifasini esa har xil so‘z turkumlariga oid leksemalar o‘taydi. Bular quyidagi qoliplar xarakteriga ega:

“Sifat+ot”qolipli birikma terminlar: *qora qorako‘l* (teri), ko‘k teri, sur teri, ola-chipor qorako‘l, qambar qorako‘l, oraliq jun, o‘rtalik jun, qo‘ng‘irsimon tus, shoxsimon qavat, ko‘k kaptar, xalili teri, rangdor jun: *Chin teri* qo‘shuvchi to‘qima tolalari to‘qimlarining murakkab chirmashuvi natijasida vujudga kelgan... *Yirik teri* – katta yoshdagi qo‘ylardan olinadi. *Po‘lat sur* − jun tolalarining asosi qora rangda... .

“Ot+ot” qolipli birikma terminlar: kumush sur, tilla sur, shamchiroq sur, qalam gul: *Po‘stloq qatlam* tangachali qatlam tagida joylashgan... *Dag‘al junli* quy zotlari . *Kumush rang* − asosining to‘q *surma rang* yoki qora rangi bilan uchining *kul rang, kumush* rang tus aralashmasidan hosil bo‘ladi. Qorako‘lning *qahrabo sur* ranglisi .

“Sifatdosh+ot” qolipli birikma terminlar: chuvalgan rasm, kiruvchi jun tola, pigmentlashgan jun, oshlangan teri, o‘sinqaragan jun. Bu ko‘rsatkich terining hamma sathini qoplovchi junlar soniga... bog‘liq *Xurpaygan qalamgullar* terining hamma qismida uchraydi.

Qaratuvchili birikma terminlar. Qorako‘lchilik terminologiyasida qaratuvchili birikma terminlardan ham foydalanilmoqda. Bunday terminlar “qaratuvchi+qaralmish” qolipi asosida shakllangan. Mazkur qolipdagi terminlarning qaratuvchi komponenti ot yoki otlashgan leksemalardan iborat bo‘lib, *-ning* qaratqich kelishik qo‘shimchasi bilan, qaralmish komponent esa *-i(-si)* egalik qo‘shimchasi bilan shakllantiriladi. Misollar: *junning uzunligi, junning qisqaligi, gullarning tarkibi, terining notekisligi.* Biroq *terining qalinligi, junlarning zichligi* va ularning o‘sib rivojlanish intensivligi homilaning yoshiga qarab turlicha bo‘ladi. Qorako‘l teriga ishlov berilayotganda *epidermisning yaxlitligini* buzmaslikka harakat qilinadi... *Rangining tekisligi* ko‘k terilarning eng muhim sifat belgisidir ... *junlarning jingalagi* o‘roqsimon, *qalamigullarning uzunligi* bo‘yicha birin-ketin yarim halqa hosil qilib joylashgan .

Izofali birikma terminlar. Nihoyat, qorako‘lchilik terminologiyasida izofali birikmalardan ham foydalanilmoqda. Bunday birikmalar “izofalovchi+izofalanmish” qolipi asosida shakllangan. Uning izofalovchi komponenti bosh kelishikdagi ot yoxud otlashgan leksemalardan iborat bo‘lib, izofalanmish komponenti ham ot leksemadan tashkil topadi, biroq *-i (-si)* egalik ko‘shimchasi bilan shakllantiriladi. Misollar: *gul o‘lchami, teri sathi, sath kengligi, tola o‘qi, jun qini, jun tuzilmasi, teri naqshi.* Qoraqalpoq suri olti xil naqshga bo‘linadi: *po‘lati sur,... o‘rik guli, qamar, shabdor va chaqir* . Qorako‘l ipaksimon, yaltiroq *jun qoplamiga* ega, *jun qoplami* har xil naqshlarda tovlanib turadi. Keltirilgan birikmalarning sifatlovchi, qaratuvchi, izofalovchi komponentlarini umumlashtirib, terminelement deb atashni lozim topdik. Mazkur termin haqida o‘z o‘rnida so‘z yuritamiz.

Keltirilgan dalillardan qorako‘lchilik terminologiyasida qo‘llanayotgan birikma terminlarning turlari haqida ma’lum bir tasavvur hosil bo‘ldi, deb hisoblaymiz. Ushbu o‘rinda birikma terminlarning tarkibi (tuzilishi)ni aniqlashtirishdan, ikkinchidan, ularning birinchi komponentlarini, ya’ni terminelementlarining yasalishi jihatlarini

o‘rganishdan iborat ekanligini e’tiborga olib, quyida shu masalalar bo‘yicha fikr-mulohazalar bildiramiz.

Demak, qorako‘lchilik terminologik tizimida ham birikma terminlar miqdori jihatidan juda ko‘p qismni tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyot:

1. Rahimov A.A. Qorako‘lchilik. −Toshkent: O‘qituvchi, 1967. −B. 386.

2. Zokirov M., Xachaturova L., Yusupov S., Chorvachilik terminlariga oid ruscha-o‘zbekcha lug‘at. – Toshkent: Mehnat, 1990. – B. 65.

3. “Zarafshon” gazetasi, 2007-yil 25-dekabr.

4. Zokirov M., Valiyev U., Shirinboyev Sh. Qorko‘lchilik. –T.: O‘qituvchi, 1983.

5-SHO‘BA. SOHA LUG‘ATLARINI TUZISH VA TERMINOLOGIYA MASALALARI

MILLIY TERMINOLOGIYAMIZ TARAQQIYOTI VA GALDAGI VAZIFALAR XUSUSIDA

Abdiyev Murodqosim,
filologiya fanlari doktori, professor,
Davlat tilida ish yuritish asoslarini
o‘qitish va malaka oshirish markazi
Samarqand viloyat hududiy bo‘linmasi rahbari

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek milliy terminologiyasining rivojlanish bosqichi hamda u bo‘yicha bajarilgan ishlar xususida fikr bildirilgan. Shu bilan birga uni yanada takomillashtirish yuzasidan fikr va mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: til, termin, milliy terminologiya, terminshunoslik, mutaxassis, soha, takomillashtirish, ilmiy-texnik, kasb-hunar, lug‘at, leksika, milliy qadriyat va hokazo.

Ma’lumki, o‘zbek adabiy tili qadimiy yozuv an’anasiga ega. Binobarin, uning leksikasi boy va xilma xil. Moziydan boshlab o‘zbek tilining lug‘at tarkibi xalqning moddiy va madaniy tarixi bilan uzviy aloqador holda asrlar davomida boyib kelmoqda.Unda xalqning ijtimoiy hayoti, turmush-tarzi, kasb-kori, qarashlari, an’analari, urf-odatlari bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchalarni aks ettiradigan leksik qatlam va uning tarkibiy qismi bo‘lmish terminologik sistemalar rivoj topib kelmoqda. Mahmud Koshg‘ariy, Mahmud az-Zamaxshariy, Alisher Navoiy singari allomalar ishlarida ona tilimiz boyligi bo‘lgan so‘z va terminlar izohi berilgan. Shu boisdan keyingi yillarda, aniqrog‘i ona tilimizga davlat tili maqomining berilishi hamda mustaqillikdan keyin uning qo‘llanish sohasi kengayganligi bois u bu yoki soha terminologik sistemaning tadqiq etilishi zaruriyat bo‘lib qolmoqda. Pirovardida, o‘zbek tilining kasb-hunar, dialektal, ilmiy-fanniy, terminologiyasi masalalariga qiziqish kuchaymoqda. Aniq fanlar, tabiiy fanlar, ijtimoiy-gumanitar fanlar, qishloq xo‘jaligi kabi sohalar terminologik sistemalari bo‘yicha jiddiy tadqiqotlar olib borildi. Ko‘pgina fan sohalari bo‘yicha ruscha-o‘zbekcha hamda o‘zbekcha-inglizcha-ruscha hamda o‘zbekcha va hokazo tillarda shaklidagi bir qator lug‘atlar tuzildi va nashr etildi.

Fan-texnika taraqqiyoti, xalq xo‘jaligi, ishlab chiqarish va axborot texnologiyalari sohasida vujudga kelayotgan yangiliklar tufayli ona tilimiz leksikasi, xususan, terminologik sistemalarida ham o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqdaki, bu hol tilning kommunikativ funksiyasi jamiyat hayoti bilan, taraqqiyot bilan uzviy bog‘liqligini to‘la tasdiqlay oladi.Chunki jamiyatda ro‘y bergan har bir o‘zgarish, yangilik, taraqqiyot tilda o‘z aksini topadi.

O‘tgan asrning 20-yillarida Toshkent, Samarqand, Boku singari shaharlarda bo‘lib o‘tgan Til-imlo qurultoylarida jadidilar tomonidan til – imlo masalalari bilan bir qatorda terminologiya masalalari ham muhokama qilindi va ular qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar berildi. Xususan, “Qizil O‘zbekiston” gazetasida “Til, atama va imlo” rubrikasi ochilib, unda terminlar tanlash va ularni qo‘llash bo‘yicha bahs-munozaralar muntazam bosilib

turdi. Bu borada Abdurauf Fitrat, Mahmudxoja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Ashurali Zohiriy, Elbek, Botu, Abdurashidxon Munnavarov, Abdulla Qodiriy singari jadidlar bu borada yo‘lboshchilik qildilar. Ular tomonidan juda ko‘plab terminologik lug‘atlar tuzildi va nashr etildi. Natijada iste’molda bo‘lgan arabcha va forscha so‘z va terminlar o‘rniga o‘zbekcha muqobillari yaratildi va muomalaga kiritildi. Hozir muomalada bo‘lgan ishchi, o‘qituvchi, o‘quvchi, muzqaymoq, singari so‘zlar jadidlarning sa’y-harakatlari bilan xalqimiz leksikoniga kirib, o‘rnashib qoldi. Afsuski, sho‘rolar tomonidan ziyolilarimizning yalpi qatag‘on etilishi ular tomonidan boshlangan ibratli ishlarning tugallanmay qolishiga sabab bo‘ldi.

1925-1940-yillarda mahalliy xalqni bir mintaqadan ikkinchi mintaqaga zo‘rlab kechirish asosida shevalar orasidagi farqlar yo‘qola bordi. Ko‘chmanchi xo‘jalik sifatida badarg‘a qilingan aholining ko‘pchiligi o‘zlarining kasb-korini, hunarini ma’lum darajada yo‘qotdi. Xalqimizning muhim qadriyatlaridan biri bo‘lgan mana shunday boylikning funksional doirasi toraydi. O‘zbek xalq jonli tilida belgan yuz minglab so‘z va terminlar unutilayozdi va buning “oqlovchi” tushunchalaridan biri “O‘zbek tili leksikasi”, “O‘zbek adabiy tili leksikasi” qabilidagi sun’iy tushuncha bo‘ldi, deyish mumkin. Chunki bu terminlar ostida xalqning butun so‘z boyligi emas, balki saralangan, barcha uchun me’yor sifatida qabul qilingan, imlo va izohli lug‘atlarda o‘z aksini topgan so‘zlargina tushunildi. Agar hozirgi turk yoki rus, nemis, fransuz tillarining normativ (me’yoriy) imlo lug‘atlarida o‘z aksini topgan so‘zlar miqdorini shu tillarning shevalariga xos so‘z va terminlari miqdori bilan solishtirilsa, keyingisining miqdori to‘rt-besh baravar ko‘p ekanligining guvohi bo‘lish mumkin. Yevropa xalqlari madaniyat bo‘sag‘asiga XVI asrda qadam qo‘ydi. Bizning xalqimizning madaniyati esa kamida bir necha ming yillik tarixga ega. Demak, rasmiy lug‘atlarda aks etmagan so‘z va terminlarimiz miqdori evropaliklarnikidan bir necha o‘n baravar ko‘p bo‘lsa, ko‘pki, kam emas.

XX asrning 30-90-yillarida nashr etilgan turli xil “Ruscha-o‘zbekcha”, “O‘zbekcha-ruscha” ikki tilli va sohaviy izohli lug‘at va ma’lumotnomalar, tamoman, boshqa maqsadlarda – lingvistik milliy qadriyatlarni tiklash va ommalashtirish uchun emas, balki ilmiy tushunchalarni, asosan, ruscha ko‘rinishda o‘zbek fani va xalqi orasida keng targ‘ibni nazarda tutgan edi va buning oqibatida, o‘zbek xalqining ming yillik boyligi asta-sekin unutila bordi. Ijtimoiy hayot, xo‘jalik tarzining o‘zgarishi natijasida yuzlab kasb-korlar, ular bilan bog‘liq narsa-predmet, qurol, vosita, texnologik jarayonlarni anglatuvchi so‘z/terminlar nutqiy iste’moldan chiqib ketdi.

Sobiq sho‘rolar tilshunosligida termin va terminologiyaning ilmiy-nazariy asoslarini yaratishda tilshunoslar V.V.Vinogradov, G.O.Vinokur, N.A.Baskakov, A.A.Baskakov, A.A.Reformatskiy va boshqa olimlar katta hissa qo‘shdilar. Bu olimlarning asarlarida termin va terminologiyaning nazariy muammolari, ularning ta’riflari va boshqa bir qator muhim masalalar o‘z ifodasini topgan. Shuningdek , A.M.Shcherbak, V.I.Litvinov va boshqa olimlar terminologiyaning ayrim sohalarini o‘rganish bo‘yicha bir qator muhim ishlarni amalga oshirdilar.

Ma’lumki, 1959-yilning mayida bo‘lib o‘tgan sobiq Butunittifoq terminologik kengashi ilmiy terminologiya kengashi ilmiy terminologiyaning nazariy asoslarini ishlab chiqishda katta rol o‘ynadi. Kengash materiallari “Terminologiya masalalari”(1961)

nashr qilingan bo‘lib, unda terminning ilmiy-lingvistik ta’rifi, terminlarning funksional mohiyati ochib berilgan hamda terminshunoslikning turli aspektlariga bag‘ishlangan ishlar haqida boy va xilma-xil materiallar berilgan. Bundan tashqari, 1967-yilda Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg)da ilmiy-texnik terminlarning lingvistik muammolariga bag‘ishlab o‘tkazilgan kengash materiallari terminologiya mutaxassislari uchun muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Shuningdek sobiq ittifoq Fanlar akademiyasi huzuridagi Ilmiy-texnika terminologiya komiteti (ITTK)ning ilmiy-texnik terminlar sohasida tadqiqotlar olib borish yo‘llari, terminlarni tartibga solish haqidagi ko‘rsatma va tavsiyalari ham terminshunoslar uchun muhim qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.

Jahon va rus olimlarining terminshunoslik bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari, terminologiyaga doir kengashlarning materiallari hamda Ilmiy-texnik terminologik komitetning qo‘llanmalari milliy tillarda terminologik tadqiqotlar olib borishda, ilmiy terminologiya sistemasini yaratishda muhim nazariy manba sifatida xizmat qiladi.

O‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab o‘zbek tilshunosligi yangi taraqqiyot yo‘liga o‘tib oldi. Bu davrga kelib o‘zbek tilshunosligining barcha bo‘limlari – grammatik qurilishi, fonetikasi, leksikasi, terminologiyasi, dialektologiyasi singarilari bilan bir qatorda nazariy tilshunoslik bo‘yicha katta tadqiqot ishlari amalga oshirildi.

O‘zbek terminshunoslari ham terminologiyaning ilmiy-amaliy masalalari ustida ish olib borib, muayyan ishlarni amalga oshirildi. U.Tursunov, S.Ibrohimov, O.Usmon, Q.Zokirov, H.Jamolxonov, N.Mamatov, S.Akobirov, S.Usmonov, R.Doniyorov, H. Dadaboyev, H.Shamsiddinov, N.Qosimov, A.Qosimov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov, A.Sobirov, I.Yo‘ldoshev, M.Abdiyev singari olimlarning asarlarida o‘zbek terminologiyasining turli masalalari yoritilgandir. Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot ilmiy tadqiqot institutida Terminologik byuletenning bir qator sonlari nashr etildi. Institutning Terminologiya bo‘limida terminologiya masalalariga bag‘ishlangan bir qator monografiyalar va ilmiy maqolalar to‘plami nashr etildi. Nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari tayyorlandi. Turli sohalarga oid izohli lug‘atlar yaratildi. Mazkur ishlarda o‘zbek tili terminologiyasining xilma xil jihatlari – uning shakllanish yo‘llari, yasalish yo‘llari, turli fan sohalarida terminlarning ishlatilish ahvoli, terminologiyaning boshqa dolzarb muammolari haqida, o‘zbek terminologik leksikasining katta bir qismini tashkil etuvchi kasb- hunar terminlari haqida muhim fikrlar bayon etilgan. Shuningdek, terminologiya sohasida yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar tufayli kelib chiqayotgan anglashilmovchiliklar, axborot almashinuvidagi qiyinchiliklar tahlilga tortilgan, ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Aynan bir terminning turli shakllarda ko‘rinishi, turlicha “libos” kiyishi tinglovchini chalg‘itishlarga olib kelishi dalillar bilan isbotlab berilgan. Terminlarning fan, texnika, madaniyat, ishlab chiqarish va boshqa sohalardagi tushunchalarni qayd etuvchi bir ma’noli so‘z ekanligi,ularning emotsional bo‘yoqlardan xoli bo‘lish kerakligi – bularning hammasi terminni xarakterlovchi asosiy xususiyat ekanligi ta’kidlangan.

O‘zbek tilshunosligida yuqorida ko‘rsatib o‘tganimizdek, bir qator ishlar qilingan. Mustaqillik davriga kelib, bu ishlar yanada avj olganligi bois bir qator ishlar amalga oshirildi. Lekin shunga qaramay milliy terminologiyamizni yanada takomillashtirishimiz borasida hali qilinishi lozim bo‘lgan ishlar ham bir talay.

Boshqa tillarda bo‘lgani kabi o‘zbek tili terminologiyasi materiallarini tizimli tarzda doimiy o‘rganish bo‘yicha izlanishni, tadqiq etishni talab etadigan masalalar bir talay bo‘lib, galdagi vazifalarimiz quyidagilardan iborat deb o‘ylaymiz.

Bu birinchidan, har bir soha terminologiyasini kompleks o‘rganishni yo‘lga qo‘yilishini davr taqozo etmoqda.

Ikkinchidan, soha terminologiyasiga doir so‘z va terminlar yig‘ib, ularning izohli lug‘atini tuzish va nashr etishdan iborat.

Uchinchidan, milliy terminologiyamizning nazariy masalalarini yanada takomillashtirib, u yangi fikr va g‘oyalar bilan to‘ldirilishi lozim.

To‘rtinchidan, terminlarni qo‘llashdagi ba’zi bir noaniqlik va chalkashliklarni soha mutaxassislari bilan tilshunoslar hamkorlikda aniqlik kiritish ishini yo‘lga qo‘yish kerak bo‘ladi.

Beshinchidan, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamashunoslik qo‘mitasining ish faoliyatini jonlantirish lozim. Joiz bo‘lsa, sohalarga oid terminlarning muqobillarini yaratishda ishlab chiqarish joylaridagi mutaxassislar ishtirokida sayyor seminar-treninglar o‘tkazishni yo‘lga qo‘yish lozimdir.

Oltinchidan, jamiyatimizning qaysi jabhasi bo‘lishidan qat’iy nazar chet tillaridan kirib kelgan so‘z va terminlar albatta, mutaxassislar tomonidan muhokama qilingan holda Atamashunoslik qo‘mitasining ruxsati bilan ilmiy yoki ishlab chiqarish jarayonida qo‘llanishga joriy etilishi kerak. Agar shu jarayonni yo‘lga qo‘ymasak, yaqin kelajakda o‘zbek tili boshqa tillar iskanjasida qolib ketmasligiga hech kim kafolat bera olmaydi.

Yettinchidan, barcha oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarining faoliyat turidan qat’iy nazar o‘quv rejalariga “O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi” maxsus kursi majburiy fan sifatida kiritilishga erishish lozim. Ayni paytda bu fan sanoqli oliy ta’limlardagina o‘qitilmoqda.

Xullas, ona tilimiz lug‘at boyligining bir qismi bo‘lgan nafaqat milliy terminologiyamizning, balki ona tilimizning sofligi va rivojini ta’minlash har bir ziyolining burchi ekanligini unutmasligimiz lozim. Shunday ekan, ona tilisi kelajagini o‘ylagan har bir shaxs buni yaxshilab anglab olmog‘i shart va zarurdir.

TOPONIMIKA SOHASINI RIVOJLANTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

Hamroyev G‘ofir,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda chet tillariga xos bo‘lgan joy nomlari, ularning o‘zbekcha talaffuzi va yozilishi borasida atroflicha fikr yuritadi. Shuningdek, muallif til masalasiga e’tiborli bo‘lish, ayniqsa, ommaga tez singib, juda sekin unutiladigan toponimlarni qo‘yishda yetti o‘lchab, bir kesish lozimligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: joy nomlari, toponimika, talaffuz, imlo, atoqli otlar, nomshunoslik.

O‘zbek tili qadimiy tillardan biri ekanligini, bu boy ma’naviy, ma’rifiy va madaniy merosni avloddan avlodga yetib borishida joy nomlarining o‘rni, ahamiyati nihoyatda muhim ekanligini bilsak, o‘zligimizni anglagan bo‘lamiz. O‘zbek tiliga davlat tili

maqomi berilgandan so‘ng yurtimizdagi ko‘plab toponimik obyektlar qayta nomlandi. Ya’ni, o‘zbek tilida joy nomlarini atash, rasmiylashtirish ishlari amalga oshirila boshlandi. Buning o‘ziga xos tomoni shu ediki, ona yurtimizning barcha nuqtalari davlat tilida, milliyligimizni, ma’naviyatimizni va madaniyatimizni anglatib turishi kerak edi. Vatan mustaqilligi, avvalo, uning tilida aks etishi, o‘zbekona jaranglashida namoyon bo‘lishi lozim.

Uzoq yillar o‘zbek tili rasmiy maqomda bo‘lmagan davrlarda yurtimizdagi aksariyat joy nomlari boshqa tilda atalib kelindi. Bir millatning mavjudligi uning tiliga naqar bog‘liq ekanligini o‘tgan davr va bugungi holat yaqqol ko‘rsatib turibdi. Ko‘plab joy nomlari o‘zbekchasi bilan almashtirilganiga chorak asrdan oshdi, ammo hali ham “Drujba narodov”, “Sorok let”, “Maksim Gorkiy”, “Naberejniy”, “Elektroapparat”, “Makaronka”, “Park-ozero”, “Solnechniy” kabi eski nomlar xalq tilida, muloqot jarayonida faol qo‘llanib turibdi. Bu nimani anglatadi? Bu til masalasi, xususan, joy nomlari, nihoyatda nozik masala ekanligini ko‘rsatib turibdi. Toponimlar insonlarning kichik va umumiy vatanlarini ifodalaydi, shuning uchun har bir toponim qo‘yilayotganda uning lug‘aviy ma’nosi, etimologiyasi, shu joyga mos xususiyatiga katta e’tibor berish lozim.

Joy nomlari tilshunosligimizda kam o‘rganilgan soha hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishda sanoqli olimlargina tadqiqot olib boradi. Bu bir davlat toponimlari tadqiqi uchun yetarli emas. Tilning yashab qolishi, avlodlarga yetib borishi uch asosiy faktorga bog‘liq: birinchisi – og‘zaki muloqot; ikkinchisi – lug‘atlar; uchinchisi – bu toponimlar orqali avloddan avlodga yetib boradi. Ammo bu jarayonda o‘z vaqtida ayrim kerakli chora-tadbirlar ko‘rilmasa, ilmiy tadqiqotlar kuchaytirilmasa, toponimlarning yashovchanligi kamayadi, ma’nosi tushunarli bo‘lmay mavhumlasha boradi. Buning birinchi sababi shuki, bugungi jamiyatimizda aholi orasida hatto ziyolilar o‘rtasida ham ko‘proq shevaga xos talaffuz ustunlik qiladi, shuning uchun ham ko‘plab joy nomlarining ma’nosi o‘zgarib ketgan. Agar muayyan hududda yashovchi kishilar o‘zlari istiqomat qilayotgan qishloq, tuman, yoki shahar nomlarini talaffuz qilishda bir tovushni noto‘g‘ri talaffuz qilsa ham o‘sha toponim ma’nosi o‘zgarib ketadi va bu yozma nutqqa ham o‘z ta’sirini o‘tkizib yozma hujjatlar, manbalarda ham xato qayd etilishiga olib keladi.

Biror kishi bilan tanishsangiz, doimiy so‘raladigan savollardan biri – qayerliksiz yoki qayerdansiz? kabilar bo‘ladi. Shunda mamlakatdan tashqarida bo‘lsangiz, davlat nomini, yurt ichida esa, viloyat, tuman, mahalla, ko‘cha, qishloq yoki hamma biladigan mashhur joy bo‘lsa, shularning nomlari keltiriladi. Baribir muloqotda asosiy tushunchalar qatorida turadi. Toponimlarning muhimligini yana shunda ko‘rish mumkinki, biror til o‘rganish jarayonida ham eng birinchi o‘rganiladigan so‘zlar joy nomlaridir.

Qisqasi, toponimlar sizning kichik va katta vataningizni anglatib turadi. Tuzumlar o‘zgarishi tarixga, ma’naviyatga, madaniyatga qanday ta’sir qilgan bo‘lsa, undan ham ko‘proq tilga, toponimlarga katta salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Uning asoratlari Chernobil voqealaridagi radiatsiya nurlanishlari kabi hali ham jamiyatga o‘z ta’sirini o‘tkazib kelmoqda. Mustaqillikdan so‘ng asosiy nomlar, xususan, tuman, jamoa xo‘jaligi, ko‘plab qishloq nomlari o‘zbek tilida qayta nomlandi, ammo hozir ham xoh shahar xoh tumandan kelgan talaba yoki o‘quvchi bo‘lsin, qayerliksan, deb, so‘rasangiz, Payariq tumani “Englis”, Urgut tumani “Pravda”, “Lenin”, “Oktyabr”, “Komunizm”, “Pushkin”,

“Jdanov”, “Ilich”, “Pobeda” va boshqa joy nomlari tilga olinadi. Demak, til masalasiga e’tiborli bo‘lish, ayniqsa, ommaga tez singib, juda sekin unutiladigan toponimlarni qo‘yishda yetti o‘lchab, bir kesish lozim.

O‘zbekistonda toponimikani rivojlantirish uchun, avvalo, mazkur sohadagi ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash kerak. Har bir fuqaro o‘zi yashab turgan ko‘cha, mahalla, tuman, shahar, viloyat va Respublika, shuningdek, millat va urug‘ nomi ma’nosini yaxshi bilishi, uning etimologiyasini – qanday kelib chiqqanligi, qanchalik tarixga egaligini bilishi shart. Buni ilmiy tadqiqotlar aniqlab beradi.

Zamon qanchalik, rivojlanib borayotgan bo‘lsa, til ham mazkur ijtimoiy jarayonlarni shunchalik tez o‘zida namoyon qilib bormoqda. Har bir millat o‘z ona tiliga mas’ul bo‘lishi naqadar muhimligi bugungi nomlash jarayonlarida ko‘rinadi. Muloqot jarayonida ko‘pincha manzil so‘ralganda o‘sha joy nomini, uning joylashgan o‘rnini bilmagan kishidan, mo‘ljal so‘raladi. Shunda masalan, "Next" dan o‘tgandan keyin, yoki oldin degan, javoblar olinadi.

Shu ma’noda, aytmoqchimizki, nufuzli obyektlarga nom qo‘yilganda ham milliylikka alohida e’tibor berishimiz lozim, aks holda, katta shaharlarda muhim joylar inglizcha nom olayotgan mo‘ljallarning nomi bilan atalmoqda. Masalan, “Akfa medlayn”dan o‘tib tushaman, “Aziya”ga yetmay tushib qolaman. “Megaplanet”da turaman. Mazkur mo‘ljalni ifodalovchi katta obyektlar bora-bora joy nomiga aylanib ketishi mumkinligini inobatga olish kerak.

Yana bir muhim masala bor. Bu – mavjud joy nomlarining o‘zbekcha talaffuzi va yozilishi tiklash. Aholi tomonidan “Aziya”, “Sergili”, “Sogdiana” kabi nomlar ruscha talaffuz va imloda hanuzgacha qo‘llanib turibdi. Qisqasi, bu borada bir qator muammolar o‘z yechimini kutmoqda. Shuningdek, “Beshkappa”, “Uchqo‘rg‘on”, “Qo‘tirbuloq”, “Kattaqo‘rg‘on”, “Sariqtepa”, “Kenagas” kabi aholi yashash punktlari, mahalla nomlari ko‘pchilikka tushunarli. Yaratilayotgan izohli, etimologik lug‘atlarda, asosan, “Nisbot”, “Urgut”, “Samarqand”, “Buxoro”, “Denov” kabi toponimlarning ma’nosi, kelib chiqish tarixi izohlab berilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mamlakat miqyosida toponimikaga doir mavjud muammolarni kuzatish, ilmiy-tahliliy o‘rganish asnosida quyidagi tavsiyalar shakllandi:

1. Toponimlarga milliy qadriyat, milliy boylik, millat tarixi va madaniyatini o‘zida mujassam qilgan, har bir fuqaroning yashash manzilini, hayot tarzini, milliy mentaliteti, shuningdek urf-odat va an’analarini anglatib turuvchi madaniy yodgorlik sifatida munosabatda bo‘lish.

2. Mamlakatning asosiy universitetlarida hududlar bo‘yicha toponimika bo‘yicha maqsadli magistratura va doktorantura yo‘nalishlarini tashkil qilish.

3. Uzluksiz ta’lim tizimida tegishli fanlar, xususan, ona tili, davlat tili, shuningdek, adabiyot fanlari darsliklariga O‘zbekiston toponimlari bo‘yicha, hamma o‘quvchi uchun muhim va qiziqarli ma’lumotlar, matnlar kiritish, shuningdek, toponimlarning talaffuzi va imlosiga alohida e’tibor ber lozimligi bo‘yicha takliflar yuborish.

4. Hozirda katta shaharlarda hammaga ma’lum bo‘lmagan toponimlar o‘rniga ishlatilayotgan mo‘ljalni ifodalovchi katta va nufuzli obyektlarning nomlanishini nazoratga olish lozim, chunki vaqt o‘tishi bilan bu mo‘ljalni ifodalovchi “Next”, “Magic city”, “Nestone” kabi nomlar toponimga aylanib qolish ehtimoli yuqori.

5. Toponimlarning izohli, etimologik va ensiklopedik lug‘atlari yaratilishi kerak, shu bilan birga kelajak avlodda o‘zlari yashab turgan joy nomlariga munosabatni o‘zgartiruvchi ilmiy-ommabop kitoblar, metodik qo‘llanmalar, o‘quv lug‘atlari yaratish shuningdek, tanlovlar tashkil qilish kerak.

Har bir kishi tug‘ilganidan boshlab ham hujjatlarda, ham ijtimoiy, ma’naviy hayotida o‘zi bilan umrining oxirigacha birga yuradigan joy nomlarini – toponimlarni avaylab-asrashi, qadrlashi kerak. Inson o‘zi tug‘ilib o‘sgan joy nomini eshitganda, o‘qiganda, yozganda nega entikib qoldi, chunki uning bolalik xotiralari, yoshligi, butun umri, vatan haqidagi his-tuyg‘ulari bir so‘zda mujassamdir. Har bir kishi toponimlarni muhofaza qilishi, targ‘ib qilishi, to‘g‘ri qo‘llanilishini nazorat qilishi kerak. O‘zi tug‘ilib o‘sgan joy nominining ma’nosini, kelib chiqish tarixini bilmaydigan, himoya qilmaydigan, o‘z sha’ni deb bilmaydigan kishi vatanparvar emas.

“HIBAT UL-HAQOYIQ” DOSTONI LUG‘AT TARKIBIDAGI SUG‘DCHA O‘ZLASHMALAR

Sindorov Lutfulla,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
O‘zbekiston Milliy universiteti
Jizzax filiali, lutfulla1803@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asaridagi ba’zi sug‘dcha so‘zlarning semalari, etimologiyasi yoritilgan. «Hibat ul-haqoyiq»dagi o‘zlashma qatlamga oid leksik birliklar qadimgi turkiy til va qoraxoniylar davri hamda XIV asr manbalarida qo‘llanilgan so‘zlar bilan qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Ahmad Yugnakiy, “Hibat ul-haqoyiq”, tashqi manba, sug‘dcha so‘zlar, sema, leksema, leksik birlik, qadimgi turkiy til.

Moddiy madaniyat va yozma manbalarga ko‘ra, Dashti qipchoq chorvador turklarining azaliy vatani bo‘lsa-da, u yerlarda yashagan hunn, usun, qarluq, chigil, arg‘un, tuxsi, kaltatoy, qangli, qirg‘iz, uyg‘ur, Oltoy turklari va ularning ajdodlari xu, di, rung hamda sak-skif qabilalari hech qachon bir joyda muqim yashamagan. Ular bepoyon turk tekisliklaridagina emas, balki O‘rta Osiyoning qadimgi dehqon jamoalari tomonidan o‘zlashtirilmagan daryo havzalari va cho‘llarida ham chorva mollarini boqib ko‘chib yurgan. Chorvadorlarning kambag‘al bo‘lagi har safar bu zaminda qolib ketgan va asta-sekin o‘troqlasha boshlagan. Bu jarayonning uzluksiz davom etishi natijasida O‘rta Osiyoning Amudaryogacha bo‘lgan hududlarida bronza davridan boshlab turkigo‘y qabilalar Turonzaminning tub joy aholisiga aylangan.

O‘rta Osiyo saklari, o‘z navbatida, buyuk kengliklarning Markaziy va Sharqiy Qozog‘iston, Tog‘li Oltoy, O‘rol, Yenisey va Urxun daryolari havzalarigacha kirib borganlar va u joylarning hukmron turkiy til muhiti ta’sirida bo‘ladilar. Demak, sak-skif qabilalariga xos ikki tillilik juda keng turk-sug‘diy etnomaydonda yuz bergan iqtisodiy va siyosiy hamda etnomadaniy jarayonlar mahsuli ekanligi haqiqatga yaqindir [1:62-63].

Sug‘dlar va turklar o‘rtasidagi aloqalarni VI asrdan boshlangan deb ko‘rsatish odat tusiga kirgan. Lekin sug‘d-turk munosabatlarini yanada qadimiy davrlardan qidirish

lozim. Bunda asosiy fikr turkiy xalqlarning Turonda azaliy aholi qatlami sifatida mavjud bo‘lganini tan olish, buni faktik materiallar bilan isbotlashga qaratilishi kerak. Bu o‘rtada Markaziy Osiyoda mil. av. III-II asrlardan boshlangan jadal etnomadaniy munosabatlar turkiy xalqlarning butun Dashti Qipchoq bo‘ylab, Xitoy devoridan Dunaygacha chiqib borishiga olib keldi. Sug‘dlar esa mil. av. IV-III asrlardan boshlab xalqaro savdo yo‘llari orqali Sharqqa kira borib, avvalo, O‘rta Osiyoda, qolaversa, Sharqiy Turkistonda turklar bilan faol munosabatga kirishib ketdi. IV asr 312-yilga mansub sug‘d maktublari majmuasi shundan dalolatdir. Arablar istilosidan keyin sug‘dlarning turklar bilan etnik yaqinlashuvi, aralashuvi yanada kuchaygan. Bu jarayon butun O‘rta Osiyoni qamragan va Sharqiy Turkistonda ham uzoq davom etgan. Masalan, L.I.Chuguyevskiy sug‘dlarning assimilitsiya qilinish jarayoni XIII asrda ham davom qilganligini hujjatlar asosida ko‘rsatib bergan [2:25-26].

Manbalarning guvohlik beruvicha, ilk o‘rta asrlarda sug‘d tili va yozuvining qo‘llanuv doirasi Sug‘d davlatidan chiqib, Marv, Shimoliy Boxtar va ulkan turk o‘lkalari – Choch vohasi, Farg‘ona, Yettisuv, hozirgi Sinjon yerlari va Markaziy Mo‘g‘ilistonga qadar yoyilgan edi. Bu, avvalo, O‘rta va Markaziy Osiyodan o‘tgan savdo karvon yo‘llari, xususan, ipak yo‘lida turklar bilan sug‘dlarning birgalikda olib borgan ishlari, shuningdek, uch diniy oqim – buddizm, moniylik va nasturiylikni yerli xalqlar, jumladan, turklar orasida yoyish yo‘lidagi sa’y-harakatlari bilan bog‘liq. Yana bir jihati, ayrim yurtlarda turk-sug‘d ikki tilliligi ham amal qilgan. XI asrda yashab o‘tgan tilshunos Mahmud Koshg‘ariyning yozishicha, Balasag‘un, Tiraz, Madinatul bayza shaharlarining xalqlari sug‘dcha va turkcha so‘zlaganlar. Ushbu fakt ikki masalaga e’tibor qaratishni taqozo etadi: birinchidan, bu o‘rinda shu o‘lkalarda ikki tilda so‘zlashuvchi ikki xalq yashaganligi ko‘zda tutilmoqda; ikkinchidan esa mazkur o‘lka xalqlarining (sug‘daq, kanjak, arg‘ularning) ikki tilliligi [5:10-11]. Anglashiladiki, ikki xalqning aralash istiqomat qilishi, o‘zaro hamkorligi, diniy e’tiqodi, mavjud ikki tillilik oqibatida so‘z almashish jarayoni yuz bergan. Ya’ni turklar tilida sug‘dcha, sug‘dlar lug‘at tarkibida turkcha leksemalar qo‘llanilgan [3:61-62]. Xususan, dostonda ačun (MK,I,106) so‘zi «dunyo, borliq» ma’nosida keltirilgan: Bu kün ačunda kišilik aziz – Bu dunyoning shu kunlarida kishilik naqadar aziz. Termin ilk marotaba Turfon matnlarida azun shaklida «mavjudlik, borliq» semasida ifodalangan: Öŋrä azundaqï qïlïnč – Mavjudlikdan oldingi faoliyat (DTS,74). «Qutadg‘u bilig» asarida mazkur ma’no ačun varianti orqali ochiladi: Bu tüš tek ačuntïn özüŋ tärk köčär – Bu tushdek dunyodan tez orada ko‘chasan (DTS,74). Ahmad Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq» asarida «hayot, yerdagi hayot» ma’nosida ham qo‘llanilgan: Baqasïz erür bu ačun lazzatï – Bu dunyo lazzati bebaqo. «Tafsir»da so‘zning ajun (40b7), ačun fonetik variantlari ko‘zga tashlanadi: Tilärsizlär dunyānïŋ bezäkini ya’ni ačunnï (3,2). «Muhabbatnoma»da ačun (292a6), «Xusrav va Shirin»da ajun (33b10) shakllari kuzatiladi. O‘rganilayotgan manbada turkiy barlïğ, arabcha dunyā leksemalari ham «borliq, dunyo» semasini anglatgan: Seniŋ barlïğïŋğa tanuqluq berür; Bu dunyā soŋïda yügürmäk nečä. Dunyā o‘zlashmasi «yaqin bo‘ldi, yaqin joyda joylashdi» ma’nosini anglatuvchi danā fe’lidan hosil qilingan (ҮТЭЛ,II,112).

Dostonda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalar orqali hamda jamiyat hayotining turli sohalarida yuz bergan o‘zgarishlar natijasida yuzaga kelgan yangi tushunchalarni ifodalash uchun sanskrit, sug‘d, xitoy, arab, fors tillaridan

o‘zlashgan so‘zlarning aksariyati monosemantik leksemalar hisoblanadi. Asarda qayd etilgan o‘zlashma qatlamga oid leksik birliklar bilan qadimgi turkiy til va qoraxoniylar davri manbalarida qo‘llanilgan so‘zlar qiyosiy tahlil qilinganda shu narsa ma’lum bo‘ldiki, aksariyat istilohlar o‘zining tub ma’nosida uchraydi.

MANBALAR:

DTS – Древнетюркский словарь. –Л.: Наука, 1969. –676 с.

MK – Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталлибов. I-III. –Т.: Фан, 1960-1963. Т. I. 1960. –499 б., Т. II. 1961. –427 б., Т. III. 1963. –461 б.

ЎТЭЛ – Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. II (араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар). –Т.: Университет, 2001. –599 б.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. –Т.: Университет, 2007.
2. Исоқов М., Содиқов Қ., Омонов Қ. Мангу битиклар. –Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2009.
3. Исхаков М. Элементы согдийского языка в современном узбекском языке // Историко-культурные контакты народов алтайской общности: XXIX сессия PIAC. –Т.: 1986. II. Лингвистика. –М.: Наука, 1986.
4. Маҳмудов Қ. Аҳмад Югнакийнинг «Ҳибатул ҳақойиқ» асари ҳақида. кириш, фонетика, морфология, матн, транскрипция, шарҳ, луғат. –Т.: Фан, 1972.
5. Содиқов Қ. Буюк ипак йўли ва илк ўрта асрларда Марказий Осиёда кечган тарихий-маданий жараёнлар // Туркшунослик тадқиқотлари. Биринчи китоб. –Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2009.

QIZILTEPA TUMANI BA’ZI JOY NOMLARINING TAHLILI TAVSIFI

G‘aniyev Nurbek,
PhD, dotsent v.b.,
Navoiy davlat konchilik va texnolgiyalar universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qiziltepa tumani toponimlari va ayrim onomastik birliklarning etimologik tahlili doirasida olib borilgan tadqiqotlar natijalari va ilmiy xulosalar asosida joy nomlarining etimologik tahlili muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: toponim, etimologiya, onomastik etimologiya, onomastik leksika, sinonimlar, etimologik tahlil

Ilm-fan mavjud ekanki, borliq va jamiyat hodisalarini muayyan ilmiy me’yor, mezonlar asosida tasniflaydi, talqin etadi hamda ilmiy tahlilga tortadi. Xuddi shu o‘rinda toponimlarining areal va tarixiy tahlili, o‘zbek etnogenezi hamda etnik xususiyatlarini o‘rganishning tarixiy, lisoniy, kognitiv, semiologik, onomastik, ma’lum qatlamga mansub birliklarning lisoniy, etimologik, kognitiv, etnografik-tarixiy xususiyatlari tadqiq etilgan muayyan hududlar toponimlarining ma’lum maqsadlaridan kelib chiqib tuzilgan

tahlil-tavsiflari amalga oshirilgan. Biz ushbu materialda etimologiya to‘g‘risida qisqa fikr yuritish hamda onomastik etimologiya to‘g‘risida to‘xtalishni o‘rinli, deb hisobladik. Bu ikki masala doirasida sodda, qo‘shma etnotoponim va oykonimlarning etimologik tahliliga, aniqrog‘i, toponimik tahlilning bir turiga kiritishni maqsadga muvofiq deb bildik.

Etimologik tahlil orqali tahlilga tortilgan so‘z yoki toponimning qadimiy ifodasi, kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyot jarayonlaridagi tarkibiy o‘zgarishlari, qadimiy va hozirgi zamon ifodasidagi ma’nolarining tushunilishi, ularning etimonlari aniqlanadi. V.Pizani, A.Abdurahmonov, E.V.Sevortyan, L.S.Levitskayalar bu sohada bir qator tadqiqotlarni amalga oshirgan bo‘lsalar, E.Murzayev etimologik tahlilda toponimlarning kelib chiqishi va ma’nosini tushuntirish zarurligini aytib o‘tgan. [Murzayev, 1974: 78-79.]. Tilshunos olim A.Hojiyev etimologiya va etimologik tahlil haqida shunday deydi: «Etimologiya tilshunoslikning bir bo‘limi, etimologik tahlil esa so‘z hamda toponimlarning kelib chiqishini tarixiy taraqqiyotda ko‘rsatadi» [Hojiyev, 2002: 136], professor T.Enazarov: «Etimologiya va etimologik tahlil haqidagi amalga oshirilgan ham amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar o‘zbek tilshunosligida ham bor, degan fikrni bildirib o‘tadi. Bu haqida T.Enazarovning doktorlik dissertatsiyasida mukammal ma’lumot berilgan.

Mavjud ma’lumotlarga tayangan holda, toponimik tahlilni xalqonalik va ilmiylik nuqtayi nazaridan xalqona va ilmiy toponimik guruhga bo‘lishimiz mumkin.

Bugungacha toponimlarning tavsifiy, ensiklopedik, lingvistik, geografik va tarixiy tahlillari amalga oshirilgan. Bu tahlillar asosida muayyan sohalar va mavzular nuqtayi nazaridan onomastik tahlili amalga oshirilganda, tahlil etilayotgan toponim haqida oxirgi asosli va ishonchli fikr-mulohazalarning berilmaganligida yoki turli-tumanligidadir, degan qarashlarni yuzaga keltiradi. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, toponimik tahlil negizida, albatta, etimologik tahlil yotadi. Chunonchi, toponimlarning har qanday tahlili toponimik tahlil ichida o‘z ifodasiga ega hisoblanadi.

Har bir etnotopooykonim ham boshqa toponimlar singari tilning fonetik, leksik hamda morfologik imkoniyatlariga oid, biroq unutilgan noyob lisoniy va onomastik xususiyatlarini hamda «inson va uning faoliyati bilan bog‘liq ijtimoiy-siyosiy, tarixiy va sotsial jarayonlarning taraqqiyoti» ni ifodalaydi. [Sa’dullayev, 1996: 41-98]. Abu Rayhon Beruniy, A. Narshaxiy, Mahmud Koshg‘ariy kabi allomalar o‘zlari yashagan davrdagi ba’zi bir joy nomlarini o‘zlari yashagan hududdagi ilm-fan taraqqiyoti saviyasida turib ilmiy izohlashga intilishgan. [Hasanov,1981: 262]

Toponimiya doir ilmiy tadqiqotlar lisoniy, tarixiy, geografik tavsifdan ilmiy izohli tavsif hamda ilmiy etimologik tasnifga qarab borganligini shu sohaga oid e’lon qilinayotgan ilmiy adabiyotlar, shuningdek, amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning mazmun va mohiyatidan, to‘g‘rirog‘i, ularning ilmiy nuqtayi nazardan yangilanib, takomillashib borayotganligidan bilish mumkin. Ularning ba’zi birlarida toponimlarning etimologik tahliliga birmuncha to‘xtalingani, ularning etimologik tadqiqi usullariga e’tibor qaratilmaganligi sababli, joy nomlarining etimologik tahlili dalillarining ozligi tufayli mukammal darajada deb bo‘lmaydi.

Etimologiya va etimologik tahlil turlari tadqiqotlari masalasi o‘zbek tilshunosligida olimlar A.Fulomov, F.Abdullayev, Sh.Rahmatullayev, E.Fozilov, A.Ishayev, B.Bafoyev kabilarning tadqiqotlarida u yoki bu darajada qayd etilgan. B.O‘rinboyev, E.Begmatov va

S.Qorayev, T.Enazarovlar toponimlarning tadqiqida ham «etimologik tahlil» zarurligini qayd etishgan, tadqiqning nazariy asoslari to‘g‘risida ba’zi bir fikrlarni bildirib o‘tishgan.

Xalq etimologiyasiga oid holatlarning badiiy asarlar matnida uchrashini I.Toshaliyev bayon qilgan. [Toshaliyev,1979: 38-50]. Ushbu etimologiya uslubiy (stilistik) talablar bo‘yicha va ijodiy maqsadga muvofiq amalga oshiriladi. Badiiy etimologiyadagi xalqona hamda ilmiy etimologik tahlil qilish xususiyatlari publitsistika va badiiy ijodda ilmiy usul, vositalar vazifasini bajaradi. Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish kerakki, toponimikada ham xalqona etimologik tahlil borligi tabiiydir.

Etimologik tahlil masalasida shuni alohida ta’kidlash kerakki, joy nomlari etimologiyasiga aniqlik kiritishda geografik terminlarining ahamiyatiga e’tibor qaratish lozim. Chunonchi, E.Murzayev: «Har qanday toponimik tadqiqot geografik terminlarni o‘rganishdan boshlanishi kerak. Geografik nomlarning etimologiyasini tahlil qilishda terminlar bilimdon qo‘lida bebaho xazinadir» deb ta’rif beradi. [Murzayev, 1979: 166]

Toponimist olim S.Qorayev geografik terminlarning olti turini alohida qayd etib o‘tadi hamda ularning toponimlar etimologiyasini aniqlashdagi o‘rniga yuksak baho bera turib, ularni tabiiy geografiyaga oid terminlar, ijtimoiy-iqtisodiy sohalar doirasidagi terminlar, kasb-hunarga oid, kishilarning laqablari, familiyalaridan kelib chiqadigan geografik nomlarga doir xalqona terminlar, kishilik jamiyatining turli rivojlanish bosqichlarida vujudga kelgan urug‘, qabila, elat, xalq, millat kabi etnik birliklar nomlari, geografik nomlardan paydo bo‘lgan toponimlar – topotoponimlar kabi turlarga ajratadi.

Etimologik tahlil tadqiqi yuzasidan etakchi tadqiqotchilarning izlanishlari natijasida hudud toponimlari, ya’ni oykonimlari va so‘zlarining etimologik tahlillaridagi farqlarga e’tibor bersak, tadqiq etilgan hudud oykonimiyasi tizimidagi ba’zi bir obyekt nomlarining etimologik tahlillari tushunarli va ishonarli bo‘lishi aniq. So‘zning etimologik tahliliga O‘TELda namunalar berilgan. [Rahmatullayev, 2000:248].

Demak, so‘z hamda o‘rganiladigan oykonimlarning (umuman, toponimlarning) etimologik tahlillarining bir-biridan farqlanib qo‘llanilishi amalga oshirilayotgan tadqiqotlarning takomillashuviga imkoniyat yaratib beradi. Shuningdek, oykonimlar yuzasidan amalga oshirilgan etimologik tahlillar ilmiy toponimik tahlilning mukammal ko‘rinishlari sifatida namoyon bo‘ladi.

Qiziltepa tumani hududiga oid oykonimlarning topogrammatik tomondan sodda va qo‘shma oykonimlardan bir qanchasining etimologik tahlili borasida quyidagicha to‘xtalib o‘tdik.

Mamlakatimizning barcha hududlari uchun keng iste’molda bo‘lgan mahalla, qishloq va ko‘cha terminlari haqida quyidagicha izoh berildi.

Mahalla – ko‘pchilik bu so‘zning vujudga kelishi va takomillashuvi juda qadim tarix sahifalariga borib taqalishi haqida so‘z yuritishadi. «Mahalla» atamasining kelib chiqishi ham qadim tarixga borib taqaladi va u arabcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilidagi «joy» ma’nosini bildiruvchi «mahallun» so‘zidan kelib chiqqan.

U turli hududlarda mahallot (joy), guzar, jamoa, elat shaklida atalib kelingan. Ammo mahalla, nafaqat tarix, balki bugungi va ertangi kunimizni ham tutashtirib turuvchi maskan hisoblanadi. Shu bilan birga mahalla milliyligimiz timsoli hamda qadriyatlar va urf-odatlarni avloddan-avlodga etkazuvchi ijtimoiy-madaniy makon sifatida xizmat qiladi. O‘rganilgan hudud aholisi tomonidan mahalla tushunchasi

muayyan aholi punktlarining yig‘indisini tashkil etgan ma’muriy tuzilma sifatida anglashiladi. Mamlakatimizning ko‘pgina hududlari so‘zlashuvida «mahallani to‘pla», «mahallaga osh beramiz» kabi jumlalar ko‘p qo‘llanadi. Vaholanki, o‘rganilgan hudud aholisi so‘zlashuvida mahalla tushunchasi tor ma’noda, ya’ni idora tuzilmasi shaklida tushuniladi. Masalan, «mahallani to‘pla» – «qishloqni yoki odamlarni to‘pla», «mahallaga osh beramiz» – «qishloqqa osh beramiz» shaklida ishlatiladi. Bu hududning dialektal xususiyatidan kelib chiqadi.

Mahalla – bu arabcha so‘z *mahallãt (un)* shakliga ega; o‘zbek tiliga hoyi hutti undoshini *h* undoshiga, uchinchi bo‘g‘indagi cho‘ziq *a* unlisini *a* unlisiga almashtirib, so‘z oxiridagi *t* tovushini tashlab qabul qilingan: *mahallãt* > *mahalla*; asli halla fe’lining «istiqomat qildi» ma’nosi bilan hosil qilingan mahall(un) masdarining *–ãt (un)* qo‘shimchasini olgan shakli bo‘lib, arab tilida «kvartal» ma’nolarini anglatadi; o‘zbek tilida bu so‘z «shaharning aholi yashaydigan ma’lum bir qismi» ma’nosini anglatish uchun ishlatiladi. [Rahmatullayev, 2003:260]

Qishloq – nomi ikki qismdan iboratday tuyuladi, biroq bir butun so‘z. U tarixan uchta ma’noli bo‘lakdan tashkil topgan: qishloq (qish+la+q), shuningdek, bu nom orqali qadimda qishlaydigan joy ma’nosi anglashiladi. Vaqt o‘tishi bilan so‘zning –loq komponenti tarixiy taraqqiyot natijasida ma’no ifodalash sifatini yo‘qotgan bo‘lib, qish so‘zi tarkibining bir butun bo‘lagiga aylangan va qishloq so‘zi apellyativ leksik birlik sifatida qo‘llanila boshlangan. -loq formanti o‘rin-joy ma’nosini anglatuvchi qo‘shimcha qatoriga o‘tgan. Onomastik leksika sathidagi Qishloq nomi bir butun so‘z sifatida obyektning nomi sanaladi.

Shuningdek, -loq qo‘shimchasining XVII-XVIII asrlarda makon yasovchi affiks ekanligi Fatx Alixonning «Kitobi lug‘ati atrokiya» asarida ko‘rsatib o‘tilgan. Demak, apellyativ leksikadagi qishloq nutqda turli qo‘shimchalarni qabul qilgan holda faol qo‘llanadigan so‘z hisoblanadi. Qishloq so‘zi qadimda aholining qishlaydigan joy ma’nosini anglatgan. Uning etimoni qishda yashaydigan joy ma’nosidagi qishlog‘ // qishloq so‘zi hisoblanadi.

Ko‘cha – bu ko‘rsatkich joy nomi sifatida aholi punktlarining muayyan qismlarini nomlash uchun ham qo‘llanilgan. Hozirgi mavjud turkiy tillarning ko‘pchiligida ko‘cha – binolar orasidagi o‘tish yo‘li va yo‘laklarini hamda bo‘shliq, makon ma’nolarini ham ifodalab keladi. Eron tillarida ham bu so‘z «oraliq yo‘llar» ma’nolariga ega. Ko‘cha topoindikatori oykonimik xarakterdagi ko‘rsatkichdan biri hisoblanadi. Shuningdek, tilimizdagi «*ko‘chmoq*» so‘zida ham bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga o‘tish (yo‘l, yo‘lak orqali) ma’nosi sezilib turadi. Tadqiq etilgan hududda ko‘cha so‘zi, kishilarning xususiy mulki hisoblangan bino maydoni tashqarisidagi barcha foydalanadigan makon, o‘tish joylari, yo‘llarni nazarda tutadi. Ko‘cha toponimi bilan ko‘chmoq so‘zi qisman bo‘lsa ham, bir-biriga ma’no jihatdan yaqindir. Ko‘cha toponimi bir o‘rinda joy nomi bo‘lsa, zero, yo‘l, yo‘lak, ko‘cha kabi dromonimlar toponimning alohida turini hosil qiladi. Boshqa bir o‘rinda esa ko‘cha dromonimi toponimik indikator (quyi ko‘cha, yuqori ko‘cha) vazifasini bajaradi.

Xullas, oykonimlardan ba’zi birlarining etimologik tahlili, tuman oykonimlarining nomlanishi umumturkiy va fors-tojikcha nomlash tizimining ajralmas bir bo‘lagi ekanligida, oykonimlarning topoasoslari turkiy, fors-tojikcha, qisman boshqa tillar

leksemasida shakllanganligida hamda ular tarixiy jarayonlarning mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi.

Qatag‘on – qishloq (Navoiy v. Navbahor tumani, Xatirchi Qiziltepa tumanlari, Namangan v. Namangan tumani, Samanqand v. Ishtixon, Payariq, Urgut tumanlari, Qashqadaryo v. Shahrisabz, Yakkabog‘ tumanlari, Xorazm v. Shovot tumani). – Samarqand viloyatining Ishtixon tumanida Ravotqatag‘on degan aholi punkti bor. Qatag‘an o‘zbeklar tarkibiga kirgan yirik qabilalardan biri. Qatag‘onlarning asosiy qismi Afg‘onistonning Qatag‘on viloyatida yashaydi. Markaziy Osiyoda qatag‘onlar Tojikistonda (Quyi Vaxsh, Yaxsuv vodiylari, Panj daryosining o‘ng sohili, Qo‘rg‘ontepa shahridan) va qisman Janubiy O‘zbekistonda qayd qilingan.

Qiziltepa tumani Demas mahallasi hududidagi Qatag‘on qishlog‘i nomi o‘zbek xalqining shu nomdagi urug‘i nomi bilan bog‘liq. Bu qishloqda qatag‘onlar avlodi yashagani haqida ma’lumotlar bor.

Mang‘it – toponimning kelib chiqishi to‘g‘risida bir necha taxminlar bor.

1. Turkiy qabilalardan birining nomi bo‘lib, onomastik konversiya tufayli shakllangan. A.Ishayev bu etnonimning kelib chiqishini mingta ot ma’nosida qo‘llanuvchi «mang+at» birikmasiga bog‘lab, turkiy etnonimlardan biri ekanligini qayd etgan. [Ishayev,1958: 63-65].

3. Mang‘it – qabila. «Mang‘itlar Zarafshon vohasi, Qarshi atroflari, Xorazm vohasida, Jizzax atroflarida yashaganlar va *oq mang‘it, qora mang‘it, ala mang‘it, temirxo‘ja, isoboy, gaulak, ko‘sa, toz, qorabayir, baqiri, kula tamg‘ali, mang‘it qozoq, o‘n ikki, cho‘qay, galabotir,beshkal, chobakchak, uz, uvolay* kabi urug‘larga bo‘lingan». [Qorayev, 2009: 59].

4. T.Nafasov va Z.Do‘simovlarning ta’kidlashlaricha, «Mang‘it – ming, ming ot, mang ot ma’nolarini ifodalaydigan so‘z. Vaqt o‘tishi bilan ming ot yoxud mang+at (ot) birikmalari bir so‘zga aylanib ketib, mang‘it atamasi yuzaga kelgan».

Mang‘it atamasi etnotoponim bo‘lib, hozirgi kunda ham joylarga nom sifatida ishlatilmoqda: mang‘it > Mang‘it. Ming + ot yasalishi tufayli yasalgan mang‘it so‘zi etnonimlashuv jarayonini boshdan kechirib, etnonimga aylangan: ming-ot > mingat > mangat > mangit > Mang‘it. Ma’lum bir vaqt o‘tgandan so‘ng mang‘it urug‘i vakillari yashagan joy ma’nosini ifodalab turish uchun bu etnonim onomastik konversiya tufayli toponimga ham ko‘chgan: mang‘ + at >mang‘it > Mang‘it. Bulardan ko‘rinib turibdiki, mazkur joy nomi quyidagi tarzda qoliplashgan: apellyativ leksika > onomastik leksika > etnonim > toponim. [Enazarov, 2019:93-94].

G‘amxo‘r – bu sifat tojik tilida «ruhiy azob» ma’nosini anglatadigan arabcha *g‘am* otiga (ARS, 570) «tarqat» ma’nosini anglatadigan tojikcha *xoridan* fe’lining *xor* hozirgi zamon asosini (TjRS, 427) qo‘shib hosil qilingan bo‘lib, tojik tilida *g‘amxor* va *g‘amxo‘r* shakllarida aytiladi (TjRS, 477); o‘zbek tiliga keyingi shakli olingan; «qayg‘uni tarqatuvchi» ma’nosini anglatadi (O‘TIL, II, 651). «Bu sifatdan o‘zbek tilida *g‘amxo‘rlik* oti yasalgan». [Raxmatullayev, 2009: 274].

Demak, bu toponim apellyativ leksikadagi qayg‘uni arituvchi ma’nosidagi g‘amxo‘r so‘zining toponimlashuv jarayonida onomastik leksika sathiga o‘tishidan yuzaga kelgan.

Naymancha – qishloq. Nayman – o‘zbek urug‘laridan birining nomi. Rashididdin «Jome’at tavorix» asarida «Nayman qadimgi kuchli qabilalardan biridir. Uning bir qancha tarmoqlari bor», deb yozgan. [Rashid-id-din, 1960: 176].

Nayman so‘zi mo‘g‘ulcha bo‘lib, nayman «sakkiz» degan ma’noni bildiradi. N.Aristov, «Nayman so‘zi Nayma daryosi (Katunning bir irmog‘i)ning nomi bilan bog‘liq. toponim daryoning nomi asosida vujudga kelgan», deydi. [Aristov, 1896: 87].

«Nayman so‘zi bilan bog‘liq bo‘lgan toponimlar O‘zbekistonning barcha viloyatlarida uchraydi». [Do‘simov, Egamov, 1977: 104].

Nayman – o‘zbek urug‘laridan birining nomi. Lug‘aviy ma’nosi «sakkiz» degan so‘z. O‘zbekistonda, xususan, Samarqand viloyatida Naymon, Naymoncha, Qoranayman, Ravatnaymancha kabi qishloqlarni ko‘plab uchratish mumkin. [Qorayev, 1970: 86].

Vaxmkor – mamlakatimizning bir qator viloyat va tumanlarida Vaxm, Vaxmkor shakllarida uchraydigan qishloq nomi.

Vaximkor – mazkur toponimlar o‘tmishda qo‘llangan vaqf termini asosida yuzaga kelgan. Vaqf so‘zi arabcha bo‘lib, «din yo‘lida ajratilgan mol-mulk» degan ma’noni anglatgan. (Islom. Spravochnk. Toshkent, 1986, 61-b.). Vaqf qilingan yerlarda tashkil topgan qishloqlarning ba’zilari yuqoridagi kabi Vaxim deb atalib ketgan. [Oxunov, 1994: 13-14].

Vaxm arabcha vaqf so‘zining mahalliy xalq tilidagi talaffuzidir: vaqf > *vaxf* > vaxm > Vaxm, ya’ni so‘zda oldin q undoshi x undoshiga almashgan. So‘ngra lab-tish f undoshi talaffuz jarayonida lab-lab m undoshiga o‘zgargan. Vaqf «turish, turoq, qo‘zg‘almas, din va xayrli maqsadlar yo‘lida ajratilgan mol-mulk» degan ma’nolarni ifodalaydi. [O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2006: 451].

Musulmon dinining shariat qoidalariga muvofiq, davlat va ayrim kishilar tomonidan din va xayrli maqsadlar yo‘lida ajratilgan mol-mulk vaqfdir. Ko‘pincha ekinzor yer, kanal, ariqlar vafq mulk deb e’lon qilingan va shu nom bilan yuritilgan. Demak, oykonim apellyativ leksikadagi o‘zlashgan so‘zlardan tanlangan va onomastik leksika sathiga o‘tib, joy nomi bo‘lib kelmoqda: *vaxm* > *vaxim* > Vaxim. Uning etimoni o‘zlashgan va «turish, turoq, qo‘zg‘almas, din va xayrli maqsadlar yo‘lida ajratilgan mol-mulk» degan ma’nolarni anglatadigan vaxm so‘zi sanaladi.

«-kor (-gar,-gor,-kar)» komponenti. Tojik tilidan kirgan; kasb egasi, mutaxassislik, mashg‘ulot bilan bog‘liq bo‘lgan shaxs oti yasaydi: paxta/kor, bino/kor, xalos/kor, xizmat/kor, da’vo/gar, durad/gor, mis/kar kabi.

Tojik tilidagi kor so‘zini o‘zbek tiliga tarjima qiladigan bo‘lsak, ish, mehnat ma’nolarini anglatadi. Mehnat qilish ma’nosidan kelib chiqib aytish mumkinki, vaqf yerlari hududida joylashgan va unda ishlab kun kechiradigan aholi yoki aholi punkti Vaxm, Vaxim, Vaxmkor yoki Vaximkor sifatida xalq tomonidan atalib kelingan. Shu tariqa oykonim hosil bo‘lgan.

Mayta – Besh jildli «O‘zbek tilining izohli lug‘ati» 2-jild 530 sahifasida «Mayta» so‘ziga «Qo‘riq, bo‘z yer» deb tasnif berilgan. Ayrimlar «mayta» so‘zini «mayyit» shaklida ifoda etishadi. O‘sha lug‘at 2-jildi 528-sahifasida «may(y)it» so‘zi «o‘lik, jasad, murda» shaklida ifodalanadi.

Mayiton – arabcha topoasosga fors-tojikcha –on topoformanti birikuvidan hosil bo‘lgan *mayit* > *on,* assimilyasiya natijasida *mayito* shakliga kirgan va tovush almashishi

mayit>o>a (hududda o‘zbek va tojik tilida gaplashuvchi etnik tarkib mavjud) oqibatida Mayta shaklini olgan Toponimist A.L.Xromov fikricha, –on affiksi Matcha (Mastchon) shevalarida, shuningdek, barcha tojik shevalarida kam ishlatiladi. Shu affiksli toponimlar ancha qadimiy hisoblanadi. Hozirgi vaqtda –on o‘rniga ko‘proq –o (ho) (arabon-arabo) ko‘plik qo‘shimchasi qo‘llaniladi. [Qorayev, 2006: 9].

Emakti – qishlog‘i M.Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarining 54-sahifasida *etmak* so‘zi *non* ma’nosida beriladi; shuningdek, asarning 129-sahifasida *er etmaklandi – kishining noni ko‘paydi* ma’nosida beriladi.

Etmäkchï – novvoy. Demak, novvoy ma’nosidagi mazkur so‘z non tushunchasini anglatuvchi etmak asosiga -chi affiksi qo‘shilishidan yasalgan. Bu kasb-hunar nomi eski o‘zbek tilida ham, xususan, Alisher Navoiy asarlarida ham *itmakchi* fonetik variantida qo‘llanganligini ko‘rishimiz mumkin: *Itmakchi tanuri andin qiziq, allof bozori andin issiq.* [Alisher Navoiy, 1998: 35]. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida esa etmakchi//itmakchi qo‘llanmaydi, arxaik so‘z hisoblanadi. Demak, bu so‘z aslida etmakchi shaklidan fonetik o‘zgarishlar asosida emakti shaklini olgan: etmakchi>*emakti*>*Emakti*. Demak, bu toponim apellyativ leksikadagi novvoy ma’nosidagi *etmak (itmak*) so‘zining toponimlashuvi jarayonida onomastik leksika sathiga o‘tishidan yuzaga kelgan. Qishloq o‘tmishiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bu yerda qadimdan kishilarning novvoylik bilan mashg‘ul bo‘lganligining guvohi bo‘lamiz.

Yuqorida hududdagi ba’zi bir sodda oykonimlarning etimologik tahliliga to‘xtalindi. Ularning shakllanishi, asosan, sodda, ba’zan apellyativ leksikada yasama bo‘lgan holda onomastik leksikada esa bir butun nomning o‘zi to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Sodda oykonimlarning etimologik tahlilida nom uchun tanlangan so‘zlar toponimlashuv jarayoni tufayli, ya’ni oykonimik obyektlarga nom bo‘lgan. Bunday oykonimlardan ba’zi birlarining etimologik tadqiqi shunday obyektlarning tarixiy taraqqiyoti etnonim va gidronimik terminlardan shakllanganligini tasdiqlaydi. Ularning etnonim hamda gidronimik nomlardan shakllanganligi ham tuman oykonimlariga xos soddalik xususiyatlarini mukammallashtirgan.

Shuningdek, ikki topoasosning birikib, bir butun so‘z ko‘rinishidagi toponim bo‘lib kelishi qo‘shma toponimlar hisoblanadi. Ular Qiziltepa tumani oykonimlari tizimida uchraydigan topogrammatik hodisalardan biri. Bunday toponimlar boshqa hududlarda uchragani singari tadqiq etilgan hudud oykonimiyasi tizimida ham ancha faol holda uchraydi. Oykonimlar tizimidagi bunday nomlarni topogrammatik, xususan, topooykonimik nuqtayi nazardan qo‘shma oykonimlar deyish o‘rinli.

Quyida shu hududda uchragan ba’zi bir qo‘shma toponimlarning etimologik tahliliga kirishamiz.

Duobdurun – ushbu joy nomi tojikcha uchta asosdan hosil bo‘lgan. N.Oxunovning ma’lumotiga qaraganda, “Duob” toponimiga izoh berar ekan, unda ushbu joy nomi tojikcha du – ikki, ob – suv so‘zlarining birikuvidan yasalganligini, ikki suvning qo‘shilgan joyi *duob* deb yuritilishini ta’kidlaydi. Duob so‘zi turli joylarda har xil shaklda, jumladan, Duoba, Dug‘ob, Dug‘oba ko‘rinishlarida ham uchraydi, deb ta’rif beradi.

Duobdurun toponimi esa *du - ikki, ob – suv, durun – ichkari* so‘zlarining birikuvidan yasalgan bo‘lib, *ikki suvning ichkariga tarqaladigan joyi* degan ma’noni beradi.

Qiziltepa – qizil – «qon rangidagi, «alvon». Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan bu sifat asli «qizil tus ol -» manosini anglatgan qыz fe’lidan –(ы)l qo‘shimchasi bilan yasalgan; keyinchalik ы unlilarning qattiqlik belgisi yo‘qolgan: qыz-+ыl= qыzыl-qizil.

Tepa – «do‘ng joy». Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan bu ot asli *töpa, töpu* tarzida talaffuz qilingan (DS, 580); o‘zbek tilida *o* unlisi *e* unlisiga almashgan; *töpa – tepa*. Bu so‘z oxirida a, o‘ qismi asli leksema yasovchi qo‘shimcha, lekin manbalarda *töp* – fe’li o‘z aksini topmagan. [Rahmatullayev, 2000: 331].

Qiziltepa Navoiy viloyatidagi tuman, qishloq. Qizil rangli, qizg‘ish tuproq (qum)li tepalik yonidagi qishloq. [Nafasov, 2007: 49].

Qiziltepa atamasi toponim bo‘lib, hozirgi kunda ham joylarga nom sifatida ishlatilmoqda: qizil + tepa > qiziltepa > Qiziltepa sifat + ot birikuvidan qo‘shma asosli toponim yasalgan.

Demak, etimologik tahlil masalasida shuni alohida ta’kidlash kerakki, joy nomlari etimologiyasiga aniqlik kiritishda toponimik terminlarining ahamiyatiga e’tibor qaratish lozim bo‘ladiki, bunda so‘z hamda o‘rganiladigan toponimlar etimologik tahlilining bir-biridan farqlanib qo‘llanilishi, amalga oshirilayotgan tadqiqotlarning takomillashuviga imkoniyat yaratib beradi. Shuningdek, toponimlar yuzasidan amalga oshirilgan etimologik tahlillar ilmiy toponimik tahlilning mukammal ko‘rinishlari sifatida namoyon bo‘ladi.

Toponimlarning etimologik tahlili mamlakatimiz toponimiyasining ham farqli, ham o‘xshash jihatlari, ularning unutilgan va yashirin ma’nolari borligini ham anglatishi bilan bir qatorda, ma’lum bir ma’noda xalqlar do‘stligining o‘ziga xos jihatlarini, urug‘-qabila, xalq etnonimlarining ommaviy hamda keng tarqalishini, tadqiq etilgan oykonimlarning tarixiy taraqqiyotda muhim rol o‘ynashini ham anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мурзаев Э.М. Очерки топонимики. –Москва: Мысль, 1974. –С.78-79.

2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. –B. 136.

3. Sa’dullayev A. Qadimgi O‘zbekiston ilk yozma manbalarda. –Toshkent: O‘qituvchi, 1996. –B. 41-98.

4. Hasanov H. Beruniy asarlarida toponimika // Beruniy va ijtimoiy fanlar. –Toshkent: Fan,1972. –B.125-128; Hasanov H. Sayyoh olimlar. –Toshkent: O‘zbekiston,1981.-B. 262.

5. Toshaliyev I. Xalq etimologiyasiga doir ba’zi kuzatishlar // O‘zbek tilida so‘z yasalishi. Ilmiy ishlar to‘plami. 608-son. -Toshkent,1979. –B.38-50

6. Мурзаев Э.М. География в названиях. - М.: “Наука”, 1979. – С.166.

7. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. –Toshkent: Universitet, 2000. –B.248.

8. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (arab so‘zlari). –Toshkent, 2003. –B. 260.

9. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (turkiy so‘zlar). –Toshkent., 2000. –B.331.

10. Ishayev A. Mang‘it so‘zining etimologiyasi haqida // O‘zbek tili va adabiyoti masalalari jurnali. –Toshkent: Fan, 1958.2-son. – B.63-65.
11. Qorayev S. Yer tilining kaliti. Qisqacha lug‘at. –Toshkent, 2009. –B.59.
12. T.Enazarov va boshqalar. O‘zbekiston joy nomlarining etimologik lug‘ati toponimlar tilsimi. -Toshkent: Nodirabegim, 2019. – B.93-94.
13. Raxmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. – Toshkent: Unversitet, 2009. –B. 274.
14. Рашид-ид-дин, Сборники летописей, –Ташкент, 1960. –С 176.
15. Аристов Н. Заметки об этнеческом составе тюрских племен и народностей и свединия об их численности // отд. Оттис из “Живой страна”. –Москва,1896. –С 87.
16. Do‘simov Z., Egamov X. Joy nomlarining qisqacha izohli lug‘ati. –Toshkent: O‘qituvchi, 1977. –B. 104.
17. Qorayev S. Geografik nomlar ma’nosini bilasizmi? –T.: O‘zbekiston, 1970. –B. 86.
18. N.Oxunov. Joy nomlari ta’biri. -Toshkent: O‘zbekiston, 1994. – B.13-14.
19. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.-Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. 1-jild. –B.451.
20. Qorayev S. Toponimika. -Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy nashriyoti”, 2006. –B.9.
21. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Mukammal asarlar to‘plami. – Toshkent: Fan, 1998. – B.35.
22. T.Nafasov. V.Nafasova. O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug‘ati. –Toshkent., 2007. – B.49.

JOY NOMLARINING ETIMOLOGIYASI - MILLIY QADRIYATLARIMIZ, TARIXIMIZ VA MADANIYATIMIZ KO‘ZGUSIDIR

Abdullayev Akmal,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
o‘zbek tilshunosligi kafedrasi tayanch doktoranti
akmalabdullayev713@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada globallashayotgan hamjamiyatda jahon lingvistikasi ta’siri o‘laroq o‘zbek onomastikasining uzviy tarkibiy qismi bo‘lgan toponimikaning lingvomadaniy yo‘nalishdagi bugungi rivoji hamda tadqiqot obyekti bo‘lgan Toshkent viloyati, xususan, uning boy tarix va madaniyatga ega bo‘lgan Ohangaron vohasidagi joy nomlarining tarixi va etimologiyasi haqida ma’lumotlar berilgan. Toponimlarning joyning nomi sifatida atoqli ot vazifasini bajarishdan tashqari ularning ekstralingvistik jihatlari haqida fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: toponimika, joy nomlari, antropotsentrik yondashuv, lingvomadaniy aspekt, Ohangaron, Bog‘iso‘g‘d, Baqsiq.

Globallashayotgan bugungi jamiyatni, zamonaviy sivilizatsiyani, xalqlar va mamlakatlar o‘rtasidagi har qanday aloqalarni joy nomlarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Joy nomlari chuqur ilmiy, siyosiy, amaliy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, xilma-xil tarixiy sharoitlar va tillar takomili hamda uyg‘unlashuvining lingvomadaniy mahsuli hisoblanadi. Toponimika fani bugungi kunda dunyodagi barcha insoniyatning, xalq ma’naviyati va ma’rifatini belgilovchi vositalardan biri bo‘lgan joy nomlarini, ularning ma’no-mazmuni, kelib chiqishi va tarixini yangicha yo‘sinda – antroposentrik yondashuv asosida lingvomadaniy aspektda o‘rganmoqda.

Toshkent viloyati insoniyat ilmiy-madaniy tamadduniga ulkan hissa qo‘shgan O‘zbekistonning yirik tarixiy-madaniy mintaqalaridan biri hisoblanadi. Toshkent vohasi o‘zbek sivilizatsiyasi va xalqimizning ilk davlatchilik madaniyati shakllangan tarixiy viloyatlari sirasiga kiradi. Mazkur hudud katta toponimik bazaga ega bo‘lib, ushbu hudud joy nomlarini xalq geografik terminshunosligi va ilmiy terminologiya hamkorligi asosida *til – tarix – madaniyat* triadasi prizmasida tadqiq etish, ularni to‘plash, hudud joy nomlarining izohli lug‘atini yaratish, bizningcha, onomastika sohasidagi dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

“So‘lim va betakror Chirchiq vohasi, Olmaliq va Ohangaron kengliklarida joylashgan Toshkent viloyati, bu ko‘hna diyor har qanday yuksak ta’rifga munosibdir. Bu zaminning unumdor tuprog‘i, qut-baraka yog‘iladigan dala va bog‘lari, oltin, kumush, mis, marmar, ko‘mir kabi zahiralarga boy konlari, eng muhimi, mehnatkash, bag‘rikeng, ko‘p millatli xalqi vatanimiz ravnaqiga munosib hissa qo‘shib kelmoqda.” [1:406]. Darhaqiqat, ushbu hududning qadimda Iloq deya atalgan Ohangaron vohasi ko‘plab qadimiy tarixiy joy nomlariga ega bo‘lib, ularning xalqona va ilmiy etimologiyasi ko‘hna va boy tariximizning muhim jihatlarini o‘zida asrab kelmoqda.

Eski Bog‘iso‘g‘d qishlog‘i. Ushbu qishloq XX asrning 70-yillarigacha Ohangaron tumanining eng yirik qishloqlaridan biri bo‘lgan. Keyinchalik Angren shahri tarkibiga kirgan. Movarounnahrga islom dinining ilk marotaba kirib kelgan davrida ham Bog‘iso‘g‘d qishlog‘i bo‘lganini (IX asrdan avval) Buxoro din nazorati xodimlari aytib o‘tishgan. Sho‘rolar davrida Obliq qishloq soveti tarkibida bo‘lgan. Qishloq 1996-yilgacha faoliyat yuritgan. So‘ngra bu qishloq aholisining asosiy qismi Angren shahrining Beruniy, Yangi Bog‘isurx, Ko‘kterak mahallalariga ko‘chirilgan. Bog‘so‘g‘dlik Nasibali bobo (1902-1989) yoshlik paytlarida qariyalarning suhbatini eshitgan. Qariyalar Bog‘sug‘d qishlog‘ining qaytadan paydo bo‘lishi haqida quyidagilarni aytishgan: “Bog‘so‘g‘d to‘rt yuz yillik tarixga ega. Bu yerga Obliq qishlog‘idan yigirma oila, Qo‘qonning Dang‘ara tumanidagi To‘mar qishlog‘idan o‘n oila, Tojikistonning Asht tumanidan esa hammadan ko‘proq oilalar ko‘chib kelishgan. Keyinchalik ular o‘zaro quda-anda bo‘lib, ikki tilda so‘zlashuvchi bo‘lib qolishgan”.

“Baqsiq” atamasi haqida. Ushbu atama xalqning iste’molida bo‘lib kelgan. Lekin uning etimologiyasi bo‘yicha aniq bir to‘xtamga kelinmagan. “Baqsiq” atamasining to‘rt xil ta’rifi bor.

1. “Bog‘iso‘g‘d”, (Bog‘iso‘g‘diyon) so‘zidan – Yertoshlik tarix fani o‘qituvchisi bo‘lgan Ismonali Isabekovning “Tog‘ qo‘ynidagi bir chaman” asarida quyidagilarni o‘qiymiz: “Bog‘iso‘g‘d – botirlar makoni... Bog‘iso‘g‘dliklarning jo‘mardligi to‘g‘risida Oqtovda shunday bir rivoyat bor: yurt egasi Bekbovul botir har ishini yaxshi biladigan,

epchil va irodali so‘g‘d yigitlarni xizmatiga olgan. Jang maydonlarida mardlarcha kurashgan, merganlik, chavandozlikda namuna ko‘rsatgan bir so‘g‘d yigitga qizini berib, kuyov qilgan edi. So‘ngra qizi va kuyoviga yer in’om qilgan. U yerda so‘g‘d yigiti go‘zal bir bog‘ barpo qiladi. Ana shu bog‘ qilingan joyni “Bog‘i so‘g‘d” deb ataganlar” [2:59].

2. “Bog‘isurx” so‘zidan: bog‘+surx (tojikcha) – “Qizil bog‘”. Ayrim odamlarning fikricha, bu sho‘rolar davrida berilgan deyishadi, lekin bu atamani bir necha asrlik deyuvchilar ham bor.

3. “Bobojuq” so‘zidan: professor I.Yormatovning “Saodat vodiysi” kitobida ushbu qishloqning nomi “Bobojuq” qal’asi nomidan kelib chiqqani yoziladi [3:251]. Ushbu qal’aning XVI asrda mavjudligi Hofiz Tanish Buxoriyning 1534 – 1590-yillarda yozilgan “Abdullanoma” asarida qayd etilgan ekan (ammo biz bu asardan ushbu ma’lumotni topa olmadik – A.A.).

4. “Bag‘ so‘g‘d” so‘zidan: etnograf olim Ulash To‘ychiyev ta’rifida Bag‘a – ibodatxona, so‘g‘d – qabila nomidan, ya’ni qadimgi so‘g‘dlar ibodatxonasi ma’nosini anglatadi.

Ushbu so‘zning etimologiyasiga biz ham qiziqib Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asaridan qidirib ko‘rdik: *baqu – tepa, balandlik; siq – oz (miqdor-daraja ravishi); siq –o‘zlik nisbat hosil qiluvchi qo‘shimcha (jardi – yordi, jarsiqdi – yorildi)* [4:61, 222, 451]. Ushbu manbaga tayanib taxmin qilsak, “Baqsiq” atamasi “biroz ko‘tarilgan tepalik yoki balandlik” degan ma’noni anglatadi. Qadimgi turkiy tilda “Batsiq” so‘zi g‘arbni bildirgan.

Bog‘so‘g‘d qishlog‘i va uning atrofidagi joy nomlari. Bog‘so‘g‘d qishlog‘i g‘arbda Qayrag‘ochsoy, janubda ko‘mir koni, shimolda Boboitog‘, sharqda To‘g‘onboshisoy bilan chegaralangan. Quyiroq qismida Angren – Qo‘qon avtoyo‘li mavjud. Qishloqni Shabshax (Oqtoshsoy), Ovarza, Soyi Daroz suv bilan ta’minlab turgan. Qishloqning yuqoriroq qismida ilgari g‘arbdan sharqqa qarab so‘qmoq va ulov yo‘li o‘tgan. U yo‘l bilan Dukentdagi G‘oyib otadan Obpartak orqali qishloqdagi ovul (mahallalar) orqali Qo‘shmizak bulog‘i, Ko‘l, so‘ngra Bodomzor, Maydonga, so‘ngra hozirgi Chinor qishlog‘ining yuqori tarafi orqali borish mumkin bo‘lgan.

Maydon. Ushbu yerda sho‘rolar davridan avval katta bozor bo‘lgan. U yerda bodomzor, olmazor (sebzor) bog‘ bo‘lgan. Qariyalarning eslashlaricha, agar bozorga qirq xachir yuk kirmasa, “bugun bozor yaxshi bo‘lmadi”, deyishar ekan. Ko‘ksaroydagi bozordan bir kun o‘tgach, shu yerda bozorga to‘planishgan. Ushbu yerda uzoq-yaqindan kelganlar uchun karvonsaroy ham xizmat qilib turgan. Rivoyatlarga qaraganda Maydonda ilk O‘rta asrlarda so‘g‘dlar yashagan.

Bodomzor. Yuqorida keltirilgan Maydondan quyiroqda Bodomzor joylashgan.

Hudud gidronimikasiga nazar tashlaganda, bu yerda ko‘plab soy va buloqlar borligi ko‘zga tashlanadi. Shundan ayrimlarining nomlari haqida ma’lumot berishni joiz topdik.

Yuqorida aytib o‘tilgan Qo‘shmizak bulog‘i qishloqning g‘arb tomonida joylashgan. “Qo‘shmizak” atamasi xalqona geografik etimologiyaga ko‘ra “Qo‘ychi” va “mazak” so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, ushbu yer orqali o‘tayotgan cho‘pon, qo‘ychilar dam olib suvni ichgach, “maza qildik”, deb jo‘nab ketishgan. Keyinchalik shu so‘zlardan “Qo‘shmizak” atamasi kelib chiqqan *(Bog‘iso‘g‘dlik tarix fani o‘qituvchisi Ahmadali Almatov ta’rifi. 1919 yilgi dala yozuvlari*).

Ismat bulog‘i. Qayrag‘ochsoy va Shabshax oralig‘idagi Kurtakasoy boshlanishida.

Ko‘lbuloq. O‘rtasoyning bog‘chasida o‘nta buloq bo‘lib, ular ko‘lmak bo‘lib turgani uchun shunday nomga ega bo‘lgan.

Chashmai Hashtod. Forscha-tojikcha “80 buloq” ma’nosida. Qalavurtepa yaqinidagi jarlik tagidagi bir guruh buloqlar.

Soyak – Soyidarozning quyiroq qismidagi buloqlar.

Chashmai Masaid. Ushbu buloq Sarbandsoyning yuqori oqimidagi Bo‘yitog‘ bobo ziyoratgohida joylashgan. Bu yerda bir paytlar Masaid bobo yashab o‘tganlar.

Soyidaroz – tojik tilida “Katta soy”, “Uzun soy” ham deyiladi. O‘zbekchada Jarboshi deyishadi.

Sejo‘ya – Soyidarozga sharq tomondan qo‘shiluvchi jilg‘a.

O‘rtasoy – tojikchada “Soyi miyona” ham deyiladi. Ikkalasi bir ma’noda keladi. U qishloqdagi asosiy jilg‘alar qo‘shilgandan so‘ng janubiy tomonda, Qo‘qon yo‘li yaqinidagi qismining nomidir.

Ovarza – tojikcha “ob” – suv, “varz”(varzish) – mashq so‘zidan, ya’ni suv o‘yib kiradigan yer, ushbu jilg‘aning boshlanadigan yeri.

Kurtakasoy – qishloqning g‘arbida, Qayrag‘ochsoyga yetmasdan, soyning tepasidagi buloq Kurtaka deyiladi. Mahalliy aholidan ushbu atamaning ma’nosi so‘ralganda, ular bilmasliklarini aytishdi. Kurtaka – tog‘da o‘sadigan bir xil daraxt turi [4:175].

Bog‘iso‘g‘ddagi tegirmonlar. Ushbu qishloqda 6 ta tegirmon mavjud bo‘lgan va ularning ba’zilari egalarining ismlari bilan atalgan: Hoshimtegirmon, Risboytegirmon, Oynavoytegirmon, Tojiboytegirmon; ba’zilari joylashgan o‘rniga ko‘ra nomlangan: Yuqoritegirmon, Pastkitegirmon.

Qal’alar haqida. Qishloq hududida 2 ta qal’a, 1 ta karvonsaroy bo‘lgan.

1. Darni qal’a. Asli kelib chiqish nomi “Daruni” atamasidan olingan bo‘lib, fors-tojik tilida “ichkari” ma’nosida keladi. Ya’ni dastlab bu yerdagi aholi qal’aning ichkarisida yashab kelgan, keyinchalik tashqarisi (Pushti qal’a, Tagi qal’a)da ham yashay boshlaganlar.

2. Qalavurtepa. Ushbu tepalik qishloqning asosiy qismidan sharq tomonda edi. Bu yerda yirik harbiy qal’a mavjud bo‘lgan va atrofi suvli xandaq bilan o‘rab olingan. Bu so‘zning etimologiyasini aniqlay olmadik.

Karvonsaroy Maydon degan yerda joylashgan bo‘lgan. Bu yerda yirik mol bozori tashkil etilgan bo‘lib, u yo‘l yoqasida bo‘lgan.

Bog‘so‘g‘d qishlog‘ida ikki turdagi ziyoratgohlar mavjud. Birinchi turi – aziz-avliyolarning qabrlari, ular kelib ketgan joylar. Ikkinchi turi – xosiyatli, karomatli joylar. Bu yerda odamlar nazdida muqaddas, turli kasallik va dardlardan xalos bo‘lishga yordam beradigan daraxtlar mavjud.

Aziz-avliyo joylar:

1. Hazrat Mavlon bobo. Ushbu avliyo aslida Chustlik bo‘lgan ekanlar. Mavlon bobo Toshkentdan vataniga qaytayotib, Bog‘so‘g‘dga kelgan va bir muddat bu yerda yashab, odamlarni islom shariati ahkomlariga bo‘ysunib yashashga da’vat qilgan. U zotning ulug‘ligini bu yerda yashovchi ko‘pchilik odamlar bilmagan. Ular avliyoning otini olib ketib, so‘yib yeganlar. Shundan so‘ng avliyo bu yerni tark etib, Chustga ketgan. Chustda

avliyo hassasini yerga urib, buloq chiqargan va o‘sha yerda qolgan. Ushbu avliyoning ramziy qabrlari Bog‘so‘g‘dning qabristonida joylashgan.

2. Xo‘jamat avliyo. Ushbu avliyo oddiy odamlar kabi tirikchilik qilgan. Tegirmon toshini taroshlovchi usta ham bo‘lganlar. Bog‘so‘g‘d qishlog‘ida yashovchi Dadaboyev Abdumajit ismli kishining uylari yonidagi masjid yerto‘lasi avliyoning hujrasi bo‘lgan. Rivoyatlarga ko‘ra Xo‘jamat avliyo juda baquvvat, polvon inson bo‘lgan ekan. Og‘irligi bir tonnaga yaqin bo‘lgan tegirmontoshni bir o‘zlari tog‘dan pastga bezarar olib tushib qo‘ygan ekanlar.

3. Hazrati Said bobo. Hazrati Said boboning qadamjosi qishloqning g‘arb tomonidagi “Obpartak” ko‘mir konining tosh to‘shama (otval)lari tagida qolib ketgan.

4. Mulloi Turk bobo. Ushbu avliyo nomi bilan bog‘liq joy qabriston etagidagi yoshi bir necha asrlik qadimgi yong‘oq daraxti yaqinida bo‘lgan. Bu avliyo haqida biron-bir rivoyat saqlanib qolmagan.

Ziyorat qilinadigan daraxtlar. Bog‘so‘g‘d qishlog‘ida ziyorat qilinadigan 5 ta daraxt bo‘lgan, bugungi kunda ulardan 3 tasi saqlanib qolgan. Ushbu daraxtlarga kelib ziyorat qiladiganlar, asosan, teri kasalliklariga chalinganlar bo‘lib, qo‘ldagi so‘galni yo‘q qilish uchun kelishadi. Ushbu daraxtlar, asosan, baqaterak yoki sadaning bir turi hisoblanadi. Ziyoratga kelganlar ularning shoxini biroz egib, a’lam (latta) bog‘lashadi, so‘ng duo o‘qishadi. Shunday daraxtlarning biri O‘rtasoy bo‘yida, Angren – Qo‘qon avtoyo‘lidan 20 metr shimolda bo‘lib, ushbu daraxt yaqinida eski kichik qabriston, soy bo‘yida esa tegirmon ham bo‘lgan ekan. Yana bir ziyorat qilinadigan daraxt yuqorida aytib o‘tilgan daraxtdan 300 metr pastroqda, “Tangi mozor” degan yerda. Bu yerga ham so‘galdan forig‘ bo‘lish niyatida ziyoratchilar kelib turishadi. Ziyoratning bu shakli xalqning islomdan ilgari paydo bo‘lgan totemistik e’tiqodlari bilan uyg‘un bog‘langan bo‘lib, islom aqidasiga ko‘ra esa bular shirk amallar hisoblanadi.

Ro‘jon pari haqida. Bog‘so‘g‘d qishlog‘ini Obpartak qishlog‘i bilan bog‘lovchi yo‘l bo‘ylari Ro‘jon pari deb nomlangan. Yo‘lning pastida (janubda) 9 guruh kichik qabriston bo‘lgan. Rivoyatlarda aytilishicha, bu yerda mo‘g‘ullar kelgan davrda ushbu yerlar Chig‘atoy askarlarining 9 harbiy bo‘linmasiga qarashli bo‘lgan. Har bir bo‘linmaning o‘z qabristoni bo‘lgan va ular ham 9 ta bo‘lgan (*Bog‘so‘g‘dda yashagan Rustam aka ta’rifi. 2021-yilgi dala yozuvlari*).

Yo‘lning ustki tomoni bo‘ylab 3-4 ta kichik tepalik hozir ham mavjud bo‘lib, ular so‘g‘dlarning qabrlari deb hisoblanadi. Ushbu yakka qabrlar toshdan gumbazsimon qilib terilgan va ustiga tuproq, mayda tosh tashlangan. Lekin xuddi shu xildagi yakka qabrlar boshqa yerlarda “Mug‘xona” yoki “Mug‘ qabrlari” deb ataladi. Shuni ham aytish joizki, ushbu qabrlarning atrofi xalq orasidagi afsonalarga qaraganda yovuz ruhlar makoni, deb talqin etiladi. Bu yerdan kechasi o‘tish taqiqlangan (ilmiy tilda *tabu* deyiladi – A.A.)

Bog‘so‘g‘d qishlog‘ida quyidagi mahallalar bo‘lgan:

1. To‘g‘onboshi (Sarband).
2. Jarboshi (Sarjar).
3. Pushti qal’a.
4. Darni qal’a.
5. Shavshax.
6. O‘rtasoy (Soyimiyona).

7. Poyingisoy.
8. Soyak.
9. Uzunsoy (Soyidaroz).
10. Javpoya (javdar ekilgan yer).
11. Kurtaka.

Jarboshi (Sarjar). Bog‘iso‘dlik Mamadi ota Xolmurodovning ma’lumotiga qaraganda, “Oq podsho” davrida bu yerda Soli chol, Ali o‘g‘li Absalom chol yashagan. Absalom cholning Ahmad, Abdumannop, Abdug‘ani, Abduqodir, Abdug‘affor, Abduvali ismli o‘g‘illari qolgan. So‘nggi davrlarda bu yerda xonadonlar soni ko‘payib 80 taga yetgan (*Dala yozuvlari, 2021-yil*).

Darni qal’a mahallasi. Ushbu dargoh qishloqning markaziy qismida joylashgan bo‘lib, bu yerda qal’a bo‘lgan, uning devor qoldig‘i ham bir paytlar saqlanib qolgan edi. Bu yerda ko‘pgina ziyolilar, mo‘’tabar zotlar, mullalar, ularning avlodlari istiqomat qilishgan. 23-sonli o‘rta maktab, maishiy binolar, masjid bo‘lgan. Sharq tomonda qabriston hozir ham bor.

Shavshax. Ushbu mahalla Shavshaxning (Oqtoshsoy) yuqori-o‘rta oqimida bo‘lib, Pushti qal’a bilan tutashib ketgan bo‘lgan.

Shavshax atamasi haqida. 1. Shav+shax so‘zlaridan: shav – so‘g‘d tilida qora, shax – qattiq, ya’ni soyning suvi qora va qattiq yerdan oqib o‘tgan. 2. Shav – tojik tilida “bo‘l!” (fe’lning buyruq mayli) so‘zidan. “Shab” so‘zi ham “tun”, “qora” ma’nosini anglatadi. Ikkala ta’rif ham ilmiy terminologiyaga yaqin keladi. Shavshax Bog‘so‘g‘d qishlog‘ining qadimiy joylaridan bo‘lgan. XX asrning boshlarida jamoalashtirish davrida aholi pastroqqa ko‘chirilgan. Shavshaxning atrofi boylarning yaylovi bo‘lgan.

O‘rtasoy (Soyimiyona). Ushbu mahalla qishloqning asosiy qabristonidan janubroqda bo‘lgan.

Bolo qal’a. Ushbu mahalla kichik bo‘lib, 5 ta xonadondan iborat. Bu yerda boyto‘p vakillari, kamroq miqdorda qipchoqlar yashagan.

Pushti qal’a. Pushti qal’aning lug‘aviy ma’nosi – “tashqarida”, “ortida” bo‘lib, darni qal’aga nisbatan tashqarida ekanini bildiradi. Pushti qal’ada Mulloi turk bobo ziyoratgohi mavjud bo‘lgan. Bu yerda qadimgi, yoshi bir necha asrlik yong‘oq daraxti bo‘lgan.

Poyingisoy. Fors-tojik tilidan o‘girganda lug‘aviy ma’nosi “Soyning oyog‘i”, etagi degan ma’noni bildiradi.

Kurtaka qishlog‘i. Ushbu qishloq Eski Bog‘so‘g‘d va Obpartak qishloqlari oralig‘ida bo‘lgan. Qayrag‘ochsoy va Shavshax soylari oralig‘ida bo‘lgan. Ma’muriy jihatdan Do‘ngovul (Kungey) qishloq sovetiga bo‘ysungan. Lekin Bog‘so‘g‘d qishlog‘iga tegishli bo‘lgan. 1960- yillarda “Obpartak” ko‘mir koni qurilishi boshlangach, aholi hozirgi Dukent shaharchasi, Obpartak MFY va boshqa yerlarga ko‘chirilgan. Qishloqda bir paytlar tegirmon mavjud bo‘lgan.

Xalq geografik terminshunosligini atroflicha bilish joy nomlarini o‘rganishni osonlashtiradi. Hech bir xalq tilida mahalliy terminlar ishtirok etmagan toponimlar bo‘lmasa kerak [5:97]. Ushbu jihatlarni hisobga olgan holda Toshkent vohasi toponimlarini har bir shahar va tuman kesimida to‘plash va o‘rganish, uni tizimli tahlil va tadqiq etish o‘zbek tilidagi atoqli otlar tizimining shakllanish bosqichlari xususida qimmatli ma’lumotlar beribgina qolmay, xalqimiz tarixi, etnogenezisi, urf-odatlari,

turmush tarzi, mazkur areal jo‘g‘rofiyasi va arxeologiyasi, shuningdek, ma’naviyatimiz sarchashmalari haqida keng qamrovli izlanishlar olib borishga asos bo‘la oladi. Xalqimiz tarixi, taqdiri va turmush tarzining o‘ziga xos indikatori hisoblangan joy nomlari ajdodlarimiz tafakkurining bebaho yodgorligi, o‘zbek ma’naviyati xazinasini asrlar davomida boyitib kelgan lingvokulьturema sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. -Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2017. – Б. 488.

2. Исабеков И. Тоғ қўйнидаги бир чаман. -Т.: Карлоо, 2009. – Б. 128.

3. Ёрматов И. Саодат водийси. -Т.: Наврўз, 2012. – Б. 297.

4. Девону луғотит турк. Индекс-луғат (Ғ.Абдураҳмонов ва С.Муталлибовлар таҳрири остида). -Т.: Фан, 1966. – Б. 550.

5. Мурзаев Э.М. Очерки топонимики. -М.: Мысль, 1974. – С. 266.

O‘ZBEK TILI SINONIMLARINING IZOHLI LUG‘ATIDA EVFEMIK VOSITALAR GRADUONIMIYASI

Turdimurodov Sirojiddin,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa fanlari doktori (PhD),
Termiz davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tili sinonimlari, ularning lug‘atlarda berilishi va o‘ziga xos xususiyatilari haqida fikr yuritilgan. Asosiy e’tibor, evfemik sinonimlar graduonimik qatorida ma’nodosh farqliliklarni anglash, umumiy va sinonimlar izohli lug‘atlarida leksemalar lug‘at maqolasida ularni mukammal izohini ta’minlash, nutq mazmuniga mos to‘g‘ri qo‘llashga erishishga qaratiladi.

Kalit so‘zlar: sinonim, evfemik sinonim, graduonmik qator, leksema, izohli lug‘at, lisoniy munosabat, evfemik darajalanish.

Ma’lumki, 1974-yilda A.Hojiyev tomonidan ”O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati” nashr etilgandan keyin o‘tgan davr mobaynida respupublikamiz siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy madaniy hayotida katta o‘zgarishlar yuzga keldi. O‘zbekistonning istiqlolni qo‘lga kiritishi, o‘zbek tilining davlat tili maqomini olishi, “Davlat tili haqida”gi qonunning qabul qilinishi o‘zbek tili va uning leksikasi rivojiga katta ta’sir ko‘rsatibgina qolmasdan, o‘zbek tilshunosligi oldiga yangi vazifalarni ko‘ndalang qo‘ydi. O‘zbek tili leksik zahirasining jadallik bilan kengayishi va boyib borishi, davr talabiga javob beradigan sinonimlarning izohli lug‘atini qayta yaratish zaruratini keltirib chiqardi. Ko‘rinadiki, o‘zbek tilshunosligi oldida sinonimik birliklarni tartibga solish, takomillashtirish, ularni lug‘atda aks ettirish va izohlash bilan bog‘liq talay muammolar ham mavjud.

“O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati” ning lug‘at maqolasi quyidagilardan tashkil topgan: 1) sinonimik qator; 2) sinonimik qatordagi so‘zlar uchun umumiy bo‘lgan ma’noning izohi; 3) sinonimik qatordagi har bir so‘zga xos xususiyatning ta’rifi; 4) sinonimik qator va har bir sinonimga berilgan ta’rifni tasdiqlovchi misol sitatalar.

Olimning ta’kidlahsicha, sinonimik qatordagi har bir so‘zga qarata aytilgan fikr-mulohaza shu so‘zni qo‘llashda amal qilinadigan qat’iy hukm deb emas, balki tavsiyalar deb qaralishi lozim [1: 6] – deya ta’kidlagan o‘rinda ham ma’lum ma’noda to‘gri yondashgan (muallif izohi: lug‘at yaratilgan davr nuqtayi nazardan). Masalan:

KEKSA, QARI. Ko‘p yil yashagan, organizmining faoliyati zaiflashish davriga o‘tgan, yoshning aksi. Qari ko‘p hollarda salbiy ottenka bilan qo‘llaniladi. Shuning uchun, qari tulki, qari qiz, kabi iboralarda qari so‘zi o‘rnid keksa so‘zini qo‘llab bo‘lmaydi [1:121]. Ko‘rinib turibdiki, izohli lug`atda so‘zning ma’nolari, uning grammatik, stilistik va boshqa xususiyatlari yoritiladi, shu so‘z ishtirokida hosil bo‘lgan frazeologik birikmalar ham ma’nosi va boshqa xususiyatlari jihatdan izohlanadi. Xuddi shu leksemaning ma’nodoshlari tarzida qo‘llaniladigan quyidagi leksemalarning boshqa yana bir o‘rinda lug‘atda berilishiga e’tiborimizni qaratdik. Bunda esa:

CHOL, KEKSA, QARIYA, QARI, MO‘YSAFID, OQSOQOL, BOBOY. Qarilik davrini yashayotgan erkak. Mo‘ysafid ijobiy munosabat bo‘yog‘iga ega. Oqsoqol odatda maslahat, yo‘l-yo‘riq beruvchi keksa kishiga nisbatan qo‘laniladi. Boboy oddiy nutqda biroz hurmat yoki, aksincha, mensimaslik munosabatida qo‘llaniladi. Keksa, qari yosh jihatdan, kuch-quvvat jihatdan shu darajadagi ayolga nisbatan ham qo‘llanadi [1: 224] tarzida qayd etilgan leksemalarning sinonimligini misollar asosida yoritishga harakat qilingan. Shuni aytishimiz kerakki, “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati” dan samarali foydalanib kelmoqdamiz. E’tiboringizni yuqoridagi **qari** leksemasining evfemik ma’nodoshlari qatorida uning darajalanishini quyidagi jadval orqali yetkazib berishga harakat qilamiz.

Bahori tugamoq → soqoliga oq tushmoq → soch oqarmoq → tish tushmoq → yoshuli → mo‘ysafid → otaxon/onaxon → nuroniy → oqsoqol → keksa → qariya va. b. Misol uchun, Nuroniy. Ayniqsa, nuroniylarning quvonchi cheksiz edi (“Xalq yo‘li”, 2000, 19-may) [2: 97].

Izohli lug‘atlar tarkibiga kiruvchi sinonimlar lug‘ati so‘zligi sinonimlardan iborat bo‘ladi. Bunday lug‘atlar faqat tildagi sinonimik qatorlarni qayd etuvchi, ya’ni tavsifsiz (izohsiz) yoki izohli bo‘lishi mumkin. Izohsiz lug`atning qimmati kam, chunki u sinonimlarning o‘zlariga xos turli belgi-xususiyatlarini ochib bermaydi. Holbuki, sinonimlarning farqli xususiyatlarini to‘g‘ri anglagan holda ularning keraklisini tanlab qo‘llash fikrning aniq, maqsadga muvofiq ifodalanishiga imkon beradi. Buncha sinonimlarning izohli lug‘ati xizmat qiladi. Bunday lug‘atda, birinchidan, o‘zaro sinonim bo‘lgan so‘zlar (sinonimik qator) belgilanadi, ikkinchidan, ularni birlashtiruvchi (sinonim etuvchi) ma’no ko‘rsatiladi, uchinchidan, sinonimik qatordagi har bir so‘zning o‘ziga xos belgi-xususiyatlari ochib beriladi. Izohli lug‘atning muhim amaliy ahamiyati mana shu jihatlari bilan belgilanadi. Misol tariqasida undan bir maqolasini keltiramiz:

KAMBAG‘AL. *Qashshoq, bechora, faqir, yo‘qsil, gado, bechorahol miskin.* Turmush, yashash uchun zarur bo‘lgan narsalarga yetarli darajada ega bo‘lmagan, boyning aksi. *Qashshoq* so‘zida belgi darajasi kuchli. *Faqir* odddiy so‘zlashuvda kam qo‘llaniladi. Bu so‘zda belgi darajasi *kambag‘al* so‘zidagiga nisbatan kuchliroq. *Bechora* bu ma’noda kam qo‘llaniladi. *Yo‘qsil* eskirgan, so‘zashuv tilida qo‘llanmaydi, kitobiy tilda ham kam qo‘llaniladi [1: 116]. Mana shu o‘rinda ushbu *kambag‘al* leksemasining sinonimlari sifatida berilgan leksemalarning barchasi uning o‘rnida qo‘llanuvchi evfemik

ma’noli leksemalari hisoblanadi hamda sinonimlararo gradunimik munosabat asosida lug‘atda juda ham o‘rinli keltirilganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Lekin ayrim mana shunday evfemik ma’noli leksemalar misolida aynan shu holatni graduonimik qonuniyat, ya’ni, leksemalararo semantik munosabat asosida berilmaganligini ko‘rishimiz ham mumkin. Ushbu qatorda belgining o‘z navbatida eng kuchlilik belgisidan quyiga qarab mazmunan yumshoqlik ifodasi, madaniyligi, qolaversa badiiyligi evfemik qo‘llanilish ma’nosi yuqorilab bormoqda Masalan, uni quyidagi chizma asosida ko‘rsatib berish mumkin. *Kambag‘al* leksemasining evfemk qo‘llanilish graduonimiyasi:



Sinonimlar lug‘atini tuzishda lug`at tuzuvchi oldida turadigan birinchi va asosiy masala qanday so‘zlarning o‘zaro sinonim bo‘lishi yoki bo‘la olmasligini belgilab olish masalasidir. Sinonimlarni belgilashda so‘zlarning bir tushunchani ifodalashi hisobga olinadi.

Sinonimlarni belgilashda so‘zning asl ma’nosi bilan uning matnda yuzaga chiqadigan ma’nosini, shuningdek ko‘chma ma’nosini hisobga olish lozim bo‘ladi. Sinonimlar lug`atini tuzishda tuzuvchi oldida turadigan navbatdagi muhim vazifa sinonimlar qatorining chegarasini belgilash masalasidir. Sinonimik qatordagi biror so‘zni asosiy so‘z qilib belgilashda uning boshqalariga nisbatan keng tushunchaga egaligi, ekspressiv-emosional va stilistik jihatdan neytralligi, hozirgi adabiy tilga munosabati, shuningdek, sinonimik qatordagi so‘zlar uchun umumiy bo‘lgan ma’noning bu so‘zda qanchalik aniq ifodalanishi hisobga olinadi. Ushbu jarayonni evfemik ma’nodosh leksemalarda kuzatadigan bo‘lsak, ma’lumki, sinonimik qatordagi so‘zlar tushunchaning belgisini turli daraja bilan ifodalashi mumkin. O.Bozorov “O‘zbek tlida darajalanish” mavzusidagi tadqiqot ishida leksk sathdagi darajalanishni predmetlik, belgi-holat, sanaluvchi miqdor, harakat, harakatning belgisini anglatuvchi leksemalarda; taqlidiy va tasviriy leksemalar, undov hamda modal ma’noli leksemalarda; shuningdek, ko‘makchi bog‘lovchi, yuklamalar misolida ochib bergan. Har bir lug‘aviy turning ichki darajalanish ko‘lamlarini belgilab bergan. Jumladan, predmetlik ma’nolarida darjalanishni narsa, hodisa, joy, vaqt, vazn ma’noli leksemalar darajalanishi hamda inson tafakkuri, shaxs munosabatlari, aqliy, ruhiy, jismoniy va uning natijalari aks etgan leksemalarda darajalanish kabi turlarga ajratgan. Yoki belgi-holat anglatuvchi leksemalar doirasida tabiiy narsa-hodisalarga xos belgi holatlar hamda shaxs bilan bog‘liq belgilarda darajalanish turlari farqlangan [3: 71-73].

G‘.Rahmonov “O‘zbek tilida lug‘aviy sinonimiy va graduonimiyaning o‘zaro munosabati” mavzusidagi ishida gradual sinonimlardagi farqlovchi semalar aniqlanib, ularning ma’noviy darajalanish hodisasi bilan bog‘liqligiga asoslanib, ayrim so‘zlarning ma’no munosabatida sinonimiya bilan bir vaqtda graduonimiya bilan amal qilishi

predmet va belgi ifodalovchi 436 ta sinonimik qatordan 149 tasida gradual sinonimlarning darajalnish xususiyatlari tahlili asosida ochib berilgan [4: 55].

Sinonimik qatorga birlashgan leksemalar tizimi yirik tizimli qatorni tashkil etar ekan, ba’zi so‘zlar belgini me’yoriy daraja bilan ifodalasa, ba’zilari kuchli darajasini ko‘rsatishi, ayrimlari belgini kuchsiz daraja bilan ifodalashi ma’lum.

Graduonimik lug‘aviy qatorni ajratishning lisoniy omiliga ma’noviy omil hamda paradigmatik munosabat kiradi. Ma’noviy omilning mohiyati leksemalar sememasida biror belginng kam yoki ko‘pligiga va boshqa darajalariga ishora mavjud. Masalan, Demak, so‘zlararo lisoniy munosabat sanaluvchi darajalanish hodisasi bir necha so‘zning ma’lum bir belgining oz ko‘pligiga qarab, so‘zlarning ma’noviy qatorida tizimida namoyon bo‘lib, kuzatganimizdek, bunda dominanta va qurshov so‘zlari farqlanadi. Darajalanuvchi so‘zlar ma’nodosh ham, ma’nodosh bo‘lmasligi ham mumkn. Masalan, bo‘yog‘iga ko‘ra darajalanuvchi so‘zlar, asosan, ma’nodosh bo‘ladi, natijada, darajalanish qatorida belgining darajalanib, oshib yoki kengayib borishida miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tish qonuniyati yuzaga chiqadi.

Anglashilganidek, kelgusida nashr etilajak “O‘zbek tilining ma’nodosh so‘zlar izohli lug‘ati”da ham, “O‘zbek tili evfemizmlarining izohli lug‘ati” da ham leksemalararo o‘zaro munosabatni e’tiborga olish, badiiy asarlardan keltirilayotgan misollarni yangilash, unda evfemik ma’nodosh leksemalar paradigmasida so‘zlarning nutqiy qo‘llanilishidagi leksemalarning graduonimik munosabatini ham inobatga olish, ushbu lug‘atlarning mukammalligini ta’milashga bevosita katta xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1974. – Б. 307.

2. Омонтурдиев А. Ўзбек тилининг қисқача изоҳли луғати. –Т.: Фан, 2006.

3. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш.– Т.: Фан. 1995. –Б. 71-73.

4. Раҳмонов Ғ. Ўзбек тилида луғавий синонимия ва градуонимиянинг ўзаро муносабати: ф.ф.ф.д. (PhD) … дисс. автореф. – Фарғона, 2019. – Б. 55.

RABG‘UZIYNING “QISASI RABG‘UZIY”ASARIDA MINERALOGIYA TERMINLARINING O‘Z VA O‘ZLASHMA QATLAMI

Ernazarova Gulnoza,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Navoiy davlat pedagogika instituti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida qo‘llangan mineralogiya terminlarining o‘z va o‘zlashma qatlami misollar asosida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: terminologik tizim, mineralogiya terminlari, leksik-semantik guruh, o‘z qatlam, o‘zlashma qatlam, definitsiya.

Terminologiyaning taraqqiyoti nafaqat fanning, balki jamiyatning rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Bu sohada dunyo tilshunosligida muayyan ishlar amalga oshirilganiga qaramay, tadqiq etilishi lozim bo‘lgan muammolar ham yo‘q emas. Jumladan, shu kunga qadar mamlakatimizda o‘zbek tili lug‘aviy qatlamida alohida LSG (leksik-semantik guruh)ni tashkil etuvchi mineralogiya terminlari, ularning o‘zbek adabiy tili lug‘aviy tizimida tutgan o‘rni, leksik-semantik va grammatik tuzilishi, uslubiy qo‘llanishi, lingvopoetik xususiyatlari yaxlit monografik aspektda o‘rganilgan emas. Zero, muhtaram Prezidentimiz qayd etganlaridek, “ayni paytda dunyoda ilm-fan va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib, mamlakatimizning xalqaro hamkorlik aloqalari tobora kengaymoqda. Natijada hayotimizga chetdan ko‘plab yangi tushuncha, so‘z va iboralar kirib kelmoqda. Globallashuv sharoitida milliy tilimizning sofligini saqlash, uning lug‘at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarning o‘zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo‘llanishini ta’minlash dolzarb vazifa bo‘lib turibdi”. Bular qatorida tilshunosligimizda mineralogiya sohasi terminologik tizimi birliklarini ham har tomonlama chuqur ilmiy asosda o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Mineralogiya ilmiy terminologiyasini takomillashtirish, tartibga solishda o‘tmishda klassik manbalarda qo‘llanilgan mineralogiya terminlarini to‘plash va lingvistik jihatdan o‘rganish ham zarur. Chunki tarixiy terminologiya zamonaviy ilmiy terminologiyani me’yorlashtirish, sayqallashtirish va boyitishda muhim manba sanaladi. Mana shu ma’noda o‘zbek mineralogiyasi tarixida iste’molda bo‘lgan mineralogiya terminlarini nazariy jihatdan tadqiq qilish, bu terminlarning izohli, ko‘p tilli lug‘atlarini tuzish ham nihoyatda dolzarbdir. Bu vazifalarning amalga oshirilishi ma’nosi va etimologiyasi murakkab bo‘lgan mineralogiya terminlarining to‘g‘ri tushunilishi hamda talqin qilinishini ta’minlaydi.

Mineralogiya terminlari Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida ko‘p uchraydi. Asarda qo‘llangan mineralogiya terminlarining aksariyati bugungi kunda aynan, ayrimlari fonetik o‘zgarishlar bilan ishlatiladi.

Terminologiyaning rivojlanishida nafaqat ichki manba, balki tashqi manba ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqlar o‘rtasidagi turli iqtisodiy, siyosiy va boshqa aloqalar natijasida tilga ko‘plab so‘zlar o‘zlashadi. Buni mineralogiya terminlari misolida ham ko‘rish mumkin.

Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida o‘z qatlam terminlari bilan bir qatorda arabcha, forscha, yunon-grekcha o‘zlashma terminlar qo‘llangan.

Asarda qo‘llangan mineralogiya terminlarini etimologik jihatdan quyidagi ikki qatlamga bo‘lish mumkin:

1. O‘z qatlamga oid mineralogiya terminlari.
2. O‘zlashma qatlamga oid mineralogiya terminlari.

O‘z qatlamga oid mineralogiya terminlarini o‘zbek tilining o‘z qatlamiga mansub bo‘lgan hamda umumturkiy terminlar tashkil qiladi. Turkiy tillarga oid mineralogiya terminlarining shakllanishi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Mineralogiya terminologiyasidagi umumturkiy terminlar ko‘pgina turkiy tillarda uchraydigan (ayrim fonetik o‘zgarishlari bo‘lgan) terminlar hisoblanadi. Hozirgi turkiy tillarda, xususan, hozirgi o‘zbek adabiy tilida bunday terminlarning ayrimlari turli fonetik o‘zgarishlar

bilan faol qo‘llanilib kelmoqda, ayrimlari esa arxaiklashgan. Masalan, hozirgi o‘zbek adabiy tilida *oltin* (*oltun*), *inju* (*yinju*) kabilar faol so‘zlar qatorida (fonetik o‘zgarishlar bilan) qo‘llanib kelayotgan bo‘lsa, *baqir, tuch* (*mis*) terminlari iste’moldan chiqqan.

Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida qo‘llangan o‘zlashma qatlamga oid mineralogiya terminlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

arabcha qatlamga xos birliklar: *aqiq, ruxom, dur, yoqut, la’l, sadaf;*

fors-tojikcha qatlamga xos birliklar: *siym, billur, gavhar, zar, kahrabo, lojuvard, marjon, feruza;* yunoncha-grekcha qatlamga xos birliklar*: zumrad, marmar, marvarid* kabilar.

Ushbu terminlardan arabcha *ruxom* termini, yuqorida aytilganidek, arxaiklashgan, sanab o‘tilgan boshqa mineralogiya terminlari hozirgi o‘zbek adabiy tilida faol qo‘llanib kelinmoqda.

Ko‘rinadiki, “Qisasi Rabg‘uziy”da keltirilgan o‘zlashma elementlar bu davrda tilimizda qo‘llangan minerologiya terminlarining umumiy holatini aks ettira olgan.

Asarda mineral toshlardan XIV asarda qanday maqsadlarda foydalanilganligi haqida ham keng ma’lumot olish mumkin. Masalan, “Kim Yusufni ko‘rdi ersa qamut oshiq bo‘ldilar. Yusufni sotg‘un olmoqg‘a orzuladilar. Tekma viloyatning beglari kelib *oltun, kumush*, yilqi qora, mol tovar yig‘dilar Yusufni olg‘uchi bo‘ldilar. Dallol aro kirib ortuqg‘a yetkardilar. Kun kelgucha bahosin orturdilar. Yorindasi kun molik taxt urdi. Yusufni atlas to‘nlar birla, *oltun* tojlar birla, murassa’ qur birla bezob taxt uza o‘lturdi.

Anglashiladiki, *oltun, kumush* va shu kabi qimmatbaho toshlar juda qadimdan savdo-sotiq ishlarida faol qo‘llanilgan.

“Qisai Yusuf siddiq alayhis-salom” faslida ham bu kabi qimmatbaho toshlarning savdo-sotiq ishlarida qo‘llanganligi tasvirlangan: “*...Rivoyatda kelmish,* Vahob ibn Munabbah raziyallohu anhu aytur: “Yusufning bahosi to‘rt yuz ratl *oltun*, to‘rt yuzratl *kumush*, to‘rt yuz ratl *yinju, gavhar* muqarrar bo‘ldi”.

O‘zlashma mineralogiya terminlari eski o‘zbek tilining sinonimik imkoniyatlarini kengaytirish uchun xizmat qilgan. Buni asarda qo‘llangan turkiy tilga xos *baqir* so‘zi misolida kuzatish mumkin. Hozirgi kunda bu so‘zning o‘rniga fors tilidan o‘zlashgan *mis* so‘zi faol qo‘llanib kelmoqda, *baqir* so‘zi esa arxaiklashgan.

“Qisasi Rabg‘uziy”da *bronza* termini *tuch* termini bilan berilgan. *Bronza* termini til taraqqiyotining keyingi davrlaridan boshlab nutqda ishlatila boshlagan va bugungi kunda ham faol so‘z hisoblanadi.

Qadim davrlardan boshlab Sharq xalqlari tili, adabiyoti va ma’lum darajada madaniyatiga yunon-grek madaniyati sezilarli ta’sir ko‘rsatganligi tarixiy manbalardan ma’lum. Yunon-grek tilining ta’siri Aleksandr Makedonskiyning Kichik va O‘rta Osiyo yerlarini bosib olgan davrdan boshlanib, keyinchalik yunon-grek madaniyati, adabiyotini o‘rganish natijasida ham davom etgan.

Buning natijasida X-XV asrlardan boshlab o‘zbek adabiy tili lug‘at fondida yunoncha-grekcha so‘zlar paydo bo‘la boshlagan. Bugungi kunda tilimizda *zumrad, marmar, marvarid* kabi yunoncha-grekcha mineralogiyaga oid terminlar faol ishlatilib kelinmoqda. Masalan, asarning “Qisai Solih yalavoch alayhis-salom” faslida *oltun, gavhar, aqiq, billur* kabi so‘zlar qatorida yunoncha *zumrad* terminining qo‘llanilganligini ko‘ramiz: “Tomlari jaza’din, *aqiq*din. Bu evga yuz qabug‘ urdi. Ud yig‘ochindin bir taxt

qildurdi, qizil *oltun, gavhar* birla murassa’. Bir taxtga to‘rt azoq qildurdi: biri z*umrad*din, biri jaza’din, biri *aqiq*din, biri *billur*din”.

Asarning “Qissai Yusuf siddiq alayhis-salom” faslida yunoncha *marmar* termini qo‘llangan: “Qurtqa bu mollarni sarf qilib bir ev qo‘pordi sirchadin, ba’zi aymishlar *marmartoshdin*”.

“Qisasi Rabg‘uziy” asari orqali o‘sha davrda *marmar* termini bilan birga uning arabcha muqobili *ruxom* termini parallel qo‘llanganligiga guvoh bo‘lamiz: “Qayu tosh irik bo‘lub yarog‘siz bo‘lsa, Ibrohim ilki yetgach *ruxom*dek bo‘lur erdi. To‘rt bo‘lukda to‘rt kalima etib toshni qo‘zdi”.

Xullas, Rabg‘uiyning “Qisasi Rabg‘uziy” asari mineralogiya terminlarini diaxron nuqtai nazardan o‘rganishda qimmatli manba vazifasini o‘taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi //Xalq so‘zi, 2019-yil 22-oktabr.

2. Rabg‘uziy. Qisasi Rabg‘uziy. – Toshkent: Yozuvchi, 1990.

O‘ZBEK TILIDAGI YANGI O‘ZLASHMALARNING O‘QUV IZOHLI LUG‘ATLARDA BERILISHI

Shukurov Otabek,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent,
Qarshi davlat universiteti doktoranti
otabekshukurov1@mail.ru, +998914692672

Annotatsiya. Maqola o‘zbek tilidagi yangi o‘zlashmalarning leksikografik talqini masalasiga bag‘ishlangan. Bundan tashqari, muammolarning hal etilishi uchun aniq vazifalar belgilanishi eslatib o‘tilgan. Ulardan muhimi sifatida mustaqillik davrida barqarorlashgan o‘zlashmalarning o‘quv va umumiy izohli lug‘atlarda aks ettirish vazifasi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: o‘zlashma so‘zlar, leksika, semantik, lug‘at, ma’no, izohli lug‘at

Ma’lumki, o‘quv lug‘atlariga, bugungi kun nazari bilan qaraganda, antropotsentrik lug‘at talqinida qarash urf bo‘ldi. Mohiyatan qaraganda ham, lingvotsentrik lug‘atlardan farqli o‘laroq antropotsentrik lug‘atlar insonlar hayotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xizmat qilishi uchun yaratiladi.

Olima B.Bahriddinova o‘zining “O‘zbekistonda o‘quv lug‘atchiligining nazariy va amaliy masalalari” nomli monografiyasida o‘quv lug‘atining tavsifiy belgilari sifatida *ta’limiy maqsadga yo‘nalganlik, hajman chegaralanganlik, til (ona tili yoki boshqa til) o‘qitish uchun mo‘ljallanganlik* xususiyatlarini ustuvor deb hisoblaydi. Shuningdek, *ta’lim berish, ma’lumot berish, me’yorlashtirish, tizimlashtirish, muvofiqlashtirish, til o‘rgatish* holatlarini esa o‘quv lug‘atining asosiy vazifalariga kiritadi. Albatta, ko‘rsatilganlar o‘zlashma so‘zlar o‘quv izohli lug‘ati uchun ham muhimdir. O‘quvchilarda o‘zlashma so‘z haqida ma’lumot olish uchun muntazam holatda ehtiyoj mavjud bo‘ladi. Lug‘at bu jarayonda dastlab *ma’lumot berish* vazifasi bilan o‘quvchini

qanoatlantiradi. *Me'yorlashtirish*dan esa nutq jarayonida – og‘zaki va yozma nutq pragmatikasida ehtiyoj sezadi. Og‘zaki muloqotda ko‘proq o‘zlashmani to‘g‘ri talaffuz qilish, urg‘u bilan bog‘liq muammolari yuzaga chiqsa, yozma jarayonda grafik shakli muhim rol o‘ynaydi. O‘zlashmalardan to‘g‘ri foydalanish esa har ikki nutq shakli uchun ham birdek ahamiyatga ega. Bundan tashqari, *muvofiqlashtirish* vazifasi ham muhim sanalib, o‘zlashmalar orfografiyasining imlo va izohli lug‘atlarga muvofiqligi, leksikografik semantizatsiyasining o‘quv, umumiy, akademik izohli lug‘atlar uzluksizligiga asoslanishi kabilarda o‘z ta'siriga ega bo‘ladi. Olimaning yozishicha, 20-asrning ikkinchi yarmida dunyo leksikografiyasida “o‘quv lug‘atchiligi” nomli amaliy fan shakllandi. U o‘quv lug‘atiga “so‘zligi ma'lum bir mezon asosida tartiblangan, o‘quv-uslubiy talabga javob beradigan, ta'lim oluvchining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish uchun xizmat qiladigan, ma'lumotni tezkor va qulay taqdim etishga mo‘ljallangan antropotsentrik vosita”[1:20] deya ta'rif beradi.

O‘quv izohli lug‘atga kiritiladigan o‘zlashmalarning tanlanishi muhim jarayondir. Bu bir tomondan, o‘quvchilarning yosh darajasiga ko‘ra belgilansa, ikkinchi tomondan esa, bugungi kun muloqotida o‘zlashmaning aktualligi ham talab etiladi. Ayniqsa, yaratiladigan yangi o‘zlashmalarning o‘quv izohli lug‘ati o‘quvchilar uchun jozibador bo‘lishi shubhasiz. O‘quvchilarning lug‘at so‘zliklari bilan ishlash jarayonida ularni manba tildagi asosi – etimologik ma'nosiga qiyosan o‘rganish kompetensiyasi shakllanadi. Yangi davr o‘zlashma so‘zlarining til zaxira boyligida katta miqdorga ega bo‘lishi nutq madaniyatida ulardan foydalanish me'yorini ham talab etadi.

U.Qo‘ziyev o‘zining “O‘zbek tilidagi izohli lug‘atlarda o‘zlashma so‘zlar tahlili” nomli monografiyasida lug‘atlarda keltirilgan o‘zlashma so‘zlarni tasniflashda quyidagilarga amal qilinganini yozadi:

1. Jamiyatga so‘zlarning o‘zlashish sohalari belgilab olindi: ijtimoiy sohaga oid so‘zlar, diniy tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar, terminlar.
2. Yuqoridagi turkumlar o‘z ichida yana guruh, guruhchalarga ajratildi.
3. Ijtimoiy hayot bilan bog‘liq olinmalarni tasniflashda ularning lug‘aviy va grammatik ma'nolari hisobga olindi. So‘zlar turkumlarga bo‘linib, so‘ng ma'no guruhlari bo‘yicha tasnif qilindi.
4. Terminlarni tasniflashda ularning, albatta, istilohiy ma'nosi etakchilik qiladi. Shu tufayli ham fan va soha nomlarini tasniflashda fanlarning tadqiqot jabhalari ma'lum darajada farqlovchi belgi vazifasini o‘tadi.
5. Ayrim so‘zlarning o‘zlashish sohasini belgilashda ularning semantik tuzilishini hisobga olishga to‘g‘ri keldi[2:92]. U monografiyada maydon nazariyasi bilan bog‘liq ko‘plab ishlarni tahlil etadi, izohli lug‘atlardagi o‘zlashma so‘zlarni shu nazariy ma'lumotlar asosida tasnif etadi hamda o‘zlashma so‘zlarni muayyan leksik-semantik guruhlarga ajratadi.

Leksikada *savdo maskani* umumiy ma'nosi bilan tur-jins munosabatida bo‘luvchi birliklar orasida semantik jihatdan darajalanuvchi o‘zlashmalar paradigmasi ham shakllangan. Masalan, *minimarket – market – supermarket – gipermarket* o‘zlashmalaridagi muhim ma'noviy farqlanish lokal semaning o‘sishi asosida yuz bergan. Yagona asos (*market*) va (*mini-, super-, giper-*) prefikslar vositasida graduatsiyaning

jozibador tashakkuli o‘zbek tili leksikasida kamdan-kam uchraydigan hodisalardan. Albatta, bu birliklarning morfemalarga ajralishi manba til uchungina xos.

“Juz’iylik”dan “ko‘lamdorlik”kacha o‘sish belgisida ishtirok etuvchi paradigma a’zolari assotsiativ tabiatga ega, xotirada biri ikkinchisini tez eslatuvchi til birliklari sifatida ham ahamiyatli. O‘sish jarayonida *market* neytral leksema, nutqda o‘zigacha va o‘zidan yuqori turuvchi birliklarning tushunchalarini ham pragmatik jihatdan aks ettira oladi.

Minimarket, umumiy jihatdan qaraganda, “uy do‘koni” mazmunini anglatadi, shuningdek, bunday do‘konlar turar-joy, yashash manzili atrofida joylashgan bo‘ladi va juda kichik (odatda bir xonali) savdo maskani. Shunga ko‘ra ular ko‘proq oziq-ovqat mahsulotlari savdosi bilangina chegaralanadi. Mazkur so‘z imlo lug‘atida mavjud, biroq “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da aks etmagan.

Market so‘zi manba (ingliz) tilda oziq-ovqat do‘koni, savdo maskani, bozor, xomashyo bozori ma’nolarini anglatadi. O‘zbek tilida esa u o‘z analoglari bo‘lgan *minimarket, supermarket, gipermarket* so‘zlari o‘rnida qo‘llanuvchi dominant birlik sifatida shakllanyapti. Biroq uning tilda *minimarket*dan hajm sig‘imi jihatidan katta, *supermarket, gipermarket*lardan esa kichik savdo maskani tushunchasi ham bor. Uning savdo mahsulotlari nomenklaturasi ham *minimarket*dan sezilarli darajada kengroq. Ba’zan uning biror jarayon bilan bog‘liq holda tashkil etiladigan ko‘chma bozorlarga nisbatan ham ishlatilish hollari kuzatiladi. Mazkur so‘zning grafik shakli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ham, imlo lug‘atida ham uchramaydi.

Supermarket o‘zlashmasi “Turli xil oziq-ovqat va sanoat mahsulotlari sotiladigan katta do‘kon”[3:588] ko‘rinishida izohli lug‘atga kiritilgan. Qo‘shimcha qilib aytish mumkinki, unda jarayon mijozlarning o‘z-o‘ziga xizmat qilishi asosida tashkil etilgan bo‘ladi. Mazkur savdo maskani mahsulotlarning rang-barangligiga ko‘ra boshqalariga nisbatan eng ommalashgani, xaridorlarni o‘ziga tortadigan jozibasi jihatidan ham ajralib turadi.

Gipermarket mavjud paradigmadagi darajaning eng yuqori a’zosi. *Supermarket*dan ham hajm sig‘imi jihatidan kattaligi uning xaridorlarni jalb qilishda peshqadamlik bo‘lishi uchun sabab bo‘lmagan. Undagi mahsulotlarning narxi supermarketdagiga qaraganda ancha past bo‘lsa-da, mahsulotning nomenklaturasi emas, balki zaxirada saqlash miqdoriga ko‘ra ko‘p bo‘ladi. Shunga ko‘ra u “ulkan omborxona”ga tashbeh qilinadi. Shu jihatidan ular shahar chekkasida joylashgan bo‘ladi.

Shuni aytib o‘tish lozimki, tahlil etilgan zamonaviy savdo maskanlarining farqlanishlari yuqoridagilar bilan chegaralanmaydi. Bu jarayonda ularning hududiy formati, mijozlarni qabul qilish qobiliyati, zaxira imkoniyatlari ham belgilangan mezonlar asosida hisobga olinadi.

Bundan tashqari, *savdo maskani* umumiy ma’nosiga birlashuvchi o‘zlashma leksemalar ham talaygina. Ularning darajalanishini *kioska, butik, gastronom, krepmarket, univermag, universam* kabilar bilan ham kengaytirish mumkin. Tadqiqotchi Chan May-Ti rus tilidagi o‘zlashmalarning semantik darajalanishini o‘rganar ekan, “hajmi va unumdorligi jihatidan farq qiluvchi turli kompyuterlar uchun gradatsiya bilan bog‘liq *smartbuk – netbuk – subnoutbuk – ultrabuk – noutbuk – desktop”*[4:232-241] kabi nomlar mavjud, deya ta’kidlab o‘tadi.

Univermag, universam so‘zlari etimologik jihatdan ruscha *“универ(сальный) маг(азин)*” birikmasining qisqartmasi. *Univermag* o‘zlashmasi istiqlolgacha bo‘lgan davr izohli lug‘atida uchraydi. *Universam* so‘zi, asosan, XX asrning etmishinchi yillarida rus tilida iste’molga kirgan bo‘lsa ham, o‘zbek tili lug‘atlarida mavjud emas. Bugungi kun iste’molida bo‘lgan izohli lug‘atda *univermag “*xilma-xil keng iste’mol tovarlari (kiyimlar, uy jihozlari, xo‘jalik tovarlari), jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari bilan savdo qiluvchi chakana savdo korxonasi”, *universam* esa “oziq-ovqat mahsulotlari, shuningdek, ba’zi bir xo‘jalik tovarlari bilan savdo qiluvchi, iste’molchilar talablarini to‘la ta’minlash uchun xizmat qiladigan yirik magazin[5:289]” ko‘rinishida izohlangan. Bu savdo maskanlarining xususiyatlaridan kelib chiqib bir necha farqli jihatlari bor. Masalan, *universam*da “yirik format”ga egalik, ko‘proq oziq-ovqat mahsulotlariga ixtisoslashish ustunlik qilsa, *univermag*da esa “chakana savdo”, asosan, muhim xo‘jalik mollari savdosi xossalari etakchilik qiladi. Ulardagi umumiylik esa oziq-ovqat va xo‘jalik mollari asosida, bu ikki belgi qiyoslanuvchilar uchun teskari proporsional atributlar sifatida shakllangan. Bundan tashqari, bu jarayonda mijozlarga xizmat ko‘rsatilishi va mijozlarning o‘z-o‘ziga xizmat qilishiga ko‘ra ham mazkur savdo maskanlari o‘zaro tafovutga ega bo‘ladi. Bularning barchasi o‘quv izohli lug‘atlarida o‘quvchilarning pragmatik bilimini shakllantirish uchun lug‘atlarda aks etishi kerak.

B.Bahriddinova o‘quv lug‘ati tiplarini ajratib o‘rganar ekan, jahon tajribasida segment (tarkibi), morfogrammatik, shakliy va semantik jihatdan farqlanishini yozadi[6:43]. Yangi o‘zlashmalarning o‘quv izohli lug‘ati esa semantik jihatiga ko‘ra o‘quv lug‘at tipiga kirib, yangi birliklarning so‘z ma’nolarini aks ettirishi bilan ahamiyatli.

Alohida ta’kidlab o‘tish joizki, *lapka, laryok, kioska, do‘kon, butik, kitob do‘koni/book-shop, gastronom, magazin, minimarket, market, krepmarket, univermag, universam, supermarket, gipermarket, bozor* kabi maskan nomlarining barchasi o‘zlashma qatlam so‘zlaridan tashkil topgan. Albatta, bu kichik mikrosistemani leksikaning tez o‘zgaruvchan jarayoniga bog‘liq maydon birliklari silsilasidagi bir xalqa sifatida tushunish mumkin.

Butik o‘zlashmasi o‘zbek tilidagi izohli lug‘atlarda uchramasa-da, imlo lug‘atlarida aks eta boshlagan, leksikada barqarorlashish bosqichiga o‘tgan leksemalardan. Rus tilidagi “Болшой толковый словар русского языка” hamda “Академический толковый словар русского языка” kabi ulkan izohli lug‘atlarda bu so‘z allaqachonlar o‘z o‘rnini topgan[7:1536], [8:672]. Mazkur so‘z fransuzcha, asosan, *kiyim-kechak va poyafzal mollarini sotishga ixtisoslashgan kichik do‘kon* tushunchasini anglatadi. Biroq bu do‘kon zamonaviy va qimmatbaho tovarlar sotish uchun mo‘ljallangan bo‘ladi.

Butik so‘zining manba (ingliz) til lug‘atlarida quyidagi ma’nolari mavjud: 1) mo‘jaz partiyada tayyorlanuvchi, shuningdek, qimmatbaho kiyim-kechak, poyabzal va zargarlik kabi buyumlar bilan savdo qiluvchi do‘kon; 2) reklama agentligi turi. Bu so‘z, yuqoridagilar bilan birga, *ayrim mahsulot, xizmat savdosiga ixtisoslashgan kichik moda biznes*ini ifodalash uchun ham ishlatiladi. Umuman olganda, uni o‘zbek tilining o‘quv izohli lug‘atiga quyidagicha kiritish mumkin:

BUTIK (fransuzcha *boutique* – do‘kon) zamonaviy qimmatbaho tovarlar sotishga mo‘ljallangan kichik do‘kon. *Bu so‘zni ko‘pchiligimiz tushunmaymiz, ko‘proq kiborlar*

“tili”da aylanadi... Oddiy xalq “Butik”dan kiyinishni elitaga yaqinlashish yoki madaniyatning yuksak cho‘qqisi, deb biladi. (https://xs.uz/uzkr/post/butiklar-kimga-khizmat-qiladi)

Aytish mumkinki, o‘zlashmaning xalq tiliga yaqinlashgani, jonli so‘zlashuv tilida faollashganini xizmat ko‘rsatish obyekti va servis faoliyati nomi – neym kabilar misolida ham kuzatish mumkin: *meat voutique (zamonaviy go‘sht do‘koni), yuridik butik, butik-atele, butik glamour, канцелярский бутик (kanselyariya do‘koni), butik-otel/butik mehmonxona, butik man (erkaklar do‘koni).*

Bu kabi xalq hayoti bilan bog‘liq o‘zlashmalar tilda uzoq yashab qolish ehtimoli bor. Masalan, *kioska* so‘zi rus tiliga XVIII asrda fransuz (*kiosque*) tilidan o‘zlashgani aytiladi. Bu so‘zning etimologik manbasi italyancha *chiosco*, turkcha *köşk* (gul bilan bezatilgan bino), forscha *kūšk* (hashamatli uy, saroy)ga ham aloqador[9]. Bu so‘z o‘zbek tiliga istiqlolga qadar rus tili orqali o‘zlashgan. Biroq bugungi kunda esa *kiosk* va *ko‘shk* so‘zlari orasida aloqadorlik deyarli sezilmaydi.

Xorijiy til so‘zlarining leksikaga o‘zlashishi ularning manba til assotsiatsiyasidagi uzvlarining o‘z atrofiga tortishi bilan ham xarakterli. Assotsiativ bog‘langan birliklar retsipeint tilda asta-sekin o‘z sistemasini shakllantira boshlaydi. Biroq sistemalar qabul qiluvchi tilning ehtiyojiga ko‘ra qisman yoki to‘liq formatda, uzoq muddatli yoki qisqa muddatli davrlarda shakllanishi mumkin. Masalan, *brend* o‘zlashmasi tilda barqarorlashgach uning atrofida *monobrend* va *multibrend* birliklari paydo bo‘ldi: *monobrend va multibrend do‘konlar*. Bundan tashqari, manba til sistemasida yana *masterbrend, megabrend, giperbrend* birliklari ham mavjudki, ularning tilga o‘zlashish ehtimolini past baholab bo‘lmaydi.

Yangi o‘zlashmalarni izohlash maqsad qilingan o‘quv lug‘atlaridagi illyustrativ materiallarning berilishida o‘ziga xos murakkabliklar mavjud bo‘ladi. Bunday o‘zlashmalar tilda yangi paydo bo‘lgani va Internet diskursi orqali yoyiluvchi jarayonga bog‘langani uchun ham zamonaviy badiiy asarlarda kam uchraydi. Shunga ko‘ra topiladigan misollarning aksariyati raqamli media manbalari doirasi bilan chegaralanadi.

Yangi paydo bo‘lgan o‘zlashmalarning muayyan qismi tildagi aktual leksika sifatida shakllangan. O‘zlashma so‘zlarning o‘quv izohli lug‘atini tuzishda ularning aynan shunday xususiyati, antropotsentrik talqiniga e’tibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Баҳриддинова Б. Ўзбекистонда ўқув луғатчилигининг назарий ва амалий масалалари. Монография. –Қарши: Фан ва таълим. 2020. – В. 207.
2. Қўзиев У. Ўзбек тилидаги изоҳли луғатларда ўзлашма сўзлар таҳлили. Монография. – Наманган, 2016. – В. 168.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилдли. III жилд. – Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 2020. –В. 688.
4. Чан М. Парадигматика заимствований с градуальной семантикой // Филология: научные исследования. – 2019. – №2. – С. 232-241.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилдли. IV жилд. – Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 2020. –В. 608.

6. Баҳриддинова Б.М. Ўзбекистонда ўқув луғатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари: Филол. фан... доктори (DSc) дисс. – Самарқанд: 2020.

7. Большой толковый словарь русского языка. редактор Кузнецова С.А. – Санкт-Петербург: Норинт, 2000. – С. 1536.

8. Академический толковый словарь русского языка. Том 1. Крысин Л.П., Кулева А.С., Нечаева И.В., Шестакова Л.Л. – Москва: Издательский Дом ЯСК, 2016. –С. 672 .

SURXONDARYO GIDRONIMLARINING TABIIY BELGI-XUSUSIYATLARI ASOSIDA NOMLANISHI

Majidova Shahnoza,
Termiz davlat pedagogika instituti
Komilovna.sh.m91@gmail.com.

Annotatsiya. Surxondaryo viloyati gidronimlarini leksik-semantik o‘rganishda toponimika fanining ravnaqiga katta hissa qo‘shgan soha olimlarining tadqiqotlariga asoslanib tekshirilayotgan hududdagi gidronimlarning suvning tabiiy belgi-xususiyatlari asosida nomlangan suv obyekti nomlarini ko‘rib chiqamiz: Suvning tabiiy belgi-xususiyatlari asosida yaratilgan gidronimlar.

Kalit so‘zlar: gidronim, tabiiy, obyekt, rang, maza-ta’m, shifobaxshlik, suyuqlik, shaffoflik, harorat, hid, qizil, ko‘k, yer osti suvlari.

Suvning tabiiy belgi-xususiyatlari asosida yaratilgan gidronimlar Rus tilshunosi V.V.Vinogradov yozganidek “So‘z ma’nosi u orqali ifodalanayotgan predmetdan va atash vazifasining predmetga mutanosibligidan uzoqqa ketmaydi”. Bu suv so‘zi uchun ham xos. Suv so‘zining asosiy ma’nosi – “vodorod bilan kislorodning kimyoviy birikmasidan iborat tuzsiz, rangsiz, shaffof suyuklik”. So‘zning mazmun tomoni, ya’ni ma’no anglatishi uning ifoda tomoniga qaraganda birmuncha murakkabroq [1:60]. Suv leksemasi hozirgi o‘zbek adabiy tilida ko‘z yoshi, ichimlik suvi, sel, soy, jilg‘a, kanal, sharbat, mineral suv, ter, ko‘lmak, jonlanish, uyg‘onish, so‘lak, zahm, yiring, spirtli ichimlik kabi ma’nolarni ham ifodalashi mumkin.

Suv so‘zi gidronimik jihatdan o‘zining yuqoridagi asosiy ma’nosida qo‘llangani holda o‘ziga xos belgi-xususiyatlarga ega. Aniqrog‘i, suv maza-ta’m, hid, harorat kabi belgi-xususiyatlarga ega. Ko‘pincha suv obyektlarini nomlashda suvga xos ana shu belgi-xususiyatlar ham motiv qilib olinadi. Bu o‘zbek tili gidronimiyasida ham kuzatiladi.

Suvning belgi - xususiyatlari asosida yaratilgan o‘zbek tili gidronimlarini qanday belgi - xususiyatlarga motivlanganligiga ko‘ra quyidagicha guruhlash mumkin:

I. Rang bilan bog‘liq gidronimlar. O‘zbek tilida suv so‘ziga rang bildiruvchi lug‘aviy birliklarning qo‘shiluvidan bir qator terminlar yasalganki, ular suvga xos turli belgi-xususiyatlarni ifodalaydi va shu asosda rang bilan bog‘liq gidronimlar shakllanishiga lisoniy motiv bo‘ladi. Suv leksemasi bilan bog‘liq bu masala o‘zbek tilining sug‘orish leksikasi negizida X.Jabborov [2:38-40] tomonidan o‘rganilgan.

Rang bilan bog‘liq gidronimlar tarkibida oq, qora, sariq, ko‘k, qizil, yashil kabi rang tushunchasini ifodalovchi so‘zlar qatnashadi. Bu guruhga mansub gidronimlarni o‘z ichida yana quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Oq so‘zi asosida shakllangan gidronimlar: Oqbuloq (Boysun t. Sayrob q.), Oqsuv bulog‘i (Sho‘rchi t. Oqsuv q.), Oqbuloq (Sherobod t. Xomkon q.), Oqqul (ariq) (Sherobod t. Laylagan q.), Oqjarsoy (Ko‘hitangtog‘ yonbag‘irlari), Oqsuv kanal (Oltinsoy tum.) Oqsuv (soy), Oqsoy (Boysun tum. Sho‘rob q.), Oqbuloq (Sherobod tum. Xomkon q.) kabi gidronimlar mavjud.

Oq so‘zi lug‘aviy jihatdan “qor, sut, paxta rangidagi” degan ma’noga ega [3:557].

R.Ravshanov Samarqand vohasining sug‘orilish tarixi haqida fikr yuritar ekan, “Vohadagi suv manbai ikkiga - oqsuv va qorasuv manbalariga bo‘lingan. Baland tog‘lardagi qorning erishidan hosil bo‘lgan suv oqsuv deyilib, u dehqonchilik uchun qulay va foydali bo‘lgan”, - deb yozadi [4:35]. Bu fikrni oqsuv so‘zining geografik termin sifatida toza, chuchuk suv; ko‘proq turg‘un, zax suvdan farq qilib, oqar suv ma’nosida ishlatiladi, - deb izohlanishi ham tasdiqlaydi.

Oq so‘zining tahlilidan ko‘rinadiki, biz yuqorida keltirgan Oqbuloq suv obyekti suvi tiniqligiga ko‘ra shunday nomlangan bo‘lib, “suvi oq-tiniq buloq” degan ma’noga ega.

2. Qora so‘zi asosida shakllangan gidronimlar. Toponimiyaga oid ilmiy manbalarda yer ostidan chiqadigan buloq va sizot suvlari bilan to‘yinadigan soy-jilg‘alar qorasuv deyilishi, chunki ularning suvi qoramtir tusda bo‘lishi ko‘rsatiladi. Qorasuv gidronimining semantik asosi ana shu qorasuv terminiga bog‘lanadi [1:65].

Qorasuv o‘zbek tilida geografik termin sifatida quyidagi ma’nolarda qo‘llanadi:

1) qorasuv-tog‘ etaklarida, vodiylarda yer osti suvlaridan to‘yinadigan soy va daralar;

2) tashlama va zovur suvlari. Shuningdek, odatda buloq suvlari shu termin bilan yuritiladi. “Qorasuv” termini rang ma’nosidagi qora so‘zidan emas, yer ma’nosidagi qora so‘zidan olingan, ya’ni yer suvi degan ma’noni anglatadi, deb ko‘rsatiladi. R.Ravshanov suv manbalari haqida fikr yuritib, “qorasuv” buloq suvidir, - deb ko‘rsatadi [1:65]. Surxondaryo viloyati gidronimiyasida qorasuv termini ana shu ma’nolari bilan gidronimlar shakllanishiga asos bo‘lganligi kuzatiladi: Qorabuloq (Sherobod t. Xomkon q.), Qoraariq (Oltinsoy t. Mirshodi q.), Qorasuv daryo, Qorachashma (buloq) (Sherobod t. Pashxurt q.), Qoraqiyirjilg‘a (Sherobod t. Kampirtepa q.), Qorasoy, Qoratolli (Sherobod t. Guliston q.), Qoratol (soy) (Sherobod tum. Kampirtepa q.), Qorasuvsoy, Qorao‘pkali (soy) (Sherobod tum. Guliston q.) kabi.

Qorabuloq, Qorasuv bulog‘i gidronimlari suvi yer ostidan chiqqanligiga, suvining qoramtir tusda ekanligiga ko‘ra shunday nomlangan. Qorasoy esa asosan yer osti suvlaridan to‘yinganligiga ko‘ra shunday atalgan. N.Begaliyev gidronimlarning bu ma’noviy turini, ya’ni oqsuv va qorasuv so‘zlari bilan nomlangan suv obyektlarini tahlil qilar ekan, bunday nomlar suv obyektlarining to‘yinishi haqida ma’lumot beruvchi gidronimik hodisadir, degan xulosaga keladi. Albatta, bu fikr asosli va mantiqan to‘g‘ri [1:65].

3. Sariq so‘zi asosida shakllangan gidronimlar. Sariqamish (buloq) (Sherobod, Denov t.), Soriqquduq (Boysun t. Machay q.) kabi gidronimlar sariq so‘zi asosida shakllangan.

Samarqand gidronimiyasida bu guruhga mansub Sarisuv (Sam v. Jomboy t.-kanal) gidronimi uchraydi. [1:65] Soriquduq // Sariqquduq so‘zining fonetik varianti bo‘lib, geografik termin hisoblanadi. Tog‘oldi loss va gildan iborat qiya tekisliklardan oquvchi loyqa suvlar sarisuv deb yuritiladi. Shu rangdagi suvi bor quduq. Sarisuv gidronimi ana shu geografik terminning suv obyekti nomiga otishi asosida yuzaga kelgan.

4 . Ko‘k so‘zi asosida shakllangan gidronimlar. Ko‘k so‘zi “tiniq osmon rangidagi, moviy, zangori” degan lug‘aviy ma’nolarni anglatadi. O‘zbek tilida ko‘ksuv atamasi ham bor. Surxondaryo viloyati mahalliy shevalarida ham tiniq, toza, zilol suv ko‘ksuv deyiladi. Surxondaryo viloyati gidronimiyasida Ko‘kbuloq (Denov t.), Ko‘khovuz (Boysun t. Darband q.), Ko‘ksoy (Sherobod t. Xomkon q.), Ko‘kchinor (Sherobod t. Pashxurt q.) gidronimlari kuzatiladi. Mazkur gidronim suvlarining tozaligi, tiniqligi bois shunday nomlangan.

5. Qizil so‘zi asosida shakllangan gidronimlar. Qizil so‘zi qirmizi, alvon degan lug‘aviy ma’noni anglatadi. Gidronimlarning qizil rangi yerning ustki qatlamining rangiga qiyoslanadi. Bundan tashqari qizil so‘zi suvni ifodalasa, loyqa ma’nosini bildiradi. Qizilkesak (soy) (Sherobod t. Pashxurt q.), Qizilship (jilg‘a) (Sherobod t. Kampirtepa q.), Qizilsoy (Sherobod t. Xo‘jaulkan q.), Qizilbuloq (Sherobod t. Xatak q.), Qizilhovuz (Sherobod t. Xomkon q.), Qizilbuloq (Sherobod t. Xomkon q.), Qizilbuloq (Boysun t. Sayrob q.), Qizilariq (Boysun t. Sayrob q.), Qizilbuloq (Boysun t. Sho‘rob q.), Qizilsoy (Boysun t. Machay q.), Qizilbuloq (Denov t.), Qiziljarsoy.

II. Suvning maza-ta’mi bilan bog‘liq gidronimlar. Tabiatdagi suv tarkibida turli tuzlar gazlar, organik moddalar erigan holda uchraydi. Shirin, chuchuk, totli, sho‘r, achchiq kabi so‘zlar suvning maza-ta’mini bildiradi. Surxondaryo viloyati gidronimiyasida bir qancha suv obyektlari suvning maza-ta’miga ko‘ra nomlangan bo‘lib, ularning tarkibida apa shu so‘zlar uchraydi. Shirinbuloq (Sherobod t. Xomkon q.), Shirinquduq, Shakarbuloq (Boysun t. Sho‘rob q.), Chuchukquduq , Gulbuloq (Sherobod t. Xo‘jaulkan q.), Shakarbuloq (Denov t.), Shakarko‘l (Sho‘rchi t.), Chuchuqquduq (Sho‘rchi t.), Sassiqbuloq (Sherobod t. Xo‘jaulkan q.), Sassiqbuloq (Oltinsoy t. Vaxshivor q.) Sho‘rko‘l (Sherobod t. Oqtosh q.), Sho‘raksoy (Boysun t. Sayrob q.), Labisho‘r (daryo), Taxirbuloq (Sherobod t.), Sho‘rbuloq (Boysun t. Panjob q.) Bollidara (Sherobod t.), Sutlibuloq (Sho‘rchi t.), Shakarbuloq (Denov t.), Obishir (Sho‘rchi t.), Navotsoy, Shakarko‘l (Sho‘rchi tum.), Chuchuqquduq (Sho‘rchi tum.), Shirinquduq, Sassiqbuloq (Sherobod t. Xo‘jaulkan q.), Sho‘rcha (buloq) (Sherobod t. Oqtosh q.), Sho‘rchabuloq (Sherobod t. Pashxurt q.), Sho‘rko‘l (Sherobod t. Pashxurt q.), Sho‘rko‘l (Sherobod t. Xomkon q.), Obisho‘rdaryo, Sho‘raksoy (Boysun t. Xo‘jabulg‘or q.), Sho‘rbuloqsoy (Boysun t. Xo‘jabulg‘or q.), Sho‘rob (ariq) (Boysun t. Sho‘rob q.), Talxobsoy, Sho‘rdara, Sho‘rdara (jilg‘a), Sho‘rob (Boysun t. Sayrob q.) kabi.

O‘zbek tilida sho‘r so‘zi asosida shakllangan gidronimlar asosan sho‘r so‘zining “tarkibida tuz moddasi ko‘p bo‘lgan” ma’nosi asosida yuzaga kelgan. Chuchukbuloq shirin so‘zining sinonimi, “ta’mi yaxshi”, ma’nosini anglatuvchi chuchuk so‘zi asosida nomlangan bo‘lib, “suvi shirin, yaxshi ta’mli, ichimlik suvi sifatida foydalansa bo‘ladigan buloq” ma’nosiga ega.

III. Suvning hidi va harorati bilan bog‘liq gidronimlar: Sassiqbuloq (Sherobod t. Xo‘jaulkan q.), Sassiq buloq (Sherobod t. Xomkon q.), Sassiqbuloq (Sherobod t. Vandob

q.), Qaynarbuloq (Sherobod t. Xo‘jaulkan q.), Issiqchashma (Sariosiyo t.), Jilibuloq (Oltinsoy t.), Gandabuloq (Boysun t. Sayrob q.), Sovuqbuloq (Sherobod t. Xatak q.), Sassiqbuloq (Sherobod t.), Sassiqko‘l, Qaynarbuloq (Denov t.), Gandabuloq (Sherobod t. Pashxurt q.), Quduqi Ganda (Boysun t. Sayrob q.), Gandabuloq (Boysun t. Sayrob q.), Sovuqbuloq//Suvuqbuloq (Sherobod t. Kampirtepa q.) kabi.

Issiqchashma (Chashma-sinonimi buloq) gidronimi “issiq buloq” geografik termini asosida yuzaga kelgan. Suvining harorati yuqori bo‘lgan buloqlar issiq buloq deyiladi. Sariosiyo tumanidagi buloq nisbiy issiq buloqlar sirasiga mansub bo‘lib, suvining iliqligiga ko‘ra shunday nom olgan. Qaynar ham geografik termin sifatida quyidagi ma’nolarda qo‘llanadi:

1) suvi pastdan yuqoriga ko‘tarilib chiqadigan buloq. Shu o‘rinda shunday buloq qannar buloq deyilishi ham qayd etilgan.

2) yo‘l, katta ariq, pastlik joy tagidan quvurlar orqali chiqarilgan inshoot.

Qaynarbuloq gidronimi qaynar geografik terminining birinchi ma’nosi asosida shakllangan. Buloq suvi tubidan otilib chiqishiga ko‘ra Qaynarbuloq deb nomlangan.

IV. Suvning shifobaxshligiga nisbat berilgan gidronimlar. Ayrim suv obyektlarining, ko‘proq buloqlarning suvi mineralligi, shifobaxshligi bilan xarakterlanadi va qanday kasallikka shifoligiga nisbat berish asosida nomlanadi: G‘urumbuloq (Sherobod t. Xomkon q.), Omonxona (Boysun t. Padang q.), Qo‘tirbuloq (Denov t.), Obishifo (buloq) (Boysun t. Darband q.), G‘urumbuloq (Sherobod tum. Xomkon q.), G‘o‘rinbuloq (Boysun tum. Sayrob q.), Qo‘tirbuloq (Oltinsoy tum.) kabi.

Surxondaryo viloyati suv obyektlarini nomlashda suv va suv obyektiga xos tabiiy, geografik xususiyatlar va boshqa omillar motivga olingan. Bu suv obyektlarini nomlashda ko‘proq suvga xos tabiiy, kimyoviy va suv obyektiga xos keng ma’nodagi tabiiy-geografik xususiyatlar motiv vazifasini bajarganligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Uluqov N. O‘zbek tili gidronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi. - T.: Fan, 2008.
2. Jabborov X. O‘zbek tilining sug‘orish leksikasi. - Qarshi: Nasaf. 2004. - B 38-40.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I.-t., - B. 557.
4. Ravshanov R. Qorasuv va oqsuv. // Fan va turmush, 1974. -№8, - B. 35.
5. Qoraev S. Geografik nom ma’nosi. –T.: O‘zbekiston, 1978.- B. 94.

TERMIN TUSHUNCHASIGA OID NAZARIY QARASHLAR

Hojiyeva Minovvarxon,
NamDU tayanch doktoranti
munavvar_qdpi@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada terminologik kompetentlik, termin, atama, istiloh tushunchalarining o‘xshash va farqli jihatlari haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: terminologik kompetentlik, termin, atama, istiloh, so‘z, nomenklatura.

Bo‘lajak filolog mutaxassislarda kasbiy kompetensiyaning yadrosi bo‘lgan terminologik kompetensiyalarni rivojlantirish va takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Terminologik kompetentlikni egallagan mutaxassis o‘z sohasiga oid terminlarni o‘rganishi va ularni to‘plashi, zamonaviy terminlarni o‘rganishi va amaliyotga tadbiq qilishi maqsadga muvofiqdir.

Til har bir xalqning madaniy boyligini o‘zida aks ettiruvchi ko‘zgu hisoblanadi. Til insonlarning ijtimoiy va mehnat foaliyatiga uzviy aloqador. Insoniyatning ongi va tafakkurining rivojlanishi, turmushi va mehnat faoliyatidagi barcha jarayonlar, yuksalishlar uning tilida o‘z aksini topadi.

Hozirgi kunda keng qo‘llanib kelinayotgan “termin” hamda terminologiya masalalari yuzasidan xorij va o‘zbek tilshunosligida ko‘plab tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lib, termin va terminologiya tushunchasiga turli ta’riflar berilgan. Mavjud ilmiy adabiyot materiallarida keltirilishicha, termin lotincha “terminus” – chegara, chegara belgisi, chek ma’nolarini anglatuvchi so‘zdan olingan [5, 203]. V.N.Shevchuk terminga quyidagicha ta’rif beradi: “Termin – bu so‘z bo‘lib, o‘rta asrlarda “aniqlash”, “ifodalash” degan ma’nolarni bildirgan, qadimiy fransuz tilida mavjud bo‘lgan “terme” leksemasi “so‘z” degan ma’noni ifodalagan” [11, 6]. Termin hayotning talabi bilan paydo bo‘ladi, ular tilning leksikasini to‘ldirib, boyitib boradi. Terminologiya barcha sohalar bilan chambarchas aloqador. Fanning biror tarmog‘i yo‘qki, unda maxsus so‘zlar, ya’ni terminlar uchramasa.

P.Nishonovning ta’kidlashicha, termin – tuzilishiga ko‘ra, so‘z yoki so‘z birikmasi bo‘lib, semantikasi jihatdan maxsus soha doirasi bilan chegaralangan va shu sohaga oid tushunchani ifodalovchi leksik birlikdir. [7,17].

A.A.Reformatskiy ta’rificha, termin so‘z hisoblanib, ular o‘zining alohida va maxsus belgilari bilan chegaralanadi, terminlar fan, texnika, istisod, siyosat va diplomatiya sohalaridagi bir ma’noli, aniq so‘zlardir [8, 110]. V.P.Danilenkoning kuzatishicha, “Terminlar – lug‘at tarkibining bir qismi hisoblanib, fan va sohalar predmetining aniqlovsichidir” [3, 15]. Haqiqatan ham, ilm-fan, texnika sohalarining rivojlanishi bilan yangi-yangi ixtirolar, kashfiyotlar yuzaga keladi. Bu o‘zgarishlarni ifodalovchi “yangi so‘zlar”ga, “yangi termin”larga ehtiyoj tug‘iladi va yangi terminlar “o‘ylab topiladi”, “ijod qilinadi”. Ilm-fan, texnika sohalarining rivojlanishi, taraqqiyoti terminlarda o‘z aksini topadi. Fanning qaysi sohasi taraqqiy etgan bo‘lsa, shu fanning

terminologiyasi va terminlari tizimi ham rivojlangan bo‘ladi. Mazkur jarayon doimo rivojlanishda bo‘lib, terminlar tufayli leksikografiya taraqqiy etadi.

A.V.Superanskaya esa quyidagicha ta’riflaydi: “Termin – bu muayyan kasbiy professional faoliyatga qabul qilingan va alohida sohalarda, sharoitlarda ishlatiladigan maxsus so‘zdir. Termin – bu proessional bilimning muayyan sohasi tushunchalar tizimiga kiruvchi tushuncha bo‘lib, u so‘z bilan ifodalanadi. Termin – bu maxsus maqsadlar uchun mo‘ljallangan tilning asosiy tushunchaviy elementidir. O‘z terminologik maydoni ichida termin bir ma’noda qo‘llaniladi. Turli maydonlarning bir xil aytiladigan terminlari – omonimlardir. O‘zining to‘g‘ri tushunilishi uchun terminlar maxsus definitsiya (aniq ilmiy ta’rif)ni talab qiladi” [9, 246].

Professor S.Usmonovning tadqiqotlarida terminga quyidagicha ta’rif beriladi: termin “ ... ham ishlab chiqarish qurollari sohasida, ham madaniyat va fan sohasidagi har qanday yangiliklar dastavval til birliklari, to‘g‘rirog‘i, terminlar orqali o‘z iodasini topadi. Shu ma’noda terminologiya (ma’lum tildagi terminlar majmui) zamona tarixining guvohi, ko‘zgusidir” [7, 28].

Rus terminologik maktabining asoschisi D.S.Lotte tomonidan tizimlilik, terminning konteksga bog‘liq emasligi, qisqalik, mutlaq va nisbiy bir ma’nolik, oddiylik va tushunarlilik, terminning joriy etilganlik darajasi bilan ifodalangan[6, 157]. Terminlar birdaniga paydo bo‘lmaydi, u zamonlar sinovida o‘tib, o‘rganilgandan so‘nggina tilga qabul qilinadi. Tilshunos olim R. Doniyorovning ta’kidlashicha, “konkret bir fan ham, umuman texnika, binobarin, ularning terminlari ham muayyan bir xalqning ijod maxsuli emas. Ular jahon xalqlarining jamisi to‘plagan, bilgan, o‘rgangan obyektiv borliqning majmuidir, yig‘indisidir” [4, 115]. G.O.Vinokur ta’rifi bilan aytganda, terminlar “paydo bo‘lmaydi”, balki ularga extiyoj sezilganda “o‘ylab topiladi”, “ijod qilinadi” [3]. Insoniyat, davr, ilm-fan, texnika sohalarining rivojlanishi bilan o‘zi ifoda etayotgan terminlarga ehtiyoj seziladi va ular “o‘ylab topiladi”, “ijod qilinadi”. Jamiyat boshidan o‘tkazgan barcha voqea-hadisalar, yutuqlar, kerak bo‘lsa, kamchiliklar shu jamiyatning terminlarda o‘z aksini topadi.

Demak, termin mazmunan muayyan mantiqiy tushunchalar tizimidagi ma’lum bir birlik bilan shartsiz ravishda (majburan) nisbatlangan (qiyoslangan) so‘z. Termin – tuzilishiga ko‘ra, so‘z yoki so‘z birikmasi bo‘lib, semantikasi jihatdan maxsus soha doira bilan chegaralangan va ushbu sohaga oid tushunchani ifodalovchi leksik birlikdir. Termin o‘z lingvistik tabiatiga ko‘ra, adabiy til lug‘aviy tizimining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, boshqa toifadagi so‘zlardan ilmiy, texnikaviy yoxud boshqa kasbiy tushunchalarni aniq, ixcham ifodalashi va axborotga boyligi bilan ajralib turadi.

“Atama” so‘zi keng ma’noda qo‘llanilib, geografik joy nomlariga, obyektlarga, atoqli nomlarga nisbatan qo‘llaniladi.

“Istiloh” arabcha so‘z bo‘lib, o‘zbekcha “atama” degan ma’noni bildiradi [13, 36]. Istiloh so‘zi o‘zbek tilida faol qo‘llanilmaydi, adabiy til me’yoriga aylangan emas.

Keyingi paytlarda termin so‘zi bilan bir qatorda “atama”, “istiloh” so‘zlari ham keng qo‘llanilmoqda. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida keltirilishicha: ... “termin” so‘zi bilan bir qatorda ayni ma’noda “atama”, “istiloh” so‘zlari ham qo‘llanilmoqda. Lekin ular “termin” so‘zining to‘liq ma’nosini ifoda eta olmaydi. “Atama” so‘zi keng ma’noda qo‘llanilib, geografik obyektlar, atoqli nomlarga nisbatan qo‘llanilsa, “istiloh”

so‘zini esa asosan tarixiy mavzulardagi matnlar (masalan, adabiyot tarixi, Sharq falsafasi va b.)da bemalol qo‘llash mumkin [12, 323].

Professor S.Usmonovning fikriga ko‘ra: “...atama so‘zining ma’nosi termin so‘zining ma’nosiga nisbatan keng bo‘lib, u barcha narsalarning nomi sifatida tushuniladi, termin esa muayyan bir tor sohada qo‘llanuvchi rasmiylashgan so‘zdir. Shu ma’noda, termin tushunchasi “atama” tushunchasining ichiga kiruvchi ilmiy-lug‘aviy birlikdir [10, 28].

O.Ahmedov “termin”, “atama”, “istiloh”, “nomenklatura” tushunchalarini farqlab, shunday deydi: “Terminlar aslida leskik-semantik jihatdan umumadabiy qolipga ega bo‘lib, ular umumxalq tiliga muayyan terminologik tizim orqali o‘tadi. Zero, terminlar va umumiste’moldagi so‘zlar bir-birini to‘ldiradigan leksik birliklardir” [1, 21].

Akademik A.Hojiev termin so‘zini atama so‘zi bilan almashtirib qo‘llashning noto‘g‘ri ekanligini ta’kidlaydi [14,22-25].

Demak, termin so‘zini ilm-fanning biror sohasi yoki tarmog‘ida qo‘llanuvchi so‘z yoki so‘z birikmalariga nisbatan qo‘llanilsa, atama so‘zini esa insonlar tomonidan shartli ravishda qo‘yilgan nomlarga, geografik joylarga, toponimlarga qo‘llash o‘rinli. Istiloh so‘zini termin ma’nosida qo‘llash noto‘g‘ri, chunki bu so‘z ko‘proq tarixiy tushunchalarni ifodalab, tarixiy mavzulardagi matnlarda ishlatiladi.

Termin chegaralangan leksik qatlamga mansub lug‘aviy birlik hisoblanib, terminologik lug‘atlar yaratishning asosiy manbaidir. Termin muayyan bir sohada qo‘llanuvchi va ularni ishlatadigan shaxsgagina zarur bo‘lgan, rasmiylashgan so‘zdir.

Atama so‘zi esa termin so‘zining ma’nosiga nisbatan keng bo‘lib, u barcha narsalarning nomi sifatida tushuniladi hamda atamadan keng omma ham ko‘proq foydalanadi. Unda terminologiyaga umuman tegishli bo‘lmagan toponimiya, antroponimiya, oykonimiya, ya’ni onomastikaga aloqador leksik birliklar ham tushuniladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, termin mohiyat e’tibori bilan bir so‘zdir, faqat so‘zning alohida turi hisoblanadi. Termin – bu umumadabiy tilning maxsus, funsional ko‘rinishi, ya’ni ilm-fan tilidir.Termin fan taraqqiyoti tufayli yuzaga keluvchi so‘zlardir. Ular o‘zicha paydo bo‘lmaydi, balki terminlar o‘ylab topiladi, ixtiro qilinadi, ijod natijasida paydo bo‘ladi. Terminlar chegaralangan til bo‘lib, biror ilmiy-texnikaviy soha doirasida qo‘llanuvchi so‘z hisoblanadi. Terminlardan soha vakillari unumli foydalanadi, omma esa foydalanmaydi.

Atama barcha narsalarning nomi sifatida tushuniladi hamda atamadan keng omma ham ko‘proq foydalanadi. Unda terminologiyaga tegishli bo‘lmagan toponimiya, oykonimiya, antroponimiyaga aloqador so‘zlar ham tushuniladi. Istiloh esa hozirgi kunda ommaga tushunali bo‘lmagan so‘zlardir.

Xullas, termin aniq bir ilm-fan, qishloq xo‘jaligi, texnikadagi qabul qilingan va qonunlashtirilgan tushunchaning ifodasidir. Termin, atama, istiloh so‘zlarini o‘z vazifasiga muvofiq qo‘llash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аҳмедов О. С. Инглиз ва ўзбек тилларида солиқ ва божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари. Филол. фан.док. ...дисс. – Т.: 2016. - Б. 21.

2. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии. // Труды МИФЛИ. Т. 5. Сборник статей по языковедению. – Москва, 1939.

3. Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – М., 1977. – С. 15.

4.Дониёров Р. Ўзбек тилининг илмий-техникавий терминлари тарихидан. – Т.: Фан, 1973, – Б. 115.

5. Крысин.Л.П. Толковый словарь иноязычных слов. – М., 1998. – С. 203.

6.Лотте Д.С. Краткие формы научно-технических терминов. – М.:Наука, 1971.; Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. Вопросы теории и методики. –М.: Изд-во АН СССР, 1961. – С. 157.

7. Нишонов П. Француз ва ўзбек тиллари юридик терминологиясининг қиёсий-типологик тадқиқи. Номз.диссер... – Тошкент, 2009. – Б.17.

8. Реформатский А.А. Термин как член лексической системы языка // проблемы структурной лингвистики. – М., 1968. – С. 110.

9. Суперанская А.В. Общая терминология. – М.:УРСС, 2003. – С. 56-246.

10. Усмонов С. Юристнинг нутқи маданияти. – Т.:2007. – Б. 28.

11. Шевчук В.Н. Производные военные термины в английском языке. –М., 1983. – С. 6.

12. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т.:2000. – Б. 323.

13. Ҳабибжонов И. Адабиёт дарсликларидаги тушунилиши қийин сўзлар луғати. – Т., 2014. – Б. 36.

14. Ҳожиев А. Термин танлаш мезонлари. – Т.,1996. – Б. 22-25.

MILLIY TOPONIMIKANING DOLZARB MUAMMOLARIGA DOIR

To‘ychiyev Abdurashid,
Davlat tilida ish yuritish
asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi
Toshkent viloyati hududiy bo‘linmasi rahbari,
Dexqonov Xasanboy,
Davlat tilida ish yuritish asoslarini
o‘qitish va malaka oshirish markazida bo‘lim boshlig‘i

Annotatsiya. Maqolada bugungi kunda geografik obyektlarni nomlashning qonuniy-huquqiy asoslari, unda belgilangan vazifalar, ularni amalga oshirishdagi ba’zi muammolar va ularning yechimiga oid fikr-mulohazalar hamda takliflar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: geografik obyektlar, shaxs nomlari, qishloq, mahalla, qonunchilikdagi o‘zgarishlar.

Ma’lumki, Respublikamizda 2011-yil “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonun [1] qabul qilinguniga qadar geografik obyektlarning nomlari sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda 1996-yilda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy-hududiy tuzilish, toponimik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalarini hal etish tartibi to‘g‘risida”gi Qonun [2] asosiy hujjat bo‘lib kelgan.

Ta’kidlash zarur, o‘sha paytda qabul qilingan mazkur qonunda ma’muriy-hududiy bo‘linish, oykonim (aholi manzili) nomlari borasida bo‘ladigan o‘zgarishlar umumdavlat darajasida hisobga olinmagan. Respublikadagi barcha aholi punktlari nomlarining rasmiy ro‘yxati mavjud bo‘lmaganligi sababli, ularni qayta nomlash va hisobga olish u paytda hali yo‘lga qo‘yilmagan edi.

Ko‘p vaqtlar mobaynida geografik obyektlar nomlarini yozish masalalari bo‘yicha ixtisoslashgan xizmatlarning yo‘qligi geografik obyektlar nomlarining xaritalarda ma’nosi noaniq, ba’zida esa talaffuzi buzilib, g‘aliz nomlar yozilishiga sabab bo‘lib kelgan.

2011-yilda “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi, o‘sha paytda mukammal darajada bo‘lmagan bo‘lsa-da, geografik obyektlar nomlarini qo‘llashning asosiy prinsiplarini yuridik jihatdan mustahkamladi, geografik obyektlarning nomlari sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni takomillashtirishga qaratilgan yagona davlat siyosati, geografik obyektlarning nomlarini belgilash va normallashtirishga yagona ilmiy-uslubiy yondashuv, geografik obyektlarning nomlarini O‘zbekiston Respublikasi xalqlari tarixiy va madaniy merosining tarkibiy qismi sifatida to‘g‘ri qo‘llash hamda saqlash imkonini berdi.

Mazkur Qonunning 4-moddasiga muvofiq viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, aholi punktlariga hamda ko‘chalar, shohko‘chalar, mahallalar, maydonlar, bog‘larga va aholi punktlarining boshqa tarkibiy qismlariga odamlarning ismi-sharifini berishga, shuningdek, ularni tarixiy voqealar sharafiga nomlashga, qoida tariqasida, yo‘l qo‘yilmasligi belgilangan. Shu munosabat bilan o‘tgan

vaqt mobaynida hududlardagi toponimik komissiyalar bilan birgalikda respublika bo‘yicha jami 20 mingdan ortiq shaxs nomlari qo‘yillgan, qonun hujjatlariga to‘g‘ri kelmaydigan va nomsiz geografik obyektlar keyingi yillarda qayta nomlandi. Yozilish shakllarida xatoliklar bo‘lgan nomlar geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilishi qoidalari asosida normallashtirildi.

Geografik obyektlarni asossiz qayta nomlashning, ularga O‘zbekiston xalqining milliy an’analari va qadriyatlariga yot bo‘lgan nomlar berilishining oldini olish, ushbu sohada mahalliychilik, oshna-og‘aynigarchilik, xizmat martabasini suiiste’mol qilish hollariga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash jarayonining xolisona hamda oshkora bo‘lishini ta’minlash bo‘yicha kompleks tadbirlar asosida ish olib borilmoqda.

Endilikda tumanlar, shaharlar, viloyatlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish viloyatlar hamda Toshkent shahar hokimlari iltimosnomalari asosida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi kiritgan taklifga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari tomonidan amalga oshiriladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida joylashgan tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, aholi punktlariga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish tumanlar, shaharlar hokimlarining taklifiga ko‘ra Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi tomonidan amalga oshiriladi.

Shaharchalar, qishloqlar, ovullar, aholi punktlariga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish tumanlar hokimlarining taklifiga ko‘ra xalq deputatlari viloyatlar Kengashlari tomonidan amalga oshiriladi.

Aholi punktlarining tarkibiy qismlariga (mahallalar, shohko‘chalar, ko‘chalar, maydonlar, bog‘lar, xiyobonlarga) nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning iltimosnomalari asosida tumanlar, shaharlar hokimlari kiritgan taklifga ko‘ra xalq deputatlari tuman, shahar Kengashlari tomonidan amalga oshiriladi.

Qonunning 3-moddasiga muvofiq “Davyergeodezkadastr” qo‘mitasi geografik obyektlarga nom berish sohasidagi maxsus organ hisoblanadi. Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-sonli qaroriga muvofiq Davlat kadastrlari, geodeziya va kartografiya milliy markazida Respublika toponimika xizmati tashkil etilib, bugungi kunda xizmat quyidagi vazifalarni amalga oshirib kelmoqda:

- geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni belgilangan tartibda davlat ekspertizasidan o‘tkazish;
- geografik obyektlarning nomlarini maqbullashtirish hamda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish;
- geografik obyektlarning nomlari davlat reyestrini yuritish;
- geografik obyektlarning nomlari sohasida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish (geografik obyektlarning nomlarini bir tildan boshqasiga o‘tkazish bo‘yicha yo‘riqnomalar, joyni o‘zida toponimik jihatdan tekshirish bo‘yicha qo‘llanmalar, geografik obyektlarning nomlarini belgilash va boshqalar);
- geografik obyektlar nomlarining davlat reyestriga kiritilgan geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risidagi axborotni yuridik va jismoniy shaxslarga belgilangan tartibda taqdim etish.

Shu o‘rinda, ba’zi tarixiy faktlarni ham eslash o‘rinli bo‘ladi. Sobiq sho‘ro davrida ma’muriy-hududiy birliklarni nomlash bilan bog‘liq muammolardan biri (bunday nomlarning ruscha-yevropacha ekanligidan tashqari) aslida aholi yashash maskani emas, balki xo‘jalik subyekti bo‘lmish kolxoz va sovxozlarning aholi yashash maskani sifatida ko‘rsatilishi bo‘lib, ko‘pchilik hollarda aholi yashaydigan hududda tuzilgan kolxoz va sovxoz nomlari aholi yashaydigan qishloq o‘rnida keltirilar (masalan, «falon oblasti, falon rayoni, falon kolxozi, falon ko‘chasi, falon raqamli uy» ko‘rinishida), shu tariqa anchagina qishloq nomlari Karl Marks, Engels, Lenin, Kirov, Krupskaya, Telman va h.k. kolxozlari yoki sovxozlari bilan almashtirilgan edi. Qizig‘i shundaki, sho‘ro davridagi ma’muriy-hududiy birliklar nomlari orasida birgina qishloq sof o‘zbekcha nom, qolganlari (respublika, oblast, rayon, mahalla, ko‘cha va h.k.) esa rus-yevropa, arab va tojik tillaridan kirib kelgan so‘zlar bo‘lib, qishloq o‘rniga kolxoz va sovxozning qo‘llanilishi ana shu yagona o‘zbekcha ma’muriy-hududiy birlik nomini ham qo‘llanuvdan chiqarib tashlashga bo‘lgan bir urinishga o‘xshab ketardi.

Yurtimiz mustaqillikka erishib, butun tarixiy-madaniy merosimiz hamda boshqa barcha milliy va diniy qadriyatlarimiz qatorida *qishloq* deb atalmish ma’muriy-hududiy birlik nomi ham yo‘qolib ketish xavfidan xalos bo‘ldi, deb turganimizda (qishloq so‘zi nomigagina saqlab qolingan holda) nimagadir asosiy o‘rinlarda qishloqning o‘rniga o‘rinsiz tarzda *mahalla* so‘zi yoki umuman noto‘g‘ri tarzda *mahalla fuqarolari yig‘ini* iborasi qo‘llanila boshladi?! Bu holat g‘oyatda achinarli. Sababi, bu o‘rinda nafaqat chet (arab) tilidan kirib kelgan bir so‘z (mahalla) sof o‘zbekcha bir so‘z (qishloq) o‘rnida tilning leksik-semantik va onomastik qonun-qoidalariga nomunosib tarzda ishlatilmoqda, o‘zbek tilida qishloqni emas, balki shaharlarning, hatto ayrim yirik qishloqlarning bir qismini bildiradigan *mahalla* so‘zi qishloq so‘zi o‘rnida noto‘g‘ri qo‘llanilmoqda, o‘zbeklar orasida tarixan qo‘llanib kelgan qishloq oqsoqoli iborasi o‘rniga mahalla oqsoqoli iborasi qo‘llanilmoqda. Undanam achinarlisi shundaki, bunda ayrim yirik qishloqlar bir necha mahallalarga bo‘linayotgan bo‘lsa, bir necha kichik qishloqlar bir «mahalla»ga birlashtirilmoqda?! Bu holat o‘zbekcha ma’muriy-hududiy birlik nomi – *qishloq*ni ataylab qo‘llanuvdan chiqarib tashlashga urinishdek taassurot uyg‘otadi kishida. Buning ustiga mahalla fuqarolari yig‘ini (bu qisqartma shaklda MFY deb ham yoziladi) iborasi ham xuddi sho‘ro davridagi kolxozlar va sovxozlarning ma’muriy-hududiy birlik sifatida qo‘llanilishiga o‘xshab ketadi. Chunki, MFY lar ham aslida aholi yashash maskani emas, balki qishloqda yashovchi aholining o‘zini-o‘zi boshqarish organidir. Shularni hisobga olgan holda quyidagi takliflarni berish o‘rinli bo‘ladi:

1. Ilgaridan mavjud bo‘lgan o‘zbekcha joy nomlarini boshqa tillardagi nomlarga almashtirishni butunlay to‘xtatish.

2. Shu choqqacha boshqa tillardagi nomlar bilan almashtirilgan o‘zbekcha joy nomlarini qayta tiklash.

3. Bundan buyon yangi vujudga keladigan geografik obyektlarga faqatgina o‘zbekcha nom qo‘yish (o‘zbeklardan boshqa millatlar vakillari to‘p bo‘lib yashaydigan joylarda yangi vujudga keladigan geografik obyektlar bundan mustasno).

4. Toponimik obyektlarni o‘zbekcha nomlash qoidalarini ishlab chiqish. Unda, jumladan, boshqa tillardan kirib kelgan toponim yasash unsurlari va qo‘shimchalari (masalan, tojikcha -obod, -iston, -zor, -xona va h.k.) dan foydalanishni to‘xtatish bilan bir

chog‘da sof o‘zbekcha toponim yasash usullari, jumladan, qo‘shimchalarini (masalan, -loq, -qishloq, -qo‘rg‘on, -lar, -li va h.k. ko‘rinishida) ishlab chiqishni ko‘zda tutish.

5. Ma’muriy-hududiy birliklarni nomlash tizimini uning o‘zbekchaligini saqlab qolish va o‘zgalashtirilgan o‘rinlarini o‘zbekchalashtirish nuqtayi nazaridan qayta ko‘rib chiqish.

Geografik obyektlar nomlarini tizimlashtirishda, huquqiy qo‘llanilishida turli xil yondashuvlarning oldini olish, tarixiy shakllangan joy nomlarini aks ettirish maqsadida amaldagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini tanqidiy tahlildan o‘tkazish, tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasini ishlab chiqish va umumxalq muhokamasiga qo‘yishni davrning o‘zi taqozo qilganligi bois 2022-yil 8-oktabr kuni O‘zbekiston Oliy Majlisi Senati 33-yalpi majlisida «Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishni ma’qulladi [3].

Endilikda fuqarolarimiz geografik obyektlarga nom berish tashabbusi bilan chiqishlari mumkin bo‘ladi. Senat qonunchilikka aholi punktlarining tarkibiy qismlariga jahon tarixida muhim iz qoldirgan shaxslarning nomlarini berish imkoniyatini taqdim etuvchi o‘zgartishlar kiritilishini ma’qulladi. Bundan tashqari, endilikda joylarni nomlash yoki qayta nomlashda aholining fikri ham inobatga olinadi.

Aholi manzillarining tarkibiy qismlariga (mahallalar, xiyobonlar, ko‘chalar, maydonlar) nafaqat O‘zbekiston, balki jahon tarixida chuqur iz qoldirgan shaxslarning ism-shariflarini berish imkoniyati qonundagi eng asosiy o‘zgartishlardan biri bo‘ladi. Ushbu tartib shu vaqtga qadar qonunda nazarda tutilmagan bo‘lsa-da, mamlakatda jahon tarixi, madaniyati, adabiyoti, ilm-fani va jamiyat hayotiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk shaxslar nomi bilan atalgan obyektlar bor, xususan, mamlakatimiz poytaxti Toshkent shahrida Aleksandr Pushkin, Lev Tolstoy, Shota Rustaveli, Javoharlal Neru, Yuriy Gagarin va boshqalarning nomlari bilan ataluvchi ko‘cha, xiyobon va metro bekatlari bor.

Qonunda nomlari bo‘lmagan aholi punktlarining tarkibiy qismlariga O‘zbekiston yoki jahon tarixida chuqur iz qoldirgan shaxslarning nomlarini berish Vazirlar Mahkamasining taqdimnomasiga binoan Senat yoki Prezident qarorlari asosida vafotidan keyin amalga oshirilishi belgilab qo‘yildi. Hujjatda taniqli shaxslar nomini belgilash, jumladan, ekspertiza o‘tkazish, muvofiqlashtirish, mahalliy aholining fikrlarini hisobga olish va tasdiqlash tartibi batafsil bayon etilgan.

Qonun, shuningdek, tumanlari bo‘lgan shahar ichidagi bir nechta bir xil geografik obyektlarga bir xil nom berishni cheklaydi. Bu endilikda bitta shaharda bir xil nomlarning mavjudligini istisno qiladi.

Geografik obyektlarga nom berish va qayta nomlashda mahalliy aholining fikrini inobatga olish to‘g‘risida alohida moddaning paydo bo‘lgani muhim yangilikdir. Endilikda qonun aholi fikrini hisobga olish talabini nazarda tutadi, lekin bu hisobni yuritish tartibini tartibga solmaydi. Bundan tashqari, unda fuqarolarning geografik obyektlarga nom berish tashabbusi bilan chiqish imkoniyati aniq ko‘rsatilmagan.

Ma’qullangan tahrirga ko‘ra, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash

to‘g‘risidagi takliflarni ular kelib tushgan kundan e’tiboran 5 ish kunidan kechiktirmay o‘zlarining rasmiy nashrlarida, veb-saytlarida va ommaviy axborot vositalarida muhokama qilish uchun e’lon qilishlari shart. Takliflarni muhokama qilish muddati e’lon qilingan kundan boshlab 15 kundan kam bo‘lmasligi kerak.

Mahalliy aholi o‘z fikrini yakka tartibda yoki birgalikda og‘zaki, yozma yoki elektron shaklda bildirishi mumkin. Bunda shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi, shuningdek, uning yashash joyi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim. Joylardagi hokimiyat organlari mahalliy aholidan kelib tushgan fikr-mulohazalarni umumlashtirib, geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash bo‘yicha tegishli komissiyaga taqdim etadi, ular xulosa tayyorlashda hisobga olinadi.

Qonun loyihasining tahliliy eslatmasida qayd etilishicha, yangi modda «fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish imkoniyatini kengaytirish, qabul qilinayotgan qarorlarning hayotiy va samarali bo‘lishini ta’minlaydi». Qonunga kiritilgan o‘zgarish mualliflari geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlashda geografik obyekt joylashgan hududda yashovchi fuqarolarning fikri majburiy ravishda hisobga olinadigan boshqa mamlakatlar, jumladan, Qozog‘iston tajribasiga ham murojaat qilishgan.

Aholi punktlarining tarkibiy qismlariga nom berish va ularni qayta nomlash vakolatlari xalq deputatlari tumanlar va shaharlar kengashlariga beriladi, tegishli hokimlar tomonidan takliflar kiritiladi. Tumanlari bor shaharlarda xalq deputatlari shahar Kengashi shunday vakolatlarga ega (takliflar shahar tumanlari hokimlari tomonidan beriladi).

Joy nomlari haqida Prezidentimiz: “Jamiyatimizda til bilan bog‘liq eng ko‘p muhokama qilinayotgan, haqli e’tirozlarga sabab bo‘layotgan mavzu – bu joy nomlarini belgilash masalasi, desak, xato bo‘lmaydi.

Afsuski, jamoat joylarida, ko‘chalarda, binolar peshtoqida toponimik belgilar, turli lavha va reklamalar ko‘pincha xorijiy tillarda, ma’naviyatimizga yot mazmun va shakllarda aks ettirilmoqda. Bu davlat tili talablariga, milliy madaniyat va qadriyatlarimizga bepisandlikdan, umumiy savodxonlik darajasi esa tushib ketayotganidan dalolat beradi”, – deya haqli fikr bildirgan desak, aslo xato qilmagan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2011-yil, 13-oktyabr, 198 (5365)-son.

2. “O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy-hududiy tuzilish, toponimik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalarini hal etish tartibi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 30.08.1996 yildagi 276-I-son. Elektron manba: https://lex.uz/docs/-38721

3. Geografik obyektlarga nom berish talablari takomillashtirilmoqda. Elektron manba: https://senat.uz/uz/lists/view/4966

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan. 2019.21.10. Elektron manba: https://president.uz/uz/lists/view/2954

SO‘X TUMANI TOPONIMLARINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI

Abbozov Oxunjon,
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchi,
oabbozov2020@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada So‘x tumani toponimlarining leksik-semantik, etnonimik xususiyatlari, ularning nutqda yuzaga kelish omillari, sabablari hamda uslubiy xususiyatlarini o‘rganish, mavzuiy jihatdan tasnif qilish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: toponim, antropotsentrik paradigma, sotsiolingvistika, etno belgilar, lingvokulturologiya, etnotoponim, antropotoponim, mifologema.

Hozirgi kundagi siyosiy-geografik ma’lumotlarga ko‘ra, Farg‘ona vodiysi – janubida Farg‘ona, sharqiy qismida Andijon va shimoliy-g‘arbiy qismida Namangan viloyatlari joylashgan Markaziy Osiyodagi eng aholi zich yashaydigan hududlardan biridir. [1:176].

So‘x tumani Farg‘ona vodiysida joylashgan bo‘lib, ma’muriy jihatdan murakkab hududiy maskan hisoblanadi. So‘x tumanining yer maydoni 270,7 km.kv.dan iborat. Aholi soni 80 mingdan ziyod. Aholi milliy tarkibini asosan tojiklar, qisman, o‘zbeklar, qirg‘iz va boshqa millat vakillari tashkil qiladi. So‘x kichik aholi manzili va kam sonli qishloqlardan tarkib topgan. Tuman to‘rt tomondan qo‘shni Qirg‘iziston Respublikasining Botken viloyati hududi bilan o‘ralgan, chegara hududining umumiy uzunligi 145 km.ni tashkil etadi.

So‘x tumani toponimlari turli ijtimoiy-tarixiy davrlar, siyosiy qarashlar mahsuli bo‘lib, ularning yuzaga kelishi va ifodalanishida har bir davrning o‘ziga xos belgilari aks etgan.

Har bir davr toponimlarning paydo bo‘lishida shu davr kishilarining dunyoqarashi, diniy mansublik va siyosiy harakatlar yetakchi omil sifatida ta’sir etadi. Aynan shu asos tilning ijtimoiyligini ko‘rsatadi. Til jamiyat ehtiyojlariga xizmat qilar ekan, unda jamiyat belgilari aks etadi. Shu sababli ham «Til – jamiyat ko‘zgusidir» deya ta’riflanadi. [2:15]

Til ilmida toponimlar atoqli ot sanaladi, ammo ularning nima uchun shunday nomlangani haqidagi tadqiqotlar bugungi kunda tilshunoslikda o‘ta ahamiyatli va qiziqarli mavzular doirasini tashkil etmoqda.

Bugungi kunda toponimlar ijtimoiy nuqtai nazardan antropotsentrik paradigmaning bir tarmog‘i sanalgan sotsiolingvistika yo‘nalishida keng o‘rganilmoqda. Bu haqda soha mutaxassislarining fikrlarini keltirib o‘tish o‘rinli. Xususan, mazkur yo‘nalishda o‘zbek tilshunosligida professor E.Begmatov toponimlarni anglatuvchi atoqli otlarning aksariyat turlari, ular bajaruvchi nominativ vazifalar, nomlarning ma’no va etimologiyasi, lug‘aviy qatlamlari, yaratilishi uchun asos bo‘lgan omillar tahlilida ijtimoiy yondashuvlarga asosiy e’tiborni qaratish zarurligini ta’kidlaydi. [3:44]. Sababi shundaki, toponimlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, ular jamiyat kishilarining dunyoqarashi, davlat mustaqilligi va mazkur davlatda xalqlarning tolerantligi, siyosiy erkinligi va hatto diniy e’tiqodlari ta’sirida vujudga keladi. Shu jihatlari bilan toponimlar tilning nihoyatda noyob va ko‘p masalalarga aloqador bo‘lgan birligi sanaladi.

Toponimlarning paydo bo‘lishi va taraqqiyoti ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog‘liq. Ularning vazifasi yuzaki qaragandagina atash, nomlash bilan bog‘liq bo‘ladi, aslida bu nomlar tarix, bugun va kelajakni ko‘rsatadi. Ular nihoyatda katta etno belgilarni o‘zida aks ettiradi. Aholi yashash hududlarining nomlanishi va tarixiy o‘zgarishida mazkur hududdagi kishilarning urf-odati, yashash sharoiti, tili, kasb-kori, shuningdek, boshqa ijtimoiy-tarixiy omillar muhim ahamiyat kasb etadi. So‘x tumani toponimlari masalasida ham yuqoridagi fikrlarning to‘laqonli tasdig‘ini ko‘rish mumkin.

So‘x tumani Farg‘ona vodiysining o‘ziga xosliklarga ega bo‘lgan ma’muriy hududi sanaladi. N.Oxunov, S.Gubayeva, G.Jo‘raboyeva [4,5,6,7] kabi olimlarning tadqiqotlarida Farg‘ona vodiysi toponimiyasining bir-birini to‘ldiruvchi turli jihatlari o‘rganilgan. Shunday bo‘lsa-da, o‘zbek tili toponimlari tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy ishlar tarkibida bu hudud monografik tarzda tadqiqot ob’ekti sifatida maxsus tanlab olinmagan.

O‘zbek tili toponimiyasining lingvokulturologik hamda antropotsentrik jihatdan tadqiq etilishi fanning juda ko‘p sohalari rivojiga hissa qo‘shadi. Bunday tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu ahamiyat tarix, madaniyat, davlat va jamiyat masalalarini ham qamrab oladi. Ayniqsa, uzoq tarixga ega hududlar Farg‘ona vodiysi, xususan, So‘x tumani toponimiyasini lingvokulturologik jihatdan tahlil qilish fanga katta amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlar bera oladi. Toponimlar tarkibida tarix, insonlar tafakkuri va taraqqiyot asoslari mujassamlashadi.

Toponimlar tarixiy haqiqatning ajralmas va o‘zgarmas ko‘zgusidir. Ularda lingvistik vazifa bilan birga juda ko‘plab ijtimoiy-kognitiv belgilar yashiringan. Ularning lingvopragmatik, lingvokulturologik hamda lingvosotsial tadqiqqa tortish ko‘p masalalarga oydinlik kiritadi. So‘x tumani toponimiyasi yuzasidan tahlillarga keladigan bo‘lsak, mazkur hudud Farg‘ona vodiysining qadim zamonlardan buyon aholi yashab keladigan manzillari qatoriga kiradi. Uning yashash hududi sifatidagi tarixiy taraqqiyoti eramizdan avvalgi ming yilliklarga borib taqaladi. So‘x vohasi tog‘li hudud bo‘lishi bilan birga suv yo‘li – daryoning oqib o‘tganligi odamlar uchun qulay yashash sharoitlarini tabiiy ravishda hosil qilgan. Vohaning tog‘ zonalaridan yigirmadan ortiq turli shakl va imkoniyatga ega bo‘lgan g‘or va ungurlar mavjudligi mutaxassislar tomonidan aniqlangan. [8:36]. Bu esa ibtidoiy odamlar uchun qulay yashash manzilgohlarining mavjudligi demakdir. Ammo soha kesimida masalaga yondashadigan bo‘lsak, ibtidoiy davrga xos bo‘lgan toponimlar juda kam sonda bizgacha yetib kelgan, shu bilan birga, yetib kelganlari ham tarixiy taraqqiyot va ilm-fan farazlari ta’sirida ma’lum o‘zgarishlarga uchragan bo‘lishi ehtimoldan uzoq emas. Biz bu xususda u yoki bu tarzda fikr bildirishdan yiroqmiz, asosiy maqsadimiz So‘x tumani toponimlarining lingvistik xususiyatlarini bu mavzuga yaqin bo‘lgan sohalar bilan aloqadorlikda tadqiq etishdan iborat.

So‘x tumani toponimlarining kelib chiqishi, shakllanishi va taraqqiyoti nuqtai nazaridan uchta katta davrni ajratib ko‘rsatish mumkin. Bular:

1) qadimgi nomlar;
2) sho‘rolar davri siyosati bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan nomlar;
3) mustaqillik bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan nomlar.

So‘x tumanida mavjud toponimlarni ushbu tasnif asosida tadqiq etib ko‘radigan bo‘lsak, quyidagicha guruhlarni kuzatish mumkin. Birinchi guruh tarkibiga *Zirak, Quvvi, Kunjok, So‘x, Xonaqoh, Sarikanda, Xokkanak, Obishir, Surati, Sarbast, O‘rda, Hamal, Simodon, Xidirmon, Kasminon, Pidirgon, Nushtang, Buzurgon, Bujvotkon, Gurvonon, Zangat, Bog‘oshim, Lenbur, G‘aznav, Og‘utak, Kalidon, Qarichtob, Umbara, Ganjiravon* kabi toponimlarni kiritish mumkin. Bu guruhga kiruvchi toponimlarda fors-tojik tilining faol ta’siri seziladi. Bundan tashqari, qadimgi so‘g‘diy, arabiy va asoslari qorishib ketgan nomlar ham mazkur davr tarkibiga kiradi. Masalan, «-i» so‘z yasovchisi yordamida sifat hosil qilinishi va uning joy nomi sifatida qo‘llanilishi bu guruh leksemalari uchun xosdir. Misol uchun, *Balchiqi, Chuquri* kabi. Shu bilan birga aynan «-i» affiksi yordamida shakllangan ot-leksemalar ham ushbu guruh uchun xarakterli. Misol uchun, *Quvvi, Surati* kabi. Mazkur affiks fors-tojik tilida nihoyatda faol bo‘lgan «-i» so‘z yasovchisining keng imkoniyatlarini ko‘rsatish bilan birga toponimlar yasalishida tub joy aholisining tojik tilida so‘zlashuvchilardan tarkib topganligiga ham ishora qiladi.

Ikkinchi guruh tarkibi *Engels (Chorko‘cha), Jdanov (G‘aznaviy), Karl Marks (Qal’a), Kuybishev (Qal’acha), Leningrad (Sohibkor), Lenin (Guliston), Kalinin (Lenbur), Qahramon, Sportchi, Suyunchi, Obod, Iftixor, Guliston, Yoshlik, Iqbol, Mevazor, Lochin* kabilardan iborat bo‘lib, ular, asosan, sho‘rolar davrida qo‘yilgan, bu toponimlarning ayrimlari bugungi kunda ham qo‘llanilib kelmoqda. Bu davrda barpo etilgan kolxoz va ularning keyinchalik sovxoz shaklida faoliyat yuritishi hamda ularga qo‘yilgan nomlar davr siyosati va qarashlarini o‘zida ifoda etgan. Ba’zan esa bu nomlar o‘z mazmuniga siyosat bilan bog‘liq aldov va yolg‘onlarni ham singdirganini ko‘rish mumkin. Masalan, So‘x tumani hududida barpo etilgan «*Ozod*» jamoa xo‘jaligi nomini lisoniy dalil sifatida keltirish mumkin. O‘z davrida insonlarga ozodlik, hurlik va’da qilgan va puch va’dalar ortida odamlarni mute’lik qobig‘iga o‘ragan sho‘rolar hukumati siyosatida bu kabi nomlar ko‘p uchraydi. Bu nom sho‘rolar davlati parchalanib ketgandan so‘ng ham saqlanib qoldi, ammo uning ijtimoiy mazmuni va ichki ma’nolari tubdan o‘zgardi. Toponim sifatida tanlangan nom tom ma’noda o‘z ma’nosiga endigina yetishganday bo‘ldi. Istiqlol tufayli So‘x tumanidagi ayrim toponimlar o‘zgardi, ayrimlari esa shu zaylda saqlanib qoldi.

Uchinchi guruh toponimlari bevosita Vatanimiz mustaqilligi harakatlari bilan bog‘liq bo‘lib, ularning shakllanishi va qo‘llanilishida istiqlol va mustaqillik mafkurasining siyosiy ta’siri seziladi. Bunday nomlar qatoriga So‘x tumanidagi *Istiqlol, Mustaqillik, Xumo, Qahramon, Navobod, Sarhadchi, Ziyo, Buston, Matonat, Namuna, Anorbog‘, Gulirayhon, Haqiqat, Sebzor, Obida, Bog‘bon, Zamin, Zakovat, Shodlik, Sohil, Ishbilarmon, Mardlar, Omuzgor, Baxt, Mehr, Adolat, Ustoz, Ma’naviyat, Ibrat, Mehribon, Sabohat, Oqibat, Hamkor, Suyunchi, Guliston, Iqbol, Ahil, Sardor, Rohat, Mevazor, Lochin, Gulxan, Navbahor, Bunyodkor, Kamolot, Ma’rifatgoh, Tabobat, Farog‘at, Ehtirom, Gulzor, Havaskor, Chorvador, Sihatgoh, Javonon, Shifokor, Binokor, Sohibkor* kabi ko‘cha va mahalla nomlarini misol qilish mumkin.

So‘x tumani hududida diniy e’tiqod, tushuncha va tasavvurlar bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan toponimlar ham talaygina. Toponimlarning lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq etishda kishilarning diniy qarashlari ham muhim ahamiyat kasb etgan. Ularning salmoqli qismini etnotoponim va antropotoponimlar doirasida o‘rganish mumkin.

Jumladan, totemlar asosida yuzaga kelgan etnonimlar juda qadimiydir. Ularning paydo boʻlishi majusiylar, yaʼni otashparastlar davriga borib tutashadi. [9:87] Bunga koʻra maʼlum urugʻ va qabila aʼzolari biror hayvon, oʻsimlik yoki predmet bilan aloqador hisoblanib, mazkur narsalarni muqaddaslashtirishgan va unga sigʻinishgan. Urugʻ-qabilalarni nomlashda totemik qarashlarga suyanish turkiy va moʻgʻul xalqlari orasida yuzaga kelgan qadimiy anʼana hisoblangan. [10:20] Ilmiy adabiyotlarda mazkur xalqlarning oʻtmishda, asosan, boʻri, ot, ayiq, burgut, ilon, echki, qoʻy, hoʻkiz, baliq va boshqa totemlarga eʼtiqod qilganliklari qayd etiladi. [11:12] Masalan, Oʻrta Osiyo xalqlarining muqaddas diniy kitobi «Avesto»da ot (asp) totemi bilan bogʻliq quyidagi antroponimlar yuzaga kelgan: *Arjosp* (qimmatbaho ot egasi), *Goʻshnasp* (erkak ot egasi), *Lurhosp* (uchqir ot egasi), *Vishtaspa* (urgʻochi ot egasi), *Garshosp* (chayir ot egasi), *Taxmosp* (chopqir ot egasi), *Huvosp* (yaxshi ot egasi) va boshqalar.[12:70]. Totem turlarini bildiruvchi aksariyati turkiy-moʻgʻulcha soʻzlar keyinchalik etnonimga aylanib, soʻngra joy nomi maqomiga erishgan va shu tariqa tilda turgʻunlik kasb etgan. Xususan, Soʻx tumanidagi *Hakka, Ayronchi* (ayron qushi), *Shunqor, Kuhi murgʻ, Qahat* (qush turi); *Oqechki, Aspraha, Choʻngʻara* kabi 10 ga yaqin etnotoponimlar totem sifatida muqaddaslashtirilgan jonivorlar nomini anglatuvchi birliklar asosida yuzaga kelgan. Shuningdek, ilk davrlarda mahalliy xalqlarning afsonaviy tarixi va olam haqidagi mifologik tasavvurlari bilan bogʻliq holda aksariyat ibodatxona, mugʻxona kabilar yoki ayrim suv havzalari va qishloq nomlari turli iloh va xudolar, insonlarga yordam beruvchi ruhlar nomi – mifologemalar bilan atalgan.

Fargʻona vodiysining ilk oʻrta asrlarda zardoʻshtiylik dini, urf-odatlari juda keng tarqalgan qadimiy hududlaridan biri Soʻx (f-t. suxtan – سوختن («yonmoq», «kuymoq») tumani nomining ham kelib chiqishi va etimologik talqinini, bizningcha, zardushtiylik taʼlimotida muqaddas, deb qaralgan olov tushunchasi bilan bogʻlash mumkin. Chunonchi, bir qancha tarixchi, arxeolog, etnograflarning maʼlumotlariga qaraganda [13:18], qazishmalar chogʻida mazkur hududdan zardushtiylik diniga oid koʻplab ashyoviy dalillarning – ular ichida eng mashhuri 1894 yilda Tul qishlogʻi yaqinidagi Mugʻtepa mavzesidan topilgan «ikki boshli chipor ilon» tumori – mugʻtepa va mugʻxonalarning topilishi ushbu fikrga kelishimizga asos boʻladi.

Islom dini qabul qilinganidan soʻng, muqaddas qadamjo va ziyoratgohlarni, shuningdek, ayrim qishloq, tepalik nomlarini paygʻambar va avliyolar, mashhur shayx va imomlar, pirlar ismi bilan atash ularning nomlanishi uchun asosiy mezon qilib olingan. Jumladan, choryorlarning toʻrtinchisi Hazrati Ali nomi bilan bogʻlanadigan *Shohimardon, Hazrati Ali, Imomota, Qadamjo*, shuningdek, Hazrat Alining mashhur Duldul oti bilan aloqador holda yuzaga kelgan *Dul ota* kabi ziyoratgoh hamda qishloq nomlarining barchasi islom dini taʼsirida vujudga kelgan toponimlardir.

Tilshunoslikda «nisbiy etnotoponimlar» termini bilan yuritiladigan eshon, xoʻja, soʻfi, shayx, toʻra tarkibli toponimlar qatlami mavjudki, ushbu nomlar ostida ham arablarga, chahoriyorlarga, umuman olganda, islom diniga aloqadorlik semalari yashiringan: *Hazrati Ali, Xidirmon (Xizirlar), Oluchamazor, Shayxi kurula, Qulfi zanjirkusho, Shayxatola, Yigit pirim, Sariq ota* kabilar.

Shunday qilib, toponimlar oʻzbek tilining tarixiy va madaniy til birligi sifatida oʻzida xalqning diniy-mifologik qarashlari, urf-odatlari, qadriyatlari hamda turmush

tarziga doir muhim ma’lumotlarni mujassamlashtiradi. Ularni lingvokulturologik jihatdan tahlil qilish til va madaniyat munosabati, qolaversa, xalqning madaniy qarashlari va an’analarini yoritishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

So‘x tumani toponimik birliklari o‘ziga xos tabiiy, iqlimiy, geografik, shu bilan birga, alohida ijtimoiy, siyosiy va etnik xususiyatlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Toponimlarning tarixiy kelib chiqishi, ularga tarixiy, siyosiy, ijtimoiy, diniy munosabatlarning ta’siri kabi masalalarni monografik tarzda o‘rganish vatanimiz tarixi, buguni hamda kelajagi uchun muhim masalalardan biri sanaladi. Xususan, So‘x tumani hududida qo‘llaniluvchi toponimlar etimologiyasi, semantikasi va pragmatik belgilari tilshunoslik, xususan, nomshunoslik sohasi uchun kerakli ma’lumot va dalillar bera oladi.

Umuman olganda, bugungi kunda So‘x tumani toponimlarning tadqiqiga ko‘ra qadimiy va navqiron maskan, deb baholash mumkin bo‘lgan hududga aylangan. Unda tarix, bugun va kelajakning kurtaklari mujassamligini ko‘rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдулбоқиев Ф. Фарғона водийси демографик ривожланишининг ўзига хос жиҳатлари // ФарДУ. Илмий хабарлар. – Фарғона, 2020 йил, 5-сон.
2. Бердиалиев А. Ўзбек синхрон социолингвистикаси. – Хўжанд, 2017.
3. Бегматов Э. Антропонимияни тадқиқ қилишнинг социолингвистик аспекти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – № 4.
4. Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1989. – 56 б.; Топонимия Кокандской группы районов: Автореферат дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1978. – 23 с.; Ўзбекистон топонимияси. – Қўқон, 2005.
5. Охунов Н., Аҳмадалиев Ю. Фарғона вилояти ойконимларининг номланиш хусусиятлари. – Фарғона: Фарғона, 2010.
6. Губаева С. Этнический состав населения Ферганы в конце XIX – начале XX в. – Ташкент: Фан, 1983. – 104 с.; Этнонимы в топонимии Ферганской долины: Автореф. дис. канд. истор. наук (Ин-т этнографии АН СССР). – Москва, 1973.
7. Жўрабоева Г. Фарғона водийси топонимларининг қиёсий-тарихий ва антропоцентрик тадқиқи: Фил.фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ..дисс. – Фарғона, 2021.
8. Анорбоев А., Исломов У., Матбобоев Б. Ўзбекистон тарихида қадимги Фарғона. – Тошкент: Фан, 2001.
9. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006.
10. Марқаев К. Тотемистик тасаввурлар билан боғлиқ этнонимлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2005. – № 1.; Саидхонов М., Эргашев А. Жой номлари – тарихимизнинг бир парчаси // Водийнома. – Андижон, 2016. – № 1.
11. Толстов С.П. Древний Хорезм. – Москва, 1948. – С. 223-226; Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007.
12. Исомиддинов Ф., Юсуфов И. Ирим-сиримлар. – Фарғона, 2020.

13. Джахонов У. Земледелие таджиков долины Соха в конце XIX – начале XX в. – Душанбе: Дониш, 1989.

QO‘SHMA SO‘Z VA BIRIKMA SHAKLIDAGI TURIZM TERMINLARI

Boymanov Elyor,
Navoiy davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda o‘zbek tili turizm sohasida qo‘llanadigan qo‘shma so‘z va birikmalarning o‘zbek tili lug‘at tarkibiga o‘zlashishiga doir ba’zi mulohazalar keltirilgan. Keltirilgan fikrlar misollar vositasida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: o‘zlashma termin, qo‘shma so‘z, aviafauna, aviapochta, ekoturizm, o‘spirin turist, kalkalash.

O‘zbek tili leksikasida sodda terminlar bilan bir qatorda ko‘pgina qo‘shma terminlar, shuningdek, birikmali terminlar ham qo‘llaniladi. “Ma’lumki, qo‘shma so‘zlar tilda muayyan ehtiyoj, zarurat tufayli tug‘iladi. Chunki predmet, voqea va hodisalar, ularning konkret yoki to‘liq belgilarini har doim ham bir so‘z (mustaqil ma’noli, bir o‘zakli so‘z) bilan ifodalash imkoni bo‘lavermaydi. Shuning uchun ham ma’lum tushunchani ikki yoki undan ortiq so‘z birikuvidan hosil bo‘lgan yangi yaxlit so‘z orqali ifodalashga ehtiyoj seziladi”.[1, 59] Hozirgi kunda fan va texnikaning turli sohalarida yuzaga kelayotgan ko‘plab qo‘shma terminlar ayni shu maqsad – bir so‘zda ikki tushunchani ifodalash uchun xizmat qilmoqda.

O‘zbek tilida avvaldan qo‘llab kelingan qo‘shma so‘zlarning ko‘pgina qismi tilimizning asosiy lug‘at fondi bazasidagi so‘zlardan, qisman, o‘zbek tiliga singishib ketgan arab va fors so‘zlaridan yasalgandir. Keyingi davrda rus tilining, ingliz tilining o‘zbek tiliga, uning leksikasiga ta’siri natijasida qo‘shma so‘zlarning yangi tip va modellari yuzaga keldi. Bular, asosan, yangi tushunchalarni ifodalovchi qo‘shma terminlardir. Qo‘shma terminlarning komponentlari genetik materialiga ko‘ra turlichadir. “Ingliz va rus tillarida turizm terminosistemasining shakllanishi insonning kasbiy faoliyat sohasi sifatida rivojlanishi bilan muvofiq ravishda kechgan. Iqtisodiy faoliyat turi sifatida turizmning vatani Angliya hisoblanadi. Ingliz tilida turizm terminologiyasining soha bilan shakllanib borishi quyidagi davrlarga ajratilgan”.[2, 8]

Bilamizki, “Til taraqqiyotining zamonaviy bosqichidagi eng samarali so‘z va termin o‘zlashtirish usullaridan biri – kalkadir. U tilda mavjud bo‘lmagan tushunchalarni tilda mavjud bo‘lgan birliklar vositasida ifodalash imkonini beradi”. [3, 107] O‘zbek tilining turizm terminologiyasida o‘zlashish masalasi tadqiq qilinganda to‘g‘ridan to‘g‘ri termin o‘zlashtirish faol ekanligi aniqlandi. Chunki yurtimizga xorijiy davlatlardan turistik maqsadda tashrif buyurayotgan sayyohlar tilida qo‘llanuvchi terminning o‘zbekcha muqobili mavjud bo‘lmasa, u tilimizga to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zlashadi. O‘zbek tili turizm terminologiyasida mavjud qo‘shma terminlar komponentlari turli tillarga mansub terminlardir. Ularning quyidagi turlari kuzatiladi:

1. *Aero, avia, avto* terminelementi + o‘zlashma morfema tipidagi qo‘shma terminlar: *aerobika, aerodrom, aerofobiya, aeroplan, aeroport; aviabilet, aviakompaniya,*

avialiniya, aviatarif; avtokemping, avtoralli, avtovokzal . Avia… (lot. avis – qush) – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib: 1) qushlar bilan bog‘liq so‘zlar yasaydi. Masalan: *aviafauna(avia…+lot.* Fauna – u yoki bu hayvon majmui*)*– muayyan hududda va muhitda yoki Yer tarixining ma’lum bir davrida mavjud bo‘lgan qushlar; 2) aviatsiyaga aloqador qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi. Masalan: *aviakompas, aviamodel, aviayo‘nalish aviapochta* – pochta yuklari samoliyotda tashiladigan aloqa tarmog‘i. [4, 17]

2. Turizm turlarini ifodalovchi qo‘shma terminlar: *avtoturizm, agroturizm ekoturizm, enoturizm, fotosafari.*

3.Turizm sohasidagi sog‘lomlashtirish turlarini ifodalovchi terminlar: *gelioterapiya* (quyoshda davolanish), *galoterapiya* (sun’iy hosil qilingan tuzli g‘orlar mikroiqilimida davolanish usuli), *ippoterapiya* (otda yurib davolanish), *krioterapiya* (muz yoki past haroratdan foydalangan holda davolanish), *talassoterapiya* (dengiz suvi va loyi xususiyatlaridan foydalangan holda davolanish), *balneoterapiya* (tabiiy yoki sun’iy mineral suvlar bilan vanna, dush kabi suvli protseduralarda davolanish).

4. *Tur* so‘zi bilan hosil qilingan qo‘shma terminlar: *turagent, turbroker, turhujjat, turlider, turoperator, turkassa, turbiznes.*

Tur termini turizm sohasida eng faol iste’molda bo‘lgan birliklardan biridir. Sohaga doir adabiyotlarda quyidagicha izohlanadi: Tur – muayyan yo‘nalish bo‘yicha turistik xizmatlar majmui (joy bandlash, ovqatlantirish, transport, rekreatsiya, ekskursiya xizmatlari va boshqa xizmatlar) bilan ta’minlangan aniq muddatdagi turistik sayohat.[5, 22]

Ekoturizmning subyekt va obyektlarini ifodalovchi qo‘shma terminlar: *ekoresurs, ekosafari, ekoturist*.

Demak, o‘zbek tilidagi qo‘shma turistik terminlar baynalmilal xarakterga ega bo‘lib, ularning o‘ziga xos jihati har ikki komponent ham o‘zlashmalardan iborat ekanligidir. Har bir tilda terminlarning aniq va ixcham bo‘lishi talab etiladi. Shu bilan birga terminlar tizimida milliylik va baynalmilallik bir-birini keskin rad etmagan uyg‘un holda mavjud bo‘lishi ham ijobiy hodisa sanaladi. O‘zbek tilidagi turistik terminlar tarkibi o‘rganilganda ularning asosiy qismi birikma shaklda ekanligi kuzatildi. Buning asosiy sababi sifatida quyidagi omillarni ko‘rsatish mumkin:

1.Xalqaro turizm terminologiyasida mavjud ko‘pgina terminlarning o‘zbek tilida muqobili bo‘lmagani uchun ularning tushunarliligi va aniqligini ta’minlash uchun ikki hamda undan ortiq leksik birliklardan foydalanishga bo‘lgan intilishdir.

2. G‘arbiy Yevropa tillaridan tayyor holda rus tiliga kirib kelgan va undan o‘zbek tiliga to‘liq yoki yarim kalkalash natijasida kirib kelgan terminlar. Demak, kalkalash G‘arbiy Yevropa tillaridan to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki rus tili vositasida amalga oshishi kuzatildi. Bu holatni quyida kuzatish mumkin:

Xalqaro termin	**Rus tilida ifodalanishi**	**O‘zbek tilida ifodalanishi**
Adult	Взрослый турист	O‘spirin turist
Baby-sitter	Услуги детской сиделки	Bolalarga qarash xizmati
Beachview	Номер с видомна пляж	Plyajga qaragan nomer
Cityview	Номер с видомна город	Shaharga qaragan nomer
Gardenview	Номер с видомна сад	Bog‘ga qaragan nomer

Landview	Номер с видомна окрестности	Atrofga qaragan nomer
Mountainview	Номер с видомна горы	Tog‘ga qaragan nomer
Oceanview	Номер с видомна океан	Okeanga qaragan nomer
Parkview	Номер с видом на парк	Parkka qaragan nomer
Poolview	Номер с видомна бассейн	Basseynga qaragan nomer
Riverview	Номер с видомна реку	Daryoga qaragan nomer
Seaview	Номер с видомна море	Dengizga qaragan nomer
Valleyview	Номер с видомна долину	Vodiyga qaragan nomer
Eticket	Электронный билет	Elektron bilet
Grandmaster	Мастер-ключ	Master kalit
Tripl	Трехместный номер	To‘rt o‘rinli nomer
Ботель	Плавучий отель	Suzuvchi mehmnxona
Дайвинг	Подводное плавание	Suv ostiga shong‘ish
Incentive-tour	Инсентив-тур	Insentiv tur
Catering	Общественное питание	Ijtimoiy ta’minot

Umuman olganda, umumiste’moldagi so‘zlarni yoki ularning ma’nolarini maxsuslashtirish, mavjud so‘z va morfemalar asosida termin yasash, ayrim o‘zlashma terminlarning o‘zlashayotgan tilda muqobillarini topish turistik termin yasash hamda o‘zlashtirishning lisoniy omillaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Madvaliyev A. O‘zbek tili terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2017.

2.Виноградова Л. Терминология туризма английского и русского язиков в синхронном и диахронном аспектах: Автореф. дисс. …канд.филол.наук. – Великий Новгород, 2011.

3. Shirinova YE. O‘zbek tili bank-moliya terminologiyasida kalka // O‘zbek tili va adabiyoti, 2017. – № 2.

4. Madvaliyev A., Mahkamov N., Mirahmedova Z., Saidno‘monov A. Xalqaro terminelementlarning izohli-illyustrativ lug‘ati. – T.:2020.

5.Mirzayev M., Aliyeva M. Turizm asoslari. – T.: 2011.

O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA ZAMONAVIY LEKSIKANING SOHAGA DOIR GURUHLARINI TUZISH MASALALARI

Abdullayev Oxunjon,
Qoraqalpoq davlat universiteti,
o‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek va qoraqalpoq tillariga kirib kelayotgan yangi terminlarni sohalarga doir lug‘atlarga kiritish va tuzish masalalariga bag‘ishlangan. Bunda ikki tilning lug‘at tarkibiga kiritilgan va kiritilmagan terminlarning ma’noviy guruhlarini tuzish tamoyillari haqida fikrlar keltirilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy leksika, terminlar, leksikografiya, sohaga doir terminlar, ma’noviy guruh, lug‘atchilik.

Har qanday fan o‘sha xalqning tili va nutqining tafakkuri erishgan yutuqlardan boshlanadi. Adabiy tilga yangi leksemalarning o‘zlashtirilishi xalqlarning o‘zaro madaniy va iqtisodiy aloqalari yoki narsa-hodisalarning ijtimoiy hayotdagi muhimligi bilan bog‘liq.

O‘tgan yuz yil ichida jamiyat taraqqiyoti tezlashdi. Insonlar ongi, ularning dunyoqarashi ham shunga muvofiq soddalikdan murakkablikka qarab o‘zgardi. Shuningdek, insonlarning kundalik iste’moldagi so‘zlari ham nutqiy rivojlanishda bo‘ldi, ko‘p ma’nolilik kasb etdi. Shunga muvofiq zamonaviy lug‘atlarga bo‘lgan ehtiyoj ham kuchaydi. Yangi leksemalarni qiyosiy va sohalar doirasida tadqiq qilish murakkab vazifa hisoblanadi. Chunki leksemalarning o‘zinigina o‘rganish yetarli emas, shu sohaga doir bir qancha ma’lumotlarni aks ettirish lozim.

Yangi leksemalarning muqobilini topish va qo‘llash esa ma’noni to‘la ochib bera olmaydi. Lug‘aviy muqobillik ko‘pincha, leksik birlik haqida to‘g‘ri tasavvur uyg‘otmaydi, chunki ikki tildagi o‘zaro muqobil terminlar turli tushunchalarni yoki bir-biriga yaqin bo‘lgan, lekin ma’no ko‘lamining turlicha ekanligi bilan farqlanadigan tushunchalarni ifodalaydi.

Shu sababli ham yangi leksemalarning qiyosiy tahlilini amalga oshirish va ularni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish yo‘llarini shunchaki bayon qilib berish emas, balki butun shu tilning butun sohalariga oid zamonaviy leksemalarning kompleks tadqiqini amlaga oshirish zarur. Buning uchun, avvalo, yangi so‘zlarning til lug‘aviy tizimidagi maqomini va uning yangi bo‘lmagan leksemalardan farqlaydigan belgilarini aniqlab olish joiz. Demak, yangi (zamonaviy) leksika tilimizdagi lug‘at boyligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ammo, bunday leksemalarni o‘zbek tilida ham qoraqalpoq tilida ham qo‘llashda kamchiliklar ko‘zga tashlanmoqda.

Ayniqsa, teledasturlar va reklama e’lonlarida yangi leksemalarni o‘rinsiz qo‘llash, yangi ochilayotgan obyekt nomlariga mos bo‘lmagan holda yoki xato yozilayotganligi bu boradagi tadqiqotlarning kam ekanligining dalilidir. Lug‘at tuzish ishi mashaqqatli, og‘ir, ko‘p yillik mehnat talab etadigan soha bo‘lganligi bilan bir qatorda tez o‘zgaruvchan, hozirgi taraqqiyot tezlashgan jarayonda har o‘n yillikda yangilanishi zarur bo‘lgan til fanining bir bo‘limi bo‘lib qoldi. O‘z davri so‘zlarini aks ettira oladigan har qanday lug‘at ma’lum vaqtdan so‘ng zamon talablariga javob bera olmay qoladi.

Mustaqillikdan so‘ng o‘zbek va qoraqalpoq tilining mavqeyi, ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy hayotdagi, davlat idoralarida ish yuritishdagi va matbuotdagi o‘rniga bo‘lgan ahamiyat kuchaydi. Tilimizning go‘zal imkoniyatlaridan unumli foydalanish, uning ifodaviyligi, jozibadorligini ko‘rsatib berish, turli sohalarga oid xalqaro miqyosda umumlashayotgan so‘z va iboralarni tilimiz qonuniyatlariga mos holda olib kirish ishlariga alohida e’tibor berila boshladi.

O‘zbek va qoraqalpoq tili leksikasi bugungi kunga qadar til taraqqiyoti natijasida doimiy o‘z ichki imkoniyatlari asosida so‘z yasash, o‘zga tillardan so‘z olish, eskirgan so‘zlarning chiqib ketishi kabi ma’lum bir o‘zgarishlar hisobiga tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tmoqda. Leksik qatlam taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liqdir. Xalqlarning o‘zaro madaniy, siyosiy, iqtisodiy aloqalari tillarning o‘zaro aralashish holatiga sabab bo‘ladi.

Leksikografik sistemadagi yangi neologizmlar ma’lum bir sohadagi tushunchani ifodalab, ular ma’lum bir predmetlar guruhiga, jarayonlarga oid tushunchalardir. Har bir yangi terminologik guruhda umumiy bir unsur bo‘ladi. Tilimiz leksik taraqqiyotining navbatdagi bosqichi so‘nggi o‘n yillikdagi davri bilan bog‘liqdir. Jamiyatimiz har bir sohasida boshlangan tub islohotlar, xalqaro madaniy, iqtisodiy, siyosiy aloqalar ma’lum til o‘zgarishlariga, tilimiz taraqqiyotiga yangi yo‘l ochdi. Muhimi shundaki, bu davrga kelib, turli tillarga oid rang-barang soha so‘zlari kirib kelishi kuchaydi.

Dunyo tillarini o‘rganish bilan birga ularning milliy-madaniy an’analari, urf-odatlariga muvofiq tushuncha va iboralarning o‘zlashishi tilimiz lug‘at boyligini yanada oshirdi.

Bugun dunyo hamjamiyati barcha jabhada modernizatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Aslida modernizatsiya doimiy jarayon bo‘lib, termin sifatida o‘z ichiga – “yangilanish, “o‘zgarish”, “zamonaviylashish” kabi bir qator ma’nolarni qamrab oladi. Istiqlol yillaridan so‘ng tilimizga jamiyatdagi turli sohalarining rivojlanishi va yangilanishi natijasida g‘arb tillaridan so‘z o‘zlashtirilganligini alohida ta’kidlab o‘tish joiz.

Jumladan, ko‘pgina sohalarda qo‘llanayotgan *nanotexnologiya*, *innovatsion* va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘zida aks ettiruvchi ma’lum bir tushunchalar borki, ular qo‘llanayotgan ma’lum bir fan tili nomi bilan birga kundan-kunga quloch yozib bormoqda. Tilimizga o‘zlashgan yangi (zamonaviy) so‘zlarni ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy va sport sohasi mavzuviy guruhlariga ajratib o‘rganish mumkin. Sport sohasi mavzuiy guruhiga oid inglizcha o‘zlashmalar mustaqillikdan so‘ng shu qadar ko‘p o‘zlashdiki, ularni madaniy-ma’rifiy soha so‘zlaridan ajratib, sistemali tarzda o‘rganish qulay va o‘rinlidir. Hozirgi paytda bu so‘zlarning ko‘pchiligi zamonaviy qatlam so‘zlari sifatida og‘zaki va yozma nutqda faol ishlatilmoqda. Inglizcha o‘zlashmalarni quyidagi mavzuviy guruhlar asosida tasniflab o‘rganish mumkin:

1. Ijtimoiy-siyosiy sohaga oid mavzuviy guruh leksikasi
2. Iqtisodiy sohaga oid mavzuviy guruh leksikasi
3. Madaniy-ma’rifiy sohaga oid mavzuviy guruh leksikasi
4. Sport sohasiga oid mavzuviy guruh leksikasi
5. Axborot-kommunikatsiyaga oid mavzuiy guruh leksikas
6. Fan-texnikaga oid mavzuiy guruh leksikasi

Bugungi kunda hali lug‘atlarimizda qayd etilgan ko‘pgina o‘zlashmalar matbuot sahifalarida qo‘llanib kelmoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalari doirasida qo‘llanayotgan ko‘plab leksemalarning o‘zbekcha – qoraqalpoqcha lug‘atlarda tavsiya etilgan variantlari mavjud emas. Bizningcha, ularni zarurat bo‘lsa, tilimiz tabiatiga mos ravishda o‘zbekcha va qoraqalpoqcha lug‘atlarimizga kiritish lozim bo‘ladi.

Quyida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy va sport sohasiga oid mavzuiy guruh so‘zlarini ichki bo‘linishlar asosida tasniflab o‘rganish ham mumkin. Masalan, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, sport mavzusidagi va ularning ichki bo‘linishidagi fan, san’at, dengizchilik, temir yo‘l, qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik-qurilish, savdo-sotiq, tibbiyot, matbaachilik, axborot-texnologiyalari, harbiy, maishiy mavzularga oid leksemalar o‘ziga xos tizimga ega.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari nomi, ichimlik nomlari, kiyim-kechak nomlari, uy-roʻzgʻor buyumlari nomi, tashkilot nomlari, oʻrin-joy tushunchasini anglatuvchi nomlar, mato nomlari, tansport vositalari nomi, texnika jihozlari nomlari ham oʻzbek tili leksikasidagi ayrim mavzuiy guruhlarning boʻsh oʻrinlarini toʻldirishga xizmat qilmoqda. Xulosa qilib aytsak, oʻzbek va qoraqalpoq tillariga oʻzlashayotgan yangi leksemalarning maʼnoviy guruhlarini aniqlash hamda soha lugʻatlarini tuzish bugungi kun tilshunosligining eng dolzarb jihati hisoblanadi. Bunday lugʻatlarning yaratilishi tilimizdagi tushunmovchiliklar, gʻalizliklar va imloviy savodsizlikning ham oldini olishda muhim omil boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Jamolxonov N. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. –T.: Oʻqituvchi, 2005. –B.196.

2.Madvaliyev A va b. Xalqaro terminelementlarning izohli-illyustrativ lugʻati. – T.: 2020. –B.8.

3.Mahmudov N. Oʻzbek tilida oʻzlashma soʻzlar: meʼyor va milliylik // Oʻzbek tili va adabiyoti, 2010. 6-son. –B.8.

4.Hamrayeva Y. Oʻzbek tilining oʻquv ideografik lugʻatini yaratish tamoyillari: Filol. fan. nomz....diss. avtoref. – T., 2010. –B.6.

QARAQALPAQSTAN TOPONIMLERI QURAMÍNDAǴÍ ORONIMIKALÍQ TERMINLER

AbishovGenjebay,
QMU, Qaraqalpaq til bilimi kafedrası docenti, PhD
Esbergenova Indira,
QMU, Lingvistika (qaraqalpaq tili) qánigeligi magistrantı

Annotatsiya. Joy nomlari tarkibida qatnashib, obyektni ifodalovchi geografik terminlar toponimiyada muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada joy nomlari tarkibida qoʻllanıladigan oronimik terminlar oʻrganilgan. Ularning etimologiyasi, turkiy tillarda qoʻllanılishi qiyosiy tahlil etilgan. Oronimik terminlarning toponim hosil qilishdagi ishtiroki Qoraqalpoǵiston misolida aniqlangan.

Kalit soʻzlar: toponim, oronimik termin, taw, tóbe, oy, taqır, qum, qır.

Toponimlerdiń payda bolıwı sol territoriyadaǵı xalıqtıń payda bolıwı, sol territoriyadaǵı xalıqtıń tili, úrd-ádeti, etnikalıq sostavı, jaylasıw ornı, sociallıq turmısı, sol territoriyanıń ósimlik hám haywanat dúnyası menen tıǵız baylanıslı. Adamlar ózleri jasaytuǵın awıllardıń atamalarında sol jerdiń tábiyiy geografiyalıq kórinisiniń eń xarakterli ózgesheliklerin sáwlelendiredi. Sonlıqtan, toponimlerdi atalıw principi jaǵınan klassifikaciya jasawda hárqıylı kóz-qaras bar. Sebebi, toponimlerdiń payda bolıwınıń kópshilik tiller ushın ortaq tárepleri menen birge, hár tildiń ishki nızamlılıqlarına baylanıslı ózgeshe tárepleri de bar.

Jer júzindegi kópshilik mámleketlerdiń qala hám rayonlarındaǵı geografiyalıq obyekt atamaları lingvistikalıq aspektte izertlenip, úyrenilip kelmekte. Sol ilimiy miynetlerde toponimlerdiń klassifikayaları berilgen. Al biz maqalamızda respublika aymaǵındaǵı toponimlerdi hám onıń quramındaǵı oronimikalıq terminlerdi úyrenemiz.

Respublikamız aymaǵındaǵı jer-suw atları, yaǵnıy toponimler geografiyalıq atamalardıń ayırıqsha toparın quraydı. Olardı izertlew, payda bolıw tariyxın úyreniw bizge kóp nárselerdi anıqlawǵa járdem beredi. Sebebi olar sol aymaqta jasap atırǵan adamlar, urıw, qáwimler hám usı jerdegi jergilikli xalıqlardıń jaylasıw ornı, úrp-ádeti, kásip-kári sıyaqlı bir qatar faktorlardı anıqlawda xızmet etedi. Yaǵnıy, geografiyalıq obyektlerdiń ózgesheliklerin, tábiyiy jaǵdayın sáwlelendiredi. Sonlıqtan olardı lingvistikalıq jaqtan hár tárepleme izertlew túriy tillerdiń biri bolǵan qaraqalpaq til bilimindegi áhmiyetli máselelerdiń biri.

Oronimler jer betindegi tawlar, tóbeshikler, oypatlıqlar hám basqada obyektlerdiń atların bildiredi. Olardıń jasalıwında *bel, qum, qır, oy, oypatlıq, taqır, maw, mac, tóbe, tóbeshik, tóbelik, shel, shıń, dóń* sıyaqlı oronimikalıq terminler qatnasadı. Bul terminler geografiyalıq obyekt atlarınıń quramında kelip jergilikli atamalardı payda etedi. Olar sol jerdiń tábiyiy ózgesheligin bildiretuǵın toponimikalıq sistemasın keltirip shıǵaradı.

Oronimler respublika toponimleri quramında belgili orın iyeleydi. Qaraqalpaqstannıń jer beti dúzilisi, tiykarınan, tegisliklerden ibarat. Bul aymaqta taw hám basqa da oronimikalıq obyektler az muǵdardı quraydı. Sol sebepli jergilikli toponimler quramında qollanılǵan oronimikalıq terminler az sanda ushırasadı. Bul jerdegi jer-suw atların úyrenip qaraǵanımızda atamalar quramında *taw, tóbe, qum, oy, taqır, qır, tas* oronimikalıq terminlerdiń qollanılǵanın kóremiz. Biz sol terminlerdiń qatnasında payda bolǵan toponimlerge toqtalıp ótpekshimiz.

Taw – termini barlıq tillerde paydalanıladı. Bul oronimikalıq termin kópshilik túrkiy tillerde qollanadı hám ol túrlishe variantlarda ushırasadı. Bashqurt, qazaq, tatar tillerinde *tau,* qırǵız tilinde *too*, altay tilinde *tuu*, azerbayjan, túrkmen tillerinde *dag*, xakas, tuva, uyǵur, shor, chulım tillerinde *tag,* ózbek tilinde *toǵ,* eski túrkiy tilinde *taǵ*, túrk tilinde *dag. Taw* sózi barlıq túrkiy tillerde ″jer ústiniń bólek-bólek yamasa qatar dizbekler túrinde kóterilgen jerlerin″ bildiriw ushın qollanıladı. Al qaraqalpaq tilinde «aynalasındaǵı jerden kóteriŋki, biyiklik, oǵada taslı jer» [7: 287] mánisin bildiredi. Bul termin arqalı jasalǵan atamalar kópshilik jaǵdayda obyektlerdiń sırtqı kórinisine yamasa túrine qarap ataladı. Quramında usı termin qatnasqan toponimler Qaraqalpaqstan toponimiyasında ushırasadı: *Háktaw, Qarataw, Bórshitaw*.

Taw termini eski túrkiy jazba esteliklerde de házirgi mánisinde qollanılǵan. Bul onıń oronimikalıq termin sıpatında biraz erte qálipleskenligin bildiredi. Mısalı ushın Qultegin jazba esteliklerinde [1:144-145], Maxmud Qashqariydiń sózliginde *taǵ* formasında ushırasadı [7:167].

Tóbe termini Qaraqalpaqstan toponimiyasında «ústi gúmbez tárizli bálent jer» degendi bildiredi. Qaraqalpaq tilinde jerden onsha biyik bolmaǵan jerdiń atamalarına *tóbe, tóbeshik, tóbelik* oronimikalıq terminleri qosıp aytıladı. Bul sóz túrkiy tillerde hár túrli fonetikalıq variantlarda ushırasadı: azerbayjan tilinde *tepe,* bashqurt hám tatar tillerinde *tóbó*, túrkmen tilinde *depe,* ózbek tilinde *tepa*, eski túrkiy tilinde *tópú*. Ol kóplegen toponimlerdi jasawda qatnasadı hám tarqalıw arealı keń. *Tóbe* termini tiykarında Kavkaz, Bolgaboyı, Qazaqstan, Oraylıq Aziya, Sibir, Balqan yarım arallarında kóplep orın atları jasalǵan: *Aqtóbe, Taxtatóbe, Qorǵantóbe*.

Tóbe termini oronimikalıq atamalardıń bir elementi sıpatında ónimli qollanıladı. Basqa túrkiy tillerdegi sıyaqlı rayondaǵı jergilikli xalıqtıń tilinde *tóbe, tóbelik, tóbeshik*

variantları bar. Bul termin kórsetilgen aymaqtağı xalıqtıń awızeki sóylew tilinde «tópe» túrindegi fonetikalıq ózgeriske ushıraǵan formasında da qollanıladı. Rayon toponimiyasında bul termin qatnasında dúzilgen *Qalmurat tópe* toponimi ushırasadı.

Oy – átirapındağı tegis jerlerge qaraǵanda pás, tómen, oy jer, tegis jer, shuqırlıq mánisin bildiredi. Bul terminniń túrkiy tillerdegi tarqalıw arealı bir qansha keń. O.T.Molchanovanıń kórsetiwine qaraǵanda, Tawlı Altayda onıń *oy, oyuk, oydım, oyım, oybok* sıyaqlı variantları bar bolıp, olar kóbinese gidronimikalıq atamalardıń quramında, geyde oronimikalıq atamalardı jasawda da qatnasadı [9:198-199]. Ayırım izertlewlerde *oy* terminin gidrografiyalıq termin sıpatında qaraydı. Ol kóbinese suw obyektleriniń atın bildiriw ushın qollanıladı. Qaraqalpaqstanda hár qanday shuqırlıq *oy* dep júritiledi. Kópshilik jaǵdayda bul suwsız boladı.

Oy termini apellyativ hám qospa toponimlerdiń bir elementi sıpatında ónimli qollanıladı. Bul termin Shımbay toponimleri quramında kóplep ushırasadı. Rayondağı gidronim hám oronimlerdi jasawda qatnasadı. Máselen, *Qazaqoy, Iyshanoy, Aytekeoy, Ǵarǵaoy, Ámetoy*, *Baekeoy, Baltashoy.*

Taqır termini úlken kólemdegi hesh qanday ósimlik óspegen, tegis qattı jerge baylanıslı qollanıladı. Rayon aymaǵında bul terminniń qatnasında payda bolǵan *Taqıroy* oronimi ushırasadı.

Qum termini respublikamızdağı toponimlerdi jasawda ónimli qatnasadı. Ol qumlı ashıq maydanlardıń atamaları quramında qollanıladı, biraq onsha kóp ushıraspaydı: *Allanazarqum, Bekbayqum, Esbergenqum, Tamlıqum, Egizqum.*

Eski túrkiy tilinde bul sóz házirgi mánisinde qollanılǵan. Maxmud Qashǵariydıń kórsetiwinshe, oǵuzlar qumdı *qayır* degen [8:180]. Bul termin kóplegen túrkiy tillerde ayırım fonetikalıq ózgeshelikleri menen qollanıladı. Máselen, ózbek, qazaq hám qaraqalpaq tillerinde *qum*, azerbayjan hám túrk tillerinde *gum,* túrkmen tilinde *gum* «qumlı jer», «qumlı landshaft», «qumlı sahra», usı tildegi *chege* sózi de «qum» mánisin ańlatadı [3:91]. Altay tilinde *kum* sózi "kóshpe qum", usı tildegi *qumaq* hám yakut tilindegi *kumax* sózeri «qum» mánisin ańlatadı.

Qum termini túrkiy tiller arqalı basqa tillerge de ótken. Máselen, monǵol tilinde *xumak* sózi «mayda qum, qum dánesheleri», *xum* «shań, tozań», iran tillerinde *kum* «qum», *kumzar* – «qumlıq» sıyaqlı mánilerge iye [10:313]. Sonday-aq, ayırım túrkiy tillerde *qum* terminine *aq, qara* sózleriniń qosılıwı menen qospa terminler jasaladı. Mısalı, S.Ataniyazov Túrkmenstandağı *Aqgum* oronimi, tiykarınan, geografiyalıq termin bolıp, «ústi taza, ot-shópsiz kóshpe qum» mánisin ańlatadı, – dep kórsetedi [2:29]. S.Qaraev «*qaraqum* – kópsheytuǵın, jerge bekkem ornalasıp jatırǵan hám ústine ósimlikler wsip jatırǵan qumlıq», – dep túsindiredi [4:180]. Demek, *qum* termini derlik barlıq túrkiy jáne basqa da tillerde keń qollanıladı hám jańa toponimlerdi jasaydı.

Qır termini «úlken kólemdegi biyiklik, dóń» mánisin bildiredi. Bul termin túrkiy tillerde keń tarqalǵan. Altay tilinde *kır* swzi «taw janbawırı», «ústúrt», túrkmen tilinde *gır, kır* sózi «tegis, ashıq maydan», «pás taw», qazaq tilinde *qır* sózi «taw janbawırı», chuvash tilinde *xir* sózi «maydan», «tikjarlıq», yakut tilinde *kırın* sózi «taw dizbegi», «pás taw» sıyaqlı mánilerdi bildiredi. O.Madrahimov bul termindi ústi azıraq gúmbez sıyaqlı biyiklikler, tóbelikler, pás tawlar–dep keltiredi [5:149]. Al M.Qashqariydıń

sózliginde qïr «bóget, suw toplanatuǵın jer; biyik taw, qır» [6:314] mánilerinde qollanıladı.

Q*ır* komponentli *Qırdaǵı Jamansha* toponimi ushırasadı. Bul sóz sol awıldıń biyigirek jerde jaylasqanın ańlatıw ushın toponim quramında qollanılǵan.

Juwmaqlap aytqanda, dúnya júzindegi geografiyalıq obyekt atamaların úyrengende bizge territoriya, millet, xalıq, milliy til haqqında maǵlıwmatlar beredi. Bul máselede Qaraqalpaqstan aymaǵındaǵı toponimlerdi izertlew onomastika ilimi ushın bay material beredi. Basqa regionlardaǵı sıyaqlı, toponimlerdiń payda bolıwında geografiyalıq terminler áhmiyetli orın tutadı. Olar hár qıylı sóz shaqaplarına qosılıp, geografiyalıq obyektlerdiń menshikli atın bildiredi, qospa toponimlerdiń payda bolıwına tiykar boladı hám geografiyalıq obyekttiń túrin ańlatadı. Qaraqalpaqsatn toponimiyasında ushırasatuǵın bunday oronimikalıq terminlerdiń basım kópshiligi tariyxıy shıǵısı boyınsha túrkiy tillerge ortaq sózlerden ibarat. Bul jerdegi oronimler ele de semantikası hám qurılısı boyınsha keń túrde tolıq ilimiy izertlew jumısların júrgiziwdi talap etedi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Әбдирахманов А. Қазақстанның жер-су аттары. – Алматы: Ғылым, 1959.
2. Атаныязов С. Түркменистаның географик атларының дүшүндиришли сөзлүги. – Ашхабад: Ылым, 1980. – С. 29.
3. Гельдыханов М. Географическая реалия в топонимии Туркменистана. // Топонимика в региональных географических исследованиях. Всесоюзная конференция. Тезисы докладов. – М.: 1984. – С. 91.
4. Қораев С. Географик номлар маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1978. – Б.180.
5. Мадраҳимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси. – Тошкент: Фан, 1973. – Б. 149.
6. Махмуд Кашқарий. Деван луғат-ат турк. – Тошкент, 1960. – Б. 498.
7. Махмуд Қошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк). – Тошкент: ЎзССР ФА,1963. III т. – Б. 167.
8. Махмуд Қошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк). – Тошкент: ЎзССР ФА, 1963. – Б. 180.
9. Молчанова О.Т. О гидрогеографияческих терминах тюркого Алтая // Местные географические термины. – М., 1970. – С. 198 -199.
10. Мурзаев Э.М. Словарь народных географических терминов. – Москва: Мысль, 1984. – С. 313.

QARAQALPAQ TILINDE YURIDIKALÍQ TERMINLERDIŃ QURAMÍ BOYÍNSHA TÚRLERI

Allamuratov Nurlıbay,
QMU, Qaraqalpaq til bilimi kafedrası oqıtıwshı

Annotatsiya. Maqolada qoraqalpoq tilidagi yuridik terminlarning sodda va murakkab turlari o‘rganilgan. Qoraqalpoq tilidagi yuridik terminlarning so‘z yasalishi, so‘z qo‘shish modeli orqali yangi ma’noli yuridik terminlar yasalishi va ularning hozirgi kunda qo‘llanish xususiyatlari izohlangan, tahlil qilingan.

Qoraqalpoq tilida so‘z qo‘shish modeli orqali yangi ma’noli yuridik terminlar yasalishi boshqa modellarga nisbatan bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Kalit so‘zlar: jay, dórendi, qospa, birikken, birikpegen, jup, qısqarǵan, yuridikalıq termin.

Terminler – bir mánili sózler. Olar eń dáslep hár qanday túsinikti qısqa hám ıqsham túsiniliwi ushın xızmet etedi. Xalıqtıń professionallıq iskerliginiń keńeyiwi, ilim hám texnika, ekonomika menen mádeniyat, intellektual rawajlanıwdıń joqarı dárejede bolıwı ádebiy tildiń professionallıq terminologiyalıq qatlamın tolıq mánide jetilistiriwge, qáliplestiriwge tiykar saldı [1.11].

Quramı boyınsha sózler jay hám qospa bolıp bólinedi. Házirgi qaraqalpaq ádebiy tiliniń sózlik quramındaǵı yuridikalıq terminlerdiń jasalıwı hám quramı boyınsha jay (túbir hám dórendi), qospa (birikken, qurama (birikpegen), jup, qıskarǵan) sóz sıyaqlı ózgesheliklerge iye. Qaraqalpaq tilindegi yuridikalıq terminlerdiń jasalıwın úyrengende, olar sóz jasalıwdıń bir qansha modelleri arqalı qáliplesip, tilde óz ornına iye bolǵanın kóriwge boladı.

Qaraqalpaq tilindegi yuridikalıq terminler de basqa terminlerdiń jasalıwı hám quramlıq ózgesheligine iye bolǵanınday ózine tán belgilerge iye. Qaraqalpaq tilindegi yuridikalıq terminlerdiń affiksler arqalı jasalıwında affikslerdıń ónimli hám ónimsiz qollanılıw jaǵdayları ushırasadı. Qaraqalpaq tilinde yuridikalıq terminlerdi jasawda basqa affikslerge salıstırǵanda *–lıq/–lik* affiksi ónimli qollanıladı. Sonday-aq, qaraqalpaq tilinde sóz jasalıwında ónimsiz qollanılatuǵın bazı affiksler yuridikalıq termin jasawda ónimli qollanılıwı múmkin. Bul qosımtalar kóbinese hújjet atın bildiriwshi dórendi atlıq jasaǵanlıqtan yuridikalıq termin jasawda ayırmashılıqqa iye bolıp keledi. Máselen, *–nama* affiksi *–shı /–shi, –lıq /–lik* affiksleri sıyaqlı atlıq jasawda ónimli qollanılmasa da, yuridikalıq termin mánisin bildiriwshi hújjet atın jasawda basqa affikslerge salıstırǵanda ónimli qollanıladı. Mısalı: *shártnama, wásiyatnama* hám t.b.

Házirgi qaraqalpaq tilinde qollanılatuǵın yuridikalıq terminlerdi analizlep kórgenimizde kóbinese tómendegi sóz jasawshı affiksler arqalı jasalǵanlıǵı anıqlandı.

–shı/–shi affiksi arqalı atlıq hám háreket atı feyilinen dórendi atlıqlar jasaladı. Onıń járdeminde *jınayatshı, elshi* hám belgili bir yuridikalıq jumıs penen shuǵıllanıwshı adam mánisindegi dórendi atlıqlar jasaladı [2.61]. Mısalı: *tergewshi, aqlawshı, qaralawshı* hám t.b

–lıq/–lik affiksi qaraqalpaq tilinde atlıq, kelbetlik, sanlıq hám ráwishlerden atlıq jasaydı. Bul affiks yuridikalıq termin jasawda kóbinese atlıq sózlerge qosılıp keletuǵınlıǵın kóriwimiz múmkin. Mısalı: *ádillik, biyzarılıq, jarlıq, qayırqomlıq, qáwenderlik* hám t.b. Sonday-aq, *–lıq/–lik* affiksi kásipke baylanıslı dórendi atlıq jasawda rus tili hám rus tili arqalı basqa tillerden kirgen sózlerge jalǵanadı hám yuridikalıq termin mánisindegi dórendi atlıq jasap keledi. Mısalı: *agentlik, advokatlıq, sudyalıq* hám t.b.

–nama affiksi atlıqlarǵa jalǵanıp, belgili bir húJjet atların bildirip keletuǵın dórendi atlıq jasaydı[3.31]. Mısalı: *wásiyatnama, shártnama* hám t.b.

–xana affiksi atlıq sózge jalǵanıp qanday da bolmasın bir nársege arnalǵan orınnıń (jaydıń) atın bildiredi. Bul affiksler arqalı tómendegi atlıqlar jasaladı. Mısalı: *bajıxana, kárxana* hám t.b.

–ker/–ger affiksi bazı bir túbir atlıq sózlerge qosılıp yuridikalıq táreplerdiń atın bildiretuǵın atlıqlardı jasaydı. Mısalı: *ayıpker, dawager, juwapker* hám t.b.

Házirgi qaraqalpaq tilinde sóz qosılıw usılı arqalı qospa túrdegi yuridikalıq termin mánisindegi sózler jasaladı. Qospa sózlerdiń jup hám tákirar túrleri A. Najimov tárepinen arnawlı izertlendi [4.17]. Ayırım miynetlerde sóz jasalıwdıń bul modelin sintetikalıq usılǵa kirgizse [5.170], al basqa miynette sóz jasalıwdıń morfologiya-sintaksislik usılı dep qaraydı [6.16]. A. Bekbergenov sóz jasalıw boyınsha ilimiy miynetinde qaraqalpaq tilinde qospa sózlerdiń tiykarǵı bes túri bar ekenin kórsetedi: *qurama sózler, jup sózler, tákirar sózler, birikken sózler, qısqarǵan sózler* [7.8]. Qospa sózlerdiń bul túrleri házirgi qaraqalpaq ádebiy tilinde de ónimli qollanıladı. 1994-jılı baspadan shıqqan grammatikada qospa sózler sırtqı forması hám komponentleriniń túrine hám qosılıw dárejesine qaray *sostavlı sózler, jup sózler, tákirar sózler, birikken sózler, qısqarǵan sózler* túrinde berilgen [3.22], al 2010-jılı shıǵarılǵan morfologiya sabaqlıǵında qospa sózler *qurama sózler, jup sózler, tákirar sózler, birikken sózler, qısqarǵan sózler* dep bes toparǵa bólip klassifikaciyalanǵan [8.18]. Qaraqalpaq tilinde túbir, dórendi túrindegi yuridikalıq terminlerge qaraǵanda qospa sóz túrindegi yuridikalıq terminler ónimli qollanıladı.

Qaraqalpaq tilinde sóz qosılıw modeli arqalı jańa mánidegi sóz (yuridikalıq termin) jasaw basqa sóz jasalıw usıllarına qaraǵanda bir qatar ózgeshelikleri menen ajıralıp turadı. Bul model arqalı yuridikalıq terminler jasalǵanda bir neshe sóz hár qıylı grammatikalıq qurallardıń járdemi menen baylanısıp, komponentleri óz-ara leksika-grammatikalıq birlikte turadı [9.37]. Sóz qosılıw modeli menen yuridikalıq terminlerdiń jasalıwı a) sózlerdiń dizbeklesiwi; b) sózlerdiń bir-biri menen birigiwi; v) sózlerdiń bir-biri menen juplasıwı arqalı iske asırıladı. Bul qospa yuridikalıq terminlerdiń ishinde sózlerdiń dizbeklesiwi arqalı jasalǵan qurama sóz túrindegi (birikpegen) yuridikalıq terminler qaraqalpaq tilinde ónimli qollanıladı. Qurama yuridikalıq terminler quramındaǵı sózlerdiń sanına qaray eki, úsh, tórt hám onnan da kóp komponentli bolıp keledi. Mısalı: *awır jınayat, anonim arza, intellektual múlk* - bul eki komponentli qurama yuridikalıq terminlerdiń birinshi komponenti sıpatında kelgen sózler sırtqı forması jaǵınan ataw sepliginde turadı.

Kóp komponentli yuridikalıq terminler óz gezeginde úsh, tórt, bes hám onnan da kóp komponentlerge iye bolıp keledi.

Úsh komponentli yuridikalıq terminler: Bular eń kemi úsh mánili sózlerdiń dizbeginen turıp, óz-ara bir-biri menen hár qıylı grammatikalıq qurallar arqalı baylanısıp

bir huqıqıy túsinikti bildiretuǵın yuridikalıq terminlerdi payda etedi. Komponentlerdi baylanıstırıwshı grammatikalıq qurallardıń ózgesheligine qaray tómendegidey túrlerge bólinedi. a) Yuridikalıq terminlerdiń úsh komponenti de ataw sepliginde keledi. Mısalı: *aktiv saylaw huqıqı, ashıq akcionerlik jámiyeti, Birlesken Milletler Shólkemi, ǵalaba xabar quralları, diniy isenim erkinligi, juwapkershiligi sheklengen jámiyet, nızam shıǵarıwshı hákimiyat, normal jumıs waqtı, puqaralıǵı bolmaǵan shaxslar, sud medicinalıq ekspertizası* hám t.b. Bul túrdegi yuridikalıq terminlerdiń ayırımları qısqarǵan formada da qollanıladı. Mısalı: *Birlesken Milletler Shólkemi – BMSh, ǵalaba xabar quralları – ǴXQ* hám t.b.

Tórt komponentli yuridikalıq terminler: Bunday yuridikalıq terminler hár túrli grammatikalıq qurallar járdeminde baylanısıp bir huqıqıy túsinikti bildirip keledi. 1) yuridikalıq terminlerdiń tórt komponenti de ataw seplik formasında keledi. Mısalı: *onsha awır bolmaǵan jınayatlar, xalıq aralıq arbitraj sudı, xalıq aralıq sawda palatası* hám t.b.; 2) birinshi komponenti seplik affiksli keledi. Mısalı: *puqaralardıń ózin-ózi basqarıw organları, puqaranı ólgen dep tabıw, jınayattıń jámiyetlik qáwiplilik dárejesi* hám t.b.;

Bes hám altı komponentli yuridikalıq terminler. Bunday komponentke iye yuridikalıq terminler eki, úsh komponentli yuridikalıq terminler sıyaqlı ónimli emes. Olar ataw sepligi, tuwra hám qıya seplik affiksli, bazı sóz jasawshı affikslerdı qabıl etip huqıqıy túsinik mánisin bildiretuǵın yuridikalıq terminlerdi dúzip keledi. Mısalı: *insan huqıqları ulıwma jáhán dekloraciyası, deputatlardıń saylawshılar aldında esabat beriwi*; *áskeriy xızmetti ótew tártibine qarsı jınayatlar, jınayat processinde kórsetpe beriwden bas tartıw, is haqı saqlanbaǵan halda dem alıs, jazanı ótew múddetinen burın azat etiw* hám t.b.

Házirgi qaraqalpaq tilinde *birikken, jup, qısqarǵan* sóz túrindegi yuridikalıq terminler de ushırasadı, biraq olar sanı jaǵınan az muǵdardı quraydı.

1. Birikken qospa yuridikalıq terminler: *tilxat, shegera* hám t.b. Tilxat - eki túbir atlıq sózdiń túbirleri saqlanıp birikken. Tilxat - bul puqaralıq huqıqta kárxana, mekeme, shólkem yamasa ayırım shaxslardan belgili bir hújjet, pul yamasa qımbat bahalı buyımlardıń alınǵanlıǵın tastıyıqlawshı hújjet [10.58].

2. Sózlerdiń juplasıwı arqalı jasalǵan yuridikalıq terminler: Bul model arqalı yuridikalıq terminler júdá az muǵdarda jasaladı. Mısalı: Ádep-ikramlılıq – keń túsinik. 1. Bul alǵashqı jámiyette payda bolıp, jámáát aǵzaları tárepinen orınlanıwı shárt bolǵan júris-turıs qaǵıydaları.

3. Qısqaǵan qospa sóz túrinde qollanılatuǵın yuridikalıq terminler: a) hár bir sózdiń dáslepki háripleri alınıwınan: MQX, JPK, QR hám t.b. MQX (Mámleketlik qáwipsizlik xızmeti), JPK (jınayat processual kodeksi), QR (Qaraqalpaqstan Respublikası) hám t.b.; b) aralas túrdegi qısqarǵan yuridikalıq terminler: ÓzLiDeP (Ózbekstan Liberal Demokratiyalıq Partiyası) [11.26] hám t.b. Qaraqalpaq tilinde qısqarǵan qospa sóz túrinde qollanılatuǵın yuridikalıq terminler sanı jaǵınan onsha kóp emes, biraq olar yuridikalıq hújjetlerde, jámiyetlik-siyasiy turmısta hám publicistikalıq stilde ónimli qollanıladı.

Qaraqalpaq tilindegi yuridikalıq terminlerdiń kópshiligi bir hám eki komponentli sózlerden ibarat. Tilde terminlerdiń kóp komponentli bolıp keliwi unamlı qubılıs sıpatında bahalanbaydı. Birikken, jup túrindegi yuridikalıq trminler de sanı jaǵınan

azshılıqtı quraydı. Qısqarǵan formadaǵı yuridikalıq terminler qısqarıw túrleri boyınsha bas háripler arqalı, dáslepki buwınlar qısqarıwı hám aralas túrinde qollanıladı. Olardıń hár biri jasalıwı boyınsha ózine tán ózgesheliklerge iye.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Berdimuratov E. Qaraqalpaq tili terminleri. Nókis: «Bilim», 1999.
2. Ҳәзирги қарақалпақ тили морфология, Нөкис: «Қарақалпақстан», 1981.
3. Ҳәзирги қарақалпақ әдебий тилиниң грамматикасы, (сөз жасалыў ҳәм морфология), Нөкис: «Билим», 1994.
4. Нажимов. А Способы образования парных и парно-повторных слов в каракалпакском языке. Авторефер. Дисс. ... канд. фил. наук. – Нукус, 1971.
5. Баскаков Н.А. Каракалпакский язык. Е. II, Ч.1, (фонетика и морфология), – Москва: 1952.
6. Шаниязов Б. Қорақалпоқ тилида равишларнинг тузилишига кўра турлари. Филол. фан. номз. дис. ... автореферати, – Нукус, 2002.
7. Бекбергенов А. Қарақалпақ тилинде сөзлердиң жасалыўы. – Нөкис, 1979.
8. Dáwletov A., Dáwletov M., Qudaybergenov M. Házirgi qaraqalpaq ádebiy tili. – Nókis: Bilim, 2010.
9. Ҳожиев А. Ўзбек тилида сўз ясалиш тизими. – Тошкент: O‘qituvchi, 2007.
10. Өтегенов Ж., Тилеўов Е., Есбергенов Р. Юридикалық терминлердиң қарақалпақша түсиндирме сөзлиги. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 2003.
11. Пахратдинов Қ. Қарақалпақ тилинде қысқарған қоспа сөзлер. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 2005.

ANTROPONIMLER INSAN ISKERLIGI MISALINDA

Daniyarova Zamira,
DTIYAO‘ va MOM QR
hududiy bo‘linmasi o‘qituvshisi

Annotatsiya. Bu moqolada hozirgi davr tilshunosligidagi, shu jumladan qoraqalpoq tilshunosligida tilni shu tilda so‘zlovchining madaniyati bilan, tarixi bilan jipslashgan holda o‘rganiladigan lingvomadaniyatshunoslik sohasi buyicha fikr mulohazalar keltirildi. Qoraqalpoq dostonlaridagi ismlar inson faoliyatidagi asosiy belgilarning biri ranglar misolida tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: onomastik tadqiqod, antropotsentristik paradigma, psixolingvistika, lingvokulturologiya, etnolingvistika, lingvofolkloristika

Sońǵı jıllarda til bilimindegi onomastikalıq izertlewler antropocentristlik paradigma tiykarında rawajlanbaqta. Tilimizdegi sózlerdi tek strukturalıq tárepten emes, al semantikalıq tárepten izertlewge ayrıqsha itibar qaratılmaqta. Tildi úyreniwde lingvopoetika, kognitiv lingvistika, psixolingvistika, lingvokulturologiya, etnolingvistika, lingvofolkloristika baǵdarlarınıń júzege keliwi nátiyjesinde kórkem tekstti úyreniw múmkinshiligi ele de arttı. Ásirese, kórkem shıǵarma tilindegi antroponimlerdiń leksika-

semantikalıq jaqtan júzege keliwinde insan iskerligi tásirin úyreniw tiykarǵı wazıypalardıń biri bolmaqta.

Dúnya til biliminde menshikli atlardı sol xalıqtıń mádeniyatı, ruwxıy qádiriyatları, ózine tán oylaw ózgesheligi hám tariyxıy dástúrleri menen baylanıstırıp izertlew principi baslı orınǵa aylanbaqta. Tilimizde lingvofolkloristika hám lingvokulturologiyanıń ayrıqsha taraw sıpatında qáliplesiwi nátiyjesinde qaraqalpaq xalıq awızeki dóretpeleriniń tilin arnawlı túrde izertlew zárúrligi payda boldı. Adam atları hár bir xalıqtıń mánáwiy baylıǵı, yaǵnıy qádiriyatlarımızdı saqlap qalıwda úlken áhmiyetke iye bolǵan múlk esaplanadı.

Adamzat jámiyetinde náreste tuwılǵannan keyingi eń áhmiyetli máselelerdiń biri oǵan at qoyıw bolıp esaplanadı. At qoyıw erte dáwirlerden baslanǵan hám bul dástúr adamlardı shańaraqta hám jámiyette bir-birinen ajıratıw zárúrliginen kelip shıqqan [1, 54]. Házirgi adam atları óziniń uzaq dawam etken tariyxına iye. Adam atları qoyılıwındaǵı ózgeshelikler yaǵnıy olardıń turmıslıq tárizi hár qıylı bolıp keledi. Buǵan hárqıylı faktorlardı mısal sıpatında atap ótiwimizge boladı. Máselen, materiallıq hám ekonomikalık sharayatlarǵa baylanıslı, diniy isenim hám uǵımlarǵa baylanıslı, jasaw jaǵdayına baylanıslı, sonday-aq, ńárestenıń tuwılıw jaǵdayına baylanıslı, geografiyalık orınǵa baylanıslı hám basqa da kóplegen faktorlardı keltirip ótiwimizge boladı. Sonlıqtan, biz adam atlarınıń kelip shıǵıwın úyrener ekenbiz, olardı bir-birinen ajıratqan halda emes, bálki usınday birqansha faktorlar menen baylanıstırıp izertlew maqsetke muwapıq boladı dep oylaymız. Antroponimlerde insan iskerliginiń sáwleleniwi tilimizde bar bolǵan sózlerge tereń máni beriw tiykarında júzege shıǵadı. Óytkeni olar turmısımızdıń materiallıq hám ruwxıy mádeniyatınıń anıq izlerin tasıwshı lingvomádeniy process. Tilshiler hám filosoflardıń pikirine qaraǵanda, til birliklerindegi milliy psixologiya, mentalitet jámiyettiń tariyxıy evolyuciyası nátiyjesinde rawajlanǵan. Tilimizdegi adam atları tabiyattaǵı bolıp atırǵan hár qıylı hádiyselerge, qubılıslarǵa, xalqımızdıń árman tileklerine, isenim hám uǵımlarǵa, ırım hám úrp-ádetlerge h.t.b sebeplerge baylanıslı qoyılıp kelgen. Demek, joqarıda keltirgenimizdey adam atları hár túrli belgilerge, kórinislerge, waqıyalarǵa hám t.b. baylanıslı tárizde qoyılıwı múmkin. Usınday belgilerdiń biri reńler esaplanadı. Pútkil insaniyat dúnyanı reńlersiz kóz aldına keltiriwi qıyın. Reńler arqalı tábiyat, átirap gózzallıǵın sezemiz. Biz sóz etpekshi bolǵan reńler hátteki adam atları quramında da óziniń júdá úlken áhmiyetine iye. Sońǵı waqıtlarda reńler simvolikasına til bilimi hám etnologiya tarawları tárepinen úlken qızıǵıwshılıq artpaqta. Reńlerdiń belgisi menen baylanıslı bolǵan leksika, lingvistikalıq hám etnologiyalıq aspektte úyreniliwi, kúndelikli turmısımızda, úrp-ádet dástúrlerimizde, qaraqalpaq xalqınıń milliy mádeniyatında reńlerdiń ózine tán ózgeshelikleri sıpatında kórip shıǵıladı. Hár bir xalıqtıń mentalitetiniń ayırmashılıqlarına, yaǵnıy turmıs salt-dástúrlerine, úrp-ádetlerine, isenimlerine baylanıslı reńlerdiń simvollıq mánileri qáliplesken. Reńler sırı kóplegen tarawlardıń (fizika, psixologiya, fiziologiya, ximiya, kórkem-óner, lingvistika) izertlew obyektine aylanıwı onıń tábiyatınıń quramalılıǵın kórsetedi [2, 153] – dep keltirgenindey til iliminiń antroponimika tarawında da reńler belgili orınǵa iye. Belgili bir adam atınıń kelip shıǵıwın, etimologiyasın úyreniw – antroponimdi tariyxıy jaqtan ǵana emes, milliy-mádeniy ózgeshelikti sáwlelendiretuǵın til birligi sıpatında qarawǵa tiykar boladı. Sol sebepli antroponimniń milliy ózgesheligi

boyınsha dárekti xalıqtıń milliy mádeniyatınan izlew zárúrligi payda boldı. Reńdi bildiretuǵın sózlerden aq, qara, qızıl, sarı, kók sıyaqlı leksemalar antroponimlerdiń quramında jiyi ushırasadı. Bunıń baslı sebebi, adamlar nárestelerge at beriw procesinde eń dáslep sol nárestenıń túr-túsine itibar bergen. Sonlıqtan, reńdi bildiretuǵın sózler menen kelgen adam atların eń áyyemgi antroponimler dep esaplawǵa boladı. Degen menen, reńdi bildiretuǵın sózler antroponimlerdiń quramında tek ǵana túr-tústi ańlatıp kelmesten, awıspalı mánilerdi de ańlatıp keledi.

Qaraqalpaq folklorında «aq» lekseması menen kelgen antroponimlerdi tómendegishe táriplew múmkin. «Aq» lekseması bul áyyemgi isenimlerdi sáwlelendiriwshi quday. Aq jaqtılıq penen baylanıslı turmıstı tastıyqlaytuǵın princip, párawanlıq, ǵayrıtábiiy páklik simvolı esaplanadı. Sırtqı kórinisti súwretlew ushın hám sonıń menen birge balanıń qásiyetlerin ajıratıp kórsetiwde de aq lekseması tuwrıdan-tuwrı isletilgen baha. Sırtqı kóriniske tiykarlanǵan atlar kóplegen túrkiy tillerde ushırasadı. Tatar tilshi ilimpazı G.F.Sattarov reń bildiriwshi antroponimlerdiń kóplep ushırasatuǵınlıǵın aytıp ótedi: Aqbash, Aqqash, Aqsakal [3, 106]. Bunnan basqa da xakaslarda Appax – júdá aq, Ax pas-aq bas; mamlyuklerde – Akgpay, Akbuga; al bashqurtlarda – Akkóbek, Akbure, Akbuga hám taǵı basqalar [4, 94]. Qaraqalpaq folklorında da bunday adam atları kóplep ushırasadı. Mısalı:

Hásenxanniń palwanı, Márt ***Aqqozı*** der edi, (27-t, Er z, 11-b)

Aqtalbay babam toy bergen, Alpamısjan kelsin dep (5-t, Alp, 529-b).

Altı ay qıslar aman ba?, Altı ay jazlar aman ba?, ***Aqshalbay*** atań aman ba? (1-t, Alp, 51-b). ***Aqbilek*** atlı jeńgemniń, Qayda ketkenińdi bilmey, Jılay-jılay shıraǵım,

Eki kózi kór bolar (1-t, Alp, 18-b).

- Áy, qaynaǵa-ay, bizlerdiń kisige aytqanday atımız bar ma,-dedi.

-Atıńızǵa ne boldı, ákeńizdiń qoyǵan atların ayta berińler,-dedi. Anda qatınlar Alpamısqa atların aytıp atırǵan qusaydı. - Meniń atım ***Aqqız***,-dedi (2-t, Alp,234-235-b).

V.V.Radlovtıń pikirinshe: Túrkiy xalıqlar aq sózin bir neshe mánilerde qollanadı: 1) aq, 2) taza, aralaspasız, 3) kishi peyil, haq kewil, biygúná [5, 259]. Eski túrkiy tiliniń sózliginde «qolay, ıqsham» degen mánisi berilgen [6, 48]. «Aq» komponentli antroponimler adamlardıń dáslepki pikirlerin hám dúnyaǵa kózqarasın sáwlelendiredi. A.Gafurovtıń pikirine qaraǵanda «aq» komponenti onshelli reńlerge emes al, «jigerlilik, baxıt, qutlı» sıyaqlı mánilerdi ańlatıw ushın qollanıladı delingen [7, 23].

Jeke adam atlarınıń quramında aq komponentiniń saqlanıwı uzaq waqıt dawam etti. Máselen, XVI-XVIII ásirlerge tiyisli húJjetlerde aq leksemasına iye adam atları ushırasadı Akko, Akmemet, Aksoltan, Akseit, Akchura. Zamanagóy antroponimik sistemasında da aq lekseması jalǵanǵan adam atları elege shekem óz áhmiyetin joyıtpaǵan. Dóretiwshi insanlar laqaplar tańlawda kóplep qollanadı. Máselen, Ak'eget, Akyoldız. Ásirese XIX ásir aǵartıwshılarınıń laqaplarında jumsalǵan: Musı Ak'egetzade, Akmullı [4, 20]. Sonday-aq «aq» lekseması tuwısqanlıq terminleri menen birge húrmet, sıylasıq mánilerin ańlatadı. Máselen, ózinen úlkenlerge aq biy, kúyewdiń úlken aǵasına aq bala, aq biyke úlken apaǵa, aq tay ákeniń úlken sińlisine, aq tutam ananıń úlken sińlisine qarım-qatnas jasaw procesinde qollanıladı [8, 31]. Al, qaraqalpaq tilinde bunday aq komponentli antroponimler laqaplar yaki ótirik atlar dep júritiledi. Bular kóbinese analar tárepinen birinshi perzentiniń atın tuwrıdan-tuwrı ayta almaǵanlıqtan olardı

ekinshi at penen ataǵan. Máselen, er balalarǵa baylanıslı Aqbal, Aqmırza, Aqjigit hám t.b.

Al kelinler bolsa, biykesh hám qáyinleriniń atın ayta almaǵanlıqtan olarǵa say ekinshi atlardı tańlaydı. Máselen, Aqbiykesh, Aqsulıw, Aqqız, Aqjigit, Aqbala, Aqbal sıyaqlılardı atap ótsek boladı. Jáne bir qızıqlı tárepi tatarlarda tuńǵısh kelindi ak jińgi dep ataydı eken . Mifologiyada aq reńi qudalar reńi, kózge kórinbes qúdiretli kúshler reńi dep qaralǵan. Sonlıqtan, Haj ziyaratına «Qudanıń úyi» (Kaaba) ǵa barıwshılar arnawlı aq kiyimde jolǵa shıǵadı - degen maǵlıwmatlar bar. Tilimizde aq reńi arqalı xalqımızdıń úrp-ádeti, dástúrine, isenimine baylanıslı ayırım sózler de simvollıq mánilerde ónimli jumsaladı. Haqıyqatında da, xalqımızdıń dástúri boyınsha insannıń demi jetken kúni sońǵı mánziline jóneter aldında onı aq tawarǵa oraydı. Hár bir millet mádeniyatındaǵı reń dúnyası ózinshelik simvollıq mánige iye boladı, yaǵnıy reń millet mádeniyatın tanıtatuǵın bir faktor bolıp esaplanadı .

Hár bir xalıqtıń ózine say at qoyıw dástúrleri boladı. Qaraqalpaq adam atları tildegi sózlik quramnıń bir bólegi esaplanadı. Ol óziniń arnasın ulıwma xalıq tiliniń fondınan aladı hám tilimizdiń ishki nızamlarına sáykes rawajlanadı. Solay etip, ol tildegi sózlerdiń barlıq tarawlarınan jasaladı. Qaraqalpaq adam atlarınıń kópshilik bólegi xalqımızdıń ótken zamanlardan baslap házirge deyingi mádeniy-tariyxıy ómirin anıq kórsetedi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Сайымбетов О.Т. Қарақалпақ тилиндеги меншикли адам атлары. – Нөкис: Билим, 2000. – Б. 54.
2. Қурбанова З., Зайырова Қ. Қарақалпақ дәстүрий кийимлеринде реңлердиң тутқан орны ҳәм онын этнолингвистикалык сыпатламасы // ӨзР ИАҚБ Хабаршысы. – Нөкис, 2020. – №4. – Б.153.
3. Саттаров Г. Исемең матур, кемнэр куйган? – Казан: Татар, кит. нэшр, 1989.
4. Галиуллина Г. Татарская антропонимия в лингвокультурологическом аспекте: Автореф. дис. … д-ра. филол. наук. – Казань, 2009. – С. 94.
5. Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. – М., 1963. – С. 259.
6. Древнетюркский словарь. – Л.: Наука, 1969. – С. 48.
7. Гафуров А. Имя и история. – М.: Наука, 1987. – С. 23.
8. Татар теленең зур диалектологик сүзлеге / төз.: Ф. С. Баязитова, Д. Б. Рамазанова, З. Р. Садыйкова, Т. Х. Хәйретдинова. – Казан: Татар. кит. нәшр, 2009.

TERMINOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY ASOSLARI

Ubaydullayeva Umida,
Sharof Rashidov nomidagi SamDU tayanch doktoranti
umidaubaydullayeva@49gmail.com

Annotatsiya. Fanning sohalariga oid tushunchalarni o‘rganish, kasb-hunar, ixtisosliklarni o‘zlashtirish, ilmiy-texnik taraqqiyotni ifodalashda tilshunoslikning terminologiya sohasi muhim o‘rin tutadi. Hozirda terminologiya bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu maqolada terminologik tadqiqotlarning nazariy asoslari, terminologiya sohasidagi muammolar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: terminologiya, termin, tilshunoslik, maxsus so‘zlar, ilmiy tadqiqot.

Jahon ilm-fanining jadal rivoji tilshunoslikda terminologiyaning alohida mustaqil soha sifatida taraqqiy etishiga turtki bo‘ldi. Ma’lumki, terminologiya fanning sohalariga oid tushunchalarni o‘rganish, turli kasb-hunar, ixtisosliklarni o‘zlashtirishda, ilmiy-texnik taraqqiyotni ifodalashda salmoqli o‘rin tutadi. Bu esa mazkur sohadagi tadqiqotlarga bo‘lgan ehtiyojni oshirmoqda. Jahon tilshunosligida XVIII-XIX asrlardayoq terminologiya muammolariga bag‘ishlangan qator ilmiy tadqiqotlar yuzaga kela boshlagan edi. V.G.Gak, D.S.Lotte, A.A.Reformatskiy, T.A.Yatsyuk, A.S.Pigolkin, N.N.Kaden, X.Felber kabi olimlarning tadqiqotlarida mazkur yo‘nalishga oid qarashlar mavjud. G.O.Vinokur, V.V.Vinogradov, O.S.Axmanova, A.M.Scherbak, V.P.Danilenko, A.N.Kononov, E.A.Kolesnikova kabi rus olimlari tadqiqotlarida terminologiyaning nazariy masalalari yoritilgan. O‘zbek tilida terminologiya masalalari M.E.Umarxo‘jayev, X.Dadaboyev, I.X.Sadiqova, O.Tursunova, S.X.Nurmatova, O.S.Ahmedov, P.P.Nishonov, S.Muhamedova, S.T.Mustafayevalarning tadqiqotlarida aks etgan. Shuningdek, D.X.Kadirbekova, N.A.Martinova, O.C.Ahmedov, P.P.Nishonov, D.Kamchibekova, X.Paluanovalar sohaviy terminlarning lingvistik tadqiqi bilan shug‘ullanishgan.

Ta’kidlash kerakki, turkiy tilshunoslikda terminologiya masalalariga bag‘ishlangan ko‘pgina ishlar amalga oshirilgan. Bu ishlar orasida tilshunoslik terminlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar salmoqli o‘rin tutadi. Mustaqillik yillarida fan va texnikaning takomili natijasi o‘laroq, sohaviy terminlarni o‘rganishga e’tibor kuchaydi. Xususan, so‘ngi yillarda yosh tadqiqotchilarning ishlarida ham terminologiyaga murojaat oshganini sezishimiz mumkin. Shunday bo‘lsa-da, terminologiyada hali qo‘l urilmagan, yechimini kutayotgan masalalar talaygina. Xususan, termin va terminologiya tushunchalarini izohlashda olimlarimiz o‘rtasida yakdil fikr mavjud emasligini ko‘rishimiz mumkin. “O‘zbekiston Milliy ensiklopediya”sida terminologiyaga quyidagicha ta’rif berilgan:

1) leksikaning bir sohasi; muayyan fan, texnika, ishlab chiqarish tarmog‘ining, san’at, ijtimoiy faoliyat sohasining tegishli tushunchalar tizimi bilan bog‘liq terminlar majmui;

2) tilshunoslikning terminlarni o‘rganuvchi sohasi. Terminologiya tor ma’noda ma’lum sohaga oid maxsus leksika hisoblanadi [9:33].

Tilshunos olim Azim Hojiyev fikricha, terminologiya (termin+logos – so‘z, ta’limot):

1) Biror ilm, kasb va b. sohaga oid terminlar majmui. Mas., grammatik terminologiya, san’at terminologiyasi va b.q.;

2) tilshunoslikning terminlarni o‘rganuvchi bo‘limi [10:104].

Tilshunosligimizda amalga oshirilgan tadqiqotlarda termin so‘zi bilan bir qatorda “atama”, “istiloh” so‘zlaridan ham foydalanilmoqdaki, bu so‘zlar bo‘yicha ham umumiy to‘xtamga kelinmagan. Tilshunos olim A.Hojiyevning fikricha, “termin” (lot.terminus – chek, chegara, chegara belgisi), fan, texnika va boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatilish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan so‘z yoki so‘z birikmasi; Terminlar bir ma’noli bo‘lishi, ekspressivlik va emotsionallikka ega bo‘lmasligi kabi belgilari bilan ham umumiste’moldagi so‘zlardan farqlanadi [10:104]. P.Nishonovning fikriga ko‘ra, “Termin – tuzilishiga ko‘ra so‘z yoki so‘z birikmasi bo‘lib, semantikasi jihatidan maxsus soha doirasi bilan chegaralangan bas hu sohaga oid tushunchani ifodalovchi leksik birlikdir” [4:17]. O.Ahmedov bu tushunchalarni farqini izohlar ekan, “Terminlar aslida leksik-semantik jihatdan umumadabiy qolipga ega bo‘lib, ular umumxalq tiliga muayyan terminologik tizim orqali o‘tadi. Zero, termin va umumiste’moldagi so‘zlar bir-birini to‘ldiradigan leksik birliklardir” [1:21]. Yana bir tilshunos olim S.Usmonov “…atama so‘zining ma’nosi termin so‘zining ma’nosiga nisbatan keng bo‘lib, u barcha narsalarning nomi sifatida tushuniladi, termin esa muayyan bir tor sohada qo‘llanuvchi rasmiylashgan so‘zdir. Shu ma’noda, termin tushunchasi “atama” tushunchasining ichhiga kiruvchi ilmiy-lug‘aviy birlikdir”, - degan fikrlarni beradi [4:17]. Yana bir guruh olimlar “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida bu tushunchalarga quyidagicha ta’rif beradilar: “So‘z ko‘p ma’noga, qo‘shimcha ma’nolarga ega bo‘ladi, ammo termin (atama) bunday xususiyatga ega emas. Termin ham so‘z, lekin u odatdagi so‘zlardan ma’nosining aniqligi, bir ma’noliligi bilan farqlanadi. Termin ma’lum sohada, shu soha vakillari nutqida uchraydi. Masalan, fonema, tovush, morfema, ega, to‘ldiruvchi, kesim tilshunoslikda uchraydi. Terminlar yig‘indisi va shu terminlarni o‘rganuvchi soha ham terminologiya deyiladi.

Termin grekcha “terminos” so‘zidan olingan bo‘lib, chek, chegara ma’nolarini bildiradi. Keyingi yillarda termin so‘zi o‘rnida atama so‘zi qo‘llanyapti. Bunday qo‘llash xatodir. Chunki atama so‘zining ma’nosi termin so‘zining ma’nosiga nisbatan keng bo‘lib, u barcha narsalarning nomi sifatida tushuniladi, termin esa muayyan bir sohada qo‘llanuvchi so‘zdir. Shu ma’noda termin tushunchasi atama tushunchasining ichiga kiruvchi hodisadir” [6:47]. P.Nishonovning fikrlari bu tushunchalar o‘rtasidagi farqni yanada aniqlashtiradi: “Biror predmet yoki voqelikka qo‘yilgan termin avvalo, shu predmet yoki voqlikka ta’rif va tasnif beradi. Nomenklaturada esa bu narsa kuzatilmaydi. Ularning funksiyasi narsa va predmetlarni nomlash bilan chegaralanadi. Demak, “termin” nomenklaturaga nisbatan keng va aniq tushuncha bo‘lib, maxsus vazifadagi so‘z ma’nosini bersa, “nomenklatura” o‘zaro o‘xshash bo‘lgan predmet va tushunchalarni nomlash uchun xizmat qiluvchi atamadir” [4:17]. Sh.Ko‘chimovning qayd etishicha, “termin kasbiy ma`no bildiruvchi, kasbiy tushuncha ifodalovchi va shakllantiruvchi ayrim ob’yektlar va ular o‘rtasidagi aloqalarni muayyan kasblar nuqtai nazaridan bilish hamda o‘zlashtirish jarayonida ishlatiladigan so‘z yoxud so‘z birikmadir”[5:76].

Tilshunos olim I.Mirzayev tomonidan berilgan ta’rif ham e’tiborga molikdir: “Termin (lot. Terminus – chegara, had) – bilim yoki faoliyatning maxsus sohasiga doir tushunchani ifodalovchi so‘z yoki so‘z birikmasi. Termin umumxalq tiliga muayyan terminologik tizim orqali o‘tadi, binobarin, termin va umumiste’moldagi so‘zlar bir-birini to‘ldiradigan lekisik birliklardir. Sistem xarakterga egalik, o‘z terminologik maydonida bir ma’nolilikka moyillik, his-tuyg‘uni ifodalamaslik, uslubiy betaraflik kabilar terminga xos xususiyatlardir. Umumxalq leksikasiga doir qonuniyatlar termin hosil qilishda ham kuzatiladi. So‘z bilan terminning umumiy va xususiy tomonlari yetarli darajada ochib berilgan emas; kundalik turmushda keng iste’molda bo‘lgan so‘zlar ayni paytda turli sohalarga doir terminlar hamdir. Masalan, quloq, burun, tomoq – anatomiya va tibbiyot; gilam, sholcha, polos – gilamdo‘zlik; kitob, ruchka, daftar – pedagogik soha terminlari bo‘lish bilan birga umumxalq tilida faol qo‘llanadi.

Hozirgi kunda “termin” so‘zi bilan bir qatorda “atama”, “istiloh” so‘zlari ham ayni ma’noda qo‘llanmoqda. Lekin ular “termin” so‘zining hozirgi ma’nosini to‘liq ifoda eta olmaydi. “Atama” so‘zi keng ma’noda bo‘lib, geografik ob’yektlar, atoqli nomlarga nisbatan qo‘llanadi. “Istiloh” so‘zini esa termin ma’nosida tarixiy mavzulardagi matnlar (mas., adabiyot tarixi, Sharq falsafasi va b.q.)da bemalol qo‘llash mumkin” [9:323]. Bizningcha, mazkur ta’rif yuqoridagi tushunchalar ma’nosini to‘laroq ochib bergan.

Terminning boshqa so‘zlardan, xususan, atamalardan qay jihatdan farqlanishini olimlar turlicha tavsiflasalar-da, ulardan umumiy xulosalar sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin: so‘z, atama – keng, umumiy; termin – tor, xususiy; so‘z, atama – nisbatan mavhum, abstrakt; termin – aniq, konkret; so‘z, atama – ilmiylik tushunchasiga (semasiga) ega; atama – eskirgan, nofaol; termin – faol, harakatchan; so‘z emotsionallikka, ekspressivlikka ega; termin - emotsionallikka, ekspressivlikka ega emas; so‘z – jamiyatga, umumga, turli soha vakillariga oid; termin – fanga, fan vakillariga oid; so‘z – aloqa quroli; termin – fan quroli; so‘z – kelib chiqishiga ko‘ra birlamchi; termin kelib chiqishiga ko‘ra ikkilamchi. U jamiyat taraqqiyotining muayyan davrida fan bilan, fan taraqqiyoti bilan, fan faoliyati bilan yuzaga kelgan. So‘z leksikada o‘rganiladi, leksikologiyaning tekshirish obyekti; termin terminologik leksikaga oid so‘z sifatida terminologiyada o‘rganiladi va boshqalar [7:47].

Ko‘rinadiki, termin, atama, istiloh va nomenklatura so‘zlarini qo‘llashda hozirga qadar aralash holatda qo‘llash holatlari kuzatilmoqda. Bu esa bu masalaning ham tilshunoslik, terminologiya oldida yechimini kutayotgan muhim masalalardan ekanligini anglatadi.

O‘zbek terminologiyasi bir necha asrlik shakllanish va taraqqiyot tarixiga ega. O‘zbek terminologiyasi tarixi adabiyotlarda quyidagicha davrlashtiriladi:

- qadimgi turkiy til (VII-X) terminologiyasi;
- eski turkiy til (XI-XIV) terminologiyasi;
- eski o‘zbek adabiy tili (XV-XX) terminologiyasi;
- Sho‘rolar davri o‘zbek tili terminologiyasi;
- istiqlol davri o‘zbek tili terminologiyasi[2:11].

Hozirgi o‘zbek terminologiyasi leksikasi tarkibida qadimgi turkiy til, eski turkiy til hamda eski o‘zbek adabiy tilida mavjud bo‘lgan leksik birliklar ham o‘z ifodasini topgan.

Eski o‘zbek adabiy tili terminologiyasining takomillashuvida , uning yanada yuqoriroq bosqichga ko‘tarilishida o‘zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy ijodining o‘rni beqiyos. Navoiy va uning zamondoshlari, izdoshlarining badiiy, tarixiy, ilmiy asarlari leksik boyligi tahlilidan ko‘rinadiki, o‘zbek tili ichki imkoniyatlaridan keng foydalangan holda termin yaratish bu davr uchun eng sermahsul usul hisoblangan. Shuningdek, bu davr terminologiyasi o‘zlashmalar hisobiga ham shakllandi va rivojlandi. Navoiy asarlarining tili va uslubi ko‘p jihatdan tadqiq qilingan. Biroq, Navoiy asarlarida terminlarning aks etishi masalasi Navoiyshunoslik ham terminologiya oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Alisher Navoiy asarlari matnida o‘z davrining turli ilm-fan, kasb-hunarga oid terminlarini qo‘llagan. Ularning ba’zilari bugungi tilimizda ham saqlangan bo‘lsa, ayrimlari butunlay iste’moldan chiqib, eskirgan so‘zga aylangan. Navoiy asarlari mazmunini, asl mohiyatini anglashda qiyinchiliklarning borligi ma’lum. Bu esa o‘sha davr tili va hozirgi o‘zbek adabiy tili o‘rtasidagi farqlanishlar bilan bevosita bog‘liq. Navoiy asarlarida terminlarning qo‘llanishi, ularning xususiyatlari o‘rganilsa, terminologiya tarixi uchun ham, rivoji uchun ham, ayni paytda iste’molda bo‘lgan terminlarning paydo bo‘lish xususiyatlarini tadqiq qilishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, tilshunoslikda terminologiyaga doir bir qancha tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, bu yo‘nalishda hali yechimini kutayotgan masalalar ham talaygina. Fanda termin va terminologiya tushunchalarini ifodalashda olimlarimiz o‘rtasida oxirgi to‘xtamga kelinmaganligi, atamalarni qo‘llashda izchillik yo‘qligi, badiiy asar terminologiyasi to‘liq o‘rganilmaganligi kabi masalalar shular jumlasidandir. Bugungi kunda fanda “termin” so‘zining ma’nosini to‘la ifodalay olmaydigan “atama”, “istiloh” so‘zlaridan ham foydalanilayotganini yuqorida ta’kidladik. Bizningcha, “atama” so‘zini geografik obyektlar, atoqli nomlarga nisbatan, “istiloh” so‘zini esa termin ma’mosida tarixiy mavzulardagi matnlarga nisbatan qollash to‘g‘riroq bo‘ladi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ilm-fan sohasida ham tub burilishlar bo‘layotgani jahon ilm-fan ahdozlariga mos keluvchi yangi tadqiqotlarning amalga oshirilishiga keng imkoniyat yaratmoqda. Maxsus terminologik ma’no ifodalovchi birliklar tadqiqi ham hali to‘liq o‘z yechimini to‘la topmagan mavzulardan biri sifatida tilshunosligimiz oldida turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov O.S. Ingliz va o‘zbek tillarida soliq va bojxona terminlarining lingvistik tahlili va tarjima muammolari: Filol.fan.d-ri. ... diss. –T., 2016. – B. 21.
2. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent, 2019.
3. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Fan, 2002.
4. Nishonov P. Fransuz va o‘zbek tillari yuridik terminologiyasining qiyosiy-tipologik tadqiqi. Nomz.disser...–Toshkent, 2009, - B. 17.
5. Nishonov P. Fransuz va o‘zbek tillari yuridik terminologiyasining qiyosiy-tipologik tadqiqi. Nomz.disser... –Toshkent, 2009, -B. 17.
6. Кўчимов Ш. Дипломатик тил асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2006. – Б. 76.
7. Мухитдинова Х., Худойберганова Д., Умиров И., Жиянова Н., Юсупова Т.

Ҳозирги ўзбек адабий тили.–Тошкент:»ILM ZIYO», 2004. - Б. 47.
8. Расулов Р.,Суюнов Б.,Мўйдинов Қ.Нутқ маданияти ва нотиқлик санъати. – Тошкент, 2010. -Б. 47.
9. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. – Тошкент: «Ўзбекистон Миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти.www.ziyouz.com кутубхонаси. -Б. 32-34.
10. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. –Т.: «Ўзбекистон Миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти. www.ziyouz.com кутубхонаси. – Б. 323.
11. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Т, 2002.

ZAMONAVIY O‘ZBEK TILI GEMERONIMLARI XUSUSIDA

Otabek Yuldoshev,
Namangan davlat universiteti
tayanch doktoranti
yuldashev.otabek91@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada istiqlol yillarida o‘zbek tilida gemeronimiyasidagi o‘zgarishlar, zamonaviy gazeta, jurnal kabi ommaviy matbuot nashrlarining nomlanishidagi me’yoriy buzilishlar tahlil qilingan va bularni bartaraf etish yuzasidan tavisiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: onomastika, ideonim, gemeronim, mikroko‘lam, matbuot nashrlari, til me’yorlari, imlo, lug‘aviy asos.

Matbuot – davr va zamonning ma’naviy ko‘zgusi. Unda jamiyat, kishilik ruhiyati, maqsad-intilishlari, munosabatlari va manfaatlari o‘z aksini topadi [1: 6]. Matbuot nashrlarining maxsus atoqli nomlari onomastikada gemeronimlar deb ataladi. Gemeronim termini fanga N.V.Podolskaya tomonidan kiritilgan, keyin esa I.V.Kryukova tomonidan kengaytirilgan. Onomastik terminologik lug‘atlarda gemeronim termini quyidagicha izohlangan: “Gemeronim (yunon. “gemero” – kun, sutka va “onim” – nom) – davriy nashrlarning, shu jumladan, gazetalar, jurnallar, xabarnomalarning atoqli nomlari” [2: 192].

Gemeronimlar ideonimlarning bir turi sifatida onomastik mikroko‘lamni tashkil qiladi. N.V.Podolskayaning fikricha, ideonim – “inson faoliyatining intellektual, g‘oyaviy va badiiy sohasida denotatlarga ega turli toifadagi atoqli nomlar”. Bu jihatdan gemeronimlar leksik va kontseptual boyitilganligi bois ideonimlarga yaqin turadi.

O‘zbek matbuoti istiqlol davrida sifat va miqdor jihatidan taraqqiy etdi. Hozirda har tomonlama mukammal zamonaviy talablarga javob beradigan, hajmi, mavzu ko‘lami, sifati bilan ham ahamiyatga molik bo‘lgan gazeta va jurnallar nashr etilmoqda. Shuningdek, ularni nomlashda ham yangi zamonaviy tamoyillarga asoslanish yaxshi samara berdi:

1. Eski sho‘ro tuzumi va uning mafkurasi bilan bog‘liq nashrlarning nomi o‘zgartirildi: *“Sovet O‘zbekistoni” – “O‘zbekiston ovozi”, “Yosh leninchi” – “Turkiston”, “Lenin uchquni” – “ Tong yulduzi”* kabi.

2. Ko‘plab tarixiy va xalqona gazeta nomlari paydo bo‘ldi: *“Hurriyat”, “O‘zbekiston ovozi”, “Xalq so‘zi”, “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, “Mahalla”* kabi.

3. Barcha sohalarga doir gazeta va jurnallar ta’sis etilda hamda ular sohaviy mansubligi motivatsiyasi asosida nomlandi: *“Abuturent”, “Adolat ko‘zgusi”, “Asr futboli”, “Diyonat”, “Oltin qalam”, “Oila va jamiyat”, “Ayol qalbi”, “Sirli tabobat”, “Fidoyi yoshlar”, “Huquq olamida”, “Energetika va resurs tejash muammolari”, “O‘zbekiston matematika jurnali”* kabi.

O‘zbek onomastikasida gemeronimlar – matbuot nashrlarining atoqli nomlari maxsus monografik aspektda o‘rganilmagan. Shu bois o‘zbek tilidagi zamonaviy gemeronimlarning, ya’ni hozirda nashr etilayotgan barcha matbuot nashrlarini nomlash til me’yorlar va talablariga javob beradi deb bo‘lmaydi. Bu quyidagilarda ko‘rinadi:

Ayrim gazeta, jurnal nomlarning yozilishi imlo qoidalariga muvofiq emas. Masalan, *“Jannat Makon”* jurnali nomidagi kichik harflar bilan yozilishi lozim bo‘lgan “makon” so‘zi bosh harflar bilan yoziladi. Qo‘shib bir so‘z tarzida yozilishi lozim bo‘lgan ayrim nomlar ajratib yoki chiziqcha bilan yoziladi: *“Avto-Olam”, “Agro Ilm”* kabi. *“Sharq Ziyosi”* gemeronimidagi ziyo so‘zi bosh harflar bilan xato yozilgani kabi.

Bundan tashqari, Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumani hokimligining ijtimoiy-siyosiy gazetasi nomi lotin alifbosiga asoslangan o‘zbek yozuvida “SariOsiyo” tarzda xato yozilgan. Bularni barchasi nomni jimjimador, diqqatni jalb etuvchi shaklda berishga intilish mahsulidir. Aslida bu qo‘shma tarkibli xoronim – tuman nomi Sari+Osiyo leksemalarining o‘zaro kompozitsiya usulida birikishidan hosil qilingan. Lekin Osiyo leksemasi atoqli joy nomini ifodalasa-da, qo‘shma so‘z tarkibida kichik harflar bilan yozilishi kerak edi. Demak, gazeta nomi tuman nomiga mutanosib tarzda Sariosiyo shaklida yozilishi maqsadga muvofiq.

Ayrim gazeta-jurnallarning o‘zbek tili milliy an’analariga zid tarzda yarim o‘zbekcha, yarim Yevropacha so‘zlar asosida g‘aliz nomlanishi kuzatiladi. Matbuot nomlari tarkibida tilimizga yangi o‘zlashgan va o‘zlashayotgan *info, press, plyus, TV, inter, word* kabi chet so‘zlar qo‘llanishini ko‘rish mumkin. Hozirgi kun matbuot nashrlarini nomlashda bu kabi so‘zlarni faol qo‘llanishi natijasida ko‘plab qo‘shma tarkibli gemeronimlar paydo bo‘ldi. Masalan, *“Ekspress-Info”, “Soliq info”, “Shifo info”, “Tayanch-info”, “Futbol info”, “Infolib axborot”, “Hamkor-Press”, “Doktor Press” “Afrosiyob press”, “Hayrat press”, “Fermer Press”, “Huquq press NTM”, “EKO OLAM PRESS”, “GM-Uz-avto press”, “Biznes press”, “Alochi press”, “Darakchi Plyus”, “Sanduvoch plyus”, “Hordiq plyus”, “Bozor plyus”, “Erudit-Plyus”, “Vodiy gavhari plyus”, “Kino+TV”, “Humo+TV”, “Tasvir TV”, “Parvina TV”, “TV Skanvord”, “Inter futbol”, “Inter sport”, “Tabassum word”, “Mahorat-WORD”, “Dono word”, “Tabassum word”, “Talqin word”, “Tafakkur vord”, “Imkon-WORD”, :“Futbol ekspress”,“Express Media”* kabi.

Ayrim gemeronimlar tarkibida esa yuqorida keltirilgan yevropacha so‘zlarning bir nechasi aralash qo‘llanishi kuzatiladi: *“PressTIJ-TV plyus”, “PressTIJ-TV”, “Tasvir plyus TV”, “Futbol Info plyus”, “Ekspress-Info”, “Erudit”, “Exellent”, “Futbol favorit”, “Futbol mundial”, “KROSS”, “Parvona TELE-GID”, “Klass!”, “UZBEKISTAN TODAY”, “MANAGEMENT”, “SMART KIDS”, “Megabyte”* kabi.

Yuqorida keltirilgan dalillardan ko‘rinadiki, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayoti ta’sirida tilning apellyativ sathida yuz bergan, ya’ni nolisoniy va lisoniy o‘zgarishlar atoqli otlar tizimida ham o‘z ifodasini topmoqda. O‘zbek matbuot nashrlari nomlari – gemeronimlarning tarkibi va tuzilishi kun sayin o‘zgarmoqda va boyimoqda. Zamonaviy neogemeronimlar buning yorqin dalilidir, biroq neogemeronimlarning yuzaga kelishi to‘la ijobiy hodisa emas. Ular o‘zbek tilining nomlar yaratish borasidagi milliy tamoyil va qonun-qoidalariga to‘la javob bermaydi.

Ayrim gazeta-jurnallar nomlanish o‘zbek tilining me’yorlariga javob bermasligi hamda ularningimloviy jihatdan xato yozilishi yoki butunlay tilimizga begona xorijiy so‘zlardan tarkib topganligi va bu omma ongu shuuriga singiyotganligi achinarlidir O‘zbek tili neogemeronimlarini leksik-semantik, yasalish, imloviy jihatdan tartibga solish, to‘g‘rilash va tartibga solish o‘zbek onomastikasining dolzarb vazifalaridandir. Bizningcha, matbuot nashrlarini nomlashda quyidagi tavsiyalarga amal qilish lozim:

1. Matbuot nashrlari – gazeta va jurnallarning nomlari lo‘nda, sodda va tushunarli bo‘lmog‘i lozim.
2. Nomlarga sof o‘zbekcha yoki o‘zlashma qatlamga mansub, til jamoasiga tushunarli, faol iste’molda bo‘lgan so‘zlar lug‘aviy asos qilib olinmog‘i shart.
3. Matbuot nashriga ijtimoiy-siyosiy islohot va o‘zgarishlar ta’sirida o‘zgarmaydigan, uzoq yashovchan nom tanlash lozim.
4. Matbuot nashrlari o‘zbek tilining milliy-lisoniy an’analari asosida davlat tilida rasmiylashtirilishi maqsadga muvofiq.
5. Nom matbuot nashrining maqsad va vazifalari hamda mavzu- mundarijasini ifodalamog‘i kerak.
6. Nomlar amaldagi joriy krill va lotin alifbolariga asoslangan o‘zbek yozuvlari imlo qoidalariga muvofiq yozilishi shart. Ularning yozma va bosma shakllari ham grafik, imlo me’yorlariga asoslangan holda berilishi kerak.
7. Matbuot nashrlari nomlarini tez-tez almashtirilishi va o‘zgartirilishiga chek qo‘ymoq lozim.
8. Matbuot nashrlarini nomlashda uning o‘quvchilariva mushtariylari ommasining taklif-istaklarini e’tiborga olish yaxshi samara beradi.

Shu tavsiyalarga amal qilsak, yangi nomlar yaratish borasidagi O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili to‘g‘risidagi” Qonunida belgilangan talab va vazifalarni bajarishga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуазизова Н. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. – Тошкент: Академия, 2002.
2. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии / Н.В. Подолская. – М., 1988.

GILAMCHILIK TERMINLARI SINONIMIYASI, VARIANTDORLIGI VA ANTONIMIYASI

Mansurova Dildora,
Samarqand davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola milliy hunarmandchilikning bir bo‘g‘ini bo‘lgan gilamchilik ternminlari dadqiqiga bag`ishlangan. Jumladan, sohaga doir terminlar o‘rtasidagi o‘zaro sinonimik, variantdorlik hamda antonimik munosobatlar xususida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: hunarmandlik, gilam, sinonim, variant, antonim, leksikon, soha, hudud,dalil, kasb-hunar,leksema.

Ma’lumki, qadimdan ma’naviyatimiz sarchashmalaridan bo‘lgan milliy hunarmandlikning bir turi bo‘lgan gilamchilik sohasida biror tushunchani ifodalash maqsadida xilma-xil til belgilaridan foydalanilayotganligiga oid aniq dalillar keltirish mumkin. Soha vakillari leksikonida esa ma’nodosh, ya’ni sinonimik yoxud variantdor hamda antonimik terminlarning mavjudligi ham real voqelikdir. Buni o‘zbek xalqining ko‘p shevaliligi, ma’lum bir regionda tushunchalarni ifodalash maqsadida o‘z va o‘zga tillar materiallaridan foydalanilayotganligi kabi omillar bilan dalillash mumkin.

Muayyan hududning turli mintaqalarida ayni bir xil tushunchalarni ifodalovchi, biroq shaklan turli-tuman bo‘lgan leksemalarning majmuini shu regionga xos sinonimlar yoxud variantlar deb hisoblaymiz. Aniqroq qilib aytganda, O‘zbekistonning turli hududlarida qo‘llanuvchi lug‘aviy birliklarning majmui shu viloyat kasb-hunar egalari yoxud aholisi nutqida sinonim, variant va antonimlarni tashkil etadi. Bunday holatni gilamchilik so‘z/terminlari misolida ham ko‘rish mumkin.

Respublikamizning Qashqadaryo, Surxondaryo, Sirdaryo, Jizzax, shuningdek, Samarqand viloyatining qator hududlarida patli gilamning bir turi *julhirs* deb ataladi. Mazkur so‘z/terminning ma’nosi va uning tayyorlanish texnologiyasi haqida N.Mirzayev shunday deb yozgan: «Qo‘y juni ipidan patli qilib tayyorlangan gilam turlaridan biri. U ham sholga o‘xshatib tayyorlanadi, lekin har bir bod ag‘darganda bod orasidan pat chiqarish uchun ip o‘tkazib boriladi. Shol to‘qib bo‘lingach, ip uchlari bir tekis qilib qirqiladi. O‘tkazilgan iplar turli rangda bo‘ladi. To‘qilgan shol eni 25-30 sm, bo‘yi 1,5 metr chamasida bo‘laklarga bo‘linadi. Bo‘laklar 10-12 tadan o‘zaro tutashtirib tikiladi, gilam chetlariga bezak beriladi. Uni pat gilam deb ham atashadi» [1., 33].

Yuqorida ko‘rsatilgan hududlarda *julhirs* keng miqyosda to‘qilayotgan *to‘shanchi*lardan biri hisoblansa-da, O‘TILga kiritilmagan. Kelgusida u lug‘atlarda o‘z ifodasini topadi, degan umiddamiz.

T.Tursunova ko‘rsatib o‘tilgan tushunchaning *julhirs* deb atalishini ta’kidlar ekan, uning etimoni xususida shunday fikrni bildirgan: «Julhirs ikki manba asosida paydo bo‘lgan so‘z bo‘lib jul ∠ fors-tojik. teri va xirs ∠ arab.ayiq demakdir. *Julhirs* patining uzunligi uning nomi «ayiq terisi» (rus.medvejya shkura) ma’nosiga yarasha, 15-20 mm ga boradi. Oddiy patli gilamlarning pati ko‘pi bilan 11 mm dir. *Julhirs* stanoklarda to‘qilish texnikasi jihatidan O‘zbekiston gilamlarining eng qadimiy turiga mansubdir [2., 105-106].

M.F.Gavrilovning guvohlik berishicha, Samarqand viloyatida mazkur tushuncha *julhirs, julbaroq, zulbaroq, patli zulvaraq* kabi so‘z/terminlar vositasida ifodalangan [3., 53]. Bu kabi sinonim va variantlarni to‘liq deb ayta olmaymiz, chunki Samarqand viloyatining turli hududlaridan to‘plangan materiallar bu raqamni bir necha bor oshirib yuboradi. Qiyoslang:

1.Sinonimlar: *julqirs* (Urgut)/*qolin* (Q.rab., Jo‘sh)/*tasirlovuq/ pat gilam/patli gilam* (Q.rab.).

2. Variantlari: *julxut* (Urg.), *julqiz* (P.dar.)/*jo‘lxirs*/*jo‘lbaroq* (Q.rab., Jo‘sh)/*julxas* (Isht., Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanida ham shunday)/*jilqirs* (G‘.orol).

Umumadabiy tilda (albatta, uning og‘zaki ko‘rinishida ham) o‘rni bilan antonimlardan keng foydalaniladi. Terminologik sistemalarga yoxud leksik qatlamlarga murojaat etilganda, ularning birida antonimlar faolroq, boshqasida nofaol qo‘llanadi. Masalan, botanik terminologik tizimda bir-biriga qarama-qarshi, zid bo‘lgan qator tushunchalar mavjud bo‘lib, ular bevosita antonimlar vositasida ifodalanadi: urug‘li meva–urug‘siz meva, ongli tanlash–ongsiz tanlash, oliy o‘simliklar–tuban o‘simliklar, hujayrali o‘simliklar–hujayrasiz o‘simliklar, ustki tuguncha–ostki tuguncha va b[4.,173]. Kasb-hunarmandlik leksikasida esa, aksincha, antonimiya kam uchraydigan hodisadir. Buni gilamchilikka doir so‘z/terminlar misolida ham ko‘rish mumkin. Mazkur sohada barmoq bilan sanarli miqdordagi antonim so‘z/terminlar mavjud. Biroq, ular qanchalik kam bo‘lmasin, gilamchilikka doir so‘z/terminlarning leksik-semantik munosabatlaridan birini namoyish etuvchi dalil bo‘lib qolaveradi.

O‘zbek xalqi qadimdan xilma-xil gilamlar to‘qish bilan shug‘ullanib kelgan. Yuqorida aytilganidek, gilamlarning tayyorlanish usullariga ko‘ra, uchta turi ma’lum: 1) *to‘qima*; 2) *tikma*; 3) *bosma gilam*lar.

Gilam giperonimining giponimlaridan birini, *to‘qima gilam*ni olib ko‘raylik. Bunday gilamlarning ikki xil turi mavjud bo‘lib, ular lisoniy nuqtai nazardan antonimik munosabatni tashkil etgan: *patli gilam–patsiz gilam*.

Ayni shu antonimik juftlik haqida gap ketganida, ularning xilma-xil leksik birliklar orqali ifodalanishini qayd etmay bo‘lmaydi. Masalan, *patli gilam* so‘z/termini *pat gilam* shaklida ham qo‘llanadi (Urg.).

Bundan tashqari, *julhirs* so‘z/termini ikkala variantning sinonimi vazifasini bajarib keladi (bu so‘z/termin haqida yuqorida so‘z yuritilgan edi). «Qizig‘i shundaki, –deb ta’kidlaydi T.Tursunova, –ayrim o‘zbek shevalarida va o‘zbek adabiy tilida «patli gilam» ma’nosida tojik so‘zi *gilam* o‘zlashgani, singib ketgani holda, hozirgi tojik tilida «patli gilam» ma’nosida qadimgi turkiy *qali/g‘ali* so‘zining *qolin/qoli, qolicha* kabi fonetik variantlari ishlatiladi» [2.,99]. Samarqand viloyatida ham ko‘rsatib o‘tilgan *qalin/qali/qolim* so‘z/terminlari, *tukli gilam* (K.q.) so‘z/termini bilan sinonimik munosabatga kirishadi. Viloyatning Poyariq tumanida *gilam* so‘z/terminining o‘zi ham bevosita «patli gilam» ma’nosida ishlatib kelinayotganligini qayd etish maqsadga muvofiq.

Patli gilam–patsiz gilam antonimlarining keyingisi ham, yuqorigidan farqli o‘laroq, o‘z sinonimlariga ega. Qiyoslang: *arabi/arabi gilam* (variantlari: *aravi/aravi gilam*), *taqirloq gilam* (G‘.orol), *qotma/qotma gilam* (Nurob.), *taqillaq/taqillaq gilam* (Q.rab., Poy.).

Nihoyat, asli fors-tojikcha *palos* (shevada: palas) so‘z/termini «patsiz gilam» ma’nosida ishlatilayotganligini ham uqtirish lozim.

Shu bilan birga, gilamchilar leksikonida «patsiz gilam» ma’nosida *sholcha, olacha* kabi so‘z/terminlarning ishlatilayotganligi qayd etildi.

Bayon etilganlar sxematik shaklga keltirilsa, quyidagi manzara namoyon bo‘ladi:

Patli gilam	Patsiz gilam
pat gilam julhirs tukli gilam qolin qoli gilam	arabi // aravi gilam aravi // arovi gilam qotma // qotma gilam taqir gilam taqillaq // taqillaq gilam sholcha olacha gilam

Keltirilgan dalillardan kasb-hunarmandlik sohasida ayrim so‘z/terminlarning ko‘p ma’noli ekanligini payqash qiyin emas. Misol uchun *gilam* so‘z/terminini olib ko‘raylik. Yuqorida mazkur so‘z/terminning ma’nolari haqida so‘z yuritilgan edi. Gilamchilik so‘z/terminlarining antonimik munosabatini aniqlash natijasida gilam so‘z/termini yana quyidagi qo‘shimcha ma’nolarda qo‘llanayotganligi ma’lum bo‘ldi:

Gilam – 1. To‘shaladigan yoki osiladigan to‘qima buyum.

2. Shu buyumning patli turi. } Qo‘shimcha ma’nosi

3. Shu buyumning patsiz turi.

Gilamchilik sohasida qo‘llanayotgan antonimlar jumlasiga yana quyidagilarni kiritish mumkin: *gulli gilam–gulsiz gilam, katta gilam–kichi* (kichkina) *gilam, sochaqli gilam–besochaq* (sochaqsiz) *gilam* va b.

Xullas, o‘zbek tili kasb-hunar leksikasining tadqiq etish yuzasidan shunday xulosa qilish mumkinki, gilamchilik kabi milliylik bilan bog‘liq sohalar leksikasi tizimida maxsus paradigmalardan o‘rin oluvchi minglab so‘z/terminlar lug‘atlardan o‘rin olmagan. Vaholanki, bu so‘z/terminlar bilan ataladigan narsa, buyum, hodisa, jarayonlar o‘zbek milliy qadriyatlaridir. Shu bois ular yuzasidan keng qamrovli tadqiqotlar olib borish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Мирзаев Н. Этнографическая лексика узбекского языка (на материалах узбекского говоров Кашкадарьинской области): АКД. –Ташкент, 1971.

2.Турсунова Т. Ўзбек тили амалий санъат лексикаси. –Тошкент: Фан, 1978.

3.Гаврилов М.Ф. О ремесленных цехах Седней Азии//Известия Средне-Азиатского комитета по делам музеев и охраны памятников страны, искусства и природа. вып.9. –Ташкент, 1928.

4.Зокиров Р.З., Жамолхонов Ҳ. А. Ботаникадан русча-ўзбекча энциклопедик луғат. –Тошкент: Ўқитувчи, 1973.

ZARAFSHON VODIYSI TOPONIMIK BIRLIKLARI TAGHLILI

Jo‘rayev Shahriyor,
Samarqand davlat universiteti o‘qituvchisi, PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada Zarafshon vodiysi aholisi o‘rtasidagi o‘zbek va tojik tillari munosobatlari tadqiq qilingan. Bu jarayon toponimik materiallar asosida yoritililib, ularni mavzuiy guruhlarga bo‘lib o‘rganish tavsiya etilgan.

Kalit so‘zlar: vodiy, onomastika, toponim, oykonim, tuman, tadqiqot, hudud, tarmoq, aspekt.

Ma’lumki, insoniyat tarixiy o‘tmishi, qadimiy madaniyati, an’analari, udumlari, urf-odatlari va joy nomlarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlardan ko‘plab etnik guruhlarning bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishi, turli maqsadlardagi aloqalar natijasida ba’zi etnik guruhlarni o‘rganishda ular o‘rtasidagi munosabatlarning yaqinligi bois ularning shakllanish jarayoni qorishib ketganligi tufayli mazkur etnos vakillarining, ayni paytda, qaysi bir millatga mansubligi haqida aniq fikrga kelishning murakkabligini ko‘rsatmoqda. Joy nomlarini ilmiy tahlil qilishda arxeologik, antropologik, xalq og‘zaki ijodi, tillararo aloqalar hamda xalq onomastikaga oid materiallar majmuasiga, tarixiy – etnologik aspektlarga tayanib ish ko‘rish lozim bo‘ladi.

Ma’lumki, onomastika tizimida oykonimlarning o‘rni o‘ziga xos o‘rin tutadi. Oykonimlarning muhim tarmog‘i bo‘lgan etnooykonim (urug‘, qabila, millat, xalq)lar nomlari asosida yaratilgan aholi joy nomlari tilning eng qadimgi toponimik qatlamlaridan biri hisoblanadi. Ular uzoq tarixiy davrning muhim yodgorligi bo‘lib, ma’lum bir xalqning tarixiy etnik tarkibini o‘rganishda, ularning tarqalish chegarasini aniqlashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Yurtimiz toponimikasi masalalari Mahmud Koshg‘ariy, Abu Rayhon Beruniy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abu Tohirxoja kabi allomalar asarlarida va muallifi noma’lum “Hudud al-olam” singari manbalarda uchraydi. V.V.Radlov, V.V.Bartold, V.L.Vyatkin, V.I.Shishkin, S.P.Tolstov, O.I.Smirnova, M.B.Masson, I.I.Umnyakov, L.N.Gumilyev, E.M.Murzayev singari olimlarning O‘rta Osiyo xalqlari tarixi va etnografiyasiga oid asarlarida respublikamiz toponimlari haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan.

Y.G‘ulomov, S.Qoryaev, Z.Do‘simov, T.Nafasov. E.Begmatov, T.Rahmatov. B.O‘rinboyev, A.Muhammadjonov, E.Xo‘jamberdiyev, S.Gubayeva, N.Oxunov, T.Ernazarov, N.Ulug‘ov, S.Nayimov, X.Xolmo‘minov, N.Begimov, A.Turobov, O‘.Oripov, A.Aslonov, A.Otajonova, N.Mingboyev, M.Tillayeva, A.Primov, M.Ramazanova, U.Sanaqulov singari o‘zbek olimlarining milliy toponimiya fani rivojiga salmoqli va sezilarli hissa qo‘shganligini alohida ta’kidlash lozim.

Tadqiqot obyekti toponimlari tahlili Zarafshon vodiysining Tojikiston Respublikasining Ayniy tumanidan O‘zbekiston Respublikasinig Olot tumanigacha bo‘lgan hududni o‘z ichiga olishini ko‘rsatdi. Mazkur hududning qadimdan tabiiy boyliklari behisob, havosi yoqimli bo‘lgan, aholisi hunarmandchilik, chorvachilik va dehqonchilik hamda savdo-sotiq bilan shug‘ullangan. Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida joylashgan mana shunday obod yurtda juda ko‘plab xalq, qabila, urug‘ vakillari inoq

yashashlari tufayli ularning tillari, dini va urf-odatlari mahalliy sharoit ta’sirida o‘zaro omixtalashib ketgan [1.,124]. Ushbu o‘ziga xos tarixiy etnografik mintaqada bir necha millat vakillari etno muloqotlarining mahsuli sifatida turkiy va sug‘diy madaniyatning qorishib ketganligini joy nomlari misolida ham ko‘rish mumkin.

Ushbu o‘rinda toponimist T.Rahmatovning quyidagi fikrini keltirib o‘tishni o‘rinli deb hisoblaymiz: “Zarafshon vodiysi toponimiyasi ming yillar davomida shakllangan bo‘lib, uning yuzaga kelishida oriylar, sug‘diylar, yunonlar, toharlar, turkiylar, arabiylar, mo‘g‘ullar va boshqa elatlar hamda xalqlar ishtirok etgan” [2., 4].

Hududda bir nechta millat vakillari elat, urug‘ o‘tmishda bir manzilda yashaganligini hozirgi paytda toponimi sifatida saqlanib qolgan etnik guruhlar nomlarida uchratish mumkin: *Kenagas, Pochvon, O‘ramas, Mo‘g‘ol, Galabotir, Elpak, So‘pi, Sanchiqul, Ravotxo‘ja, G‘o‘lva, Xitoyuz, Tuyoqli, CHavot, Boybo‘l, Chag‘izmon, Kamangaron, Vag‘ashli, Qing‘ir, Qizilbosh, Beshkal, Qul qishloq, Nayman, Mang‘it, Eshonqishloq* va boshqalar. Ushbu etnik guruhlar tadqiq etilayotgan hududda aralash holda emas, balki uyushgan jamoa bo‘lib yashaydi.

Albatta, mazkur hududda istiqomat qilayotgan mahalliy aholining etnik tarkibi bir xilda emas. Asosiy qismi o‘zbeklarni tashkil qiladi. Aholining bir qismi tojik tilida so‘zlashuvchi etnoslar bo‘lib Urgut tumanining *Xo‘jayiquduq, Vag‘ashli, Kamangaron, Tayloq tumaninig Qozixona, Adas, Zarafshon*, Samarqand tumanining *Mironkul, Ravonak, Andijoni, SHo‘rboi, Dashti So‘xta, Angarolmos, Oqmachit, Qo‘shmachit, Tollibarzo‘, Safedi, Navbog‘chiyon, Ko‘l, Guliston* singari qishloqlarida Panjakent shahri, Rudak, Kuloli, Sarmozor, Farob singari huddudlarida yashaydilar. Bundan tashqari, Zarafshon vodiysi hududidagi Panjakent tumaninig Minor, Ko‘ktosh, Barlos, Mo‘g‘ulon singari qishloqlarida Hamda Urgut tumaninig *Torinjak, Chorchinor, So‘fiyon, Ravotxo‘ja, G‘o‘ss, Soyg‘o‘ss, Iskanza, Payshanba Siyob, Juma bozori, Vorsin, Talliota, Qo‘rg‘oncha, Qoziariq, Yangiariq, Gulobod, Po‘lotdarxon, Motrid, YAngi hayot, O‘zbekkenti* singari aholi punktlari hamda Samarqand shahrida tojik va o‘zbek tilida barobar so‘zlashuvchi aholi istiqomat qiladi. Nomi qayd etilgan hududlarda yashovchi mahalliy aholiga ikki tilda gaplashish qadimdan urf bo‘lgan. Ushbu hududlar mahalliy aholisi boshqa xalqlar bilan yaqin etnik madaniy munosabatda bo‘lganligi bois asrlar davomida bir-biri bilan chambarchas bog‘lanib, uyg‘unlashib ketgan. Ularning turmush tarzi, urf-odatlari, xo‘jalik yuritish faoliyati hudud tabiiy geografik sharoiti bilan bevosita bog‘liqdir. Shu bois, Zarafshon vodiysida turli-tuman geografik ob’ektlarga xos bo‘lgan va bo‘lmagan etnotoponimlarni uchratish mumkin.

Hudud onomastikasi bo‘yicha olib borilgan kuzatish va tahlillar ularni quyidagicha guruhlarga bo‘lib o‘rganish zarurligini taqozo etmoqda:

1. Xalq, millat, elat, urug‘ nomini o‘zaro aks ettirgan etnotoponimlar: *O‘zbekkenti, Tuyoqli, Barlos, Urmitan, Qozoqovul, Tojikovul, Qirg‘izovul, Jo‘gixona, Qo‘shtamg‘ali, Nayman, Saroy, Tuyoqli, Solin, Mang‘it, Xitoyuz, Qo‘ng‘irot, Qoraxoni, Mo‘g‘ulkenti, Arabxona, Juguton, Tojik nisbat, O‘zbek nisbat* va h.k.

2**.** Shaxslarning nomi, tarifi, taxallus va laqablari bilan ataluvchi antrotoponimlar: *Alijon, Alidaroz, Baydarkov, Begijon, Valijon* va h.k.

3. Afsonaviy va diniy nomlar bilan bog‘liq antrotoponimlar: *G‘o‘ss (islom olimining etuk namoyondasi G‘ovsul A’zam nomidan), Xo‘ja Ro‘shnoi, Ibrohim ota, Olloyoriddin, G‘oyib ota* va b.

4.Tarixiy shaxs nomlari bilan atalgan antrotoponimlar: *Xo‘ja Ahrori Vali bobo, Abulays, Go‘ri Amir, Xo‘ja Ismoil, Mahdumi A’zam, Mahdumi Xorazmiy, Afrosiyob, Navoiy, Ulug‘bek* va h.k.

5. Mahalliy aholining kasb-hunari bilan bog‘liq toponimlar: *So‘zangaron, Kulolon, Xarraton, Zargaron, Kamongaron, SHarbatdor, CHarmgaron, Juvoziqog‘az, Bofanda, Qoshiqchi, Olachabofon, Bazzozon, Duxchigi, Bo‘yrachi, Ipakchi* va h.k.

6. Foydali qazilma boyliklar ma’dan nomi bilan ataluvchi toponimlar: Zarmitan, Zarband, Marjon, Tillakon, Konigil, Kumushkent va b.

7. Tog‘ jinslari nomlari asosida shakllangan toponimlar: *Oqtosh, Qo‘ytosh, Ohakli, Ohak, Konigil, Loyqa, Qiziltosh (Ishtixon)* va b.

8. Zoonim asosli toponimlar: *Kakliksoy, Kaftarxona, Ilonlisoy, CHumchuqli, Bog‘izog‘on, Ayg‘irtepa, Jayratepa, Laylak, CHigirtkali (Ishtixon)* va b.

9. O‘simliklarning nomi (fitonim)ni o‘zida mujassam etgan toponimlar: *Jiydalisoy, Pistamazor, Sebzor Dahbed, Mevali, Uzumzor, Razmaz // Razi (Sororecha rez uzum, uzumzor, arabcha mazre’ ekkan maydon), Beshtol, Arpa, Bog‘idaroz, Bog‘ojat, Burgan, Kavarzor, Tarvuztavoq* va b.

10. Suv bilan bog‘liq gidrotoponimlar: *Suvlisoy, Qorasuv, // Siyob, Darg‘om, (Darg‘ forscha to‘g‘on ob-suv), Zarafshon (sar forscha bosh, ulkan, ob-suv, shon daryo), Beshbuloq, Beshdarg‘at, Buloqboshi, Damariq* va h.k.

11. Hudud relef tuzilishi bilan bog‘liq toponimlar: *Jarqishloq, Bolta-Jarboshi, Gumsoy, Zinak (sug‘dcha chog‘ beli, ya’ni ikki cho‘qqi o‘rtasidagi qism) Pulimug‘ob // Pushmag‘ok (forscha chuqur ko‘prik), Xovosi* va h.k.

12. Joyning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq toponimlar: *Zahkash, Jala, Zahalin, Sho‘r, Qabiriya* va b.

13. Obyektning joylashgan holati bilan bog‘liq toponimlar: *Sochaki bolo, Sochaki poyon, Kulbai poyon, Dashtaki bolo, Yuqori qishloq, Ayriqiya, Balandbog‘, Quyiguzar, YUqori alg‘ar, Devoli Ko‘ndalang, Miyonkol, Pastguzar, Poyoni gumbaz, Turki bolo*.

14. G‘aroyib nomlar bilan ataluvchi toponimlar: *Qizil jinni, Jin ko‘cha, Luchchakon mahallasi, YAlang‘och qishlog‘i, Ko‘saho, Ko‘sato‘p, CHinoq* va b.

15. Migratsion nomlarga oid toponimlar: *Toshkandi, Qo‘qoni, Xavasi Zomini, Urguti, Andijoni, Dahbedi, SHahrisabzi, Urganji, Qarshigi, Buxori, Xo‘jandi* va b.

16. Zamonaviy nomlar bilan bog‘liq toponimlar: *Mustaqillik, Istiqlol, Istiqbol, Bunyodkor, Birlik, Tinchlik* va h.k.

17. Savdo-sotiq bilan bog‘liq toponimlar: *Chorsu, Juma bozor, Payshanba bozor, Chorshanba bozor, Bozorjoy, Tim, Rasat-toq (Siyob bozori hududidagi mahalla nomi arabcha bo‘lib bozor boshi ma’nosini bildiradi) O‘zbek bozor, Tojik bozor, Arab bozor, Mol bozor, Don bozor, O‘tin bozor, Latta bozor, Bozorboshi* va h.k.

18. Tabobatga oid toponimlar: Sulfa-kabutak, Ko‘ktosh, Mushkulkusho, Bandikusho, Qo‘tur buloq va h.k.

Madaniy yodgorlikning muhim boyligi bo‘lgan joy nomlarini to‘plash, ilmiy tahlil qilish hozirgi tilshunoslikning muhim masalalaridan hisoblanadi. SHu bois,

tilshunoslikda hozirda mavjud bo‘lgan va turli sabablarga ko‘ra yo‘qolib ketgan toponimlarni tarixiy manbalar va ekspeditsiyalar uyushtirish orqali aniqlash, ularning nomlarini tiklash toponimika fani oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu hududdagi turli xalq, millat, elat, urug‘, vakillarining kelib chiqish va o‘zaro aloqalari singari masalalarni ijobiy hal etishda muhim rol o‘ynashi shubhasiz.

Xullas, chog‘ishtirilayotgan tillardagi onomastik birliklar hudud aholisi tili boshqa hudud tillariga nisbatan alohida ajralib turadi. Bu holat antroponimlar, toponimlar, fitonimlar, zoonimlar va boshqa mazmuniy guruhga aloqador leksemalar tahlilida ham yaqqol kuzatildi.Bu esa mavzu doirasida keng tadqiqotlar olib borishni taqoza etadi.

6-SHO‘BA. TA’LIM BOSQICHLARIDA DAVLAT TILINING O‘QITILISHI

TIL TA’LIMIDA SO‘ZNING O‘RNI

Yusupova Shohidaxon,
pedagogika fanlari doktori, professor,
Andijon davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada so‘zni anglash, uni his qilish, so‘zlash qobiliyati, muomala odobi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, so‘zning tafakkur va nutq o‘stirishdagi o‘rnini o‘rganish va uning mohiyatini metodik nuqtai nazardan talqin etish kabilarga munosabat bildiriladi.So‘z nutq ijodkorining dunyoqarashini namoyon etuvchi voqelik ekanligiga misollar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: so‘z, muomala vositasi, tarbiya, kommunikatsiya, leksema, semama, nomema, badiiy tafakkur.

Har bir shaxsning yetukligi, millatning madaniyat darajasi uning so‘zi, tili orqali namoyon bo‘ladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ham “Ona tilimiz – milliy ma’naviyatimizning bitmas-tuganmas bulog‘idir. Shunday ekan, unga munosib hurmat va ehtirom ko‘rsatish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas insoniy burchimizdir”[1.] degan fikrlari tilning nechog‘li ahamiyatli ekanligini yana bir bor eslatadi.

Mamlakatimizda barcha sohalarda olib borilayotgan islohotlar jarayoni tildan nafaqat nazariy, balki amaliy foydalanish samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning muayyan nutqiy vaziyat, sharoit hamda ijtimoiy muhitda undan oqilona foydalanish malakalarini oshirishga xizmat qilmog‘i lozim. Buning uchun ona tili o‘qitishni yanada takomillashtirish va kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o‘qitish tizimini joriy etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Hozirgi kunda ona tiliga e’tiborni qaratish ta’limning bosh vazifasi ekan, buning uchun ta’lim oluvchilardan kerakli kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi. Bunday talabni amalga oshirish, albatta, so‘z orqali, uni mukammal bilish, his qilish orqali amalga oshiriladi. So‘zni anglagan, uni his qila olgan kishida so‘zlash qobiliyati, muomala odobi mukammal bo‘ladi. Bunday muomala odobi esa kishilar orasida munosabat o‘rnatish, o‘quvchi bilan o‘qituvchi, o‘quvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi kelishuvchanlikni o‘rganish har bir fan oldida turgan eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Chunki o‘quvchining yetakchi faoliyatlaridan bo‘lgan muloqot va u orqali o‘zaro munosabatlar, tahlillar, do‘stona munosabat, bilish va tasavvur uyg‘otish kabi sifatlar paydo bo‘ladi. Zero, “Muomala shaxslararo munosabatlarning shunday ko‘rinishidirki, uning yordamida odamlar o‘zaro psixik jihatdan aloqaga kirishadilar, o‘zaro axborot almashinadilar, ta’sir o‘tkazadilar, ta’sirlanadilar, idrok etadilar, tushunish va baholash jarayonlarini kechiradilar. Shuning uchun muomala ijtimoiy psixologik hodisa, ijtimoiy kategoriya sifatida ijtimoiy turmushning barcha sohalarida bevosita ishtirok etib, xamkorlik faoliyatining moddiy, ma’naviy, emotsional, kognitiv, motivatsion, regulyativ qirralarini aks ettiruvchi obyektiv

va subyektiv ehtiyoj sifatida vujudga keladi, ijtimoiylashuvning asosiy omili, negizi vazifasini bajaradi". [2.] Albatta, shaxslararo munosabatlarda, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi so‘zlash va tinglash muomala jarayonida asosiy qurol bo‘la oladi. Muloqotning samaradorligi ikki shaxsning bir-birlariga mosligiga bog‘liq. Aytish lozimki, muomala yoki muloqotda mantiqan asoslangan so‘zlardan foydalaniladi, ta’sirchan so‘zlashga imkoniyat yaratiladi. Demak, muomala va muloqot vositasi so‘z bo‘lib, u orqali ta’lim beriladi, tarbiya amalga oshadi. Shunday ekan, so‘z o‘zi nima, degan savolga javob berishimiz zarur bo‘ladi. So‘z qanday struktural elementlardan iborat bo‘ladi? Bu haqda A.Hojiyev so‘zga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’rif bermasa ham, uning tarkibida ikki element mavjudligini ko‘rsatadi va "Ma’lum bo‘ladiki, har qanday so‘z shakl va ma’no butunligiga ega bo‘ladi. So‘zning fonetik shakli uning ma’nosini reallashtiradi. Boshqacha aytganda, tovush yoki tovushlar kompleksida ma’lum ma’no reallashsagina, uni so‘z deb atash mumkin", -deydi. [3.]

So‘z badiiy tafakkur mahsuli sifatida u vaqtlar o‘tishi bilan o‘zining shaklini o‘zgartirib turadi. So‘zda fikr bilan hissiylik uyg‘un bo‘lgani uchun u kishiga tez ta’sir etadi va uning qalbidan mustahkam o‘rin egallaydi. Ehtirosli so‘z-fikr o‘quvchining ko‘z o‘ngida hayotiy bir jarayon tarzini yuzaga keltiradi. So‘zdagi kechinmani tashkil etuvchi ehtirosli fikr uning ta’siri kuchli bo‘lganligi uchun ham so‘zning tafakkur va nutq o‘stirishdagi o‘rnini o‘rganish va uning mohiyatini metodik nuqtai nazardan talqin etish foydadan holi emas. So‘z yordamida shakllangan nutq o‘quvchining qalb qiyofasini hamda o‘zgalar kechinmasini ham o‘zida aks ettiradi. So‘z vositasida ifodalanayotgan voqelik hodisa emas, balki nutq ijodkorining dunyoqarashini namoyon etuvchi voqelikdir. So‘z va leksema atamalari ko‘p hollarda aralash holda qo‘llanadi. Lekin ular bir-biridan farq qiladi. Leksema, semema va nomemalarni o‘zaro munosabatidan tashkil topgan butunlik sanalib, uning mazmuniy mundarijasi atash, ifoda va vazifaviy semalar munosabatidan iborat bo‘ladi.

Har kanday leksema bu sema bo‘lib, unda "atash" semasi albatta ishtirok etadi. Shuning uchun bu sema leksemaning markaziy semasi, qolgan semalar esa chegara semalar hisoblanadi. Masalan, gapirmoq, do‘ng‘illamoq leksemalari bir xil atash semasiga ega bo‘lib, ifoda semasi bilan bir-biridan farq qiladi[4.]

Ma’lumki, so‘z insonga bevosita kuzatishda berilmagan narsa va hodisalar haqida axborot bera oladi. Shuning uchun ham hayvonot faqat bir olamga- sezgi orqali his qilish mumkin bo‘lgan predmetlar olamiga ega bo‘lsa, inson ikki olamga -sezgi orqali his qiladigan olam bilan birga, so‘z orqali ifodalanadigan obrazlar, munosabat, sifatlar dunyosiga ega bo‘ladi[5.]

Albatta, ona tili o‘qitish jarayonida so‘zning atash semasi bor-yo‘qligini o‘quvchilarga o‘rgatish asosiy masala. Bizning maqsadimiz so‘z va leksemalarga ta’rif berish emas, balki uning grammatik hamda uslubiy jihatlari haqida, nutq o‘stirishdagi o‘rni haqida fikr bildirishni lozim deb bilamiz.

So‘zda o‘quvchining munosabati ham, his- tuyg‘ulari ham mujassam bo‘ladi. Inson qalbini inson tushungani uchun ham so‘z yordamida yaralgan asar abadiydir, agarda kishi dilidagi dardini, orzusini kuylagan bo‘lsa.Chunki har qanday odamni o‘zingga qaratishda, turmushingni qayta qurishda, atrofga ma’ni va go‘zallik nurlarini taratishda so‘zga teng keladigan boshqa qurol yo‘q! Sen o‘zingdan avval so‘zingni asra: u-gavhar, tejab ayt,

joyini topib ayt, randalab, shibbalab ayt, har bir so‘zing bir uzukka ko‘z bo‘lsin! Sen avval o‘zingni emas, so‘zingni kiyintir:odamlarning qulog‘ini og‘ritmasin, kayfiyatlariga botmasin! Maqsadga so‘z bilan yetishni orzu qildingmi, shunday aytki, so‘zingni havoday simirsinlar, gul hidlaganday vujudlari yayrasinlar. So‘zni chaynama, ming‘irlama, har bir harfni o‘z ohangi, rangi bilan tiniq talaffuz qil! Ovozing xunuk bo‘lsa, minbarga chiqma! Quvonchli so‘zni quvnab ayt! Xafa so‘zni hasrat bilan ayt! "Urg‘u" degan oltin tayoqcha bor, kerak so‘zni topib tegizsang, jumla jaranglab ketadi! Bu degani,gaping albatta, tinglovchining yuragiga yetadi! [6.]

Ko‘rinib turibdiki, mazkur fikrda so‘z aytishga qaratilgan talablar: ohangdorlik, mantiqiylik, tejamkorlik, aniqlik kabi tamoyillar o‘z ifodasini topgan.

Kaykovus o‘zining “Qobusnoma”sida so‘z va uning qadr-qimmati haqida muxtasar fikrlarni aytib o‘tgan edi. “Ey farzand, so‘zning yuz va orqa tomonini bilgil, ularga rioya qilg‘il, so‘zlaganingda ma’noli gapir, bu notiqlikning alomatidir. Agar gapirgan vaqtingda so‘zning har qanday ma’noga ega ekanini bilmasang, qushga o‘xshaysan, bunday qushni to‘ti deydilar.To‘ti ham so‘zlaydi, ammo so‘zning ma’nosini bilmaydi. Shunday kishini notiq (Suxango‘y) deymizki, uning har so‘zi xalqqa tushunarli bo‘lsin va xalqning har so‘zi unga ham ma’lum bo‘lsin. Bunday kishilar oqillar (aqllilar) qatoriga kiradi, bo‘lmasa inson shaklidagi hayvondir” [7.]

So‘z qo‘llash mahorati haqidagi fikrimizni shoira T.Sodiqova ijodi orqali tushuntirishga harakat qilamiz.

O‘zbek abadiy tilini boyitishga,ona tilimizning badiiy imkoniyatlarini inson ma’naviyatini mukammal ifodalashga safarbar etishga muvaffaq bo‘lgan T.Sodiqova o‘z she’rlaridagi fikrlarni tilimiz imkoniyatlaridan unumli foydalanib bera olgan. Quyidagi parchaga e’tibor beraylik:

Ul his to‘lar tomirlarimga,
Ko‘zlarimga to‘lib boradir.
Ko‘chirmasam agar she’rimga
Naq bog‘imga o‘tday yonadir

Ijodkor birinchi satrdagi “U” ko‘rsatish olmoshining tarixiy shakli “ul” dan foydalanib she’rda berilgan his oddiy tuyg‘u emas, balki azaldan muqaddas sanalib kelinayotgan his ekanligiga ishora qilmoqda. Olmoshdan go‘zal poetik shakl yaratgan, shoira o‘quvchi qalbini to‘lqinlantiribgina qolmay, o‘zligini anglashga qaratilgan ko‘hna tarix havosidan bahra oldirmoqda. Uchinchi misradagi shart mayli qo‘shimchasi "-sa" hamda shart bog‘lovchi "agar" birgalikda ishlatilsa,ijodkorning she’rdagi shiddatli holatini berish barobarida o‘quvchining diqqatini to‘lig‘icha she’rga qaratishga olib kelgan. Shuningdek, to‘rtinchi misradagi "naq" kuchaytiruv yuklamasining qo‘llanishiga e’tibor beradigan bo‘lsak, shoirning til imkoniyatlaridan foydalanish borasidagi mahoratiga yana bir bora qoyil qolamiz. Uchinchi satrda ifodalangan tezkor holatni to‘rtinchi misrada yanada shiddatli, to‘xtam bilmas xususiyat qilib tasvirlashda ijodkor kuchaytiruv yuklamasining boshqa turlaridan foydalanmay, aynan "naq" turini ishlatgan va o‘quvchining ham o‘zi bilan birgalikda o‘tday yonishiga, aytmasa bo‘lmaydigan holatga sola olgan va bunga erishgan.

O‘quvchilar bilan she’rni yuqoridagidek tahlil etish, birinchidan, o‘quvchining til ilmi bo‘yicha olgan bilimlarini mustahkamlaydi, ikkinchidan, adabiyotga mehr

uyg‘otadi,uchinchidan, so‘z sehrini tuyish hissi ortadi. Bilamizki, til va adabiyot darslarini uyg‘unlikda olib borish maqsad va vazifani to‘g‘ri belgilash imkonini beradi.

Akademik L.V. Щcherba “insonning nutqiy faoliyati asosan ma’lum bir til tizimi qoidalariga tobe holda yuzaga keladigan nutq ijodkorligidir”, deya ta’rif bergan edi. O‘quvchi ana shu nutq ijodkorligini o‘z so‘zi orqali voqelantiradi va har bir shaxs o‘zligini so‘z orqali namoyon etadi. She’riy nutq yaratish ijodkorning faqatgina ilhom onlaridagi kechinmalarigagina bog‘liq bo‘lmay, balki yozuvchidan tilga oid qonuniyatlarni ham bilishni taqozo etadi. Jumldan, T.Sodiqova bitayotgan har bir misrasiga yuksak mas’ullik hissi bilan qaraydi, kitobxon bilimiga bilim qo‘shishdan zavqlanadi, yozgan she’rlarini o‘quvchisi oson hazm qila olishini istaydi.

O‘qituvchi o‘quvchilarning lirik qahramon va uning qo‘llanilishi haqidagi fikrlarini tinglagandan so‘ng, ularning fikrlariga tuzatishlar kiritadi va fikrlarni umumlashtiradi, boshqa she’rlaridan ham misollar keltirib, T.Sodiqovaning o‘zigagina xos bo‘lgan uslub va lirik kahramon tavsifini beradi.

Aytish joizki, til ta’limida she’riyatdan foydalanishning o‘ziga xos samarasi bor.So‘z ustida ishlashda, ilmiy va badiiy qarashlarning shakllanishida she’riy satrlar ibrat maktabi vazifasini o‘taydi. O‘zbekona lutf bilan aytilgan yuqoridagi she’rlar har bir pedagogga o‘z oldidagi vazifani, ya’ni bilim berishni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi.So‘z yaratishda,matnda okkozional so‘zlardan foydalanish esa o‘quvchi nutqini rivojlantiradi, lug‘at boyligini oshiradi. O‘quvchilarning so‘z ustida ishlash, uni anglash qobiliyatlarini o‘stirish uchun ularga so‘z ustida ishlash topshiriq qilib beriladi.Bunday so‘zlarni topish, izlash davomida o‘quvchilar so‘zning lug‘aviy ma’nolarini aniqlaydilar hamda so‘zning grammatik ma’nolari ustida ishlaydilar.

Ma’lumki, so‘z ustida ishlash katta san’at ekanligini o‘quvchilar-talabalarga yetkazish ularda nafosat tuyg‘usini shakllantirishga imkon beradi.So‘z va tovushlarni o‘z o‘rnida ishlata bilishlikda, til qonuniyatlari asosida tushuntirishda maqsad to‘g‘ri belgilanadi.

Barchasmizga ma’lumki, so‘zning asosiy vazifasi axborot almashinuvidan iborat emas. Ya’ni so‘zlovchi so‘z aytish bilan o‘z maylini,munosabatini, noroziligini, hayratini, turli ruhiy tuyg‘ularini ifoda etadi. So‘z muloqot qiluvchilarning munosabatlarini harakatga keltiruvchi vosita hisoblanadi.Shu bois, uning qonun-qoidalariga amal kilish talab etiladi.Shuning uchun ham so‘zlash va undan nutqda qanday foydalanish yo‘llarini o‘quvchilarga tushuntirish,uning qonun- qoidalaridan ijtimoiy faoliyatda foydalana olish malaka va ko‘nikmalarini o‘rgatish foydadan holi emas .Nutq to‘g‘ri ta’minlanishi uchun kishida so‘zni bilish va uni ifoda etish qobiliyati kuchli bo‘lishi zaruriy masaladir.

Aytish joizki, til o‘qitish metodikasiga Amerika sotsiolingvistikasida shakllangan so‘zlashish metodini (konversatsion tahlil- ing. sopuegeaiop- "so‘zlashish") olib kirish maqsadga muvofiqdir. Chunki so‘zlashuv ma’lum qonun- qoidalar asosiga bo‘yinsunmas ekan, u pala-partish holatga keladi, natijada tushunarsiz fikrlar paydo bo‘ladi.Fikr inson ongida shakllanadi hamda u so‘z shakliga kirib, muomala vositasida sifatida namoyon bo‘ladi. Atrofimizdagi voqea-hodisalarni idrok qilish tafakkur bilan bog‘liq jarayon hisoblanadi. Idrok qilishda esa ijodiy fikrlash muhim sanaladi Fikrlashning qay darajada ekanligi so‘z orqali namoyon bo‘ladi .

Ma’lumki, hozirda ta’limda pedagogik texnologiyalarni amalda qo‘llashga e’tibor kuchayib bormoqda. Chunki bunday texnologiyalarni joriy etish o‘quvchilarni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, so‘z ma’nosini tahlil qilishga, hukm, xulosalarini keltirib chiqarishga o‘rgatadi. Bunday ta’lim shaxsning rivojlanishiga, bilim olishiga sharoit yaratadi. Nimani gapirish emas, balki qanday gapirish muhimdir.Ba’zan shunday gaplar qulog‘ingga chalinadi: *men gapirishga uyalaman*. Bunday gapirish albatta so‘z qashshoqligidan, fikrlashning torligidan dalolatdir. Zero, faylasuflar ta’kidlaganlaridek, "Miyalarida juda ko‘p fikrlar boru, ammo gapga chechan bo‘lmaganliklari uchun so‘zlay olmasliklarini ta’kidlaganlar hali o‘zlarini uncha anglay olmagan kishilardir."(M. Monten) [8.] Zero, fikr inson ongida shakllanadi hamda u so‘z shakliga kirib, muomala vositasida sifatida namoyon bo‘ladi. Atrofimizdagi voqea-hodisalarni idrok qilish tafakkur bilan bog‘liq jarayon hisoblanadi. Fikrlashning qay darajada ekanligi so‘z orqali namoyon bo‘lar ekan,demak,so‘z va uning qudratini o‘quvchilarga singdirish foydadan holi emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2019-yil 21-oktabr.

2. Karimova V.M., Akramova F.A., Hayitov O.E., Lutfullayeva N.H. Psixologiya. darslik. -T., 2006. TDIU, 2006. –B.360.

3.Hojiyev A. O‘zbek tili leksikologiyasi. //O‘zbek tili va adabiyoti. 1983. №4.

4. Nurmonov A., Iskandarova Sh.Tilshunoslik nazariyasi. -T.: Fan, 2008. –B.66.

5. Luriya A.R. Язык и сознание. - M.: MGU, 1979. -C.37.

6. Sodiqova T. Yashasin so‘z! - Andijon., №42. –B.16.

7. Kaykovus “Qobusnoma”. -T.: O‘qituvchi, 1968. –B.39.

8. Tafakkur gulshani. -T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989.

O‘QUVCHILAR SHAXSIY XUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA DAVLAT TILINING O‘RNI

Suyunov Husniddin,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Davlat tilida ish yuritish asoslarini
o‘qitish va malaka oshirish markazi
Navoiy viloyati hududiy bo‘linmasi rahbari

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tilining nufuzi va ravnaqi yo‘lida o‘quvchi yoshlarimiz bilishlari kerak bo‘lgan muhim shaxsiy xususiyatlarga ega bo‘lishlari bayon etilgan. Ta’lim samaradorligini oshirish orqali o‘quvchilarning ona tiliga bo‘lgan e’tiqodlarini rivojlantirish masalalari hayotiy zarurat ekanligi berilgan.

Kalit so‘zlar: fan, texnika, ona tili, davlat tili, so‘z, ibora, axborot texnoloyiyalari, o‘quvchi, ma’naviyat, adabiyot, texnologiya, adabiy meros, san’at.

Mamlakatimizda ilm-fan, texnika va texnologiyalarning rivojlanishi bilan birga yoshlarning salohiyati, iqtidori, dunyoda raqobatbardosh bo‘lishi, chuqur bilim

egallashini hamda ona tiliga bo‘lgan ehtirom va sadoqatini ham namoyon etishni taqoza etmoqda. Bu borada o‘quv dasturlari va qonunlarning ishlab chiqilganligi barcha o‘qituvchilardan o‘qitish va o‘rgatishga bo‘lgan ma’suliyatni kuchayishini taqozo etadi. Ta’lim samaradorligini oshirish, rivojlanayotgan bugungi kunda o‘quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishda ona tiliga bo‘lgan etiqodlarini rivojlantirish hayotiy zaruratdir. Bu esa o‘z navbatida, o‘qituvchilardan doimiy izlanishni talab qiladi. Psixologik ma’lumotlarga ko‘ra, shaxsning shakllanishi va kamol topishi tezkor faoliyatda yuksak samara berishi aniqlangan. Yuqorida aytilgan fikrlarning asosi sifatida aytadigan bo‘lsak, o‘quvchilarning dunyoqarashlarini shakllantirishda boshlang‘ich sinfdanoq til o‘rganishga jalb qilishda, ularda nutqni rivojlantirish ham asosiy yo‘nalish hisoblanadi.

Ona tilidagi so‘z va iboralarni ishlata olish va ular ishtirokida mustaqil gaplar, kichik matnlar tuzish, qo‘shiq va she’r yodlash ham darsda ona tilida so‘zlashuv nutqiy vaziyatini yuzaga keltiradi. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, ona tilini o‘rganish faqatgina grammatik qoidalarga mos bo‘lib qolmasdan, balki barcha qirralarga ham xosdir. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, olib borilayotgan tadbirlarning xilma-xil bo‘lishi ularni yangiliklardan xabardor qilish natijasida o‘quvchilarda ijobiy hissiyotlar uyg‘onishi ham ma’lum bo‘ladi. Bunday tadbirlar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin: O‘rganilayotgan mavzular yuzasidan kecha o‘tkazish. Masalan: “Til millat ko‘zgusi” mavzusida suhbat uyushtirish. Matbuot va ommaviy axborot vositalaridan unumli foydalanish. Muzeylarga sayohatlar o‘tkazish, bunday sayohatlar bo‘lg‘usi yetuk insonlarni kasbga bo‘lgan qiziqishi va ona tiliga bo‘lgan ehtiromini tarkib topishida yordam beradi. Yoshlikdan ko‘rsatilgan bunday imtiyozlarning barchasi ularning ilm olishga bo‘lgan qiziqishini oshirish bilan birga, dunyoqarashini ham shakllantirishda katta hissa qo‘shadi.

Milliy tilimiz nufuzi va ravnaqi yo‘lida o‘quvchi yoshlarimiz quyidagi muhim shaxsiy xususiyatlarga ega bo‘lishlari kerak:

– o‘z-o‘zini anglab yetish va shaxsiy rivojlanishda ona tilining ahamiyati katta ekanligini birinchi o‘ringa qo‘yish;

– ota-ona va ustozni hayotdagi eng muhim insonlar deb bilishi hamda ularning tilini asrash, himoya qilishga astoydil yondashish;

– doim fikrlashga nutq bayonida til imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanishga intilish;

– jamiyatda axloqiy va ijtimoiy til odoblariga har doim amal qilishi kabilar.

Amerikalik tadbirkor olim Edem Board kam sarmoya tikib katta daromad olish mumkin bo‘lgan soha bola uchun sarflanadigan sarmoyadir, deydi va ushbu fikrini quyidagicha izohlaydi: bolani qimmat maktabda o‘qitish shart emas, unga qimmatbaho kiyim-kechaklar ham xarid qilmang, uni qimmat yegulik bilan siylamang, balki undan qimmatbaho e’tiboringizni ayamang. Har tomonlama to‘g‘ri tarbiyalangan, hamisha e’tiborda bo‘lgan farzand kelgusida siz kutgandan-da ziyoda e’tibor va ehtirom ko‘rsatadi. Darhaqiqat, biz bu olimning tarbiya haqidagi qarashlarini bemalol targ‘ib etishimiz mumkin. Ushbu tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan fikrni ona tilimizga nisbatan ham qo‘llasak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki ona tilimiz rivoji – kelajagimiz taraqqiyotidir. Ona tilimizga qanchalik e’tibor bersak, kelgusida uning mustahkam samarasini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

Mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ko‘lamini oshirish natijasida mamlakat yoshlarini ma’naviy hamda jismoniy jihatdan barkamol, o‘z Vatani uchun jon kuydiradigan vatanparvar, o‘zligini-yu, o‘z tarixini, tilini yaxshi biladigan insonlar qilib tarbiyalash – asosiy maqsadimizga aylandi.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar rivojlanib, axborot asriga aylanmoqda. Xohlaymizmi yo‘qmi, farzandlarimizni bu axborotlashgan jamiyatda kamolga yetkazayotgan ekanmiz, avvalo, ularning ongiga, ona tilimizning ahamiyati, xususiyati va millat ko‘zgusi ekanligini singdirmog‘imiz lozim. Bunday vazifani amalga oshirishda avvalo o‘qituvchilar va shu Vatanda yashayotgan yurtdoshlarimizga taalluqlidir. Bu masalani amalga oshirishda milliy qadriyatlarimiz va istiqlol g‘oyalari singdirilgan asarlarni mutolaa qilishga o‘rgatmog‘imiz, kitob bilan sirlashishni ongida shakllantirmog‘imiz lozim.

Yurtimizda yoshlarning ma’naviy ehtiyojlarini qondirish, ularda ona tiliga hurmat madaniyatini yuksaltirish, yurtimiz kelajaklarining oila, jamiyat, Vatan oldidagi mas’uliyatini oshirish, yoshlar ongiga milliy qadriyatlarga hurmat, davlat tiliga fidoyilik, sabr-qanoat, mehnatsevarlik, halollik kabi fazilatlarni singdirishda tilning o‘rni beqiyosdir.

Quyida biz o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan bir nechta integrativ yondashuvlar turidagi topshiriqlarni ko‘rib chiqamiz: Masalan umumiy o‘rta ta’lim maktablari 5-sinf ona tili darsligida 19-dars. So‘z birikmasi mavzusi, 70-mashqda berilgan “O‘zbek” so‘zi ishtirokida so‘z birikmalari tuzing va gaplar hosil qiling deyilgan topshiriq.

O‘quvchilar bu so‘zlarni biriktirib so‘z birikmasini hosil qiladilar:

– o‘zbek o‘g‘loni;

– o‘zbek tili;

– o‘zbek xalqi;

– o‘zbek qizi;

– o‘zbek urf-odati.

Yuqoridagidek namunalarni ko‘plab misol tariqasida keltirish mumkin. O‘quvchilar ona tili darsida olgan bilimlarini umumlashtirgan holatda bemalol qiynalmasdan so‘z birikmasi hosil qila oladilar.

1. Matnni mazmuniga mos davom ettiring.

M: Vatan-ona tuproq. U biz yashaydigan aziz zamin….. Ona tilim. Ajdodlarim tili…

2.”Ona”, “Ona tilim” “Vatan”, “Do‘stlik” mavzularida maqol, hikmatli so‘zlar toping.

3. O‘z ona tilingiz to‘grisida hikoya tuzing.

Yuqorida qayd etilgan topshiriqlar o‘quvchi nutqini sodda, aniq, mazmunli bo‘lishiga erishishda hamda uning mustaqil fikrlashiga yordam beradi.

Nutqni rivojlantiruvchi omillardan yana biri badiiy adabiyotdir. Mutolaa fikrni, zehnni, fasohatni charxlaydi. Shuning uchun mutolaa jarayonida muallifning tildan foydalanishdagi mahorati, badiiy manzaralarning hissiy ta’siriga e’tibor qaratish zarur. Milliy adabiyotimizda o‘quvchiga zavq-shavq bag‘ishlaydigan, ruhiy-ma’naviy quvvat beradigan, ona tilimiz go‘zalligi, nafisligi, latofati va boyligini ko‘z-ko‘z etadigan asarlar

ko‘p yaratilgan. So‘z sehri haqida so‘z yuritganda ulkan adibimiz Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romaniga qayta-qayta murojaat qilshga to‘g‘ri keladi. Romanda qadimiy o‘zbek tilining g‘oyat jozibador ekanligini yozuvchi o‘zining ushbu romanidagi suhbatlarda mahorat bilan tasvirlagan. Tan olib aytishimiz mumkinki, hozirgi o‘quvchilar ichida badiiy adabiyot mutaola qiladiganlar kamchilikni tashkil etadi. Kitob beminnat do‘st. Uni qadrlashni va o‘qigan kitob mazmunini o‘rtoqlariga hikoya qilishni ham o‘rgatmoq kerak. O‘qituvchi tomonidan biror bir ertak yarmigacha hikoya qilinib, qolganini o‘zlaring o‘qib kelinglar deya topshiriq berilsa, ular qiziqib ertakni nihoyasigacha o‘qiydilar. Chunki voqea tavsiloti ularni qiziqtirib qo‘yadi. Shu zaylda ular kitobxonga aylanadilar. O‘qituvchilar hikoyalarni turli xil yo‘l bilan taqdim etishlari mumkin.

Birinchidan, ular uni baland ovozda o‘qiydilar, video, audio orqali eshittiradilar, yoki rasmlar orqali hikoya qiladilar va hokazo.

Ikkinchidan, o‘quvchilar kitobni o‘qiydilar (ko‘radilar), keyin o‘qituvchi uni o‘qimay tinglaydilar, yoki ular tinglayotganda kitobni o‘qishlari (ko‘rishlari) mumkin.

Hikoyalar, shuningdek, o‘qituvchilarga to‘rtta til ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, o‘quvchilarda kognitiv va rivojlanish qobiliyatlari rivojlantiriladi. Hatto o‘quvchilarni ba’zilari hikoya yoki ertak qahramonlariga o‘xshagisi keladi.

Darslarda o‘zimiz o‘rgatgan manbalardan, savollar yoki testlardan unumli foydalanamiz. Har bir usuldagi darslar ikki-uch marta o‘tilganda o‘zini oqlaydi. Me’yoridan oshmasligi, o‘quvchilarni zeriktirmasligi uchun usullarning turlicha bo‘lishi darsning samaradorligini yanada oshiradi. Dars jarayonlarida notiqlik, suhbat, hikoya, mustaqil ish, yozma ish, zamon bilan bog‘lash, mustaqil fikrga tayanish shakllariga katta e’tibor berishimiz lozim. Har bir o‘tilayotgan darsga o‘quvchilar tomonidan berilayotgan baho biz uchun qadrlidir. Barkamol avlod tarbiyasi va o‘quvchilarning ona tilimizga qanchalik e’tiborli bo‘lishlari hamda aqliy faoliyatini rivojlantirishda quyidagi topshiriqlar ahamiyatlidir:

1.Muammoli savollar.

2.Zakovat savollari.

3.Krossvordlar ustida ishlash.

4.Mavzuga doir ijodiy ishlar yozdirish.

5.Mustaqil test tuzish.

6.Hikmatli so‘z va maqollar yozdirish.

Bu topshiriqlar o‘quvchilarning o‘qish, yozish, so‘zlashish va tinglab tushunish kabi ko‘nikma va malakalarni shakllantirish bilan birga so‘zning turli ma’nolarini tushuntirish orqali o‘rganilayotgan tilning jozibadorligini ko‘rsatib o‘quvchilarda tilga bo‘lgan qiziqish uyg‘otish mumkin.

Xulosa shuki, darslarda qo‘llaniladigan har bir leksik, grammatik topshiriqlar o‘quvchilarning mavzularni ko‘proq esda saqlab qolishlariga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Karimov B. So‘z xiyoboni. – Toshkent: Fan, 2020.

2. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V., Jo‘raboyeva Z. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. To‘ldirilgan 4-nashri. – Toshkent: Ma’naviyat, 2015.

3.Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. darslik. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2018.

4.Niyozmetova T. Adabiy ta’lim muammolari. – Toshkent: Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2012.

5.Tolipova R. Ona tili o‘qitish muammolari // Til va adabiyot ta’limi. – Тошкент, 2010. – № 1. – B. 3-12.

UYG‘UR YOZUVI MAVZUSINI O‘QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

Abduvaliyeva Dilnoza,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa fanlari doktori (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti
dilnoza6681@mail.ru
+998975218011

Annotatsiya. Mazkur maqolada qadimgi turkiy til moduli yuzasidan uyg‘ur yozuvi mavzusini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasi xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Turkiy adabiy til, turkiy-run yozuvi, uyg‘ur yozuvi, umumxalq tili, tuman kunlik yozuv, Ural-oltoy nazariyasi, qadimgi turkiy til, o‘zbek tili tarixi va o‘zbek tilining tarixiy grammatikasi.

O‘zbek tili tarixi fani ayni paytda respublikamiz oliy o‘quv yurtlarining o‘zbek filologiyasi fakultetlarida mutaxassislik fani sifatida o‘qitiladi. Mazkur fanning boshlang‘ich qismi esa qadimgi turkiy tilga borib taqaladi. “O‘zbek tili tarixi” darsligi muallifi N.Rahmonov qadimgi turkiy til tilshunoslikning bir sohasi va o‘quv predmeti sifatida o‘tgan asrning 80-yillarida paydo bo‘lganligini, boshqa turkiy tilli respublikalarda esa ancha yillar oldin – 60-yillarda boshlanganini ta’kidlaydilar. Mazkur maqolada ushbu fanning qadimgi turkiy til kursiga kirish, qadimgi turkiy til manbalariga bag‘ishlangan amaliy mashg‘ulotlar mavzusi mazmunini ochishda qo‘l kelishi mumkin bo‘lgan interfaol metodlar xususida so‘z yuritmoqchimiz.

Avvalo mavzuga doir nazariy bilimlarni yodga olish uchun dastlab o‘tilgan mavzu yuzasidan asosiy tushunchalar tahlilini o‘tkazishga mo‘ljallangan topshiriq bilan amaliy mashg‘ulotni boshlash maqsadga muvofiqdir. Masalan,

1-amaliy ish. “Tushunchalar tahlili” metodi orqali mavzuga oid asosiy tushunchalarga izoh bering. O‘qituvchi tomonidan berilgan qo‘shimcha ma’lumotlarni 3-ustunga yozing.

1	2	3
“O‘g‘uzxon”		
“Xuastuanift”		
“Maytri simit”		
“Oltun yorug‘”		
“Syuan-szan”		
“Devonu lug‘atit turk”		
Anatkak tili		
Tabg‘ach tili		
Shingqu Sheli tudung		
“Qutadg‘u bilig”		
“Hibat ul haqoyiq”		

2-amaliy ish. Hozir «uyg‘ur yozuvi» nomi bilan atalayotgan qadimgi turkiy alifbo yozma manbalarda bir qancha nom bilan yuritilgan. Quyidagi jadvalning birinchi ustunida berilgan manbalarda mazkur yozuv qanday nomlar bilan atalganligini toping va jadvalning ikkinchi ustuniga yozing.

Manbalar	???
Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘atit-turk» asarida	
Alisher Navoiy maktublarining birida	
XIII asrda yashab ijod etgan shoirlardan biri Puri Bahoi Jomiy she’rlarida	
Ibn Arabshoh «Ajoibu-l-maqdur fi-navoibi Taymur» otli asarida	
«Fokihatu-l-xulafo» asarida	
«Hibatu-l-haqoyiq»ning 1480-yili Istanbulda Abdulrazzoq baxshi ko‘chirgan qo‘lyozmasida	

3-amaliy ish. “Tasdiq-inkor testi” orqali mavzu bo‘yicha egallagan bilimlaringizni sinang. Quyida berilgan uyg‘ur yozuviga oid ilmiy fikrlarni ma’qullasangiz, javoblar varaqasiga **“Ha”,** inkor etsangiz **“Yo‘q”** javobini yozing.

Fikr	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
Javob											

1. Alisher Navoiy o‘z maktublarining birida uyg‘ur yozuvini «turkcha xat» deb atagan.

2. Hozirgacha yetib kelgan uyg‘ur yozuvi yodgorliklarning eng eskilari islom davriga kelib yaratilgan

3. Uyg‘ur xatining muhim xususiyatlardan yana biri shuki, unda unlilar muntazam yoziladi.

4. XIII asrda yashab ijod etgan shoirlardan biri Mahmud Koshg‘ariy o‘z she’rlaridan birida uni «uyg‘ur xati» (xatt-i uyg‘uri) deb atagan.

5. X asrda qoraxoniylar davlatida islom rasman qabul qilindi.

6. Puri Bahoi Jomiy turklarning yozuvi haqida ma’lumot berar ekan, arab xatini emas, uyg‘ur xatini keltiradi.

7. Uyg‘ur alifbosida harflar o‘n to‘qqizta.

8. Uyg‘ur yozuvi O‘rta Osiyoda XV asrning oxirlariga qadar arab xati bilan yonma-yon qo‘llanildi.

9. Islom ta’siridan yiroqdagi turk-buddistlar yozuv an’anasini uzmay, XVIII asrda ham undan foydalanganlari ma’lum

10. Temuriylar zamonida yashab o‘tgan tarixchi Ibn Arabshoh ham ushbu yozuvning «chig‘atoyliklar»da shuhrat topganligini ta’kidlab, yozadi: «Ular («chig‘atoyliklar») o‘zlarining tilxat, maktub, farmon, xat, kitob, bitim, solnoma, she’r, qissa, hikoyat, hisob, xotira va devonga tegishli hamma ishlarini, chingizona tuzuklarini shu yozuvda yozadilar.

11. Uyg‘ur yozuvi «Hibatu-l-haqoyiq»ning 1480-yili Istanbulda Abdulrazzoq baxshi ko‘chirgan qo‘lyozmasida «Turkcha xat» deb atalgan.

4-amaliy ish. Berilgan yopiq testlarga javob bering.

1. Uyg‘ur alifbosida harflar soni.

2. Alifbo tarkibidagi harflarning ko‘pvazifalilik xususiyati haqida alohida to‘xtalgan olim.

3. Mahmud Koshg‘ariyning ta’kidlashicha, turkiy tildagi nechta tovush uyg‘ur yozuvida maxsus belgisiga ega emas?

4. Turkiy tildagi qaysi tovushlar uyg‘ur yozuvida maxsus belgisiga ega emas?

5. awaxa, vazaqa, yakäsa, manasa, … Bular nimani anglatadi?

6. Matnlarda cho‘ziqlikni ifodalash uchun harflar qay holatda qo‘llangan?

7. Unlilarning muntazam yozilishi qaysi yozuvga xos?

5-amaliy ish. Uyg‘ur yozuvida bizgacha yetib kelgan yozma yodgorliklarga taalluqli ma’lumotlarni quyida berilgan manbalar asosida namunada berilganidek guruhlang.

1. Mazkur manbaning bosh qahramoni haqidagi rivoyatlar turkiy badiiy adabiyotning eng eski, shuning bilan birga, keng tarqalgan namunalaridandir. Rivoyatlarning eng eskisi uyg‘ur xatida bitilgan.

2. Bu asar moniylikning falsafiy-ta’limiy asaridir. Ilk o‘rta asrlarda asarning o‘rtancha eroniy, sug‘dcha, turkiy, xitoycha versiyalari keng tarqalgan edi. Tavbanomaning turkiy versiyasi turk moniy falsafasining, shuning bilan birga, qadimgi turkiy til va moniylik davri turk adabiyotining qimmatli obidasidir.

3. Mazkur asar tan sulolasi davrida o‘tgan no‘mchi sayyoh Syuan-szanning Budda yashagan o‘lkalarga muqaddas safari xususidagi memuar bo‘lib, o‘zida o‘nlab afsona va rivoyatlarni, budda falsafasi, qadimgi Sharq xalqlarining ijtimoiy-siyosiy, madaniy turmushiga, ular yashagan mamlakatlar geografiyasi, tarixiga oid ma’lumotlarni jamlagan.

4. Ushbu yozma manba buddizmning mahayana mazhabiga oid asar bo‘lib, ilk o‘rta asrlarda sanskrit, xitoy va qadimgi turkiy versiyalarda tarqalgan edi. Asarning sanskritcha oti “Suvarnaprabhasa”, turkiy versiyasining to‘liq oti “Altun öŋlüg yaruq yaltrïqlïğ qopta kötrülmiš nom iligi” (“Oltin tusli tovlanuvchi hammadan ustun no‘m tojdori”) dir.

5. Asar asli sanskrit tilida yaratilgan. Budda ta’limotining yirik bilimdonlaridan biri Aryachantri uni sanskritcha nusxadan tohar tiliga o‘girgan. Toharcha nusxadan esa Partanarakshit Karnavajiki qadimgi turkiyga tarjima qilgan.

6. Asar qo‘lyozmasi hozir Parijdagi Milliy kutubxonada saqlanmoqda. Qo‘lyozmada dostonning boshlanishi ham, yakuni ham yo‘q. Matnning jami 42 sahifa (21 varaq). Har sahifada uyg‘ur yozuvli matn 9 qatordan bitilgan bo‘lib, jami 376 satrdir. Qo ‘lyozmaning bitilgan sanasi ma’lum emas. Xat uslubiga qaraganda, chamasi, XIII—XIV asrlarda ko‘chirilgan ko‘rinadi.

7. Ushbu dostonning ildizi miloddan burungi chog‘larga tutashadi. Dostonda turkiy xalqlarning qadimgi inonch-qarashlari, turkiy qavmlarning kelib chiqish tarixi aks etgan. Mazkur manba uzoq asrlar davomida sayqal topib, takomillashib kelgan xalq dostonidir.

8. Asarning Sankt-Peterburgda saqlanayotgan nusxasi. Ushbu qo‘lyozma Rossiya FA Sharqshunoslik institutining Sankt- Peterburg bo‘limida saqlanmoqda. Asar uyg‘ur xati bilan o‘ram qog‘ozga bitilgan. Matnning bosh qismi chirib, titilib ketgan. Saqlanib qolgani 160 satrdan iborat. Yozuv shakli, xat uslubiga ko‘ra mazkur matnni uyg‘ur yozuvli yodgorliklarning eng eskisi deyish mumkin.

9. Asar o‘n ikki bo‘lim(bölüg)dan tuzilgan. Qism(tegzinč)lar boshida ularning sarlavhasi va tartib ko‘rsatkichi qayd etiladi.

10. Asarning Qumul yaqinidan topilgan qo‘lyozmasi mavjud nusxalar orasida alohida o‘rin tutadi. Uyg‘ur yozuvli ushbu qo‘lyozma hozir Urumchidagi tarix muzeyida saqlanmoqda. Qo‘lyozma ancha uringan, ayniqsa, so‘nggi varaqlari titilib ketgan, parokanda. Shunga qaramay, qo‘lyozmaning ahamiyati katta. Xati nafis, e’tibor bilan bitilgan kitob. Aftidan, katta bir amaldor buyurtmasiga ko‘ra tayyorlangan ko‘rinadi.

Namuna: “Og‘uzxoqon” dostoni – 1, 6, 7

“Xuastuanift” - _____

“Syuan-szan kechmishi” - _____

“Oltun yorug‘” - _____

“Maytri simit no‘m bitig” - _____

? Test

1.Uyg‘ur yozuvi Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida qanday nom bilan tilga olinadi?

A. Turkcha xat

B. Turkcha yozuv

C. Xatti uyg‘uri

D. Mo‘g‘ul xati

2. Ular («chig‘atoyliklar») o‘zlarining tilxat, maktub, farmon, xat, kitob, bitim, solnoma, she’r, qissa, hikoyat, hisob, xotira va devonga tegishli hamma ishlarini, chingizona tuzuklarini shu yozuvda yozadilar. Bu yozuvni yaxshi bilgan ularning orasida xor bolmaydi. Chunki bu ularda rizq ochqichidir». Fikr kimga tegishli va gap qaysi yozuv haqida ketmoqda?

A. Uyg‘ur yozuvi. Ibn Arabshoh

B. Mo‘g‘ul yozuvi. Mahmud Koshg‘ariy
C. Arab yozuvi. Ibn Arabshoh
D. Run yozuvi. V.Tomsen

3.“Xuastuanift” tavbanomasi qaysi davrda yaratilgan?
A. Tangrichilik
B. Buddaviylik
C. Islom davri
D. Moniychilik

4. Asarning xitoycha va qadimgi turkiy versiyalari ma’lum. Turkiy versiyasi bundan ming yil muqaddam Quchu uyg‘ur davlatida xitoy tilidan “Tsi-in-chun no‘m bitig” nomi bilan tarjima qilingan. Gap qaysi manba haqida ketmoqda?
A.“Syuan-szan kechmishi”
B.“Oltun yorug‘”
C.“Maytri simit no‘m bitig”
D.“Xuastuanift”

? Savol va topshiriqlar

1. Turkiy-run yozuvi ilk bor topilgan paytda bu yozuvni turli tomondan o‘rganishga hissa qo‘shgan olimlarning xizmatlarini ayting.
2. Turkiy-run alifbosining paydo bo‘lishi to‘g‘risida qisqacha so‘zlab bering.
3. Uyg‘ur yozuvining nomlanishi tarixini qisqacha aytib bering.
4. Uyg‘ur yozuvining imlo prinsiplarini aytib bering.
5. Uyg‘ur yozuvidagi yodgorliklarga qisqacha tavsif bering.

O‘zbek tili tarixi fani amaliy mashg‘ulotlarida nazariy mavzu bo‘yicha turli hajmdagi rang-barang amaliy topshiriqlarning berilishi talabalarning fan mazmunini to‘liq o‘zlashtirishida yaxshi natija beradi. Jumladan, o‘qituvchi tomonidan mavzu mohiyatidan kelib chiqqan holda qadimgi turkiy til birliklarini lingvistik tahlil qilish, faktik materiallarni qiyoslash asosida umumlashma xulosalar chiqarish, turli jadvallar bilan ishlash, matnni lingvistik tahlil qilish, ilmiy manbalar ustida ishlash va ularga munosabat bildirish, ilmiy sharhlar yozishga yo‘naltirilgan turli topshiriqlarni ishlab chiqilishi ham maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: O‘zbeksiton faylasuflari milliy jamiyati, 2008. –B. 354.
2. Rahmonov N., Sodiqov Q. O‘zbek tili tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009.
3. Азимов И., Раҳматов М. Қадимги туркий тил. – Тошкент, 2005.
4. Алиев А., Содиқов Қ. Ўзбек адабий тили тарихидан. – Тошкент, Ўзбекистон, 1994.
5. Abduvaliyeva D. Qadimgi turkiy til manbalari mavzusini o‘qitishda interfaol usullardan foydalanish. “Turkiy filologiyaning dolzarb masalalari” nazariya va innovatsion ta’lim texnologiyalari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Nukus. 2021. – B. 55-61

6. Abduvaliyeva D. Turkic lexemes in the historical works of Alisher Navoi// ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal (ouble Blind Refereed & Peer Reviewed Journal) India DOI: 10.5958/2249-7137.2021.00965.4, ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 3, March 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492
7. Мухторов А, Санақулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент, Ўқитувчи, 1995.

O‘QUVCHILARNING YOZMA SAVODXONLIGINI OSHIRISH OMILLARI

Rajapova Kumush,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa fanlari doktori (PhD),
Qoraqalpoq davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili darslarida o‘quvchilarning yozma savodxonligini oshirishning samarador usullari haqida fikrlar bayon qilingan. Shuning bilan birga imloviy savodxonlikni rivojlantirish usullari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: yozma savodxonlik, og‘zaki va yozma nutq, ijodiy izlanish, imlo meўorlari, til hodisalari, fonetik hodisalar, tovushlar talaffuzi, tinglab tushinish, tahlil.

Ona tilini o‘qitishdan asosiy maqsad bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki, yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shallantirish va rivojlantirish ekan, demak, ijodiy yozma ish ustida ishlash usullariga ham o‘rgatish lozim. Bu ish ona tili mashg‘ulotlarida ikki yo‘nalishda amalga oshiriladi: 1) til hodisalarini o‘rganish jarayonida; 2) ijodiy yozma ish ustida ishlash uchun ajratilgan maxsus soatlarda.

Birinchi yo‘nalish deyarli barcha ona tili mashg‘ulotlarida amalga oshiriladi. O‘quvchi o‘rganilayotgan til hodisasini amalda tatbiq etgan holda ijodiy matnlar yaratar ekan, mavzuni yoritish uchun zarur materialni tanlash, yozish, ishning rejasini tuzish, xat boshi tushunchasi, yozma ish matni ustida qayta ishlash, insho turlari (ilmiy insho, badiiy insho, erkin mavzuda yozilgan insho, ramziy insho) kabi masalalarga duch keladi va ayni vaqtda o‘qituvchidan bu haqda zarur ma’lumotlarni ham bilib olish lozim bo‘ladi.

Ikkinchi yo‘nalish ijodiy yozma ish ustida ishlash uchun ajratiladigan maxsus soatlardir. «Ijodiy yozma ish ustida ishlash usullari» bo‘limida o‘quvchilarni zarur bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish maqsadga muvofiqdir.

Yozma nutqni rivojlantirish og‘zaki nutqga qaraganda ancha murakkab jarayon sanaladi. Chunki u o‘quvchidan grammatik va mazmun jihatidan to‘g‘ri jumla qurishni, har bir so‘zni o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llashni, fikrni ixcham, izchil bayon etishni, uslub jihatdan sodda va ravon ifodalashni, bayon qilingan fikrlar asosida xulosalar chiqarishni talab etadi. Bu nutqning murakkab tabiati yana shuningdek, u imlo tinish belgilari va uslub bilan bog‘liq, so‘zni to‘g‘ri yozish tinish belgilarini o‘rinli qo‘yish, fikrni uslub talabiga muvofiq bayon qilish o‘quvchidan katta mas’uliyatni talab etadi. Shu sababli nutqning bu turi ancha sekin va murakkab ketadi.

Yozma nutqning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri uning tekshirish, tuzatish, takomillashtirish mumkinligidir. Bu jihatdan u og‘zaki nutqga qaraganda ancha qulay imkoniyatlarga ega. O‘quvchi yozma nutqdagi xato va kamchiliklar ustida ishlaydi,

ularni bartaraf etadi, keyingi ishlarida bu xato va kamchiliklariga yo‘l qo‘yilmaslikka intiladi.

Matnlarda ko‘pincha mavzuga aloqasi bo‘lmagan fikrlar ustunlik qilib, asosiy fikrlar e’tibordan chetda qoladi. Shuning uchun ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilar diqqatini faqat imlo va tinish belgilariga emas, balki bayon qilinayotgan fikrlarning asosiy dalillariga ega bo‘lishi, materialning to‘g‘ri joylashtirishi firkning nutq sharoitiga mos holda to‘g‘ri bayon qilishga ham qaratilishi lozim. Inson butun umri davomida o‘z nutqini takomillashtirib boradi. U tilimizning boy imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali nutqning go‘zal, ravon, ifodali, ta’sirchan bo‘lishiga intiladi. Bu jarayon, ayniqsa, bolalik davrida samarali tus oladi. Maktabda fan asoslarini o‘rganish jarayonida o‘quv nutqini rivojlantirish inson umrining boshqa davrlarga nisbatan ancha samarali kechadi. Chunki har bir fan bola nutqini rivojlantirishda katta ahamiyat kashf etadi. Ona tili esa fan sifatida ana shu imkoniyatlarni birlashtirib, fikrni ifodalashga yangi rang – barang qirralarni ochib beradi; uni nutqning go‘zal olamiga olib kiradi. Ona tili o‘quv nutqini yaxshilaydi, boyitadi, unga badiiy bo‘yoq beradi, nafosat bag‘ishlaydi.

Yozma nutq o‘stirish metodikasi hikoya, insho uchun materiallarni puxta tayyorlashni, y’ni material yig‘ish, uni muhokama qilish, to‘ldirish, asosiy mazmunini ajratish, zaruriy izchillikda joylashtirishni talab qiladi. Albatta, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari ham hisobga olinadi.

Nutqning grammatik jihatdan to‘g‘ri qurilgan bo‘lishi ham unga qo‘yiladigan muhim talablaridan biridir. O‘quvchi so‘z, so‘z birikmasi va gaplarni bir-biriga bog‘lash, kelishik va egalik qo‘shimchalarini o‘rinli qo‘llash, gapning ega va kesimini moslashtira bilishi kabi malaka va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi shart. Ma’lumki, o‘quvchilar nuqtida har xil qaytariqlar, ortiqcha jumlalar, o‘zbek adabiy tiliga xos bo‘lmagan so‘zlar anchagina qismini tashkil etadi. Ular nutqini bunday so‘zlardan tozalab borish, fikrni sof abadiy tilda, uning boy imkoniyatlaridan foydalanib bayon qilish ona tili mashg‘ulotlarining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Ona tili darslarda yozma nutqni shakllantirish va o‘stirishga keng imkoniyat mavjud. She’r, maqollarni yozish, o‘qish, o‘qilganlarni qayta hikoyalash, ekskursiyada predmet va tabiat hodisalarni kuzatashi vaqtida ko‘rganlarini yozma shaklda hikoya qilish yozma nutqini o‘stirish uchun keng imkoniyat mavjud. Grammatikani o‘rganish va o‘qish darslarida o‘quvchilar bajaradigan so‘z birikmasi, gap tuzish, bayon, inshoga doir turli xil mashqlar nutqiy malakalarni egallashda ularga yordam beradi.

Grammatika va to‘g‘ri yozuv darslarida tilni maxsus o‘rganish bilan bolalar alohida tovush, bo‘g‘in va so‘z, gaplarni eshitishga, aytishga. yozishga o‘rganadilar. Ular predmet, harakat, belgi bildirgan ko‘pgina so‘zlarni, shuningdek, tovush, harf, bo‘g‘in, so‘z, o‘zak, so‘z yasovchi, shakl yasovchi, qo‘shimcha, so‘z turkumi, ot, sifat, son, fe’l, olmosh, bog‘lovchi, gap, gap bo‘lagi, bosh bo‘lak, ikkinchi darajali bo‘lak, darak gap, so‘roq gap, undov gap; turlanish bosh kelishik singari juda ko‘p yangi atamalarni bilib oladilar.

Maktabda o‘qitiladigan barcha o‘quv fanlari o‘quvchi nutqi ustida ishlashga yo‘l ochadi. “Ona tili” o‘quv fani sifatida ana shu imkoniyatlarni birlashtirib, o‘quvchining fikr ifodalash malakalarini rivojlantiradi. Uni tilimizning go‘zal olamiga olib kiradi,

nutqni yaxshilash, boyitish, unga badiiy bo‘yoq berish, nafosat bag‘ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida tilga olingan talablar bir-biri bilan o‘zaro chambarchas bog‘langan bo‘lib, o‘quvchi yaxshi yozma nutqqa faqat shularning hammasiga amal qilish orqali erishadi. Shuning uchun ona tili darslarida yozma nutqqa qo‘yilgan bir talabni hisobga olib, ikkinchisini unitish yoki bir talabni quyi sinfda qoldirish mumkin emas. Bu talablarga doimiy va qat’iy amal qilinsagina yozma savodxonlikni oshirish samarali kechadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayfullayev A.R. Ona tili darslarida nutq o‘stirish / 5-sinf materiali asosida/ metodik qo‘llanma. – Toshkent, 1998.

2. Ta’lim jarayonida matn ustida ishlashning asosiy omillari. O‘zbek tili doimiy anjumani to‘rtinchi yig‘inining tezislari. – Toshkent, 1997

3. G‘ulomov A., Qobilova B. Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari. Metodik qo‘llanma. – Toshkent: “O‘qituvchi”,1995.

4. Rustamov I., Normatov X. Gramatik tahlil nutq o‘stirish omillaridan biri. Ta’lim jarayonida so‘z boyligida oshirishning asosiy omillari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.

ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISH

Sattorov Shokir,
Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish
va malaka oshirish markazining
Surxondaryo hududiy bo‘linma rahbari

Annotatsiya. Umumiy o‘rta ta’lim milliy o‘quv dasturi metodologiyasining asosiy vazifalari sirasida “o‘zining “men”ligi, intellektual salohiyati, ma’naviyati va dunyoqarashi ustida mustaqil ishlash hamda XXI asr ko‘nikmalarini (madaniyatli muloqot, insoniy fazilat, kitobxonlik, savodxonlik, tanqidiy-kreativ fikrlash, ijodkorlik, hamkorlikda ishlash, muammolarga yechim topish kabi) o‘quvchilarda shakllantirish” belgilab berildi.

Kalit so‘zlar: pekonstruktiv, reproduktiv, intraktiv, noan’anaviy, gaplar sinonimiyasi

Erkin fikrlash inson faoliyatida muhim o‘rin tutadi. Barcha grammatik va mantiqiy tushunchalarini o‘rgatishda kalit vazifasini bajaruvchi ona tili darslari xam talabalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishda o‘ziga xos axamiyat kasb etadi. Ona tili ta’lim jarayonida inson tafakkuri bilan bog‘liq, mantiqning tushuncha, hukm, xulosa kabi shakllaridan o‘rni bilan unumli foydalaniladi. Busiz, ayniqsa, gramatikaga xos mavhum tushunchalarni yoshlar ongiga singdirish va ular tafakkurida xulosa hosil qilish qiyin.

Umumiy o‘rta ta’lim milliy o‘quv dasturi metodologiyasining asosiy vazifalari sirasida “o‘zining “men”ligi, intellektual salohiyati, ma’naviyati va dunyoqarashi ustida mustaqil ishlash hamda XXI asr ko‘nikmalarini (madaniyatli muloqot, insoniy fazilat, kitobxonlik, savodxonlik, tanqidiy-kreativ fikrlash, ijodkorlik, hamkorlikda ishlash, muammolarga yechim topish kabi) o‘quvchilarda shakllantirish” belgilab berildi.

O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish borasida o‘z tajribamdan kelib chiqib, quyidagilarni tavsiya etmoqchiman:

o‘qituvchi ta’lim jarayonini to‘g`ri tashkil etishi lozim, darsda mavzuga mos qo‘shimcha mantiqiy topshiriqli didaktik materiallardan foydalanishi;

Dars jarayonida turli muammoli vaziyatlar hosil qilib, o‘quvchini mustaqil ishlashi orqali mantiqiy tafakkuri rivojlanib, mustaqil fikrlashga undashi;

Darsda interfaol uslublardan foydalanib o‘quvchini mustaqil fikrlashga o‘rgatishi; o‘quvchiga yodlashni emas, fikrlashni o‘rgatish kerak.

Masalan, o‘qish fanidan she’rni faqat yodlagani uchun emas, balki, uni ifodali aytib, she’rdagi g`oyaning asl mohiyatni anglab yetishga undash kerak. Qo‘llab-quvvatlaydigan sinf muhitini yaratish. O‘quvchilarning mustaqil fikrlashi uchun sinfda raqobatbardosh emas, balki qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratishga harakat qilish lozim. Buning uchun kichik guruhlarda ishlash yaxshi samara beradi.

Dars jarayonida tovush, harf,so‘z, gap va uning turlari, bo‘g‘in, ohang, nutqqa doir bilim muammosini qo‘yishda talabalar eksperimental harakterdagi mustaqil ishga jalb etiladi. Ona tili darslarida bajariladigan ishlarning rekonstruktiv, reproduktiv, intraktiv ijodiy turlari amalda ko‘p qo‘llaniladi. Noan’anaviy talabga ko‘ra, o‘qituvchi va o‘quvchini o‘ylantirishga, mustaqil fikrlashga, mantiqiy xulosa chiqarishga o‘rgatish shart. Bunda interaktiv usul alohida ajralib turadi. Masalan, bu usulda talaba yoshlarning dunyoqarashi va aqliy rivojlanishiga ko‘ra kichik – kichik guruhlarga bo‘linadi, ular mustaqil fikrlashga imkoniyat beriladi.

O‘.Hoshimovning «Dunyoning ishlari» qissasidan bir parcha tanlab olinib ifodali qilib o‘qib beriladi. Shundan so‘ng matndagi tinish belgilarining o‘rni va ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Talabalar matnni yozib bo‘lganlaridan so‘ng, u asarning qaysi joyidan olinganligi hamda «Dunyoning ishlari»ni matn mazmuniga moslashtirish so‘raladi. Jumladan, tinish belgilarini qo‘llash o‘rinlari haqida tushuntirish ishlari talabalarga havola etiladi. Masalan, tinish beligilarining yozma nutqda aniqlikni, to‘g‘rilikni ifoda etishi bilan bir qatorda grammatik uslubiyatdagi ahamiyati, o‘ziga xosligi haqida so‘z ketadi. O‘qituvchi taxtada quyidagi jumlalarni yozadi (yoki kartochka shaklida ko‘rsatadi).

Bolaligim tutib ketdi va yotdim buloq uzra yastanib.

Bolaligim tutib ketdi-yotdim buloq uzra yastanib.

Bolaligim tutib ketdi, yotdim buloq uzra yastanib.

Bolaligim tutib ketgach, yotdim buloq uzra yastanib.

Bolaligim tutib ketgani uchun, yotdim buloq uzra yastanib.

O‘qituvchi bular qanday gap ekanligi, tinish belgilari qanday vazifani o‘tayotganligini o‘rtaga savol qilib tashlaydi. O‘quvchilar mulohaza qila boshlashadi.

Birinchi gap bog‘langan qo‘shma gap, chunki “va” bog‘lovchisi bilan bog‘langan.

Ikkinchi gapda ikki fikr (sabab-oqibat) tengligi mavjud, shuning uchun ikki gap o‘rtasida tire (-) qo‘yilgan.

Uchinchi gap bog‘lovchisiz qo‘shma gap, shuning uchun ikki gap orasida vergul (,) qo‘yilgan.

To‘rtinchi gapda payt munosabati, beshinchi gapda sabab munosabati mavjud. Ergash gaplar bosh gapdan vergul bilan ajratilgan.

O‘qituvchi yana o‘rtaga savol tashlaydi: Xo‘sh, bunday holat nutqning qaysi xususiyatlarini belgilaydi?

O‘quvchilar: Bir xil ma’no har xil ifoda etilgan. Demak, bu gap sinonimiyasini vujudga keltirgan.

O‘qituvchi: Gaplar sinonimiyasi qaysi bo‘limda o‘rganiladi?

O‘quvchilar: Sintaksisda. Demak, bu yerda grammatik (sintaktik) uslubiyat mavjud.

Shundan so‘ng o‘qituvchi, o‘quvchi yoki talabalar hamkorligida xulosaga kelinadi: Til bo‘limlari ichida uslubiy vositalar xilma xil bo‘yoqlarni ifodalashga boy bo‘lgani– sintaksisdir. Sinonimlarda ozmi-ko‘pmi uslubiy baho bo‘lgani kabi, yuqoridagi qo‘shma gaplar ham bir – biridan sal bo‘lsa-da, farq qiladi, ularda tenglik, payt, sabab munosabatlari mavjud.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishda muammoli izlanish metodi ham samarador usul bo‘lib, o‘quv muammosi, muammoli vaziyat, muammoli savol, muammoli topshiriq kabi kategoriyalarni o‘z ichiga oladi. Muammoli vaziyatda o‘quvchilar muammoni hal etishga intilar ekan, yangi bitimlarni egallash bilan bir qatorda mustaqil fikrlashga ham o‘rgana boradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta’lim jarayoni davomida o‘quvchi va talabalar o‘qituvchining fikrini to‘g‘ridan – to‘g‘ri qabul qilmasdan, uni muhokama qilib, mustaqil ravishda xulosalar chiqarishga o‘rganishlari lozim. Shuningdek, muammalorni hal etishda o‘qituvchi har bir o‘quvchining fikrini, munosabatini va qarashlarini hurmat qilishga qat’iy amal qilishi zarur. Bundan tashqari o‘qituvchi har bir o‘quvchining yutug‘iga sherik va muammolarini hal etishda ko‘makchi bo‘lish orqali maslakdoshga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

2. “Ona tili o‘qitish metodikasi” Darslik. – Toshkent: “Nosir” nashriyoti, 2009.

3. Rajapova K. “Nutqiy ko‘nikmalarni tizimli rivojlantirish metodikasi”. – Nukus, 2021.

MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALAR LUG‘AT BOYLIGINI YOSH BOSQISHLARIDA O‘STIRISH OMILLARI

Raxmatova Gulobod,
Navoiy davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
raxmatovagulobod@gmail.com

Annotatsiya. maktabgacha yoshdagi bolalar lug‘at boyligini har bir yosh guruhlarida o‘stirish, bolalar nutqini rivojlantirish yo‘llari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha yosh, bolalar, nutq, lug‘at boyligi, fizologik asosi, nutqning anatomik-fiziologik asosi, miqdor va sifat, lug‘at boyligining miqdoriy o‘sishi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar lug‘at boyligini o‘stirish asosan nutq orqali amalaga oshiriladi. Bizga ma’lumki, nutq – insoniyat tomonidan ijtimoiy tarixiy tajribani

o‘zlashtirish va avlodlarga yetkazib berish hamda o‘zaro aloqa o‘rnatish va ta’sir ko‘rsatish vositasidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar lug‘at boyligini o‘stirish jarayonida pedagoglar avvalo nutqning hosil bo‘lish jarayonini va uni fizologik asoslari haqida yetarlicha ma’lumotga ega bo‘lishlari zarur. Nutqning fiziologik asosi, bosh miya po‘stidagi alohida markazlarning faoliyati va nutqqa oid muskul apparati nutqning anatomik- fiziologik asosini tashkil qiladi. Tovush nutqining (fonetik nutqning) muskul apparati uch qismdan tashkil topgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

- nafas olish;
- ovoz;
- artikulatsiya apparatlaridan iborat.

Umuman olganda nafas olish apparati diafragmadan, o‘pkadan, o‘pka, bronx va bo‘g‘izni harakatga keltiruvchi muskullardan tashkil topgan.

Nutq apparatining ovoz qismiga havo kirib turishdan iborat jarayon nafas olish apparatining vazifasidir.

Nafas olinadigan bo‘g‘izning davomi bo‘lgan kekirdak bo‘lib, to‘rtta tog‘aydan iborat bu ovoz apparatidir. Shu tog‘aylar o‘rtasidagi bo‘shliqda ikkita gorizontal elastik muskullar bor, bu ovoz muskullari deb ataladi.

Bo‘g‘izdan chiqib turgan havo muskullarni harakatga keltirib, tebratib turadi. Tog‘aylar mana shunday tebranib turishi tufayli ovoz muskullari taranglanishi yoki susayishi mumkin: bu muskullar bir -biriga yopishib yoki bir-biridan ajralib turishi natijasida ularning o‘rtasida ovoz teshigi deb atalgan bo‘shliq hosil bo‘ladi.

Agar ovoz muskullari tarang bo‘lib tursa yoki bir-biriga yaqinlashib qolsa ya’ni, ovoz teshigi yopilib qolsa, u holda nafas yo‘lidan chiqqan havo shu teshikka kirib, ovoz muskullarining chetlarini tebratishi jaraynida vibratsiya bo‘ladi va natijada tovush hosil bo‘ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining rivojlanishi ularning faoliyati va muloqoti bilan uzviy bog‘liqdir. Bola jumlalarning mazmuni va shaklidagi o‘zgarish uning muloqot shakllari o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Ilk bolalik davriga xos situativ nutq ishchan muloqot shaklidan nosituativ bilishga yo‘naltirilgan va nosituativ-shaxsiy muloqot shakliga o‘tilishi bolalar nutqiga ma’lum bir talablarni qo‘yadi. Bu talablar bola nutqining yangi-yangi tomonlarini, turli kommunikativ masalalarni hal qilishi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarni tarkib toptiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqi ijtimoiy aloqalarni o‘rnatish vazifasini o‘tay boshlaydi. Buning uchun esa bolada ichki nutq tarkib topishi, monologik xususiyat kasb etib borishi lozim bo‘ladi.

Maktabgacha yoshda bola nutqining rivojlanishidagi muhim xususiyat nutq tafakkur quroliga aylanishidan iborat. Bola so‘z-lug‘at boyligining o‘sishida 2 muhim tomoni mavjud bo‘lib: bular miqdor va sifat tomonidir.

Lug‘at boyligining miqdoriy o‘sishini rus olimi D.B. Elkoninning ko‘rsatishicha, bevosita bolaning hayot sharoitlari va tarbiyalanish xususiyatlariga bog‘liqdir. So‘nggi yillarda u yoki bu yoshdagi bolalar nutqining lug‘at tarkibini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda awalgi tadqiqotlarga nisbatan yuqoriroq miqdoriy ko‘rsatkichlar aniqlandi[1, 66].

Jumladan, V.Loginaning ma’lumotlariga ko‘ra 3 yoshga kelib, bola lug‘atida 1200 ta so‘z mavjud bo‘ladi, 6 yoshli bolaning aktiv lug‘ati esa 3000-3500 so‘zni o‘z ichiga oladi. Vaholanki, 40- 60 yil oldin o‘tkazilgan tadqiqotlarda 3 yoshli bolaning lug‘ati 400-600 so‘zdan, 6 yoshli bolaning faol lug‘ati esa 2500-3000 so‘zdan iborat deb ko‘rsatilgan edi.

Situatsion - ishchan muloqot shaklidagi bolalar leksikasi (nutqi) aniq predmetli vaziyat bilan bog‘liq. Bu holat shunda ko‘rinadiki, bolaning nutqida ot so‘z turkumiga oid so‘zlar ko‘p bo‘ladi. Sifat turkumidagi so‘zlar yoki umuman uchramaydi, yoki buyumlarning faqat tashqi xususiyatlari: rangi, o‘lchami (barcha sifatlarning 96,4%)ni ifodalaydi. 98% fe’llar faqatgina konkret predmetli harakatlarga nisbatan ishlatiladi.

Bolalarning nosituativ - bilishga yo‘naltirilgan ya’ni vaziyat bilan bog‘liq bo‘lmagan muloqotida ular kattalardan har xil narsa va hodisalar haqida axborot olishga bog‘liqlikdan ozod bo‘ladi. Asta-sekinlik bilan atrof-olamdagi narsalarning turli xususiyatlarini aks ettiruvchi so‘zlar doirasi ancha kengayib boradi.

Jumladan:

✓ Estetik xususiyatlarni ifodalovchi sifat turkumiga oid so‘zlar (11,25%);

✓ Emotsional xususiyatlarni ko‘rsatuvchi so‘zlar (5%);

✓ Irodaviy va intellektual harakatlarni anglatuvchi fe’l turkumidagi so‘zlar (6,24%).

Nosituativ vaziyat b ilan bog‘liq bo‘lmagan muloqotda, bola odamlar o‘rtasidagi munosabatlar haqida axborot olishga, o‘zining fikrini kattalar fikri bilan taqqoslashga harakat qilar ekan, uning nutqida umumiy grammatik murakkablashish yuzaga keladi.

Sifat turkumidagi so‘zlar quyidagi nisbatda bo‘ladi: atributiv (tashqi xususiyatlarini ifodalovchi) — 69,80%;

Estetik xususiyatlarni ifodalovchi sifatlar — 14,65%;

Axloqiy xususiyatlarni ifodalovchi sifatlar — 9,3%;

Irodaviy va intellektual harakatlarni ifodalovchi fe’llar ancha ko‘payib, nutqida ishlatilayotgan barcha fe’llarning 9,76%ni tashkil etadi[1,65].

Bolaning lug‘at boyligi nafaqat miqdor jihatdan, balki sifat jihatdan ham o‘sib boradi. Bu asosan bolalarning so‘zlar mazmunini o‘zlashtinshi bilan kechadi. Lug‘atni egallashjarayoni tushunchalarni egallab borish bilan uzviy bog‘liq. L.S.Vigotskiy yozishicha, “Psixologik tomondan olib qaraganda, so‘zlarning mazmuni va ma’nosi — bu umumlashma yoki tushunchadan o‘zga narsa emas. Biz so‘zning ma’nosini bemalol tafakkur fenomeni deb hisoblashga haqlidirmiz”.

Maktabgacha yoshidagi bolalar eng awalo ko‘rgazmali ifodalangan yoki ularning faoliyatlarga jalb etilgan predmetlar, hodisalar, sifatlar, xususiyatlar, munosabatlarning nomlanishini o‘zlashtiradi. Buni bola tafakkurining ko‘rgazmali-harakat va ko‘rgazmali-obrazli xarakterda ekanligi bilan tushuntirish mumkin. Shu tufayli ham, maktabgacha yoshidagi bolalar lug‘atida abstrakt (mavhum) tushunchalar deyarli uchramaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning psixologik tarbiyasida uning nutqini rivojlantirish asosiy omil sanaladi. Shuning uchun, bola hayotining dastlabki birinchi oyidan tarbiya faqat uni parvarish qilish bilan chegaralanmasligi kerak. Unda qarash, eshitish qobiliyatini tarbiyalash, shuningdek, bolaning emotsional doirasi - jilmayish, kulish va ovoz tonini uyg‘otish lozim. Bular hammasi birgalikda nutqning rivojlanishida xizmat qiladi.

Birinchi davrning 2-bosqichida (1 yosh-u 3 oylikdan - 1 yosh-u 10 oylikgacha) gaplar bir nechta so‘z o‘zaklardan iborat bo‘lib, bu bosqichda awal 2 ta so‘zni, keyin 3 ta so‘zni biriktirib ibora hosil qiladi. So‘zlar orasidagi grammatik bog‘liqlik bo‘lmaydi. Bola so‘zlami gapda faqat intonatsiyalar bilan bog‘lab biriktiradi. Bunda so‘z gaplarda bir xil amorf, o‘zgarishsiz shaklda qo‘llaniladi. Otlar bosh kelishik birlikda qo‘llaniladi. Fe’llar noaniq shaklda yoki 2-shaxs birlikda buyruq maylida qo‘llaniladi (ber, ol, tashla). Bu bosqichdagi bolalar gaplarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ular atrofdagilar nutqidan faqat umumiy mazmun, so‘zning umumiy ma’nosini, uni leksik asosinigina ilib olishadi.

Birinchi davr - amorf, ya’ni, so‘z-o‘zaklardan tashkil topuvchi gaplar davri

(1 yosh-u 3 oylikdan — 1 yosh-u 10 oy- likgacha).

Birinchi davrning ilk bosqichida (1 yosh-u 3 oylikdan-1yosh-u 8 oylikgacha) bola faqatgina o‘zining xohishlari, ehtiyojlari va kechinrnalarmi bildiradigan, unchalik ko‘p bo‘lmagan so‘zlarnigina qo‘llaydi. Shu bilan birga, o‘z fikrini aniqlash maqsadida, ko‘pincha bola birinchi qo‘llaydigan so‘zi ma’lum grammatik shaklga ega bo‘lmaydi, bu so‘z-o‘zak boladi. Ular turli gaplarda bir xil tovushda, o‘zgarishsiz qo‘llaniladi. So‘zlarning asosiy qismi shaxslaming nomi, predmetlar- rasmiy vositasi farqlanmasdan, uning idrok doirasidan chetda qoladi. Demak, turli so‘z shakllarini (uy, uyda, uydan) idrok etishda bola faqatgina bu so‘zlarning umumiy qismini (uy) idrok etadi. So‘z-o‘zaklami biriktirishda hali o‘z oldiga zarur grammatik shaklni tanlash vazifasini qo‘ya olmaydi hamda bir xil so‘z shaklini turli gaplarda qo‘llaydi.Ikkinchi davr 3 bosqichdan iborat:

Ikkinchi davrning 1-bosqichi so‘zlarining shakllanishi paydo bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda nutqning grammatik qurilishi shakllanib, bolalar so‘zlaming gaplarda turli bog‘lanishlarini seza boshlaydi.Bu bosqichda awalgi bosqichdan farqli o‘laroq, so‘zlarni o‘zgartirmasdan gaplarda birdek qo‘llamasdan, bola nutqida bir xil so‘zni turli shakllarda qo‘llay boshlaydi.

Otlarning birinchi grammatik shakllari quyidagicha bo‘ladi: bosh kelishikdagi birlik shakli va ko‘plik shakli, tushum kelishigidagini qo‘shimchali so‘zlar shakli, o‘rin-payt kelishigidagi -**da** qo‘shimchali so‘zlar, jo‘nalish kelishigidagi -**ga** qo‘shimchali so‘zlar. Fe’lning birinchi grammatik shakllari quyidagilar: 2-shaxs birlikdagi buyruq maylidagi fe’llar (bor, ber, ol); hozirgi zamon 3-shaxs birlikdagi so‘zlar (o‘tiribdi, uxlayapti), o‘timli va o‘timsiz fe’llar[. Bu yoshda bolalar nutqida predmet belgisini bildiruvchi so‘zlar, ya’ni sifatlar paydo bo‘ladi. Ular ko‘pincha, ot bilan moslashmagan bosh kelishik shaklida namoyon bo‘ladi. Shu tariqa bola nutqida so‘zlar o‘rtasidagi birinchi grammatik munosabatlar paydo bo‘la boshlaydi: bosh kelishik birlikdagi fe’lning ot bilan moslashuvi (bola uxlayapti) shakllana boshlaydi.

Bu bosqichda gap tuzilishi 3-4 ta so‘zgacha kengayadi. (Aziza qo‘g‘irchoq o‘ynayapti). Ikkinchi davrning 2-bosqichi - bu so‘zlaming aloqasini aks ettirish uchun fleksiylar tizimini qo‘llash bosqichi hisoblanadi.

Bu bosqichda bolalar nutqiga xos xususiyat turli so‘z shakllarini bir xillashtirishga harakat qilish hisoblanadi. Boshida o‘zak va fleksiylarni bir ma’noli bog‘lash kuzatilib, unda turli tovush almashishlarining yo‘qligi, unlilarning qo‘shilishi aks etadi. Shu tariqa,

boshlang‘ich bosqichda bola ancha umumiy, ancha mahsuldor shakl o‘zgartirish qonunlarini egallaydi.

Bolalar tomonidan tilni egallash juda tezlik bilan kechadi. Bu bola birinchi yoshining oxiriga borib, dastlabki so‘zni egallagan vaqtdan boshlanadi. Qisqa vaqt mobaynida, taxminan ikki yarim yil oralig‘ida bola nutqi eng oddiy ifodadan anglangan ifodagacha, grammatik to‘g‘ri gaplardan tuzilgan qochiriq nutqqacha shiddat bilan o‘sadi. Bolalar ona tilining grammatik qonunlarini 4-5 yoshida maxsus o‘qitishsiz egallaydilar va bu yoshda ular ko‘plab morfologik hamda sintaktik qonuniyatlardan to‘g‘ri foydalanadilar. Dastlab grammatik munosabatlar shaklini bildiruvchilami umumlashtirish va mavhumlashtirish yuzaga keladi. Nutqning o‘sish jarayonida bolalar so‘z turkumlaridan otlami tez o‘zlashtiradilar. Otlardan so‘ng bolalar so‘z turkumlaridan fe’llarni va sifatlarni egallay boshlaydilar. Fe’llarning shaxs qo‘shimchalarini osonlik bilan egallasalar ham, lekin fe’llaming zamonga qarab o‘zgarishini darhol to‘g‘ri o‘zlashtira olmaydilar. Sintaksisni egallagandan so‘ng bolalar so‘z ma’nolari va gaplar semantikasini ham juda tez o‘zlashtiradilar. “Bolalar nutqi leksik qatlamining o‘sishi ham, albatta, gapirishi, tushunishiga bog‘liq ravishda ortib boradi. Biroq ular atrofdagilar bilan to‘liq muloqot qilishlari uchun grammatik qonuniyatlar va so‘zlaming ma’nolarini tushunishning o‘zi kifoya qilmaydi. Bolalar, yana albatta, o‘z ifodasini va ko‘zlagan maqsadni to‘la va aniq yetkazib berish imkoniyatini egallashlari lozim. Buning uchun tilning pragmatik aspektlarini, ya’ni, suhbatlashish qoidalarni, odamlarga nisbatan xushmuomalalik shakllarini, tengdoshlar va kattalar bilan qanday gaplashish lozimligini, qisqasi turli ijtimoiy sharoitlarda tildan to‘g‘ri foydalanish imkoniyatlarini ham egallashlari zarur”.

Bolaning nutqi qanchalik to‘g‘ri va lug‘ati boy bo‘lsa, unga o‘z fikrlarini bayon qilish shunchalik oson bo‘ladi, atrof- olamni idrok etish uchun imkoniyat kengayadi, kattalar va o‘z tengdoshlari bilan bo‘lgan munosabati to‘liq va mazmunli bo‘ladi, uning psixik rivojlanishi ham faol ravishda oshib boradi. Bola nutqini o‘z vaqtida til qoidalariga muvofiq shakllantirish, rivojlantirish kelajakda uning o‘z ona tili imkoniyatlaridan unumli va to‘g‘ri foydalanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z. Nishanova, G. Alimova**.** Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. -T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. –B.66.

2. Shodiyeva O.Q. Nutq o‘stirish uslubiyoti. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 2008.

3. Qodirova F.R., Qodirova R.M.. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent, 2006.

4. Qodirova F.R., Fayzullayeva M. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o‘stirish metodikasi. (Mashg‘ulotlar ishlanmasi), - Toshkent, 2008.

5. Mukarram Ayupova. Maktabgacha ta’lim. 2012/10. – B. 6-7.

ONA TILI TA’LIMIDA IQTISODIY TARBIYA

Mamaziyoyeva Ozoda,
Namangan davlat universiteti,
o‘zbek adabiyotshunosligi ixtisosligi bo‘yicha
magistratura yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili o‘qitishda interfaol usullardan foydalanish, xususan, “Jamg‘arma” metodi orqali ta’lim sifatini oshirish va amaliyotga tadbiq etish usullari bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: tarbiyaning tarkibiy turlari, iqtisodiy tarbiya, zamonaviy texnologiya, o‘qituvchiga talab, pedagogik mahorat, o‘quvchini qiziqtirish, “Jamg‘arma” usuli.

Bugungi zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchida ilmiy dunyoqarash bilan bir qatorda pedagogik jihatdan tarkib topgan tarbiyaning barcha turlari, jumladan, ma’naviy-axloqiy tarbiya, huquqiy tarbiya, iqtisodiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, ekologik tarbiya, jismoniy tarbiya, estetik tarbiyani shakllantirish buyuk kelajak yaratish yo‘lidagi eng muhim omillardan biri sanaladi. Yuqorida qayd etilgan tarbiyaning deyarli barcha shakllari, albatta, dastlab oila muhitida yuzaga keladi. Ammo asosiy qismi, ya’ni rivojlanishi va kamolotga erishuvida maktabning, mahoratli va malakali o‘qituvchilarning o‘rni beqiyos.

Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan har bir fan zamirida o‘quvchilarga kuchli bilim berish bilan jahon hamjamiyatida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan oliy darajadagi mutaxassis qilib tayyorlash barobarida yuksak fazilat egasi sifatida kamol toptirish kabi ezgu maqsadlar yotadi. Chunonchi, o‘qituvchi tomonidan har bir mavzuga puxta tayyorgarlik ko‘rish davomida bu tayyorgarlikni yanada mustahkamlash, shuningdek, dars davomida foydalanishi rejalashtirilgan metodlarni aks ettiruvchi dars ishlanmalari yozib boriladi. Ishlanmalarning tarkibiy qismiga e’tibor bersak, avvalo “darsning maqsadi” qo‘yiladi va u o‘z ichida, bilamizki, uch qismga bo‘linadi: ta’limiy maqsad, tarbiyaviy maqsad va rivojlantiruvchi maqsad; Har bir fan o‘qituvchisi mana shunday qolipda har bir mavzuga alohida dars ishlanmasi yozadi. Bundan anglashiladiki, har bir fanda, har bir mavzuda tarbiyaviy xulosalar mavjud bo‘lib, ularni mavzudan kelib chiqib yoki dars davomida qo‘llangan metodlar orqali o‘quvchiga yetkazilishi o‘z davlat mustaqilligimizga erishganimizdan keyin zamonaviy jahon standartlariga mos ravishda qaytadan isloh qilingan milliy ta’lim tizimidagi asosiy vazifa hisoblanadi.

Masalan, adabiyot darslarida tarbiyaning istalgan turini badiiy asarlarda uchraydigan obrazlar yoki ulardagi voqealar rivojidan kelib chiqib, o‘quvchiga yetkazib berish qiyinchilik tug‘dirmaydi, lekin ayim fanlarda, xususan, ona tili, matematika, geometriya va shunga o‘xshash chuqur ixtisoslashgan boshqa fanlarda bu o‘qituvchiga bir muncha mushkuldek tuyiladi.

Jumladan, ona tili darslarida iqdisodiy tarbiyani shakllantirish metodlari hali to‘la ishlab chiqilmagan masalalardan biri hisoblanadi. Zero, iqtisodiy tarbiya o‘quvchilarda tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob va ayni shu kabilar haqida fikrlay olish qobiliyatini kamol toptirish demakdir.[1, 45] Al-Farobiy “Baxt-saodatga erishuv haqida” asarida shunday yozadi: “Inson o‘z mablag‘ini

sarflashni bilishi kerak. Pul sarflashda qizg‘anchiqlik qilish xasislikka olib keladi. Pullarni rejasiz ishlatish esa insonni beboshlikka yetaklaydi”.

O‘quvchi faqat matematika yoki bozor iqtisodiyoti fanlarida emas, balki boshqa fanlarda ham inson hayotining asosini tashkil qiluvchi qat’iy qonuniyatlarni o‘rganishni xohlaydi. Chunki ularda qiziqish va shu barobarida pedagoglarda o‘z faniga qiziqtira olish ham har xil. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, bu o‘rinda tarbiyaning har qanday shakli na o‘rin va na fan tanlamasligi kerak.

Demak, 6-sinf ona tili darsligidan “Asos va qo‘shimchalar” mavzusi asosida o‘quvchilarda iqtisodiy tarbiyani shakllantiruvchi “Jamg‘arma” metodini amalga tadbiq qilib ko‘ramiz. Ushbu metod darsning asosiy qismini qamrab oladi.

Avvalo, bu metod shartlari haqida o‘quvchilarga to‘liq ma’lumot berilishi maqsadga muvofiqdir. Darsnining tashkiliy qismidan so‘ng asosiy qism boshlanadi, ya’ni o‘tgan dars turli tezkor savol-javoblar yoki aqliy hujumlar bilan qayta esga olinadi. Bu metod odatiy usul hisoblanadi, albatta, ammo farqli tomoni shunda bo‘ladiki, har bir to‘g‘ri javob uchun 3000 so‘m (taxminiy) pul miqdori tog‘ri javob uchun taqdim etiladigan rag‘bat kartochkalarining orqa qismida rasm ko‘rinishida aks ettirilishida bo‘ladi. Bu o‘rinda ushbu yondashishning ahamiyatli jihati shuki, bir o‘quvchi o‘rniga boshqa bir “tezkor va aqlli” o‘quvchi javob berib qo‘ysa, qarzdor sifatida o‘zining pulini hali javob berib ulgurmagan sherigiga beradi. Chunki “qarzdor” o‘quvchi javob bermoqchi bo‘lgan sherigining imkonini yo‘qqa chiqargan hisoblanadi. Bundan ko‘zlangan maqsad: iqtisodiy tarbiya shakllarini singdirib borish bilan birga o‘quvchilar orasida o‘zaro hurmat, bir-birini eshitish va sabr-qanoat fazilatlarini singdirib borishdir.

Shundan so‘ng yangi mavzu bayoni zamonaviy AKT vositalaridan foydalangan holda taqdimot tarzida amalga oshiriladi. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun esa, odatda, o‘quv darsligida berilgan mashqlardan foydalaniladi. Yangi metodimiz bo‘yicha esa aynan o‘sha mashqlar taqdimot so‘ngiga o‘qituvchi tomonidan quyidagi holatda tayyor qilib qo‘yilgan bo‘ladi:

Qo‘shimchalarni to‘g‘ri joylashtiring!

1. Biz, pokiza zotlar…(ning) naslidan…(miz)
2. Ota-bobolarimiz, momolarimiz mehnat…(kash), toza qalbli, imonli, odobli, e’tiqodli, vijdonli, bir-biriga oqibatli, mehr-muhabbatli, saxovatli insonlar bo‘lish…(gan).
3. Bizning tomirlar…(imiz)da ularning pok qon…(i) bor.
4. Ularning yuksak ma’naviyati biz…(ni) hech qachon tark etgani yo‘q va tark etmay…(di) ham.

(-di, -gan, -kash, -miz, -imiz, -ni, -ning, -i;)

(*51-mashqdan*)

1. To‘g‘ri... bilan xiyonat, yolg‘on... bilan diyonat chiqisha olmay...
   (-lik, -di, -chilik, -oq, -dan, -siz, -ning, -i, -dir)
2. Baxt...lik... belgisi nodonlik...
   (-lik, -di, -chilik, -oq, -dan, -siz, -ning, -i, -dir)
3. Qo‘rq... do‘st yovuz dushman... yomon…
   (-lik, -di, -chilik, -oq, -dan, -siz, -ning, -i, -dir)
4. Yalqov… muhtoj… eshig...dir.
   (-lik, -di, -chilik, -oq, -dan, -siz, -ning, -i, -dir)

(*52-mashqdan*)

Namunadan ko‘rinib turibdiki, kerakli o‘rinlarga mos qo‘shimlarni qo‘yib chiqish zarur. Har bir o‘quvchiga ma’lum vaqt beriladi va ular darsning boshlanishida o‘z mehnatlari bilan to‘plagan xazinasidan mablag‘ sarflagan holda zarur qo‘shimchalarni sotib oladi. Ya’ni bir gapda ikki o‘ringa qo‘shimcha qo‘yish kerak bo‘lsa, yig‘ilgan 3000 so‘mdan qo‘shimchalarning har biri uchun 1000 so‘m sarflab, gaplarni to‘ldiradi. Tabiiyki, o‘ylanmasdan va bilimlarga tayanmagan holda qaror qabul qilish ularga o‘z ma’nosida qimmatga tushib boraveradi. Bu o‘rinda ta’kidlab o‘tish kerakki, to‘g‘ri javobni topish uchun o‘quvchidan o‘tilgan yangi mavzuni diqqat bilan tinglab o‘tirishi talab qilinadi. Agar birinchi urunishdayoq to‘g‘ri javob berishsalar, ortgan pul miqdori o‘zlarining xazinasida to‘planib boradi. Bunda o‘qituvchidan ziyraklik va, albatta, haqqoniylik talab qilinadi.

Ushbu metoddan ko‘zlangan maqsad: birinchi navbatda – o‘quvchilarda, ayniqsa, 6-sinf o‘quvchilari yosh tendensiyasidan kelib chiqib, endi-endi pulga qiziqish, ularni o‘ylab-o‘ylamasadan sovurish, mehnatni qadriga yetmaslik kabi keyinchalik yuzaga kelish ehtimoli bo‘lgan hayotiy-iqtisodiy muammolarga oldindan yechim topish va ayni vaqtda ularda orasida o‘zaro hurmat, axloqiy go‘zal fazilatlarni shakllantirib, mustahkam ildiz otishiga yordam berishdir.

Chorak so‘nggida to‘plangan xazina puli yoki shu pul miqdoriga teng bo‘lgan rag‘batlantiruvchi sovg‘a berish o‘quvchilarda bilimga chanqoqlik bilan birga iqtisodning oltin qoidalarini tushuntirib boradi. Ushbu metodni mahoratli pedagog o‘z ijodiy yondashuviga tayangan holda boyitishi, o‘zgartirishlar kiritishi mumkin.

Qachonki, bola o‘z mehnati natijasini ko‘rgandagina, o‘z imkoniyalaridan to‘g‘ri foydalanganini va bilim eng katta kuch ekanligini anglab yetadi. Zero, yurtimizda bozor iqtisodiyoti yuksak taraqqiy etib, boqichma-bosqich jahon bozoriga kirib borayotgan bir paytda o‘quvchilarga iqtisodiy bilim va tarbiya berish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqarova M., Xayitboyev M., Nishonov S. Pedagogika. – Toshkent: Talqin, 2008.

2. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Ona tili. 6-sinf darsligi. – Toshkent: Tasvir, 2017.

ONA TILI TA’LIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUV

Suyunova Hilola,
Navoiy davlat pedagogika instituti
tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada til ta’limida integrativ yondashuvli dars texnologiyalarini tashkil etish usullari nazariy va amaliy jihatdan asoslangan. Integrativ yondashuvli darslarni tashkil etishda sayohat darslarining o‘rni va ahamiyati yorqin misollar asosida yoritilgan. Muallif sayohat darslarini tashkil etish usullarini dars etaplari bilan tushuntirib o‘tgan. Tasviriy san’at asarlari, muzeyga sayohat darslarini tashkil etish o‘quvchilarda til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni yanada rivojlantirishini namunali fikrlar bilan asoslangan. Sayohat darslarini tashkil etish orqali o‘quvchilarni keng fikrli, ma’naviy yetuk qilib tarbiyalash muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: integrativ yondashuv, miniatura, exponat, sayohat, kommunikativlik, texnologiya, monografik, grafik, izchillik, adabiy meros, san`at.

Keyingi yillarda keng qamrovli o‘qitish tizimida izchillikga erishish uchun bir nechta fanlarni birlashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunday holatlar ayniqsa ona tilini o‘qitish jarayonida seziladi. O‘quv jarayonining bir qismi sifatida o‘qituvchilar va metodistlar fanlararo aloqalar asosida o‘quv konsepsiyasini yaratishga faol harakat qilmoqdalar, ularning asosiy maqsadi o‘quvjarayonining samaradorligini oshirishdir. Zamonaviy yondashuvlardan biri integrativ ta’limning turli xil modellarini ilgari surib, o‘qituvchilar turli mavzular bo‘yicha umumiy fikrlarni topishga intilishadi, shunda o‘quvchilar bir fandan olgan bilimlarini boshqa fanlarni o‘rganishda foydalanadilar va o‘quv jarayoni o‘quvchilar uchun yanada ma’lumotlarga boy, sodda va qiziqarli bo‘ladi. Bularning barchasi o‘rganilgan til tajribasini umumlashtirish va tizimlashtirishga, uni talim tizimi nuqtai nazaridan yanada to‘liqroq qilishga imkon beradi. Fanlararo integratsiya masalalarini hal qilishda, mavzular doirasida mantiqiy ketma-ketliklar bo‘lishi mumkin bo‘lgan integratsiya muammolarini hisobga olishi kerak. Til o‘rgatish jarayonida dars mashg‘ulotlarini to‘g‘ri tashkil etish bilan, ta’limning izchilligi va sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan o‘quv jarayonining tarkibiy qismlari o‘rtasida ko‘plab aloqalarni o‘rnatish kerak. Til borliqni oqilona, mantiqiy bilish vositasidir. Til birliklari va formalari yordamidagina bilish jarayonida umumlashtirish, tushunchani muhokama va xulosa bilan bog‘lash amalga oshiriladi. Tilni o‘rganish yuzasidan beriladigan matnlarni o‘qish va muhokama qilish jarayonida, o‘qituvchi bilan suhbatlar, ona tilida so‘zlashuvchilar bilan uchrashuvlar va ekskursiyalar paytida amalga oshiriladi.

Biz quyida integrativ ta’limni tahkil etishda sayohat darslarining o‘rni va ahamiyati xususida so‘z yuritmoqchimiz. Darsdan tashqari mashg‘ ulotlar jarayonida sayohat darslaridan biri muzeyda o‘tilgan dars sinfda o‘tilgan darslarni to‘ldiruvchi, o‘quvchilar tasavvurini boyitadigan mazmundor va qiziqarli bo‘ladi. Bunday darslar o‘quvchilar xotirasida uzoq saqlanib qoladi va ularning nutq madaniyatini o‘stirish hamda dunyoqarashini kengaytirishdagi qiymati ham benihoyadir. Darslarda integrativ

yondashuvdan foydalanishning mazmuni darsda bir butunlikda ishlash, dars jarayoniga jalb etish, birgalikdagi faoliyat, anglamoq degan fikrlar bilan asoslanadi. Integrativ yondashuvga asoslangan ta’lim metodlaridan foydalanish bir qancha fanlarni o‘qitishda va o‘rganishda qo‘llanilmoqda. Jumladan, maktablarda xorijiy tillarni hamda ona tili fanlarini bog‘ lab o‘qitish bilan o‘quvchilarning ushbu fanlarga bo‘lgan qiziqishi saqlab qolinadi va hatto qiziqishlarini oshirish mumkin. Integrativ yondashuvli o‘qitish turida olib boriladigan darsda nazarda tutuilishi lozim bo‘lgan kerakli tomonlaridan biri didaktik xarakterga ega bo‘lgan materiallardan foydalanishdir. Til o‘rganishda integrativ yondashuvga xos bo‘lgan tadqiqotlarning dars jarayonida qollanilishi, til o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqni oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Tilni o‘zlashtirishga qaratilgan, didaktik talablarga javob bera oladigan manbalardan foydalanish orqali o‘quvchilar o‘rganayotgan hudud to‘g‘risida keng ma’lumotga ega bo‘ladilar. Bu esa o‘qitishning integrallashgan usullaridan biridir. Integrativ yondashuvli darsda o‘quvchida kommunikativlik xususiyatlarni kengaytiriladi. Bunday vaziyatlarda ular suhbatdoshlarning o‘zlari va yon atrofdagilari bilan o‘zaro munosabatga kirisha olishlari yengillashadi.

San’at va madaniyatga xos bo‘lgan manbalar ta’lim oluvchilarni darsda leksik va grammatik qobiliyatlarini o‘stirish uchun ichki xoxishni keltirib chiqaradi. Shunday ekan, olib boriladigan izlanishlar, til o‘rganishga bo‘lgan istakni qondirish va uni o‘zlashtirishga bo‘lgan talabni kuchaytirish uchun xizmat qilishi lozim. Biz buni quyidagicha ifoda etamiz:

1) tilni o‘rganishga bo‘lgan talab;
2) tili o‘rganilayotgan mamlakat haqida umumiy tushunchalarga ega bo‘lish;
3) til o‘rganuvchilarning faollik darajasi;
4) barcha o‘rganilgan ma’lumotlar tahlili.

Fikrimizni yana madaniy-ma’naviy meroslarimizga qaratgan holda davom ettiramiz. Toshkentdagi Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi ekopozitsiyasi o‘rta maktab o‘qitish dasturi talablariga to‘liq javob beradi. Muzeyda yozuvchi hayoti va ijodiga doir mavzularni boy daliliy materiallar asosida o‘rganish mumkin. O‘quvchilar muzeyda o‘qituvchi rahbarligida ona tilida monografik mavzuda dars tinglashdan tashqari xalqimizning boy adabiy merosi, san’ati va madaniyati namunalari bilan ham tanishadilar. O‘qituvchi darsni muzeyda o‘tishni rejalashtirib oladi. Sinf va maktabdan tashqari ishlar, yozuvchi hayoti va ijodi to‘g‘risida konferensiyalar, ijodiy uchrashuvlar o‘tkazishga, uning natijasini umumlashtirishga alohida e’tibor beradi. Sinfdan tashqari o‘rgangan ma’lumotlarini boshqa fanlarda o‘rgangan bilim-ko‘nikma va malakalariga asoslangan holda so‘z va so‘z birikmalarini tarjima qiladilar.

Qarangki, o‘quvchilar bir vaqtning o‘zida ona tilida, ingliz tilida, adabiyot va qolaversa geografik bilimlarini kengaytiradilar. Biz buyuk soirlar, mutafakkirlar ijodi haqida o‘quvchiarni keng qamrovli tushunchalarga ega bo‘lishi uchun quyida AlisherNavoiyning hayoti va ijodini o‘rganishda muzey materiallaridan foydalanish xususida fikr yuritamiz. Shoirning hayoti va ijodi haqida o‘quvchilarga ma’lumot berilganda muzeyning sayohatni olib boruvchi suhbati yaxshi natija beradi: Bunda u materialni eksponantlar asosida izchillik bilan monografik tarzda ma’ruza qilib beradi. O‘qituvchining o‘zi ham ko‘rgazmali metod asosida materiallarni o‘quvchilarga

yetkazishi mumkin. Bunday paytda o‘qituvchi muzey zallariga qo‘yilgan eksponatlar materiallardan yaxshi xabardor bo‘lishi kerak, yoki bir necha kun oldin kelib yozuvchi haqidagi materiallar bilan yaxshi tanishib oladi. Darsning mazmunli bo‘lishi uchun o‘qituvchi quyidagi tadbirlarni amalga oshirishi kerak:

1. Darsning mavzusini aniqlash.

2. Mavzuning mazmuni, mohiyatini ochib beradigan aniq misollar, ko‘rgazma materiallar dalillar tanlash.

3. Qo‘shimcha materiallardan ijodiy foydalanish.

4. Darsda qo‘llanadigan metod va usullarni belgilash.

5. O‘quvchilar bilan olib boriladigan suhbatning mazmuni va maqsadini aniqlash.

6. Tasviriy san’at asarlarini sharhlash.

Muzeyning ikkinchi qavati Alisher Navoiy ijodiga bag‘ishlangan.Unda shoir yashagan davr, uning bolalik o‘smirlik,yillari, ijodining boshlanishi va kamoloti asarlari ularga ishlangan miniaturalar shuningdek, ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga bag‘ishlangan eksponatlar, qo‘lyozma va kitoblar o‘rin olgan. Ular orasida turli davrlarning mashhur xattotlari chizgan sharqning mashhur rassomlari miniatura tarzida ishlagan noyob qo‘lyozmalar, turli rassomlar yaratgan portretlar, grafik ishlar namoyish etilgan.

Muzeyda o‘tiladigan dars mashg‘ulotidan oldin o‘qituvchi “Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyati” mavzuidagi rejani e’lon qiladi, so‘ngra o‘quvchilar ko‘rgazmalar zaliga taklif etiladi. Zalda XV asrga oid ko‘rgazmalar, Alisherning yoshligi, XV- XVI asrlarda madaniy markaz bo‘lgan Hirot shahrining umumiy tasviri, Alisher Navoiy yashagan, o‘qigan, ishlagan shaharlar karta sxemasi, madrasa o‘quvchisi-Alisherning mutolaa qilayotgan holati tasviri, Navoiy haqida zamondoshlari aytgan fikrlar, Navoiyning ular haqidagi aytgan fikrlari, yozilgan manbalarnamoyish qilingan. O‘qituvchi Alisher Navoiy yashagan davrni qisqacha tasvirlaydi. Bunda: asosan Navoiy davrining muhim xususiyatlari ochib beriladi. So‘ng Navoiyning bolaligi, maktabda o‘qiyotgan davri aks etgan rasmlar asosida shoirning tarjimai holi haqidagi suhbat davom ettiriladi.

O‘qituvchi Navoiy hayoti va ijodini muzey jihozlari asosida tushuntirar ekan, maktab ko‘rgazmalari, tasviriy san’at asarlari va M. Mirfayozovning Alisher Navoiy haqidagi albomidan unumli foydalanish mumkin.

Ushbu darsning oxirida, muzey eksponantlari, kuzatishlari asosida “Alisher Navoiyning bolalik va o‘smirlik davri”, “Navoiy Samarqandda, “Navoiy qurilishda”, “Navoiy xalq g‘amxo‘ri”, “Navoiy tasviri” kabi mavzular yuzasidan uyda insho yozib kelish topshiriladi. Bunday vaziyatlarda til o‘rganish bilan adabiyot va texnologiya fanining bog‘lanishi sezilarli darajada namoyon bo‘ladi. Chunki adabiy asarlarda mehnat tarbiyasi va mehnatsevarlik g‘oyalari ufurib turadi. O‘quvchilarga kitob qo‘yib o‘qish uchun mo‘ljallangan lavh haqida ma’lumot berish bilan bevosita Nizomiy, Al-Xorazmiy, Abduraxmon Jomiy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Muqimiy, Furqat kabi allomalarimizning ijodiy faoliyatlariga to‘xtalib, ular mana shu moslamadan, ya’ni lavhdan foydalanib kitob mutoala qilganliklarini aytib o‘tish o‘rinlidir. Shu o‘rinda xalq og‘zaki ijodining ham o‘rni beqiyosdir. Bu o‘rinda quyidagi xalq maqollarini keltirish o‘rinlidir: “Yetti o‘lchab bir kes”, “Rejasiz ish-qolipsiz g‘isht”, “Sanamay sakkiz dema” va boshqalar. Uyda o‘qish uchun badiiy asarlar o‘quvchilarga tavsiya qilishlari natijalarni tekshirib borishlari orqali

ulardan mehnatga muhabbat, hurmat tuyg‘ularini o‘stirish, mehnatga ongli munosabatda bo‘lish, ijodkorlikka intilish kabi xislatlar tarkib topishiga yordam berishlari darkor.

Til o‘rganishda har bir fanning o‘z o‘rni bor.Barcha fanlar qatorida maktabda tasviriy san’at asarlaridan foydalanish ham o‘quvchilarni go‘zallikni his qilish ruhida, san’at asarlarining o‘ziga xos nozik jihatlarini, g‘oyaviy-estetik mazmunini yoshlikdan boshlab tushuna bilish ruhida tarbiyalashda muhim omil bo‘ladi. Bu xil darslar o‘quvchilarda san’at turlarining bir-biri bilan bog‘liqligi, xususiyatlarga ega ekanligi xususida ham ma’lum tushuncha hosil qilishga yordam beradi.Barcha fanlardan olingan bilimlarni mustahkamlash uchun o‘qituvchi o‘z o‘quvchilari bilan yana bir kun muzeyga sayohat uyushtirishni reja qiladi. Muzeyda “Alisher Navoiyning hayoti va ijodini o‘rganish” mavzusini o‘tishga tayyorgarlik ko‘radi.

Alisher Navoiy hayoti va ijodiga oid rassomlar ishlagan Alisher Navoiy rasmlaridan va M. Mirfayozovning “Maktabda A.Navoiy hayoti va ijodini o‘rganish” nomli rasmli albomidan, Shoir hayotiga oid rasmli bukletlardan foydalanilgan holda o‘zbek rassomlaridan A.Abdullayev, Ch.Axmarov, V.Kuznechov, A.Ro‘ziboyevlar mo‘yqalamiga oid portretlar, marhum professor H.Sulaymonov tomonidan tuzilgan “Alisher Navoiy asarlariga ishlangan miniaturalar” albomdan, Navoiy ijodiga mos miniaturalar namoyish etiladi. Ayniqsa, bu tadqiqot darsi o‘quvchilarda katta qiziqish uyg‘otadi. O‘qituvchi ham muzey eksponantlari bilan tanishib, uni tushuntirish metod va usullarini ishlab chiqadi:

O‘quvchilar bilan bo‘ladigan suhbatning mazmuni va maqsadini aniqlash:

a). Aisher Navoiy hayoti va ijodiga oid qanday tasviriy san’at asarlarini bilasiz?

b). Miniatura haqida nimalarni sharhlay olasiz?

s). Qaysi tasviriy san’at asarlarini sharhlay olasiz?

Biz o‘ylaymizki, ushbu savollarga o‘quvchilar o‘z fikrlaridan kelib chiqqan holatda javob qiladilar. Fanlarning integrallashuvini his qila olgan, ya’ni adabiyot, tasviriy san’at asarlari yuzasidan alohida tushunchaga ega bo‘lgan o‘quvchiar esa ushbu savollarga to‘liq javob berishga harakat qiladilar. Tasviriy san’at asarlarini sharhlash. O‘qituvchi Alisher Navoiy tarjimai holini kirish so‘zi bilan boshlaydi. XX asr adabiyotida yuqori cho‘qqida turganligini, adabiy, ijtimoiy-siyosiy sohalaridagi faoliyati, musiqa, tasviriy san’at va me’morchilikni g‘oyat sevganligini, uning tarbiyasida mashhur rassomlar, xattotlar, me’morlar yetishib chiqqanligini ta’kidlaydi va o‘quvchilar fikrini Hirot shahri ko‘rinishi aks etgan suratga qaratadi. Ular ko‘z oldida keng ufqlarga tutashib ketgan ulkan shahar namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi Navoiyning 1441-yil 9-fevralda ana shu shaharda tug‘ilganigini aks ettiruvchi illyustrasiyalarni havola etmasdan, Abdulhaq Abdullayevning “Navoiy” portretini ko‘rsatdi. Bolalar keng Hirot ko‘chalari fonida tasvirlangan Navoiy siymosini darrov taniydilar. O‘qituvchi o‘quvchilar diqqatini mashhur musavvir Kamoliddin Behzodning shogirdi

Mahmud Muzaxxib XVI asr mo‘yqalamiga mansub Alisher Navoiy portretiga tortadi. Shundan so‘ng o‘qituvchi A.Abdullayevning “Navoiy” portretini shunday sharhlaydi: “O‘quvchilar, diqqat bilan kuzatsak, uning mana siz hozir ko‘rgan, ya’ni Mahmud Muzahhib tasvirlangan Navoiy siymosiga juda o‘xshashligini ko‘ramiz. Uning yuz ifodasida o‘ychanlik, teranlik, donolik sezilib turibdi. Rassomning mahorati shundaki, uning buyukligini, ijodiy imkoniyatlari kengligini ko‘rsatish maqsadida uni

bepoyon Hirot ufqi fonida butun gavdasi bilan tasvirlagan. Qarang-a, u pastqam uylar, baland madrasalar o‘sha Hirot ko‘chalaridan bizga yaqinlashib kelayotgandek, yonimizdan mas’um o‘tib borayotgandek tuyuladi. U qoshlarini chimirib, diqqat bilan oldinga tikilib nimanidur bizga aytmoqchidek…”“So‘ngra o‘qituvchi yana Mahmud Muzahhibning portreti XVI asrga mansubligini,uning asl nusxasi Eronning Mashhad shahridagi Ostoni Qurs kutubxonasida saqlanayotganini aytadi. So‘ngra o‘qituvchi shoirning yoshlik yillari haqida gapirib rassom “Nazarovning Ali Yazdiy bilan uchrashuvi”, B. Boboyevning “Navoiy va Husayn Boyqaro maktabda “kabi rasmlarini sharhlaydi. O‘qituvchi Navoiy va Jomiy o‘rtasidagi do‘stlik va ijodiy hamkorlikni yoritishi maqsadida Chingiz Ahmarovning “Navoiy va Jomiy” miniaturada yam-yashil tepalik va gullar, daraxt fonida mehrobli bino peshtoqi tasvirlangan, ikki tabaqali eshik oldida gilamlar ustida ikki kishi-Navoiy va Jomiy suhbatlashib o‘tiribdi.

Ch.Axmarov tasviri san’atkorlik bilan ishlangan. Xontaxta ustida qalamdon, kitob, ruchka yozuv qog‘ozlari.Xona devorlari chiroyli o‘ymakorlik naqshlari bilan bezatilgan, kitoblar to‘la javon. Navoiy sariq to‘n ustidan yengsiz chakmon kiygan, oq salla o‘ragan ixcham oq soqoli o‘ziga yarashgan. Qo‘lidagi kitobni zavq-shavq bilan ustozi Jomiyga o‘qib beryapti, yuz-ko‘zlarida qat’iylik. Oppoq soqolli nuroniy Jomiy esa mamnuniyat bilan Navoiy so‘zlarini tinglayapti. Ko‘zlarida Navoiyga hurmat, mehribonlik qoniqish hislari balqib turibdi. O‘qituvchi Navoiyning Astraboddagi hayoti haqida gapirib, shoirning his-tuyg‘usi, ona shahri Hirotni qo‘msaganini qayd etib, bolalarga “Zanjirbad she’r” rasmini ko‘rsatadi. Uyg‘un va Izzat sultonning “Alisher Navoiy” drammasidan olingan “Zanjirband she’r, yengaman der” degan jumlalar suhbat mavzusiga asos bo‘ladi. O‘quvchilar rasm mazmuni haqida fikr mulohazalarini aytadilar. O‘qituvchi rasmda Navoiy o‘zining ramziy suratda kuchli she’r Astrabodga Husayn Boyqaro tomonidan zanjirlab tashlanganini aytadi. Shundan keyin shu rasmga qarab sher rasmini chizish,rasm mazmuniga mos jumlalarni yozishni topshiriq sifatida beriladi.

O‘qituvchi dars yakunida AlisherNavoiy hayoti va ijodini nihoyatda murakkab va ko‘p qirraligini aytib o‘tadi. “Alisher Navoiyda o‘zbek tilida «Xamsa» besh doston yaratish maqsadi yoshligidan bo‘lgan. Bu maqsadini 1483-1485-yillarda amalga oshirdi. Asar o‘zbek adabiyoti shuhratini olamga yoyib, jahon adabiyotining durdonalaridan biriga aylandi”. O‘qituvchilar tomonidan muzeylarda tashkil etiladigan bunday sayohat darslari o‘quvchilar bilimini mustahkamlashda, o‘quvchilar ongiga fanlararo bog‘liqlikni yetkazib berishda katta ahamiyat kasb etadi. Muzeydagi sayohat darsini mustahkamlashda, o‘quvchilarni qo‘shimcha adabiyotlardan, qo‘llanmalardan xabardor bo‘lishi uchun e’tiboringizni 7-sinf ingliz tili darsligining 9-“Travelling” nomli bo‘limida berilgan The Natural History Museum in London kichik matnini ko‘rib chiqishga qaratamiz. O‘quvchilarning muzeylar haqidagi tasavvurini ushbu mavzu orqali rivojlantiramiz.

So‘z birikmalari tuzishda o‘quvchilar ona tili darsidan olgan bilimlariga tayanadilar. O‘quvchilar shu jarayonda o‘lkamiz tabiati bilan tanishish bilan birga, xalqimizning o‘tmishi va bugungi kuniga nazar tashlaydilar, qolaversa fikrlay olish qobiliyatlari yanada rivojlanadi, til bilish orqali tarixni organadilar, ma’naviy va madaniy meroslarimizni asrab avaylash tuyg‘ulari kamol topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jalolov J. Methods of teaching foreign languages. – Tashkent: “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.
2. Qosimova K, Matchonov S, G‘ulomova X, Yo‘ldosheva Sh, Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: Noshir, 2009.
3. Ziyo istagan qalblar uchun-A.Navoiy ziyouz.com.
4. Образование:прошлое,настоящее и будущее:материалы IV Междунар. науч.конф. (г.Краснодар,февраль 2018). Краснодар:Новация,2018. –Iv
5. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. – Tashkent: “O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodi uyi, 2018.
6. Roberts R.Aims and Objectives in Language Teaching. –“English Language Teaching”, v.XXVI, No.

LINGVISTIK KOMPETENSIYANING TA’LIM JARAYONIDA TUTGAN O‘RNI

Yusufova Dilrabo,
DTIYAO‘ va MOM QR
hududiy bo‘linmasi uslubchisi

Annotatsiya. Maqolada lingvistik kompetensiyaning mohiyatiga, uning bugungi kundagi talqiniga e’tibor qaratilgan. Dunyo mamlakatlari va O‘zbekistonning ta’lim jarayonlarida lingvistik kompetensiyaning zaruriyati solishtirilgan.

Kalit so‘zlar: kompetentlik, kompetensiya, pedagog, kommunikativ, nutq madaniyati, grammatika.

Hozirgi kunda til o‘qitishda kompetentlik, kompetensiyaviy terminlari faol qo‘llanmoqda. Kadrlar, jumladan, har qanday yosh kadr kasbiy kompetentlikka ega bo‘lishi lozim. Bu – zamon talabi. Bo‘lajak pedagog, ayniqsa, filolog-o‘qituvchi uchun kasbiy layoqatlilikning bir qirrasi lingvistik kompetentlikdir. Shu ma’noda har bir mutaxassis, bo‘lajak filolog-pedagog kasbiy kompetensiya doirasida lingvistik kompetentlikka ega bo‘lishi lozim. Asli lingvistik kompetensiya nima?

Zamonaviy tilshunoslikda lingvistik kompetensiya bu - til tizimi, nutqda til birliklarining ishlash qoidalari, shuningdek, ushbu bilimlar yordamida boshqa shaxsning fikrlarini tushunish va to‘g‘ri talqin qilish va o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma ravishda ifodalash qobiliyatidir. Tilshunoslik - kommunikativ vakolatning tarkibiy qismlaridan biri sifatida qaraladi.

Lingvistik kompetensiya barcha til darajasida til tizimi haqida bilimga ega bo‘lishni nazarda tutadi: fonetik, morfemik, leksik, uslubiy, sintaktik. Lingvistik vakolatlar til faoliyatini tartibga soluvchi qoidalar majmuini amalda qo‘llash qobiliyatiga asoslanadi[1]. Bu borada quyidagi turlarga ajratiladi:

Sintaktik qobiliyat	og‘zaki va yozma nutqni grammatik jihatdan to‘g‘ri shakllantirish qobiliyati;
Semantik qobiliyat	til ifodalarini talqin qilish qoidalarini qo‘llash qobiliyatidir;
Pragmatik qobiliyat	muloqotda til ifodalarini to‘g‘ri ishlatish qobiliyati.

Buni yanada soddaroq qilib, mutaxassis til bilimining mukammalligi va yetukligi, desak ham bo‘ladi.

2020-yilda Xalq ta’limi vazirligi tomonidan Ona tili o‘qituvchilari uchun tavsiya etilgan metodik qo‘llanmada lingvistik kompetensiyani quyidagilarga ajratgan:

✓ Leksika;
✓ uslubiyat;
✓ nutq madaniyati;
✓ tinish belgilari. [3:6-7]

Leksika – so‘zlarning ko‘chma ma’nosi, uslubiy xususiyatlari va atamalarni farqlay oladi; ulardan nutqda to‘g‘ri foydalanadi. O‘zbek tili leksikasining rivojlanishi, boyishi manbalarini izohlay oladi.

Nutq madaniyati – o‘zbek tilining bugungi taraqqiyotini izohlaydi. Nutqiy muloqot va nutq madaniyatini, madaniy nutq va uni shakllantiradigan asosiy sifatlarni, nutqning to‘g‘riligi, aniqligi, mantiqiyligi, sofligi, boyligi, jo‘yaliligi, ifodaliligini farqlaydi va yozma nutq ifodasida o‘rinli foydalana oladi.

Pedagogning lingvistik kompetensiyasi ularning til bo‘yicha olgan bilimlari, bu bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash ko‘nikmasi va nutq hosil qilish malakasidir. O‘quvchi yoki talabalarga til qurilishi bo‘yicha berilgan bilimlar og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishga qaratilsa, bu ularning lingvistik kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qilgan bo‘ladi. Og‘zaki va yozma nutq mukammallashuvi uchun nafi bo‘lmagan bilimlar lingvistik kompetensiya tarkibida kirmaydi. Umuman olganda, amaliyot bilan bog‘lanmaydigan, nutqiy malaka hosil qilmaydigan lingvistik bilimlarni berish uchun sarflangan mablag‘ va vaqt o‘zini oqlamaydi.

Ushbu fikrlarga to‘liq qo‘shilgan holda, pedagog leksik qoidalarni, uslubiy tomonlarni, tinish belgilari tartibini va asosiysi nutq madaniyatini mukammal darajada yoki kamida yetarli darajada bilsa, o‘qituvchida lingvistik kompetensiya shakllangan, deya olamiz. Shu bilan birga, ushbu bilimlarni dars jarayonlarida o‘quvchi yoki talabalarga ko‘rsatib, ularni shu tartibda o‘qita olsa, demak u lingvistik kompetentlikka egaligini ham ko‘rsatgan bo‘ladi.

Ta’lim sohasida jahon tajribasini kuzatadigan bo‘lsak, Avstriyada shaxsni rivojlantirishga yo‘naltirilgan kompetensiyalar oldingi o‘rinlarda turadi. Uning ichida lingvistik kompetensiya alohida ahamiyat kasb etadi ekan. Ular “Til va kommunikativlik” yo‘nalishida boshqalarni tushunish, kirishimlilik, guruh bilan ishlay olish kabi maqsadlarni ilgari surishadi[4:33].

Rossiya ta’lim tizimida kompetensiyani rivojlantirishning bir necha turlari mavjud. Jumladan, metapredmet kompetensiya bu – “predmetdan oldin”, “predmet ustida” degan ma’noni bildiradi. Unga ko‘ra, aynan pedagoglar ma’lum bir turdagi layoqatlarga,

qobiliyatlarga, malakalarga ega bo‘lishi kerak. Masalan, o‘z fikrini ravon, tushunarli holda og‘zaki va yozma tarzda bayon qila olishi, zaruriy axborotlarni izlab topishi va undan foydalanish va h.k xususiyatlari ega bo‘lishi talab etiladi[4:34].

O‘zbekistonga hali endi kirib kelgan ushbu atama to‘laligicha o‘zining ma’nosini ochib bera olmayapti. Aynan lingvistik kompetensiya degan paytimizda ko‘pchilikning hayoliga grammatikaga asoslangan ta’lim tizimi keladi. Afsuski, bu bir tomonlama qarash. Lingvistik kompetensiyaning poydevori grammatikaga qurilgan bo‘lsa ham uning kompetentligi ushbu grammatikani nutq va yozuvda to‘g‘ri qo‘llay olishidadir. Ta’limga lingvistik kompetensiyani joriy etilishi kelajakda, albatta o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatishga ishonchimiz komil.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Краснощекова Г.А. Лингвистическая компетенция – основа для формирования профессионально ориентированной коммуникативной компетенции. – Москва, 2017.

2. Нурмонов А. Ўзбек тилининг паралингвистик воситалари ҳақида. – Андижон, 1980.

3. Ona tili. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma.. – Toshkent, 2020. –B.6-7.

4. Usarov Jabbor Eshbekovich. Tayanch va fanga oid kompetensiyalar asosida ta’lim mazmunini takomillashtirish va o‘quvchilar kompetentligini rivojlantirish. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Toshkent, 2019. –B.33-34.

MUNDARIJA

SO‘ZBOSHI **S.Shukurov**	**4**

1-SHO‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGINING NAZARIY MASALALARI

OILAVIY NUTQIY ETIKET TADQIQINING DOLZARB MASALALARI **Muminov Sidiqjon**	**8**
OLFAKTOR PARADIGMA VA GNOSEOLOGIK STRUKTURA **Xakimov Muhammadxon, Burxanova Mashxuraxon**	**14**
MA’RIFATPARVAR HOJI MUINNING TILGA MUNOSABATI **Axmedova Shoira**	**17**
Tuya LMGi asosida shakllangan maqollarning lingvokulturologik tadqiqi (“Tuya manzil ko‘zlar, eshak oyog‘ini ostini” maqoli asosida) **Jo‘rayeva Bibish, Jumayeva Marjona**	**20**
TAQLID SO‘ZLARDA OLAMNING LISONIY MANZARASINING AKS ETISHI **Saparniyazova Muyassar, Süveyda Şahin**	**22**
SO‘ROQ GAPLAR DIALOGIZATSIYA VOSITASI SIFATIDA **Rahmatov Mardon**	**24**
“QO‘CHQOR” VA “QO‘ZI” ZOONIMLARI ASOSIDA SHAKLLANGAN MAQOLLARNING SEMANTIK TAHLILI **Jo‘rayeva Bibish, Sharipova Maftuna**	**29**
TIBBIY DISKURSDA OHANG VA SUKUT **Yuldasheva Dilorom**	**33**
“OLTUN YORUG‘” LEKSIKASINING LINGVOESTETIK XUSUSIYATLARI **Kilichov Nazarbay**	**38**
O‘ZBEK TILIDA TEOMORFIK METAFORALAR VA ULARNING BADIIY MATNDAGI O‘RNI **Ibragimov Xayrulla**	**44**
T.QAYÍPBERGENOVTÍŃ «QARAQALPAQ DÁSTANÍ» TRILOGIYASÍNDAǴÍ UNAMSÍZ SEZIMDI BILDIRETUǴIN FEYIL FRAZEOLOGIZMLER **Tańirbergenov Jenisbay**	**49**
“BOBURNOMA”DAGI IZOFIY BIRIKMALARNING ASLIYAT BILAN MUTANOSIBLIGI **Amonov Muxtorjon**	**53**

MILLIY KIYIM-KECHAK NOMLARINING FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA QO‘LLANILISHI **Jumayeva Zubayda**	**58**
ABDULLA QAHHOR ASARLARIDA QO‘LLANILGAN IBORALARNING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI **Babadjanov Mansurbek, Sadullayeva Shaxida**	**61**
PARANTEZ BIRLIKLARNING SEMANTIK-STILISTIK, FUNKSIONAL GRAMMATIK XUSUSIYATLARI (Erkin A’zam qissalari asosida) **Babadjanov Mansurbek, Fayzulloyev Farrux**	**65**
HAYVONLAR BILAN BOG‘LIQ O‘XSHATISHLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI (“Alpomish” dostoni misolida) **Ashurov Dilmurod**	**68**
BO‘YIN ISHTIROKIDAGI PARALINGVIZM VA FRAZEOLOGIZMLAR **Barotova Muhiba, Jo‘rayeva Bibish**	**71**
FEMINISTLIK ÓZINE TÁNLIKTI AŃLATÍWSHÍ LINGVISTIKALÍQ QURALLAR **Rzamuratova Zlixa**	**74**
IKKI VA UNDAN ORTIQ A’ZO NOMLARI ASOSIDAGI PARALINGVIZMLAR TAHLILI **Barotova Muhiba**	**76**
TIL BIRLIKLARINING LINGVOPOETIK TAHLILIGA DOIR **To‘ychiyev Abdurashid**	**80**
DOSTONLAR MATNIDAGI SODDA VA MURAKKAB METAFORALARNING LISONIY TABIATI **Xamdamova Xanifaxon**	**86**
O‘ZBEK TILIDA KUCHAYTIRISH MA’NOSINING IFODALANISHI **Rahmatova Hulkar**	**89**
TOG‘AY MUROD ASARLARIDA TEONIM KOMPONENTLI METAFORALARNING KOGNITIV TADQIQI **Xolnazarov Umid**	**94**
Tuya LMGi asosida shakllangan maqollarning lingvokulturologik tadqiqi (“Tuya” hamda “Igna” detallari qatnashgan maqollar asosida) **Gadoyeva Qunduz, Jumayeva Marjona**	**99**
O‘XSHATISHLAR VA MILLIY-MADANIY KONNOTATSIYA (TOHIR MALIKNING “SHAYTANAT” QISSASI MISOLIDA) **Turakulova Umidaxon**	**103**
JAHON TILSHUNOSLIGIDA BOLALAR NUTQINING O‘RGANILISHI **Yarashova Nasiba**	**108**

2-SHO‘BA. O‘ZBEK ALIFBOSI VA IMLOSI MUAMMOLARI

“CHIG‘ATOY GURUNGI” VA IMLO **Ashirboyev Samixon, Inomjon Azimov**	**112**
O‘ZLASHMA SO‘ZLAR IMLOSINI BELGILASH MUAMMOLARIGA DOIR **Bahriddinova Bashorat, Xidirova Gavhar**	**117**
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TIL SIYOSATI VA LISONIY MUHITIDA BAG‘RIKENGLIK HAMDA MILLATPARVARLIK **Uluqov Nosirjon**	**120**
IMLO QOIDASI – ADABIY TIL FOYDASI **Jomonov Ravshan**	**123**
QARAQALPAQSTANDAǴÍ TIL SIYASATÍ: MASHQALA HÁM SHESHIMLER **Babadjanov Farhod, Dabılov Perdegaliy**	**127**
SAMARQAND SHAHRI O‘ZBEK SHEVALARIDAGI PARONIM SO‘ZLARNING TALAFFUZI VA IMLOSI **Tillabayeva Zilola**	**131**
O‘ZBEK LOTIN ALIFBOSI VA IMLOSI MUAMMOLARIGA DOIR AYRIM FIKR-MULOHAZALAR **Qudratov G‘ayratjon**	**135**
AKADEMIK YOZUV VA UNI O‘QITISHDAGI MUAMMOLAR **Abdiyeva Mohinur**	**139**

3-SHO‘BA. DAVLAT TILIDA ISH YURITISH MASALALARI

MILLAT HAMIYATINING MUNTAZAM HIMOYATI **Mahmudov Nizomiddin**	**144**
DAVLAT TILIGA OID NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR TAHLILI **Ro‘ziyev Zafar**	**149**
GLOBALLASHUV JARAYONLARIDA DAVLAT TILINING O‘RNI **Sobirov Abdulhay**	**153**
AJDODLARDAN MEROS ONA TILI BU, AVLODLAR-CHUN E’ZOZ ONA TILI BU **Jo‘rayeva Bibish**	**158**
TIL VA MADANIYAT MUSHTARAKLIGI XUSUSIDA **Kazakov Ilhom**	**163**
TIL BOR – MILLAT BOR **Ro‘zimboyev Sarvar**	**166**
XI-XIII ASRLARDA TURKIY TILDA ISH YURITISH **Sadinova Nafisa**	**172**

ONA TILIMIZ SOFLIGI TIL TARAQQIYOTINI BELGILAYDI **Boboyorov O‘rinboy**	**174**
TIL – INSON XAZINASINING NODIR MEROSI **Abduvaxobova Dildora**	**178**
NUTQ – MANTIQIY FIKRLASH MAHSULI **Tuyeva Zulfiya**	**182**
DAVLAT TILIGA E’TIBOR – ONA VATANGA BO‘LGAN HURMAT NAMUNASI **Islomova Sojida**	**187**
ONA TILIMIZ ZARVARI **Qo‘ldosheva Nazokat**	**190**
TILSHUNOSLIKNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI **Anorboyzoda Feruza**	**193**
MA’MURIY-BOSHQARUV FAOLIYATIDA ISH YURITISH HUJJATLARINI MAVZUIY GURUHLARGA AJRATISH **Saidov O‘lmas**	**197**

4-SHO‘BA. AMALIY TILSHUNOSLIK MASALALARI

SO‘Z SEHRI **Yo‘ldoshev Ibrohim**	**200**
XATBOSHINING NUTQ BIRLIGI SIFATIDAGI TAVSIFI VA XATBOSHI SATHI XUSUSIDA **Xayrullayev Xurshidjon, Zayniyeva Madina**	**204**
SHUKUR XOLMIRZAEVNING BADIIY MATNDA SO‘ZDAN FOYDALANISH MAHORATI **Hamidova Muhayyoxon**	**206**
O‘ZBEK ISMLARI TADQIQIGA DOIR **Saparniyazova Muyassar, Mahmudov Uchqun**	**212**
ONA TILI GO‘ZALLIGINI KO‘RSATUVCHI HIKMATLI SO‘ZLAR VA MAQOLLARDA TAGMA’NO IFODALANISHINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI TADQIQI **Rahimov Usmonjon**	**216**
MAMLAKATIMIZDA PESHLAVHALARNING TARIXIY TARAQQIYOTI, SHAKLLANISHI VA ULARNI VUJUDGA KELTIRUVCHI OMILLAR **Chiniqulov Nurmurod**	**220**
NOM YARATISHGA ASSOTSIATIV YONDASHUV **Saparniyazova Muyassar, Sabirova Muxlisa**	**225**
O‘ZBEK TILIDA NOMLASH TIZIMI VA NEYMING XIZMATI **Bobojonov Farhod**	**227**

ARAB TILIDAN O‘ZLASHGAN ISMLARNING MUAMMOSINI YARATUVCHI OMILLAR **Kadirova Xurshida**	**231**
O‘ZBEK TILIDA SO‘Z BIRIKMALARINING MURAKKABLASHISH OMILLARI **Madaminov Abdurahmon**	**233**
T.QAYÍPBERGENOVTÍŃ «UYQÍSÍZ TÚNLER» POVESTINDE QOLLANÍLǴAN KELBETLIKLERDIŃ MÁNILIK TOPARLARÍ HAQQÍNDA **Seytkasımov Dauletnazar**	**238**
ADABIY ME’YOR EKOLINGVISTIK TAMOYIL SIFATIDA **Qo‘ldashev Nizomidin**	**241**
ShÍǴARMADA KÓRKEM TIL ÓZGESHELIGI HÁM LAKONIZM **Kamalova Dilfuza**	**245**
O‘ZBEK VA QORAQALPOQ XALQLARIDA FARZAND TUG‘ILISHI BILAN BOG‘LIQ TO‘Y MAROSIMLAR XUSUSIDA **Babadjanov Mansurbek, Almambetova Uldaulet**	**248**
BADIIY MATNGA LINGVOPOETIK YONDASHUV **Matnazarov Javlanbek**	**252**
BESH HARF MUAMMOSI **Begimov O‘ktam**	**255**
“RAQAMLI” VA “RAQAMLASHTIRISH” LEKSEMALARINING IJTIMOIY-SIYOSIY MATNLARDAGI SEMANTIKASI **Yokubbayeva Umida**	**260**
HALIMA XUDOYBERDIYEVA IJODIDA OKKAZIONAL EVFEMIZMLAR **Yusupova Dildora**	**264**
LINGVOKULTUROLOGIYADA KONSEPT TUSHUNCHASI: RIVOJLANISH TARIXI, TUZILISHI, TASNIFI **Barnoyeva Samarabonu**	**267**
DINIY MANBALAR ASOSIDA SHAKLLANGAN O‘ZBEK XALQ PAREMALARIDA “SABR” KONSEPTI **Mamanazarov Sunnat, Jo‘rayeva Bibish**	**270**
ERGASHTIRUVCHI BOG‘LOVCHILARNING FUNKSIONAL-STILISTIK XUSUSIYATLARI **Usmonov Aslam**	**273**
LINGVOPRAGMATIKANING TIL SATHLARI ARO MUNOSABATI **Ashirov Odilbek**	**277**
ABDULLA ORIPOV SHE’RLARIDA KOSMONIMLARNING IFODALANISHI **Saydazamova Munojot**	**280**

KORXONA VA TASHKILOTLAR NOMLARI ULARNING LISONIY TAHLILI **Ro‘ziyeva Maftuna**	**283**
TERMINLARNING QO‘SHMA VA JUFT USULLAR BILAN IFODALANISHI **Nasirdin Qarshiyev**	**285**

5-SHO‘BA. SOHA LUG‘ATLARINI TUZISH VA TERMINOLOGIYA MASALALARI

MILLIY TERMINOLOGIYAMIZ TARAQQIYOTI VA GALDAGI VAZIFALAR XUSUSIDA **Abdiyev Murodqosim**	**289**
TOPONIMIKA SOHASINI RIVOJLANTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR **Hamroyev G‘ofir**	**292**
“HIBAT UL-HAQOYIQ” DOSTONI LUG‘AT TARKIBIDAGI SUG‘DCHA O‘ZLASHMALAR **Sindorov Lutfulla**	**295**
QIZILTEPA TUMANI BA’ZI JOY NOMLARINING TAHLILI TAVSIFI **G‘aniyev Nurbek**	**297**
JOY NOMLARINING ETIMOLOGIYASI - MILLIY QADRIYATLARIMIZ, TARIXIMIZ VA MADANIYATIMIZ KO‘ZGUSIDIR **Abdullayev Akmal**	**305**
O‘ZBEK TILI SINONIMLARINING IZOHLI LUG‘ATIDA EVFEMIK VOSITALAR GRADUONIMIYASI **Turdimurodov Sirojiddin**	**311**
RABG‘UZIYNING “QISASI RABG‘UZIY”ASARIDA MINERALOGIYA TERMINLARINING O‘Z VA O‘ZLASHMA QATLAMI **Ernazarova Gulnoza**	**314**
O‘ZBEK TILIDAGI YANGI O‘ZLASHMALARNING O‘QUV IZOHLI LUG‘ATLARDA BERILISHI **Shukurov Otabek**	**317**
SURXONDARYO GIDRONIMLARINING TABIIY BELGI-XUSUSIYATLARI ASOSIDA NOMLANISHI **Majidova Shahnoza**	**322**
TERMIN TUSHUNCHASIGA OID NAZARIY QARASHLAR **Hojiyeva Minovvarxon**	**326**
MILLIY TOPONIMIKANING DOLZARB MUAMMOLARIGA DOIR **To‘ychiyev Abdurashid, Dexqonov Xasanboy**	**330**

SO‘X TUMANI TOPONIMLARINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI **Abbozov Oxunjon**	**335**
QO‘SHMA SO‘Z VA BIRIKMA SHAKLIDAGI TURIZM TERMINLARI **Boymanov Elyor**	**340**
O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA ZAMONAVIY LEKSIKANING SOHAGA DOIR GURUHLARINI TUZISH MASALALARI **Abdullayev Oxunjon**	**342**
QARAQALPAQSTAN TOPONIMLERI QURAMÍNDAǴÍ ORONIMIKALÍQ TERMINLER **Abishov Genjebay, Esbergenova Indira**	**345**
QARAQALPAQ TILINDE YURIDIKALÍQ TERMINLERDIŃ QURAMÍ BOYÍNSHA TÚRLERI **Allamuratov Nurlıbay**	**349**
ANTROPONIMLER INSAN ISKERLIGI MISALINDA **Daniyarova Zamira**	**352**
TERMINOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY ASOSLARI **Ubaydullayeva Umida**	**356**
ZAMONAVIY O‘ZBEK TILI GEMERONIMLARI XUSUSIDA **Otabek Yuldoshev**	**360**
GILAMCHILIK TERMINLARI SINONIMIYASI, VARIANTDORLIGI VA ANTONIMIYASI **Mansurova Dildora**	**365**
ZARAFSHON VODIYSI TOPONIMIK BIRLIKLARI TAHLILI **Jo‘rayev Shahriyor**	**368**

6-SHO‘BA. TA’LIM BOSQICHLARIDA DAVLAT TILINING O‘QITILISHI

TIL TA’LIMIDA SO‘ZNING O‘RNI **Yusupova Shohidaxon**	**372**
O‘QUVCHILAR SHAXSIY XUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA DAVLAT TILINING O‘RNI **Suyunov Husniddin**	**376**
UYG‘UR YOZUVI MAVZUSINI O‘QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH **Abduvaliyeva Dilnoza**	**380**
O‘QUVCHILARNING YOZMA SAVODXONLIGINI OSHIRISH OMILLARI **Rajapova Kumush**	**385**

ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISH **Sattorov Shokir**	**387**
MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALAR LUG‘AT BOYLIGINI YOSH BOSQISHLARIDA O‘STIRISH OMILLARI **Raxmatova Gulobod**	**389**
ONA TILI TA’LIMIDA IQTISODIY TARBIYA **Mamaziyoyeva Ozoda**	**394**
ONA TILI TA’LIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUV **Suyunova Hilola**	**397**
LINGVISTIK KOMPETENSIYANING TA’LIM JARAYONIDA TUTGAN O‘RNI **Yusufova Dilrabo**	**402**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi respublika ikkinchi ilmiy-amaliy anjumani materiallari

(Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Adadi 100 nusxa. Hajmi 15,5 b/t. Bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$
«Times New Roman» garniturasi. ofset usulida bosildi.
OOO “BOOKMANY PRINT” bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22 mavze, 17-b.

E-mail: bookmany_print@mail.ru
t.me/ Bookmanyprint +998 99 180 97 10